Insonning ovqatlanishi uning yoshi, jinsi va mexnat faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan holda turlicha bo‘lishi lozim. Kundalik ratsionda inson oqsil, uglevodlar, vitaminlar, mineral moddalar va boshqalarni iste’mol etishi lozim. Inson qanchalik turli-tuman oziqlansa, uning xayot faoliyati shunchalik faol, organizm esa shunchalik sog‘lom bo‘ladi. Ayniqsa har birimiz kundalik stresslar, depressiyalar, asab-psixologik zo‘riqishlar va toliqish muhitning salbiy ta’sirlariga uchraganimizda bunday oziqlanishning nechog‘lik muximligini anglaymiz.

Ta’kidlash joizki, inson organizmi maromida faoliyat ko‘rsatishi uchun oqsilga talab bir kunda uning vaznining har bir kilogrami uchun 0,7 gr dan kam bo‘lmasligi lozim.

Keyingi yillarda oziq-ovqat maxsulotlari va chorva uchun em ishlab chiqarishning jadallashishi soya doni etishtirishni ko‘paytirishni taqozo etmokda. Soya tarkibida to‘la qimmatli nodir oqsil mavjud bo‘lib, u oziqlik qimmati bo‘yicha xayvon oqsilidan qolishmaydi. Uning tarkibida noyob biologik faol moddalar, lesitin, xolin, A, V va Ye vitaminlari, makro va mikroelementlar va boshqa qimmatli moddalar mavjud. Soya tarkibida laktoza va xolesterin uchramaydi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, kalloriyasi va asosiy oziqlik va biologik faol moddalar tarkibi bo‘yicha ushbu maxsulot muqobil balanslangandir.

Soya juda qadimiy ekin hisoblanadi. Soya turlari va shakllarining xilma-xilligini o‘rganar ekan, olimlar uni asosan uchta markazda shakllangan deb hisoblashadilar: Janubiy-Sharqiy Osiyo, Avstraliya va Sharqiy Afrika. Ammo ko‘pgina olimlar o‘simlikning kelib chiqishi deb Xitoy markazini ko‘proq tan olishadi–Xitoy, Koreya, Hindiston, Yaponiya. Yevropa va AQShda soya 1712 yilda paydo bo‘lgan. Ko‘p asrlar davomida soya va uning mahsulotlari sharq mamlakatlari aholisi uchun asosiy oqsil manbasi sifatida xizmat qildi. Xitoyda soya 6-7 ming yil avval madaniylashtirilgan. U Yaponiya, Hindiston va Indoneziya, Vetnam va Osiyoning boshqa mamlakatlarida ham qadimdan ekiladi. Xitoydan Uzoq Sharqqa soya eramizdan 3 ming yil avval kirib borgan. Soya uchun Rossiyaning tabiiy-iqlim sharoitlari qulay bo‘lgan Amur viloyati, Xabarovsk va Primorsk o‘lkalarida bu ekin qadimdan etishtiriladi. Keyinchalik Gruziya, Ukraina, Kuban va Shimoliy Kavkazda etishtirila boshlangan.

Ma’lumki, oqsil taqchilligi muhim muammodir, uning etishmasligi ko‘pgina kasalliklarni keltirib chiqaradi. Oziq-ovqat maxsulotlari orasida soya salmog‘ini oshirish bilan nafaqat bu muammoni hal etish, balki tibbiy preparatlar iste’molini ham birmuncha kamaytirish mumkin.

Soyadan ishlab chiqariladigan asosiy mahsulotlar - bu soya uni va soya moyidir. Soya uni qandolatchilik mahsulotlari, to‘ldiruvchilar, go‘sht, sut, pishloq o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishda qo‘llaniladi. Moyi esa oziq-ovqatda, mayonez, margarin ishlab chiqarishda ishlatiladi. Ko‘pgina olimlar va ishlab chiqaruvchilar «soya - oziq-ovqat, em-xashak va kelajak» deyishadi. Soya yordamida to‘la qimmatli o‘simlik oqsili ishlab chiqarish muammosi hal etiladi. Soya etishtirish quyidagi maqsadlarni o‘z ichiga oladi:

Inson ozuqasini yaxshilash. Soya etishtiriladigan ko‘pgina mamlakatlarda oziq-ovqat sanoati uchun yagona oqsil manbai bo‘lib bormoqda. RTFA (Rossiya tibbiy fanlar akademiyasi) oziq-ovqat instituti ma’lumotiga ko‘ra soyadan tayyorlangan mahsulotlarni quyidagi kasalliklarda tavsiya etish mumkin: ateroskleroz, gipertoniya, yurak ishemiyasi, miokard-infarktni o‘kazgandan keyingi tiklanish davrida, o‘t pufagining surunkali yallig‘lanishi, qandli diabet, surunkali qabziyat, yog‘ bosish, tayanch-xarakat organlari kasalliklari (artrit, artroz), allergik kasalliklar.

Soya mahsulotlariga nisbatan biror cheklashlar yoki ularni iste’mol etmaslik ko‘rsatmalari hozirgacha yo‘q.

Chorva mahsuldorligini oshirish uchun hayvonlar soya emi bilan oziqlantirilganda ularning sutkalik vazn ortishi ikki barobarga ko‘payadi. Bunda 100 kg tirik vaznga erishish uchun oziqlantirish davri 10-15 kunga qisqaradi, mahsulot sifati esa ortadi. Yem-xashak maqsadida soyaning kunjarasi, shroti, uni va ko‘katidan foydalaniladi. Kunjaraning tarkibida 38,7% protein, 5,5% moy mavjud. Soya kunjarasi va uni buzoqlar ratsionida sut o‘rnini bosadi. 1 t soya donidan tarkibida 40% protein va 1,4% moy bo‘lganda 750-800 kg shrot olish mumkin, U chorva uchun qimmatli konsentratlangan em hisoblanadi.

Soyaning ko‘kati ham qimmatli em-xashakdir. Uning eng yuqori ozuqalik qimmati gullash va donning to‘lishi davrida yig‘ib olinganda kuzatiladi. Soya ko‘katining bir ozuqa birligiga 145-301gr protein to‘g‘ri keladi. Uning ko‘katida

karotin, oqsil va kalsiy miqdori boshoqli ekinlarnikiga nisbatan ancha ko‘p. Soya pichani ham qimmatli hisoblanadi: uning 1 kg da 0,47-0,54 ozyqa birligi, 110-150 g protein mavjud, Soya poxoli xam em-xashak sifatida ishlatilishi mumkin. Unda 2-4,8% protein, 1,5-2,9% moy mavjud.

Sanoat maxsulotlari ishlab chiqarish uchun soyaning oziq-ovqat sanoati va chorvachilikda ishlatilmaydigan chiqindilaridan turli maxsulotlar - qurilish plitalari, matolar, sun’iy o‘g‘itlar, soya moyi ishlab chiqarish qoldiqlaridan bo‘yoq, sovun, laq qora bo‘yoq, rezina maxsulotlari ishlab chiqarish mumkin.

Texnika ekini sifatida soya sovun, lak-bo‘yoq, to‘qimachiliq kimyo va sanoat tarmoqlarida qo‘llaniladi. Soyadan plastmassa, plyonka, linoleum, texnik moy va boshqa ko‘pgina maxsulotlar tayyorlanadi.

Soya etarlicha yuqori sifatga ega, ya’ni oqsil va moyga boy bo‘lsada, bugungi kunda O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligiga keng tadbiq etilmagan. Uning turli navlarida 57% gacha parxez oqsil, engil xazm bo‘luvchi to‘yinmagan moy va 30% gacha uglevodlari (asosan mono va disaxaridlar) mavjud, ularda biologik faol moddalar va vitaminlar: A, B_1, V_2, V_3, V_6, Ye, S, D, Q RR va boshqalar, shuningdek Mp, Mo, Mg, V, G‘e kabi mikroelementlar mavjud. Ularning barchasi kundalik xayotimiz va chorva ratsioni uchun juda muximdir.

XULOSA

Soya ildizining xususiyati va ularda tyganak bakteriyalarining mavjudligi ushbu o‘cimlikni azot o‘zlashtiradigan o‘cimliklar qatoriga kiritadi. Soya agrotexnik axamiyatga xam egadir. Dukkakli ekin sifatida soya tuproqni azot bilan boyitadi, bir yilda 1 ga da o‘rtacha 70-100 kg azot to‘planadi. Soyadan so‘ng dala begona o‘tlardan ancha tozalanadi, soya ko‘pgina ekinlar uchun juda yaxshi o‘tmishdosh bo‘la oladi. Bundan tashqari soya siderat ekin sifatida ham qo‘llaniladi.

Bundan tashqari mazkur yo‘l bilan hosil bo‘lgan biologik azot ekologik toza bo‘lib, u tuproqqa, sizot suvlariga, iste’molchilarga zaharli ta’sir ko‘rsatmaydi, shuningdek u sun’iy azotli o‘g‘itlar singari mevalarda to‘planmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Атабаева Х.Н.- Особенност возделывания сои в орошаемой зоне Узбекистана - Матер. конф. “Аграрная наука на рубеже веков” - Акмола, 1997, с.15.

2. Atabayeva X.N., Israilov I.A. - Takroriy ekin sifatida ekilgan soya navlarining o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligi. - Ilm. konf. to‘plami Chimbay, 1998, 98-99 bet.

BUTIN-2-DIOL-1,4 NING SIRKA KISLOTA BILAN ETERIFIKATSIYA REAKSIYASINI O‘RGANISH

E.Turg‘unov, I.G‘.Nizamov, B.I.Yaxshinorova, L.D.Valijonova

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Kimyo kafedrasi O‘zbekiston

E-mail: isomiddin.nizamov@mail.ru

Tel: +99891-793-45-45

Annotatsiya: *Ushbu maqolada asetilen spirtlaridan hisoblangan butin-2-diol-1,4 ning fizik-kimyoviy xossalari o‘rganilgan. Bunda butin-2-diol-1,4 ning ning sirka kislotasi bilan hosil qilgan butin-2 diol-1,4 diatsetat efirining sintez qilinishi jarayonlari, sintez uchun kerakli reaktiv va materiallar, katalizatorlar, reaksiya muhiti, harorat va erituvchilar keltirib o‘tilgan. Bundan tashqari uchbu sintez jarayonida olingan efirning xossalari keltirib o‘tilgan.*

Annotation: *This article studies the physicochemical properties of butyn-2-diol-1,4, one of the acetylenic alcohols. The synthesis processes of butyn-2-diol-1,4 diacetate ester formed by the reaction of butyn-2-diol-1,4 with acetic acid, the reagents and materials required for the synthesis, catalysts, reaction medium, temperature, and solvents are presented. In addition, the properties of the ester obtained in these three synthesis processes are presented.*

Kalit so‘zlar: *asetilen, spirt, murakkab efir, gidrogenlash, sirka kislota, organik sintez, katalizator, butin-2-diol-1,4*

Key words: *acetylene, alcohol, complex ether, hydrogenation, acetic acid, organic synthesis, catalyst, butyn-2-diol-1,4*

KIRISH

Butin-2-diol-1,4 ning molekulyar formulasi $C_4H_6O_2$ holatida bo‘lib, ushbu diol $HOCH_2$-C≡C-CH_2OH ko‘rinishdagi struktura formulasiga ega. Butin-2-diol-1,4 ning agregat holati qattiq bo‘lib uning molyar massasi 86,09g/molni tashkil etadi va zichligi esa 1,017g/ml ga teng. Oddiy sharoitlarda u suvda eriydigan rangsiz yoki och jigarrang kristall modda hisoblanadi. Suvli eritmada esa kuygan non hidili sariq-

jigarrang tiniq eritma hosil qiladi. Vaqt o‘tishi bilan eritma shaffoflikni yo‘qotishi mumkin, lekin bu uning kimyoviy xususiyatlarga ta’sir qilmaydi. Bundan tashqari aseton va spirtlarda ham eriydi. Zaharli va yonuvchan modda hisoblanadi [1; 16-23-b., 2;].

Butin-2-diol-1,4 ikki atomli spirt ya’ni glikol hisoblanib yuqori reaktiv va barqaror modda hisoblanadi. Ushbu modda oksidlanish, polimerlanish, almashinish, birikish kabi kimyoviy reaksiyalarga faol kirishadi. Galogenlar, karboksilik va dikarboksilik kislotalar, vodorod xlorid va vodorod sulfidi, ammiak, kislorod, vodorod, metallar, ishqorlar bilan o‘zaro ta’sir qiladi [3; 4; 85-90-b.].

Butin-2-diol-1,4 kimyo sohasida muhim moddalardan biri bo’lib, butandiol olishda, ko’plab organik sintez jarayonlarida, polimerlar moddalar va ko’plab qimmatbaho moddalar ishlab chiqarishda asosiy xom ashyo sifatida foydalaniladi. Qishloq xo’jaligi uchun ishlatiladigan gerbidsidlarning asosiy tarkibiy qismidir. Bundan tashqari bo’yoq sanoatida bo’yoqlar uchun erituvchilar ishlab chiqrishda keng qo’llaniladi [5; 220-224 b. 6;].

ASOSIY QISM

Butin-2-diol-1,4 karbon kislotalar bilan o‘zaro tasirlashishi natijasida karbon kislotaning miqdoriga qarab mono va di efirlarini hosil qilishi mumkin. Bu jarayonda butin-2-diol-1,4 karbon kislotalar bilan 1:1 mol nisbatda reaksiyaga kirishsa butin-2-diol-1,4 ning mono efirlari hosil bo‘ladi ya’ni dioldagi bitta OH guruhi karbon kislota bilan o‘zaro tasirlashishi mumkin. Agar shu jarayonni o‘zida butin-2-diol-1,4 karbon kislotalar bilan 1:2 mol nisbatda reaksiyaga kirishsa butin-2-diol-1,4 ning di efirlari hosil bo‘ladi ya’ni dioldagi ikkita OH guruhi ham karbon kislotadagi karboksil guruhi bilan o‘zaro tasirlashishi mumkin. Ushbu kimyoviy jarayonlar etirifikatsiya reaksiyasi hisoblanib diol va karbon kislota tasirlashuvidan murakkab efir va suv hosil bo‘ladi. Shuning uchun katalizator sifatida suvni o‘ziga tortadigan moddalardan ya’ni sulfat kislota yoki $ZnCl_2$ kabi moddalardan foydalanish samarali hisoblanadi. Bu jarayonda ushbu moddalar reaksiya jarayonida

ajralib chiqayotgan suvni o‘ziga tortib jarayonni mahsulot unumi hosil bo‘lishi tomonga siljitadi.

Butin-2-diol-1,4 ning dastlabki efirlaridan biri hisoblangan butin-2-diol-1,4 diatsetatning sintezi uchun butin-2-diol-1,4 va konsentrlangan sirka kislotasini 1:2 mol nisbatda olib tasirlashtiriladi. Ushbu jarayonda katalizatorni to‘g‘ri tanlash va haroratni meyorida ushlash ahamiyatli hisoblanadi. Butin-2-diol-1,4 diatsetatning sintezi uchun konsentrlangan sulfat kislota katalizator va suv tortuvchi modda sifatida tanlab olindi.

Ushbu sintezni amalga oshirish uchun kerakli jihozlarga maxsus elektr isitish pechi, 250 ml hajmdagi temperaturaga chidamli kolbalar, magnitli aralashtirgich, suvutgichlar, analitik tarozi, voronkalar, ajratish voronkasi, indikator qog‘ozlari va pipetkalar kerak bo‘ladi. Jarayonni amalga oshirish uchun kerakli bo‘lgan reaktivlarga esa butin-2-diol-1,4, konsentrlangan sirka kislotasi, konsentrlangan sulfat kislotasi, K_2CO_3, benzol kabi moddalar kerak bo‘ladi.

Tubi yumaloq bir og‘izli 200 ml li kolba olib unga 38,61 ml (36,6 g, ρ=1.055 g/ml, 0,61 mol) sirka kislota, 23,24 ml (25,8 g, ρ = 1.11 g/ml, 0,3 mol butin-2-diol-1,4), 50 ml benzol olindi va sovutib turilgan holda ustiga 1 ml konsentrlangan sulfat kislota quyildi. Bu jarayonda quruq moddalar analitik tarozi orqali aniq massada o‘lchab olinadi. Kolbaga lovushka (Dinastarka) va teskari sovutgich ulab, qurilma germetik ekanligiga ishonch hosil qilinadi hamda moy xammomida 80-85 ^oC haroratda magnitli aralashtirgich yordamida aralashtirib turilgan holda qaynatildi. Reaksion aralashma qaynashi bilan lovushkada suyuqlik to‘plana boshladi. Sekin asta lovushkadagi suyuqlik ikki qatlamga bo‘lina boshladi. Reaksiya davomiyligi ikki soatga yetganda esa suv ajralib chiqishi yaqqol ko‘rina boshladi. Suv ajralib chiqishi tugagandan so‘ng reaksiya to‘xtatildi (taxminan 5-6 soat). Reaksion aralashma sovutilgandan so‘ng xona haroratida suv bilan (2 marta) ekstraksiya qilib yuvildi. So‘ngra natriy gidrokarbonatning 10 % li eritmasi bilan neytral muhitga kelguncha ekstraksiya qilib yuvildi. Keyin yana suv bilan yuvildi. Organik qism

ajratilib unga qurituvchi sifatida suvsiz Na_2SO_4 solindi va bir kecha qoldirildi. Qurituvchi filtrlandi va filtrat deflegmatorli kolbada vakuumda haydash uchun tayyorlandi. Butin-2 diol-1,4 diatsetatning 0.1 atm bosmda 225 ^{0}C da haydab olindi.

Ushbu jarayonda hosil bo‘lgan butin-1,4-diol diatsetat rangsiz suyuqlik bo‘lib uning nisbiy molekulyar massasi 170 ga teng. Hisob kitoblarga asoslangan sintez natijasida reaksiya unumi 78% bo‘lganligi hamda hosil bo‘lgan efirning massasi 39,78 g va hajmi esa 34 ml ni tashkil etadi. Hosil bo‘lgan efirning zichligi 1,17 g/ml ga teng ekanligi aniqlandi.

Hosil bo‘lgan efirning refruktometr asbobi orqali nur sindirish ko‘rsatkichi 1,457 ekanligi aniqlandi.

Ushbu jarayonda butin-2-diol-1,4 va sirka kislotasi tasirlashadi va quyidagi reaksiya tenglamasi boradi.



Jarayonni borish sxemasini quyidagi rasm orqali ko‘rish mumkin.



Sintez moslamasi.

1- Qaynash uchun mo‘ljallangan kolba; 2 – lovushka; 3 – teskari sovutgich;

4 – elektr qizdirgich; 5 - laboratoriya shtativi.

XULOSA

Ushbu sintez jarayonida butin-2-diol-1,4 ning sirka kislotasi bilan tasirlashuvi natijasida butin-2-diol-1,4 murakkab efirlarini olish va ushbu sintez jarayonidagi sharoitlar o‘rganildi. Natijada hosil bo’lgan murakkab efirning xossalari taxlil qilindi. Butin-2-diol-1,4 sirka kislota bilan tasirlashganda ikki xil murakkab efir: butin-2-diol-1,4 monoatsetat va butin-2-diol-1,4 diatsetatlarni hosil qilishi mumkin. Ushbu efirlarni hosil qilish uchun katalizator sifatida sulfat kislotadan foydalanish reaksiya unumini oshishiga sabab bo’ladi. Reaksion muhitda erituvchi sifatida benzoldan foydalanildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Тургунов, Э., Холмуродова, Л. Э., & Джумагулов, Ш. Х. (2018). Каталитическое галогенирование ацетиленовых моно-и диаминов. *Universum: химия и биология*, (4 (46)), 16-23.

2. Nizamov Isomiddin G'iyos o'g‘li, N. BUTIN-2-DIOL-1,4 NING TO'YINGAN BIR ASOSLI KARBON KISLOTALAR BILAN KONSENTRLANGAN SULFAT KISLOTA KATALIZATORLIGIDA ETERIFIKATSIYA REAKSIYALARI MEHANIZMI.

3. Turg‘unov, E., Nizamov, I., & Sodiqov, M. (2023). BUTIN-2-DIOL-1, 4 OLINISHI VA UNING XOSSALARI. *Theoretical and experimental chemistry and modern problems of chemical technology*, *1*(01).

4. Содиков, М. К., Хужаназарова, С. Р. К., & Тургунов, Э. (2021). Синтез простых и сложных эфиров ацетиленовых спиртов. *Universum: химия и биология*, (7-1 (85)), 85-90.
URL: https://cyberleninka.ru/article/n/sintez-prostyh-i-slozhnyh-efirov-atsetilenovyh-spirtov

5. Wu, Z., Gaudino, E. C., Rotolo, L., Medlock, J., Bonrath, W., & Cravotto, G. (2016). Efficient partial hydrogenation of 2-butyne-1,4-diol and other alkynes under

microwave irradiation. *Chemical Engineering and Processing: Process Intensification*, *110*, 220-224.

6. Xiang, L., Qijiang, L. I. A. O., & Minqing, Z. H. A. N. G. (2017). Research progress of 1, 4-butynediol hydrogenation process. *Chemical Industry and Engineering Progress*, *36*(08), 2787.

IMMUN TIZIMI BUZILISHLARINING GISTOLOGIK O‘ZGARISHLARI

Rahbar: Aqsangul Sarsenbayeva

Talaba: Aqulboyev Asadbek

Guruh: Med 812-U

Fan: Gistalogiya

Email: aaqilbekov51@gmail.com



Annotatsiya: *Ushbu maqolada immun tizimi buzilishlari natijasida organizm to‘qimalarida yuzaga keladigan gistologik o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Immun tizimi organizmning himoya mexanizmlarini boshqaruvchi murakkab tizim bo‘lib, uning faoliyati buzilganda yallig‘lanish, autoimmun jarayonlar, allergik reaksiyalar hamda immun yetishmovchilik holatlari rivojlanadi. Mazkur patologik jarayonlar hujayra va to‘qimalarda morfologik o‘zgarishlarni*

yuzaga keltiradi. Maqolada limfoid organlar, qon hujayralari hamda ichki a'zolardagi gistologik o'zgarishlar ilmiy manbalar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: *immun tizimi, gistologiya, limfotsit, autoimmun kasallik, yallig'lanish, immun yetishmovchilik, morfologik o'zgarish.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются гистологические изменения, возникающие в тканях организма при нарушениях иммунной системы. Иммунная система представляет собой сложный механизм защиты организма, и при нарушении её функций развиваются воспалительные процессы, аутоиммунные заболевания, аллергические реакции и иммунодефицитные состояния. Эти патологические процессы вызывают морфологические изменения в клетках и тканях. В статье освещаются гистологические изменения в лимфоидных органах, клетках крови и внутренних органах на основе научных источников.*

Ключевые слова: *иммунная система, гистология, лимфоцит, аутоиммунное заболевание, воспаление, иммунодефицит, морфологические изменения.*

Abstract: *This article analyzes histological changes occurring in body tissues due to immune system disorders. The immune system is a complex defense mechanism of the body, and dysfunction of this system leads to inflammation, autoimmune diseases, allergic reactions, and immunodeficiency conditions. These pathological processes cause morphological alterations in cells and tissues. The article highlights histological changes in lymphoid organs, blood cells, and internal organs based on scientific literature.*

Keywords: *immune system, histology, lymphocyte, autoimmune disease, inflammation, immunodeficiency, morphological changes.*

KIRISH

Immun tizimi organizmning ichki muhitini barqaror saqlashda muhim rol o'ynaydi. U organizmni bakteriyalar, viruslar, zamburug'lar va boshqa yot antigenlardan himoya qiladi. Immun tizimining asosiy vazifasi organizmga kirgan begona moddalarga qarshi himoya reaksiyasini hosil qilishdan iborat. Immun tizimi markaziy va periferik limfoid organlardan tashkil topgan bo'lib, unga suyak ko'migi, timus, limfa tugunlari, taloq va limfoid to'qimalar kiradi.

Immun tizimi faoliyatining buzilishi turli patologik jarayonlarga sabab bo'ladi. Jumladan, immun yetishmovchilik, autoimmun kasalliklar, allergik

reaksiyalar va surunkali yallig‘lanish holatlari rivojlanadi. Ushbu kasalliklar natijasida hujayralarda degenerativ, nekrotik va proliferativ o‘zgarishlar yuz beradi. Gistologik tekshiruvlar immun tizimi kasalliklarini aniqlash va ularning rivojlanish mexanizmlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

ASOSIY QISM

1. Immun tizimining gistologik tuzilishi

Immun tizimi limfoid to‘qimalardan tashkil topgan bo‘lib, asosiy hujayralari limfotsitlar hisoblanadi. Limfoid organlar markaziy va periferik guruhlarga bo‘linadi.

Markaziy limfoid organlar:

1) Suyak ko‘migi
2) Timus

Periferik limfoid organlar:

1) Limfa tugunlari
2) Taloq
3) Bodomsimon bezlar
4) Peyer pilakchalari

Timusda T-limfotsitlar yetiladi. Gistologik jihatdan timus po‘stloq va mag‘iz qismlaridan tashkil topgan. Po‘stloq qismida yosh limfotsitlar ko‘p bo‘lsa, mag‘iz qismida Gassal tanachalari joylashadi.

Limfa tugunlari kapsula, po‘stloq va mag‘iz qismlaridan iborat. Ularning asosiy vazifasi limfani filtrlash va antigenlarga qarshi immun javobni shakllantirishdir.

2. Immun tizimi buzilishlarining turlari

Immun tizimi buzilishlari quyidagi asosiy guruhlarga bo‘linadi:

1) Immun yetishmovchilik holatlari
2) Autoimmun kasalliklar
3) Allergik reaksiyalar

4) Limfoproliferativ kasalliklar

Har bir holatda gistologik o‘zgarishlar turlicha namoyon bo‘ladi.

3. Immun yetishmovchilik holatlaridagi gistologik o‘zgarishlar

Immun yetishmovchilik tug‘ma yoki orttirilgan bo‘lishi mumkin. Tug‘ma immun yetishmovchiliklarda limfoid organlarning rivojlanishi sustlashadi.

Timus gipoplaziyasi

1) Timus kichrayadi
2) Po‘stloq qismi yupqalashadi
3) Limfotsitlar soni kamayadi
4) Gassal tanachalari degeneratsiyaga uchraydi

Limfa tugunlarida:

1) Limfoid follikulalar kamayadi
2) Germinativ markazlar rivojlanmaydi
3) Limfotsitlar soni keskin kamayadi

OITS kasalligida:

1) CD4 T-limfotsitlar kamayadi
2) Limfa tugunlarida dastlab giperplaziya
3) Keyinchalik atrofiya rivojlanadi
4) Taloqda oq pulpa kichrayadi

4. Autoimmun kasalliklardagi gistologik o‘zgarishlar

Autoimmun kasalliklarda immun tizimi organizmning o‘z to‘qimalariga qarshi antitana ishlab chiqaradi.

Revmatoid artrit

Sinovial pardada:

1) Limfotsitar infiltratsiya
2) Fibroblast proliferatsiyasi
3) Qon tomirlar ko‘payishi
4) Pannus hosil bo‘lishi

Autoimmun tireoidit

1) Limfotsit infiltratsiyasi
2) Qalqonsimon bez follikulalarining buzilishi
3) Fibroz rivojlanishi

Sistemali qizil yugurik (SLE)

Buyraklarda:

1) Immun komplekslar to‘planishi
2) Glomerulonefrit rivojlanishi
3) Bazal membrana qalinlashishi
4) Kapillyar proliferatsiyasi
5) Nekroz o‘choqlari

5. Allergik reaksiyalardagi gistologik o‘zgarishlar

Allergik reaksiyalar yuqori sezuvchanlik bilan bog‘liq patologik holatlardir.

Bronxial astma

1) Bronx devori qalinlashadi
2) Eozinofillar ko‘payadi
3) Shilliq bezlar giperplaziyasi kuzatiladi

Allergik dermatit

1) Epidermisda spongioz
2) Dermada limfotsitar infiltratsiya
3) Qon tomirlarning kengayishi

Anafilaktik reaksiyalar

Mast hujayralar degranulyatsiyasi kuzatilib, gistamin ajralishi natijasida tomir o‘tkazuvchanligi ortadi.

6. Limfoproliferativ kasalliklar

Immun tizimi hujayralarining nazoratsiz ko‘payishi limfoma va leykozlarni yuzaga keltiradi.

Xodjkin limfomasi

1) Rid-Shternberg hujayralari
2) Limfoid to‘qima destruksiyasi
3) Fibroz

No-Xodjkin limfomalari

1) Atipik limfotsitlar proliferatsiyasi
2) Limfa tuguni arxitektonikasining buzilishi

Leykozlar

Suyak ko‘migida blast hujayralar ko‘payib, normal gemopoez susayadi.

7. Yallig‘lanish va immun javobning gistologik asoslari

Yallig‘lanish immun tizimining asosiy himoya reaksiyalaridan biridir.

O‘tkir yallig‘lanish:

1) Neytrofillar infiltratsiyasi
2) Ekssudatsiya
3) Qon tomirlarning kengayishi

Surunkali yallig‘lanish:

1) Makrofaglar
2) Limfotsitlar
3) Fibroz rivojlanishi

Granulyomatoz yallig‘lanish:

1) Epitelioid hujayralar
2) Gigant hujayralar hosil bo‘ladi

8. Immun tizimi buzilishlarini gistologik tekshirish usullari

Quyidagi zamonaviy usullar qo‘llaniladi:

1) Gistologik bo‘yash usullari
2) Gematoksilin-eozin bo‘yog‘i
3) Immunogistokimyo
4) Elektron mikroskopiya
5) Oqim sitometriyasi

Immunogistokimyoviy markerlar:

1) CD3 - T-limfotsitlar
2) CD20 - B-limfotsitlar
3) CD68 - makrofaglar

9. Immun tizimi buzilishlarining klinik ahamiyati

Gistologik o‘zgarishlarni aniqlash kasallikni erta tashxislashda muhimdir.

Morfologik tekshiruv:

1) Kasallik bosqichini aniqlaydi
2) Davolash samaradorligini baholaydi
3) Prognozni belgilaydi

Ayniqsa onkologik va autoimmun kasalliklarda biopsiya muhim diagnostik ahamiyatga ega.

XULOSA

Immun tizimi organizmning asosiy himoya tizimi hisoblanadi. Uning faoliyati buzilganda hujayra va to‘qimalarda chuqur morfologik o‘zgarishlar rivojlanadi. Immun yetishmovchilik, autoimmun kasalliklar, allergik reaksiyalar va limfoproliferativ jarayonlar gistologik jihatdan turli xil patologik belgilar bilan namoyon bo‘ladi.

Gistologik va immunogistokimyoviy tekshiruvlar ushbu kasalliklarni aniqlash, differensial tashxislash va davolash samaradorligini baholashda muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy tibbiyotda immun tizimi patologiyalarini o‘rganish diagnostika va terapiyaning rivojlanishiga katta hissa qo‘shmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Basic Histology - Junqueira L. C., Carneiro J. McGraw-Hill Education, 2021.
2. Histology: A Text and Atlas - Ross M. H., Pawlina W. Wolters Kluwer, 2020.
3. Robbins and Cotran Pathologic Basis of Disease - Kumar V., Abbas A., Aster J. Elsevier, 2021.

4. Cellular and Molecular Immunology - Abbas A. K., Lichtman A. H. Elsevier, 2022.

5. Color Atlas and Text of Histology - Gartner L. P., Hiatt J. L. Lippincott Williams & Wilkins, 2019.

6. Human Histology - Stevens A., Lowe J. Elsevier Mosby, 2018.

7. Essentials of Rubin's Pathology - Rubin E., Reisner H. Lippincott Williams & Wilkins, 2020.

8. Medical Immunology - Male D., Brostoff J., Roth D. Mosby Elsevier, 2021.

9. Pathologic Physiology of Disease - McPhee S., Hammer G. McGraw-Hill, 2020.

ASTRAGALUS CAMPYLORRHYNCHUS O‘SIMLIGINING YER OSTKI QISMI SUVDA ERIYDIGAN VITAMINLAR TARKIBI

D.D.G‘ulomjonov

Qo‘qon davlar universiteti, Qo‘qon shahri, O‘zbekiston Respublikasi

e-mail: dilmurodjongulomjonov96@gmail.com,

tel: 912027225

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Astragalus campylorrhynchus (Fabaceae) o‘simligining ildizidagi vitaminlar miqdoriy ko‘rsatkichlari HPLC-DAD usuli yordamida aniqlash natijalari bayon etilgan. Tadqiqotlar natijasida vitaminlarni o‘simlikning turli organlarda ularning miqdori turlicha ekanligi qayd etildi. Spektral natijalar asosida vitaminlarning ildizda B_9 vitamini – 1.451 mg/100 g ekanligi aniqlandi.*

Kalit so‘zlar: *Astragalus campylorrhynchus, vitamin C, vitamin B_9, vitamin B_{12}, vitamin B_2, HPLC-DAD, spektral tahlil.*

Abstract: *This article presents the results of determining the quantitative content of vitamins in the roots of Astragalus campylorrhynchus (Fabaceae) using the HPLC-DAD method. The study revealed that the amount of vitamins varies across different organs of the plant. Based on spectral analysis results, it was determined that the content of vitamin B9 in the root is 1.451 mg/100 g.*

Keywords: *Astragalus campylorrhynchus, vitamin C, vitamin B9, vitamin B12, vitamin B2, HPLC-DAD, spectral analysis.*

KIRISH

Astragalus turkumiga mansub o‘simliklar dunyo bo‘ylab keng tarqalgan bo‘lib, ularning ko‘pchiligi xalq tabobatida immunitetni oshiruvchi, yallig‘lanishga qarshi va antioksidant vosita sifatida ishlatilgan. Astragalus membranaceus va Astragalus mongholicus kabi turlar farmatsevtikada keng qo‘llaniladi. Astragalus campylorrhynchus esa O‘zbekiston florasida uchraydigan noyob tur bo‘lib, uning

kimyoviy va vitamin tarkibi haqida ma’lumotlar juda kam. Shu sababli mazkur tadqiqot o‘simlikning vitamin tarkibini aniqlash va spektral profillarini tuzishga qaratildi.

Astragalus turkumiga kiruvchi o‘simliklarning farmatsevtika va biologik faol qo‘shimchalarda qo‘llanilishi turlicha bo‘lib, ayniqsa *Astragalus membranaceus* va *Astragalus mongholicus* dorivor xomashyo sifatida keng qo‘llaniladi hamda immunomodulyator, kardioprotektor va nefroprotektor xususiyatlari bilan ajralib turadi. *Astragalus complanatus* urug‘idan olingan ekstraktlar antioksidant va qarishga qarshi qo‘shimchalar ishlab chiqarishda ahamiyatli, *Astragalus gummifer* esa tragakant saqichi manbai sifatida farmatsevtik texnologiyada muhim o‘rin egallaydi. Qolgan turlar esa asosan xalq tabobatida yoki dastlabki ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan bo‘lib, ularning farmatsevtika sanoatidagi qo‘llanilishi kelajakda yanada chuqurroq o‘rganishni talab etadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Astragalus turlarining biofaol komponentlari ko‘proq polisaxaridlar va saponinlarga bog‘langan holda o‘rganilgan, ammo vitaminlarning organlar bo‘yicha taqsimoti yetarli darajada tadqiq qilinmagan. Shu bois bizning tadqiqot natijalari mavjud ilmiy manbalarni to‘ldirib, Astragalus campylorrhynchus o‘simligini xalq tabobati va oziq-ovqat sanoati uchun istiqbolli biofaol manba sifatida tasdiqlaydi.

Materiallar va usullar

Tadqiqot ob’ekti sifatida Astragalus campylorrhynchus o‘simligining ildizidan namunalari olindi. Vitaminlarning aniqlanishi yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (HPLC-DAD, Agilent Technologies 1260) yordamida bajarildi. Kolonna: Eclipse XDB-C18 (5.0 μm, 4.6×250 mm). Harakatlanuvchi faza: acetonitril – bufer eritma (pH=2.92), gradient rejimida. Oqim tezligi: 0.75 ml/min. In’yeksiya hajmi: 10 μl. Detektor: diod-matritsali detektor (DAD), kuzatuvchi to‘lqin uzunliklari: 254, 265, 285, 297 va 360 nm. Spektral ma’lumotlar 200–400 nm oralig‘ida qayd etildi.

Natijalar

Namunalaridagi vitaminlarning miqdoriy tarkibi quyidagi jadvalda keltirilgan (mg/100 g).

Namuna	B_1	B_6	B_9	PP	C	B_2	B_{12}
ildiz	-	-	1.451	-	13.521	0.409	-



XULOSA

Tahlil natijalariga ko‘ra, o‘simlikda suvda eruvchan **B guruhi vitaminlari** aniqlangan.

- **B guruhi vitaminlari** asab tizimi faoliyati, hujayra nafas olish va oqsil sintezida muhim rol o‘ynaydi; ular energiya almashinuvini faollashtiradi.
- **C vitamini** esa kuchli antioksidant bo‘lib, immun tizimini mustahkamlaydi, to‘qimalarning tiklanishini tezlashtiradi va erkin radikallarni zararsizlantiradi.

Eng yuqori vitamin kontsentratsiyasi **poya-barg** va **urug‘larda** qayd qilindi, bu esa ularni biofaol komponentlar manbasi sifatida alohida ahamiyatga ega qiladi.

Mazkur natijalar Astragalus campylorrhynchus turining farmakologik va oziqaviy qiymatini ilmiy asosda tasdiqlaydi hamda keyingi bosqichda uning

biologik faol komponentlarini ajratish, strukturaviy tahlil qilish va biofaollikni baholash yo‘nalishida tadqiqotlarni davom ettirish zarurligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Wang J., Li S., Fan Y., Chen Y., Liu D., Cheng H.** (2020). *Phytochemical composition and pharmacological effects of Astragalus species: A review*. **Journal of Ethnopharmacology**, 258, 112715. DOI:10.1016/j.jep.2020.112715

2. **Li X., Qu L., Dong Y., Han L., Liu E., Fang S., Zhang Y.** (2014). *A Review of Recent Research Progress on the Astragalus Genus.* **Molecules**, 19(11), 18850–18880. DOI: 10.3390/molecules191118850

3. **Fu J., Wang Z., Huang L., Zheng S., Wang D., Chen S.** (2014). *Review of the botanical characteristics, phytochemistry, and pharmacology of Astragalus membranaceus.* **Phytotherapy Research**, 28(9), 1275–1283. DOI: 10.1002/ptr.5188

4. **Bratkov V. M., Shkondina T., Shikov A. N., Pozharitskaya O. N., Makarov V. G., Tikhonov V. P.** (2016). *Flavonoids from the Genus Astragalus: Phytochemistry and Biological Activity.* **Pharmaceutical Chemistry Journal**, 50(10), 678–690. DOI: 10.1007/s11094-016-1496-6

5.Abd Elkader H. T. A. E., El Gohary H. M. A., Abdelhamid A. M., Abdelhady S. A. (2022). *Astragalus Species: Phytochemistry, Biological Actions and Therapeutic Prospects.* **Phytochemistry**, 203, 113369. DOI: 10.1016/j.phytochem.2022.113369

STUDY OF THE MINERALOGICAL COMPOSITION AND PHYSICO-CHEMICAL CHARACTERISTICS OF THE COAGULANT-ADSORBENT OBTAINED ON THE BASIS OF ANGREN KAOLIN AND MIRABILITE

Aymurzaeva Liza Gulmurzaevna

Doctor of Technical Sciences (PhD), Associate Professor "Chemistry" Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz,

Republic of Uzbekistan, Nukus

E-mail: aymurzaevaliza591@gmail.com

Abstract: *This study focuses on the development and comprehensive characterization of a coagulant-adsorbent synthesized from Angren variegated kaolin and natural mirabilite through thermochemical activation. The raw materials—kaolin clay from the Angren deposit and mirabilite from the Jaslyk region—were selected for their abundance and favorable mineralogical properties. The samples were thermally treated at various temperatures (400°C–700°C), and structural transformations were analyzed using X-ray diffraction (XRD), infrared (IR) spectroscopy, and scanning electron microscopy (SEM). The results revealed that at 600°C–650°C, kaolinite in the raw kaolin converts into metakaolinite, while chemical interaction with sodium sulfate leads to the formation of aluminum and iron sulfates and albite compounds. These phase changes significantly improve the material's sorption properties. IR spectroscopy confirmed the presence of key functional groups, including sulfate, SO_4, and hydroxyl groups, which contribute to enhanced adsorption activity. SEM images demonstrated significant surface modifications, including increased porosity, cracks, and roughness, indicating improved active surface area. The obtained coagulant-adsorbent shows great potential for application in wastewater treatment, particularly in the removal of colored pollutants from textile effluents. Its cost-effective synthesis using local raw materials and improved physicochemical characteristics make it a sustainable solution for industrial water purification technologies..*

Keywords: *angren variegated kaolin, natural mirabilite, minerals kaolinite, X-ray, coagulant adsorbent, thermochemical activation, diffraction maximum.*

INTRODUCTION

Currently, studying the physicochemical properties of adsorbents used in industrial wastewater treatment is a pressing issue. Important scientific decisions about adsorbents can be made by determining the chemical composition, mineralogical properties, and colloidal parameters of the selected raw materials to meet adsorbent requirements. To this end, it is important to study their morphology and structural features, as well as their texture. To achieve this goal, it is necessary to study the physicochemical properties of activated coagulants obtained from Angren variegated kaolin clays—adsorbents for treating textile mill wastewater. Physicochemical analytical methods, including IR spectroscopy and X-ray diffraction analysis, were used in the study [1].

Variegated Angren kaolins, natural mirabilite, mixed coagulants derived from them, and colored textile mill wastewater were used in the research.

To study the chemical nature of the surface of the obtained adsorbents and adsorption interactions during the activation of kaolin with mirabilite, chemical and physicochemical methods were used, including IR spectroscopy to determine oxygen-containing and other groups, and X-ray phase analysis to determine the mineralogical and elemental compositions of kaolin before and after thermal activation.

The scientific novelty of the study lies in the following: optimal methods and technological conditions for producing coagulant-adsorbents based on Angren variegated kaolin and natural mirabilite at a mass ratio of 1:1.7, respectively, and heat treatment at 600±50°C for 1-1.5 hours were selected;

the mechanism of interaction between Angren variegated kaolin and natural mirabilite at 650°C to form $Al_2(SO_4)_3$ and $Fe_2(SO_4)_3$, in the active form of metakaolinite, was determined;

a technology for purifying dyed wastewater from textile enterprises from organic and inorganic impurities using coagulant-adsorbents was developed. [2].

As a result, the degree of wastewater purification from cationic dyes reaches values of more than 90%, due to which it is possible to return the treated water to the technological cycle of production.

COMPUTATION METHODS

The kinetic processes of coagulation during the treatment of textile wastewater with APAK-2 and APAK-3 coagulants-adsorbents were studied compared to the selected reagent Al2 (SO4) 3. The kinetics of sedimentation of wastewater pollutants by activated coagulants-adsorbents is shown in Figure 1.1. It is characterized by the volume of purified water returning to the cycle. Figure 3.15 shows: (a) coagulant analog, (b) coagulant-adsorbent APAK-2 and (c) APAK-3. The selected coagulants participate in the coagulation process (a) and in the adsorption processes with coagulation (b, c), sedimentation was observed in the hydrated particles. The study was conducted by observing the clarification process of 100 ml of wastewater using 1 g of coagulant and coagulant-adsorbent. The transparent part of the water was conventionally determined by the height h_1, and the density of the precipitate after adsorption by the height h_2. In this case, the coagulation process with the imported adsorbent (a) in the case of the wastewater treatment process was determined visually, where the height h_2 indicated the height of the section



Fig. 1. Influence of sedimentation time on the compaction efficiency of the obtained coagulant - adsorbent. a) analog; b) APAK-2; c) APAK-3

Physicochemical analysis methods [14] were employed in this study, including infrared (IR) spectroscopy and X-ray phase analysis. The obtained

coagulant-adsorbent samples were examined using scanning electron microscopy (SEM).

IR spectroscopic methods are widely used to study surface properties and changes occurring during surface reactions on various sorbents. IR spectroscopy serves to confirm the results of chemical analyses and other techniques used to investigate surface characteristics and transformations. The IR spectroscopy data of adsorbents primarily hold scientific significance in justifying the types of chemical bonds present.

For this purpose, research on the physicochemical properties of activated coagulant-adsorbents derived from Angren variegated kaolin clays is necessary to enhance their effectiveness in treating textile industry wastewater.

RESULTS AND DISCUSSION

Kaolin minerals, compared to other clays, have a more consistent composition: $Al_2O_3 \cdot 2SiO_2 \cdot 2H_2O$. Its fine-dispersed structure and the presence of mesopores suggest that the sorption mechanism in kaolin is primarily physical. It is possible that colored clays exhibit greater sorption properties than white clays due to their more complex chemical composition [4].

To determine the mineralogical composition and structural changes in minerals with increasing temperature during thermochemical activation, X-ray phase analysis was employed. The X-ray analysis revealed structural transformations and mineral degradation in the samples.



Fig. 1. X-ray diffraction pattern of the raw Angren variegated kaolin clay

The X-ray diffraction pattern (Fig. 1) of the raw Angren kaolin shows that the clay primarily consists of kaolinite minerals, as evidenced by the presence of characteristic diffraction maxima at (d) = 0.713; 0.436; 0.357; 0.256; 0.233; 0.223; and 0.149. Additionally, quartz is present, corresponding to diffraction maxima at (d) = 0.425; 0.334; 0.245; 0.228; 0.212; 0.198; and 0.180.



Figure 2 X-ray diffraction pattern of the thermally activated coagulant-adsorbent at 400±50°C Activated variegated Angren kaolin(APAK-1)

Figure 3 presents the X-ray diffraction pattern of the thermally activated mixture of kaolin and mirabilite at a temperature of 500°C. During the thermal activation of the kaolin-mirabilite mixture at 500°C, the initial decomposition of kaolinite is observed, leading to the formation of albite compounds. This is

confirmed by the presence of characteristic diffraction maxima at (d) = 0.455; 0.389; and 0.375.



Fig. 3. X-ray diffraction pattern of the thermally activated kaolin-mirabilite mixture at 500°C Activated variegated Angren kaolin (APAK-2)



Fig. 4. X-ray diffraction pattern of the thermally activated coagulant-adsorbent at 600°C–650°C Activated variegated Angren kaolin (APAK-3)

As the temperature increases to 600°C–650°C (Fig. 3), kaolinite transitions into its active form, metakaolinite [1-2]. Subsequently, a chemical interaction occurs between kaolinite and sodium sulfate from mirabilite, resulting in the formation of

aluminum sulfate compounds on the surface of clay particles. This is confirmed by the presence of characteristic diffraction maxima at (d) = 0.348; 0.265; 0.220; 0.174; and 0.171. Additionally, iron compounds are identified by diffraction maxima at (d) = 0.318 and 0.285, along with the presence of albite, as indicated by diffraction maxima at (d) = 0.455; 0.389; and 0.375.

The mineralogical composition of the samples obtained at different temperatures is presented in Table 1.

Table 1. Mineralogical Composition of APAK Series Samples Depending on the Temperature of Thermochemical Activation

Adsorbent-Coagulant	**Kaolin**	**Mirabilite**	**Activation Temperature (°C)**	**Mineralogical Composition**
Raw Material	1	-	-	Kaolinite, quartz
APAK-1	1	1.7	400±50	Kaolinite, quartz
APAK-2	1	1.7	500±50	Calcium aluminate, quartz, alunite*
APAK-3	1	1.7	600±50	Metakaolinite, aluminum and iron sulfates, albite
APAK-1	1	1.7	700±50	Mullite, aluminum and iron sulfates**

*Onset of kaolinite decomposition with the formation of new minerals

**At this temperature, active metakaolinite begins to transition into its inactive form as mullite.

Table 2 presents the initial substances and those formed during thermochemical activation at 600°C–650°C.

Experimental studies were further conducted on the obtained coagulant-adsorbent using infrared (IR) spectroscopy analysis. The IR analysis method applied

to the thermochemically activated coagulant-adsorbent is one of the physicochemical analysis techniques that provides information about specific functional groups and other structural fragments formed as a result of the interaction between infrared radiation and the substance [3].

CONCLUSION

Thus, the conducted studies have demonstrated that during the thermal activation of Angren kaolin and mirabilite, the increase in temperature leads to the destruction of the kaolinite mineral structure. A partial chemical interaction occurs between sodium sulfate and clay particles, resulting in the formation of aluminum and iron sulfates on the surface of the adsorbent, which enhance the sorption properties of the coagulant-adsorbent [14].

In conclusion, the mechanism of interaction between variegated Angren kaolin and natural mirabilite at temperatures of 600°C–650°C has been determined. The phase changes in the mixture of variegated Angren kaolin and mirabilite during thermal activation at 600°C–650°C have been studied.

Analyses conducted using the IR spectrophotometric method have shown the presence of oxygen-containing functional groups on the surface of the adsorbents. These surface formations determine the specific sorption and ion-exchange behavior of the adsorbents.

The practical significance of the research results lies in the production of an import-substituting coagulant-adsorbent based on available local raw materials and, with their participation, the purification of dyed wastewater from textile enterprises for the return of water purified by adsorption and coagulation to the permitted level into the cycle, which serves to conserve water resources.

REFERENCES:

1.Aymurzaeva L.G., Zhumaeva D.Zh., Eshmetov I.D., Rakhimov U.Yu. Efficient clarification of wastewater from textile enterprises using coagulant-adsorbents of the APAK series // *Universum Journal: Chemistry and Biology: electronic scientific*

journal. - *Russia*, 2022 issue No.3 (93) URL: https://7universum.com/ru/nature/archive/item/13209.
DOI - 10.32743/UniChem.2022.93.3.13209

2. Aymurzaeva L.G. Study of physico-chemical characteristics of coagulant-adsorbent obtained on the basis of angren kaolin and mirabilite // *Universum Journal: Chemistry and Biology: electronic scientific journal.* - *Russia*, 2023 issue No.1 (103) URL: https://7universum.com/ru/nature/archive/item/14822.
DOI – 10.32743/UniChem.2023.103.1.14822

3. Aymurzaeva L. G., Zhumaeva D. Zh., Eshmetov I. D., and Fuzailova F. N., Abdurahimov A.Kh., Barnoeva S.B. Mineralogical composition and physico-chemical characteristics of kaolins from the Angren deposit // *Universum Journal: Chemistry and Biology: electronic scientific journal.* - *Russia*, 2022 issue No.**9** (99) URL: https://7universum.com/ru/nature/archive/item/14219.
DOI - 10.32743/UniChem.2022.99.9.14219

4. U. YU. RAXIMOV, D. J. JUMAEVA, L. G. AYMURZAEVA INVESTIGATION OF THE PHYSICOCHEMICAL PROPERTIES OF STEAMACTIVATED ADSORBENTS // UZBEK CHEMICAL JOURNAL – 5/2021. - P. 44-46. UDC 661.183.2. http.www.uzchemj.uz

KIMYOVIY ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINING ATROF- MUHITGA TA'SIRI

M.I.Ibodulloyeva

Nizomiy nomidagi O'zMPU

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kimyoviy ishlab chiqarish korxonalarining atrof-muhitga ko'rsatadigan ta'siri o'rganilgan. Kimyoviy ishlab chiqarish natijasida sanoat chiqindilari, zaharli gazlar va oqova suvlarning havo, suv va tuproq sifatiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, ekologik muammolarni kamaytirish yo'llari, jumladan, zamonaviy tozalash texnologiyalari va ekologik xavfsizlik choralarining ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so'zlar*. Kimyoviy ishlab chiqarish, ekologiya, ekologik muammo, sanoat chiqindilari, og'ir metallar, mass-spektrometr*

Аннотация*. В данной статье изучается влияние химических производственных предприятий на окружающую среду. Проанализировано воздействие промышленных отходов, токсичных газов и сточных вод, образующихся в результате химического производства, на качество воздуха, воды и почвы. Также освещены пути снижения экологических проблем, включая применение современных технологий очистки и меры экологической безопасности.*

Ключевые слова: *Химическое производство, экология, экологическая проблема, промышленные отходы, тяжёлые металлы, масс-спектрометрия.*

Annotation*. This article examines the impact of chemical manufacturing enterprises on the environment. It analyzes the effects of industrial waste, toxic gases, and wastewater generated as a result of chemical production on the quality of air, water, and soil. It also highlights ways to reduce environmental problems, including the application of modern purification technologies and environmental safety measures.*

Keywords: *Chemical production, ecology, environmental problem, industrial waste, heavy metals, mass spectrometry.*

KIRISH

Bugungi davrda atrof-muhitni muhofaza qilish global miqyosdagi eng muhim masalalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Inson faoliyatining kengayishi natijasida sanoat, transport va qishloq xo‘jaligi sohalari jadal rivojlanib bormoqda. Biroq bu taraqqiyot tabiiy muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ekologik muammolarni yanada kuchaytirmoqda. Shu bois tabiatni asrash va ekologik barqarorlikni ta’minlash har bir insonning mas’uliyatli vazifasiga aylanmoqda.

Sanoat korxonalari iqtisodiy o‘sishning asosiy omillaridan biri bo‘lishiga qaramay, ular ekologik tizimga sezilarli zarar yetkazmoqda. Atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalar, sanoat chiqindilarining ko‘payishi hamda yer resurslaridan noto‘g‘ri foydalanish ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, yirik sanoat markazlari va shaharlarda havoning ifloslanishi, tuproq unumdorligining pasayishi va yashil hududlarning qisqarishi bugungi kunning eng dolzarb ekologik muammolari qatoridan o‘rin olgan [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Tuproq tarkibidagi og‘ir metallarni aniqlash va tahlil qilish ekologik monitoringning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Og‘ir metallarga qo‘rg‘oshin (Pb), kadmiy (Cd), simob (Hg), mis (Cu), rux (Zn), nikel (Ni) kabi elementlar kiradi. Ushbu moddalar sanoat chiqindilari, transport vositalari, qishloq xo‘jaligida qo‘llaniladigan o‘g‘it va pestitsidlar orqali tuproqqa tushib, uning kimyoviy tarkibini o‘zgartiradi va ekologik muvozanatni buzadi [2].

Og‘ir metallar tuproqda uzoq vaqt saqlanib qoladi va biologik parchalanmaydi, natijada ular o‘simliklar orqali oziq-ovqat zanjiriga kirib, inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, qo‘rg‘oshin asab tizimiga zarar yetkazsa, kadmiy buyrak faoliyatini buzadi, simob esa markaziy asab tizimiga jiddiy ta’sir qiladi.

Tuproqdagi og‘ir metallar miqdorini aniqlash uchun zamonaviy analitik usullar qo‘llaniladi. Jumladan, atom-absorbsiya spektrometriyasi (AAS), induktiv bog‘langan plazmali mass-spektrometriya (ICP-MS), rentgen-fluoresans (XRF)

tahlil usullari keng qo‘llaniladi. Ushbu metodlar yuqori aniqlikda natija berib, tuproqning ifloslanish darajasini baholash imkonini yaratadi.

Tahlil natijalari asosida tuproqning ekologik holati baholanadi va zarur choralar belgilanadi. Bunga rekultivatsiya ishlari, fitoremediatsiya (o‘simliklar yordamida tozalash), hamda sanoat chiqindilarini kamaytirish kabi tadbirlar kiradi. Shu orqali tuproq unumdorligini saqlash va atrof-muhitni muhofaza qilishga erishiladi.

Ishlab chiqarish korxonalarining ekologiyaga salbiy ta’sirini kamaytirish nafaqat texnologik, balki ijtimoiy va tarbiyaviy yondashuvlarni ham talab qiladi. Asosiy ekologik muammolarga atmosferaga zararli moddalarning chiqarilishi, qishloq xo‘jaligiga salbiy ta’siri va aholi salomatligiga tahdidlar kiradi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun mintaqaviy ekologik monitoring, ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish va aholining xabardorligini oshirish muhim ahamiyatga ega [3].

Metodikasi. Tuproq tarkibini tahlil qilishning birinchi bosqichi tadqiqot hududi sharoitlarini aniq aks ettiruvchi reprezentativ namunalarni olishdir. Namuna olish jarayonida viloyatning 5 ta joyidan tuproq namunalari olindi. Olib kelingan suv namunalari(1,2,3,4,5) hamda tuproq namunalari (6,7,8,9,10) nomerlarda belgilanib, ular optik emission spektrometrida kerakli reaktivlar yordamida tahlil qilindi.

Ishlatiladigan asbob va uskunalar: ISP OES Avio-200 (ICP-OES) yoki shunga o‘xshash mass-spektrometr: programmalashtirish imkoniyatiga ega mikroto‘lqinli parchalagich – Berghof yeki shunga o‘xshagan pechka, Teflondan ishlangan avtoklavlar o‘lchagich kolbalar.

Reaktivlar: MS uchun multi elementli standart (29), MS uchun multi elementli standart (nodir metallar), standart – Hg (rtut), nitrat kislota (x/ch) tozalangan, vodorod peroksid (x/ch), deionizatsiyalangan suv, argon (tozalik darajasi 99,995%).

Namunani analizga tayyorlash. 0,1000 g aniq tortma teflon avtoklavlarga miqdoriy o‘tkaziladi. Uning ustiga 3 ml tozalangan konsentrlangan

9. Akhmatovich S.N. *et al.* Calculation of mechanical characteristics and regulation methods of the electric actuator rotation frequency of the air conveyor // PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology 17(6). 2020. Pp. 3349–3356. Available: https://archives.palarch.nl/index.php/jae/article/view/1321

10. Samatov N. Selection of flow diagrams of the adjustable thyristor asynchronous electric actuator with phase control // The American Journal of Engineering and Technology 2(11). 2020. Pp. 19–24. Available: https://inlibrary.uz/index.php/tajet/article/download/10336/10768

11. Samatov N. Closed system of asynchronous electric drive with asymmetric activation of thyristors // Jundishapur Journal of Microbiology 15(1). 2022. Pp. 1573–1578. Available: https://jjmicrobiol.com/index.php/jjm/article/view/271

12. Samatov N.A. Selection of power circuits of a controlled thyristor asynchronous electric drive with phase control // Science and Education in Agriculture 1(2). 2023. Available: http://seagcandqxai.tilda.ws/

TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARIGA ISHLOV BERISHDA PID VA NEYRON TARMOQ BOSHQARUVI TAHLILI

J.M.Murodov

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

info@ttysi.uz

Annotatsiya. *Ushbu maqolada to‘qimachilik texnologik jarayonlarida keng qo‘llaniladigan PID boshqaruv algoritmi va neyron tarmoq asosidagi boshqaruv usullari o‘zaro solishtirilgan. Haroratni boshqarish misolida ikkala usulning dinamik xossalari, aniqligi, barqarorligi va moslashuvchanligi tahlil qilingan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, neyron tarmoq boshqaruv tizimi o‘zgaruvchan va noaniq sharoitlarda PID ga nisbatan yuqori samaradorlik va moslashuvchanlik ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *To‘qimachilik, PID, neyron tarmoq, boshqaruv tizimi, harorat, moslashuvchanlik, aniqlik, MATLAB, simulyatsiya.*

Abstract. *This article compares the PID control algorithm and neural network-based control methods widely used in textile technological processes. Using temperature control as an example, the dynamic properties, accuracy, stability, and adaptability of both methods are analyzed. The results show that the neural network control system demonstrates higher efficiency and flexibility compared to PID in changing and uncertain conditions.*

Keywords: *Textiles, PID, neural network, control system, temperature, flexibility, accuracy, MATLAB, simulation.*

KIRISH

To‘qimachilik sanoatida texnologik jarayonlar – tolani quritish, ip kalavani barqaror ushlab turish, bo‘yash, termik ishlov berish – aniq boshqaruvni talab qiladi. An’anaviy PID boshqaruv tizimlari uzun yillardan beri sanoatda qo‘llanilgan bo‘lsa-da, jarayonlarning noaniqligi, tashqi shovqinlar va parametrlarning o‘zgaruvchanligi sharoitida ularning samaradorligi cheklangan. Sun’iy intellekt, xususan neyron

tarmoq (NT) asosidagi boshqaruv tizimlari esa o‘z-o‘zidan o‘rganish va moslashish qobiliyati bilan ajralib turadi.

ASOSIY QISM

PID – Proportsional, Integral, Differensial – boshqaruv signali xatolik e(t) bo‘yicha quyidagi formula asosida hosil qilinadi:

$$u(t) = K_p e(t) + K_i \int_0^t e(\tau) d\tau + K_d \frac{de(t)}{dt}$$

bu yerda: *Kp*-proportsional koeffitsiyent; *Ki*-integral koeffitsiyent; *Kd*-differensial koeffitsiyent.

Neyron tarmoq boshqaruv tizimi – bu tizimning kirish va chiqish ma’lumotlari asosida o‘rganib boruvchi, murakkab nochiziqli bog‘lanishlarni modellashtira oladigan intellektual tizimdir.



1-rasm. Neyron tarmoq boshqaruvining tuzilmasi

Tadqiqotda to‘qimachilik jarayonlaridan biri – quritish jarayonidagi haroratni boshqarish obyekti sifatida tanlandi. Jarayon matematik modeli quyidagicha ifodalanadi:

$$G(s) = \frac{1.5}{30s + 1} e^{-5s}$$

bu yerda: *5s* – kechikish vaqti (transport delay).



2-rasm. Boshqaruv tizimining tuzilmasi

Simulyatsiyalar MATLAB/Simulink muhitida amalga oshirildi. Quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha solishtirildi: o‘rnatilish vaqti (t), ko‘tarilish vaqti (t), ochiq chiqish (overshoot), statik xatolik (eu), integral xatolik (IAE).

Quyidagi grafikda PID va neyron tarmoq boshqaruv tizimlarining birlik qadamli signalga javobi solishtirilgan.



3-rasm. PID va neyron tarmoq tizimlarining javob grafigi

1-jadval. Natijalar taqqoslanishi

Ko‘rsatkichlar	**PID boshqaruv**	**Neyron tarmoq boshqaruv**
Ko‘tarilish vaqti (t)	18.6 s	9.7 s
O‘rnatilish vaqti (t)	78.4 s	32.1 s
Overshoot (%)	16.3%	3.2%
Statik xatolik (eu)	0.012	0.0018
IAE (Integral xatolik)	42.7	12.6

Neyron tarmoq boshqaruvning moslashuvchanligini ko‘rsatish uchun harorat va havo oqimi o‘zgarishlari ta’siridagi chiqish sirt grafigi qurildi.



4-rasm. Neyron tarmoq tizimiining 3D sirt grafigi

Neyron tarmoq tizimi tashqi shovqin va parametr o‘zgarishlariga nisbatan yuqori barqarorlik ko‘rsatadi.



Neyron tarmoq boshqaruv tizimi PID ga nisbatan ancha tez va aniq javob beradi. Overshoot va statik xatolik qiymatlari sezilarli darajada kamayadi. Neyron tarmoq o‘zgaruvchan sharoitlarda (shovqin, parametr o‘zgarishi) o‘zini yaxshi moslashtira oladi. 3D sirt grafigi neyron tarmoqning nochiziqli jarayonlarni samarali modellashtira olishini tasdiqlaydi.

XULOSA

To‘qimachilik sohasidagi quritish jarayoni misolida PID va neyron tarmoq boshqaruv tizimlari solishtirildi. Simulyatsiya natijalari shuni ko‘rsatadiki, neyron tarmoq asosidagi boshqaruv tizimi an’anaviy PID boshqaruvga nisbatan: tezroq moslashadi; kamroq xatolik bilan ishlaydi; tashqi shovqin va parametr o‘zgarishlariga chidamli; murakkab nochiziqli jarayonlarda yuqori samaradorlik

ko‘rsatadi. Shu sababli zamonaviy to‘qimachilik korxonalarida neyron tarmoq asosidagi intellektual boshqaruv tizimlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Siddikov, I., Khalmatov, D., Khushnazarova, D., & Khujanazarov, U. (2024). Neural network control of a nonlinear dynamic plant with a predictive model. *International Journal of Electrical and Computer Engineering*, *14*(5), 5131–5138. https://doi.org/10.11591/ijece.v14i5.pp5131-5138

2. I.Siddikov, N.Mamasodikova, O.Rayimdjanova, D.Khalmatov, X.Mirzaaxmedova. Algorithms for synthesis of a fuzzy control system chemical reactor temperature. III International Workshop on Modeling, Information Processing and Computing (MIP: Computing-2021). CEUR Workshop Proceedings, 2021, vol 2899, pp. 64–70

O‘SIMLIKLAR ORQALI ATROF-MUHIT IFLOSLANISHINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI O‘RGANISH

Mexmonova Saidaxon Baxromjon qizi[1]

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy Pedagogika universiteti,

Aniq va ijtimoiy fanlarni o‘qitish metodikasi (kimyo) yo‘nalishi magistranti

saidanishonova571@gmail.com

Mamadaliyeva Nodira Isakovna[2]

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy

pedagogika universiteti dotsenti

ORCID ID: https://orcid.org/0000-0001-7074-41262

n.mamadaliyeva@yandex.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘simliklar, ayniqsa barg yuzasida to‘planuvchi chang va aerozol zarrachalari orqali atrof-muhit ifloslanishini baholashning ilmiy asoslari tahlil qilinadi. O‘simliklarning bioindikator sifatidagi roli, chang to‘planishiga ta’sir etuvchi ekologik va antropogen omillar hamda zamonaviy monitoring metodlari izchil yoritilgan. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar asosida ushbu yondashuvning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Biologigik indekator, o‘simlik, Ifloslanish, atrof-muhitga ta’sirni baholash, ekologik monitoring, barqaror rivojlanish, samaradorlik.*

Abstract. *This article examines the scientific basis of environmental pollution assessment using plants, particularly foliar dust accumulation. The role of plants as bioindicators, factors influencing dust deposition, and modern monitoring methods are discussed. The effectiveness of this approach is substantiated based on recent studies.*

Keywords: *Biological indicator, plant, pollution, environmental impact assessment, ecological monitoring, sustainable development, efficiency.*

KIRISH

Atrof-muhit ifloslanishini aniqlash va baholash bugungi kunda ekologiya va kimyo fanlarining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. An’anaviy instrumental usullar yuqori aniqlikni ta’minlasa-da, ularning iqtisodiy va texnik jihatdan murakkabligi keng hududlarda doimiy monitoring olib borishni cheklaydi. Shu sababli bioindikatsiya usullari, xususan o‘simliklardan foydalanish, ilmiy hamjamiyatda tobora keng e’tibor qozonmoqda.

ASOSIY QISM

O‘simlik barglari atmosfera bilan doimiy aloqada bo‘lib, havodagi chang, aerozol va og‘ir metall zarrachalarini o‘z yuzasida to‘plash xususiyatiga ega. Natijada barg yuzasi ma’lum vaqt oralig‘ida muhitdagi ifloslanish darajasining integrallashgan ko‘rsatkichiga aylanadi. Shu jihatdan o‘simliklar tabiiy “monitoring vositasi” sifatida qaraladi. O‘simliklarning bioindikator sifatidagi ahamiyati ularning tashqi muhit bilan bevosita va uzluksiz aloqada bo‘lishi bilan belgilanadi. Barg yuzasida chang va aerozol zarrachalarining to‘planishi, ayniqsa sanoat va transport chiqindilarining ta’sirini aks ettiradi. So‘nggi ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘simlik barglarida to‘plangan chang tarkibida og‘ir metallar mavjudligi hududdagi antropogen bosim darajasi haqida ishonchli ma’lumot beradi.

Ayniqsa yirik bargli va yuzasi murakkab mikrostrukturaga ega o‘simlik turlari changni ko‘proq ushlab qoladi. Shu sababli ular ekologik monitoringda samarali bioindikator sifatida keng qo‘llanilmoqda. Bu yondashuv orqali havoning ifloslanish darajasini faqat bir lahzadagi emas, balki ma’lum vaqt oralig‘idagi umumiy holatini baholash mumkin.

O‘simlik barglarida chang to‘planishi murakkab fizik-kimyoviy va ekologik jarayonlar natijasidir. Barg yuzasining tuzilishi, uning g‘adir-budurligi, tukchalar mavjudligi va mum qavati chang zarrachalarining yopishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tashqi muhit sharoitlari ham muhim rol o‘ynaydi. Shamol tezligi changning ko‘chishiga sabab bo‘lsa, namlik uning barg yuzasiga

yopishishini kuchaytiradi, yog‘ingarchilik esa aksincha, to‘plangan changni yuvib ketadi.

Antropogen omillar, xususan transport oqimi va sanoat korxonalarining yaqinligi chang to‘planish darajasini keskin oshiradi. Ilmiy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, yo‘l bo‘yida o‘suvchi o‘simliklarda chang miqdori boshqa hududlarga nisbatan bir necha barobar yuqori bo‘ladi. Bu esa ushbu metodning urban hududlarda ayniqsa muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Barglarda to‘plangan chang miqdorini aniqlash ekologik monitoringning nisbatan sodda, ammo informativ usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu metod odatda barg yuzasidan changni yuvib olish, uni filtrlash va keyinchalik gravimetrik yoki spektrometrik usullar orqali tahlil qilish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Olingan natijalar orqali ma’lum hududdagi ifloslanish darajasi miqdoriy jihatdan baholanadi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ushbu yondashuv atom-absorbsiya spektroskopiyasi yoki yuqori aniqlikdagi plazma mass-spektrometriyasi bilan birgalikda qo‘llanilib, chang tarkibidagi og‘ir metallarni aniqlash imkonini beradi. Bu esa ifloslanish manbalarini chuqurroq tahlil qilishga yordam beradi.

Shu bilan birga, metodning ayrim cheklovlari ham mavjud. Natijalar ob-havo sharoitlariga sezgir bo‘lib, turli o‘simlik turlari orasidagi farqlar tahlilni murakkablashtiradi. Bundan tashqari, changning kelib chiqish manbasini aniq ajratish har doim ham oson emas. Shu sababli ilmiy jihatdan asoslangan yondashuv ushbu metodni boshqa analitik usullar bilan birgalikda qo‘llashni talab qiladi.

O‘zbekiston sharoitida olib borilgan tadqiqotlar, ayniqsa yirik shaharlarda, o‘simlik barglari orqali transport va sanoat ifloslanishini baholash mumkinligini ko‘rsatgan. Toshkent shahrida o‘tkazilgan kuzatuvlar barglarda og‘ir metallar to‘planishi bilan transport zichligi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjudligini aniqlagan.

Jahon miqyosida esa bu yondashuv urban ekologiyada keng qo‘llanilib, ayniqsa Xitoy va Hindistonda havoning ifloslanishini monitoring qilishda samarali

vosita sifatida qaralmoqda. Yevropa mamlakatlarida bioindikatsiya usullari geografik axborot tizimlari bilan integratsiyalangan holda qo‘llanilib, hududiy ekologik tahlillarni yanada aniqlashtirishga xizmat qilmoqda.

XULOSA

O‘simlik barglarida chang to‘planishiga asoslangan bioindikatsiya usuli atrof-muhit ifloslanishini baholashda ilmiy asoslangan va amaliy jihatdan samarali yondashuv hisoblanadi. Ushbu metod ekologik monitoringni arzonlashtirish va keng hududlarda qo‘llash imkonini beradi. Shu bilan birga, natijalarning aniqligini oshirish uchun uni zamonaviy analitik usullar bilan uyg‘unlashtirish zarur.

Kelgusida ushbu yondashuvni rivojlantirish, ayniqsa raqamli texnologiyalar va fazoviy tahlil usullari bilan integratsiya qilish orqali ekologik monitoring tizimini yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ekologik monitoring asoslari va amaliyoti. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti. Yuldashev, A., Rakhimov, S. (2021).

2. Shahar hududlarida atmosfera ifloslanishini baholash usullari. O‘zbekiston kimyo jurnali, №3. Abdukarimov, B.A. (2020).

3. Atmosfera havosining ifloslanishi va uning bioindikatsion baholash usullari. Toshkent.

4. Khare, M. (Ed.). Air Pollution: Monitoring, Modelling and Health. IntechOpen, 2012.

5. Vallero, D.A. Fundamentals of Air Pollution. 6th Edition. Academic Press, 2014.

6. Li, L. va boshqalar. Spatiotemporal Analysis of Air Pollution and Its Application in Public Health. Elsevier, 2019.

7. Greenwood, R. va boshqalar. Passive Sampling Techniques in Environmental Monitoring. Elsevier, 2007.

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING TUPROQ KARTALARINI LOYIHALASH VA TUZISH

Ya.G.Xudaybergenov

Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti

A.U.Nuratdinov

Qoraqalpoq davlat universiteti assistenti

Sh.B.Qodirov Y.A. Allamuratov

Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

sherzodq073@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasining tuproq kartalarini loyihalash va tuzish jarayonining ilmiy-uslubiy asoslari keng yoritilgan. Tadqiqotda hududning tabiiy-iqlim sharoitlari, geomorfologik xususiyatlari hamda tuproq qoplami shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, tuproq xaritalarini yaratishda zamonaviy geografik axborot tizimlari (GIS), masofaviy zondlash ma’lumotlaridan foydalanilgan.*

Kalit so‘zlar: *GIS,tuproq xaritasi, yer qoplami, sho‘rlanish, degradatsiya, yer monitoringi*

Annotation: *This article comprehensively discusses the scientific and methodological foundations of designing and compiling soil maps of the Republic of Karakalpakstan. The study analyzes the natural and climatic conditions of the region, its geomorphological features, and the main factors influencing soil formation. In addition, modern Geographic Information Systems (GIS) and remote sensing data are used in the creation of soil maps.*

Keywords: *GIS, soil map, land cover, salinity, degradation, land monitoring*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida yer va uning tuproq resurslari mavjud hamma sohalarning tayanchi, asosiy ishlab chiqarish vositasidir. Demak, mamlakatimiz iqtisodiyotining agrar sektorining rivojlanishi shunga boqliqdir. Qishloq xo‘jalik

ishlab chiqarishining asosiy vositasi bo‘lmish yer – tuproq qoplami bioqatlamning barqarorligi va uning ekologik holatini saqlab turishda ham katta rol o‘ynaydi.[1]

O‘zbekiston Respublikasida yer - davlat mulki, umummilliy boylik, ulardan oqilona foydalanish zarur. Yer davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Davlat yerning asosiy egasi sifatida yer fondiga egalik qilish va undan to‘g‘ri foydalanishni ham tashkil etishi zarur.[2]



1-diagramma. O‘zbekiston Respublikasi yer fondining hududlar miqyosida taqsimlanishi (% hisobida).

Mavzuning dolzarbligi. Yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer fondi toifalari o‘zgarishini o‘z vaqtida aniqlash, yerlarni monitoring qilish, katta hududlarda ma’lumot to‘plash va ularni qayta ishlash jarayonlari bir qancha qiyinchiliklarga olib keladi. Bunday muammolarni hal etishda yangi axborot

texnologiyalaridan keng foydalanib, yerlardan unumli foydalanishni yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Ko‘pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda yer resurslaridan foydalanishni mintaqaviy rejalashtirish va uni monitoring qilish dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Bunday muammolarni hal etishda masofadan zondlash texnologiyalaridan keng foydalanib, yerlardan unumli foydalanishni yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.[4]

ASOSIY QISM

Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekistonning chekka shimoli-g‘arbida, Quyi Amudaryo hududida joylashgan. Qoraqalpog‘iston yer usti tuzilishi murakkab emas: eng baland nuqtasi Sulton Uvays tizmasi bo‘lib, u dengiz sathidan 473 m balandlikda joylashgan. Sariqamish va Asaka cho‘kindilari esa anaqurlim pastda joylashgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasining g‘arbiy qismi Ustyurt platosi, qolgan hududi Turon pasttekisligi bilan band.



1-rasm. ArcGIS10.8 tayyorlangan Tadqiqot obyektining joylashuvi kartasi.

Respublikaning umumiy yer maydoni 01.05.2026 yil holatiga ko‘ra 16659,1 ming gektarni tashkil etadi. Qishloq xo‘jaligi uchun yaroqli yer maydonlari Amudaryo deltasida joylashgan bo‘lib, ular iqlim sharoitiga ko‘ra cho‘l zonasining shimoliy hududlariga kiradi. Respublikaning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlari maydoni 3260,1 ming gektar bo‘lib shundan, sug‘oriladigan ekin yerlari asosan, o‘tloqi, o‘tloqi-taqir, o‘tloqi-cho‘l, o‘tloqi-allyuvial tuproq tiplarini o‘z ichiga oladi. Yer fondi hisobidagi 500,1 ming gektar maydonlar sug‘oriladigan yerlar bo‘lib, shundan 419,4 ming gektari haydaladigan yerlarni tashkil etadi. Keyingi yillarda mintaqa ekologiyasida yuz berayotgan salbiy ta’sirlarga ko‘ra ekin maydonlarining unumdorligi pasayib bormoqda.[3]

Ko‘pchilik ekin maydonlari tuprog‘i tarkibida gumus miqdori kam (0,41-80%) ko‘rsatkichlarda bo‘lib qolmoqda. Mintaqaning tuproqlari o‘rtacha 41 ballga

teng bo‘lib, bu O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan 14 ballga kam. Shu bilan bir qatorda, hududning ayrim joylarida ekinlarning vegetatsiya davrida yer osti suvlari sathining tegishli ko‘rsatkichdan ortiq ko‘tarilish holatlari ham uchraydi. Ma’lumki, ekin maydonlarining meliorativ holati yomonlashuvi natijasida tuproq tarkibida zararli tuzlar miqdori ortib boradi. Bunday sho‘rlangan maydonlarni o‘z vaqtida aniqlash va tegishli choralarni ko‘rish yer resurslaridan oqilona foydalanish va monitoringini yuritish uchun zamonaviy texnologiyalarni talab etmoqda.[3]



2-diagramma. Qoraqalpog’istonning yer fondi toifalari.

Yuqoridagi 2-diagrammada o‘rmon fondi yerlari eng yuqori (40%) ko‘rsatkichni ko‘rishimiz mumkin. Ammo mintaqadagi iqlim o‘zgarishlari va ekologik halokat, xususan, sho‘rlanish darajasi va boshqa omillar natijasida o‘rmonlar juda siyrak holda tarqalgan, qolganlari esa shu maqsaddagi davlat tashkilotlariga berilgan yerlar hisoblanadi. Zaxira yerlar (35%) mintaqadagi yana bir yirik yer toifalaridan biri hisoblanadi, bu respublikaning Ustyurt platosi va Qizilqum cho‘li oralig‘ida joylashganligi bilan bog‘liq.[7]

Respublikamizning yer resurslari davlat boshqarmasining ma’lumotiga qaraganimizda mamlakatimizning so‘nggi 10 yil ichida tuproqning meliorativ holati sezilarli darajada o‘zgarishlar bo‘lganligini tasdiqladi. 2024-yilda kuchsiz sho‘rlangan yerlar maydoni 2000 yilga nisbatan 288,2 mln gektar (8,4%), o‘rtacha sho‘rlangan yerlar 63,3 mln gektar (2,1%) va kuchli sho‘rlangan yerlar maydoni 210,0 mln gektarga (5,7%) ortdi.

Respublikamizda umumiy sho‘rlangan tuproqlarning yer maydonlari o‘rganilib shundan o‘rtacha va kuchli sho‘rlangan yerlar,78% ni tashkil etadi

Qoraqalpog‘iston Respublikasi yerlarining sho‘rlanish ko‘rsatkichi Tuproqning yuqori haydalma qatlamida 0,6% ortiq soda 0,1% ortiq xlor va 2% ortiq sulfatlar tuzning tarkibida uchrab sho‘rlangan tuproqdan bunday tuzlarning tiplariga har xil miqdorda bo‘lishidan farq qiladi. Masalan, tuproq tarkibida eng zaharli tuzlar oddiy soda (Na2Co3) hisoblanib, uning 0,6% miqdori bo‘lsa bunday tuproqlar umuman hosil bermaydigan tuproqqa aylanadi, buning 0,1% miqdori o‘simlikning normal o‘sib rivojlanishiga ma’lum darajada sezilarli ta’sir etadi.[6]



2-rasm ArcGIS10.8 tayyorlangan Qoraqalpog'istonning tumanlar kesimida sho'rlanish darajasi ko'rsatkichlari kartasi (%,2024-y)

XULOSA

Tuproq unumdorligining sezilarli darajada pasayishining asosiy sabablaridan biri suv va irrigatsiya eroziyasida tuproq eroziyasiga asoslanganda sug'oriladigan tuproqlarga xos bo'ladi. Bu yerlarning yarmiga yaqin bo'lgan relyefli yerlarda va ularning irrigatsion eroziya rivojlanish sababi cho'l zonalarga nisbatan ko'proq tuproqning yuvilishidan qiyaligi 1-2° ga yetganda boshlanib qiyalik ortgan sari eroziya jarayoni tezlashadi. Eng xavflisi eroziya natijasida tuproqda gumus va oziq moddalar kamayadi. Buning sababidan qishloq xo'jaligida yer aylanma qimmat sug'oriladigan yerlar paydo bo'lmoqda. Bundan tashqari tuproqqa sarflanadigan o'g'it va zaharli kimyoviy moddalarning bir qismi tuproqda yuvilib, suv omborlarida saqlanib atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. P.Uzoqov., Sh. Holiqulov., Tuproqshunoslik Toshkent – 2010 [7-bet]

2. O’zbekiston Respublikasi konsitutsiyasi kitobi

3. Tuproq bonitirovkasi va xaritalash, darslik. Nomozov X.Q., Turdimetov Sh.M. Toshpo‘latov S. T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2019 –450 b.[4-bet]

4. https://adabiyotxazinasi.com/index.php/conf/article/download/413/381/749.

5.Mirzaliev T.Musayev.I.Safayev.E. Ijtimoiy iqtisodiy kartografiya 116-b

6. Geologiya va gidrogeologiya asosiari. G‘U.Yusupov, B.M.Xolbayev. - T.: “Yangi asr avlodi”. 2005, 384 bet

7.Mirzaliyev T. , Musaev I.M. Kartografiya. O’kuv qo’llanma. T. TIMI, 2013. –178 b.

VETERINARIYADA PROBIOTIKLARNING FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA QO‘LLANILISHI

Ro‘zmetov Abrorbek Alisher o‘g‘li

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali 70840103-Veterinariya farmakologiyasi va toksikologiyasi mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

ruzmetovabrorbek1@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada probiotiklarning veterinariyadagi farmakologik xususiyatlari va klinik qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Probiotiklar – tirik mikroorganizmlar bo‘lib, ular me’yoriy miqdorda qo‘llanganda organizmning mikrobiom muvozanatini tiklash, immun tizimini faollashtirish va patogenlarga qarshi kurashda samarali vosita hisoblanadi. Maqolada probiotiklarning farmakodinamikasi, farmakokinetikasi, asosiy shtammlari, qo‘llanish usullari, xavfsizligi hamda kelajak istiqbollari yoritilgan.

Abstract. This article analyzes the pharmacological properties and clinical applications of probiotics in veterinary medicine. Probiotics are live microorganisms that, when administered in adequate amounts, serve as an effective tool for restoring the microbial balance of the organism, activating the immune system, and combating pathogens. The article covers the pharmacodynamics, pharmacokinetics, main strains, methods of administration, safety, and future prospects of probiotics.

Kalit so‘zlar: probiotiklar, veterinariya, farmakologik xususiyatlar, mikrobioma, immunomodulyatsiya, disbakterioz, shtamm, sinbiotiklar

Keywords: probiotics, veterinary medicine, pharmacological properties, microbiome, immunomodulation, dysbiosis, strain, synbiotics

Mavzuning dolzarbligi. So‘nggi yillarda veterinariya tibbiyotida antibiotiklarga chidamlilik muammosi keskin ortib bormoqda. Antibiotiklardan noto‘g‘ri va haddan tashqari ko‘p foydalanish natijasida ko‘plab patogen bakteriyalar ko‘p dori turlariga qarshilik kasb etgan. Shu sababli, profilaktika va davolashda alternativ strategiyalar izlash dolzarb vazifaga aylandi. Shu nuqtai nazardan, probiotiklar – tirik foydali mikroorganizmlar veterinariya amaliyotida tobora ko‘proq qo‘llanilmoqda. Veterinariyada probiotiklar nafaqat oshqozon-ichak kasalliklarida, balki immunitetni mustahkamlash, mahsuldorlikni oshirish va stress omillarining salbiy ta’sirini kamaytirishda ham qo‘llaniladi. Probiotik singari biogen stimulyator preparatlar tibbiyot sohasi va veterinariya tarmoqlari uchun nihoyatda muhim preparat chunki uning eng yaxshi samarali ta’siri hazm traktiga qaratilgan shu asnoda probiotiklarni ta’siri natijasida respublikada go‘sht, sut, tuxum hamda boshqa mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyojlar qondiriladi. Buni hukumatimiz va hurmatli prezidentimizning qator qaror, farmon, farmoyishlarida ham o‘z tasdig‘ini topadi. Xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvarda qabul qilingan PF-55-son “2022-2026-yillarda respublikaning farmatsevtika tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Aholini sifatli, samarali va xavfsiz dori vositalari hamda farmatsevtika mahsulotlari bilan ta’minlash, ichki bozorni mahalliy mahsulotlar bilan to‘ldirish, ishlab chiqarish hajmini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirish hamda 2019-yil 30-dekabr PQ-4554-son “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekistonda farmatsevtika tarmog‘ida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida va 2020-2024-yillarga mo‘ljallangan farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish konsepsiyasida keltirilgan. Shu bilan birgalikda 2025-yil 30-yanvar PQ-34-son “Chorvachilik va parrandachilikni qo‘llab-quvvatlash, sohada yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar

to‘g‘risida”gi qarorlarida o‘z tasdig‘ini topadi. Mazkur maqolaning maqsadi – probiotiklarning farmakologik xususiyatlarini tizimli yoritish va ularning veterinariya amaliyotidagi o‘rnini ko‘rsatishdan iborat.

Probiotiklarning umumiy farmakologik xususiyatlari. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) va Xalqaro probiotiklar va prebiotiklar ilmiy assotsiatsiyasi (ISAPP) ta’rifiga ko‘ra, probiotiklar – bu yetarli miqdorda qo‘llanganda xo‘jayin organizmiga sog‘liq uchun foyda keltiradigan tirik mikroorganizmlardir.



1-jadval. Veterinariyada eng ko‘p qo‘llaniladigan shtammlar:

Probiotiklarning ta’sir mexanizmi murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, quyidagi yo‘llar orqali amalga oshadi:

a) *immunomodulyatsiya* – probiotiklar ichak bilan bog‘liq limfoid to‘qimani (GALT) faollashtiradi. Ular makrofaglar, dendrit hujayralar va T-regulyator hujayralar orqali sIgA ishlab chiqarishni kuchaytiradi, shuningdek, yallig‘lanishga qarshi sitokinlar (IL-10, TGF-β) sintezini rag‘batlantiradi, yallig‘lanish sitokinlari (TNF-α, IL-6) esa kamayadi;

b) *antipatogen faollik* – probiotiklar bir necha mexanizm bilan patogenlarni bostiradi:

• Organik kislotalar (sut, sirka kislotalari) ishlab chiqarib, muhit pH ni pasaytiradi.

• Bakteriosinlar (nisin, plantaricin, laktosin) sintez qilib, patogenlarning hujayra devorini buzadi.

• Patogenlarning retseptorlar bilan raqobatlashib, ularning ichak epiteliysiga yopishishiga to‘sqinlik qiladi.

d) *ichak to‘sig‘i funksiyasini kuchaytirish* – probiotiklar oqsilli tig‘iz birikmalar (klaudin, okkludin, ZO-1 ya’ni periferik membrana oqsili) ifodalanishini oshiradi, shu tariqa *“sizib chiquvchi ichak”* sindromini kamaytiradi va patogenlarning qon aylanish tizimiga o‘tishini oldini oladi;



2-jadval. Klaudin, okkludin va ZO-1 – qiyosiy tavsifi

e) *metabolitlar ishlab chiqarish* – probiotiklar qisqa zanjirli yog‘ kislotalari (butirat, propionat, asetat), vitaminlar (B guruhi, K) va fermentlar (laktaza, fitaza) sintez qiladi. Butirat ayniqsa kolonotsitlar uchun asosiy energiya manbai bo‘lib, ichak sog‘lig‘ini saqlaydi.

Veterinariyada probiotiklarning farmakokinetikasi odamlar bilan solishtirganda bir qator o‘ziga xosliklarga ega:

a) *so‘rilish* – probiotik bakteriyalar asosan so‘rilmaydi, ular oshqozon-ichak trakti orqali o‘tadi. Spora hosil qiluvchi Bacillus turlari kislotali muhitga (oshqozon) chidamliroq;

b) *tarqalish* – sog‘lom hayvonlarda probiotiklar asosan ichak bo‘shlig‘ida qoladi. Immuniteti zaif hayvonlarda translokatsiya (ichakdan chiqib, limfa yoki qonga o‘tish) mumkin, ammo bu kamdan-kam uchraydi;

d) *o‘rnashish* – aksariyat probiotik shtammlar vaqtinchalik kolonizatsiya qiladi, ya’ni ularni qabul qilish to‘xtatilgandan keyin 1–2 hafta ichida organizmdan butunlay chiqarib yuboriladi. Qishloq xo‘jalik hayvonlarida (masalan, qoramol, cho‘chqa) o‘rnashish uzoqroq davom etishi mumkin;

e) *chiqarilish* – najas bilan chiqariladi.

Har bir hayvon guruhi uchun maxsus probiotik shtammlari ishlab chiqilgan. *Quyida asosiy yo‘nalishlar:*

3-jadval

Hayvon guruhi	**Tavsiya etiladigan shtammlar**	**Asosiy ko‘rsatmalar**
Itlar va mushuklar	*E. faecium, L. acidophilus, B. animalis, S. boulardii*	Diareya, stress, allergik dermatit, parodontit

Qoramol	*L. casei, L. plantarum, E. faecium, P. acidilactici*	Mastit, rumen atsidozi, neonatal diareya, sut mahsuldorligi
Parrandalar	*B. subtilis, L. reuteri, P. acidilactici*	Salmonellyoz, koksidioz, o‘sish stimulyatsiyasi
Otlar	*L. pentosus, S. cerevisiae*	Kolik, yo‘g‘on ichak disbakteriozi

Klinik qo‘llanilish sohalari. Probiotiklarning eng keng tarqalgan qo‘llanish sohasi – diareya, ayniqsa:

• Virusli enteritlar (parvovirus, koronavirus) – *S. boulardii va L. casei* parvovirusli itlarda diareya davomiyligini qisqartiradi.

• Bakterial infeksiyalar – *Salmonella, E. coli, Clostridium perfringens. L. plantarum va B. subtilis* patogenlarni siqib chiqaradi.

• Antibiotik bilan bog‘liq diareya – *Bifidobacterium va L. rhamnosus GG* antibiotik ta’sirida vujudga keladigan disbakteriozni bartaraf etadi.

• Stressli diareya (transport, sutdan ajratish, vaksinatsiya) – probiotiklarni profilaktik qo‘llash diareya xavfini 50–70% gacha kamaytiradi.

Transport, ozuqa o‘zgarishi, ob-havo keskin o‘zgarishi hayvonlarda gormonal va immunologik stressni keltirib chiqaradi. Probiotiklar (ayniqsa *L. acidophilus va B. subtilis*) kortizol darajasini pasaytiradi, sIgA va lizosim faolligini oshiradi. Parrandachilikda probiotiklar qo‘shilgan yem virusli kasalliklarga (Nyukasl, infeksion bronxit) qarshi vaksinal javobni kuchaytiradi.

Shakli	**Qo‘llanish yo‘li**	**Afzalliklari**
Kukun (premiks)	Yemga yoki sutga aralashtirish	Keng miqyosda qulay, arzon

Pasta, gel	Og‘iz orqali (applikator yordamida)	Aniq dozalash, qisqa kurs
Kapsula / tabletka	Og‘iz orqali	Barqaror, uzoq saqlanadi
Suyuq suspenziya	Og‘iz orqali, suvga qo‘shib	Tez so‘riladi, neonatal hayvonlar uchun
Intramammar suspenziya	Sut beziga	Mahalliy mastit profilaktikasi
Vaginal pessariy	Qin ichiga	Endometrit profilaktikasi

4- jadval. Veterinariyada probiotiklarning shakllari va qo‘llanish yo‘llari

Parrandalar (tovuqlar, kurkalar, o‘rdaklar va broylerlar) uchun probiotiklar bir kunlik jo‘jalarga suv, yem yoki aerozol purkash orqali beriladi. Asosiy maqsadlar patogen mikroflora darajasini pasaytirish, ichak mikrobiotasini qo‘llab-quvvatlash va yem hazm qilishni yaxshilashdir. Dozalar yoshga bog‘liq:

• Bir kunlik jo‘jalar va kurka parrandalari – $1–2\times10^9$ CFU/kg ozuqa yoki 10^8 CFU/litr ichimlik suvi;

• Broylerlar va yosh hayvonlar – $2–5 \times 10^9$ CFU/kg ozuqa;

• Quyonlar va qo‘ylar – $3–6\times10^9$ CFU/kg yem.

Parrandalar uchun probiotiklarga *Lactobacillus spp., Enterococcus spp., Pediococcus spp., Bacillus subtilis*, xamirturush kulturalari va prebiotik qo‘shimchalar (mannan oligosaxaridlari, fruktooligosaxaridlari) kiradi. Ular suvga qo‘shiladi va suyuq yoki kukun shaklida yem bilan aralashtiriladi.

Probiotiklarni qo‘llashda bir nechta muhim jihatlarni hisobga olish kerak: ular 60°C dan yuqori haroratgacha saqlamaslik kerak (aks holda bakteriyalar nobud bo‘ladi) ular ozuqa yoki suvda teng taqsimlanishi kerak va ulardan muntazam foydalanish kerak, chunki bitta doza uzoq muddatli ta’sir ko‘rsatmaydi.



5-jadval. Dozalari (tavsiyaviy)

Eslatma: Dozalar shtammga va mahsulotga qarab farq qilishi mumkin.

Shuningdek, probiotiklarning antibiotiklar bilan mosligini kuzatib borish kerak – ba’zi bakterial shtammlar antibakterial dorilarga sezgir, shuning uchun ularni qabul qilish o‘rtasida vaqt oralig‘i bo‘lishi kerak.

Probiotiklar odatda xavfsiz hisoblanadi, ammo quyidagi holatlarda ehtiyot bo‘lish kerak:

• Immuniteti nihoyatda zaif hayvonlar (*og‘ir immunodefitsit*) – nazariy jihatdan probiotik bakteriyalar sistemik infeksiyaga (masalan, *bakteriemiya*, *sepsis*) sabab bo‘lishi mumkin. Ammo amalda bunday holatlar juda kam uchraydi.

• Sifatsiz mahsulotlar – bozorda faol hayotiy shtammlar miqdori ko‘rsatilganidan bir necha barobar kam bo‘lgan yoki ifloslangan probiotiklar mavjud. Shu sababli faqat sertifikatlangan, sifat nazoratidan o‘tgan mahsulotlarni tavsiya qilish lozim.

• Shtammga xos samaradorlik – bir shtamm barcha kasalliklar va barcha hayvon turlariga birdek ta’sir qilmaydi. Masalan, odamlar uchun mo‘ljallangan *L. rhamnosus GG* itlarda past samaradorlikka ega bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy qishloq xo‘jaligi hayvonlarning mahsuldorligini oshirish, antibiotiklarga bog‘liqlikni kamaytirish va ishlab chiqarishning ekologik barqarorligini oshirish uchun samarali yechimlarni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, probiotiklar ovqat hazm qilishni yaxshilash, immunitetni mustahkamlash, chorva mollari va parrandalarning mahsuldorligini oshirish hamda chorvachilikning atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish uchun eng istiqbolli texnologiyalardan birini ifodalaydi.

So‘nggi yillarda ko‘pgina rivojlangan mamlakatlar o‘sish stimulyatori sifatida antibiotiklardan foydalanishga cheklovlar qo‘ydilar, bu esa probiotiklarni hayvonlar salomatligi va mahsuldorligini saqlashning asosiy alternativasiga aylantirdi. Probiotiklar nafaqat ichak mikroflorasini barqarorlashtiradi va kasallik xavfini kamaytiradi, balki immunitet tizimining tabiiy mustahkamlanishiga ham yordam beradi.

Bakterial kulturalar (*Lactobacillus spp., Bifidobacterium spp., Bacillus subtilis, Enterococcus spp.*) va xamirturushli probiotiklar (*Saccharomyces cerevisiae*) qoramol, cho‘chqa va parrandalarni boqishda keng qo‘llaniladi. Ularning ratsionga kiritilishi kasalliklarning tarqalishini 20-30% ga kamaytirishi, yosh hayvonlarning o‘limini kamaytirishi, ozuqa moddalarining hazm bo‘lishini yaxshilashi va vazn ortishini oshirishi mumkin.

Probiotiklarni qo‘llashning asosiy omillaridan biri ularning tejamkorligidir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ularni chorvachilikda qo‘llash go‘shtli qoramollarning vazn ortishini 8-15% ga, ozuqa konversiyasini 8-12% ga va sut beradigan sigirlarning sut sog‘imini 5-10% ga oshirishi mumkin.

Kavsh qaytaruvchi hayvonlar uchun probiotiklar katta qorin ovqat hazm qilishini barqarorlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Xamirturush va sut kislotasi bakteriyalari fermentativ jarayonlarni faollashtiradi, uchuvchan yog‘ kislotalari ishlab chiqarishni ko‘paytiradi va tola parchalanish samaradorligini oshiradi, bu ayniqsa dag‘al ozuqa berishda muhimdir. Natijada, sigirlar ozuqadan ko‘proq

energiya oladi va fermerlar bir xil ozuqa xarajatlari bilan yuqori hayvonlar mahsuldorligiga ega bo‘ladilar.

Parrandalar uchun probiotiklar oqsil va yog‘larning hazm bo‘lishini yaxshilaydi, ichak fermentlari ishlab chiqarishni oshiradi va immunitet tizimini mustahkamlaydi. Bu tana go‘shtining o‘rtacha vaznining oshishiga, go‘sht sifatining yaxshilanishiga va dori preparatlarga bo‘lgan ehtiyojning kamayishiga olib keladi.

Probiotiklar nafaqat hayvonlarning mahsuldorligini oshiribgina qolmay, balki atrof-muhitga nojo‘ya ta’sirni kamaytirishda ham muhim rol o‘ynaydi. So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, probiotiklardan foydalanish qoramollarda metan (CH_4) chiqindilarini 10-15% ga, cho‘chqa va parrandachilikda ammiak (NH_3) chiqindilarini 20-30% ga kamaytiradi. Bu, ayniqsa, tobora qattiqlashib borayotgan ekologik standartlar sharoitida muhimdir, chunki chorvachilikda issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish global qishloq xo‘jaligi uchun ustuvor vazifa hisoblanadi.

Biotexnologiyadagi yutuqlar ma’lum hayvon turlari va ularning yashash sharoitlariga moslashtirilgan innovatsion probiotik mahsulotlarini yaratish imkonini beradi. Genetika, fiziologik xususiyatlar va ovqatlanish usullarini hisobga olgan holda shaxsiylashtirilgan probiotik komplekslar allaqachon ishlab chiqilmoqda.

Postbiotiklar istiqbolli sohalardan biri bo‘lib, ular ichaklarni tirik mikroorganizmlar bilan kolonizatsiya qilmasdan hayvonlar salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan foydali bakteriyalar metabolitlaridir. Ushbu qo‘shimchalar saqlash sharoitida va oshqozon kislotasi ta’sirida barqarorroq bo‘lib, ularni hatto o‘ta og‘ir oziqlantirish sharoitida ham samarali qiladi.

Shuningdek, probiotiklar va prebiotiklarning kombinatsiyasi bo‘lgan simbiotiklarni joriy etish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Prebiotiklar (mannan oligosaxaridlari, fruktooligosaxaridlari) probiotiklar uchun ozuqaviy muhit bo‘lib xizmat qiladi, ularning faol ko‘payishini rag‘batlantiradi va foydali ta’sirini kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ro‘zmetov A.A, Turabayev N.J, Zarifov H.R, Komiljonov K.K “Probiotiklarning hayvon organizmiga ta’siri”
https://jhlsr.innovascience.uz/index.php/jhlsr/article/view/1654/1461
2. Chowdhury MR, et al. Gut health management in livestock: roles of probiotics, prebiotics, and synbiotics in growth, immunity, and microbiota modulation. Veterinary Research Communications. 2025;49:361
https://link.springer.com/article/10.1007/s11259-025-10927-1
https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/41114910/
3. Ovcharova AN, Petrakov ES. New probiotic preparations based on Lactobacillus reuteri and prospects for their use in animal husbandry (review). Problems of Productive Animal Biology. 2025;(2):5-18
http://bifip.ru/zhurnal/arkhiv/item/novye-probioticheskie-preparaty-na-osnove-lactobacillus-reuteri-i-perspektivy-ispolzovaniya-ikh-v-zhivotnovodstve-obzor-2
4. Halder N, et al. Probiotics in poultry: a comprehensive review. Journal of Basic & Applied Zoology. 2024;85(1):1-17
https://searchworks.stanford.edu/articles/edo__178460488
5. Internet saytlari
www.vetmed.uz
www.veterinaryresearch.com
www.poultry.com
www.vetteria.uz
www.lex.uz
www.vetgov.uz

VII-GURUH ASOSIY ELEMENTLARI (GALOGENLAR) MAVZUSINI O'QITISHDA NAZARIY BILIMLAR VA EKSPERIMENTAL FAOLIYAT INTEGRATSIYASI

Nizomiy nomidagi O'zMPU Kimyo kafedrasi

Pedagogika fanlari falsafalar doktori PhD., dotsenti

Sapayeva Gulzor Islambayevna

Nizomiy nomidagi O'zMPU talabasi

Qurbonova Durdona Qobiljon qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kimyo fanining muhim bo'limlaridan biri bo'lgan VII-guruh asosiy guruhcha elementlari — galogenlar yani ftor, xlor, Brom, yod, astat elementlari haqida ma'lumotlar va ularni o'qitishda nazariy bilimlarni eksperimental faoliyat bilan integratsiyalash masalalari yoritilgan. Galogenlarning fizik-kimyoviy xossalarini o'rganishda faqatgina nazariy ma'lumotlar bilan cheklanib qolmasdan, laboratoriya tajribalari va virtual modellashtirishdan foydalanishning afzalliklari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *galogenlar, interfaol metodlar, metod, tushunchalar Tahlili, aqliy hujum metodi, baliq skeleti, elektromanfiylik, ftor , xlor, Brom , yod, astat, oksidlanish darajalari, oksidlovchilik xossasi, kimyoviy faollik*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются элементы главной подгруппы VII группы — галогены (фтор, хлор, бром, иод и астат), являющиеся одним из важных разделов химии, а также вопросы интеграции теоретических знаний с экспериментальной деятельностью в процессе их обучения. Анализируются преимущества использования лабораторных опытов и виртуального моделирования при изучении физико-химических свойств галогенов, не ограничиваясь только теоретическими данными. В статье представлена информация об использовании интерактивного метода «Рыбий скелет» при преподавании темы галогенов.*

Ключевые слова: *Галогены, интерактивные методы, метод, анализ понятий, метод «мозговой штурм», рыбий скелет, электроотрицательность, фтор, хлор, бром, иод, астат, степени окисления, окислительные свойства, химическая активность.*

Annotation: *This article provides information on the elements of the main subgroup of Group VII — halogens, namely fluorine, chlorine, bromine, iodine, and astatine, which are among the essential branches of chemistry. It highlights the issues of integrating theoretical knowledge with experimental activities in teaching these elements. Rather than being limited to theoretical data, the advantages of using laboratory experiments and virtual modeling in studying the physicochemical properties of halogens are analyzed. Furthermore, the article describes the use of the "Fishbone" (Ishikawa) method as an interactive teaching tool for the topic of halogens.*

Keywords: *Halogens interactive methods, method, concept analysis, brainstorming method, fishbone, electronegativity, fluorine, chlorine, bromine, iodine, astatine, oxidation states, oxidizing properties, chemical activity.*

KIRISH

Hozirgi kunda talim jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalarni qo‘llash sohasidagi ilmiy izlanishlar pedagogika fanida eng muhim vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda. O‘qituvchilar tomonidan o‘quv jarayonida pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish o‘quvchilarni qiziqishini, izlanishini , kimyo faniga qiziquvchanligini yanada oshishiini taminlaydi . Bundan tashqari dars jarayonlari baxs-munozarali, labaratoriya darslari qiziqarli o‘tishini va o‘quvchilarni yanada teran va mustaqil fikrlashini oshiradi. Kimyo o‘qituvchisining asosiy vazifalaridan biri bu o‘quvchini dars jarayonida darsga qiziqtirish va fanga oid turli ma’lumotlarni o‘rgata olishi zarur. Kimyo fanini o‘qitishda turli metodlardan foydalanish darsning qiziqarli va samarali o‘tishini ta’minlaydi. Shu bilan birga VII-guruh asosiy elementlari mavzusini o‘qitishda ham turli metodlardan foydalanib darsning unumdorligi oshadi.

VII-guruh asosiy elementlari (galogenlar) ftor, xlor, brom, yod,astat o‘ziga xos kimyoviy va fizik xossalari , yuqori faolligi bilan ajralib turadi. Fanga galogen tushunchasini birinchi bo‘lib 1811- yilda nemis kimyogari I. Shveyger tomonidan fanga kiritilgan, Bo‘lib tuz hosil qiluvchi degan ma’noni bildiradi. Galogenlarning hammasi metallmaslar bo‘lib, davriy sistemaning VII- guruh bosh guruhchasida joylashgan. Galogenlarning tashqi energetik qavatida 7 ta elektron bor, demak

tugallangan energetik pog‘onaga o‘tishi uchun 1ta elektron yetishmaydi shuning uchun galogenlar vodorod va metallardan bitta elektron olib -1 oksidlanish darajasini namoyon qiladi.

Tushunchalar tahlili metodi:

Tushunchalar tahlili metodidan bir darsning o‘zida o‘tilgan mavzuni takrorlash yangi mavzudan qanchalik bilimlari borligini o‘rganish va dars oxirida yangi mavzudan qanchalik bilimga ega bo‘lganini bilib olish mumkin.

Ftor- eng kuchli elektromanfiy element bo‘lganligi uchun hamma birikmalarda -1oksidlanish darajasini namoyon qiladi. Xlor, brom, yod kislorodli birikmalarda +1dan +7gacha bo‘lgan oksidlanish darajasini namoyon qiladi. 1866-yilda fransuz kimyogari Anri Muassan ftorni kashf qilgan va bu ishiga Nobel mukofoti berilgan. 1774-yilda Shved kimyogari Karl Velgelm Sheyeli xlorni , 1826-yilda fransuz kimyogari Antuan Jeromom Ballar bromni, 1811- yilda fransuz olimi Bernar Kurtua yodni kashf qilgan . Davriy Sistemada ftordan yodga tomon galogenlarning atom radiusi ortib boradi, oksidlovchilik hossasi kamayadi . Galogenlar tipik metallmaslar kuchli oksidlovchilar bo‘lganligi uchun tabiatda erkin holda uchramaydi faqat birikmalar holida uchraydi. Galogenlar va ularning birikmalari xalq xo‘jaligida katta ahamiyatga ega ayniqsa, xlor muhim o‘rin tutadi. Galogenlarning umumiy tavsifi: Galogenlar guruhida yuqoridan pastga tushgan sari (F→At) agregat holatining o‘zgarishi (gaz→suyuqlik →qattiq), ranglarning to‘qnashishi va zichlikning ortishini kirish mumkin.

Galogenlarning xarakterli reaksiyalarida faolroq galogen (tepadagi) o‘zidan keyingi galogenning tuzli eritmasidan siqib chiqaradi: $Cl_2+2KBr\rightarrow 2KCl+Br_2$

Aqliy hujum metodi:

“Aqliy hujum” metodi bu biror muammo bo’yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr-mulohazalarni to’plab, ular orqali natijada ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og’zaki shakllari bor. Og’zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta’lim

oluvchilarning har biri o’z fikrini og’zaki bildiradi va Ta’lim oluvchilar o’z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta’lim oluvchilar o’z javoblarini qog’oz varaqcha (kartochka)lariga qisqa va barchaga ko’rinarli tarzda yozadilar. Ta’lim oluvchilarda o’z fikrini faqat og’zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko’nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli g’oyalar shakllanishiga olib keladi. “Aqliy hujum” metodining o’tkazilish tartibi quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim oluvchilar e’tiboriga savol tashlanadi va ularga shu savol bo’yicha o’z javoblarini (fikr, g’oya va mulohaza) bildirishlari so’raladi.

2. Ta’lim oluvchilar savol bo’yicha o’z fikr-mulohazalarini bildirishadi.

3. Ta’lim oluvchilarning fikr-g’oyalari to’planadi.

4. Fikr-g’oyalar ma’lum belgilar bo’yicha guruhlanadi.

5. Yuqorida qo’yilgan savolga aniq va to’g’ri javob tanlab olinadi va bu metod ta’lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. “Aqliy hujum” metodi ta’lim beruvchi tomonidan qo’yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi, ya’ni:

1. Ta’lim oluvchilarning boshlang’ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo’yilganda, bu metod darsning mavzusiga kirish qismida amalga oshiriladi.

2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog’lash maqsad qilib qo’yilganda, yangi mavzuga o’tish qismida amalga oshiriladi.

3. O’tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo’yilganda, mavzudan so’ng darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi

“Aqliy hujum” metodini qo’llashdagi asosiy qoidalar:

bildirilgan fikr-g’oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi;

bildirilgan har qanday fikr-g'oya, u hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi;

jarayonda har bir ta'lim oluvchi qatnashishi shart.

«Aqliy hujum» metodining afzalliklari:

natijalar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli fikr g'oyalarning shakllanishiga olib keladi;

ta'lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;

fikr-g'oyalar vizuallashtirilib boriladi;

ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati ortadi.

Mavzu bo'yicha "Aqliy hujum" o'tkazish uchun o'quvchilarga quyidagi savollar beriladi.

1.Ftorning davriy sistemadagi o'rni haqida ma'lumot bering?.

2. Galogenlar so'zining ma'nosi qanday?

3. Galogenlar ichida agregat holati kristall bo'lgan element qaysi?

4. Eng yuqori elektromanfiy element qaysi va u uning qiymati?

5.Qishloq xo'jaligida ishlatiladigan osh tuzining tarkibida qaysi galogen bor?

Baliq skeleti metodi:

Ushbu metod 1943-yilda yapon professori Kaoru Ishikawa tomonidan taklif etilgan metodlardan biridir, u murakkab muammolarni vizual ko'rinishda qismlarga ajratish va ularning kelib chiqish sabablarini tahlil qilishga xizmat qiladi. Kimyo darslarida, xususan, galogenlar mavzusini o'tishda ushbu metod o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini tizimlashtiradi va rivojlantirish uchun katta yordam beradi

Ishikava Tokio universitetida sifatni boshqarish bo'yicha mutaxassis bo'lgan. Kawasaki po'lat zavodidagi muhandislarga ishlab chiqarishdagi muammolar va ularning sabablari orasidagi bog'liqlikni tushuntirish uchun ushbu vizual modeldan foydalangan.



Xulosa qilib aytganda, "Baliq skeleti" metodi muammoni chuqur tahlil qilish va uning kelib chiqish sabablarini aniqlashda foydalaniladi Shuning uchun bu metod yordamida o'quvchilar muammoni faqat yuzaki ko'rib chiqmay, balki uning asosiy va ikkilamchi sabablarini izlab topishga harakat qilishadi. Natijada muammo sabablarini tizimli ravishda tartiblash va ularni guruhlash va o'zaro bog'liqligini aniqlash imkoniyati paydo bo'ladi. Metodning afzalligi shundaki, u o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, dars davomida mantiqiy xulosa chiqarishga, dalillar asosida fikr yuritishga o'rgatadi. Shuningdek, dars jarayonida o'quvchilar jamoa bilan ishlash orqali o'zaro fikr almashadilar, bahs-munozara qilishni, bir-birining fikrini tinglashni va hurmat qilishni o'rganadilar. Bu esa ularning kommunikativ ko'nikmalarini ham rivojlanishiga yordam beradi

"Baliq skeleti" metodi darsda mavzuni mustahkamlash, o'tilgan bilimlarni umumlashtirish takrorlash va muammoning eng muhim sabablarini aniqlab, unga yechim topish uchun xizmat qiladigan metod. Ayniqsa, murakkab mavzularni o'rganishda, masalalarni tahlil qilishda hamda sabab-oqibat bog'lanishini

tushuntirishda bu metod juda foydali metodlardan hisoblanadi. Umuman olganda, ushbu metod o‘quvchilarda tahliliy fikrlash, muammoni yechish, ijodiy yondashuv va mantiqiy tafakkurni shakllantiradi hamda darsning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

XULOSA

An’anaviy darsda o‘qituvchi asosiy ma’ruzachi bo‘lsa, bu metodlarda foydalangan o‘quvchi markazga chiqadi. Savollarga javob berish izlash, barglarni tanlash va tezkor qaror qabul qilish o‘quvchini dars jarayoniga to‘liq jalb qiladi. Galogenlar kabi murakkab va faktlarga boy mavzularni oddiy yodlash tushunish anchagina qiyin. Moychechak metodi ma’lumotlarni bo‘laklarga bo‘lib, tizimli o‘rganishga (oddiy faktlardan murakkab tahlilga o‘tishga) yordam beradi o‘quvchilar esa yanada darsga qiziqa boshlaydi. O‘yin shaklidagi (Moychechak) va musobaqa ruhidagi (Blits) yondashuv o‘quvchilardagi fanga bo‘lgan qo‘rquvni yo‘qotadi. Kimyo kabi murakkab fanlar qiziqarli mashg‘ulotga aylanadi. Blits-so‘rov orqali bir necha daqiqa ichida butun sinfning bilim darajasini tekshirib olish mumkin. Bu o‘qituvchiga darsning qolgan qismini yangi mavzuga yoki amaliy mashqlarga ajratish imkonini beradi. Ushbu metodlar faqat bilim berib qolmay, o‘quvchilarda quyidagi hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi tezkor fikrlash va qaror qabul qilish, o‘z fikrini lo‘nda va aniq bayon etish, mantiqiy tahlil qilish va xulosa chiqarish. Kimyo darslarida bu metodlarni uyg‘unlikda qo‘llash — nazariy bilimlarni mustahkam hayotiy ko‘nikmalarga aylantirishning eng qisqa yo‘lidir. Bu esa o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun eng yaxshi usullardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni. "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida.

5. Yusupov, A., & Toshmatov, B. (2022). Flutter platformasida ta'lim ilovalarini ishlab chiqishning dolzarb masalalari. AT va telekommunikatsiyalar jurnali, 3(1), 88–97.

ARDUINO PLATFORMASINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Umurqulov Fazliddin Xayriddin o‘g‘li

Qarshi davlat universiteti

umurqulovfazliddinjon@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Arduino platformasining nazariy va metodologik asoslari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Arduino ochiq kodli mikrokontroller platformasi sifatida o‘rnatilgan tizimlarni loyihalash va amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqot doirasida platformaning apparat arxitekturasi, dasturiy muhitining xususiyatlari hamda ta’lim jarayonidagi didaktik imkoniyatlari o‘rganildi. Shuningdek, Arduino asosida ishlab chiqilgan tizimlarning samaradorligi, moslashuvchanligi va amaliy ahamiyati baholandi. Tadqiqot natijalari Arduino platformasi nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan integratsiyalashda samarali metodologik vosita ekanligini ko‘rsatadi.*

Abstract. *This paper provides a systematic analysis of the theoretical and methodological foundations of the Arduino platform. Within the scope of the research, the hardware architecture of the platform, the features of its software environment, and its didactic possibilities in the educational process were studied. In addition, the effectiveness, flexibility, and practical significance of systems developed based on Arduino were evaluated. The results of the study show that the Arduino platform is an effective methodological tool for integrating theoretical knowledge with practical skills.*

Kalit so‘zlar: *Arduino, mikrokontroller, o‘rnatilgan tizimlar, metodologiya, dasturlash, STEM ta’lim*

Keywords*: Arduino, microcontroller, embedded systems, methodology, programming, STEM education*

KIRISH

Raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi o‘rnatilgan tizimlar (embedded systems)ning ilmiy va amaliy ahamiyatini keskin

oshirdi. Ushbu tizimlar zamonaviy sanoat, transport, sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalarining ajralmas qismiga aylangan.Arduino platformasi aynan shu jarayonda innovatsion yechim sifatida shakllanib, murakkab texnik tizimlarni loyihalashni soddalashtiruvchi vosita sifatida keng qo‘llanilmoqda. Uning ochiq arxitekturaga asoslanganligi, modulliligi va foydalanuvchiga yo‘naltirilgan interfeysi ilmiy-tadqiqot va ta’lim jarayonida muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — Arduino platformasining nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish va uning metodologik imkoniyatlarini ilmiy nuqtai nazardan asoslab berishdan iborat.

ASOSIY QISM

Arduino platformasi zamonaviy mikroprotsessor texnologiyalari va kibernetika nazariyasiga asoslangan bo‘lib, u real vaqt tizimlari (real-time systems) doirasida ishlaydi. Ushbu platformaning asosiy vazifasi tashqi muhitdan keluvchi signallarni qabul qilish, ularni qayta ishlash va tegishli chiqish signallarini shakllantirishdan iborat. Nazariy jihatdan Arduino quyidagi model asosida ishlaydi:

Birinchi: Kirish (Input) — sensorlar orqali ma’lumot olish

Ikkinchi: Qayta ishlash (Processing) — mikrokontrollerda algoritmik tahlil

Uchunchi: Chiqish (Output) — aktuatorlar orqali javob berish

Mazkur model boshqaruv tizimlari nazariyasining klassik “input-process-output” (IPO) tamoyiliga to‘liq mos keladi. Shu bilan birga, Arduino tizimlari deterministik xarakterga ega bo‘lib, ular aniq algoritmlar asosida ishlaydi.

Apparat arxitekturasi va texnik xususiyatlari:Arduino platformasining apparat qismi modulli arxitekturaga ega bo‘lib, bu uning universalligini ta’minlaydi. Eng keng tarqalgan Arduino Uno platasi ATmega328P mikrokontrolleriga asoslangan bo‘lib, quyidagi texnik xususiyatlarga ega:Arduino Uno platasining texnik xususiyatlari uning funksional imkoniyatlarini belgilab beradi. Mazkur plata 14 ta raqamli kirish/chiqish pinlariga ega bo‘lib, ular orqali turli sensorlar va aktuatorlar bilan ishlash mumkin. Shuningdek, unda 6 ta analog kirish portlari mavjud bo‘lib,

ular analog signallarni qabul qilib, ularni raqamli ko‘rinishga o‘tkazish imkonini beradi. Arduino Uno 16 MHz takt chastotasida ishlaydi, bu esa ma’lumotlarni qayta ishlash tezligini ta’minlaydi.Bundan tashqari, plata 32 KB flesh xotira bilan jihozlangan bo‘lib, bu xotirada foydalanuvchi dasturlari saqlanadi. Operativ xotira (RAM) hajmi 2 KB ni tashkil etadi va u dastur bajarilish jarayonida vaqtinchalik ma’lumotlarni saqlash uchun xizmat qiladi. Ushbu texnik parametrlar Arduino platformasini sodda va o‘rta darajadagi loyihalarni amalga oshirish uchun samarali vositaga aylantiradi.

Mazkur parametrlar Arduino platformasini kichik va o‘rta darajadagi loyihalar uchun optimal vositaga aylantiradi. Arduino platalari “shield” modullari orqali kengaytirilishi mumkin. Ushbu modullar yordamida Wi-Fi, Bluetooth, GPS, LCD displey va boshqa qurilmalarni ulash imkoniyati mavjud.Dasturiy ta’minot va algoritmik yondashuv:Arduino IDE dasturiy muhiti foydalanuvchilarga qulay interfeys orqali dasturlash imkonini beradi. Ushbu muhitda yozilgan dasturlar “sketch” deb ataladi.

Arduino dasturlash quyidagi algoritmik tamoyillarga asoslanadi: Ketma-ketlik (sequence), Tanlash (selection), Takrorlanish (iteration)

Dastur strukturasining asosiy elementi bo‘lgan loop() funksiyasi cheksiz siklni ifodalaydi, bu esa real vaqt tizimlarida uzluksiz ishlashni ta’minlaydi. Shuningdek, Arduino platformasi kutubxonalar (libraries) tizimi orqali murakkab funksiyalarni soddalashtirish imkonini beradi. Masalan, sensorlar bilan ishlash, displeylarni boshqarish yoki tarmoq protokollarini amalga oshirish uchun tayyor kutubxonalar mavjud. Metodologik yondashuv va pedagogik imkoniyatlar: Arduino platformasi zamonaviy ta’lim metodologiyasida muhim o‘rin tutadi. U quyidagi pedagogik yondashuvlarni amalga oshirish imkonini beradi: Konstruktivistik yondashuv: Talabalar bilimni tayyor holda emas, balki amaliy faoliyat orqali egallaydi. Arduino orqali qurilma yasash jarayoni bilimni mustahkamlaydi.

STEM integratsiyasi: Arduino platformasi fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering) va matematika (Mathematics) fanlarini birlashtiradi. Amaliy qo‘llanilishi va samaradorlik tahlili:Arduino platformasi turli sohalarda keng qo‘llanilmoqda: Robototexnika-Arduino robotlarni boshqarishda asosiy platforma sifatida ishlatiladi. Sensorlar orqali muhitni sezish va motorlarni boshqarish amalga oshiriladi.

IoT tizimlari- Internet of Things qurilmalarida Arduino ma’lumotlarni yig‘ish va uzatish uchun ishlatiladi.

Aqlli uy tizimlari-Yoritish, xavfsizlik va iqlim nazorati tizimlari Arduino asosida avtomatlashtiriladi.

Sanoat avtomatlashtirish- Oddiy ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishda Arduino qo‘llaniladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Arduino platformasi o‘zining iqtisodiy samaradorligi va funksional qulayligi bilan ajralib turadi. Avvalo, ushbu platforma boshqa ko‘plab mikrokontroller tizimlariga nisbatan kam xarajat talab qiladi, bu esa uni keng foydalanuvchilar ommasi, xususan talabalar va yosh tadqiqotchilar uchun yanada ommabop qiladi. Bundan tashqari, Arduino tezkor prototiplash imkoniyatini ta’minlab, qisqa vaqt ichida turli elektron qurilmalar va tizimlarning dastlabki modellarini yaratishga imkon beradi. Platformaning yana bir muhim jihati uning moslashuvchanligi va kengaytiriluvchanligidadir. Turli xil sensorlar, modullar va qo‘shimcha qurilmalar bilan integratsiya qilish imkoniyati Arduino’ni ko‘p funksiyali tizim sifatida qo‘llashga sharoit yaratadi.

Shu bilan birga, Arduino platformasining ayrim cheklovlari ham mavjud. Xususan, yuqori aniqlik va murakkab hisoblashlarni talab qiladigan tizimlarda uning imkoniyatlari yetarli darajada bo‘lmasligi mumkin. Shuningdek, katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va yuqori tezlikdagi hisoblash operatsiyalarini bajarishda platformaning texnik imkoniyatlari cheklanganligi kuzatiladi. Bundan tashqari, sanoat darajasidagi yuqori ishonchlilik va uzluksiz ishlash talab etiladigan

muhitlarda Arduino har doim ham optimal yechim bo‘la olmaydi. Shu sababli, platformani tanlashda uning afzalliklari bilan bir qatorda mavjud cheklovlarini ham inobatga olish muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Arduino platformasi o‘rnatilgan tizimlarni o‘rganish va amaliyotda qo‘llash jarayonida muhim metodologik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. U nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish imkonini berib, o‘quvchilar va talabalar uchun abstrakt tushunchalarni real qurilmalar orqali tushunishni osonlashtiradi. Xususan, mikrokontrollerlar, sensorlar va aktuatorlar bilan ishlash jarayonida foydalanuvchilar dasturlash, elektronika va tizimli fikrlash ko‘nikmalarini kompleks ravishda rivojlantiradilar. Bu esa zamonaviy ta’limda muhim hisoblangan kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishga xizmat qiladi.Shuningdek, Arduino platformasi o‘quv jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishda samarali vosita hisoblanadi. U orqali loyihaga asoslangan o‘qitish (project-based learning), muammoli o‘qitish (problem-based learning) va tajribaga asoslangan o‘rganish (experiential learning) kabi yondashuvlarni qo‘llash mumkin. Natijada talabalar nafaqat nazariy bilimlarni egallaydilar, balki ularni real vaziyatlarda qo‘llash, mustaqil qaror qabul qilish va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradilar. Arduino asosida bajariladigan amaliy loyihalar, masalan, avtomatik boshqaruv tizimlari, aqlli qurilmalar yoki oddiy robotlar yaratish jarayoni o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshiradi.

Bundan tashqari, Arduino platformasi ilmiy-tadqiqot faoliyatida ham keng qo‘llanilmoqda. Tadqiqotchilar ushbu platformadan foydalanib, turli eksperimental qurilmalar, monitoring tizimlari va avtomatlashtirilgan modellarni yaratishlari mumkin. Uning arzonligi va ochiq kodli ekotizimi ilmiy izlanishlar uchun katta imkoniyatlar yaratadi, ayniqsa, resurslari cheklangan sharoitlarda samarali yechim sifatida xizmat qiladi.Kelajak istiqbollari nuqtai nazaridan, Arduino platformasining

sun’iy intellekt (AI) va Internet of Things (IoT) texnologiyalari bilan integratsiyasi yanada kengayishi kutilmoqda. IoT tizimlarida Arduino turli sensorlardan ma’lumotlarni yig‘ish, ularni uzatish va dastlabki qayta ishlash vazifalarini bajaradi. Sun’iy intellekt algoritmlari bilan integratsiya qilinganda esa, tizimlar yanada “aqlli” bo‘lib, avtomatik qaror qabul qilish, muhitga moslashish va prognozlash imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Masalan, aqlli uy tizimlarida energiya sarfini optimallashtirish, qishloq xo‘jaligida esa sug‘orish jarayonini avtomatik boshqarish kabi vazifalarni samarali bajarish mumkin.

Umuman olganda, Arduino platformasi nafaqat o‘quv va ilmiy jarayonlarda, balki amaliy muhandislik yechimlarini ishlab chiqishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Uning soddaligi, moslashuvchanligi va keng imkoniyatlari kelajakda ham ushbu platformaning dolzarbligini saqlab qolishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Banzi, M. (2011). Getting Started with Arduino. O’Reilly Media.

2. Margolis, M. (2018). *Arduino Cookbook* (3rd ed.). O’Reilly Media.

3. Monk, S. (2017). *Programming Arduino* (2nd ed.). McGraw-Hill.

4. Barrett, S. (2013). *Arduino Microcontroller Processing*. Morgan & Claypool.

5. Gomes, L., & Bogosyan, S. (2009). Current trends in industrial electronics education. *IEEE Transactions on Industrial Electronics*, 56(10), 4207–4215.

6. Arduino. (2024). *Official Arduino Documentation*. https://www.arduino.cc

MAHALLIY TARMOQLARDA ARP SPOOFING HUJUMLARI XAVFLARINI TAHLIL QILISH: HUJUM USULLARI VA AMALIY HIMOYA STRATEGIYALARI

Mavlonova Shodmonoy Bog'bek qizi,

Abdirimov Jamoladdin Kuranbay o'g'li

Abu Rayhon Beruniy Nomidagi Urganch davlat universiteti,

Axborot xavfsizligi kafedrasi

e-mail: burgut666@gmail.com:

Abstract: *Ushbu maqolada mahalliy tarmoqlarda (LAN) keng tarqalgan ARP Spoofing (ARP zaharlash) hujumlarining texnik mohiyati, amalga oshirish usullari va real xavflari tahlil qilinadi. ARP protokolining autentifikatsiyasiz ishlashi tufayli yuzaga keladigan zaiflik o'rganiladi. Man-in-the-Middle (MITM), trafikni ushlab olish, sessiyani o'g'rish va SSL Stripping kabi hujum vektorlari ko'rsatiladi. Aniqlash va himoya uchun Dynamic ARP Inspection (DAI), statik ARP yozuvlari, VLAN segmentatsiya, VPN shifrlash va 802.1X port autentifikatsiyasi kabi strategiyalar batafsil taqdim etiladi. 72 soatlik sinovlar asosida to'plangan ma'lumotlar tahlil qilinib, himoya vositalarining samaradorligi ko'rsatilgan.*

Keywords: *ARP protokoli, MAC–IP jadval, MITM hujum, tarmoq xavfsizligi, soxta ARP javob, Dynamic ARP Inspection, VLAN segmentatsiya, 802.1X, tarmoq monitoringi, Wireshark.*

Abstract: *This article analyzes the technical nature, implementation methods, and real risks of ARP Spoofing attacks, which are common in local area networks (LANs). The vulnerability caused by the unauthenticated operation of the ARP protocol is studied. Attack vectors such as Man-in-the-Middle (MITM), traffic interception, session hijacking, and SSL Stripping are presented. Strategies for*

detection and protection, such as Dynamic ARP Inspection (DAI), static ARP entries, VLAN segmentation, VPN encryption, and 802.1X port authentication, are presented in detail. The data collected based on 72-hour tests is analyzed and the effectiveness of the protection tools is shown.

Keywords: *ARP protocol, MAC–IP table, MITM attack, network security, fake ARP response, Dynamic ARP Inspection, VLAN segmentation, 802.1X, network monitoring, Wireshark.*

KIRISH

1.1. Tadqiqotning dolzarbligi

Zamonaviy tarmoq infratuzilmasida ARP (Address Resolution Protocol) protokoli IP manzillarni fizik MAC manzillarga tarjima qiluvchi asosiy mexanizm hisoblanadi. 1982-yilda RFC 826 standarti sifatida qabul qilingan bu protokol o’z loyihasida autentifikatsiya yoki tekshirish mexanizmini ko’zmagan. Bugungi kunda bu arxitekturaviy kamchilik mahalliy tarmoqlardagi eng keng tarqalgan hujum sinflaridan birining asosini tashkil etadi.

Cisco Talos Intelligence guruhining 2024-yilgi hisobotiga ko’ra, korporativ tarmoqlardagi ichki hujumlarning 34 foizi ARP zaharlash texnikasidan foydalanadi. ENISA (Evropa tarmoq va axborot xavfsizligi agentligi) ma’lumotlari bo’yicha, 2023-yilda MITM hujumlarining 61 foizi ARP Spoofing yoki uning variantlari orqali amalga oshirilgan.

O’zbekistonda raqamlashuv sur’atlarining o’sishi va tarmoq infratuzilmasining kengayishi bilan birga, ushbu xavf ham ortib bormoqda. CERT-UZ ma’lumotlariga ko’ra, 2023-yilda tarmoq darajasidagi hujumlar soni 38 foizga o’sdi.

1.2. Muammo bayoni

Hozirgi kunda kichik va o’rta korxonalar, ta’lim muassasalari va yakka foydalanuvchilar uchun ARP Spoofing hujumlaridan samarali himoyalanish bo’yicha keng qamrovli o’zbek tilidagi manbalar yetarli emas. Mavjud texnik hujjatlar ko’pincha ingliz tilida bo’lib, amaliy himoya strategiyalarini tushunishni qiyinlashtiradi.

1.3. Tadqiqot maqsadi va vazifalari

Tadqiqot maqsadi: ARP Spoofing hujumlarining to’liq texnik tahlilini amalga oshirish, hujum vektorlarini klassifikatsiya qilish hamda amaliy himoya strategiyalarini ko’rsatish.

Tadqiqot vazifalari:

- ARP protokolining ishlash mexanizmini va zaifligini tahlil qilish;
- MITM, trafikni ushlab olish va boshqa hujum turlarini ko’rsatish;
- Dynamic ARP Inspection va boshqa tarmoq darajasidagi himoya usullarini o’rganish;
- VLAN segmentatsiya, VPN va 802.1X strategiyalarini baholash;
- Himoya samaradorligini sinov natijalari asosida ko’rsatish.

II. MUAMMO TAHLILI

2.1. ARP protokolining ishlash mexanizmi

ARP protokoli broadcast so’rov yuborish orqali ishlaydi: qurilma “Kim 192.168.1.1 IP manziliga ega?” deb so’rayldi va tegishli qurilma o’z MAC manzilini javob sifatida qaytaradi. Bu javob tekshirilmasdan ARP keshiga yoziladi va ma’lum vaqt saqlanadi. Muammo shundaki, har qanday qurilma soxta ARP javobini yuborib, boshqa qurilmalarning kesh jadvalini o’zgartirishi mumkin.

2.2. Hujum statistikasi

Ko’rsatkich	2022	2023	O’sish
Global MITM hodisalari (mln)	4,2	6,8	+62%
ARP Spoofing ulushi (%)	28%	34%	+6%
O’zbekistonda tarmoq hujumlari	892	1 231	+38%
O’rtacha aniqlash vaqti (soat)	14	11	-21%
Shifrsiz trafik ulushi (%)	41%	29%	-29%

1-jadval. ARP Spoofing va MITM hujumlari statistikasi (2022–2023)

2.3. Mavjud yechimlar taqqosi

Bozordagi asosiy ARP himoya vositalarining qiyosiy tahlili 2-jadvalda keltirilgan:

Vosita	Aniqlash	Bloklash	Murakkablik
Wireshark	Qisman	Yo’q	Yuqori
XArp	Ha	Yo’q	Past
Dynamic ARP Inspection	Ha	Ha	O’rta
Arpwatch	Ha	Yo’q	Past
802.1X + NAC	Ha	Ha	Yuqori
VLAN segmentatsiya	Qisman	Qisman	O’rta

2-jadval. ARP himoya vositalari taqqoslanmasi

III. HUJUM USULLARI

3.1. Asosiy hujum vektorlari

ARP Spoofing hujumlari odatda bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda tajovuzkor tarmoqdagi qurilmalarni aniqlaydi, ikkinchi bosqichda soxta ARP javoblarini yuborib victim va routerning ARP keshlarini “zaharlaydi”, uchinchi bosqichda esa barcha trafik tajovuzkor orqali o’tatdi. Quyidagi 3-jadvalda asosiy hujum turlari keltirilgan.

Hujum turi	Mexanizm	Maqsad	Xavf darajasi
Klassik MITM	ARP kesh zaharlash	Trafikni o’qish	YUQORI
SSL Stripping	HTTPS→HTTP o’zgartirish	Parollarni o’g’rish	KRITIK
Session Hijacking	Cookie o’g’rish	Akkountni egallash	KRITIK
DNS Spoofing	DNS so’rovlarini o’zgartirish	Soxta saytga yo’naltirish	YUQORI
DoS (Xizmat rad)	Trafik yo’ini buzish	Tarmoqni o’chirish	O’RTA
Credential Harvest	Login formalarini ushlab olish	Ma’ulumot o’g’rish	KRITIK

3-jadval. ARP Spoofing hujum turlari va xavf darajalari

3.2. Hujum bosqichlari

Tajovuzkor quyidagi ketma-ketlikda harakat qiladi:

- 1-bosqich – Razvedka: nmap, arp-scan orqali tarmoqdagi qurilmalarni aniqlash;

- 2-bosqich – ARP zaharlash: arpspoof yoki Ettercap yordamida soxta ARP javoblarini yuborish;
- 3-bosqich – IP Forwarding yoqish: echo 1 > /proc/sys/net/ipv4/ip_forward buyrug'i bilan;
- 4-bosqich – Trafikni ushlab olish: Wireshark, tcpdump yoki SSLstrip orqali ma'ulumotlarni o'qish;
- 5-bosqich – Izlarni o'chirish: ARP keshlarini tozalash va trafik yo'ini tiklash.

3.3. Zaif konfiguratsiyalar

Hujum ehtimolini oshiradigan asosiy omillar: dinamik ARP (DAI o'chirilgan); VLAN segmentatsiyasiz yagona broadcast domenlar; Wi-Fi tarmoqlarida client izolyatsiyasining yo'qligi; foydalanuvchi darajasida ARP paketlarini yuborish huquqi; eski kommutatorlar va access pointlarning firmware yangilanmasligi.

IV. HIMOYA STRATEGIYALARI

4.1. Dynamic ARP Inspection (DAI)

DAI enterprise kommutatorlarda ARP paketlarini DHCP Snooping jadvali bilan solishtiradi. Mos kelmagan paketlar avtomatik bloklanadi. Cisco IOS konfiguratsiyasi: ip arp inspection vlan 10,20 ip arp inspection validate src-mac dst-mac ip interface GigabitEthernet0/1 ip arp inspection limit rate 100

4.2. Statik ARP yozuvlari

Kritik qurilmalar (asosiy server, router, gateway) uchun statik ARP yozuvlarini kiritish ARP keshni o'zgartirishlarning oldini oladi. Bu usul kichik tarmoqlarda samarali, ammo katta infratuzilmalarda boshqaruv murakkabroq bo'latdi:

sudo arp -s 192.168.1.1 aa:bb:cc:dd:ee:ff # Linux arp -s 192.168.1.1 aa-bb-cc-dd-ee-ff # Windows

4.3. VLAN segmentatsiyasi

Tarmoqni alohida VLAN larga bo'ish ARP broadcast domenini chegaralaydi. Har bir bo'im o'z VLAN ida ishlasa, bir VLAN dagi hujum boshqasiga ta'llsir qila olmaydi. Bu yondashuv himoyaning asosiy arxitekturaviy elementlaridan biri hisoblanadi.

V. SINOV VA NATIJALAR TAHLILI

5.1. Sinov metodologiyasi

Sinov uch bosqichda amalga oshirildi: laboratoriya muhitida virtual tarmoq (VMware Workstation) yaratildi; Kali Linux hujum mashinasi, Ubuntu victim va pfSense router ishlatildi; 72 soatlik uzluksiz monitoring olib borildi.

1-bosqich – Hujum simulyatsiyasi: Ettercap va arpspoof yordamida turli hujum turlari amalga oshirildi (MITM, SSL Stripping, DNS Spoofing).

2-bosqich – Himoya vositalarini sinash: har bir himoya strategiyasi alohida va kombinatsiyada sinab ko'rildi.

3-bosqich – Taqqoslama tahlil: Wireshark va arpwatch loglari bilan qo'ilda solishtirildi.

5.2. Ishlash ko'rsatkichlari

72 soatlik sinov davomida qayd etilgan asosiy ko'rsatkichlar (4-jadval):

Ko'rsatkich	Qiymat	Izoh
Jami sinov davomiyligi	72 soat	Uzluksiz monitoring
Amalga oshirilgan hujumlar	47 ta	Turli hujum turlari
DAI bilan bloklangan	44/47 (93,6%)	Tarmoq darajasida

Ko’rsatkich	Qiymat	Izoh
Arpwatch aniqlash tezligi	< 3 s	Birinchi paketdan keyin
VPN bilan himoyalangan trafik	100%	Shifrlangan paketlar
802.1X bloklash samaradorligi	100%	Ruxsatsiz qurilmalar
VLAN izolatsiya samaradorligi	97,8%	Cross-VLAN hujumlar
SSL Stripping aniqlash	89,4%	HSTS bilan

4-jadval. Sinov natijalari (72 soatlik monitoring)

5.3. Aniqlash samaradorligi

Himoya usuli	Aniqlash (%)	Bloklash (%)	False Positive (%)
DAI (Cisco)	93,6%	93,6%	1,2%
Statik ARP	100%	100%	0%
Arpwatch monitoring	91,5%	0%	3,4%
VPN + TLS 1.3	N/A	100%*	0%
802.1X NAC	100%	100%	0,8%
VLAN segmentatsiya	97,8%	97,8%	0,5%

*5-jadval. Himoya usullarining samaradorlik ko'rsatkichlari * Shifrlangan trafik o'qilmaydi, lekin trafik oqimi ko'rinadi*

5.4. Taqqoslama tahlil

Wireshark bilan taqqoslaganda: ushbu maqolada tavsiya etilgan kombinatsiyalashgan yondashuv avtomatik bloklash va real vaqt aniqlash imkoniyatini beradi; maxsus texnik bilim talab qilmaydi; milliy tilda sozlash mumkin.

Korporativ yechimlar (Cisco DNA Center, Darktrace) bilan taqqoslaganda: tavsiya etilgan ochiq kodli vositalar kombinatsiyasi kichik byudjetli tashkilotlar uchun 80–90% samaradorlikni ta'minlaydi.

5.5. Cheklovlar va kamchiliklar

Joriy tahlilning asosiy cheklovlari: IPv6 tarmoqlarida NDP (Neighbor Discovery Protocol) orqali o'xshash hujumlar alohida himoya talab qiladi; korporativ markazlashtirilgan boshqaruv uchun qo'shimcha vositalar kerak; Zero-Trust arxitekturasiga o'ttish qo'shimcha xarajatlarni talab qiladi.

VI. XULOSA

Ushbu tadqiqot doirasida mahalliy tarmoqlarda ARP Spoofing hujumlarining to'liq texnik tahlili amalga oshirildi, hujum vektorlari klassifikatsiya qilindi va amaliy himoya strategiyalari ko'rsatildi. 72 soatlik laboratoriya sinovi asosida quyidagi xulosalar chiqarildi.

Tadqiqotning asosiy ilmiy va amaliy natijalari:

- ARP protokolining autentifikatsiyasiz tuzilishi MITM hujumlari uchun asosiy zaiflik bo'lib qolaveradi; bu muammoni to'liq bartaraf etish uchun protokol darajasidagi o'rzgarishlar (ARP SEC, SEND) zarur;

- Dynamic ARP Inspection 93,6% aniqlash va bloklash samaradorligini ko’rsatdi; bu uni korporativ tarmoqlarda asosiy himoya vositasi sifatida tavsiya etishga asos beradi;
- Kombinatsiyalashgan yondashuv (DAI + VLAN + VPN + 802.1X) 97% dan yuqori umumiy himoya darajasini ta’minladi;
- NSRL va shunga o’xshash whitelist mexanizmlari yolg’yon musbat natijalarni sezilarli kamaytiradi;
- Monitoring vositalari (arpwatch, XArp) bloklash imkoniyati bo’llmasa ham tahdidlarni erta aniqlash uchun muhim.

Kelajak tadqiqot yo’nalishlari:

1. IPv6 tarmoqlarida NDP Spoofing himoyasi;
2. ML asosidagi anomaliya aniqlash modeli;
3. Software Defined Networking (SDN) muhitida ARP xavfsizligi;
4. IoT qurilmalari uchun maxsus ARP himoya mexanizmlari;
5. Zero-Trust arxitekturasi bilan integratsiya.

Tavsiya etilgan himoya strategiyalari O’zkiston oliy ta’lim muassasalarida axborot xavfsizligi kurslarida o’quv-amaliy qo’lllanma sifatida hamda kichik va o’rta korxonalarda tarmoq xavfsizligini ta’minlash uchun qo’lanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1] Plummer D.C. An Ethernet Address Resolution Protocol. RFC 826. - IETF, 1982. - 10 p.

[2] CERT-UZ. O’zkiston Respublikasi kiberhavfsizlik holati bo’yicha hisobot 2023. - Toshkent: UZINFOCOM, 2024.

[3] ENISA. ENISA Threat Landscape 2023. - European Union Agency for Cybersecurity, 2023. - 115 p.

[4] Cisco Systems. Dynamic ARP Inspection Configuration Guide. - Cisco Press, 2023.

[5] Stallings W. Network Security Essentials: Applications and Standards. 7th ed. - Pearson, 2022. - 480 p.

[6] Stevens W.R. TCP/IP Illustrated, Volume 1: The Protocols. 2nd ed. - Addison-Wesley, 2011. - 1024 p.

[7] Bejtlich R. The Practice of Network Security Monitoring. - No Starch Press, 2013. - 376 p.

KOMPYUTERGA RUXSATSIZ ULANISHLARNI ANIQLASH VA REAL VAQT REJIMIDA MONITORING QILISHGA MO‘LJALLANGAN DASTURIY VOSITA ISHLAB CHIQISH

G’ayibov Islom Dilshod o’g’li,

Abduraxmonov Ozod Xudaynazar o’g’li

Abu Rayhon Beruniy Nomidagi Urganch Davlat Universiteti,

Axborot xavfsizligi kafedrasi

e-mail: bekzodabduraxmonov63@gmail.com

Abstract: *Ushbu maqolada kompyuter tarmog‘iga ruxsatsiz kirishlarni aniqlash va real vaqt rejimida monitoring qilish uchun mo‘ljallangan tarmoq monitoring tizimi taqdim etiladi. Dastur Windows operatsion tizimi asosida Python 3.10+ dasturlash tilida CustomTkinter kutubxonasi yordamida ishlab chiqilgan bo‘lib, tarmoq ulanishlarini kuzatish, masofaviy kirish protokollarini (RDP, SSH, SMB, VNC) aniqlash, zararli dasturlarni ko‘p qatlamli hash-tekshiruv orqali aniqlash va xavfli IP manzillarni Windows Firewall orqali avtomatik bloklash funksiyalarini o‘z ichiga oladi. Arxitektura etti parallel oqimdan iborat ko‘p oqimli (multi-thread) yondashuv asosida qurilgan bo‘lib, bir vaqtda 1247 ta tarmoq ulanishini kuzatish imkonini beradi. MalwareBazaar (500 000+ hash), VirusTotal (70+ antivirus dvigatel), NSRL va OpenPhish/PhishTank kabi to‘rtta xavfsizlik bazasi integratsiya qilingan. 72 soatlik uzluksiz sinovlar davomida zararli dastur aniqlash darajasi 94,3% ni, yolg‘on musbat natija (false positive) koeffitsienti esa 2,1% ni tashkil etdi. Mavjud yechimlar bilan taqqoslaganda dastur real vaqt monitoring, avtomatik bloklash va o‘z tili interfeysi bilan farqlanadi.*

Keywords: *Psutil, tarmoq xavfsizligi, ruxsatsiz kirish, real vaqt monitoring, zararli dastur, RDP, SSH, SMB, VNC, brute-force hujum, Windows Event Viewer, MalwareBazaar, VirusTotal, NSRL, OpenPhish, PhishTank, Windows Firewall, axborot xavfsizligi.*

Abstract: *This article presents a network monitoring system designed to detect unauthorized access to a computer network and monitor it in real time. The program is developed on the basis of the Windows operating system in the Python 3.10+ programming language using*

the CustomTkinter library, and includes functions for monitoring network connections, detecting remote access protocols (RDP, SSH, SMB, VNC), detecting malware using multi-layer hash-checking, and automatically blocking dangerous IP addresses through the Windows Firewall. The architecture is built on a multi-threaded approach with seven parallel threads, allowing for simultaneous monitoring of 1247 network connections. Four security databases are integrated: MalwareBazaar (500,000+ hashes), VirusTotal (70+ antivirus engines), NSRL, and OpenPhish/PhishTank. During 72 hours of continuous testing, the malware detection rate was 94.3%, and the false positive rate was 2.1%. Compared to existing solutions, the program is distinguished by real-time monitoring, automatic blocking and a native interface.

Keywords: *Psutil, network security, unauthorized access, real-time monitoring, malware, RDP, SSH, SMB, VNC, brute-force attack, Windows Event Viewer, MalwareBazaar, VirusTotal, NSRL, OpenPhish, PhishTank, Windows Firewall, information security.*

KIRISH

1.1. Tadqiqotning dolzarbligi

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalari-tibbiyot, ta’lim, moliya, davlat boshqaruvi, sanoat va savdo-sotiq - ni raqamli muhitga bog‘liq qilib qo‘ydi. Bu o‘zaro bog‘liqlik ulkan samaradorlik va qulaylik yaratish bilan birga, kiberhujumlar uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Xususan, masofaviy kirish protokollari orqali amalga oshiriladigan ruxsatsiz ulanishlar holatlari so‘nggi yillarda keskin ko‘payib bordi. COVID-19 pandemiyasi davrida butun dunyo bo‘ylab masofaviy ish rejimi keng joriy etilishi natijasida RDP portlari ommaviy ravishda internetga ochildi va bu holat kiberjinoyatchilar uchun yangi hujum maydonini vujudga keltirdi. Kaspersky Lab tadqiqot markazining 2024 yilgi hisobotiga ko‘ra, 2023–2024 yillarda RDP ga yo‘naltirilgan brute-force hujumlar soni global miqyosda 150 foizga oshdi va kuniga o‘rtacha 12 milliondan ortiq hujum qayd etildi [1]. IBM X-Force Intelligence hisobotida esa 2023 yilda tarmoqqa ruxsatsiz kirish barcha kiberhujumlarning 36 foizini tashkil etgani qayd etilgan [3]. O‘zbekiston Respublikasida ham vaziyat xavotirli: CERT-UZ ma’lumotlariga ko‘ra, 2023 yilda ro‘yxatga olingan

kiberhujumlar soni oldingi yilga nisbatan 43 foizga ko‘paydi. raqamlashtirish sur‘atlarining ortishi ushbu muammoni yanada dolzarb qilib qo‘ymoqda.

1.2. Muammo bayoni

Hozirgi kunda kichik va o‘rta korxonalar hamda yakka foydalanuvchilar uchun mos keladigan, qulay interfeysga ega, milliy tilda ishlaydigan va avtomatik bloklash imkoniyatiga ega xavfsizlik monitoring vositasi mavjud emas. Mavjud yechimlar quyidagi asosiy kamchiliklarga ega:

1. Korporativ yechimlar (CrowdStrike, Splunk) haddan tashqari qimmat va murakkab;
2. Ochiq kodli vositalar (Wireshark, Snort) maxsus texnik bilim talab qiladi;
3. Windows Defender tarmoq ulanishlarini chuqur tahlil qila olmaydi;
4. Mavjud vositalarning hech biri o‘z tilida ishlamaydi;
5. Avtomatik bloklash mexanizmi ko‘p vositalarda mavjud emas.

1.3. Tadqiqot maqsadi va vazifalari

Tadqiqot maqsadi: kompyuterga ruxsatsiz ulanishlarni real vaqt rejimida aniqlash, tahlil qilish va oldini olishga mo‘ljallangan, o‘zbek tilidagi interfeysga ega dasturiy vosita yaratish hamda uning samaradorligini ko‘p qatlamli sinov orqali baholash.

Tadqiqot vazifalari:

1. tarmoq ulanishlarini real vaqtda monitoring qilish tizimini ishlab chiqish;
2. masofaviy kirish protokollarini aniqlash va kuzatish mexanizmini joriy etish;
3. ko‘p bazali zararli dastur tekshiruv tizimini yaratish;
4. brute-force hujumlarni aniqlash va avtomatik bloklash algoritmini ishlab chiqish;
5. foydalanuvchi uchun qulay milliy tilidagi grafik interfeys yaratish.

II. MUAMMO TAHLILI

Ruxsatsiz kirishning texnik usullari

Kompyuter tarmog‘iga ruxsatsiz kirish - bu vakolatli foydalanuvchi roziligisiz amalga oshiriladigan har qanday ulanish yoki ma’lumotlarga murojaat. Kiberjinoyatchilar quyidagi asosiy texnik yo‘llardan foydalanadi:

1. RDP (3389-port): zaif parol yoki patch o‘rnatilmagan tizimlar maqsad bo‘ladi; BlueKeep (CVE-2019-0708) va DejaBlue ekspluatatsiyalari;
2. SSH (22-port): brute-force va lug‘at hujumlari, kalit o‘g‘irlash, man-in-the-middle;
3. SMB (445-port): EternalBlue (CVE-2017-0144) ekspluatatsiyasi, WannaCry tarqalish yo‘li;
4. VNC (5900-port): ko‘pincha shifrsiz, zaif autentifikatsiya;
5. TeamViewer/AnyDesk: credential stuffing, fishing havolalari;
6. RAT (AsyncRAT, njRAT, QuasarRAT): fishing email, zararli yuklanmalar.

2.2. Kiberhujum statistikasi

1-jadval. Kiberhujum statistikasi (2022–2023)

Ko‘rsatkich	2022	2023	O‘sish
Global RDP hujumlar (mln/kun)	8,1	12,3	+52%
O‘zbekistonda qayd. hujumlar	1 247	1 782	+43%
Brute-force ulushi (%)	41%	58%	+17%
O‘rtacha aniqlash vaqti (kun)	21	18	-14%
Zararli ko‘chirmalar (mln)	3,4	5,1	+50%

2.3. Mavjud yechimlar taqqosi

Bozordagi asosiy xavfsizlik vositalarining qiyosiy tahlili 2-jadvalda keltirilgan:

2-jadval. Mavjud xavfsizlik vositalari taqqoslanmasi

Vosita	Real vaqt	Bloklash	Murakkab
Wireshark	Qisman		Yuqori
CrowdStrike	Ha	Ha	Yuqori

Vosita	Real vaqt	Bloklash	Murakkab
Win.Defender	Qisman	Qisman	Past
Snort IDS	Ha	Yo‘q	Yuqori
Zeek (Bro)	Ha	Yo‘q	Yuqori
OSSEC HIDS	Ha	Qisman	O‘rta
Tarmoq monitoring tizimi	Ha	Ha	Past

III. DASTUR ARXITEKTURASI

3.1. Umumiy tuzilish va loyihalash tamoyillari

Tarmoq monitoring tizimibir nechta muhim loyihalash tamoyillariga asoslanib yaratildi: modullik (har bir funksiya alohida modulda), kengaytiriluvchilik (yangi bazalar qo‘shish oson), ishonchlilik (xato ushlash va log yozish), va foydalanuvchi qulay interfeys (texnik bilim talab qilmaslik).

Dastur Python 3.10+ dasturlash tilida ishlab chiqilgan bo‘lib, grafik interfeys uchun CustomTkinter 5.x va ma’lumotlar bazasi uchun SQLite 3 ishlatilgan. Quyidagi 3-jadvalda dastur modullari keltirilgan:

3-jadval. dasturi modullari

Fayl	Hajm (qat.)	Asosiy vazifa
main_gui.py	~2 800	Grafik interfeys, ekranlar, polling
monitor.py	~400	psutil tarmoq kuzatuvi
detector.py	~450	5 qoida tahdid filtri
file_scanner.py	~1 200	Ko‘p qatlamli fayl skaneri
remote_monitor.py	~900	RDP/SSH/SMB/VNC kuzatuvi
scan_gui.py	~600	Fayl skaneri interfeysi
remote_tab.py	~500	Remote kirish interfeysi

3.2. Ko‘p oqimli arxitektura

Dasturning ishlash samaradorligi etti parallel oqim (thread) orqali ta’minlanadi. Har bir thread o‘z vazifasiga ixtisoslashgan va mustaqil ishlaydi:

7. monitor_thread: har 500 ms da psutil.net_connections() chaqirib barcha ulanishlarni skanerlaydi; prev_keys to‘plami orqali faqat yangi ulanishlarni conn_queue ga yuboradi;

8. detector_thread: conn_queue dan ma’lumot olib, 5 ta qoida bo‘yicha ketma-ket tahlil qiladi; alert topilsa alert_queue ga yuboradi;

9. NetworkMonitor: psutil orqali har 1 s da masofaviy kirish portlarini (3389, 22, 445, 5900...) tekshiradi; sessiya boshlanishi va tugashini qayd etadi;

10. EventLogMonitor: win32evtlog orqali har 2 s da Windows Security jurnalini o‘qiydi (4624, 4625, 4778, 1149, 5140, 5145 Event IDlari);

11. BruteForceDetector: 60 s oynasida 5+ muvaffaqiyatsiz urinish bo‘lsa CRITICAL ogohlantirish beradi;

12. ScanWorker: scan_queue dan fayllarni navbat asosida asinxron tekshiradi; 6 qatlamli tekshiruv;

13. DB_Updater: fon rejimda MalwareBazaar, OpenPhish, PhishTank bazalarini yangilab turadi.

3.3. Ma’lumotlar oqimi va GUI polling

Dasturning ma’lumotlar oqimi uchta parallel kanal bo‘yicha ishlaydi:

Tarmoq kanali: monitor_thread → conn_queue (max 3 000 element) → detector_thread → alert_queue → GUI (200 ms polling). Har polling siklida max 100 ulanish va 30 ogohlantirish o‘qiladi.

Fayl kanali: Watchdog event → scan_queue (max 100 element) → ScanWorker → out_queue → GUI. Fayl hajmi < 1 KB bo‘lsa o‘tkazib yuboriladi.

Remote kanal: NetworkMonitor + EventLogMonitor → remote_queue (max 2 000) → GUI (RemoteScreen). Har 3 s da aktiv sessiyalar jadvali yangilanadi.

3.4. Xavfsizlik bazalari integratsiyasi

MalwareBazaar: 500 000+ SHA256 hash lokal SQLite da. Auth-Key header. Har 6 soatda yangilanadi. CSV import imkoniyati. Internet yo‘qligida ham ishlaydi.

NSRL (NIST): Windows, Office, Adobe kabi qonuniy dasturlar SHA1 hashlari. Team Cymru Whois API (43-port). Lokal kesh. False positive 12,3% → 2,1%.

VirusTotal API v3: 70+ antivirus. Hash lookup → Upload ketma-ketligi. Rate limit: 4/min (bepul). Kesh: 24 soat. Max fayl: 650 MB.

OpenPhish + PhishTank: ~32 000 aktiv fishing URL lokal SQLite. O(1) qidiruv (Python set). OpenPhish soatda, PhishTank kunda yangilanadi.

IV. DASTURNING ASOSIY FUNKSIYALARI

4.1. Foydalanuvchi interfeysi

Dastur uchun yon panel navigatsiya tizimi tanlandi: Dashboard (umumiy ko‘rinish), Live Monitor (real vaqt ulanishlar), Alerts (ogohlantirishlar tarixi), Statistics (grafik tahlil), Remote (masofaviy kirish), Scan (fayl tekshiruvi), Settings (sozlamalar). Login ekrani SHA-256 shifrlangan parol bilan himoyalangan.

Dashboard ekrani: jami ulanishlar, xorijiy IP lar, bloklangan manzillar, aktiv tahdidlar soni; sistema holati (CPU, RAM, disk); so‘nggi 10 ta ogohlantirish; 24 soatlik ulanishlar grafigi.

4.2. Tahdid aniqlash algoritmi

1. INTEL_BLACKLIST: AbuseIPDB va lokal qora ro‘yxatga tekshiruv. Moslik → CRITICAL;
2. LEARN_THREAT: avval o‘rganilgan tahdid naqshlariga moslik tekshiruvi;
3. MALICIOUS_PORT: 4444 (Metasploit), 1337, 31337 (backdoor), 5555, 12345, 9001 (Tor) portlari;
4. SCAN_ACTIVITY: bir manzildan 40 ulanish/15 soniyada port skanerlash tespiti;
5. UNKNOWN_PROC_PORT: noma’lum jarayon 5+ ulanish qilgandan keyin MEDIUM ogohlantirish.

Yolg‘on musbat kamaytirish: 120 s cooldown (IP+port+qoida bo‘yicha); 80+ ishonchli jarayon: chrome.exe, firefox.exe, telegram.exe, svchost.exe, lsass.exe, onedrive.exe...; minimal 5 ulanish chegarasi (UNKNOWN_PROC uchun); NSRL orqali qonuniy dasturlar filtri.

4.3. Ko‘p qatlamli fayl skaneri

6 qatlamli tekshiruv sxemasi (6-jadvalga qarang). Har qatlam natija topilsa keyingi qatlamga o‘tilmaydi. Bu API chaqiruvlarini tejaydi va tezlikni oshiradi. Watchdog kuzatiladigan yo‘llar: %USERPROFILE%\Downloads, %USERPROFILE%\Desktop, %USERPROFILE%\Documents, %APPDATA%\Telegram Desktop\..., %LOCALAPPDATA%\Temp. Minimal fayl hajmi: 1 KB. Brauzerlar uchun maxsus ishlov: Chrome/Edge (.crdownload → .exe), Firefox (.part → fayl), Telegram (to‘g‘ridan Downloads ga). on_moved event - yuklab olish tugagani belgisi. Verdict darajalari: VIRUS (5+ antivirus aniqladi) - faylni o‘chirish tavsiyasi; SHUBHALI (1-4 antivirus) - ehtiyot bo‘lish; XAVFSIZ (0 antivirus) - NSRL orqali tasdiqlangan; KUTILMOQDA - VT tahlil davom etmoqda. BruteForceDetector: 60 s da 5+ login xatosi → CRITICAL. IP + username bo‘yicha alohida. Bir IP uchun bir marta CRITICAL (spam yo‘q). Sessiyani uzish: RDP - logoff (sessiya ID); SMB - net session /delete /y; SSH/VNC/AnyDesk - taskkill /PID /F; fallback - Firewall TCP reset.

V. SINOV VA NATIJALAR TAHLILI

5.1. Sinov metodologiyasi

Sinov uch bosqichda amalga oshirildi:

1-bosqich - Birlik sinovi: Har bir modul alohida test qilindi. Detector.py uchun 200 ta test ulanishi (50 ta haqiqiy tahdid, 150 ta normal); file_scanner.py uchun 100 ta fayl (50 ta zararli, 50 ta xavfsiz); remote_monitor.py uchun 30 ta simulyatsiya qilingan sessiya.

2-bosqich - Integratsion sinov: Barcha modullar birgalikda sinab ko‘rildi. 72 soatlik uzluksiz monitoring davomida haqiqiy tarmoq trafigi kuzatildi: jami 18 742 ta ulanish, 47 ta haqiqiy tahdid, 234 ta brute-force urinish.

3-bosqich - Taqqoslama sinov: natijalari Wireshark va Windows Event Viewer natijalari bilan qo‘lda solishtirilib, to‘g‘rilik tekshirildi.

5.2. Ishlash ko‘rsatkichlari

72 soatlik sinov davomida qayd etilgan asosiy ko‘rsatkichlar (8-jadval):

8-jadval. Ishlash ko‘rsatkichlari (72 soatlik sinov)

Ko‘rsatkich	Qiymat	Izoh
Jami qayd etilgan ulanishlar	18 742 ta	72 soat davomida
Maksimal bir vaqtdagi ulanish	1 247 ta	Yuqori yuklanish vaqtida
Tarmoq so‘rovi vaqti (psutil)	< 50 ms	500 ms da bir marta
Hash tekshiruvi (lokal)	0,001 s	500 000 hash orasida
VirusTotal hash lookup	2–5 s	Internet tezligiga bog‘liq
GUI polling vaqti	200 ms	Interfeys javob berish
CPU yuklanishi (tinch)	~2,1%	Fon rejimda
CPU yuklanishi (yuqori)	~8,4%	Ko‘p ulanish vaqtida
RAM sarfi (tinch)	~95 MB	Bazalarsiz
RAM sarfi (to‘liq)	124–180 MB	Bazalar yuklanganda
Brute-force aniqlash	< 2 s	5 urinishdan so‘ng
RDP aniqlash vaqti	~1,2 s	Ulanishdan ogohlantirish
Disk sarfi (kuniga)	~2–5 MB	Log va baza yangilanish

5.3. Aniqlash samaradorligi

Zararli dastur aniqlash sinovi uchun: EICAR standart test fayli, MalwareBazaar dan yuklangan 50 ta haqiqiy zararli dastur namunasi (WannaCry, NotPetya, Emotet, Mirai, AsyncRAT, RedLine Stealer, LockBit, Conti, njRAT, Remcos va boshqalar) ishlatildi.

9-jadval. Aniqlash samaradorligi natijalari

Sinov turi	**Natija**	**Izoh**
MalwareBazaar (50 ta)	50/50 (100%)	0,001 s da
VirusTotal hash	47/50 (94,3%)	3 ta yangi namuna
NSRL false positive	2,1%	Avval 12,3% edi
Brute-force (simulyatsiya)	5/5 (100%)	5+ urinishda
RDP aniqlash	30/30 (100%)	1,2 s o‘rtacha
Fishing URL	290/310 (93,5%)	OpenPhish+PhishTank

XULOSA

Ushbu tadqiqot doirasida kompyuterga ruxsatsiz ulanishlarni real vaqt rejimida aniqlash va monitoring qilish uchun mo‘ljallangan dasturiy vositasi muvaffaqiyatli ishlab chiqildi. Dastur 72 soatlik uzluksiz sinov va ko‘p bosqichli samaradorlik baholashidan muvaffaqiyatli o‘tdi.

Tadqiqotning asosiy ilmiy va amaliy natijalari:

1. Etti parallel oqim (multi-thread) arxitekturasi sekundiga 100 tagacha yangi ulanishni real vaqtda qayta ishlashga imkon beradi, GUI ning muzlab qolishini oldini oladi;
2. To‘rtta xavfsizlik bazasi (MalwareBazaar, NSRL, VirusTotal, OpenPhish/PhishTank) integratsiyasi zararli dastur aniqlash darajasini 94,3% ga, fishing URL aniqlashni 93,5% ga oshirdi;
3. NSRL integratsiyasi yolg‘on musbat natija koeffitsientini 12,3% dan 2,1% ga kamaytirdi, bu tizim ishonchliligini sezilarli oshirdi;
4. Internet bo‘lmagan sharoitda ham 500 000+ hash lokal bazasi asosida to‘liq quvvatda ishlash ta’minlandi;
5. 72 soatlik sinov davomida 18 742 ulanish qayta ishlandi, 47 ta haqiqiy tahdid aniqlandi, 234 ta brute-force urinish bloklśhifrlandi;
6. O‘zbek, rus va ingliz tili qo‘llab-quvvatlanadi, bu mahalliy foydalanuvchilar uchun muhim ustunlik;

7. Windows Firewall (IN+OUT) integratsiyasi orqali xavfli IP manzillarni avtomatik bloklash, sessiyani uzish (RDP logoff, SMB delete, taskkill) joriy etildi.

Kelajak tadqiqot yo‘nalishlari: (1) LSTM neyron tarmog‘i asosidagi anomaliya aniqlash moduli; (2) Linux va macOS platformalariga portlash; (3) korporativ markazlashtirilgan boshqaruv paneli; (4) SIEM tizimlari (Splunk, Elastic SIEM) bilan integratsiya; (5) IPv6 protokoli qo‘llab-quvvatlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kaspersky Lab. Kaspersky Security Bulletin 2023: Statistics. - Moscow: Kaspersky Lab, 2024. - 89 p.

2. CERT-UZ. O‘zbekiston Respublikasi kiberhavfsizlik holati bo‘yicha hisobot 2023. - Toshkent: UZINFOCOM, 2024.

3. IBM Security. X-Force Threat Intelligence Index 2024. - IBM Corporation, 2024. - 76 p.

4. Stallings W. Network Security Essentials: Applications and Standards. 7th ed. - Pearson, 2022. - 480 p.

5. Anderson R. Security Engineering. 3rd ed. - Wiley, 2020. - 1232 p.

6. Bejtlich R. The Practice of Network Security Monitoring. - No Starch Press, 2013. - 376 p.

7. Abuse.ch. MalwareBazaar: Share malware samples. URL: https://bazaar.abuse.ch (murojaat: 2024.11).

8. NIST. National Software Reference Library. URL: https://www.nist.gov/itl/ssd (murojaat: 2024.11).

9. VirusTotal. API v3 Reference Documentation. URL: https://developers.virustotal.com (murojaat: 2024.11).

10. OpenPhish. Phishing Intelligence Feed. URL: https://openphish.com (murojaat: 2024.11).

11. PhishTank. Community Anti-Phishing Site. URL: https://phishtank.org (murojaat: 2024.11).

12. Team Cymru. NSRL Whois Lookup Service. URL: https://hash.cymru.com (murojaat: 2024.11).

13. Psutil. Cross-platform lib for process/system info. URL: https://psutil.readthedocs.io

14. Mitre. ATT&CK Framework. URL: https://attack.mitre.org (murojaat: 2024.11).

15. O‘zbekiston Respublikasining “Axborot xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonuni. - Toshkent, 2022.

16. Xolmatov B., Narzullayev O. O‘zbekistonda axborot xavfsizligi tizimini rivojlantirish. RTvaSI, 2023, 2-son, 45–52-b.

17. Schneier B. Applied Cryptography. 2nd ed. - Wiley, 1996. - 784 p.

18. [Menezes A.J. et al. Handbook of Applied Cryptography. - CRC Press, 1996. - 816 p.

KATTA MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISHDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA AVTOMATIK INSIGHT CHIQARUVCHI INTERAKTIV DASHBOARD MODELI

Nuraliyev Faxriddin Murodillayevich,
t.f.d,.professor, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalariuniversiteti,
"Televizion va media texnologiyalar" kafedrasi,
Toshkent, O'zbekiston.
f.nuraliev@tuit.uz
Hotamov Farhod Nodirovich,
Doktorant, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalariuniversiteti,
"Televizion va media texnologiyalar" kafedrasi
f.hotamov@tuit.uz
Muxamedjonova Zuxra Boxodir qizi,
Magistr, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalariuniversiteti,
"Televizion va media texnologiyalar" kafedrasi
zukhraofficial@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada katta ma'lumotlarni vizuallashtirishning zamonaviy usullari, sun'iy intellekt bilan integratsiyalashgan tahlil mexanizmlari hamda real vaqt rejimida qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlovchi interaktiv yechimlar yoritiladi. Katta ma'lumotlarning hajm, tezlik va xilma-xillik xususiyatlari an'anaviy tahlilni murakkablashtiradi. Shu sababli dashboard, heatmap, klasterlash, prognozlash hamda VR/AR asosidagi amaliy model taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *katta ma'lumotlar, vizuallashtirish, sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili, dashboard, VR/AR, interaktiv analitika.*

Abstract: *The article discusses modern methods for Big Data visualization, analytical mechanisms integrated with artificial intelligence, and interactive solutions supporting real-time decision-making. A practical model based on dashboards, heatmaps, clustering, forecasting and VR/AR is proposed.*

Keywords: *Big Data, visualization, artificial intelligence, data analytics, dashboard, VR/AR, interactive analytics.*

KIRISH

Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim, moliya, sanoat, transport, media va davlat boshqaruvi kabi sohalarda katta hajmdagi ma’lumotlar shakllanmoqda. Bunday ma’lumotlar orqali jarayonlarni baholash, xavflarni oldindan aniqlash va strategik qarorlarni asoslash mumkin. Ammo katta ma’lumotlarning hajmi, tezligi va xilma-xilligi ularni oddiy jadval yoki statik diagrammalar orqali to‘liq tahlil qilish imkonini cheklaydi.

Vizuallashtirish ma’lumotlarni inson uchun tushunarli, tez idrok qilinadigan va amaliy qaror qabul qilishga yo‘naltirilgan shaklga keltiradi. Olshannikova va hammualliflar katta ma’lumotlarni vizuallashtirishda inson idroki, interaktivlik hamda VR/AR texnologiyalarining ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. Shu nuqtai nazardan maqolaning maqsadi — “Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili” yo‘nalishiga mos holda katta ma’lumotlarni vizuallashtirish bo‘yicha amaliy yechimlarni taklif etishdir.

ASOSIY QISM

Katta ma’lumotlar turli manbalardan: ijtimoiy tarmoqlar, sensorlar, video oqimlar, tranzaksiyalar, veb-loglar, ilmiy kuzatuvlar va tibbiy ma’lumotlardan shakllanadi. Bunday ma’lumotlarni tahlil qilishda foydalanuvchi trend, klaster, anomaliya, korrelyatsiya va prognozlarni tez ko‘ra olishi kerak. Shuning uchun vizual analitika oddiy “grafik chizish” emas, balki ma’lumotlarni tozalash, modellashtirish, interaktiv ko‘rsatish va xulosani foydalanuvchiga mos shaklda yetkazish jarayonidir.

Vizuallashtirishning keng qo‘llaniladigan usullariga chiziqli grafiklar, ustunli diagrammalar, histogrammalar, scatter plot, bubble chart, geoxaritalar, treemap, network graph va dashboardlar kiradi. Heatmap ko‘p o‘lchamli ma’lumotlardagi bog‘liqlikni tez aniqlashga yordam beradi; bubble chart uchta ko‘rsatkichni bir vaqtning o‘zida ko‘rsatadi; dashboard esa turli indikatorlarni yagona boshqaruv panelida jamlaydi.

Sun’iy intellekt vizuallashtirish jarayoniga qo‘shilganda tizim faqat ma’lumotni ko‘rsatmaydi, balki uni izohlaydi, tasniflaydi va kelajakdagi holatni prognoz qiladi. Klasterlash algoritmlari foydalanuvchilar segmentlarini ajratadi, anomaliya aniqlash usullari noodatiy o‘zgarishlarni ko‘rsatadi, regressiya va neyron tarmoqlar esa keyingi davr natijalarini bashorat qiladi. Natijada vizual panel oddiy hisobotdan intellektual tahlil muhitiga aylanadi.

Quyidagi jadval katta ma’lumotlarni vizuallashtirish bo‘yicha taklif etilayotgan yechimlarni umumlashtiradi:

Muammo	**Yechim**	**Vositalar**	**Natija**
Katta hajm	Agregatsiya va interaktiv filtrlar	Hadoop, Spark, SQL/NoSQL	Tahlil tezlashadi
Ko‘p o‘lchamli ma’lumot	Heatmap, scatter matrix, klasterlash	Python, R, ggplot2, Plotly	Bog‘liqliklar aniqlanadi
Real vaqt monitoringi	Stream dashboard va avtomatik signal	Spark Streaming, Power BI, Tableau	Tezkor qaror qabul qilinadi
Inson idroki cheklanishi	Soddalashtirilgan dizayn va rang semantikasi	UX/UI, visual analytics	Kognitiv yuk kamayadi
3D fazoviy ko‘rinish	VR/AR asosidagi vizual analitika	VR headset, AR, Unity/WebXR	Chuqur idrok kuchayadi

Taklif etilayotgan innovatsion model

Maqolada quyidagi konseptual model taklif etiladi: ma’lumotlar manbalari → ma’lumotlarni tozalash → sun’iy intellekt asosida tahlil qilish → vizual analitika paneli → qaror qabul qilish. Birinchi bosqichda ma’lumotlar yig‘iladi va sifat bo‘yicha tekshiriladi. Ikkinchi bosqichda AI algoritmlari yordamida trend, klaster, anomaliya va prognozlar olinadi. Uchinchi bosqichda natijalar dashboard yoki 3D

muhitda ko‘rsatiladi. To‘rtinchi bosqichda foydalanuvchi vizual ko‘rsatkichlarga tayangan holda qaror qabul qiladi.

Ushbu modelning amaliy afzalligi shundaki, ma’lumotlar bilan ishlash faqat dasturchi yoki data scientistlar doirasida qolmaydi. Interaktiv vizual interfeys orqali rahbar, tadqiqotchi, o‘qituvchi yoki marketolog ma’lumot mazmunini tez anglay oladi. Ayniqsa, media texnologiyalari, ta’lim platformalari, raqamli marketing, aqlli shaharlar va elektron hukumat tizimlarida bunday yechimlar yuqori samara beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Taklif etilgan yondashuv uchta muhim natijani beradi. Birinchidan, axborotlarni ko‘rish orqali tez idrok qilish imkoniyati oshadi. Ikkinchidan, sun’iy intellekt yordamida inson ko‘zi ilg‘amas yashirin bog‘liqliklar aniqlanadi. Uchinchidan, real vaqt rejimida yangilanadigan dashboardlar boshqaruv qarorlarini tezlashtiradi.

Biroq vizuallashtirishda noto‘g‘ri tanlangan ranglar foydalanuvchini chalg‘itishi, ortiqcha indikatorlar kognitiv yukni oshirishi, sifatsiz ma’lumot esa AI natijalarini noto‘g‘ri talqin qilishga olib kelishi mumkin. Shu sababli “ko‘proq grafik — yaxshiroq tahlil” emas, balki “aniq maqsadga mos grafik — samarali tahlil” tamoyiliga amal qilish zarur. VR/AR texnologiyalari esa murakkab tarmoqlar, 3D obyektlar va ko‘p o‘lchamli fazolarni tabiiyroq idrok qilish imkonini beradi, biroq qurilma narxi va foydalanuvchi qulayligi ham hisobga olinishi lozim.

XULOSA

Katta ma’lumotlarni vizuallashtirish raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlilining kesishgan nuqtasida joylashgan dolzarb ilmiy-amaliy yo‘nalishdir. Tadqiqot natijasida interaktiv dashboardlar, AI asosidagi klasterlash va prognozlash, real vaqt analitikasi, heatmap va VR/AR vizual muhitlardan foydalanish katta ma’lumotlarni tushunarli va qaror qabul qilishga qulay shaklga keltirishi aniqlandi.

Many students find it difficult or boring to learn new English vocabulary. Some try to memorize long lists of words; however, they often forget them quickly. In recent years, game-based platforms have become increasingly popular as a way to make vocabulary learning more engaging and effective. Tools such as Quizizz, Kahoot, and Wordwall provide interactive activities that can help students stay

motivated and improve their learning experience. Therefore, this study explores how game-based learning can support students in developing their English vocabulary.

Previous studies have shown that game-based learning can improve students' engagement and participation in the classroom. For example, Marc Prensky (2001) argues that games increase learners' motivation by making learning more enjoyable and goal-oriented. Similarly, Wood (2001) found that game-like formats are more effective in capturing students' attention compared to traditional methods such as textbooks. Additionally, Nguyen and Khuat (2003) highlighted that students often struggle with memorizing vocabulary through traditional techniques, which made alternative approaches necessary. Furthermore, Foreman et al. (2004) suggest that interactive games have significantly influenced modern learning environments by increasing student engagement. Several other researchers have also examined the effectiveness of games in language learning. For instance, Ishtawi (2011) investigated the use of educational games in teaching English grammar and found significant differences between the students taught through games and those taught using traditional methods, with the experimental group showing better performance. Similarly, Putri, Sutopo, and Bharati (2017) explored the use of vocabulary games such as "20-squares" and "word-clap" and reported that students in the experimental group achieved higher scores than those in the control group. In addition, Yulianti and Bharati (2017) also found that game-based techniques were effective in improving students' vocabulary learning outcomes. Overall, these studies suggest that game-based learning can be an effective approach to improving students' motivation, engagement, and vocabulary acquisition. However, the effectiveness of such methods may vary depending on the learning context and how the games are implemented. Although many studies have shown that game-based learning can improve students' motivation and academic performance, there are still some gaps that need further investigation. Most previous research has focused on grammar learning or general language skills, rather than specifically on vocabulary

development. In addition, many studies were conducted with large groups or in different contexts, which may not fully reflect the experiences of smaller classroom settings. Therefore, more research is needed to examine how game-based platforms affect students' vocabulary learning, as well as their motivation and engagement in real classroom environments.

Research questions

1. How do game-based platforms affect students' English vocabulary improvement?

2. How do students respond to game-based learning in terms of motivation and engagement?

3. To what extent do game-based activities help students retain new vocabulary?

Methods: This study used a quantitative research design to examine the effect of game-based platforms on students' English vocabulary learning. The purpose of this study was to identify whether using games could improve students' vocabulary knowledge and increase their motivation during lessons. The study was conducted in a high school classroom in No. 39 school in Namangan, Uzbekistan. The classroom environment was generally positive; however, many students showed low interest in learning vocabulary through traditional methods. Lessons were held three times a week, and each lesson lasted 45 minutes. Vocabulary activities were included in every lesson. There were 30 students in the class. The participants were high school students with an elementary(CEFR-A1) to pre-intermediate level(CEFR-B1) of English. They had basic knowledge of vocabulary but often had difficulty remembering and using new words. Most students understood classroom instructions but were not very active during vocabulary learning activities. Data were collected through vocabulary tests and a questionnaire. The research was carried out over a period of three weeks. In Week 1, students completed a pre-test to assess their initial vocabulary knowledge. During Weeks 2 and 3, students learned vocabulary

through game-based platforms such as Quizizz, Kahoot , and Wordwall. These platforms were used regularly during lessons to create a more interactive learning environment. They allowed students to practice vocabulary through quizzes, matching activities, and quick games, which helped them stay focused and involved in the lesson. In addition, the competitive and fun elements of these platforms encouraged students to participate more actively and made it easier for them to remember new words. At the end of Week 3, a post-test was conducted to measure students' improvement. In addition, a questionnaire was given to students to understand their motivation, interest, and attitudes toward game-based learning. The collected data were analyzed by comparing pre-test and post-test results, as well as reviewing students' responses to identify general patterns in their engagement and learning experience.

RESULT

The results of the study showed that game-based platforms had a positive effect on students' English vocabulary learning. After three weeks of using game-based activities in class, noticeable improvements were seen in students' vocabulary performance and classroom participation. The post-test results were generally better than the pre-test results, which suggests that students were able to learn and remember new vocabulary more effectively through interactive activities.



Based on the first research question, around 80% of the students received higher scores in the post-test. Many students showed improvement in understanding word meanings, spelling, and pronunciation. In addition, about 70% of the students were able to use newly learned words more accurately during classroom activities and discussions. This shows that repeated practice through games helped students become more familiar with the vocabulary. The questionnaire results also showed positive responses from students. About 90% of the participants said that learning vocabulary through games was more interesting and enjoyable than traditional exercises. Many students mentioned that using platforms such as, Quizizz, Kahoot,and Wordwall made them feel more relaxed and motivated during lessons. Some students especially enjoyed the competitive activities and teamwork because they made the lessons more fun and interactive. Classroom observations also revealed changes in students' participation. During regular vocabulary lessons, several students were usually quiet and less willing to answer questions. However, during game-based activities, students became more active and participated more confidently. Even quieter students showed greater interest and were more involved in classroom tasks. Students also communicated more with each other while

completing activities and games. Another noticeable result was related to students' attention during lessons. Students appeared more focused and interested when interactive games were used. Compared to traditional vocabulary exercises, game-based activities reduced boredom and encouraged students to stay involved in the lesson for a longer time. Overall, the findings of the study suggest that game-based platforms can support vocabulary learning in a more engaging and enjoyable way. The activities not only helped students improve their vocabulary knowledge but also increased their motivation and participation during lessons.

DISCUSSION:

The findings of this study show that game-based platforms can positively influence students' English vocabulary learning. The improvement in students' post-test scores suggests that interactive activities helped them understand and remember new vocabulary more effectively. Many students were able to recognize and use new words more confidently after participating in game-based lessons. This indicates that learning through games can make vocabulary practice more meaningful and less stressful for students. The results also revealed that students were more motivated and interested during lessons when game-based platforms were used. Most students responded positively to activities on Quizizz, Kahoot, and Wordwall because the activities were interactive, competitive, and enjoyable. Instead of simply memorizing vocabulary lists, students were actively involved in quizzes, matching games, and team activities. This helped create a more relaxed classroom atmosphere and encouraged students to participate more freely. Another important point observed during the research was the increase in classroom participation. Students who were usually quiet during traditional vocabulary lessons became more active during game-based activities. They answered questions more confidently, interacted more with classmates, and showed greater enthusiasm throughout the lessons. This suggests that game-based learning can help reduce students' fear of making mistakes and create a more supportive learning environment. The findings of this study are

similar to previous research, which suggests that games can improve student engagement and learning outcomes. Earlier studies by researchers such as Prensky (2001) and Wood (2001) also emphasized that games make learning more enjoyable and help attract students' attention. In the same way, the current study found that students stayed focused for a longer time and participated more actively during interactive activities. However, several limitations were also noticed during the research process. The study was conducted with only 30 students and lasted for three weeks, which may limit the generalizability of the findings. In addition, some students were more familiar with digital platforms than others, which may have affected their participation levels. Future research could involve larger groups of students and longer research periods to gain more detailed results. Overall, the study suggests that game-based platforms can be an effective tool for improving students' English vocabulary learning. They not only support vocabulary development but also increase students' motivation, participation, and confidence during lessons.

CONCLUSION

In conclusion, this study showed that game-based platforms can play an important role in improving students' English vocabulary learning. The findings revealed that students performed better in vocabulary activities after using interactive platforms during lessons. In addition, students became more motivated, active, and interested in learning when game-based activities were included in the classroom. Platforms such as Quizizz, Kahoot and Wordwall helped create a more enjoyable and engaging learning environment. Through quizzes, games, and interactive tasks, students were able to practice vocabulary in a less stressful and more meaningful way. The study also showed that game-based learning encouraged greater classroom participation and helped students feel more confident while using new words. Although the study was conducted with a small number of participants over a short period of time, the results suggest that integrating game-based platforms into English lessons can positively support vocabulary development. Therefore,

teachers are encouraged to use interactive digital activities as a supplement to traditional teaching methods in order to increase students' motivation and improve their vocabulary learning experience.

REFERENCES:

1. Allen, V. F. (1983). Techniques in teaching vocabulary. Oxford University Press.
2. Dempsey, J. V., Lucassen, B., Haynes, L., & Casey, M. S. (2002). Instructional applications of computer games. In D. H. Jonassen (Ed.), Handbook of research for educational communications and technology (pp. 157–167). Macmillan.
3. Diamond, L., & Gutlohn, L. (2006). Vocabulary handbook. Consortium on Reading Excellence.
4. Foreman, J., Gee, J. P., Herz, J. C., Hinrichs, R., Prensky, M., & Sawyer, B. (2004). Game-based learning: How to delight and instruct in the 21st century. EDUCAUSE Review, 39(5), 50–66.
5. Groh, F. (2012). Gamification: State of the art definition and utilization. Proceedings of the 4th Seminar on Research Trends in Media Informatics.
6. Ishtawi, F. A. (2011). The effect of game strategy on learning English grammar for twelfth grade students. Journal of Education and Practice, 2(1), 45–57.
7. Krasilovsky, M. (1996). Educational computer games and young learners. Educational Technology, 36(3), 20–25.
8. Nguyen, T. T., & Khuat, T. T. N. (2003). Learning vocabulary through games. Asian EFL Journal, 5(4), 90–105.
9. Prensky, M. (2001). Digital game-based learning. McGraw-Hill.
10. Putri, D. A., Sutopo, D., & Bharati, D. A. L. (2017). The effectiveness of 20-squares and word-clap games in teaching vocabulary. English Education Journal, 7(2), 120–128.
11. Rixon, S. (1981). How to use games in language teaching. Macmillan Education.

12. Salen, K., & Zimmerman, E. (2004). Rules of play: Game design fundamentals. MIT Press.

13. Wilkins, D. A. (1972). Linguistics in language teaching. Edward Arnold.

14. Wood, R. (2001). The effectiveness of game-like learning environments in education. Educational Media International, 38(1), 67–74.

15. Yulianti, N., & Bharati, D. A. L. (2017). The effectiveness of game-based techniques in improving students' vocabulary mastery. English Language Teaching Journal, 6(3), 88–95.

SUN’IY INTELLEKT VA MA’LUMOTLAR TAHLILI ASOSIDA VIRTUAL MUHITLAR UCHUN MILLIY AVATAR OBRAZINI YARATISH MODELI

Nuraliyev Faxriddin Murodillayevich,

t.f.d,.professor, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti,

“Televizion va media texnologiyalar” kafedrasi,

Toshkent, O‘zbekiston.

f.nuraliev@tuit.uz

Ibodullayev Sardor Nasriddin o‘g‘li,

Katta o‘qituvchi, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti,

“Televizion va media texnologiyalar” kafedrasi

Toshkent, O‘zbekiston.

s.ibodullayev@tuit.uz

Muxamedjonova Fotima Baxodir qizi,

Magistr, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti,

“Televizion va media texnologiyalar” kafedrasi

muxamedjonovafotima@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada virtual muhitlar uchun milliy avatar obrazini yaratish masalasi raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili yo‘nalishi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy g‘oyasi milliy kiyim, antropometrik shakl, yuz ifodasi, rang palitrasi, harakat va nutq komponentlarini yagona raqamli modelga birlashtirish orqali virtual muhitda madaniy identifikatsiyani ifodalaydigan avatar yaratishdan iborat. Taklif etilayotgan yechim sun’iy intellekt yordamida vizual manbalardan atributlarni ajratish, 3D modellashtirish va*

teksturalash, semantik metama'lumotlar bazasini shakllantirish, Unreal Engine muhitida real vaqtli vizuallashtirish hamda foydalanuvchi xatti-harakatlarini analitik baholash bosqichlarini o'z ichiga oladi. Natijada ta'lim, madaniy merosni raqamlashtirish, turizm, media va metavers platformalarida qo'llash mumkin bo'lgan milliy avatar konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: *virtual muhit, milliy avatar, sun'iy intellekt, 3D modellashtirish, ma'lumotlar tahlili, VR, Unreal Engine, raqamli madaniy meros.*

Abstract*: The article examines the creation of a national avatar for virtual environments from the perspective of digital technologies, artificial intelligence, and data analytics. The proposed solution combines AI-based extraction of visual attributes, 3D modeling and texturing, a semantic metadata database, real-time visualization in Unreal Engine, and analytical evaluation of user behavior. The concept can be applied in education, digital cultural heritage, tourism, media, and metaverse platforms.*

Keywords: *virtual environment, national avatar, artificial intelligence, 3D modeling, data analytics, VR, Unreal Engine, digital cultural heritage.*

KIRISH

Raqamli transformatsiya jarayonida virtual reallik, kengaytirilgan reallik, 3D modellashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalari insonning raqamli muhit bilan o'zaro aloqasini tubdan o'zgartirmoqda. Virtual muhitlarda foydalanuvchi o'zini obyekt, personaj yoki avatar orqali namoyon qiladi. Shuning uchun avatar endilikda oddiy grafik model emas, balki shaxs, guruh, jamiyat va madaniyatni ifodalovchi raqamli identifikator sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa, milliy avatar konsepsiyasi O'zbekistonning tarixiy-madaniy merosi, milliy kiyimlari, naqshlari, ranglari, harakat etiketi va kommunikativ xususiyatlarini raqamli shaklda ifodalash imkonini beradi.

"Virtual reallikni vizuallashtirish" o'quv qo'llanmasida VR texnologiyalari sanoat, tibbiyot, turizm, harbiy soha, kino, televideniya va ta'limda qo'llanilayotgani, shuningdek 3D texnologiyalar orqali an'anaviy o'qitish muhitidan virtual 3D o'qitish muhitiga o'tish dolzarb vazifa ekani ta'kidlanadi [1]. Mazkur fikr dissertatsiya mavzusi uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi, chunki milliy avatar

virtual ta’lim va madaniy kommunikatsiya muhitida foydalanuvchi bilan tizim o‘rtasidagi asosiy vizual-interaktiv vositaga aylanadi.

“VR asoslari” uslubiy ko‘rsatmasida 3D Max, Unreal Engine, tekstura, material, animatsiya, UI elementlari va interaktiv boshqaruv orqali VR sahnalarini yaratish amaliy jihatdan yoritilgan [2]. Demak, milliy avatar yaratish jarayonini faqat dizayn vazifasi sifatida emas, balki raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili uyg‘unlashgan kompleks ilmiy-amaliy tizim sifatida ko‘rish zarur.

Tadqiqotning maqsadi — virtual muhitlar uchun milliy avatar obrazini yaratishda SI va ma’lumotlar tahliliga asoslangan konseptual yechimni taklif etish, uning texnologik bosqichlarini belgilash va konferensiyaning “Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili” yo‘nalishiga mos ilmiy-amaliy natijalarni asoslashdan iborat.

ASOSIY QISM

Tadqiqotda tizimli tahlil, kompyuter grafikasi, 3D modellashtirish, mashinali ko‘rish, semantik ma’lumotlar bazasi, foydalanuvchi tajribasini baholash va prototiplash metodlari qo‘llanildi. Nazariy asos sifatida VR tizimlarining geometriya, vizual renderlash, idrok, optika va interaktivlikka doir komponentlari olindi. LaValle virtual reallikni geometrik modellashtirish, transformatsiyalar, grafik renderlash, optika, inson fiziologiyasi, ko‘rish va vestibulyar tizimlar hamda interfeys dizayni bilan bog‘liq kompleks fanlararo soha sifatida izohlaydi [3].

Amaliy bosqichlarda 3D Max muhitida bazaviy model yaratish, FBX yoki glTF formatida eksport qilish, Unreal Engine muhitida material va teksturalarni sozlash, animatsiya skeletini ulash, Blueprint yordamida interaktivlik yaratish hamda natijani VR sahnada sinash ko‘zda tutiladi. Unreal Engine real vaqtli 3D muhitlar, interaktiv tajriba va vizualizatsiya yaratish imkoniyatlari bilan milliy avatar prototipini sahnada sinash uchun qulay platforma hisoblanadi [4]. MetaHuman texnologiyasi esa realistik raqamli insonlarni yaratish, animatsiyalash

va ishlatish uchun tayyor freymvork sifatida avatarlarning yuz, tana, soch va kiyim komponentlarini ishlab chiqishda yo‘naltiruvchi model bo‘la oladi [5].

Ma’lumotlar manbasi sifatida milliy kiyimlar, tarixiy foto va video materiallar, muzey eksponatlari, xalq amaliy san’ati naqshlari, atlas-adras matolari, do‘ppi, chopon, zargarlik buyumlari, etnografik tavsiflar, 3D skanerlash va fotogrammetriya natijalaridan foydalanish taklif etiladi. Ushbu ma’lumotlar to‘plami sun’iy intellekt algoritmlari uchun trening, validatsiya va test qismlariga ajratiladi.

TAKLIF ETILAYOTGAN INTELLEKTUAL YECHIM

Maqolada milliy avatarni yaratish uchun besh pog‘onali “AI–3D–VR–Analytics” modeli taklif etiladi. Ushbu model quyidagi bosqichlardan iborat: 1) madaniy-vizual ma’lumotlarni yig‘ish va raqamlashtirish; 2) sun’iy intellekt yordamida atributlarni ajratish; 3) 3D model, tekstura va animatsiya ishlab chiqish; 4) virtual muhitga integratsiya qilish; 5) foydalanuvchi tajribasini ma’lumotlar tahlili orqali baholash.

Birinchi bosqichda milliy madaniyatni ifodalovchi vizual ma’lumotlar standartlashtiriladi. Bu yerda oddiy rasm yig‘ish yetarli emas, har bir obyektga “hudud”, “davr”, “kiyim turi”, “rang”, “naqsh turi”, “gender neytralligi”, “foydalanish konteksti”, “etik-madaniy cheklov” kabi metama’lumotlar biriktiriladi. Bunday yondashuv milliy avatarni stereotipli yoki tasodifiy emas, balki ilmiy asoslangan, tekshiriladigan va qayta ishlatiladigan raqamli obyekt sifatida shakllantiradi.

Ikkinchi bosqichda SI algoritmlari yordamida vizual atributlar aniqlanadi. Masalan, konvolyutsion neyron tarmoqlar kiyim silueti, naqsh elementlari va rang kombinatsiyalarini ajratadi, obyekt deteksiyasi zargarlik buyumi, do‘ppi, belbog‘, chopon yoki milliy mato fragmentini belgilaydi, generativ SI esa yo‘qolgan tekstura qismini to‘ldirish, eskizdan 3D konsept yaratish yoki tarixiy foto asosida mos material variantini taklif qilishda yordam beradi. Biroq generativ natija mutaxassis

ekspertizasisiz qabul qilinmasligi kerak, chunki milliy madaniyatni noto‘g‘ri yoki sun’iy ko‘rinishda tasvirlash ilmiy va etik xatolarga olib kelishi mumkin.

Uchinchi bosqich 3D model ishlab chiqishga qaratiladi. Autodesk 3ds Max professional 3D modellashtirish, animatsiya va renderlash vositalari orqali personaj, kiyim, aksessuar va muhit obyektlarini yaratish uchun qo‘llanishi mumkin [6]. Avatar modeli uchta asosiy qatlamdan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiq: geometrik qatlam (mesh, skelet, yuz topologiyasi), vizual qatlam (PBR tekstura, normal map, roughness, metallic, rang palitrasi) va semantik qatlam (madaniy atributlar, hududiy tegishlilik, tavsif, foydalanish sharti).

To‘rtinchi bosqichda avatar virtual muhitga joylashtiriladi. Unreal Engine muhitida materiallar, yoritish, kamera, animatsiya, UI va Blueprint tizimi orqali foydalanuvchi avatar bilan interaktiv aloqa qiladi. “VR asoslari” uslubiy ko‘rsatmasida assetlarni import qilish, materiallar yaratish, teksturalar sozlash va Blueprint yordamida obyektlarga funksionallik berish amaliy bosqich sifatida ko‘rsatilgani ushbu jarayonni bevosita asoslaydi [2].

Beshinchi bosqich ma’lumotlar tahliliga bag‘ishlanadi. Virtual muhitda avatar faqat ko‘rsatilmaydi, balki uning foydalanuvchi tomonidan qanday qabul qilinayotgani o‘lchanadi. Masalan, ko‘rish davomiyligi, avatar bilan muloqotga kirishish soni, tanlangan kiyim va rang variantlari, emotsional baho, qayta tashrif ko‘rsatkichi, VR muhitdagi harakat trayektoriyasi kabi metrikalar tahlil qilinadi. Bu natijalar avatar dizaynini iteraktiv takomillashtirishga xizmat qiladi.

1-jadval. Milliy avatar yaratish uchun taklif etilayotgan texnologik yechim

Bosqich	Kirish ma’lumoti	Texnologiya	Natija
1. Raqamlashtirish	Foto, video, mato, naqsh, 3D skan	Fotogrammetriya, skaner, ma’lumotlar bazasi	Milliy vizual dataset
2. SI tahlil	Kiyim, yuz, rang, naqsh atributlari	Computer Vision, segmentatsiya, klassifikatsiya	Semantik atributlar

3. 3D model	Bazaviy mesh, skelet, tekstura	3D Max, Blender, MetaHuman, PBR	Milliy avatar modeli
4. VR integratsiya	FBX/glTF, material, animatsiya	Unreal Engine, Blueprint, VR Template	Interaktiv virtual personaj
5. Analitika	Foydalanuvchi harakati, tanlov, baho	Log-fayl, UX metrika, dashboard	Sifat va qabul qilinish ko‘rsatkichlari

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Virtual avatarlar bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar avatar moslashtirish, o‘zini virtual tanada his qilish, realistiklik, ishonch, identifikatsiya va foydalanuvchi xatti-harakatlariga ta’sir kabi masalalarni faol o‘rganmoqda. Frontiers in Virtual Reality jurnalida chop etilgan tadqiqotda avatarni birinchi shaxs nuqtayi nazaridan moslashtirish embodiment hissini kuchaytirishi mumkinligi qayd etilgan [7]. Bu milliy avatar loyihasi uchun muhim: foydalanuvchi o‘z avatarini milliy kiyim, rang, yuz ifodasi va harakat bilan moslashtira olsa, virtual muhitdagi ishtiroki tabiiyroq bo‘ladi.

Avatar moslashtirish texnologiyalari bo‘yicha tizimli sharhlarda so‘nggi o‘n yilda VR avatarlarining estetik xususiyatlari, yaratilish texnologiyalari va xulq-atvorga ta’siri muhim tadqiqot yo‘nalishiga aylangani ko‘rsatiladi [8]. Shu va boshqalar virtual muhitlarda foydalanuvchi avatarini moslashtirishga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilib, shaxsiylashtirish, ijtimoiy ehtiyoj va vizual ifoda o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi [9]. Bu natijalar milliy avatar tizimida foydalanuvchiga hududiy kiyim, rang, aksessuar va uslub variantlarini tanlash imkonini berish zarurligini tasdiqlaydi.

Yuqori realistik inson avatarsimon obrazlar masalasida esa ehtiyotkor yondashuv kerak. Hammualliflar inson-avatar o‘zaro ta’sirida yuqori vizual va harakat realizmi har doim ham yagona optimal yechim emasligini, interaktivlik va maqsadga moslik ham muhimligini ta’kidlaydi [10]. Demak, milliy avatar yaratishda faqat fotorealistik yuz yoki kiyimga intilish yetarli emas; avatar o‘quv, madaniy,

turistik yoki media kontekstga mos, yengil ishlaydigan, axloqiy jihatdan to‘g‘ri va foydalanuvchi bilan muloqotga tayyor bo‘lishi kerak.

UNESCO madaniyat va raqamli texnologiyalar doirasida raqamli xaritalash, virtual muzey, 3D modellashtirish va raqamli merosni saqlash imkoniyatlarini alohida ko‘rsatadi [11]. UNESCO virtual muzey tashabbuslarida 2D/3D raqamlashtirish va virtual reallik texnologiyalari madaniy obyektlarni jonlantirish va foydalanuvchini ularga yaqinlashtirish vositasi sifatida qaraladi [12]. Shu nuqtayi nazardan milliy avatar nafaqat virtual personaj, balki raqamli madaniy merosni taqdim etuvchi vosita hamdir.

Loyiha amalga oshirilganda quyidagi natijalarga erishish mumkin. Milliy avatarlar uchun atributlangan vizual dataset, 3D milliy avatar prototipi, Unreal Engine muhitida interaktiv VR sahna, foydalanuvchi tajribasini o‘lchovchi analitik modul, madaniy autentiklik bo‘yicha ekspert baholash mezonlari va ta’lim va turizmda qo‘llash uchun metodik tavsiyalar natijalarga erishish mumkin. Ushbu natijalar “Ilm-fan va texnologiyalar: global muammolar va innovatsion yechimlar” konferensiyasining raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili yo‘nalishiga bevosita mos keladi.

XULOSA

Virtual muhitlar uchun milliy avatar obrazini yaratish bugungi raqamli texnologiyalar davrida dolzarb ilmiy-amaliy vazifadir. Maqolada milliy avatarni yaratish uchun “AI–3D–VR–Analytics” modeli taklif etildi. Ushbu model milliy-madaniy ma’lumotlarni raqamlashtirish, sun’iy intellekt yordamida atributlarni aniqlash, 3D model va teksturalarni ishlab chiqish, Unreal Engine muhitida interaktiv avatar yaratish va foydalanuvchi tajribasini ma’lumotlar tahlili asosida baholash bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Taklif etilgan yondashuv milliy madaniyatni raqamli muhitda ifodalash, virtual ta’lim va turizmni rivojlantirish, metavers platformalarida O‘zbekistonning raqamli identifikatsiyasini shakllantirish uchun ilmiy asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Nuraliyev F.M., Giyosov U.E., Ibodullayev S.N. Virtual reallikni vizuallashtirish. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU, 2024. – 219 b.

Nuraliyev F.M., Ibodullayev S.N. “VR asoslari” fanidan amaliy mashg‘ulotlarini bajarish uchun uslubiy ko‘rsatma. Toshkent: TATU, 2026. – 173 b.

LaValle S.M. Virtual Reality. Cambridge: Cambridge University Press, 2023. ISBN: 9781107198937.

Epic Games. Unreal Engine 5 Documentation and Product Information. 2026.

Epic Games. MetaHuman Documentation: create, animate and use fully rigged photorealistic digital humans. 2026.

Autodesk. 3ds Max: professional 3D modeling, animation, and rendering tools. Autodesk official documentation, 2026.

Gonzalez-Franco M., et al. The impact of first-person avatar customization on embodiment in virtual reality. Frontiers in Virtual Reality, 2024.

Ouhnni H., et al. The evolution of virtual identity: a systematic review of avatar customization technologies and their behavioral effects in VR environments. Frontiers in Virtual Reality, 2025.

Wu S., et al. Factors Affecting Avatar Customization Behavior in Virtual Environments. Electronics, 2023, 12(10), 2286.

Cao Q., et al. Is High-Fidelity Important for Human-like Virtual Avatars in Human–Computer Interaction? International Journal of Network Dynamics and Intelligence, 2023.

UNESCO. Culture and Digital Technologies: digital mapping, virtual museum and 3D modelling of World Heritage sites. 2026.

UNESCO. Virtual Museum of Stolen Cultural Objects: 2D/3D digitization and virtual reality for cultural heritage. 2026.

Harrell D.F. The Avatar Dream: Re-Imagining Ourselves Through Digital Media. Communications of the ACM, 2017.

Lin J., et al. Visual Indicators Representing Avatars' Authenticity in Social Virtual Reality. IEEE Transactions on Visualization and Computer Graphics, 2023.

Nuraliyev F.M., Giyosov U.E., Jiyanov O.P. Integration of virtual reality and 3D modeling use of environments in education. ICISCT, Tashkent, 2019. – pp. 226–230.

DORI VOSITALARINI YARATISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

Ilmiy rahbar: Artikov Baxtiyor Mirsadatovich

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Xalq tabobati va farmakologiya kafedrasi o'qituvchisi, ko'p tarmoqli bolalar shifoxona qoshidagi dorixona muduri oliy toifali farmasevt

artikovbahtiyor@gmail.com

Soliyev Muhammadjon Fazliddin o'g'li

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti,Farmatsiya yo'nalishi, 7325-guruh,1-boaqich talabasi

muhammadjonsoliyev@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarining dori vositalarini yaratish jarayonidagi roli kompleks tarzda tahlil qilinadi. Xususan, AI asosidagi algoritmlarning molekulyar dizayn, target aniqlash, virtual skrining, farmakokinetik va farmakodinamik modellashtirishdagi qo'llanilishi yoritilgan. Shuningdek, sun'iy intellektning farmatsevtik tadqiqotlarni optimallashtirishdagi afzalliklari, cheklovlari va kelajakdagi istiqbollari ilmiy asosda baholangan.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, farmakologiya, dori dizayni, machine learning, deep learning, farmakokinetika, ADMET, bioinformatika.*

Abstract: *This scientific article comprehensively analyzes the role of artificial intelligence (AI) technologies in the process of creating drugs. In particular, the application of AI-based algorithms in molecular design, target identification, virtual screening, pharmacokinetic and pharmacodynamic modeling is highlighted. Also, the advantages, limitations and future prospects of artificial intelligence in optimizing pharmaceutical research are scientifically assessed.*

Keywords: *artificial intelligence, pharmacology, drug design, machine learning, deep learning, pharmacokinetics, ADMET, bioinformatics.*

KIRISH

Farmatsevtika sanoati yuqori xarajat va uzoq muddat talab qiladigan murakkab jarayonlardan biri hisoblanadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, yangi dori vositasini yaratish o‘rtacha 10–15 yil davom etadi va milliardlab mablag‘ talab etadi. Ushbu muammolarni bartaraf etishda sun’iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi tub burilish yasamoqda.

Sun’iy intellekt katta hajmdagi biologik, kimyoviy va klinik ma’lumotlarni yuqori tezlikda qayta ishlash imkonini berib, dori yaratish jarayonining samaradorligini oshirmoqda. Ayniqsa, bioinformatika va hisoblash kimyosi bilan integratsiya AI’ning ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda

Materiallar va metodlar

Mazkur tadqiqotda zamonaviy ilmiy manbalar (PubMed, ScienceDirect, Nature Reviews) asosida tahliliy (review) metod qo‘llanildi. AI algoritmlarining farmakologiyadagi qo‘llanilishi bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar sistematik tahlil qilindi.

ASOSIY QISM

1. Sun’iy intellektning nazariy asoslari

Sun’iy intellekt — bu murakkab tizimlarning o‘z-o‘zini o‘rganish va adaptiv qaror qabul qilish qobiliyatiga asoslangan texnologiyalar majmuasidir. Farmakologiyada quyidagi AI metodlari keng qo‘llaniladi:

Supervised learning — ma’lum ma’lumotlar asosida prognoz qilish

Unsupervised learning — yashirin naqshlarni aniqlash

Deep learning — neyron tarmoqlar orqali murakkab model qurish

Bu metodlar molekulyar biologiya va kimyo sohasidagi katta ma’lumotlar bilan ishlashda muhim ahamiyatga ega.

2. Dori vositalarini yaratishda AI qo‘llanilishining asosiy bosqichlari

2.1. Target identifikatsiyasi

AI genomik va proteomik ma’lumotlarni tahlil qilib, kasallikka sabab bo‘luvchi biologik nishonlarni aniqlaydi. Bu bosqichda “omics” texnologiyalar bilan integratsiya muhim rol o‘ynaydi.

2.2. Virtual skrining va hit identifikatsiyasi

AI algoritmlari millionlab kimyoviy birikmalarni tezkor tahlil qilib, biologik faol molekulalarni aniqlaydi. Bu jarayon **in silico** modellashtirish orqali amalga oshiriladi.

2.3. Lead optimizatsiyasi va dori dizayni

Deep learning modellari yangi molekulalarni generatsiya qilish imkonini beradi. Bu jarayonda:

- QSAR (Quantitative Structure-Activity Relationship)
- molekulyar docking
- generativ model (GAN, VAE)

kabi yondashuvlar qo‘llaniladi.

2.4. ADMET prognozlash

AI dorilarning:

- so‘rilishi (Absorption)
- taqsimlanishi (Distribution)
- metabolizmi (Metabolism)
- chiqarilishi (Excretion)
- toksikligi (Toxicity)

xususiyatlarini oldindan aniqlaydi. Bu esa klinik muvaffaqiyatsizlik riskini kamaytiradi.

2.5. Klinik sinovlarni optimallashtirish

AI bemorlarni stratifikatsiya qilish, klinik natijalarni prognozlash va sinovlarni tezlashtirishda qo‘llaniladi. Bu esa individual tibbiyot (precision medicine) rivojiga xizmat qiladi.

3. Sun’iy intellektning afzalliklari (ilmiy tahlil)

- Time-to-market qisqarishi
- R&D xarajatlarining kamayishi
- Predictive accuracy oshishi
- High-throughput screening imkoniyati
- Personalized medicine rivoji

AI yordamida dori ishlab chiqish samaradorligi bir necha barobarga oshishi mumkin.

4. Muammolar va cheklovlar (kritik tahlil)

Sun’iy intellektning farmakologiyadagi qo‘llanilishi quyidagi muammolar bilan cheklangan:

- **Data quality muammosi** — noto‘g‘ri yoki yetarli bo‘lmagan ma’lumot
- **Black-box modeli** — tushuntiriluvchanlik past
- **Regulyator muammolar** — AI asosidagi dorilarni tasdiqlash murakkab
- **Etik masalalar** — ma’lumot maxfiyligi va xavfsizlik

5. Kelajak istiqbollari

Kelajakda AI quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanadi:

- Genomika bilan integratsiya
- Real-time klinik monitoring
- Avtonom dori dizayni
- Raqamli farmakologiya platformalari

AI asosida to‘liq avtomatlashtirilgan dori yaratish tizimlari ishlab chiqilishi kutilmoqda.

Natijalar va muhokama

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt farmatsevtika sanoatida samaradorlikni oshirish va risklarni kamaytirishda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, preklinik bosqichda AI qo‘llanilishi eng katta natija bermoqda. Shu bilan birga, texnologiyaning to‘liq integratsiyasi uchun ilmiy va texnik muammolarni hal etish talab etiladi.

XULOSA

Sun’iy intellekt farmakologiya sohasida inqilobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. U dori vositalarini yaratish jarayonini tezlashtirib, samaradorligini oshirib va xarajatlarni kamaytirib, tibbiyot rivojiga katta hissa qo‘shmoqda. Kelajakda AI farmatsevtika sanoatining ajralmas qismiga aylanishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nature Reviews Drug Discovery
2. PubMed Scientific Articles on AI in Pharmacology
3. ScienceDirect Journals on Drug Design
4. Bioinformatics and Computational Biology Research Papers
5. WHO va FDA hisobotlari
6. Zamonaviy farmakologiya darsliklari

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA SUN'IY INTELLEKT VOSITALARINING OLIY TA'LIM SIFATIGA TA'SIRI

Ruxshona Sobirova

JDPU Filologiya fakuteti "Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili" yo'nalishi 1-bosqich talabasi

E-mail: ruxshonasobirova280@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining oliy ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, uning ta'lim sifatiga ko'rsatayotgan ijobiy va salbiy ta'sirlari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida adaptiv ta'lim platformalari, generativ til modellari, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari va aqlli repetitorlik dasturlarining pedagogik samaradorligi o'rganiladi. Shuningdek, sun'iy intellektdan foydalanishda yuzaga kelayotgan akademik halollik, tanqidiy fikrlashning susayishi, raqamli tengsizlik va ma'lumotlar xavfsizligi kabi muammolar chuqur yoritiladi. Maqola yakunida oliy ta'lim muassasalari uchun SI'ni mas'uliyatli joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, raqamli ta'lim, adaptiv o'qitish, generativ SI, akademik halollik, oliy ta'lim sifati, raqamli transformatsiya, ChatGPT, individual ta'lim trayektoriyasi.*

Annotation: *This article provides a comprehensive analysis of the integration of artificial intelligence (AI) technologies into the higher education system and their positive and negative impacts on educational quality. The study examines the pedagogical effectiveness of adaptive learning platforms, generative language models, automated assessment systems, and intelligent tutoring programs. It also deeply explores issues such as academic integrity, the decline of critical thinking, digital inequality, and data security arising from AI use. The article concludes with practical recommendations for higher education institutions on the responsible implementation of AI.*

***Keywords**: artificial intelligence, digital education, adaptive learning, generative AI, academic integrity, higher education quality, digital transformation, ChatGPT, individual learning trajectory.*

KIRISH

XXI asrning uchinchi o‘n yilligida sun’iy intellekt texnologiyalari jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalariga shiddat bilan kirib kelmoqda. Ta’lim sohasi, ayniqsa oliy ta’lim tizimi bu transformatsiyaning eng faol ishtirokchisiga aylanmoqda. An’anaviy ma’ruza tinglash, konspektlashtirish va bir xil standartdagi imtihon topshirishga asoslangan ta’lim modeli bugungi avlodning ehtiyojlariga to‘liq javob bermay qoldi. 2022-yil oxirida ChatGPT va shunga o‘xshash generativ sun’iy intellekt vositalarining ommalashuvi ta’lim sohasida haqiqiy paradigma o‘zgarishini boshlab berdi.

Bugungi talabalar individual yondashuvni, shaxsiylashtirilgan o‘quv trayektoriyasini, tezkor va obyektiv qayta aloqani, shuningdek, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda moslashuvchanlikni taqozo etmoqda. An’anaviy usullar bilan bir guruhda 50-100 nafar talabaga bir xil yondashuvni qo‘llash, ularning har birining o‘ziga xos bilim darajasi, o‘rganish uslubi, qiziqishlari va sur’atini hisobga olish deyarli imkonsiz. Aynan shu bo‘shliqni sun’iy intellektga asoslangan aqlli tizimlar to‘ldirish imkoniyatiga ega.

Biroq, har qanday kuchli texnologiya singari, sun’iy intellekt ham o‘zi bilan bir qator xatar va chaqiriqlarni olib keladi. Akademik halollik masalasi keskinlashdi – talabalar ilmiy ishlar, kurs ishlari va diplom loyihalarini butunlay SI yordamida tayyorlash holatlari ko‘paydi. Bundan tashqari, doimiy tayyor javoblardan foydalanish tanqidiy fikrlashning susayishiga, bilimlarni yuzaki o‘zlashtirishga olib kelishi mumkin. Ushbu maqolaning maqsadi – sun’iy intellektning oliy ta’limdagi imkoniyatlari va xatarlarini har tomonlama tahlil qilib, mas’uliyatli joriy etish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Zamonaviy tadqiqotlar va amaliyot sinovi sun’iy intellektning ta’limdagi quyidagi asosiy qo‘llanish sohalarini ajratib ko‘rsatmoqda:

Adaptiv o‘qitish tizimlari. Bu platformalar sun’iy intellekt algoritmlari yordamida har bir talabaning bilim darajasi, o‘rganish uslubi, kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, unga moslashtirilgan individual ta’lim trayektoriyasini yaratadi. Masalan, Arizona shtat universitetida joriy etilgan adaptiv matematika platformasi talabalarning murakkab mavzularni o‘zlashtirish ko‘rsatkichini 23 foizga oshirgan. Talaba biror tushunchani o‘zlashtira olmasa, tizim avtomatik tarzda alternativ tushuntirish uslubini, qo‘shimcha videodars yoki interaktiv mashqni taklif qiladi. Natijada har bir talaba o‘z sur’atida, o‘ziga mos uslubda bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Generativ til modellari (ChatGPT, Claude, Gemini). Bu vositalar eng qisqa vaqt ichida ta’limda inqilobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Talabalar endilikda murakkab mavzular bo‘yicha tushuntirishlarni 24/7 rejimida olishlari, insho va referat loyihalarini tayyorlashda ko‘maklashishlari, chet tillarida matn yozish va tarjima qilish amaliyotini bajarishlari mumkin. Professor-o‘qituvchilar esa dars ishlanmalarini yaratish, test savollari variantlarini generatsiya qilish va o‘quv materiallarini turli darajadagi talabalarga moslashtirish uchun generativ SI’dan foydalanmoqda. Biroq bu vositalarning eng katta xatari – talabalar ularni tushunish va tahlil qilish vositasi sifatida emas, balki tayyor javob manbai sifatida qabul qilishidir.

Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari. SI’ga asoslangan baholash vositalari nafaqat standart test shaklidagi topshiriqlarni, balki murakkab yozma ishlar, insholar va hatto dasturiy kodlarni ham tekshirish va baholash imkoniyatiga ega. Bunday tizimlar nafaqat to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javobni aniqlaydi, balki yozma ishning mantiqiy tuzilishi, dalillar asoslanganligi, grammatik to‘g‘riligi va hatto plagiat mavjudligini ham tekshiradi. Bu esa o‘qituvchilarning takroriy tekshiruv ishlariga sarflaydigan vaqtini tejab, ularga talabalar bilan individual maslahatlashish, ilmiy

tadqiqot va dars sifatini oshirishga ko‘proq e’tibor qaratish imkoniyatini beradi. Coursera va edX kabi platformalarda bu tizim bir vaqtning o‘zida millionlab talabalarning ishlarini baholashga qodir.

Aqlli repetitorlik va virtual yordamchilar. 24 soat davomida ishlaydigan chatbotlar va virtual assistentlar talabalarga o‘quv jarayoni bo‘yicha tezkor maslahatlar, tashkiliy yordam va hatto ruhiy qo‘llab-quvvatlashni taqdim etmoqda. Misol uchun, Georgia Tech universitetida “Jill Watson” nomli virtual yordamchi talabalarning forumdagi minglab savollariga javob bergan va talabalar uning inson emasligini sezmagan. Bunday tizimlar, ayniqsa, masofaviy ta’lim va MOOC (ommaviy ochiq onlayn kurslar) sharoitida beqiyos ahamiyatga ega.

Learning Analytics (O‘quv tahliliy tizimlari). SI’ning katta ma’lumotlarni qayta ishlash qobiliyati universitet rahbariyatiga talabalarning o‘quv faoliyatini makro darajada tahlil qilish imkoniyatini beradi. Tizim dars qoldirish ehtimoli yuqori bo‘lgan, o‘zlashtirishi past yoki o‘qishni tashlab ketish xavfi mavjud talabalarni oldindan aniqlab, ularga individual yordam dasturlarini taklif qilishi mumkin.

Imkoniyatlar: SI oliy ta’lim sifatini qanday oshiradi?

Ta’limni individuallashtirish va demokratlashtirish. Eng katta ustunlik – har bir talabaga individual yondashuv imkoniyatining paydo bo‘lishidir. Ilgari bunday yondashuv faqat repetitorlik yoki elita ta’lim muassasalarida mavjud bo‘lgan bo‘lsa, endilikda istalgan talaba smartfoni orqali shaxsiy repetitorga ega bo‘lishi mumkin. Bu, ayniqsa, chekka hududlardagi, sifatli ta’lim olish imkoniyati cheklangan talabalar uchun katta imkoniyatdir.

Professor-o‘qituvchilar yuklamasini kamaytirish. Yuqorida ta’kidlanganidek, avtomatlashtirilgan tekshiruv va ma’muriy jarayonlarni SI’ga topshirish orqali o‘qituvchilar o‘zlarining asosiy vazifasi – ta’lim berish, tadqiqot olib borish va talabalarga murabbiylik qilishga ko‘proq vaqt ajratishi mumkin.

Inklyuziv ta’lim imkoniyatlari. SI vositalari maxsus ehtiyojli talabalar uchun keng imkoniyatlar yaratadi: ovozli yordamchilar ko‘zi ojiz talabalar uchun, subtitr generatorlari eshitish qobiliyati cheklangan talabalar uchun ta’limni yanada qulay qiladi.

Global miqyosdagi hamkorlik. Tarjima vositalari va madaniyatlararo kommunikatsiyadagi SI’ning rivojlanishi turli mamlakatlardagi talaba va o‘qituvchilarning birgalikdagi loyihalarda ishtirok etishini ancha yengillashtiradi.

Xatar va chaqiriqlar: nimadan ehtiyot bo‘lish kerak?

Akademik halollikning yemirilishi. Eng katta va eng keskin muammo – talabalar tomonidan ilmiy ishlarni to‘liq SI’ga yozdirish holatlari. An’anaviy plagiat tekshiruv tizimlari SI tomonidan generatsiya qilingan matnni aniqlay olmasligi sababli, universitetlar yangi nazorat usullarini izlashga majbur bo‘lmoqda. Ayrim oliy o‘quv yurtlari SI’dan foydalanishni butunlay taqiqlash yo‘lidan borayotgan bo‘lsa, boshqalari undan ochiq foydalanishga ruxsat berib, lekin jarayonni shaffof hujjatlashtirishni talab qilmoqda.

Tanqidiy fikrlash va bilimlarning yuzakilashuvi. Doimiy tayyor javoblarga tayanish oqibatida talabalarda muammolarni chuqur tahlil qilish, mustaqil xulosa chiqarish va yechim topish ko‘nikmalari rivojlanmay qolishi xavfi mavjud. Google effekti (kerakli ma’lumotni eslab qolmasdan, uni qidirishga odatlanish) endi yanada kuchayib, “ChatGPT effekti”ga aylanmoqda.

Raqamli tengsizlik. SI vositalarining keng joriy etilishi sifatli internet, zamonaviy qurilmalar va pullik servislarga ega talabalar bilan bunday imkoniyatlarga ega bo‘lmagan talabalar o‘rtasidagi farqni yanada kattalashtirishi mumkin. Bu esa ta’limdagi mavjud ijtimoiy tengsizlikni yangi bosqichga olib chiqadi.

Ma’lumotlar maxfiyligi va algoritmik adolat. O‘quv tahliliy tizimlari ulkan hajmdagi shaxsiy ma’lumotlarni yig‘adi. Bu ma’lumotlarning qanday saqlanishi,

kim tomonidan foydalanilishi va qanday maqsadlarda qo‘llanilishi masalalari huquqiy va axloqiy jihatdan to‘liq tartibga solinmagan.

Sun’iy intellekt vositalari oliy ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirish salohiyatiga ega kuchli katalizator ekanligi shubhasiz. U ta’limni individuallashtirish, professor-o‘qituvchilar faoliyatini optimallashtirish, inklyuzivlikni ta’minlash va o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda mislsiz imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Shu bilan birga, bu texnologiyalarni joriy etishda muvozanatli va mas’uliyatli yondashuv hayotiy ahamiyatga ega.

Universitetlar sun’iy intellektga qarshi kurashish o‘rniga, undan oqilona foydalanish strategiyasini ishlab chiqishi kerak. Bu strategiya quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim: birinchidan, talabalarda SI vositalaridan axloqiy va samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish; ikkinchidan, baholash usullarini qayta ko‘rib chiqish – faqat yakuniy natijani emas, balki jarayonni, tanqidiy tahlilni, ijodiy yondashuvni baholaydigan yangi mezonlarni joriy etish; uchinchidan, o‘qituvchining markaziy roli saqlanib qolishi shart – sun’iy intellekt o‘qituvchini almashtirmaydi, balki uning yordamchisi, ko‘makchisi bo‘lib xizmat qiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlar SI algoritmlarining shaffofligi va tushuntiriluvchanligi, milliy ta’lim tizimlariga moslashtirilgan modellar yaratish va uzluksiz ta’limda SI’ning roli kabi yo‘nalishlarga qaratilishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Shermanova, F. D. (2024). Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt. Science and Research, 1(1), 1-6.

2.O‘ktamov, M. O‘., & Boymurodova, Sh. A. (2026). Raqamli ta'lim texnologiyalari va sun'iy intellekt asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish. Zamonaviy Ta'lim, 1(1), 1-8.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020-yil 29-oktabr). Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida (PF-6097-son Farmon). Lex.uz.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024-yil 14-oktabr). Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida (PQ-358-son Qaror). Lex.uz.

5.Sun’iy intellekt. (n.d.). Vikipediya, Ochiq Ensiklopediya. Retrieved May 2, 2026, from https://uz.wikipedia.org/wiki/Sun%CA%BCiy_intellekt

SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA SHARTNOMA TUZISH: SHARTNOMA TUZISH NIYATI

Sodiqjonova Sevinch

"Xalqaro tijorat huquqi" yo'nalishi

magistr talabasi

Toshkent davlat yuridik universiteti

E-mail: sodiqjonovasevinch4@gmail.com

telefon raqam: +998991938229

Annotatsiya *Ushbu maqolada sun'iy intellekt yordamida shartnoma tuzish jarayoni va unda shartnoma tuzish niyatining huquqiy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda SI tizimlarining avtonomligi shartnoma huquqining an'anaviy tamoyillari, xususan, insonning aqliy faoliyati va iroda ifodasi bilan bog'liqligi nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Shuningdek, SI ishtirokida tuziladigan bitimlarda niyatning mavjudligi masalasi nazariy va amaliy jihatdan baholanadi. Maqolada milliy va xorijiy huquqiy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinib, SI tizimlarining shartnoma tuzishdagi huquqiy maqomi yuzasidan xulosalar beriladi. Natijada, zamonaviy raqamli muhitda shartnoma huquqini takomillashtirish zarurati asoslanadi. Shuningdek, maqolada sun'iy intellektning qaror qabul qilish jarayonidagi noaniqliklar va ularning huquqiy oqibatlari yoritilib, kelgusidagi normativ rivojlanish yo'nalishlari haqida tavsiyalar beriladi.*

Abstract *The article analyzes the process of contract formation using artificial intelligence and the legal significance of the intention to conclude a contract within this context. The study examines the autonomy of AI systems from the perspective of traditional principles of contract law, particularly their relationship with human mental activity and expression of will. It also assesses, both theoretically and practically, the issue of the presence of intent in agreements involving AI systems. The article provides a comparative analysis of national and foreign legal approaches and draws conclusions regarding the legal status of AI systems in contract formation. As a result, the necessity of improving contract law in the modern digital environment is substantiated. Furthermore, the article highlights uncertainties in AI decision-making processes and their legal consequences, offering recommendations for future regulatory developments.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, shartnoma, shartnoma tuzish niyati, nazariya, qonun, aqliy faoliyati, avtonomiya.*

4) Ortokromatik eritroblast
5) Retikulotsit - Eritrotsit

Bu jarayon davomida:

1) Yadro kichrayadi va yo‘qoladi
2) Gemoglobin to‘planadi
3) Hujayra shakli bikonkav diskga aylanadi

2.2 Anemiya: patogenez va gistologiya

Anemiya - bu eritrotsitlar soni yoki gemoglobin miqdorining kamayishi bilan bog‘liq patologik holatdir.

Patogenez mexanizmlari:

1. Eritropoezning buzilishi
2. Eritrotsitlarning parchalanishi (gemoliz)
3. Qon yo‘qotish

2.3 Suyak iligida anemiyadagi o‘zgarishlar

Anemiyada suyak iligi turlicha javob beradi:

a) Giperplastik holat

Organizm kompensatsiya sifatida eritropoezni kuchaytiradi. Eritroblastlar soni ortadi.

b) Gipoplastik holat

Aplastik anemiyada suyak iligi bo‘shashadi va yog‘ to‘qimasi bilan almashinadi.

c) Megaloblastik o‘zgarishlar

B12 vitamini yetishmovchiligida:

1) Yadro va sitoplazma rivojlanishi nomutanosib
2) Yirik (makrotsitar) hujayralar

2.4 Qon surtmasidagi gistologik belgilar

1) **Anizotsitoz** - eritrotsitlar o‘lchami turlicha
2) **Poikilotsitoz** - shakllari o‘zgargan
3) **Gipoxromiya** - rangsiz eritrotsitlar

2.5 Anemiya turlari (gistologik nuqtai nazardan)

Mikrotsitar anemiya

1) Eritrotsitlar kichik
2) Temir tanqisligi bilan bog‘liq

Makrotsitar anemiya

1) Yirik eritrotsitlar
2) DNK sintezi buzilgan

Normotsitar anemiya

Hajm normal, lekin son kamaygan

3. LEYKEMIYA VA UNING GISTOLOGIK ASOSLARI

3.1 Leykemiya haqida umumiy tushuncha

Leykemiya - bu qon yaratuvchi hujayralarning nazoratsiz, malign ko‘payishi bilan tavsiflanadigan kasallikdir. Bu jarayon normal gemopoezni siqib chiqaradi.

3.2 Leykemiyaning hujayraviy asoslari

Leykemiyada asosiy rolni **blast hujayralar** o‘ynaydi. Ular:

1) Differensiyalanmagan
2) Tez bo‘linuvchi
3) Funktsional jihatdan yetilmagan

3.3 Suyak iligida gistologik o‘zgarishlar

1) Blast hujayralar 20% dan ortiq
2) Normal eritropoez va trombopoez susayadi
3) Stromal struktura buziladi

Natijada:

1) Anemiya
2) Trombositopeniya
3) Immunitet pasayishi

3.4 Leykemiya klassifikatsiyasi

O‘tkir leykemiya

1) Tez rivojlanadi
2) Blast hujayralar ustun

Surunkali leykemiya

1) Sekin kechadi
2) Nisbatan yetilgan hujayralar

3.5 Immunogistokimyoviy markerlar

Leykemiyani aniqlashda muhim:

1) **CD34** - ildiz hujayralar belgisi
2) **CD20** - B-limfotsitlar
3) **CD3** - T-limfotsitlar

Bu markerlar kasallik turini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

4. LIMFA TUGUNLARI VA TALOQDA O‘ZGARISHLAR

4.1 Limfa tugunlari

Leykemiyada:

1) Korteks kengayadi
2) Follikulalar yo‘qoladi
3) Diffuz infiltratsiya kuzatiladi

4.2 Taloq

Taloqda:

1) Oq pulpa kengayadi
2) Qizil pulpa infiltratsiyalanadi
3) Splenomegaliya rivojlanadi

5. GISTOLOGIK DIAGNOSTIKA AHAMIYATI

Zamonaviy tibbiyotda gistologik usullar muhim:

1) Suyak iligi biopsiyasi
2) Qon surtmasi tahlili
3) Immunofenotiplash

Bu usullar orqali:

1) Kasallik turi
2) Bosqichi

3) Davolash usuli aniqlanadi

6. KLINIK VA MORFOLOGIK BOG‘LIQLIK

Gistologik o‘zgarishlar klinik belgilarni tushuntiradi:

Gistologik o‘zgarish	**Klinik belgi**
Eritrotsit kamayishi	Holsizlik
Leykotsit buzilishi	Infeksiya
Trombosit kamayishi	Qon ketish

1. GEMOPOEZNING GISTOLOGIK ASOSLARI

Gemopoez - bu pluripotent ildiz hujayralardan barcha qon elementlarining hosil bo‘lish jarayonidir. Ushbu hujayralar o‘zini yangilash va differensiyalanish xususiyatiga ega.

1.1 Ildiz hujayralar va differensiyalanish

1) Pluripotent stem hujayralar
2) Mieloid va limfoid liniyalar
3) Progenitor hujayralar

1.2 Suyak iligining mikroarxitekturasi

Suyak iligi quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

1) Retikulyar stromal hujayralar
2) Sinusoid kapillyarlar
3) Gematopoetik orollar

Sinusoidlar orqali yetilgan hujayralar qon oqimiga o‘tadi.

2. ANEMIYANING GISTOLOGIK ASOSLARI

Anemiya - eritrotsitlar yoki gemoglobin miqdorining kamayishi bilan tavsiflanadi.

2.1 Patogenez

1) Eritropoez buzilishi
2) Gemoliz kuchayishi

3) Qon yo‘qotish

2.2 Suyak iligidagi o‘zgarishlar

1) Giperplaziya (kompensator)

2) Gipoplaziya (aplastik holat)

3) Megaloblastik transformatsiya

2.3 Mikroskopik belgilar

1) Anizotsitoz

2) Poikilotsitoz

3) Gipoxromiya

2.3 Anemiya klassifikatsiyasi (gistologik)

1) Normotsitar

2) Mikrotsitar

3) Makrotsitar

3. LEYKEMIYANING GISTOLOGIK ASOSLARI

Leykemiya - qon yaratuvchi to‘qimalarning malign kasalligidir.

3.1 Patogenez

1) Genetik mutatsiyalar

2) Onkogenlar aktivatsiyasi

3) Apoptozning buzilishi

3.2 Suyak iligidagi o‘zgarishlar

1) Blast hujayralar >20%

2) Normal gemopoezning susayishi

3.3 FAB klassifikatsiyasi

1) M0-M7 (miyeloid)

2) L1-L3 (limfoid)

3.3 Immunogistokimyo

1)CD34 - stem hujayra markeri

2)CD20 - B-limfotsitlar

3) CD3 - T-limfotsitlar

3.4 Limfa tugunlari va taloq

1) Diffuz infiltratsiya
2) Oq pulpa kengayishi
3) Limfoid proliferatsiya

4. DIFFERENSIAL DIAGNOSTIKA VA GISTOLOGIYA

Gistologik tekshiruvlar:

1) Suyak iligi biopsiyasi
2) Qon surtmasi
3) Immunofenotiplash

Bu usullar kasallikni aniq tashxislashda muhim ahamiyatga ega.

5. KLINIK VA MORFOLOGIK BOG‘LIQLIK

Gistologik o‘zgarishlar klinik belgilar bilan bog‘liq:

1) Anemiyada - holsizlik, rangparlik
2) Leykemiyada - infeksiyaga moyillik, qon ketish

XULOSA

Qon yaratuvchi a’zolarning gistologik tuzilishini chuqur o‘rganish anemiya va leykemiya kabi kasalliklarni tushunishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu kasalliklar hujayra darajasida murakkab o‘zgarishlar bilan kechadi. Zamonaviy gistologik va immunogistokimyoviy usullar kasalliklarni erta aniqlash va samarali davolash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Junqueira L.C. - *Basic Histology*
2. Ross M.H. - *Histology: A Text and Atlas*
3. Kumar V., Abbas A., Aster J. - *Robbins & Cotran Pathologic Basis of Disease*
4. Wheater P.R. - *Functional Histology*
5. Gartner L.P. - *Color Atlas of Histology*
6. Young B. - *Wheater’s Functional Histology*

7. Stevens A., Lowe J. - *Human Histology*

KATTA YOSHDAGILAR MIYASIDAGI NERV HUJAYRALARI QAYTA TIKLANADIMI?

Abdubanopova Surayyoxon Abdumuhtor qizi

FarDU 1-bosqich magistranti.

abdubanopovasurayyo@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada katta yoshdagilar miyasidagi neyrogenez jarayonini tahlili, neyronlar va glial hujayralarning tuzilishi, funksiyasi, signallarni uzatish usullari o'rganilgan . Voyaga yetgan inson yoki hayvonda yangi neyronlarni hosil bo'lishi jarayoniga katta e'tibor qaratilgan. U asosan, subgranulyar zonada xotira,o'rganish va hissiy tajribalar bilan bog'liq va subventrikulyar zonada hosil bo'ladigan yangi neyronlarga asoslangan.*

Kalit so'zlar: *Hujayra neyrobiologiyasi, neyrogenez, glial hujayralar, gipokampning dentat girusi, subgranulyar(SGZ) zona, subventrikulyar zona(SVZ), neyral ildiz hujayra, ona hujayra, progenitor hujayra, neyroblast,Parkinson, Altsgeymer kasalliklari.*

Annotation: *This scientific article analyzes the process of neurogenesis in the adult brain and examines the structure, function, and signal transmission methods of neurons and glial cells. Significant attention is paid to the process of new neuron formation in adult humans or animals. This process is primarily based on new neurons formed in the subgranular zone (SGZ), which is associated with memory, learning, and emotional experiences, and in the subventricular zone (SVZ).*

Keywords: *Cellular neurobiology, neurogenesis, glial cells, hippocampal dentate gyrus, subgranular zone (SGZ), subventricular zone (SVZ), neural stem cell, mother cell (progenitor), progenitor cell, neuroblast,Parkinson's disease, Alzheimer's disease.*

KIRISH

Bugungi kunda neyrobiologiya sohasi jadal rivojlanayotgan sohalar qatoriga kiradi. Shunday bo'lsada neyronlarning ishlash mexanizmlari hali to'liq tadqiq etilmagan. Bu esa biologiya fanining yana bir yechimini kutayotgan muammosiga aylanmoqda. Qadimda olimlar voyaga yetgan odamlar miya hujayralari yangilana olmaydi deb hisoblashgan.Ammo so'nggi o'n yilliklardagi kemiruvchilar,primatlar va insonlar ustidagi tadqiqotlar buning aksini isbotladi,ya'ni miyaning ma'lum qismlarida umr davomida neyron ildiz hujayralari saqlanib qoladi va ular yangi,funksional neyronlarni hosil qila oladi. Bu jarayon asosan gipokampning dentat girusidagi subgranulyar(SGZ)zona,lateral qorinchalar bo'ylab joylashgan subventrikulyar zona(SVZ)da kuzatiladi.

Maqsad: Katta yoshdagilar miyasi neyrogenezi jarayonida miya o'zini yangilash qobiliyatiga ega, lekin bu jarayon cheklangan va ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, kelajakda bu yo'nalishdagi tadqiqotlar miyani qarishdan saqlash, xotira kasalliklarini davolash va ruhiy salomatlikni yaxshilash uchun yangi yo'l ochishi mumkin. Katta yoshdagilar miyasidagi neyrogenez jarayonini chuqurroq tushunish Altsegeymer,Parkinson,Shizofreniya va boshqa neyrodegerenativ kasalliklarni o'rganish va davo usullarini topishdir.

Adabiyotlar sharxi: Neyronlarning tuzilishi,tarmoqlanishi,funksiyasi va sinapslar hosil bo'lish jarayonini o'rganishda juda ko'p olimlar va tadqiqotchilar keng ko'lamli ish olib borishgan.Jumladan, Jozef Altman radioaktiv tritiy bilan belgilangan timidinni ishlatgan holda kalamush va mushuklarning kattalar miyasida yangi nerv hujayralarining hosil bo'lishi (neyrogenez) haqida dalillar taqdim etdi.

Altman va uning shogirdi Gopal Das 1965-yilda kattalar kalamushi gipokampusi va hid bilish piyozchasi (olfactory bulb)da neyrogenezning anatomik dalillarini ko'rsatdilar.

1980-yillarda Fernando Nottebohm (Rockefeller universiteti) qo'shiqlarni o'rganuvchi qushlar miyasida kattalar neyrogenezi mavjudligini yaqqol isbotladi.

1998-yilda ko'pchilik olimlar tomonidan aynan odam miyasidagi neyrogenez jarayoni o'rganilgan.

Bundan tashqari,Vogester universitetining tibbiy markazida ishlovchilar P.Koleman,D.Flad va S.Bkyull 40-50 yoshdagi odamlarni gipokamp va miya po'stlog'ining ba'zi qismlarida dendritlarning o'sishini kuzatdilar,bu holat 70 yoshgacha bo'lgan odamlarda uchraydi.

R.Terri va boshqa tadqiqotchilar 60 yoshdan oshgandan so'ng fibroz ostrositlar tipidagi glial hujayralarining o'lchamlari va miqdori doimiy ko'payganini aniqladilar.

Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur tadqiqotni olib borishda olimlar va tadqiqotchilarning mavzu doirasida olib borgan ilmiy izlanishlari,o'quv adabiyotlari va xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar tizimli o'rganilgan.Ularning fikr va mulohazalari o'rganilib, qiyosiy tahlil etilidi va ma'lumotlar qayta ishlandi.

Tahlil va natijalar:

Hujayra neyrobiologiyasi-neyronlar va glial hujayralarning tuzilishi, funksiyasi, signallarni uzatish usullarini o'rganuvchi fan sohasidir. Uning asosiy maqsadi asab tizimining ishlashini hujayra darajasida tushuntirish.O'tgan asr boshlarida Santiago Ramon Cajal va boshqa olimlar nerv hujayrasini o'zgarmaydi

va qaytadan neyronlar hosil bo'lmaydi deb hisoblashgan.Chunki miya zararlangandan so‘ng uni tiklash qobiliyati juda past edi. Ushbu dogma nevrologiya olamida ancha vaqtgacha hukmronlik qilgan va ,, Altman (1962) tomonidan kattalar kemiruvchilar miyasining aniq hududlarida yangi hujayralar aniqlangani haqida xabar berilgan bo‘lsa-da, bu natijalar asosan e'tiborsiz qoldirilgan."[1]

1990-yillarga kelib yangi texnologiyalar paydo bo‘lishi bilan kattalar neyrogenezi bo‘yicha izlanishlar keskin rivojlandi va kemiruvchilar,primatlar va insonlar ustidagi tadqiqotlar buning aksini isbotladi,ya'ni miyaning ma'lum qismlarida umr davomida neyron ildiz hujayralari saqlanib qoladi va ular yangi,funksional neyronlarni hosil qila oladi. Voyaga yetgan inson yoki hayvonda yangi neyronlarni hosil bo'lishi ikki asosiy mintaqada sodir bo'ladi. Birinchisi, subgranulyar zonada xotira,o'rganish va hissiy tajribalar bilan bog'liq va bu yerda neyral ildiz hujayralar doimiy yangi neyronlarni hosil qiladi. Ikkinchisi, subventrikulyar zonada hosil bo'lgan yangi neyronlar hid sezish zonasiga ko'chadi.

„Kattalar miyasidagi neyrogenez to‘rt bosqichdan iborat: 1.Nerv ildiz hujayralari (NSC) va nerv progentor hujayralarining (NPC) proliferatsiyasi; 2. NSC va NPClarning taqdirlanishi va "migratsiya" deb ataladigan harakati; 3. NPClarning yetilmagan neyronlarga differensiasiyasi; 4.Ushbu yetilgan neyronlarning mavjud sinaptik tarmoqlarga qo‘shilishi Jarayonni chuqurroq o‘rganganimizda NSC va NPClar yuqori proliferativ salohiyatga ega multipotent hujayralar ekani ma'lum bo‘ladi.''[2] Bu ma'lumotlar 1962- yilgi ma'lumotlar bo'lib keyinchalik olimlar olib borgan tadqiqotlar bu ma'lumotlarni yanada aniqroq tushunishga yordam berdi. „Odam miyasi to‘qimasi S fazasida DNKni belgilovchi timidin analogi bo‘lgan bromodeoksiuridin (BrdU) bilan davolangan bemorlardan o‘limidan keyin olindi. Biz BrdU va neyron markerlaridan biri bo‘lgan NeuN, kalbindin yoki neyronga xos enolaza (NSE) uchun immunolyuminestsent belgilash (immunofluorescent labeling) usulidan foydalanib, ushbu markerlar bilan aniqlangan yangi neyronlar katta

yoshdagi odamlarning tishli pushtasida (dentate gyrus) bo‘linuvchi ajdod (progenitor) hujayralaridan hosil bo‘lishini namoyish etamiz.”[3]

Neyronlarda yosh ulg‘ayishi bilan paydo bo‘ladigan o‘zgarishlar sutemizuvchilarda eng ko‘p o‘rganilgan. Odamning yoshi ulg’aygan sari neyronlarning umumiy soni miyada kamayadi, lekin jarayon bir xilda kechmaydi. Masalan, gipatalamus sohasidagi neyronlar juda kam yo‘qoladi, bu soha gipofizning qator garmonlarini regulyatsiya qiladi. Ammo 2018-yildan keyin e’lon qilingan ko’pchilik topilmalar katta yoshdagi odam miyasidagi SGZ neyrogenezi bo‘yicha bahslarni qayta avj oldirdi va bugungi kunda haligacha bu mavzu bo’yicha olimlar o’rtasida bahslar davom etmoqda.

Endi esa aynan katta yoshdagilar miyasidagi nerv sistemasiga oid kasalliklarga keladigan bo’lsak bulardan eng keng tarqalgani Parkinson va Altsgeymer hastaliklari asosiy o’rinda turadi.

Parkinson kasalligida gipotalamus sohasi neyronlarining 70% i va hatto undan ko‘pi yo‘qoladi, buning natijasida insonlar harakat funksiyasi buziladi.”[4]Qarishning o‘zida aynan shu soha hujayralarining yo‘qotilishi deyarli kam, garchi bu kasallikning boshlang‘ich belgilarini eslatuvchi ba’zi insonlarda hujayralar dastlabki miqdorining 30—40% ining yo‘qotilishini bukuluvchanlikning kamayishi, harakatning sekinlashishi, xotira susayishi, oyoqlarni sudrab bosish kabi holatlar qayd etilishi mumkin.

Olimlarning aniqlashicha hayotning ikkinchi yarmida har 10 yi1 davomida 5% gipokamp neyronlari yo‘qoladi, umumiy olganda shu davrd a 20 % neyronlar yo‘qoladi. Shuningdek, hujayraning yo‘qotilishi bir maromda bo‘lmaydi, gipokampning ba'zi qismlari oz miqdorda ba’zilari hamma hujayralari saqlanib qolishi mumkin.

Altsgeymer kasalligi eng keng tarqalgan neyrodegenerativ kasallik bo‘lib, Altsgeymer hayvon modellarida o’rganilganda kattalar davridagi neyrogenezning sezilarli darajada buzilgani qayd etilgan bo‘lsada, ushbu

buzilishning aniq mexanizmi hali to‘liq aniqlanmagan.,,Kasallik sababining markazida bir nechta omillar turadi: Aβ peptidining miya to‘qimalarida to‘planishi, neyron ichida neyrofibrillyar chalkashliklarning hosil bo‘lishi va ayniqsa gipokampusning dentat girusida kuzatiladigan progressiv neyron yo‘qotilishi. Neyrofibrillyar chalkashliklar dentat girusdagi neyronlar degeneratsiyasi bilan uzoq vaqt davomida bog‘lab kelinadi.’’[5]

Kattalar miyasida sodir bo‘ladigan neyrogenez miya plastikligining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Yangi hosil bo‘lgan neyronlar mavjud nerv tarmoqlariga qo‘shilib, o‘rganish, xotira shakllanishi, kayfiyatni boshqarish va aqliy moslashuvchanlik kabi jarayonlarda ishtirok etadi.Kemiruvchilarda olib borilgan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, yaxshi yashash sharoiti, jismoniy faollik va yangi tajribalar neyrogenezni kuchaytiradi. Bu esa neyrogenezning tashqi omillarga bog‘liq, ya’ni tajribaga moslashuvchi jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Shunga qaramay, insonlarda neyrogenezning darajasi va ahamiyati yuzasidan hanuzgacha jiddiy bahslar davom etmoqda. Ba’zi tadqiqotlar keksalik davrida ham gipokampda neyrogenez saqlanib qolishini ko‘rsatgan bo‘lsa, boshqalar buning deyarli yo‘qligini bildirgan. Bunday tafovutlar asosan metodologik farqlar bilan izohlanadi — masalan, o‘lik to‘qimalarni saqlash sifati, ishlatilgan markerlar yoki tasvirlash usullarining aniqligi bilan farqlanadi.

,, 2018-yildan boshlab katta yoshdagi odam neyrogenezi haqidagi nashrlar neyrogen nishlarning joylashuvi bo‘yicha yangi topilmalar keltirmadi. Aksincha, biz neyrogenezni an’anaviy katta yoshdagi sutemizuvchilar neyrogen nishlaridan tashqarida izlash, katta yoshdagi odam neyrogenezining miyaning keng hududida orkestrlanishi haqidagi ko‘rsatmalarimizni tasdiqlaydi, deb umid qilamiz.Bizning taxminimizcha, bu yondashuv, masalan, odam gipokampal neyrogenezining asosan CA1-subikulyum zonasida sodir bo‘lishiga va SVZdan kelib chiquvchi avval aniqlangan odam rostral migratsiya oqimi aslida neyrogenez markerlarini ifodalovchi forniks ustuni ekanligiga oydinlik kiritishi mumkin.”[6]

XULOSA VA TAKLİFLAR:

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, katta yoshdagilar miyasi neyrogenezi jarayonida miya o’zini yangilash qobiliyatiga ega, lekin bu jarayon cheklangan va ko’plab omillarga bog’liq bo’lib, ko’plab bahs-munozaralarga sabab bo’lib qolmoqda. Lekin agar biz kattalar miyasida neyrogenezni chuqurroq tahlil etsak Altegeymer, Parkinson kasalliklari kabi nevrodegenerativ jarayonlarni, shuningdek depressiya va kayfiyat buzilishlarini davolashda yangi imkoniyatlar ochiladi. Neyron ildiz hujayralarining regenerativ imkoniyatidan foydalanish miyada tiklanish, funksional sog‘ayish va kognitiv rivojlanishni ta’minlash uchun istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.Kelajakda bu yo’nalishdagi tadqiqotlar miyani qarishdan saqlash, xotira kasalliklarini davolash va ruhiy salomatlikni yaxshilash uchun yangi yo’l ochishi mumkin.

FOYDALANİLGAN ADABİYOTLAR:

1. Gage, F. H. (2019). Kattalar miyasidagi neyrogenez: shubhadan ishonchgacha. Science, 364(6443), eaav6885.

2. Altman, J. (1962). Kattalar sutemizuvchilarda yangi neyronlar hosil bo‘ladimi? Science, 135(3509), 1127–1128.

3. Peter S Eriksson, Ekaterina Perfilieva, Thomas Björk-Eriksson, Ann-Marie Alborn, Claes Nordborg, Daniel A Peterson, Fred H Gage. Nature Medicine 4 (11), 1313-1317, 1998

4. O.X.Saitmurotova. Nerv to’qimasi. Toshkent “Tafakkur- Bo’stoni” nashryoti-2012 yil.(36-37-bet)

5. Boldrini, M., Fulmore, C. A., Tartt, A. N., va boshq. (2018). Inson gipokampida neyrogenez keksalikda ham davom etadi. Cell Stem Cell, 22(4), 589–599.e5.

6. Adriano Barreto Nogueira, Hillary Sayuri Ramires Hoshino, Natalia Camargo Ortega, Bruna Grazielle Silva Dos Santos, Manoel Jacobsen Teixeira. Metabolic brain disease 37 (1), 153-172, 2022

METABOLIK SINDROM VA DIABET BILAN KURASHDA BERBERINNING ROLI

Ilmiy rahbar: Artikov Baxtiyor Mirsadatovich

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, Xalq tabobati va farmakologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Talaba:Akramjonova Maftunaxon Qobiljon qizi

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, Farmatsiya yo‘nalishi, 7225-guruh, 1-bosqich talabasi, Farg‘ona shahri, O‘zbekiston Respublikasi

E-mail: qobiljonjumanov6@gmail.com

Tel:773912407

Annotatsiya: *Metabolik sindrom va 2-toifa diabet zamonaviy jamiyatda keng tarqalgan metabolik buzilishlar qatoriga kiradi. Ushbu holatlar insulin rezistentligi, giperglikemiya, dislipidemiya va arterial gipertenziya bilan tavsiflanadi. So‘nggi yillarda tabiiy biofaol moddalar, xususan berberinning terapevtik imkoniyatlariga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Ushbu maqolada berberinning metabolik sindrom va diabet patogeneziga ta’siri hamda uning klinik ahamiyati tahlil qilinadi.*

Аннотация: *Метаболический синдром и сахарный диабет 2 типа относятся к числу наиболее распространенных нарушений обмена веществ в современном обществе. Эти состояния характеризуются инсулинорезистентностью, гипергликемией, дислипидемией и артериальной гипертензией. В последние годы наблюдается растущий интерес к терапевтическому потенциалу природных биологически активных веществ, в частности берберина. В данной статье рассматриваются эффекты берберина на патогенез метаболического синдрома и диабета, а также его клиническое значение.*

Abstract: *Metabolic syndrome and type 2 diabetes are among the most common metabolic disorders in modern society. These conditions are characterized by insulin resistance, hyperglycemia, dyslipidemia, and arterial hypertension. In recent years, there has been increasing interest in the therapeutic potential of natural bioactive substances, in particular berberine. This article reviews the effects of berberine on the pathogenesis of metabolic syndrome and diabetes and its clinical significance.*

Kalit so‘zlar: *Metabolik sindrom, 2-toifa diabet, berberin, insulin rezistentligi, glyukoza almashinuvi, lipid profili.*

Ключевые слова: *метаболический синдром, сахарный диабет 2 типа, берберин, инсулинорезистентность, метаболизм глюкозы, липидный профиль.*

Keywords: *Metabolic syndrome, type 2 diabetes, berberine, insulin resistance, glucose metabolism, lipid profile.*

KIRISH

Metabolik sindrom va 2-toifa diabet mellitus T2DM hozirgi kunda global miqyosda sog‘liqni saqlash tizimi oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu kasalliklar nafaqat keng tarqalganligi, balki ularning og‘ir asoratlar bilan kechishi tufayli ham katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Metabolik sindrom — bu o‘zaro bog‘liq bo‘lgan metabolik buzilishlar majmuasi

bo‘lib, u abdominal semizlik, insulin rezistentligi, arterial gipertenziya, giperglikemiya va dislipidemiya kabi holatlarni o‘z ichiga oladi. Mazkur sindromning mavjudligi 2-toifa diabet va yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanish xavfini bir necha barobarga oshiradi.So‘nggi o‘n yilliklarda urbanizatsiya, noto‘g‘ri ovqatlanish odatlari, yuqori kaloriyali va qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilish, shuningdek jismoniy faollikning keskin kamayishi metabolik kasalliklar tarqalishining asosiy omillari sifatida qayd etilmoqda. Ayniqsa, semizlikning keng tarqalishi insulin rezistentligining rivojlanishiga zamin yaratib, bu esa o‘z navbatida T2DM patogenezining markaziy bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi.Hozirgi vaqtda metabolik sindrom va 2-toifa diabetni davolashda turli farmakologik vositalar-insulin sensitizerlar, antigiperglikemik preparatlar, lipid pasaytiruvchi dorilar keng qo‘llanilmoqda. Biroq ushbu dori vositalarining uzoq muddatli qo‘llanilishi ba’zi hollarda nojo‘ya ta’sirlar, tolerantlikning rivojlanishi yoki yetarli samaradorlikka erishilmasligi bilan cheklanadi. Shu sababli, alternativ va qo‘shimcha davolash usullarini izlash dolzarb masalaga aylanmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Metabolik sindrom va 2-toifa diabet patogenezida insulin rezistentligi, glyukoza va lipid almashinuvining buzilishi, shuningdek surunkali yallig‘lanish jarayonlari asosiy o‘rin tutadi. Shu jihatdan, ushbu patologik holatlarga kompleks ta’sir ko‘rsata oladigan moddalar alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Berberin ana shunday ko‘p yo‘nalishli ta’sirga ega tabiiy birikmalardan biri sifatida keng o‘rganilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Berberinning metabolik jarayonlarga ta’siri murakkab va ko‘p bosqichli bo‘lib, u bir nechta hujayraviy signal yo‘llari orqali amalga oshadi. Ushbu mexanizmlar orasida eng markaziy o‘rinni AMP-aktivatsiyalangan protein kinaza tizimi egallaydi. AMPK hujayraning “energetik sensori” sifatida faoliyat yuritib, ATP darajasi pasayib, AMP/ATP nisbati oshgan sharoitda faollashadi va energiya

balansini tiklashga qaratilgan katabolik jarayonlarni rag‘batlantiradi .Berberin AMPK ni faollashtirish orqali metabolik homeostazni tiklashga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, berberin mitoxondriyal nafas zanjirining I-kompleksini qisman inhibe qilib, hujayrada ATP ishlab chiqarilishini kamaytiradi va natijada AMPK faollashadi .Shuningdek, yangi ilmiy ma’lumotlarga ko‘ra, berberin AMPK ni lizosomal darajada ham faollashtirishi mumkin bo‘lib, bu jarayonda AXIN1 kabi oqsillar ishtirok etadi . Bu esa berberinning metformin kabi dorilardan biroz farq qiluvchi, o‘ziga xos molekulyar mexanizmga ega ekanligini ko‘rsatadi.AMPK faollashuvi natijasida quyidagi metabolik o‘zgarishlar yuz beradi:glyukoza utilizatsiyasi ortadi va mushak hamda yog‘ to‘qimalarida glyukozaning o‘zlashtirilishi kuchayadi; glykoliz jarayoni faollashadi; jigarda glyukoneogenez susayadi; yog‘ kislotalari oksidlanishi ortadi; lipogenez va xolesterin biosintezi kamayadi. Bundan tashqari, AMPK orqali berberin SREBP-1c kabi lipogenik transkripsion omillarni bostirib, hujayralarda yog‘ to‘planishini kamaytiradi . Mitoxondrial mexanizmlar:Berberinning yana bir muhim ta’sir yo‘li-mitoxondriyal funksiyaga bevosita ta’siridir. U mitoxondrial nafas zanjiriga ta’sir qilib, energiya ishlab chiqarish jarayonini qisman cheklaydi. Bu holat hujayrada “energiya yetishmovchiligi signali”ni yuzaga keltiradi va AMPK ni ikkilamchi tarzda faollashtiradi. Gormonal va signal molekulalar orqali ta’siri:Berberin adipokinlar va boshqa signal molekulalarga ham ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, u adiponektinning yuqori molekulyar shakllarini ko‘paytirib, insulin sezgirligini yaxshilaydi .

TAHLIL VA NATIJALAR

Adiponektin metabolik jihatdan faol gormon bo‘lib, yog‘ kislotalari oksidlanishini oshiradi va glyukoza almashinuvini yaxshilaydi.Bundan tashqari, berberin jigarda FGF21 ekspressiyasini oshiradi, bu esa energiya almashinuvi va insulin sezgirligini tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi .AMPK ga bog‘liq bo‘lmagan mexanizmlar: Berberinning ta’siri faqat AMPK bilan cheklanmaydi. U

boshqa signal yo‘llariga ham ta’sir qiladi:NF-κB yo‘lini inhibe qilib, yallig‘lanishni kamaytiradi; mTOR signal yo‘lini susaytirib, hujayra o‘sishi va lipogenezni cheklaydi; PPARγ va boshqa transkripsion omillar orqali lipid va glyukoza almashinuvini tartibga soladi . Shuningdek, berberin ichak darajasida ham ta’sir ko‘rsatib, glyukoza so‘rilishini kamaytirishi va ichak mikrobiotasiga ta’sir qilishi mumkin. Bu esa uning tizimli emas, balki qisman lokal ta’sir mexanizmlari mavjudligini ko‘rsatadi. Glyukoza almashinuviga ta’siri:Berberin glyukoza homeostazini tartibga solishda ko‘p bosqichli va o‘zaro bog‘liq mexanizmlar orqali ta’sir ko‘rsatadi. Uning gipoglikemik ta’siri nafaqat insulin sezgirligini oshirish, balki glyukozaning hujayralarga kirishi, utilizatsiyasi va ichakda so‘rilish jarayonlariga kompleks ta’sir qilish bilan izohlanadi. Insulin sezgirligini oshirish va periferik utilizatsiya:Berberin periferik to‘qimalarda, ayniqsa skelet mushaklari va yog‘ to‘qimasida glyukoza utilizatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Bu ta’sir asosan insulin signal yo‘llarining sezgirligini yaxshilash bilan bog‘liq. Tadqiqotlar berberin qabul qilinganda insulin rezistentligi ko‘rsatkichlari masalan, HOMA-IR kamayishini ko‘rsatadi .Shuningdek, berberin insulin mavjud bo‘lmagan sharoitda ham glyukoza o‘zlashtirilishini kuchaytirishi mumkin, bu esa uning insulin mustaqil mexanizmlarga ham ega ekanligini bildiradi . Bu jihat 2-toifa diabetda ayniqsa muhim, chunki bu holatda insulin ta’siri pasaygan bo‘ladi. GLUT-4 va glyukoza transport tizimi:Berberinning muhim ta’sir mexanizmlaridan biri — glyukoza transport oqsillariga, xususan GLUT-4 ga ta’siridir. Ilmiy tadqiqotlar berberin GLUT-4 ekspressiyasini oshirishi va uning hujayra membranasiga translokatsiyasini kuchaytirishini ko‘rsatadi .Natijada:mushak hujayralariga glyukozaning kirishi ortadi; glyukoza glikogen shaklida zaxiralanadi; qon plazmasidagi glyukoza darajasi kamayadi. Bundan tashqari, ayrim tadqiqotlar berberinning GLUT-1 transport tizimiga ham ta’sir qilishini ko‘rsatadi, bu esa bazal glyukoza transportini ham oshirishi mumkin .Klinik ko‘rsatkichlarga ta’siriYuqoridagi mexanizmlarning kombinatsiyasi klinik darajada muhim natijalarga olib keladi. Tadqiqotlar berberin

qabul qilish fonida:och qoringa glyukoza darajasi pasayishini; glyukozaga tolerantlik yaxshilanishini; HbA1c ko‘rsatkichining sezilarli kamayishini ko‘rsatadi . Bundan tashqari, insulin darajasi va insulin rezistentligi ko‘rsatkichlari ham yaxshilanadi, bu esa berberinning uzoq muddatli metabolik nazoratdagi ahamiyatini tasdiqlaydi.Lipid almashinuviga ta’siri**:**Metabolik sindrom patogenezida dislipidemiya muhim o‘rin tutadi va u triglitseridlar, umumiy xolesterin hamda past zichlikdagi lipoproteinlar darajasining oshishi, yuqori zichlikdagi lipoproteinlar darajasining esa kamayishi bilan tavsiflanadi. Berberin lipid almashinuviga ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatib, ushbu buzilishlarni kompleks tarzda tuzatishga yordam beradi.Lipid profiliga bevosita ta’siri:Eksperimental va klinik tadqiqotlar berberinning quyidagi gipolipidemik ta’sirlarini tasdiqlaydi:triglitseridlar darajasini sezilarli kamaytiradi; umumiy xolesterin va LDL miqdorini pasaytiradi; HDL darajasini oshirishga yordam beradi Ushbu o‘zgarishlar yurak-qon tomir kasalliklari xavfini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, berberinni metabolik sindromda kompleks davolash vositasi sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi. O‘t kislotalari va xolesterin aylanishi:Berberin o‘t kislotalari metabolizmini ham tartibga soladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, u xolesterinning o‘t kislotalariga aylanishini kuchaytiradi va ularning ichak orqali chiqarilishini oshiradi.Natijada:xolesterin darajasi kamayadi; lipid almashinuvi yaxshilanadi; jigarda yog‘ to‘planishi kamayadi. Klinik ahamiyati:Berberinning lipid profiliga ta’siri klinik jihatdan muhim bo‘lib, u ateroskleroz rivojlanishini sekinlashtiradi; yurak-qon tomir kasalliklari xavfini kamaytiradi; metabolik sindrom komponentlarini kompleks nazorat qilishga yordam beradi. Ichak mikrobiotasiga ta’siri:So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ichak mikrobiotasi metabolik kasalliklar, jumladan metabolik sindrom va 2-toifa diabet rivojlanishida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatmoqda. Berberin o‘zining past bioo‘zlashtirilishiga qaramay, aynan ichak darajasida kuchli farmakologik ta’sir ko‘rsatadi va bu uning samaradorligining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Metabolik

natijalar.Yuqoridagi mexanizmlar natijasida:insulin rezistentligi kamayadi; glyukoza va lipid almashinuvi yaxshilanadi; tana vazni va yog‘ to‘planishi kamayadi; umumiy metabolik profil yaxshilanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Metabolik sindrom va 2-toifa diabet mellitus zamonaviy tibbiyotning eng muhim muammolaridan biri bo‘lib, ularning patogenezida insulin rezistentligi, glyukoza va lipid almashinuvining buzilishi hamda surunkali yallig‘lanish jarayonlari asosiy o‘rin tutadi. Ushbu murakkab patogenetik mexanizmlar tufayli davolashda ko‘p yo‘nalishli ta’sirga ega vositalarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.Berberin so‘nggi yillarda keng o‘rganilgan tabiiy biofaol moddalardan biri sifatida metabolik kasalliklarni boshqarishda istiqbolli vosita ekanligini namoyon qilmoqda. Ilmiy tadqiqotlar natijalari uning glyukoza va lipid almashinuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Xususan, meta-tahlillar berberin qabul qilish fonida och qoringa glyukoza va HbA1c ko‘rsatkichlarining sezilarli darajada kamayishini ko‘rsatgan . Shu bilan birga, u umumiy xolesterin, triglitseridlar va LDL darajasini pasaytirib, HDL miqdorini oshirishi aniqlangan .Berberinning samaradorligi uning ko‘p qirrali molekulyar ta’sir mexanizmlari bilan izohlanadi. U AMPK signal yo‘lini faollashtirish orqali energetik muvozanatni tartibga soladi, glyukoneogenezni susaytiradi, glyukoza utilizatsiyasini oshiradi hamda lipid sintezini kamaytiradi. Bundan tashqari, u ichak mikrobiotasini modulyatsiya qilib, metabolik jarayonlarga bilvosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu kompleks ta’sir berberinning metabolik sindromning deyarli barcha asosiy komponentlariga bir vaqtning o‘zida ta’sir qilish imkonini beradi.Umuman olganda**,** berberin metabolik sindrom va 2-toifa diabet patogenezining turli bo‘g‘inlariga kompleks ta’sir ko‘rsatadigan, yuqori ilmiy salohiyatga ega tabiiy birikma sifatida baholanadi va kelajakda klinik amaliyotda keng qo‘llanish imkoniyatiga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Zhang Q., Xiao X., Feng K. va boshqalar. *Berberine moderates glucose and lipid metabolism through multipathway mechanism*. **Evid Based Complement Alternat Med**, 2011.

2. Dong H., Zhao Y., Zhao L., Lu F. *The effects of berberine on blood lipids: a systematic review and meta-analysis of randomized controlled trials*. **Planta Medica**, 2013.

3. Ju J., Li J., Lin Q., Xu H. *Efficacy and safety of berberine for dyslipidaemias: a systematic review and meta-analysis*. **Phytomedicine**, 2018.

4. Wang Y. va boshqalar. *The effect of berberine on metabolic profiles in type 2 diabetic patients: a systematic review and meta-analysis*. **PMC**, 2021.

5. Hu Y. va boshqalar. *Efficacy and safety of berberine alone for several metabolic disorders: a systematic review and meta-analysis of randomized clinical trials*. **Frontiers in Pharmacology**, 2021.

6. Zhang Q. va boshqalar. *Berberine moderates glucose and lipid metabolism through AMPK and related pathways*. **PMC**, 2011.

7. Zhao J.V. va boshqalar. *Berberine signature and cardiometabolic diseases using randomized controlled trial, cohort study and Mendelian randomization*. **npj Cardiovascular Health**, 2026.

8. Xie W., Gu D., Li J. va boshqalar. *Effects of berberine on glucose-lipid metabolism and insulin resistance: systematic review*. (turli klinik tadqiqotlar asosida umumlashtirilgan ilmiy ma’lumotlar).

IMMUNOLOGICAL MARKERS IN ASSESSING THE SEVERITY OF COVID-19

Dilafruz Xosilbekova

Master's student, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Abstract: *COVID-19, caused by SARS-CoV-2, demonstrates a wide spectrum of clinical manifestations, ranging from asymptomatic infection to severe respiratory failure and multi-organ dysfunction. The present study evaluates the role of immunological markers in predicting disease severity. Elevated levels of pro-inflammatory cytokines (IL-6, TNF-α), acute-phase proteins (CRP, ferritin), and significant alterations in lymphocyte subsets (CD3+, CD4+, CD8+) were strongly associated with severe disease progression. These findings suggest that immunological profiling may serve as a reliable tool for early risk stratification and clinical management of COVID-19 patients.*

Keywords: *COVID-19, immunological markers, lymphocyte subsets, cytokines, disease severity, immune response, prognostic indicators*

INTRODUCTION

The global spread of COVID-19 has posed significant challenges to healthcare systems worldwide. One of the key issues is the unpredictable clinical course of the disease. Increasing evidence indicates that immune dysregulation plays a central role in the pathogenesis of severe COVID-19. In particular, hyperactivation of the immune system and the development of a cytokine storm are associated with poor outcomes. Therefore, identifying reliable immunological markers is essential for early diagnosis, prognosis, and therapeutic decision-making.

Research Methods: A comparative analysis was conducted on patients diagnosed with COVID-19, categorized into mild, moderate, and severe groups based on clinical criteria. Immunological parameters were assessed using flow cytometry and immunoassay techniques. The study included evaluation of lymphocyte subsets (CD3+, CD4+, CD8+), activation markers (HLA-DR, CD95), and inflammatory biomarkers (IL-6, CRP, ferritin). Statistical analysis was performed to determine correlations between immunological indicators and disease severity.

Research results: The study revealed significant differences in immunological profiles among patient groups. Severe COVID-19 cases were characterized by pronounced lymphopenia, particularly reduced CD4+ and CD8+ T-cell counts, along with increased expression of activation and apoptosis markers (HLA-DR, CD95). Additionally, markedly elevated levels of IL-6, CRP, and ferritin were observed in severe cases, indicating hyperinflammatory response. Mild cases showed relatively stable immune parameters with minor deviations from normal ranges. These results confirm a strong association between immune dysregulation and disease severity.

REFERENCES

1. Allison B. Chambliss, Mayada Aljehani, Brian Tran, Xingyao Chen, Elizabeth Elton, Carolina Garri, Nolan Ung, Naim Matasci, Mitchell E. Gross, Immune

biomarkers associated with COVID-19 disease severity in an urban, hospitalized population, Practical Laboratory Medicine, Volume 36, 2023, e00323, ISSN 2352-5517, https://doi.org/10.1016/j.plabm.2023.e00323.

2. Chen L, Mei Z, Guo W, Ding S, Huang T, Cai YD. Recognition of Immune Cell Markers of COVID-19 Severity with Machine Learning Methods. Biomed Res Int. 2022 Apr 28;2022:6089242. doi: 10.1155/2022/6089242. PMID: 35528178; PMCID: PMC9073549.

3. Jose, R. J. & Manuel, A. COVID-19 cytokine storm: the interplay between inflammation and coagulation. Lancet Respir Med. ;8(6):e46-e47. doi: 10.1016/S2213-2600(20)30216-2. Epub 2020 Apr 27. PMID: 32353251; PMCID: PMC7185942.

4. Taha, S.I., Fouad, S.H., El-Sehsah, E.M. et al. Role of immune-inflammatory biomarkers and their derived ratio in predicting COVID-19 severity and mortality. Sci Rep 15, 39003 (2025). https://doi.org/10.1038/s41598-025-24173-7

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR TA'SIRIDA KINO SAN'ATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Kurbanova Aziza Tolibovna

"Axborot texnologiyalari" kafedrasi mudiri, DSc, dotsent

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

caro_8787@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kino san'atining raqamli transformatsiyasi bosqichlari tahlil qilinadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari kino ishlab chiqarish, tarqatish, marketing va tomoshabinlar bilan muloqot jarayonlarini tubdan o'zgartirgani ilmiy asosda yoritiladi. Film yaratishda ma'lumotlarni tahlil qilish, vizual effektlar (VFX), sun'iy intellekt va virtual texnologiyalarning o'rni ochib beriladi. Shuningdek, striming platformalari, ijtimoiy tarmoqlar va Big Data asosida muvaffaqiyatni bashorat qilish mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari kino sanoatida raqamli texnologiyalar integratsiyasi yangi estetik, iqtisodiy va kommunikativ modelni shakllantirayotganini ko'rsatadi.*

Kalit so‘z: *Kino san’ati, raqamli transformatsiya, axborot texnologiyalari, vizual effektlar (VFX), sun’iy intellekt, Big Data, striming platformalari, raqamli marketing, tomoshabinlar ishtiroki, virtual reallik.*

Аннотация. *В данной статье анализируются этапы цифровой трансформации киноискусства. Научно обосновано влияние современных информационных технологий на процессы производства, дистрибуции, маркетинга и взаимодействия со зрительской аудиторией. Раскрывается роль анализа данных, визуальных эффектов (VFX), искусственного интеллекта и виртуальных технологий в создании фильмов. Особое внимание уделяется стриминговым платформам, социальным сетям и механизмам прогнозирования успеха на основе Big Data. Результаты исследования показывают, что интеграция цифровых технологий формирует новую эстетическую, экономическую и коммуникационную модель киноиндустрии.*

Ключевые слова:*Киноискусство, цифровая трансформация, информационные технологии, визуальные эффекты (VFX), искусственный интеллект, большие данные (Big Data), стриминговые платформы, цифровой маркетинг, вовлеченность аудитории, виртуальная реальность.*

Abstract. *This article analyzes the stages of digital transformation in cinema art. It examines the impact of modern information technologies on film production, distribution, marketing, and audience engagement. The study highlights the role of data analytics, visual effects (VFX), artificial intelligence, and virtual technologies in contemporary filmmaking. Special attention is given to streaming platforms, social media, and Big Data–based forecasting mechanisms. The findings demonstrate that the integration of digital technologies is shaping a new aesthetic, economic, and communicative model within the global film industry.*

Keywords: *Cinema art, digital transformation, information technologies, visual effects (VFX), artificial intelligence, Big Data, streaming platforms, digital marketing, audience engagement, virtual reality.*

KIRISH

San’atning ko‘plab shakl va yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, ularning orasida ayniqsa zamonaviy davrda eng ko‘p bahs-munozaralarga sabab bo‘layotgan va samaradorlik jihatidan alohida ajralib turadigan turi – bu kino san’atidir. Kinoning san’at sohasi sifatida yuzaga kelishi va rivojlanishi, bir tomondan, ilm-fan va

texnologiyalarning taraqqiyoti bilan, ikkinchi tomondan esa an’anaviy san’at turlarining tarixiy tajribasi va estetik yutuqlari bilan uzviy bog‘liqdir.

Kino san’ati shakllanish jarayonida o‘zidan oldingi san’at turlarining boy merosidan ilhom olgan holda rivoj topdi. U an’anaviy san’at shakllarining (adabiyot, teatr, musiqiy san’at, tasviriy san’at va boshqalar) estetik imkoniyatlarini o‘zlashtirib, ularning ifoda uslublaridan ilhomlanib o‘zining o‘ziga xos tili va vizual ifoda vositalarini yaratdi. Har bir san’at turi kinosan’atning badiiy shakllanishida muayyan estetik funksiyani bajargan bo‘lib, bu jihatlar kino san’atining murakkab, polimodal va sintezga asoslangan tusini shakllantirgan[1, 16-b.].

Kino san’ati o‘zining turli shakl va janrlari bilan zamonaviy vizual madaniyatning ajralmas qismini tashkil etadi. Har bir kino turi o‘ziga xos estetik vazifa va maqsadga ega bo‘lib, ularning barchasi jamiyat bilan aloqa o‘rnatishning, ijtimoiy ongni shakllantirishning va badiiy ifodaning kuchli vositasiga aylangan.

Bugungi kunda ushbu kino turlarining jadal rivojlanish jarayonida axborot va raqamli texnologiyalar hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lib, ularning ijodiy, texnik va ishlab chiqarish jarayonlaridagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa san’at ta’limida raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali jamiyatda o‘zgarishlar jarayonini amalga oshirish imkoniyati mavjud.

Kino san’ati vujudga kelishining ilk bosqichidanoq o‘z ichida bir necha yo‘nalishlarga bo‘linib, turli janr va estetik funksiyalar asosida shakllandi. Bu turlar orasidagi farq, asosan, filmda ishlatilgan materialning tabiati, ifoda vositalari, dramatik maqsadlar va tomoshabinga ta’sir doirasi bilan belgilanadi. Kinoturlarining shakllanishi, san’at tarixidagi boshqa shakllar singari, o‘zining ichki qonuniyatlariga ega bo‘lgan holda taraqqiy etgan.

Kino va axborot texnologiyalari (IT) bir qarashda tabiatan butunlay boshqacha ko‘rinadigan ikkita sohadir. Ulardan biri bizni hissiy jihatdan qamrab oladigan va turli olamlarga olib boradigan san’atdir[2, 209.] . Boshqasi esa - axborotni yaratish va boshqarish uchun foydalaniladigan bilim va texnik

koʻnikmalar toʻplami. Ammo zamonaviy dunyoda bu ikki soha birlashib, kino tushunchasini va ishlab chiqarishni oʻzgartiradigan ajoyib ittifoqni tashkil etdi.

Jahon tajribasiga koʻra kino san'atining raqamli transformatsiyasi quyidagi bosqichlarda namoyon boʻladi:

1-bosqich: Zamonaviy kino san'ati axborot texnologiyalari bilan chambarchas bogʻliq holda rivojlanmoqda. Bugungi kunda film yaratish jarayoni ssenariy yozish bosqichidan boshlab to postproduksiyagacha raqamli texnologiyalar asosida amalga oshiriladi. IT texnologiyalari potentsial tomoshabin auditoriyasini tahlil qilish, film muvaffaqiyatini oldindan bashorat qilish hamda ishlab chiqarish byudjetini optimallashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, vizual effektlar (VFX) zamonaviy kino san'atining ajralmas qismiga aylangan boʻlib, ular kompyuter grafikasi va maxsus dasturiy ta'minot yordamida yaratiladi. "Avatar" va "Yulduzli urushlar" kabi jahon filmlari IT sanoatining yuksak texnologik imkoniyatlari asosida yuzaga kelgan yorqin namunalardir.

2-bosqich: Kino mahsulotlarini tarqatish va marketing jarayoni ham tubdan oʻzgardi. Internet va raqamli platformalar rivojlanishi natijasida kino endilikda an'anaviy kinoteatrlar bilan cheklanmaydi. Netflix, Amazon Prime Video kabi striming platformalari global kino bozorining asosiy ishtirokchilariga aylandi. Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn reklama vositalari esa marketing strategiyasini yangi bosqichga olib chiqdi. Virusli treylerlar, interaktiv reklama kampaniyalari va maqsadli auditoriyaga yoʻnaltirilgan targʻibot usullari keng qoʻllanilmoqda.

*3-bosqich:*Tomoshabinlar ishtiroki ham transformatsiyaga uchradi. Ijtimoiy media platformalari rejissyor va tomoshabin oʻrtasidagi masofani qisqartirdi. Endi tomoshabinlar filmni real vaqt rejimida muhokama qilishi, fikr-mulohazalar bildirishi, fan hamjamiyatlari orqali muloqotga kirishishi mumkin. Bu esa kino ijodkorlariga auditoriya bilan bevosita aloqada boʻlish va ularning reaktsiyalarini tezkor baholash imkonini beradi.

4-bosqich: Ma’lumotlarni tahlil qilish jarayoni kino ishlab chiqarish va marketing strategiyasining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Katta hajmdagi ma’lumotlar (Big Data) yordamida tomoshabinlar xatti-harakati, qiziqishlari va bozor tendensiyalari o‘rganiladi. Bu esa studiyalarga aniqroq strategik qarorlar qabul qilish, risklarni kamaytirish hamda foydali loyihalarni yaratish imkonini beradi.

5-bosqich: Shuningdek, virtual va dasturiy texnologiyalar kinematografiyada yangi bosqichni boshlab berdi. Virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR) hamda interaktiv dasturiy ta’minot vositalari tomoshabinni syujet ichiga jalb etish imkonini yaratadi. Natijada kino nafaqat tomosha qilinadigan san’at turi, balki tajriba qilinadigan, interaktiv va immersiv muhitga aylanmoqda. Bu texnologiyalar kino san’ati chegaralarini kengaytirib, noyob vizual va emotsional tajribalarni taqdim etmoqda.

Kino va axborot texnologiyalarining simbiozi filmlarni ishlab chiqarish, tarqatish va qabul qilishda inqilobiy o‘zgarishlarga olib keldi. IT ssenariy yaratishdan tortib marketing kampaniyasigacha kino sanoatining har bir bosqichining ajralmas qismiga aylandi. Bularning barchasi kino ufqlarini kengaytirib, yanada qiziqarli va vizual tarzda ajoyib filmlar yaratish imkonini beradi. Kinoning kelajagi IT sohasidagi hamkorlikka tayanishda davom etadi va bu bizga yanada ajoyib hikoyalar va vizual durdonalarni olib kelishi mumkin.

Bunday katta o‘zgarishlar kino san’atida ta’lim oluvchi yoshlarga hamda pedagogik jamoaga mavjud bilimlar bankini kengaytirish, IT bilimini oshirish, o‘z ustida ishlash va sohaviy rivojlanish vazifasini yukladi.

San’at ta’limidagi raqamli transformatsiya – bu ta’lim jarayonini ilg‘or raqamli texnologiyalar asosida yangicha tashkil etish orqali ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi, interaktiv hamda talaba shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini barpo etish jarayonidir. Ushbu zamonaviy yondashuv nafaqat texnik resurslar bilan ta’minlanishni, balki ta’lim mazmuni, metodik asoslar, baholash mezonlari va

estetik-pedagogik qarashlarning tubdan qayta ko‘rib chiqilishini ham o‘z ichiga oladi. Bu transformatsiya san’at va madaniyat sohasi bo‘yicha ta’lim berishda multimodal yondashuvni keng joriy etish, talabaning individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiluvchi innovatsion uslublarni faol tatbiq etishni nazarda tutadi.

FOYDALANILAG ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mahmudov J. Rejissura tarixi va nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va poligraf, 2020. – 16 b.

2. Martin A., Grudziecki, J. DigEuLit: Concepts and tools for digital literacy development // Innovation in Teaching and Learning in Information and Computer Sciences. – 2006. – Vol. 5(4). – P. 209 b.

3. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – 96 p.

4. Robin B. R. Digital storytelling: A powerful technology tool for the 21st-century classroom // Theory Into Practice. – 2008. – Vol. 47(3). – P. 220–228.

5. Selwyn N. Education and Technology: Key Issues and Debates. – 2nd ed. – London: Bloomsbury, 2016. – 292 p.

AYOL TALABALAR ORASIDA ZO‘RIQISH TURIDAGI BOSH OG‘RIG‘I VA UNING PSIXOSOMATIK OMILLARI TAHLILI

Rahimov Kamoliddin Ahrorovich

1-kurs ordinatura talabasi

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Termiz filiali

rahimovkamoliddin481@gmail.com

Kenjayeva Gulzina Azamat qizi

1-kurs magistratura talabasi

gulzinakenjayeva29@gmail.com

Annotatsiya:*Ushbu tadqiqot oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan ayol talabalar o‘rtasida bosh og‘rig‘ining tarqalishi va uning stress darajasi, uyqu sifati hamda raqamli qurilmalardan foydalanish vaqti bilan bog‘liqligini o‘rganadi. 118 nafar ayol ishtirokchi orasida*

o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatadiki, respondentlarning 59,3 foizi surunkali bosh og‘rig‘idan aziyat chekmoqda. Maqolada ushbu simptomlarning akademik yuklama va ijtimoiy omillar bilan korrelyatsiyasi ilmiy jihatdan tahlil qilinib, talaba qizlarning salomatligini muhofaza qilish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *ayol talabalar, zo‘riqish bosh og‘rig‘i, stress, akademik yuklama, uyqu rejimi, raqamli toliqish, psixosomatika.*

Abstract:*This study investigates the prevalence of headaches among female university students and examines their association with stress levels, sleep quality, and duration of digital device usage. The results of a survey conducted among 118 female participants indicate that 59.3% of respondents suffer from chronic headaches. The article provides a scientific analysis of the correlation between these symptoms and academic workload as well as social factors, and offers recommendations for protecting the health of female students.*

Keywords*: female students, tension-type headache, stress, academic workload, sleep patterns, digital fatigue, psychosomatics.*

KIRISH

Oliy ta’lim tizimidagi jadallashuv va axborot texnologiyalarining integratsiyasi talabalar zimmasiga ulkan intellektual yuklama yuklamoqda. Xususan, ayol talabalar gormonal va emotsional reaktivlikning yuqoriligi sababli tashqi stress omillariga nisbatan sezuvchan bo‘lishadi. Zo‘riqish turi dagi bosh og‘rig‘i (ZTBO) ko‘pincha kognitiv funksiyalarning pasayishiga va umumiy ish qobiliyatining yomonlashishiga olib keladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi ayol talabalar orasida ushbu muammoning ko‘lamini va unga turtki bo‘luvchi asosiy turmush tarzi omillarini aniqlashdan iborat.

ASOSIY QISM

Tanlanma va demografik ko‘rsatkichlar .Tadqiqotda jami 118 nafar ayol talaba ishtirok etdi. Respondentlarning yosh taqsimoti quyidagicha:



Показатель	**Узбекистан**	**Страны с низким и средним доходом (LMIC)**	**Страны с высоким доходом**
Выживаемость (%)	~30–40%	20–40%	>80%
Стадия при выявлении	Преимущественно III–IV	Часто поздние стадии	Ранние стадии
Количество	~95	Дефицит	Достаточное

специалистов			
Доступ к диагностике	Неравномерный	Ограниченный	Высокий
Онкологическая настороженность	Низкая	Низкая	Высокая
Наличие регистров	Ограничено	Частично	Полноценные

Ключевым фактором является уровень подготовки врачей первичного звена, так как именно они играют решающую роль в раннем выявлении заболевания.

Также важным направлением является развитие диагностической инфраструктуры и создание национальных регистров.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Поздняя диагностика детского рака в Узбекистане обусловлена следующими факторами:

- дефицит специализированных кадров
- низкая онкологическая настороженность
- ограниченный доступ к диагностике
- отсутствие интегрированных регистров

Комплексное решение данных проблем позволит существенно улучшить результаты лечения и повысить выживаемость детей.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. World Health Organization. Cancer in children [Internet]. Geneva: WHO; 2023 [cited 2026 May 3]. Available from: https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/cancer-in-children

2. World Health Organization. Global initiative for childhood cancer [Internet]. Geneva: WHO; 2021 [cited 2026 May 3]. Available from: https://www.who.int/activities/improving-childhood-cancer-cure-rate

3. International Agency for Research on Cancer. Global childhood cancer survival [Internet]. Lyon: IARC; 2025 [cited 2026 May 3]. Available from: https://www.iarc.who.int

4. Daltveit DS, et al. Global childhood cancer survival disparities. J Natl Cancer Inst. 2025;117(4):1–10.

Национальные данные по детско

ИШЕМИК ИНСУЛТНИНГ ЎТКИР ДАВРИДА КОГНИТИВ БУЗИЛИШЛАРНИ ЭРТА ТАШХИСЛАШ

Раупова Н.Ш., Хайдарова Д.К.

Тошкент давлат тиббиёт университети

dr.nasiba92@mail.ru

Аннотация: *Мазкур тадқиқот ишемик инсультдан кейинги беморларда когнитив бузилишлар ва уларнинг неврологик ҳолатга таъсирини ўрганишга бағишланган. Тадқиқот жараёнида турли нейропсихологик ва клиник шкалалар ёрдамида беморларнинг ҳолати комплекс баҳоланди. Олинган нати жалар когнитив бузилишлар инсульт оғирлиги ва кундалик ҳаёт фаолияти чекланиши билан узвий боғлиқ эканлигини кўрсатди. Айниқса, деменция ва деменция олди ҳолатлари мавжуд беморларда функционал кўрсаткичлар сезиларли даражада ёмонлашгани аниқланди. Ушбу натижалар когнитив бузилишларни эрта аниқлаш ва даволаш муҳим аҳамиятга эга эканлигини тасдиқлайди.*

Калит сўзлар: *ишемик инсульт, когнитив бузилишлар, деменция, нейропсихология, NIHSS, MoCA, реабилитация.*

Abstract: *This study is devoted to the investigation of cognitive impairments and their impact on neurological status in patients after ischemic stroke. The patients were assessed comprehensively using various neuropsychological and clinical scales. The results demonstrated a strong association between cognitive impairment, stroke severity, and limitations in daily living activities. Patients with dementia and pre-dementia conditions showed significantly worse functional outcomes. These findings highlight the importance of early detection and management of cognitive disorders in post-stroke patients.*

Keywords: *ischemic stroke, cognitive impairment, dementia, neuropsychology, NIHSS, MoCA, rehabilitation.*

ДОЛЗАРБЛИГИ

Когнитив бузилишлар ва нейропсихологик ўзгаришлар ишемик инсультнинг энг муҳим ва оғир асоратларидан бири ҳисобланади. Ушбу ҳолатлар беморларнинг ҳаёт сифатига, уларнинг кундалик фаолияти ва ногиронлик даражасига сезиларли таъсир кўрсатади. Инсультдан кейинги даврда функционал бузилишлар ва неврологик етишмовчилик даражаси махсус шкалалар ёрдамида баҳоланади.

Ҳозирги вақтда клиник амалиётда инсультнинг оғирлигини ва тикланиш динамикасини аниқ баҳолаш имконини берувчи объектив балли шкалалар

кенг қўлланилмоқда. Уларни комплекс тарзда қўллаш касаллик кечишини баш орат қилиш, даволаш самарадорлигини баҳолаш ва тўғри тактика танлашда муҳим аҳамиятга эга.

Тадқиқотнинг мақсади.

Ишемик инсультдан кейинги беморларда когнитив бузилишларнинг даражаси ва уларнинг неврологик ҳолатга таъсирини комплекс баҳолаш.

Тадқиқот усуллари. Тадқиқот ишемик инсултнинг ўткир даврида бўлган беморларда олиб борилди. Тадқиқотда клиник, неврологик ва нейропсихологик текшириш усулларидан фойдаланилди. Беморларнинг неврологик ҳолати инсулт оғирлигини баҳолаш шкалалари орқали аниқланди: NIHSS шкаласи, Бартел индекси, Ренкин шкаласи. Когнитив функцияларни баҳолаш учун MoCA тести ва FAB шкаласидан фойдаланилди.

Тадқиқот натижалари. Когнитив шикастланишлар ва нейропсихологик соҳадаги бузилишлар билан боғлиқ бўлган ишемик инсультнинг жиддий асоратлари ҳисобланади. Улар қайта тикланиш вақти ҳаёт сифати ва бемор ногиронлигининг оғирлик даражасига сезиларли таъсир кўрсатади. Инсультнинг якуни функционал бузилишлар ва неврологик етишмовчилик даражасини акс эттирувчи шкала ёрдамида баҳоланади. Ҳозирги вақтда касалликнинг тикланиш даврида пирамидал нуқсон динамикасини сифатли баҳолашга имкон берувчи объектив балли шкалалар қўлланилмоқда. Инсультнинг оғирлигини баҳолаш тизимини қўллаш даволаш тактикаси ва стратегиясида ўз вақтида объектив қарор қабул қилиш учун ёрдам беради. Балли шкалаларни комплекс қўллаш инсультдан кейинги даврда касаллик кечишини башоратлашни яхшилаш ва ўтказилган даволаш самарадорлигини аниқ баҳолаш имконини беради. Неврологик етишмовчилик қуйидаги шкалалар ёрдамида баҳоланди: пешона дисфункция батареяси, когнитив функцияларни баҳолашнинг монреал шкаласи (MoCA), неврологик

етишмовчилик тести, NIHSS (National Institute of Health – National Institute of Neurological Disorders and Stroke) инсультнинг оғирлиги;



1-расм. Деменция ва деменция олди бузилишлари мавжудлигига боғлиқ ҳолда текширилган беморларда NIH-NINDS ва Бартель шкаласининг кўрсаткичлари

Бартель ва Ренкен шкаласи бўйича кундалик ҳаёт фаолияти шкаласи. Когнитив етишмовчиликка боғлиқ ҳолда ИИли беморларда ўтказилган нейропсихологик текширишлар натижасида аниқланди. Унга кўра маиший мосла-шувчанликнинг энг паст даражаси (Бартел шкаласи бўйича) ва инсультнинг оғирлигини юқори даражаси (NIHSS шкаласи бўйича) деменция олди ва деменция бузилишлари бўлган беморларда кузатилди (1 расм).

Ренкин шкаласи бўйича инсультнинг оғирлигини якуний баҳолашида инсультдан кейинги беморларда деменция ва когнитив бузилишларнинг мавжудлигига боғлиқ ҳолдаги фарқ қиладиган хусусиятларига эга ҳисобланади. Деменцияли беморларда когнитив бузилишлар билан ва уларсиз бўлган беморларда мазкур кўрсаткичлар ишончли равишда юқори бўлди (2-расм).

Миянинг пешона пўстлоқ ости бўлимлари функциялари ҳолатини акс эттирувчи FAB шкаласи бўйича кўрув-бўшлиқ жараёнларини ҳам, чакка бўлимининг медиобазал функцияларини ҳам тавсифловчи вазифаларни бажаришда, шунингдек деменцияда намоён бўлиши қайд этилган бош мия пўстлоқ ости пешона боғламларининг қизиқишида мос келмаслик қайд этилган (3-расм).



2-расм. Деменция ва когнитив бузилишларни мавжудлигига боғлиқ ҳолда текширилган беморлар орасида Ренкин шкаласининг кўрсаткичлари



3-расм. Деменция ва когнитив бузилишларни мавжудлигига боғлиқ ҳолда текширилган беморлар орасида FAB шкаласининг кўрсаткичлари

МоСА тестини ўтказишда когнитив бузилишларсиз бўлган инсультдан кейинги беморлар гуруҳида бош мия соҳасини стимуллаш билан тўғридан тўғри боғлиқ бўлмаган «хотира» ва «диққат» субшкалалари бўйича яхши натижаларга эришилди. Деменцияда эса бу кўрсаткичлар ёмон натижаларни кўрсатди.



4-расм. Деменция ва когнитив бузилишларнинг мавжудлигига боғлиқ ҳолда текширилган беморлар орасида МоСА шкаласининг кўрсаткичлари

Шундай қилиб, кундалик фаолиятдаги чекланишлар ва неврологик етишмовчилик мавжудлиги фонида инсультдан кейинги эрта ва кечки тикланиш даврида 60,6 % беморларда когнитив бузилишлар ўз ўрнига эга бўлди, деменция олди бузилишлари кўринишидаги ўзгаришлар эса 35,5 % ва деменция ҳолати 25,1 % беморларда кузатилди.

Инсультни бошидан ўтказган беморлардаги когнитив бузилишлар когнитив функцияларнинг гетероген бузилиши, турли клиник ва нейропси-ҳологик кўринишидаги ўзгаришлар кўринишида намоён бўлди. Когнитив бузилишди ва бош мия тузилмасининг органик шикастланишлари билан боғлиқ бўлади ҳамда атеротромботик инсультли беморларда янада яққол намоён бўлади.

ХУЛОСА

Инсультдан кейинги даврда когнитив бузилишлар кенг тарқалган бўлиб, улар беморларнинг функционал ҳолатига жиддий таъсир кўрсатади. Ушбу ўзгаришларни эрта аниқлаш ва баҳолаш самарали реабилитация чораларини белгилашда муҳим аҳамият касб этади. Когнитив бузилишлар айниқса атеротромботик инсультли беморларда яққол намоён бўлади ва комплекс ёндашувни талаб қилади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Абасова Л.И. Профилактика и коррекция когнитивных нарушений при артериальной гипертензии: научное издание / Л.И. Абасова, А.М. Бабаев, Р.К. Ширалиева // Кардиология. - Москва,2009. - №11. - С. 51-55.

2. Абдулаева М.А. Гемодинамика глаза и биохимические показатели у больных гипертонической болезнью / М.А. Абдулаева, Г.И. Должич // Вестник офтальмологии. - М.,2007. - №4. - С. 24-26.

3. Абилова Г. Т. Когнитивные нарушения у больных артериальной гипертензией с цереброваскулярными осложнениями: научное издание / Г. Т. Абилова, А. И. Ходжаев // Неврология. - Ташкент, 2012. - №3-4. - С. 31-33.

4. Абилова Г. Т. Оценка эффективности антигипертензивной терапии при лечении когнитивных нарушений у больных артериальной гипертонией с цереброваскулярными осложнениями: научное издание / Г. Т. Абилова, А. И. Ходжаев, Н. У. Махкамова // Неврология. - Ташкент, 2012. - №3-4. - С. 153.

5. Бабкин А.П. Эффективность комбинированной антигипертензивной терапии при когнитивных расстройствах у пожилых больных: научное издание / А. П. Бабкин, Т. Л. Курбатова // Российский кардиологический журнал. - Москва, 2011. - №3. - С. 28-32.

6. Баранцевич Е.Р. Клинико-нейрофизиологическое исследование эффективности адаптола при дисциркуляторной энцефалопатии: научное издание / Е. Р. Баранцевич, О. В. Посохина // Журнал неврологии и психиатрии. - Москва, 2011. - №9. Вып. 2 в помощь практикующему врачу. - С. 68-72.

7. Батышева Т.Т. Опыт амбулаторного применения мемотропила при лечении когнитивных расстройств у больных с хроническими прогрессирующими сосудистыми заболеваниями головного мозга / Т.Т. Батышева, Л.В. Багирь, Е.В. Костенко, И.Ю. Артемова и др // Журнал неврологии и психиатрии. - М.,2008. - №1. - С. 40-44.

8. Гаврилова С. И. Цераксон (цитокилин) в лечении синдрома мягкого когнитивного снижения: научное издание / С. И. Гаврилова, Я. Б. Федорова [и др.] // Журнал неврологии и психиатрии. - М., 2011. - №12. - С. 16-20.

9. Газиев А. С. Магнитотерапия в лечении больных с дисциркуляторной энцефалопатией: научное издание / А. С. Газиев, Д. Аблямитова, М. Насырова // Неврология. - Ташкент, 2008. - №3/4. - С. 93.

10.Дамулин И.В. Влияние Церебролизицина на умеренно выраженные когнитивные нарушения при дисциркуляторной энцефалопатии (клинико-электрофизиологическое исследование): научное издание / И.В. Дамулин, Н.Н. Коберская, Э.А. Мхитарян // Журн. неврологии и психиатрии им. С.С. Корсакова. - М., 2007. - №5. - С. 32-38.

11.Дамулин И.В. Дисциркуляторная энцефалопатия и сосудистые когнитивные нарушения: научное издание / И. В. Дамулин // Русский медицинский журнал. - Москва, 2008. - С. 5-10.

12.Изюмов Д. П. Психологические аспекты системного подхода диагностики нейрокогнитивных нарушений в острейшем периоде кардиоэмболического ишемического инсульта: научное издание / Д. П. Изюмов, Г. А. Изюмова, Р. С. Ярашов // Неврология. - Ташкент, 2013. - №2. - С. 61-62.

13.Изюмова Г. А. Некоторые особенности мнестического дефекта у больных с полушарным ишемическим инсультом и пути его коррекции в неотложной неврологии: научное издание / Г. А. Изюмова, Д. П. Изюмов [и др.] // Неврология. - Ташкент, 2011. - №4. - С. 95.

14.Коррекция когнитивных нарушений у больных с дисциркуляторной энцефалопатией: научное издание / Е. С. Нургужаев, Н. К. Клипицкая [и др.] // Неврология. - Ташкент, 2008. - № 3/4. - С. 107-108.

15.Левин О. С. Когнитивные нарушения при дисциркуляторной энцефалопатии: современные представления о патофизиологии и лечении: научное издание / О. С. Левин // Неврология. - Ташкент, 2011. - №4. - С. 77.

16.Локшина А.Б. Легкие и умеренные когнитивные расстройства при дисциркуляторной энцефалопатии: научное издание / А.Б. Локшина, В.В. Заҳаров // Неврологический журнал. - М., 2006. - прилож. №1. - С. 57-64.

17.Маджидова Ё. Н. Коррекция нарушений липидного спектра у больных с хронической ишемией мозга: научное издание / Ё. Н. Маджидова, А. В. Прохорова, Л. В. Акрамджанова, М. М. Касимова // Неврология. - Ташкент,2013. - №2. - С. 65-66.

18.Маджидова Ё. Н. Особенности когнитивных нарушений у больных ХИМ: научное издание / Ё. Н. Маджидова, Х. Н. Максудова, Д. А. Уразалиева, Ю. Р. Парпиева // Неврология. - Ташкент, 2011. - №4. - С. 78.

4-SHO‘BA

INVESTITISIYALARNING IQTISODIY MAZMUNI, TURLARI VA ULARNING MILLIY IQTISODIYOT O`SISHGA TA`SIRI

dots. Almuradov Abdulla

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Ekonometrika kafedrasi dotsenti

ORCID: 0000-0002-9278-832X

almuradov.55@mail.ru

+998998258118

Aziza Asrorova Oybekovna

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

Ekonometrika va statistika (08.00.06)

yo`nalishi tayanch doktaranti

ORCID: 0009-0001-0654-4282

oybekovnaaziza2111@gmail.com

+998994743360

Annotatsiya: *Ushbu tezisda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda investitsiyalarni jalb qilishning nazariy-metodologik asoslari va ularning makroiqtisodiy dinamikani shakllantirishdagi fundamental roli tadqiq etilgan. Maqolaning dolzarbligi "O'zbekiston – 2030" taraqqiyot strategiyasida belgilangan yuksak iqtisodiy marralarga erishishda investitsiya oqimlarining nafaqat miqdoriy, balki sifat ko'rsatkichlarini ham tizimli baholash zaruriyati bilan belgilanadi.*

Tadqiqot doirasida investitsiya jarayoni shunchaki kapital oqimi emas, balki mamlakatning texnologik darajasi va makroiqtisodiy barqarorlikni belgilovchi tayanch ustun sifatida tahlil qilingan[7,10]. Zamonaviy ekonometrik modellashtirish usullari, xususan, ko'p omilli regression tahlil va vaqtli qatorlar (Time-series) metodologiyasi yordamida[9,12] investitsiya oqimlari, eksport dinamikasi va yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'rtasidagi o'zaro

bog'liqliklar miqdoriy jihatdan isbotlangan. Bunda investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga multiplikativ ta'siri va investitsiya kiritilishi hamda real samara o'rtasidagi vaqtli kechikish (lag) samarasi alohida o'rganilgan[3].

Kalit so'zlar: *investitsiya siyosati, YaIM o'sishi, ekonometrik modellashtirish, multiplikativ effekt, texnologik transfer, kapital unumdorligi, makroiqtisodiy barqarorlik, regression tahlil.*

Abstract: *This thesis examines the theoretical and methodological foundations of attracting investments in increasing the competitiveness of the national economy and their fundamental role in shaping macroeconomic dynamics. The relevance of the article is determined by the need for a systematic assessment of not only quantitative, but also qualitative indicators of investment flows in achieving the high economic goals set out in the "Uzbekistan - 2030" development strategy.*

As part of the study, the investment process was analyzed not only as a flow of capital, but also as a key pillar determining the technological level and macroeconomic stability of the country [7,10]. With the help of modern econometric modeling methods, notably multi-factor regression analysis and time series (time-series) methodology, [9,12] the correlations between investment flows, export dynamics, and gross domestic product (GDP) have been quantitatively proven. In this case, the multiplicative effect of investment on economic growth and the effect of time delay (lag) between investment and real effect are studied separately [3].

Keywords: *investment policy, GDP growth, econometric modeling, multiplier effect, technology transfer, capital productivity, macroeconomic stability, regression analysis.*

KIRISH

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotning barqaror va yuqori sur'atlarda o'sishini ta'minlashda investitsiyalarni jalb qilish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston - 2030" taraqqiyot strategiyasi doirasida YaIM hajmini 160 milliard dollarga yetkazish va aholi jon boshiga daromadni 4 ming dollardan oshirishdek ulkan marralar belgilangan[1]. Ushbu strategik maqsadlarga erishish uchun iqtisodiyotga kamida 250 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiyalarni jalb qilish talab etiladi, bu esa o'z navbatida investitsiya oqimlarining makroiqtisodiy ta'sirini ekonometrik modellashtirish zaruriyatini tug'diradi.

Investitsiyalarni jalb qilish jarayoni 2022-yilda qabul qilingan "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni bilan huquqiy jihatdan tartibga solinib, investorlar huquqlarini himoya qilish va investitsiya muhitini yaxshilashning kafolati bo'lib xizmat qilmoqda[2]. Ekonometrik nuqtai nazardan, investitsiyalarni jalb qilish nafaqat tashqi kapital kirib kelishini, balki milliy iqtisodiyotda kapital unumdorligini va texnologik transferni jadallashtiruvchi endogen o'zgaruvchi sifatida namoyon bo'ladi. Shuni hisobga olgan holda, strategiyada belgilangan sanoat va infratuzilma loyihalariga yo'naltirilgan investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini miqdoriy baholash tadqiqotimizning asosiy vazifasi hisoblanadi[6,8].

ASOSIY QISM

Milliy iqtisodiyotga investitsiya jalb etish shunchaki mablag' oqimi emas, balki mamlakatning texnologik darajasi va makroiqtisodiy barqarorligini belgilovchi murakkab jarayondir. "O'zbekiston - 2030" taraqqiyot strategiyasida belgilanganidek, iqtisodiyotning yillik o'sish sur'atlarini 6-7 foiz atrofida saqlab qolish uchun investitsiyalar hajmini YaIMga nisbatan 25-30 foiz darajasida ta'minlash zarur. Bu jarayonda investitsiyalarni jalb qilishning ekonometrik tahlillari ikki xil yo'nalishda tahlil qilinadi:

1. Tashqi shoklar va investitsiya jozibadorligi: Investitsiyalarni jalb qilish dinamikasi mamlakatning risk profili va global moliyaviy integratsiyalashuvi bilan chambarchas bog'liq. Ekonometrik modellar shuni ko'rsatadiki, xorijiy investorlar uchun makroiqtisodiy barqarorlik (inflyatsiya darajasi va valyuta kursi volatilligi) eng muhim indikator hisoblanadi. Tadqiqotlar tasdiqlashicha, inflyatsiya kutilmalarining 1 foizga pasayishi investitsiya oqimlarining elastiklik koeffitsientini 1.2 barobarga oshiradi[7,10].

2. Strategik tarmoqlarga investitsiyalarni yo'naltirish: "O'zbekiston - 2030" taraqqiyot strategiyasida asosiy e'tibor "yashil" energetika va raqamli iqtisodiyotga qaratilgan bo'lib, bu tarmoqlarga jalb qilingan har bir birlik investitsiya an'anaviy

tarmoqlarga qaraganda yuqoriroq chegaraviy mahsulot berishi kutilmoqda[5]. Ekonometrik tilda buni quyidagi vaqtli qatorlar (Time-series) modeli orqali ifodalash mumkin:

$$\Delta \ln(GDP_t) = \alpha + \sum_{i=0}^{k} \gamma_i \ \Delta \ln(INV_{t-i}) + \delta \ln(TECH_t) + \mu_t$$

Bunda (INV_{t-i})— o'tgan davrlarda jalb qilingan investitsiyalarning lag samarasi bo'lib, u investitsiya kiritilishi va iqtisodiy samara o'rtasidagi vaqt intervallarini o'lchash uchun foydalaniladi[3].

Olib borilgan regression tahlil natijasiga ko'ra, yalpi investitsiyalar hajmi va YaIM o'rtasidagi bog'liqlik quyidagi tenglama orqali ifodalandi:

$$\Delta \ln(GDP_t) = \beta_0 + 0.42 \ln(I_t) + 0.15 \ln(X_t) + \varepsilon_t$$

Mazkur natijalar shuni ko`rsatadiki, investitsiyalar iqtisodiy o`sishning asosiy ko`rsatkichlari hisoblanib,xususan, investitsiyalar hajmining bir birlikka oshishi, boshqa omillar o`zgarmagan holatda yalpi ichki mahsulot o`sish surati o`rtacha 0.42 birlikka ortishiga olib kelishi aniqlangan[4].Bu investitisiyalar iqtisodiy faolliklarni rag`batlantirish shuningdek,ishlab chiqarishni kengaytirish va kapital jamg`arilishini tezlashtirish orqali makroiqtisodiy o`sishga sezilarli ravishda multiplikativ ta`sir ko`rsatishini anglatadi.

Shuningdek, modelga kiriltilngan ikkinchi omil eksport koeffitsienti 0.15ga teng bo`lib, eksport koeffitsienti bir birlikka o`zgarishi YaIM ning o`rtacha 0.15 birlikka ortishiga va bu esa tashqi savdoni ham iqtisodiy o`sishga sezilarli ,ammo investitisiyalarga nisbatan kamroq ta`sir ko`rsatishini bildiradi .

Umumiy holatda tahlil natijalari investitisiyalar va eksportning iqtisodiy o`shishga ijobiy va statistik ahamiyatga ega ekanligini va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta`minlashda ushbu omillarni kompleks ravishda qo`llab-quvvatlash zarurligini ko`rsatadi.

Xususan empirik natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, investitsiyalarni jalb qilishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining kengayishi, kapitalning samarasiz taqsimlanishini oldini oladi. Bu esa strategiyada ko'zda tutilgan "xususiy sektor ulushini oshirish" bandining zarur ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, inson kapitalini rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalarni jalb qilish uzoq muddatli iqtisodiy muvozanatni ta'minlovchi sifatida hal qiluvchi omil hisoblanadi[5,6].

XULOSA

Olib borilgan ekonometrik tahlil investitsiyalarning milliy iqtisodiyotdagi shunchaki raqamlar o'sishi emas, balki balki tarkibiy o'zgarishlarni harakatlantiruvchi asosiy omil ekanligini isbotladi. Tahildan xulosa shundan iboratki, investitsion oqimlar va YaIM o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik "lag" samarasi bilan xarakterlanib, bu kiritilgan kapitalning texnologik transfer va unumdorlikka aylanishi uchun ma'lum vaqt olig'i zarurligini anglatadi[3,9]. Shuningdek, eksport diversifikatsiyasi va investitsion jozibadorlikning o'zaro mutanosibligi barqaror makroiqtisodiy dinamikani ta'minlashning fundamental sharti sifatida aniqlandi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

- Sifatli transformatsiya: Investitsiyalarni "ekstensiv" hajmdan "intensiv" samaradorlikka yo'naltirish, bunda asosiy e'tiborni yuqori texnologiyali va "yashil" loyihalarga qaratish;
- Institutsional muhit: Investorlar huquqlarini himoya qilishni raqamlashtirish va inflyatsion kutilmalarni jilovlash orqali uzoq muddatli kapital oqimi uchun barqaror muhit yaratish;
- Inson kapitalini modernizatsiyalash: Strategik maqsadlarga erishish uchun investitsiyalarning salmoqli qismini innovation bilim va malakali kadrlar tayyorlashga yo'naltirish.

Ushbu yondashuvlar esa kelgusidagi belgilangan "O'zbekiston – 2030" taraqqiyot strategiyasida iqtisodiy marralarni muvaffaqiyatli zabt etish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2023). "O'zbekiston - 2030" taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi , 09/12/2023-y.

2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. (2022). "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-son Qonuni (yangi tahriri). Lex.uz online portal.

3. Arellano, M., & Bond, S. (1991). Some tests of specification for panel data. *The Review of Economic Studies*, 58(2), 277-297. DOI: 10.2307/2297968

4. Gujarati, D. N., & Porter, D. C. (2022). *Basic Econometrics*. 6th Edition. McGraw-Hill Education.

5. Hall, R. E., & Jones, C. I. (1999). Why do some countries produce so much more output per worker than others? *The Quarterly Journal of Economics*, 114(1), 83-116. DOI: 10.1162/003355399555942

6. Lucas, R. E. (1988). On the mechanics of economic development. *Journal of Monetary Economics*, 22(1), 3-42. DOI: 10.1016/0304-3932(88)90168-7

7. Barro, R. J. (1991). Economic Growth in a Cross Section of Countries. *The Quarterly Journal of Economics*, 106(2), 407-443. DOI: 10.2307/2937943

8. Mankiw, N. G., Romer, D., & Weil, D. N. (1992). A contribution to the empirics of economic growth. *The Quarterly Journal of Economics*, 107(2), 407-437. DOI: 10.2307/2118477

9. Pesaran, M. H., Shin, Y., & Smith, R. J. (2001). Bounds testing approaches to the analysis of level relationships. *Journal of Applied Econometrics*, 16(3), 289-326. DOI: 10.1002/jae.616

10. Romer, P. M. (1990). Endogenous Technological Change. *Journal of Political Economy*, 98(5), S71-S102. DOI: 10.1086/261725

11. Statistika agentligi. (2024). *O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy holati* . Statistik to'plam.

12. Wooldridge, J. M. (2015). *Introductory Econometrics: A Modern Approach*. 6th Edition. Cengage Learning.

ANALYSIS OF EFFICIENCY INDICATORS OF HOTEL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN

Rustamov Otabek Akbarovich

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti marketing va qabul bo‘limi boshlig‘i

Email: otabekrustamov934@gmail.com

Тел: +998 90 287 22 87

Annotatsiya *Ushbu tadqiqot turizmning jadal kengayishi va iqtisodiy o'tish davri sharoitida O'zbekiston Respublikasidagi mehmonxona korxonalarining samaradorlik ko'rsatkichlarini o'rganadi. Mehmonxona tarmog'i turizm sohasining muhim tarkibiy qismi va milliy iqtisodiy o'sishning strategik drayveri hisoblanadi. Oxirgi o'n yillikda O'zbekistonda turizm siyosatining liberallashuvi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi va infratuzilmani modernizatsiya qilish kabi muhim tarkibiy islohotlar amalga oshirildi, bu esa mehmondoshlik sohasining kengayishiga olib keldi. Ikkilamchi statistik ma'lumotlar hamda tavsifiy va qiyosiy tahlillar yordamida ushbu tadqiqot O'zbekistonning asosiy shaharlaridagi bandlik darajasi (occupancy rates), o'rtacha kunlik tarif (ADR), mavjud xonaga to'g'ri keladigan daromad (RevPAR), rentabellik va operatsion ko'rsatkichlar kabi samaradorlik mezonlarini tadqiq etadi. Natijalar, ayniqsa, Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlarida bandlik va daromad ko'rsatkichlarida sezilarli o'sish borligini ko'rsatmoqda. Shunga qaramay, hududiy rivojlanishning notekisligi, kadrlar malakasidagi bo'shliqlar va raqamli texnologiyalarning nomuntazam joriy etilishi tufayli samaradorlikdagi tafovutlar saqlanib qolmoqda. Tadqiqot yakunida inson kapitalini rivojlantirish, raqamli transformatsiya va barqaror amaliyotlarga yo'naltirilgan strategik siyosiy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *mehmonxona samaradorligi, bandlik darajasi, RevPAR, O'zbekiston mehmonxonalari, mehmondoshlik samaradorligi, turizm sektori.*

Аннотация *В данном исследовании рассматриваются показатели эффективности гостиничных предприятий Республики Узбекистан в контексте стремительного расширения туризма и экономического перехода. Гостиничный сектор является важнейшим компонентом туристической индустрии и стратегическим фактором*

национального экономического роста. За последнее десятилетие в Узбекистане были проведены значительные структурные реформы, включая либерализацию туристической политики, приток прямых иностранных инвестиций и модернизацию инфраструктуры, что привело к расширению сектора гостеприимства. Используя вторичные статистические данные наряду с дескриптивным и сравнительным анализом, исследование изучает такие метрики эффективности, как уровень загрузки (occupancy rates), средняя стоимость номера (ADR), доход на доступный номер (RevPAR), рентабельность и операционные показатели в ключевых городах Узбекистана. Результаты указывают на существенное улучшение показателей загрузки и доходов, особенно в Ташкенте, Самарканде и Бухаре. Однако диспропорции в эффективности сохраняются из-за неравномерного регионального развития, нехватки квалифицированных кадров и непоследовательного внедрения цифровых технологий. Исследование завершается рекомендациями по стратегическим мерам политики, ориентированным на развитие человеческого капитала, цифровую трансформацию и устойчивые практики.

Ключевые слова: *эффективность отелей, уровень загрузки, RevPAR, отели Узбекистана, показатели гостеприимства, туристический сектор.*

Abstract: *This study examines the efficiency indicators of hotel enterprises in the Republic of Uzbekistan within the context of rapid tourism expansion and economic transition. The hotel sector is a critical sub-component of the tourism industry and a strategic contributor to national economic growth. Over the past decade, Uzbekistan has undergone significant structural reforms, including liberalization of tourism policies, inflows of foreign direct investment, and infrastructure modernization, resulting in hospitality sector expansion. Using secondary statistical data alongside descriptive and comparative analyses, this research investigates efficiency metrics such as occupancy rates, Average Daily Rate (ADR), Revenue per Available Room (RevPAR), profitability, and operational indicators across key Uzbekistani cities. Results indicate substantial improvements in occupancy and revenue indicators, particularly in Tashkent, Samarkand, and Bukhara. However, efficiency disparities persist due to uneven regional development, labour skills gaps, and inconsistent adoption of digital technologies. The study concludes with recommendations for strategic policy interventions focusing on human capital development, digital transformation, and sustainable practices.*

Keywords: *hotel efficiency, occupancy rate, RevPAR, Uzbekistan hotels, hospitality performance, tourism sector*

INTRODUCTION

The hospitality industry plays a pivotal role in economic development, particularly in countries with growing tourism sectors. Uzbekistan, a Central Asian nation known for its rich cultural heritage and Silk Road legacy, has emerged as one of the fastest-growing tourism markets in the region. Tourism-induced demand has stimulated expansion in hotel enterprises nationwide, contributing to foreign exchange earnings, employment, and regional development. According to recent reports, Uzbekistan's hotel stock has grown dramatically, with international branded hotels increasing by 272% between 2020 and 2025—a rate unmatched in Central Asia.

Despite this growth trajectory, the efficiency and performance of hotel enterprises vary widely across regions and hotel categories. Evaluating efficiency indicators such as occupancy rate, ADR, RevPAR, and profitability is essential to understanding how effectively hotel assets are being utilized and how well they contribute to economic outcomes. This article analyses these efficiency indicators in the context of Uzbekistan's hotel sector development, identifies key determinants of performance, and provides policy recommendations to enhance sector efficiency.

Literature Review

The existing academic literature underscores several crucial dimensions relevant to hotel performance and efficiency analysis in emerging markets such as Uzbekistan.

Determinants of Hotel Performance.

Kuvandikov's empirical analysis highlights that macroeconomic factors (e.g., foreign direct investment, ICT infrastructure, labor availability) significantly influence hotel performance indicators such as RevPAR and occupancy rate. Digital infrastructure and skilled labor availability were found to be among the

strongest determinants of hotel success in Uzbekistan's evolving economic environment. (acopen.umsida.ac.id)

Sustainability and Competitive Development.

The integration of sustainable practices (e.g., energy efficiency, waste management) has been linked to enhanced hotel performance and local socioeconomic development. Research focusing on Uzbekistani hotels shows that sustainability practices positively affect key performance indicators, including occupancy and profit margins. (cajitmf.casjournal.org)

Market Trends and Structural Change.

The rapid influx of international hotel brands and hospitality infrastructure expansion has played a significant role in reshaping the market. A recent comprehensive overview of the Uzbek hospitality sector indicates that international chains are expanding rapidly, suggesting increased competitive pressures and higher performance expectations for local enterprises. (Kursiv Узбекистан)

Despite progress in sector research, limited studies specifically focus on comparative efficiency indicators across regions and hotel classifications in Uzbekistan. This paper fills that gap by triangulating statistical data and literature to map performance outcomes across multiple efficiency metrics.

Methodology

This research adopts a **descriptive analytical approach** leveraging **secondary data sources** from government reports, industry associations, and peer-reviewed studies. Key performance indicators (KPIs) assessed include:

- **Occupancy Rate (OR)**: Percentage of rented rooms relative to total available rooms.
- **Average Daily Rate (ADR)**: Average revenue earned per occupied room.
- **Revenue per Available Room (RevPAR)**: Composite indicator combining ADR and OR.

- **Profitability Indicators**: Indicators such as Gross Operating Profit per Available Room (GOPPAR) where available.
- **Other Operational Metrics**: Guest satisfaction rates, service quality indices, and digital engagement metrics.

Data were compiled into an **Excel-style dataset** covering **2019–2025** where available, including comparative figures for major urban centres (Tashkent, Samarkand, Bukhara) and national averages. Trend analysis was performed using descriptive statistics, and tabular and infographic summaries illustrate sector performance.

Results

1. Hotel Stock and Sector Growth

The growth of hotel enterprises in Uzbekistan represents a foundational efficiency driver:

METRIC	***2019***	***2022***	***2025***
TOTAL HOTEL ROOMS (APPROX.)	*23,000*	*33,820*	*45,000+*
INTERNATIONAL BRANDED HOTEL ROOMS	*(BASELINE)*	*+150% SINCE 2020*	*+272% SINCE 2020*
KEY CITIES WITH HOTEL PRESENCE	*5*	*7*	*10*

Key Observations:

- International hotel rooms increased by 272% from 2020 to 2025.
- Tashkent, Samarkand, and Bukhara remain focal points for hotel development.

2. Occupancy Rate Trends

Occupancy rate is a primary indicator of operational efficiency:

YEAR	***NATIONAL AVG OR (%)***	***TASHKENT (%)***	***SAMARKAND (%)***	***BUKHARA (%)***
2019	*55*	*62*	*58*	*51*
2022	*57*	*64*	*60*	*52*
2025	*63*	*70*	*66*	*59*

Analysis:

- National average occupancy increased from ~55% in 2019 to ~63% in 2025, reflecting more consistent hotel utilization nationwide. (rbasia.uz)
- Top cities outperformed the national average, particularly Tashkent, which registered a ~70% occupancy rate in 2025.

3. Average Daily Rate (ADR) and Revenue Indicators

ADR signals pricing power and revenue potential:

Region	***ADR 2019 (USD)***	***ADR 2022 (USD)***	***ADR 2025 (USD)***
National Avg	69	74	85
Tashkent	90	95	110
Samarkand	72	78	88
Bukhara	65	68	78

RevPAR integrates both ADR and occupancy:

Region	***RevPAR 2019***	***RevPAR 2022***	***RevPAR 2025***
National Avg	**37.95**	**42.18**	**53.55**
Tashkent	**55.8**	**60.8**	**77.0**
Samarkand	**41.76**	**46.8**	**58.08**

These indicators confirm that hotel enterprises are generating higher revenues per room, signaling improved market efficiency.

4. Operational and Financial Efficiency

Key operational indicators reflect improved productivity:

Efficiency Metric	***2019***	***2025***
Revenue Growth YoY (%)	5	15+
Digital Booking Integration (%)	Low	High Adoption Trends
Sustainability Practices Adoption	Emerging	Growing

Research shows that digital infrastructure enhances performance, especially in online booking and marketing channels. (gejournal.net)

DISCUSSION

Drivers of Efficiency Improvements

Several determinants contribute to improved hotel efficiency:

1. **Tourism Demand Growth:** An expanding tourism market has supported higher occupancy and ADR. (euronews)
2. **Infrastructure Expansion:** New hotel constructions and branded chains have improved service quality and capacity. (Kursiv Узбекистан)
3. **Digital and ICT Adoption:** Hotels utilizing digital platforms show stronger revenue performance. (gejournal.net)
4. **Human Capital:** Workforce quality and training contribute to service delivery efficiency. (acopen.umsida.ac.id)

Challenges to Efficiency

- **Regional Disparities:** Lower performance metrics in smaller regions reflect uneven growth.
- **Skills Gap:** Hotel efficiency correlates with availability of trained hospitality staff. (acopen.umsida.ac.id)
- **Sustainability Integration:** ESG practices are emerging but not yet widespread. (green-eco.uz)

CONCLUSION

The analysis demonstrates that hotel enterprises in Uzbekistan have improved efficiency across key performance indicators, driven by increased tourism demand, infrastructure investment, and technological integration. Occupancy rates, ADR, and RevPAR have all shown positive trends, particularly in major urban centres. Notwithstanding these gains, disparities persist, suggesting the need for targeted interventions in human capital and regional development.

Recommendations

1. **Human Capital Development:**

Expand vocational and hospitality management programs to equip the workforce with skills aligned to modern hotel operations.

2. **Digital Transformation Incentives:**

Subsidize digital booking systems, CRM platforms, and online marketing tools for small and medium hotel operators.

3. **Promote ESG Integration:**

Support sustainability best practices through tax incentives and training programs.

4. **Regional Capacity Building:**

Invest strategically in under-served regions to balance hotel efficiency and economic benefits.

5. **Data Analytics Implementation:**

Establish centralized data systems for real-time performance tracking to inform policy and investment decisions.

Infographics

Hotel Performance Infographic Dataset (2019–2025)

Year	*Occupancy_Rate (%)*	*ADR_USD*	*RevPAR_USD*	*Number_of_Hotels*
2019	55	69	38	3500
2020	32	60	12	3800
2021	45	65	26	4200
2022	57	74	42	4800
2023	60	80	48	5200
2024	61	83	51	5900
2025	63	85	54	6861

Variable definitions (for SPSS Variable View):

Variable Name	**Label**	**Measure**
Year	Year	Scale
Occupancy_Rate	Occupancy rate (%)	Scale
ADR_USD	Average Daily Rate (USD)	Scale
RevPAR_USD	Revenue per Available Room (USD)	Scale
Number_of_Hotels	Total number of hotels	Scale

Infographic 1. Dynamics of Hotel Occupancy Rate in Uzbekistan (2019–2025)

Year	**National Avg (%)**	**Tashkent (%)**	**Samarkand (%)**	**Bukhara (%)**
2019	55	62	58	51
2020	32	38	35	29
2021	45	52	49	41

2022	57	64	60	52
2023	60	67	63	55
2024	61	69	65	57
2025	63	70	66	59

Infographic 2. Average Daily Rate (ADR) by Region in Uzbekistan (USD)

Year	National Avg	Tashkent	Samarkand	Bukhara
2019	69	90	72	65
2022	74	95	78	68
2025	85	110	88	78

Infographic 3. Revenue per Available Room (RevPAR) Growth (2019–2025)

Year	National Avg (USD)	Tashkent (USD)
2019	38	56
2020	12	18
2021	26	36
2022	42	61
2023	48	69
2024	51	73
2025	54	77

Infographic 4. Structure of Hotel Efficiency Indicators (2025)

Indicator	Share (%)
Revenue efficiency (ADR, RevPAR)	42
Occupancy efficiency	33
Cost efficiency	15
Digital & service quality efficiency	10

Infographic 5. Growth of Hotel Infrastructure in Uzbekistan

Year	Number of Hotels
2017	2,000
2019	3,500
2021	4,500
2023	5,200
2025	6,861

REFERENCES

1. Abdusaidova, S. Y. (2025). *Indicators of development of the hotel services market in Uzbekistan*. *Economics and Tourism* Journal. (interjournal.uz)

2. Analysis of hotel sector trends (2025). *Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(6)*. (mjstjournal.com)

3. Kuvandikov, S. (2025). *Determinants of hotel performance in Uzbekistan's transitioning economy* [Article]. *Academia Open*. (acopen.umsida.ac.id)

4. Mahmudova, Z. (2024). *Organizational-economic mechanisms of increasing competitiveness in hotel enterprises*. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*. (cajitmf.casjournal.org)

5. Uzbekistan hospitality overview. (2025, November 10). *Euronews – Uzbekistan's hospitality boom*. (euronews)

6. Hotel market growth in Uzbekistan. (2025). *Kursiv Uzbekistan*. (Kursiv Узбекистан)

Sustainability and ESG in hotels. (2025). *Implementation of ESG strategy in the hotel industry of Uzbekistan*. (green-eco.uz)

7. Role of ICT in hotel industry (2025). *Asia Pacific Journal of Marketing & Management Review*. (gejournal.net)

8. Uzbekistan Hoteliers Association Report (2022). *Hoteliers.uz*. (hoteliers.uz)

OLIY TA’LIMDA YOSHLAR SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHDA BOSHQARUV MEXANIZMLARINING O‘RNI

Aripova Ziyoda Atxamovna

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining bosh mutaxassisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida yoshlar siyosatini samarali amalga oshirishda boshqaruv mexanizmlarining o‘rni va ularning amaliy ta’siri tahlil qilinadi. Mamlakatda yoshlar siyosati davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Shunga monand, oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilan ishlash, ularni ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb qilish, kasbiy va shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha boshqaruv tizimlari takomillashtirilmoqda. Maqolada mavjud boshqaruv modellarining samaradorligi baholanib, zamonaviy texnologiyalar, raqamli monitoring, motivatsion dasturlar va psixologik yondashuvlar asosida yoshlar bilan ishlash mexanizmlarining o‘ziga xos jihatlari yoritiladi. Shuningdek, xorijiy tajribalar bilan solishtirish asosida O‘zbekistonda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan takliflar ishlab chiqiladi. Tadqiqotda oliy ta’lim muassasalarining yoshlar bilan ishlash faoliyatini tahlil qilish, zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini integratsiya qilish va ularning barqarorligini ta’minlash bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.*

Kalit so‘zlar: *Oliy ta’lim, yoshlar siyosati, boshqaruv mexanizmlari, innovatsion yondashuv, raqamli monitoring, talabalar faolligi, yoshlar bilan ishlash, ijtimoiy institutlar.*

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и практическое значение механизмов управления в эффективной реализации молодежной политики в системе высшего образования Узбекистана. Молодежная политика рассматривается как одно из приоритетных направлений государственной политики. В этом контексте совершенствуются системы управления, направленные на работу с молодежью в вузах, вовлечение студентов в общественно-политическую жизнь, а также поддержку их профессионального и личностного развития. В статье оценивается эффективность существующих моделей управления и раскрываются особенности механизмов взаимодействия с молодежью на основе современных технологий, цифрового мониторинга,

мотивационных программ и психологических подходов. Также на основе сравнительного анализа с зарубежным опытом выдвигаются предложения, которые могут быть адаптированы в Узбекистане. В исследовании представлены предложения по анализу молодежной политики в вузах, интеграции современных управленческих подходов и обеспечению устойчивости процессов.

Ключевые слова: *высшее образование, молодежная политика, механизмы управления, инновационный подход, цифровой мониторинг, студенческая активность, работа с молодежью, социальные институты.*

Abstract: This article examines the role and practical impact of governance mechanisms in effectively implementing youth policy in the higher education system of Uzbekistan. Youth policy is considered one of the key priorities of the national agenda. Accordingly, higher education institutions are improving their management systems to engage students in socio-political life and support their professional and personal development. The article evaluates the effectiveness of existing governance models and highlights the specific features of youth engagement mechanisms based on modern technologies, digital monitoring, motivational programs, and psychological approaches. In addition, comparative analysis with international practices leads to the development of proposals that could be applied in the Uzbek context. The study presents recommendations for analyzing youth work in higher education, integrating modern governance approaches, and ensuring sustainability.

Keywords: *higher education, youth policy, governance mechanisms, innovative approach, digital monitoring, student engagement, youth work, social institutions.*

KIRISH

Bugungi globallashuv va texnologik rivojlanish sharoitida yoshlar bilan ishlash masalasi nafaqat ijtimoiy, balki strategik jihatdan ham muhim bo‘lib bormoqda. Oliy ta’lim muassasalari bu jarayonda asosiy subyekt sifatida maydonga chiqmoqda. Chunki aynan shu bosqichda yoshlar ijtimoiy, siyosiy va kasbiy ong shakllantiradi. Mamlakatimizda yoshlar siyosatini takomillashtirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, ushbu siyosatni amalga oshirishda boshqaruv mexanizmlarining tizimli yo‘lga qo‘yilishi zaruratga aylanmoqda. Ushbu maqolada yoshlar siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda

boshqaruv uslublari, institutlararo hamkorlik, shuningdek, raqamli texnologiyalarning o‘rni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Adabiyotlarni o‘rganish. Yoshlar bilan ishlash tizimini samarali tashkil etish va uni boshqarish bo‘yicha ilmiy asoslarni shakllantirishda avvalo ushbu sohaning normativ-huquqiy bazasi muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2020-yil 3-fevraldagi PF–5938-son Farmoni, 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va Oliy ta’lim muassasalarining ichki nizomlari yoshlar bilan ishlashning huquqiy asoslarini belgilab bermoqda. Ushbu huquqiy hujjatlar talabalarning ijtimoiy himoyasi, ularni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari hamda ijtimoiy institutlar bilan hamkorlikni boshqarish mexanizmlarini nazarda tutadi.

Tadqiqot doirasida bir qator mahalliy va xorijiy mualliflarning nazariy ishlari tahlil qilindi. Jumladan, R. Xolmatov va G. Saidova yoshlar siyosatining institutsional modelini tahlil qilgan bo‘lsa, A. To‘rayev oliy ta’limda yoshlar bilan ishlashda boshqaruv yondashuvlari masalasini ko‘taradi. G‘arb olimlaridan J.S. Millning erkinlik va shaxsiy rivojlanish haqidagi g‘oyalari hamda M. Fukoning ijtimoiy nazorat va institutlar roli bo‘yicha ishlari yoshlar siyosatini falsafiy va nazariy jihatdan yoritishga xizmat qiladi.

Shuningdek, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari va metodologik tavsiyalari tahlil qilindi. Masalan, BMT tomonidan ishlab chiqilgan "World Youth Report" [1], UNESCOning "Global Citizenship Education" konsepsiyasi [2], hamda OECDning "Youth Governance and Engagement" bo‘yicha hisobotlari [3] yoshlar siyosatini amalga oshirishda ilg‘or mamlakatlar tajribasini ochib beradi.

Adabiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarida yoshlar bilan ishlashning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan boshqaruv modelining aniq yo‘naltirilganligi, raqamli axborot tizimlaridan foydalanish darajasi hamda ijtimoiy

institutlar bilan integratsiya darajasiga bog‘liq. Shu sababli, tadqiqotning asosiy yo‘nalishi sifatida oliy ta’limda boshqaruv mexanizmlarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi.

ASOSIY QISM

Oliy ta’lim muassasalarida yoshlar bilan ishlashning boshqaruv mexanizmlari turli yo‘nalishlarni qamrab oladi va bu tizimning samaradorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Eng avvalo, strategik rejalashtirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, har bir oliy ta’lim muassasasida yoshlar siyosatini amalga oshirish bo‘yicha alohida strategiyalar va harakat rejalari ishlab chiqilishi lozim. Bu orqali yoshlarning ehtiyoj va muammolari aniqlanadi hamda aniq yo‘naltirilgan chora-tadbirlar belgilanishi mumkin bo‘ladi.

Boshqaruvning yana bir muhim tarkibiy qismi bu — axborot tizimlari va raqamli monitoringdir. Talabalar faolligi, ularning dolzarb muammolari va yutuqlarini doimiy monitoring qilish orqali erta ogohlantirish tizimini shakllantirish va zarur hollarda tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati yaratiladi. Raqamli vositalar orqali to‘plangan ma’lumotlar asosida tahlil olib borish, boshqaruvni yanada maqsadli va samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Shuningdek, motivatsion dasturlar va grantlar yoshlar faolligini oshirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda ko‘plab oliy o‘quv yurtlarida iqtidorli talabalarni rag‘batlantirish maqsadida akademik stipendiyalar, liderlik kurslari va tadbirkorlik yo‘nalishida moliyaviy qo‘llab-quvvatlovchi dasturlar amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bu kabi yondashuvlar yoshlarning tashabbuskorligini rivojlantirish va ularda ijtimoiy mas’uliyat hissini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar bilan ishlashda institutsional integratsiya tamoyili ham alohida o‘rin tutadi. Talabalar kengashi, Yoshlar ittifoqi, mahalla qo‘mitasi, psixologik xizmatlar kabi tashkilotlarning faoliyatini boshqaruv tizimiga muvofiqlashtirish orqali bir

butun va tizimli yondashuv shakllantiriladi. Bu esa yoshlar bilan ishlashni faqat tarbiyaviy emas, balki strategik va ijtimoiy faoliyat sifatida qarash imkonini beradi.

Nihoyat, zamonaviy sharoitda innovatsion yondashuvlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Psixometrik testlar, onlayn maslahatlar, loyiha asosidagi ta’lim shakllari yoshlarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu yondashuvlar nafaqat nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, balki yoshlarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishda ham muhim vosita bo‘lmoqda.

Umuman olganda, oliy ta’lim muassasalarida yoshlar siyosatini samarali amalga oshirish boshqaruv mexanizmlarining kompleks yondashuvda yo‘lga qo‘yilishi orqali ta’minlanadi. Bu esa kelajak avlodning barkamol shakllanishiga xizmat qiluvchi asosiy omil bo‘lib qolmoqda.

Natijalar. Olib borilgan tadqiqotlar va amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, samarali boshqaruv modeli joriy etilgan oliy ta’lim muassasalarida talabalar ijtimoiy faolligi 30–40 foizga yuqoriligi bilan ajralib turadi. Bu esa boshqaruv tizimlarining yoshlar salohiyatini ro‘yobga chiqarishdagi beqiyos rolini tasdiqlaydi. Ayniqsa, raqamli vositalardan foydalanish orqali talabalar ehtiyojlarini aniqlash, ularning muammolarini erta bosqichda aniqlash va individual yondashuvlarni ishlab chiqish imkoniyati yuzaga kelmoqda. Doimiy monitoring va tahlil asosida tashkil etilgan boshqaruv tizimi esa oliy ta’limdagi islohotlarning barqarorligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, psixologik yondashuvlar, loyiha asosida tashkil etilgan ta’lim faoliyati va mentorlash tizimlari yoshlarning ijodiy salohiyatini ochish, ularni mustaqil qaror qabul qilishga va jamoaviy ishlashga yo‘naltirishda samarali vosita bo‘layotgani kuzatildi. Ushbu holatlarni inobatga olgan holda, maqolada taklif etilgan boshqaruv mexanizmlari O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida yoshlar siyosatini amaliyotda yanada samarali amalga oshirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

XULOSA

Oliy ta’lim tizimida yoshlar siyosatini samarali amalga oshirish nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim boshqaruv vazifasini bajaradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, boshqaruv mexanizmlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan oliy ta’lim muassasalarida talabalar faolligi yuqori bo‘lib, ularning ijtimoiy moslashuvchanligi va kelajak rejalari izchil shakllanadi. Bunday natijalarni ta’minlash uchun esa oliy ta’lim muassasalarida strategik rejalashtirilgan boshqaruv tizimini shakllantirish, talabalar holatini monitoring qilishga asoslangan raqamli platformalarni keng joriy etish, yoshlarning faolligini oshirishga qaratilgan rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni ishlab chiqish, shuningdek talabalar, o‘qituvchilar va ijtimoiy institutlar o‘rtasida uzviy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zarur. Bundan tashqari, innovatsion va psixologik yondashuvlar asosida yoshlarning shaxsiy va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot doirasida ilgari surilgan nazariy va amaliy tavsiyalar O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida yoshlar bilan ishlash faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish hamda salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://www.un.org/development/desa/youth/world-youth-report.html
2. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000232993
3. https://www.oecd.org/gov/youth
4. Xulkar Y., Xatamovna B. Z. TA’LIM MUASSASALARI O’SMIR-YOSHLAR IJTIMOIYLASHUVI SAMARADORLIGINI O’SHIRISHNING AFZALLIKLARI //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2024. – T. 3. – №. 26. – C. 13-15.
5. Shoyimovich H. B. OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA YOSHLAR BILAN ISHLASH JARAYONLARINI RAQAMLI BOSHQARISH TIZIMINI

RIVOJLANTIRISH //YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – T. 2. – №. 3. – C. 440-445.

6. 6. Mudarifovna I. Z. YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING AYRIM XUSUSIYATLARI //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2024. – T. 4. – №. 39. – C. 8-13.

MECHANISMS FOR MANAGING PRODUCTION WASTE IN A CIRCULAR ECONOMY

Ashurov Mahammadjon Sotvoldievich

Professor, Department of Management, Fergana State Technical University,

ashurovmuhammadjon1111@gmail.com

Abstract. *This article examines the mechanisms for managing production waste in the context of a circular economy. The study analyzes the key tools and approaches that enable enterprises to reduce waste generation, increase the rate of secondary resource utilization, and minimize environmental impact. The role of legislative regulation, digital monitoring systems, and economic incentives in the formation of effective waste management systems is substantiated. Practical examples from industrial enterprises of the Fergana region of Uzbekistan are considered.*

Keywords: *circular economy, production waste, waste management, secondary resources, environmental sustainability, industrial ecology, resource efficiency.*

INTRODUCTION

The growing volumes of industrial production worldwide are accompanied by a significant increase in the amount of production waste generated at various stages of the technological process. In traditional linear economic models — based on the "take, make, dispose" principle — waste is treated as an inevitable by-product of manufacturing activity, leading to serious environmental and economic consequences [1].

In recent decades, the circular economy concept has emerged as a fundamentally new paradigm aimed at transforming waste into secondary resources and integrating them back into production cycles. This approach not only reduces the burden on the environment but also contributes to increasing the resource efficiency of enterprises and the competitiveness of national economies [2].

In scientific literature, the problem of production waste management is examined from both environmental and economic perspectives. Researchers emphasize that the transition to circular models requires systemic changes not only in production technologies but also in management approaches, regulatory frameworks, and the behavior of economic agents [3]. Special attention is paid to the role of digital technologies in monitoring waste flows and optimizing recycling processes.

At the regional level, the issue of industrial waste management is particularly relevant for industrially developed regions such as the Fergana region of Uzbekistan, where the chemical, textile, and food processing industries generate significant volumes of production waste. The introduction of effective waste management mechanisms in this region is an important factor for ensuring sustainable industrial development [4].

Taking into account the above, the study of waste management mechanisms in the context of a circular economy is considered one of the priority areas of modern economic science. The purpose of this research is to analyze and systematize the main mechanisms for managing production waste within the circular economy framework and to evaluate their effectiveness at the enterprise and regional levels.

MAIN BODY

The methodological foundation of this study is built upon a systems analysis approach, economic-statistical methods, and a comparative analysis of domestic and international experience in production waste management. The research draws on data from analytical reports of international organizations, legislative documents of the Republic of Uzbekistan, and statistical data on waste generation volumes in the Fergana region.

At the first stage of the study, the main categories of production waste management mechanisms were identified and systematized. Based on an analysis of scientific literature and international practice, three groups of mechanisms were

distinguished: regulatory-legislative, economic-incentive, and technological-organizational mechanisms. Their interrelationship and complementarity form the basis of an integrated waste management system within the circular economy.

Regulatory-legislative mechanisms include standards for waste generation, requirements for waste classification and accounting, mandatory environmental impact assessments, and restrictions on the disposal of secondary raw materials. In Uzbekistan, the legal framework for waste management is defined by the Law "On Production and Consumption Waste" and a number of subordinate regulatory acts. However, studies indicate that the existing regulatory system requires further development in the area of incentives for the reuse of industrial waste [5, p. 38].

Economic-incentive mechanisms play a key role in motivating enterprises to reduce waste and expand secondary resource utilization. These include tax benefits for enterprises implementing closed-loop production technologies, differentiated waste disposal fees, state support for waste processing infrastructure, and green procurement systems. International experience shows that the economic stimulation of circular practices leads to a significant reduction in waste disposal volumes and an increase in the share of secondary raw materials in production [6].

Technological-organizational mechanisms encompass both technical solutions — such as resource-saving technologies, waste processing equipment, and production line optimization — and organizational approaches, including waste audit systems, environmental management standards (ISO 14001), and digital monitoring platforms. The use of digital technologies enables real-time tracking of waste generation across all stages of production and facilitates data-driven management decision-making [7, p. 21].

The main stages of the production waste management process in a circular economy and their interconnections are presented in Figure 1.

Figure 1. Integrated model of production waste management mechanisms in a circular economy

As shown in Figure 1, the integrated model of production waste management within a circular economy encompasses four interrelated stages: waste generation assessment, classification and monitoring, selection and application of management mechanisms, and evaluation of results with feedback adjustment. The regulatory, economic, and technological mechanisms operate simultaneously at each stage, reinforcing one another and forming a coherent management system.

A practical analysis conducted on the basis of industrial enterprises in the Fergana region confirmed that enterprises implementing an integrated approach to waste management achieve a 25–40% reduction in waste disposal costs and a 15–20% increase in the share of secondary raw materials used in production within 2–3 years. The most significant results were recorded at enterprises that combined digital monitoring systems with economic incentive mechanisms and received state support for the modernization of waste processing infrastructure.

CONCLUSION

The results of the study confirm that the effective management of production waste within the circular economy requires an integrated application of regulatory-legislative, economic-incentive, and technological-organizational mechanisms. Each of the identified groups of mechanisms independently provides only a partial solution to the problem; their systemic combination ensures the formation of a full-cycle waste management system.

The analysis showed that the introduction of digital monitoring platforms significantly increases the transparency and controllability of waste flows, creating the informational foundation for management decision-making. At the same time, the effectiveness of digital tools is substantially enhanced when combined with economic incentives that motivate enterprises to actively engage in secondary resource utilization.

At the regional level, the implementation of integrated waste management mechanisms in the Fergana region can contribute not only to reducing the

environmental burden of industrial production but also to the formation of new economic activity sectors based on waste processing. This is consistent with the strategic objectives of sustainable development of Uzbekistan's economy and the priorities of the national circular economy policy.

Further research should focus on developing quantitative models for assessing the economic efficiency of specific waste management mechanisms at the enterprise level, as well as on studying the potential for creating inter-enterprise waste exchange systems at the regional level.

REFERENCES

1. Ellen MacArthur Foundation. Towards the Circular Economy: Economic and Business Rationale for an Accelerated Transition. Ellen MacArthur Foundation, 2013.

2. Geissdoerfer M., Savaget P., Bocken N., Hultink E.J. The Circular Economy — A new sustainability paradigm? // Journal of Cleaner Production. 2017. Vol. 143. P. 757–768.

3. Murray A., Skene K., Haynes K. The Circular Economy: An Interdisciplinary Exploration of the Concept and Application in a Global Context // Journal of Business Ethics. 2017. Vol. 140. P. 369–380.

4. Abdurakhmanov, Q. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy rivojlanish masalalari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2021.

5. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilari to'g'risida". Toshkent, 2002 (2019-yilda yangi tahrir).

6. European Environment Agency. Circular Economy in Europe: Developing the Knowledge Base. EEA Report No. 2/2016. Copenhagen, 2016.

7. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. W. W. Norton & Company, 2014. 320 p.

DIGITIZATION PROCESSES IN GLOBAL NAVOI STUDIES AND THEIR ANALYSIS FROM THE POINT OF VIEW OF MEDIA LITERACY

Radjabova Ismigul Rustamovna

"University of Economics and Pedagogy"

Senior Lecturer, Department of "Computer Systems", Independent Researcher

E-mail: ismigulradjabova73@gmail.com

Abstract. *This article discusses the importance of digitization processes in the study and promotion of the heritage of Alisher Navoi and their analysis from the point of view of media literacy. In global Navoi studies, the experiences of presenting Navoi's works based on electronic libraries, digital archives, open educational platforms and multimedia tools are analyzed. Also, special attention is paid to the issues of developing information culture, critical thinking and information evaluation skills in the digital environment. The results of the study scientifically substantiate the need to form media literacy competencies in the study of Navoi's heritage.*

Keywords: *Alisher Navoiy, digitization, global Navoiy studies, media literacy, information culture, digital education, electronic resources.*

Аннотация. *В данной статье подчеркивается важность процессов цифровизации в изучении и популяризации наследия Алишера Навои и их анализ с точки зрения медиаграмотности. В рамках глобальных исследований творчества Навои анализируется опыт представления работ Навои с использованием электронных библиотек, цифровых архивов, открытых образовательных платформ и мультимедийных инструментов. Особое внимание также уделяется вопросам развития информационной культуры, критического мышления и навыков оценки информации в цифровой среде. Результаты исследования научно обосновывают необходимость формирования компетенций в области медиаграмотности при изучении наследия Навои.*

Ключевые слова: *Алишер Навои, цифровизация, медиаграмотность, информационная культура, цифровое образование.*

INTRODUCTION

In today's conditions of globalization and digital transformation, the preservation, promotion and integration of cultural and spiritual heritage into the educational process is one of the important tasks. The legacy of Alisher Navoi occupies a special place not only in Uzbek literature, but also in the history of world culture and civilization. In recent years, new scientific approaches have been formed in global Navoi studies to digitize Navoi's works, create electronic resources and use them in the educational process. At the same time, the formation of skills for the correct perception, analysis and evaluation of information presented in a digital environment is closely related to media literacy. This article analyzes these issues from a scientific and theoretical perspective.

MAIN PART

The formation of digitization processes in global Navoi studies is closely related to the development of science in the 21st century and has created a completely new - digital-humanitarian - approach to the study of the heritage of Alisher Navoi. This process serves not only to expand existing scientific research, but also to improve their methodological foundations.

First of all, as a result of digitization, manuscript and lithographic copies of Navoi's works are being transferred to high-resolution electronic formats and are being transformed into open information resources for the global scientific community. This allows remote access to sources that were previously available only by visiting specific libraries or archives. As a result, researchers have the opportunity to simultaneously compare sources from different countries and conduct textual analysis, without geographical restrictions.

Secondly, the formation of electronic libraries and digital manuscript funds has increased the systematic nature of scientific research. With the help of special metadata, cataloging systems and search algorithms, the possibility of rapid scientific comparison between different variants, translations and commentaries of Navoi's works has been created. This creates the basis for determining the

authenticity of texts, achieving new results in variantology, textology and philological research.

Thirdly, Navoi's heritage is presented in an interactive form through online scientific databases and platforms (for example, digital humanitarian projects). In this case, texts are studied not only for reading, but also on the basis of modern technologies such as linguistic analysis, semantic mapping, stylistic modeling. With the help of artificial intelligence and big data (Big Data) technologies, the lexical layer, the system of artistic images, and poetic styles in Navoi's work are being deeply analyzed.

The digitization process also serves to popularize Navoi's heritage. Through various multimedia platforms, electronic textbooks and mobile applications, studying Navoi's works is becoming more convenient and interesting for the general public, especially the younger generation. This is becoming an effective means of preserving cultural heritage and passing it on to future generations.

In conclusion, digitization processes in global Navoi studies are bringing the study of Alisher Navoi's heritage to a qualitatively new level, expanding the scope of scientific research, increasing its accuracy and effectiveness, and promoting cultural heritage on a global scale.Formation of digitization processes in global Navoi studies Currently, the study of Navoi's heritage is reaching a new technological level worldwide. Free access to Navoi's works is being created through electronic libraries, digital manuscript funds, and online scientific databases. This process ensures the openness and integration of scientific research and brings Navoi studies to the global scientific arena. The didactic capabilities of digital resources and electronic platforms are becoming more and more perfect in the current information age. Digitized Navoi's works are presented not only in text form, but also in audio, video, infographics, and interactive formats. This expands the possibilities of using multimedia technologies in the educational process. Especially

in the subject of "Media Literacy and Information Culture", such resources serve as an effective tool for teaching students to critically analyze information.

Analysis from the point of view of media literacy, along with the widespread dissemination of Navoi's heritage in the digital environment, issues of information reliability, source quality and copyright are of urgent importance. One of the main tasks of media literacy is to form in students the skills of:

- selecting and evaluating information;
- comparing sources;
- identifying incorrect or distorted information.

The process of studying Navoi's works in a digital environment serves to improve the information culture of students. Students acquire critical thinking skills through comparative analysis of texts, annotations, translations and comments. This develops not only their literary, but also general information competencies. The process of studying Navoi's works in a digital environment is an important pedagogical factor in the formation and development of students' information culture. Studying the legacy of the great thinker Alisher Navoi through digital platforms, electronic libraries, multimedia resources, and interactive educational tools allows students to not only read the literary text, but also analyze it in many ways. The process of comparative study of text variants, scientific annotations, dictionary comments, translations, and researchers' opinions presented in a modern digital environment activates students' analytical thinking.

By comparing different editions or translations of the same text, students acquire the skills of assessing the reliability of information, critically analyzing sources, and drawing scientific conclusions. In this process, they master important information competencies such as searching, sorting, systematizing, and processing information through practical activities. In particular, the use of digital annotation tools, electronic dictionaries, and text analysis programs develops students' independent learning competencies. Also, studying Navoi's works in digital format

serves to form media and information literacy in students. Students learn to determine the veracity, scientificity, and source reliability of information when working with various Internet sources. As a result, they also acquire important competencies such as operating as a conscious user in the digital space, adhering to the principles of information security, and academic honesty. This process comprehensively develops not only the literary and aesthetic thinking of students, but also their general information culture, communicative activity, and critical thinking skills. Therefore, studying Navoi's heritage in a digital educational environment is an effective means of improving students' intellectual and informational competencies as an integrative pedagogical approach in modern higher education.

CONCLUSION

The results of the study show that the processes of digitization in global Navoi studies are creating new opportunities for studying and promoting the heritage of Alisher Navoi. Analyzing these processes from the point of view of media literacy serves to develop information culture and critical thinking in the educational process. Therefore, studying Navoi's heritage through digital educational resources and integrating it with media literacy is one of the important directions of modern pedagogy.

REFERENCES

1. Alisher Navoiy. Khamsa. Tashkent: Fan, 2018.
2. UNESCO. Media and Information Literacy Framework. Paris, 2021.
3. Buckingham D. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. Cambridge, 2019.
4. Safarov O. Digital education and information culture. Tashkent, 2022.
5. Karimov B. Modern trends in Navoi studies. Tashkent, 2020.

INNOVATSION TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK INNOVATSION KORXONALAR FAOLIYATINING MOHIYATI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ergashev Oybek Xaydaraliyevich

University of Business and Science

“Yashil iqtisodiyot” kafedrasi o‘qituvchisi

Namangan davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi Email:

ergashevoybek723@gmail.com

Annotatsiya *Mazkur tadqiqotda kichik innovatsion korxonalar faoliyatining iqtisodiy mohiyati, ularning innovatsion tizimdagi o‘rni hamda rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar statistik va nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Mazkur maqoladagi tadqiqot natijalari asosida kichik innovatsion korxonalar innovatsion faollikning asosiy drayveri sifatida milliy iqtisodiyotda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishda muhim rol’ o‘ynashi haqida ma’lumotlar to‘liq yoritilgan*

Kalit so‘zlar: *kichik innovatsion korxonalar, innovatsion tizim, innovatsion faollik, infratuzilma, startap, startap ekotizimi, iqtisodiy o‘sish, texnologik rivojlanish.*

Аннотация. *В данном исследовании на основе статистических и теоретических подходов анализируется экономическая природа деятельности малых инновационных предприятий, их роль в инновационной системе и факторы, влияющие на их развитие. На основе результатов исследования в статье всесторонне демонстрируется важная роль малых инновационных предприятий в создании высокой добавленной стоимости в национальной экономике как основного двигателя инновационной деятельности.*

Ключевые слова*: малые инновационные предприятия, инновационная система, инновационная деятельность, инфраструктура, стартап, стартап-экосистема, экономический рост, технологическое развитие*

Abstract: *This study, using statistical and theoretical approaches, analyzes the economic nature of small innovative enterprises, their role in the innovation system, and the factors influencing their development. Based on the research results, the article comprehensively*

demonstrates the important role of small innovative enterprises in creating high added value in the national economy as the primary driver of innovation.

Keywords: *small innovative enterprises, innovation system, innovation activity, infrastructure, startup, startup ecosystem, economic growth, technological development*

KIRISH

So‘nggi yillarda global iqtisodiyotda innovatsiyalarga asoslangan rivojlanish modeli ustuvor yo‘nalishga aylanib bormoqda. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, kichik innovatsion korxonalar umumiy korxonalar sonining 90 foizdan ortig‘ini tashkil etib, yangi ish o‘rinlarining 60 - 70 foizini yaratadi. Shu bilan birga, rivojlangan mamlakatlarda YaIM o‘sishining 50 foizdan ortig‘i aynan innovatsiyalar hissasiga to‘g‘ri keladi. 2025-yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 358,1 mingtani tashkil etdi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 12,1 p.t. birlikni tashkil qildi. 2025-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) soni jami 358116 tani, shundan yangi tashkil etilganlari 77046 ta qayd etilgan. 2025-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘pi Toshkent shahrida 84453 tani yoki jamiga nisbatan 23,6,% ni, Toshkent viloyatida 34 389 tani yoki jamiga nisbatan 9,6 % ni va Samarqand viloyatida 31,470 tani yoki 8,8 % ni tashkil etdi. O‘zbekiston iqtisodiyotida ham kichik biznes ulushi yuqori bo‘lib, so‘nggi yillarda innovatsion faoliyat ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshib bormoqda. Xususan, statistik ma’lumotlarga ko‘ra, innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalar ulushi 2018-yildagi 8,5 foizdan 2023-yilda 18 foizga yetgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI: Tadqiqot quyidagi metodlar asosida amalga oshirildi:

statistik va ekonomitrik tahlillar;

iqtisodiy-qiyosiy usul;

tizimli yondashuv;

analitik umumlashtirish;

Shuningdek, innovatsion rivojlanish ko‘rsatkichlari asosida kichik innovatsion korxonalarning iqtisodiy samaradorligi baholandi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Tahlillar va natijalar shuni ko‘rsatadiki, kichik innovatsion korxonalar bilimlarni iqtisodiy qiymatga aylantirish mexanizmining muhim elementi hisoblanadi. Ular innovatsion mahsulotlar ishlab chiqish, yangi texnologiyalarni joriy etish va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish orqali iqtisodiyotda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadi. Quyidagi gistogramma innovatsion faol korxonalar ulushining o‘sishini ifodalaydi:



1-rasm. Kichik innovatsion korxonalarning rivojlanish dinamikasi

Mazkur dinamik o‘sish innovatsion muhitning asta-sekin shakllanayotganini ko‘rsatadi. Ushbu diagrammadan ko‘rinadiki, eng past ko‘rsatkich 2018-yilda kichik innovatsion korxonalarning YaIM dagi ulushi 8,5 % ni tashkil etgan bo‘lsa, eng yuqori ko‘rsatkich esa 2023-yilda kichik innovatsion korxonalarning YaIM dagi ulushi 18,0 % ni tashkil etmoqda.

Kichik innovatsion korxonalarning o‘ziga xos xususiyatlari Tahlil natijalari quyidagi tizimli xususiyatlarni aniqladi:

- yuqori moslashuvchanlik (bozor o‘zgarishlariga tez javob berish)
- yuqori risk darajasi (innovatsion loyihalarning noaniqligi)
- resurslar cheklanganligi (moliyaviy va moddiy)
- intellektual kapital ustuvorligi
- innovatsion ekotizim bilan integratsiya darajasi

Kichik innovatsion korxonalar rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar ulushi quyidagicha:



Natijalar shuni ko‘rsatadiki, infratuzilmaviy ta’minot eng muhim determinant hisoblanadi.

Olingan natijalar kichik innovatsion korxonalar innovatsion tizimning eng dinamik segmenti ekanligini tasdiqlaydi. Ular innovatsion jarayonlarni tezlashtirishda muhim rol o‘ynaydi, biroq ularning rivojlanishi bir qator tizimli muammolar bilan cheklanadi. Xususan:

- moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining pastligi
- innovatsion infratuzilmaning hududlar bo‘yicha notekis rivojlanishi
- malakali kadrlar yetishmasligi

Shu bilan birga, statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, infratuzilma rivojlangan hududlarda innovatsion korxonalar soni o‘rtacha 2 barobar yuqori.



Kichik innovatsion korxonalarda xarajatlar tarkibi tahlili

Quyidagi diagramma kichik innovatsion korxonalar xarajatlarining tarkibiy tuzilishini aks ettiradi:

Ish haqi fondi – 69%

Joriy xarajatlar – 13%

Kapital sarflar – 6%

Infratuzilma ta’minoti – 7%

Ijtimoiy to‘lovlar – 5%

Mazkur taqsimot kichik innovatsion korxonalar faoliyatida inson kapitali ustuvor omil ekanligini ko‘rsatadi. Ish haqi fondining 69% ulushni egallashi quyidagi holatlar bilan izohlanadi:

1. Innovatsion faoliyatning bilim va malakaga asoslanganligi
2. Yuqori malakali mutaxassislarga ehtiyoj
3. Ilmiy-tadqiqot ishlari ulushining yuqoriligi
4. Joriy xarajatlarning (13%) nisbatan yuqori ulushi esa ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarning barqarorligini ta’minlash zarurati bilan bog‘liq. Kapital sarflarning past ulushi (6%) kichik innovatsion korxonalarda moddiy aktivlarga emas, balki nomoddiy aktivlarga (intellektual kapitalga) ustuvorlik berilishini anglatadi. Infratuzilma (7%) va ijtimoiy to‘lovlar (5%) ulushining nisbatan pastligi esa quyidagi muammolar mavjudligini ko‘rsatadi: infratuzilma yetarli darajada rivojlanmagan



XULOSA VA TAKLIFLAR:

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

- kichik innovatsion korxonalar innovatsion tizimning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi
- ularning rivojlanish dinamikasi ijobiy tendensiyaga ega
- infratuzilma, moliyalashtirish va kadrlar omili asosiy determinantlar hisoblanadi

Kelgusida quyidagi yo‘nalishlarda islohotlarni kuchaytirish zarur:

- innovatsion infratuzilmani hududiy kengaytirish
- venchur moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish
- ilm-fan va biznes integratsiyasini chuqurlashtirish

Joriy xarajatlarning (13%) nisbatan yuqori ulushi esa ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarning barqarorligini ta’minlash zarurati bilan bog‘liq. Kapital sarflarning past ulushi (6%) kichik innovatsion korxonalarda moddiy aktivlarga emas, balki **nomoddiy aktivlarga (intellektual kapitalga)** ustuvorlik berilishini anglatadi. Infratuzilma (7%) va ijtimoiy to‘lovlar (5%) ulushining nisbatan pastligi esa quyidagi muammolar mavjudligini ko‘rsatadi: infratuzilma yetarli darajada rivojlanmaganMazkur taqsimot kichik innovatsion korxonalar faoliyatida **inson kapitali ustuvor omil** ekanligini ko‘rsatadi. Ish haqi fondining 69% ulushni egallashi quyidagi holatlar bilan izohlanadi:

- innovatsion faoliyatning bilim va malakaga asoslanganligi
- yuqori malakali mutaxassislarga ehtiyoj
- ilmiy-tadqiqot ishlari ulushining yuqoriligi

Joriy xarajatlarning (13%) nisbatan yuqori ulushi esa ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarning barqarorligini ta’minlash zarurati bilan bog‘liq. Kapital sarflarning past ulushi (6%) kichik innovatsion korxonalarda moddiy aktivlarga

emas, balki **nomoddiy aktivlarga (intellektual kapitalga)** ustuvorlik berilishini anglatadi.Infratuzilma (7%) va ijtimoiy to‘lovlar (5%) ulushining nisbatan pastligi esa quyidagi muammolar mavjudligini ko‘rsatadi:nfratuzilma yetarli darajada rivojlanmagan

- davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari hali to‘liq samarali emas

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. OECD. Oslo Manual. – Paris, 2018.
2. World Bank. Innovation Policy Report. – 2022.
3. Freeman C. Industrial Innovation. – 1982.
4. Lundvall B.-Å. Innovation Systems. – 2010.
5. Schumpeter J. Economic Development Theory. – 1934.
6. Porter M. Competitive Advantage. – 1990.
7. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.
8. Innovatsion rivojlanish vazirligi hisobotlari.
9. Ilmiy maqolalar (Scopus bazasi).
10. Milliy iqtisodiy tadqiqotlar hisobotlari.

VALYUTA RISKLARINI BOSHQARISHDA TIJORAT BANKLARI DERIVATIV BITIMLARINI ISDA (INTERNATIONAL SWAPS AND DERIVATIVES ASSOCIATION) STANDARTLARI ASOSIDA TUZISHNING ROLI

Yaxyayev Ziyodilla Lutfullayevich

TDIU mustaqil izlanuvchisi

E-mail: ziyodillayahyo@gmail.com

ORCID: 0009-0004-6765-6490

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tijorat banklarida valyuta derivativ bitimlarini ISDA standart hujjatlari asosida tuzishning ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda ISDA asosida tuzilgan bitimlarning afzalliklari o‘rganildi. Natijalar ISDA doirasida qo‘llaniladigan netting va ta’minot mexanizmlari qarshi tomon riskini kamaytirishini hamda hedging samaradorligini oshirishini ko‘rsatdi. O‘zbekiston sharoitida derivativ operatsiyalarni rivojlantirish imkoniyatlari baholanib, ISDA standartlarini joriy etish zarurligi asoslandi.*

Kalit so‘zlar: *valyuta riski, derivativ bitimlar, ISDA standartlari, hedging, netting, ta’minot (collateral), qarshi tomon riski.*

Аннотация: *В данной статье анализируется значение заключения валютных деривативных сделок коммерческими банками на основе стандартных документов ISDA. В исследовании изучены преимущества сделок, заключённых в рамках ISDA. Результаты показали, что применяемые в рамках ISDA механизмы неттинга и обеспечения (collateral) способствуют снижению риска контрагента и повышению эффективности хеджирования. В условиях Узбекистана оценены возможности развития деривативных операций и обоснована необходимость внедрения стандартов ISDA.*

Ключевые слова: *валютный риск, деривативные сделки, стандарты ISDA, хеджирование, неттинг, обеспечение (collateral), риск контрагента*

Abstract:*This article analyzes the importance of structuring foreign exchange derivative transactions in commercial banks based on the standard documentation of ISDA. The study examines the advantages of ISDA-based agreements. The findings show that netting and collateral*

mechanisms applied under ISDA reduce counterparty risk and enhance hedging effectiveness. In the context of Uzbekistan, the opportunities for developing derivative operations are assessed, and the necessity of implementing ISDA standards is substantiated.
Keywords: *exchange rate risk, derivative transactions, ISDA standards, hedging, netting, collateral, counterparty risk*

KIRISH

Valyuta kurslarining o‘zgaruvchanligi tijorat banklarida valyuta risklarini boshqarishni muhim vazifaga aylantirmoqda. Ochiq valyuta pozitsiyalarining ortishi banklar barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday sharoitda derivativ instrumentlardan foydalanish risklarni kamaytirishningning zamonaviy va samarali vositasi hisoblanadi. Biroq derivativ bitimlarning samaradorligi ularning huquqiy asoslariga ham bog‘liq.

Xalqaro amaliyotda derivativ bitimlar ISDA standart hujjatlari asosida tuziladi. Ushbu standartlar netting (bu ikki tomon o‘rtasidagi bir nechta moliyaviy majburiyatlarni o‘zaro hisoblash) va ta’minot mexanizmlari (derivativ bitim bo‘yicha qarshi tomon riskini kamaytirish uchun tomonlar tomonidan qo‘yiladigan garov mablag‘lari yoki aktivlar) orqali qarshi tomon riskini kamaytiradi hamda hedjing samaradorligini oshiradi.

O‘zbekiston sharoitida derivativ operatsiyalarni rivojlantirish zarurati mavjud. Shu bois maqolaning maqsadi ISDA standartlari asosida tuzilgan bitimlarning ahamiyatini tahlil qilish va ularni amaliyotga joriy etish zarurligini asoslashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi: Valyuta risklarini boshqarish masalalari ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xalqaro miqyosda Bank for International Settlements (BIS), Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF) va Basel qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan tadqiqot va standartlarda bank risklarini boshqarishning institutsional asoslari yoritilgan. Basel II va Basel III standartlarida

valyuta risklari bozor risklari tarkibida ko‘rib chiqilib, ularni kapital orqali qoplash mexanizmlari belgilangan.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda valyuta risklarining mohiyati, ularning bank faoliyatiga ta’siri hamda ayrim boshqaruv mexanizmlari keng yoritilgan. Jumladan, F. Mishkin, J. Hull, V.A. Kazakov va S. Walters tadqiqotlarida valyuta risklarining nazariy asoslari ochib berilgan. Shu bilan birga, mahalliy olimlar — T.I. Bobakulov, U.A. Abdullayev va J.X. Ataniyazov asarlarida valyuta risklari va xalqaro moliyaviy munosabatlar bank tizimi nuqtayi nazaridan tahlil qilingan.

Mazkur ilmiy manbalarda valyuta risklarining nazariy asoslari hamda derivativ instrumentlardan foydalanish yondashuvlari yoritilgan bo‘lsa-da, ularni tijorat banklarida derivativ bitimlarni ISDA standart hujjatlari asosida tashkil etish bilan bog‘liq holda O‘zbekiston bank tizimi sharoitiga mos tarzda tizimlashtirish va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish masalasi yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu sababli, derivativ operatsiyalarni ISDA asosida tashkil etish orqali valyuta risklarini boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar dolzarbligicha qolmoqda. Shu bilan birga, xalqaro tajribani milliy bank tizimiga moslashtirish hamda derivativ bitimlar bo‘yicha yagona huquqiy va institutsional tizimni shakllantirish masalalari yetarli darajada ilmiy asoslanmagan.

Tadqiqot metodologiyasi:

Mazkur tadqiqotda tizimli va mantiqiy tahlil, solishtirma tahlil hamda statistik ma’lumotlarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Xorijiy va milliy banklar amaliyotida derivativ bitimlarni ISDA standart hujjatlari asosida tuzish tajribasi o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida ISDA asosida va ISDA siz tuzilgan derivativ bitimlar samaradorligi solishtirilib, netting va ta’minot (collateral) mexanizmlarining qarshi tomon riskiga ta’siri tahlil qilindi. Shuningdek, valyuta kurslari o‘zgarishi sharoitida derivativ operatsiyalarning bank balansiga ta’siri modellashtirildi hamda ISDA standartlarini O‘zbekiston bank tizimi sharoitida joriy etish imkoniyatlari baholandi.

Tahlil va natijalar:

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklarida derivativ operatsiyalarni ISDA standartlari asosida tashkil etish darajasi mamlakatlar kesimida sezilarli farqlanadi va bu holat valyuta risklarini boshqarish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Rivojlangan moliya bozorlarida derivativ bitimlarning asosiy qismi ISDA Master Agreement asosida tuziladi, bu esa netting va ta’minot (collateral) mexanizmlarining to‘liq ishlashini ta’minlaydi. Natijada qarshi tomon riski minimallashtiriladi va hedjing operatsiyalarining samaradorligi yuqori darajada ta’minlanadi. Amaliyotda ISDA asosan xalqaro kontragentlar bilan tuziladigan bitimlarda qo‘llaniladi. Buning sabablari:

- yagona huquqiy baza zarurligi;
- xorijiy banklar ISDA bo‘lmasa bitimga kirmasligi;
- netting va ta’minot (collateral) mexanizmlarini xalqaro darajada tan olishi.

O‘zbekiston bank tizimida esa derivativ operatsiyalar hali rivojlanish bosqichida bo‘lib, ISDA standartlarini qo‘llash amaliyoti keng tarqalmagan. Banklar asosan oddiy valyuta bitimlari bilan cheklanib qolmoqda, ko‘p holatlarda mahalliy shartnomalarda soddalashtirilgan shartnomalar tuziladi. Bu esa risklarni boshqarishda cheklovlarni yuzaga keltirmoqda.

Tahlillar shuni ham ko‘rsatadiki, ISDA standartlari asosan xalqaro kontragentlar bilan tuziladigan bitimlarda qo‘llaniladi. Buning asosiy sababi turli yurisdiktsiyalar o‘rtasida yagona huquqiy platformaga bo‘lgan ehtiyojdir. Biroq mahalliy bozorda ushbu standartlarning yetarli darajada joriy etilmaganligi qarshi tomon riskining yuqori darajada saqlanib qolishiga va hedging mexanizmlarining to‘liq ishlamasligiga olib kelmoqda. Shu sababli, ISDA standartlarini faqat xalqaro operatsiyalar doirasida emas, balki milliy moliya bozorida ham keng joriy etish zarur.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari derivativ operatsiyalar samaradorligi ularni amalga oshirish mexanizmlaridan ko‘ra ko‘proq ularning huquqiy va institutsional asoslariga bog‘liqligini ko‘rsatadi. ISDA standartlarini joriy etish orqali tijorat banklarida valyuta risklarini boshqarish tizimini takomillashtirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda xalqaro moliya bozorlariga integratsiyani chuqurlashtirish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR:

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklarida valyuta derivativ bitimlarini ISDA standartlari asosida tashkil etish valyuta risklarini boshqarish samaradorligini oshiradi. Mavjud amaliyotda matching siyosati yetarli bo‘lmay, derivativ va huquqiy mexanizmlarni rivojlantirish zarur. Shu bois, ISDA standartlarini bosqichma-bosqich joriy etish, derivativ bitimlarda netting va ta’minot mexanizmlarini huquqiy jihatdan mustahkamlash, bank xodimlarining malakasini oshirish hamda derivativ operatsiyalar uchun yagona huquqiy bazani shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur choralar tijorat banklarining barqarorligini oshirish va ularning xalqaro moliya bozorlariga integratsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mishkin F.S. – Money, Banking and Financial Markets, 10th edition, Pearson, 2013.

2. Hull J.C. – Risk Management and Financial Institutions, 4th edition, Wiley, 2015.

3. Kazakov V.A. Управление валютными рисками в коммерческом банке. — Москва: Финансы и статистика, 2016.

4. Stiven Valters – Foreign Exchange Risk Management in Commercial Banks, Oxford University Press, 2012.” (p. 199).

5. Bobakulov T.I., Abdullayev U.A. *Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari*. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020.

6. Ataniyazov J.X. *Xalqaro moliya munosabatlari*. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020.Sharipov N. – Kommersiya banklarida moliyaviy risklarni boshqarish, Toshkent, 2018. (b. 88).

7. https://www.isda.org

ҚУРИЛИШ МАТЕРИАЛЛАРИ САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ИҚТИСОДИЙ САЛОҲИЯТИНИ БАҲОЛАШ УСУЛЛАРИ

Bakhodir Khoshbakov

Termez University of Economics and Service, Termez, Uzbekistan

e-mail: baxodir_xushbakov@tues.uz

ORCID: 0009-0006-7566-6976

Аннотация: *Ушбу мақолада қурилиш материаллари саноати корхоналарининг иқтисодий салоҳиятини баҳолашнинг асосий усуллари тизимли равишда кўриб чиқилган. Иқтисодий салоҳиятни баҳолашда қўлланиладиган миқдорий ва сифатий таҳлил усуллари — жумладан, ресурс ёндашуви, натижавий ёндашув, омиллар таҳлили ва интеграл баҳолаш методологиялари — тадқиқ этилган. Тадқиқот натижалари қурилиш материаллари саноати корхоналарида иқтисодий салоҳиятни объектив баҳолашга имкон берувчи комплекс усулий база яратишга хизмат қилади.*

Калит сўзлар: *иқтисодий салоҳият, қурилиш материаллари саноати, баҳолаш усуллари, ресурс ёндашуви, интеграл кўрсаткич, рақобатбардошлик.*

Abstract: *This article systematically examines the main methods for assessing the economic potential of enterprises in the construction materials industry. Quantitative and qualitative analysis methods used in assessing economic potential are investigated, including the resource approach, the result-based approach, factor analysis, and integral assessment methodologies. The research results serve to create a comprehensive methodological base for objective assessment of economic potential in construction materials industry enterprises.*

Keywords: *economic potential, construction materials industry, assessment methods, resource approach, integral indicator, competitiveness.*

КИРИШ

Қурилиш материаллари саноати мамлакатнинг иқтисодий инфратузилмасини шакллантиришда муҳим роль ўйнайдиган тармоқлардан

биридир. Ўзбекистон Республикасида қурилиш индустриясининг жадал ривожланиши, шаҳарсозлик дастурларининг кенгайиши ва инвестицион фаолликнинг ошиши фонида мазкур тармоқ корхоналарининг иқтисодий салоҳиятини тўғри баҳолаш масаласи тобора долзарб аҳамият касб этмоқда.

Иқтисодий салоҳият — корхонанинг мавжуд ва яширин имкониятларини, ресурслар базасини ва бозор рақобатида ғалаба қозониш қобилиятини ифодаловчи мураккаб иқтисодий категориядир. Ушбу тушунчанинг кўп қиррали табиати уни баҳолаш методологиясини шакллантиришда бир қатор методологик муаммоларни вужудга келтиради.

Мақоланинг мақсади — қурилиш материаллари саноати корхоналарига мослашган иқтисодий салоҳиятни баҳолашнинг замонавий усулларини тизимлаштириш ва уларнинг амалий қўлланилиш имкониятларини аниқлашдан иборат. Мақолада тармоқнинг ўзига хос хусусиятлари инобатга олинган ҳолда комплекс баҳолаш тизими таклиф этилади.

Иқтисодий салоҳиятни баҳолаш масаласи жаҳон иқтисодий адабиётида кенг ўрин эгаллаган. Хорижий иқтисодчилар орасида М. Портернинг рақобатбардошлик назарияси, И. Ансоффнинг стратегик ресурслар концепцияси ва Р. Грантнинг ресурсга асосланган ёндашуви асосий назарий пойдеворни ташкил этади.

Россия молиявий таҳлил мактабида Л. Гиляровская, А. Ковалёв ва Г. Савицкаларнинг ишлари молиявий салоҳиятни баҳолаш методологиясини ривожлантиришга салмоқли ҳисса қўшган. Хусусан, Савицкаянинг омиллар таҳлили тизими қурилиш материаллари саноати корхоналарига мослаштирилган ҳолда самарали қўлланилиши мумкин.

Ўзбекистон иқтисодий адабиётида ушбу соҳани тадқиқ этган олимлар орасида А. Ортиқов ва А. Қодиров ва бошқаларнинг ишлари алоҳида ўрин тутади. Хусусан, Ортиқовнинг "Саноат иқтисоди" дарслиги ва Қодировнинг мақоласида саноат корхоналари рақобатбардошлигини ошириш масалаларини

қамраб олган. Шунда ҳам, қурилиш материаллари саноатига хос хусусиятларни инобатга олувчи мослашган баҳолаш усуллари ишлаб чиқилмаганлиги мавзунинг янгилигини белгилайди.

1. Иқтисодий салоҳиятнинг таркибий тузилиши

Иқтисодий салоҳиятга нисбатан иқтисодий адабиётда турли ёндашувлар мавжуд. Уларни умумлаштириб, иқтисодий салоҳиятни қуйидагича таърифлаш мумкин: бу — корхонанинг белгиланган мақсадларга эришиш учун мавжуд бўлган барча ресурс имкониятлари, ташкилий қобилиятлари ва бозор лаёқатларининг йиғиндисидир.

Қурилиш материаллари саноати корхоналари учун иқтисодий салоҳиятнинг асосий таркибий қисмлари:

1. Ишлаб чиқариш салоҳияти — заводлар қуввати, технологик жараёнлар, асбоб-ускуна паркининг ҳолати;
2. Молиявий салоҳият — активлар рентабеллиги, молиявий барқарорлик, ликвидлик;
3. Инновацион салоҳият — тадқиқот-ишлаб чиқиш харажатлари, янги маҳсулот улуши;
4. Ресурс салоҳияти — хом ашё базаси, меҳнат ресурслари малакаси, энергия самарадорлиги;
5. Бозор салоҳияти — бозор улуши, мижозлар базаси, дистрибуция тизими.

2. Ресурс ёндашуви

Ресурс ёндашуви корхонанинг иқтисодий салоҳиятини унинг ихтиёридаги ресурсларнинг сони ва сифати орқали аниқлайди. Қурилиш материаллари саноати учун ушбу ёндашув айниқса аҳамиятлидир, чунки тармоқнинг ресурс сиғими ниҳоятда юқори. Ресурс салоҳиятини баҳолашнинг умумлашган формуласи:

$$RS=\sum_{i=1}^{n} k * X_i$$

бу ерда: RS — ресурс салоҳиятининг умумий индекси, Xi— ресурс турлари (меҳнат, капитал, хомашё, инновация ва ҳ.к.), k — ҳар бир ресурснинг оғирлик коэффициенти, n — ресурслар сони.

Ресурс ёндашувининг асосий камчилиги — корхонанинг амалда эришган натижалари инобатга олинмайди. Шу сабабли ушбу усул натижавий ёндашув билан биргаликда қўлланилган тақдирда юқори аниқликни таъминлайди.

3. Натижавий ёндашув ва молиявий кўрсаткичлар

Натижавий ёндашув корхонанинг амалда эришган иқтисодий натижаларини асос қилиб олади. Ушбу усулда қуйидаги кўрсаткичлар тизими қўлланилади (1-жадвал):

1-жадвал

Қурилиш материаллари саноати корхоналарининг иқтисодий салоҳиятини баҳолашнинг асосий кўрсаткичлари[17]

Кўрсаткич	Формула	Иқтисодий мазмуни
Умумий рентабеллик	ROE=(Соф фойда / Ўз капитали)×100%	Ўз капиталининг самарадорлиги
Активлар рентабеллиги	ROA=(Соф фойда / Жами активлар)×100%	Барча ресурслардан фойдаланиш самарадорлиги
Сотиш рентабеллиги	ROS=(Фойда / Тушум (соф сотиш))×100%	Ҳар бир сўм тушумдан олинган фойда
Қувватлар бандлиги	$K_{иб}$=Ишлаб чиқариш ҳажми / Максимал қувват×100%	Ишлаб чиқариш қувватларидан фойдаланиш даражаси

1. [17] Davis, J.A. (2012). Return on Equity. In *Measuring Marketing: 110+ Key Metrics Every Marketer Needs* (2nd ed.). Wiley Online Library. https://doi.org/10.1002/9781119199205.ch8

Меҳнат унумдорлиги	МУ=Ишлаб чиқарилган маҳсулот (сотиш)/ Барча ходимлар сони	Ҳар бир ходимга тўғри келадиган маҳсулот ҳажми

Қурилиш материаллари саноатидаги ўртача ROA кўрсаткичи 2022 йилда 8,4% ни ташкил этган. Ушбу кўрсаткич корхона даражасида таҳлил қилинганда тармоқда салоҳиятдан фойдаланишнинг сезиларли фарқлари мавжудлиги аниқланган.

4. Интеграл баҳолаш методологияси

Интеграл баҳолаш усули — иқтисодий салоҳиятнинг барча ташкил этувчиларини ягона умумлаштирувчи кўрсаткич шаклида ифодалашга имкон берувчи методологиядир. Ушбу усулнинг асосий қадамлари:

6. Таркибий кўрсаткичларни аниқлаш ва нормаллаштириш (0–1 оралиғига келтириш);
7. Экспертлар баҳоси ёки аналитик иерархия жараёни орқали вазнларни белгилаш;
8. Интеграл индексни ҳисоблаш: $I = \sum \omega_i \times X_i$;

Натижаларни эталон кўрсаткичлари билан таққослаш;

9. Стратегик хулосалар чиқариш ва тавсиялар ишлаб чиқиш.

Ушбу усулнинг асосий камчилиги — кўрсаткич вазнларини белгилашда субъективлик хавфининг мавжудлигидир. Вазнларни объективлаштириш мақсадида корреляцион-регрессион таҳлилдан фойдаланилади (2-жадвал).

2-жадвал

Иқтисодий салоҳиятни баҳолаш усулларининг таққослама таҳлили[18]

Усул / Ёндашув	Асосий кўрсаткичлар	Афзалликлари	Камчиликлари

[18]Тадқиқот натижасида муаллиф томонидан тузилган

Ресурс ёндашуви	Асосий фондлар, меҳнат, молия ресурслари	Ресурс базасини тўлиқ баҳолайди	Натижани инобатга олмайди
Натижавий ёндашув	Фойда, рентабеллик, даромад	Амалий натижани аниқ ўлчайди	Яширин имкониятларни кўрсатмайди
Интеграл баҳолаш	Комплекс индекс (I)	Кўп омилли, объектив баҳо беради	Вазнлар субъектив бўлиши мумкин
SWOT-таҳлил	Куч/заиф томон, имкон/таҳдид	Стратегик муҳитни баҳолайди	Миқдорий ўлчов чекланган
Омиллар таҳлили	Дюпон модели, регрессия	Ички омилларни аниқлайди	Юқори даражада маълумот талаб қилинади

5. Тавсия этилган комплекс баҳолаш модели

The results of the study demonstrate that law enforcement practice in the field of crypto-asset regulation is characterized by significant contradictions arising from the ambiguous interpretation of key legal categories. Despite the formal establishment of regulatory provisions, their application in specific cases allows for multiple interpretations.

The study identifies that the main contradictions are associated with the interpretation of such categories as “acquisition,” “sale,” “recurrence,” and “large scale.” It is established that the absence of clearly defined criteria for distinguishing these concepts leads to differences in the legal qualification of similar crypto-asset transactions.

It is determined that divergences in the interpretation of legal norms result in inconsistent law enforcement practices, in which similar actions by crypto market participants may be assessed differently. This reduces the predictability of legal outcomes and increases the overall level of uncertainty.

The study further establishes that these contradictions constitute the basis for the formation of an asymmetry of legal risks. Under such conditions, the degree of legal liability depends not only on the actual actions of market participants but also on the way these actions are interpreted.

Thus, the findings lead to the conclusion that law enforcement practice in the field of crypto-assets is characterized by a high degree of variability, which significantly affects market functioning and the behavior of its participants.

DISCUSSION

The findings of the study allow contradictions in law enforcement practice to be considered as a key factor shaping the asymmetry of legal risks in the field of crypto-assets. In contrast to approaches that attribute regulatory challenges solely to deficiencies in the legal framework, the results indicate the significant role of interpretative mechanisms in determining the legal consequences of crypto-asset transactions.

From a theoretical perspective, this implies that the effectiveness of regulation depends not only on the content of legal norms but also on the degree of their interpretative clarity. In the absence of clearly defined criteria for the interpretation of key categories, law enforcement practice acquires a variable character, which confirms the propositions of institutional theory regarding the importance of rules and their implementation mechanisms in the functioning of economic systems (North, 1990).

The identified relationship between the interpretation of legal norms and the level of legal risks expands the understanding of the factors influencing the behavior of crypto market participants. Under conditions of inconsistent law enforcement practice, participants are required to consider not only formal legal requirements but also potential scenarios of their interpretation, which increases uncertainty and reduces trust in regulatory systems.

The results are consistent with contemporary studies emphasizing the importance of legal certainty for financial market development and regulatory effectiveness (IMF, 2021). At the same time, the present study places particular emphasis on the analysis of law enforcement mechanisms, which allows for a deeper understanding of the nature of the risks involved.

This conclusion is consistent with the authors' earlier research trajectory: first, the absence of a unified theoretical and categorical framework for crypto-assets was identified as a factor limiting the formation of effective regulatory approaches (Iminokhunov & Khakimov, 2026a); second, institutional uncertainty and inconsistency in law enforcement were substantiated as mechanisms through which conceptual ambiguity is transformed into the asymmetry of legal risks (Iminokhunov & Khakimov, 2026b).

Thus, the findings confirm the need to enhance the interpretative clarity of legal norms and to standardize law enforcement practices. This would reduce the

asymmetry of legal risks, improve regulatory predictability, and create conditions for the sustainable development of the crypto market.

Conclusion

The study demonstrates that law enforcement practice in the field of crypto-asset regulation is characterized by significant contradictions arising from the ambiguous interpretation of key legal categories and the absence of unified criteria for their application.

It is established that differences in the interpretation of concepts used in the qualification of crypto-asset transactions lead to a variable law enforcement practice, in which similar actions may be assessed differently. This results in reduced predictability of legal outcomes and increases the level of uncertainty for market participants.

The scientific contribution of the study lies in identifying the relationship between the features of law enforcement and the formation of the asymmetry of legal risks, as well as in substantiating the role of interpretative mechanisms in determining the legal consequences of crypto-asset transactions.

The findings support the conclusion that improving law enforcement mechanisms–particularly through refining the conceptual framework and standardizing approaches to the interpretation of legal norms–is essential. The implementation of these measures will reduce legal uncertainty, enhance regulatory effectiveness, and create conditions for the sustainable development of the crypto market.

REFERENCES

1. International Monetary Fund (IMF). (2021). Global financial stability report: *Crypto assets and financial stability.*

2. North, D. C. (1990). Institutions, institutional change and economic performance. *Cambridge University Press.*

3. Williamson, O. E. (2000). The new institutional economics: Taking stock, looking ahead. *Journal of Economic Literature, 38(3), 595–613.*

4. Iminokhunov, A. A., & Khakimov, A. M. (2026a). Theoretical and categorical foundations of crypto-assets in the digital economy. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot, 4*, 1291–1297.

5. Iminokhunov, A. A., & Khakimov, A. M. (2026b). Institutional challenges and law enforcement in the regulation of crypto-assets. *International Journal of Social Sciences & Interdisciplinary Research, 15*(04), 118–125.

SANOAT TARMOQLARIDA “SANOAT-4.0” NI AMALGA KIRITISHNING ASOSIY OMILLARI

Nasirova Nargiza Tursunpulatovna

Namangan Davlat Texnika Universiteti

Iqtisodiyot kafedrasi katta o‘qituvchisi

E-mail: nargiza7075@gmail.com

Annotasiya: *Mazkur maqolada sanoat tarmoqlarida “Sanoat-4.0” konsepsiyasini amalga kiritishning asosiy omillari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Raqamli transformatsiya jarayonida sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar, mahsulot sifatini yaxshilash hamda xarajatlarni optimallashtirishdagi o‘rni asoslab berilgan. Maqolada sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalarni tizimli joriy etish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va barqaror sanoat rivojlanishini ta’minlashda strategik ahamiyatga ega ekani ilmiy xulosalar orqali asoslab berilgan.*

Annotation: *in this article, the main factors for the implementation of the concept “Industry-4.0” in industrial sectors are analyzed in scientific-theoretical and practical terms. In the process of digital transformation, the role of artificial intelligence, big data, improving product quality and cost optimization is based. The article substantiates through scientific conclusions that the systematic introduction of digital technologies in industrial enterprises is strategically important in improving the competitiveness of the national economy and ensuring sustainable industrial development.*

Kalit so`zlar*: axborotlashgan jamiyat, axborot xizmatlari, narsalar interneti, raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat, ishlab chiqarishni raqamlashtirish, milliy it sektori, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, to‘rtinchi sanoat inqilobi, “sanoat 4.0”*

Keywords: *informed society, information services, Internet of things, digital economy, e-government, production digitization, national IT sector, ICT, fourth industrial revolution, " Industry 4.0”*

KIRISH

Iqtisodiyotda tub burilish kechayotgan bir vaqtda iqtisodiyotni liberallashtirishni

yanada chuqurlashtirish va shu asosda jamiyat a’zolarining moddiy va ma’naviy farovonligini ta’minlashda iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘i bo‘lgan sanoatning mavqei alohida o‘rin egallaydi.

Jahon amaliyotidan ma’lumki, rivojlangan davlatlar ham, barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlariga erishish masalalarini hal qilishda ba’zi salbiy hodisalarga duch kelmoqda. Bular jumlasiga krizislar, monopolizm, inflyasiya, ishsizlik, iste’mol bozoridagi nomutanosiblik, resurslarni, tovar va xizmatlarning difisitligi, pul muomalasidagi nuqson va kamchiliklar kabilar. Hozirgi paytda jahonda vujudga kelgan geosiyosiy beqarorlik, siyosiy va iqtisodiy ziddiyatlar bo‘shashmayapti, ilgari mustahkam bo‘lib ko‘ringan qoidalarni o‘zgartirib tashlanmoqda yoki rioya qilishmayapti.

Global sanoat doimiy ravishda yangi texnologiyalarga, iste'molchilar talabidagi o'zgarishlarga va iqlim o'zgarishi va energiya beqarorligi kabi muammolarga moslashmoqda. Muvaffaqiyatli sanoat rivojlanishini ta'minlashning asosiy omili korxonalarning o'zgaruvchan sharoitlarga tezda moslashish va innovatsiyalarni joriy etish qobiliyati bo'lib qolmoqda. Global sanoat texnologiyalar va biznes modellarida o'zgarishlarga asoslangan xolda faol rivojlanishda davom etmoqda. Global sanoatni rivojlantirish bo'yicha ba'zi muhim qarorlar quyidagilardan iborat: raqamlashtirish va sanoat 4.0; energiya samaradorligi va barqarorligi; ishlab chiqarishning globallashuvi; biotexnologiya va yangi materiallar; simulyatsiya va virtual reallik; transport logistikasini modernizatsiya qilish; salomatlik va xavfsizlik sohasidagi innovatsiyalar; ishlab chiqarish jarayonlarini gibridlashtirish.

ASOSIY QISM

Global ishlab chiqarish va ta’minot tarmog‘i - zamonaviy aqlli texnologiyalar, keng ko‘lamli mashinadan mashinaga aloqa va buyumlar internetidan foydalangan holda an’anaviy ishlab chiqarishda tub o‘zgarishlarga ta’sir etmoqda. Ushbu jarayon avtomatlashtirishni oshirishga, aloqa va o‘z-o‘zini nazorat qilishni yaxshilashga

hamda inson aralashuvisiz muammolarni tahlil qilish va tashxislash imkonini beruvchi aqlli texnologiyalardan foydalanishga olib keladi.

Sanoat 4.0. Aslini olganda, to‘rtinchi sanoat inqilobi - bu kiberfizik tizimlar, narsalarning sanoat interneti, bulutli hisoblash, sun’iy intellektni o‘z ichiga olgan ishlab chiqarish texnologiyalari va jarayonlarida avtomatlashtirish va ma’lumotlar almashinuvi tendentsiyasidir. Sanoat 4.0, shuningdek, to'rtinchi sanoat inqilobi sifatida ham tanilgan, tobora raqamli dunyoda ishlab chiqarish evolyutsiyasini tavsiflovchi tushunchadir. Kontseptsiya yangi bo'lishi mumkin bo'lsa-da, "apparat" tomonini tashkil etuvchi texnologiyalar ancha vaqtdan beri mavjud. Bu atama 2011 yilda nemis muhandislari va kompyuter olimlari tomonidan ishlab chiqarishning navbatdagi evolyutsiyasini tasvirlamoqchi bo'lgan. Agar "dasturiy ta'minot" tomoniga qarasak, inqilob qachon sodir bo'lganligi unchalik aniq emas. Garchi bu texnologiyalar biz bilan bir muncha vaqt bo'lgan bo'lsa-da, ular yaqin vaqtgacha o'z ta'sirini ko'rsata olmadi. Buning sababi shundaki, bu texnologiyalar ko'pchilik ishlab chiqaruvchilar tomonidan inqilob deb atalishi uchun muhim bo'lishidan oldin qabul qilinishi kerak edi. Ushbu kontseptsiyaning maqsadi raqamli ishlab chiqarishdan foydalanish va uning kamchiliklarini bartaraf etishdir.

To‘rtinchi sanoat inqilobi tasavvurlar davrining boshlanishini belgilaydi.

To‘rtinchi sanoat inqilobining qo‘llanilishi quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- Mobil qurilmalar;
- Buyumlar interneti platformalari;
- Joylashuvni aniqlash texnologiyalari (elektron identifikatsiya);
- Kengaytirilgan inson-mashina interfeyslari;
- Autentifikatsiya va firibgarlikni aniqlash;
- Aqlli sensorlar;
- Mijozlarning ko‘p darajali o‘zaro ta’siri va mijozlarning profilini yaratish;
- Kengaytirilgan reallik qurilmalar;
- Talab bo‘yicha kompyuter tizimi resurslarining mavjudligi;

- Ma’lumotlarni vizualizatsiya qilish va ishga tushirilgan „jonli“ trening.

Asosan bu texnologiyalarni to‘rtta asosiy komponentga jamlash mumkin, ular „Sanoat 4.0“ yoki „aqlli zavod“ atamasini belgilaydi:

1. Kiberfizik tizimlar;
2. Buyumlar interneti;
3. Kompyuter tizimi resurslarining talab bo‘yicha mavjudligi (masalan, bulutli hisoblash);
4. Kognitiv hisoblash.

Sanoat 4.0 qiymat yaratish uchun yangi texnologiyalarning keng doirasini birlashtiradi. Jismoniy jarayonlarni kuzatuvchi kiber-fizik tizimlar yordamida jismoniy dunyoning virtual nusxasini loyihalash mumkin. Kiberjismoniy tizimlarning o‘ziga xos xususiyatlariga yuqori darajadagi avtonomiyaga erishib, markazlashmagan qarorlarni mustaqil ravishda qabul qilish qobiliyati kiradi.

Raqamlashtirish natijasida global iqtisodiyotda inqilob ro‘y bermoqda. Sanoat korxonalari uchun raqamli iqtisodiyot vositalarini joriy qilish tovarlarni bozorga kirish vaqtini kamaytirishi, mahsulotlar va xizmatlarning sifatini yaxshilashi va yangi biznes modellaridan foydalanishi imkoniyatini beradi.

Sanoat korxonasini raqamli iqtisodiyotga integratsiyalashuvining zaruriy sharti ishlab chiqarishga yagona axborot makonini kiritishdir, uning yordamida korxonalarni boshqarish tizimlari va sanoat uskunalari ma’lumotlarni o‘z vaqtida almashishi mumkin. *Sanoatda raqamli iqtisodiyotning vositalari* deganda korxonaning barcha jismoniy aktivlarini raqamlashtirish va ularni korxonaning biznes sheriklari ma’lumotlari bilan raqamli ekotizimlarga birlashtirish vositasi tushuniladi. Amalda, bunday vositalar qo‘llaniladigan yangi texnologiyalarning juda keng doirasini anglatadi



Aqlli zavod - ishlab chiqarish obyektlari va logistika tizimlari inson aralashuvisiz tashkil etilgan ishlab chiqarish muhiti haqidagi tasavvur hisoblanadi. Aqlli zavod asoslangan texnik asoslar internet va xizmatlardan foydalangan holda bir-biri bilan aloqa qiladigan kiber-fizik tizimlardir. Ushbu jarayonning muhim qismi mahsulot va ishlab chiqarish liniyasi o‘rtasida ma’lumotlar almashinuvidir. Bu ta’minot zanjirining yanada samarali ulanishini va har qanday ishlab chiqarish muhitida yaxshiroq tashkil etilishini ta’minlaydi.

To‘rtinchi sanoat inqilobida O‘zbekistonning o‘rni. Dunyo sanoati “Industriya 4.0” ostonasida turgan bo‘lsa-da, lekin uning barcha texnologiyalarini faqatgina bundan oldingi “Industriya 3.0” sanoat inqilobining yutuqlarini o‘zlashtira olganlargina tatbiq qila oladilar.O‘zbekiston iqtisodiyotida hozir “Industriya 2.0” darajasidan “Industriya 3.0” darajasiga o‘tish bosqichidamiz. Albatta, bu holat O‘zbekiston sanoatini to‘liq modernizatsiya qilish yo‘lidagi jiddiy to‘siqdir. Shubhasiz, bu muammoni tan olish va anglash – oldinga harakat qilish uchun qo‘yilgan qadamdir.

Prezidentimiz tomonidan O‘zbekistonni dunyodagi rivojlangan 20 ta davlat safiga kiritish strategik rejasi belgilab berildi. Bu ulkan va olamshumul maqsadga erishishda,

O‘zbekiston iqtisodiyoti va sanoatini tubdan o‘zgartirib, “Industriya 4.0” tamoyillarini keng tatbiq qilinishi lozim bo‘ladi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PK-6079-sonli Qarori doirasida 2020-2022 yillarda hududlarni raqamlashtirish dasturlari tasdiqlandi.

Unga asosan aholi punktlarining internetga ulanish darajasini 78 foizdan 95 foizgacha oshirish, shu jumladan, buning hisobiga 2,5 million keng polosali ulanish portlarini ko‘paytirish, 20 ming kilometr optik tolali aloqa liniyalarini o‘tkazish va uyali aloqa tarmoqlarini rivojlantirish, 400 dan ortiq axborot tizimlarini, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli sohalariga elektron xizmatlar va dasturiy ta’minotlarni joriy etish, 587 ming kishini kompyuter dasturlash asoslari bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish, shuningdek “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida 500 ming yoshlarni jalb qilish, ishlab chiqarish va iqtisodiyotning real sektori korxonalarida logistika, boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish bo‘yicha 280 dan ortiq axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarini joriy etish, davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining raqamli savodxonligi va malakasini oshirish, ularni axborot texnologiyalariga o‘rgatish va axborot xavfsizligini ta’minlash, shuningdek, mintaqalardagi tegishli Oliy o‘quv yurtlari ma’muriy-hududiy birliklarda xokimiyat va davlat idoralarining 12 ming xodimini axborot texnologiyalari bo‘yicha o‘qitish uchun mas’ul etib tayinlandi. Axborot-texnologik platformalarda faoliyat ko‘rsatadigan raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanmoqda, bu esa shunday platformalarning yangi modellarini yaratish zaruratini taqozo etmoqda.

XULOSA

Raqamli iqtisod - bu ishlab chiqarish kompleksi, inson uchun hayot va qulaylikni ta’minlaydigan mahsulot va xizmatlarni yaratadigan ishlab chiqarish tizimi bo‘lib, u yerda ma’lum bir kiber-jismoniy tizim paydo bo‘ladi. Sanoat 4.0 – mamlakat va biznes raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan raqamli texnologiyalar (Sanoat

4.0) kirib borishi bilan bog‘liq ishlab chiqarish jarayonlarida yuzaga keladigan munosabatlar yig‘indisi hisoblanadi. Sanoatni internetlashtirishga qaratilgan nemis davlat tashabbuslaridan farqli ravishda, O‘zbekiston Respublikasi uchun «Sanoat 4.0» atamasi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini raqamli o‘zgartirishni anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O’zbekiston, 2023.
2. O’zbekiston Respublikasining “Investisiyalar va investisiya faoliyati to’g‘risida”gi Qonuni 2019-yil 25-dekabr O’RQ-598-son// https://lex.uz/docs/4664142
3. O’zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to’g‘risida”gi Qonuni 327-son 26 apel 2012 y. www.lex.uz
4. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.- T.:”Sano-standart”, 2014.-11 bet.
5. Ortiqov.A, Isakov. M. Industrial iqtisodiyot. O’quv qo`llanma. T.: Iqtisodiyot, 2019y., 242 b.
6. Musaxon Isakov. O‘zbekiston sanoatini rivojlantirishning iqtisodiy asoslari. Monografiya. - T.: Namangan muxandislik-qurilish instituti, 2023 y., 194 bet.
7. Maxmudov E.X., Isoqov M.Y. Biznes - rejalashtirish. O’quv qo’llanma. –T.: Iqtisodiyot, 2019, – 160 bet.
8. R.S.Muratov, I.A.DJalalova, S.Sh.Oripov. “Korxona iqtisodiyoti” - Darslik. – T.: TDIU, 2011 - 500 b.
9. Musoxon Isakov. Korxona iqtisodiyoti. Darslik. Namangan «SUNRISE-PRO», 2024. – 368-b.
10. Nargiza Nasirova. Qurilish iqtisodiyoti va menejment. Darslik. Namangan «SUNRISE-PRO», 2026. 650-bet
11. Nargiza Nasirova. O’zbekistonda mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishi va “yashil” iqtisodiyotga o‘tish asoslari. Monografiya. - Namangan.: , 2025 y., 289 bet.

ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЭЛЕКТРОННЫХ ПЛАТЕЖНЫХ СИСТЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ

Хасилова Висола Шоохроровна

Ташкентский государственный экономический университет

ORCID: 0009-0006-5796-9631

Аннотация: *Настоящая статья посвящена анализу развития и функционирования электронных платежных систем в Республике Узбекистан, а также их влияния на современную экономику и финансовый сектор. Актуальность исследования обусловлена стремительной цифровизацией финансовых услуг и возрастающей зависимостью бизнеса и потребителей от безналичных расчетов.*

Ключевые слова: *электронные платежные системы, цифровизация, безналичные расчеты, мобильные платежи, UZCARD/HUMO.*

Abstract: *This article is devoted to the analysis of the development and functioning of electronic payment systems in the Republic of Uzbekistan, as well as their impact on the modern economy and financial sector. The relevance of the study is determined by the rapid digitalization of financial services and the increasing dependence of businesses and consumers on cashless payments.*

Keywords: *electronic payment systems, digitalization, cashless payments, mobile payments, UZCARD/HUMO.*

Annotatsiya: *Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasida elektron to‘lov tizimlarining rivojlanishi va faoliyati, shuningdek ularning zamonaviy iqtisodiyot va moliya sektoriga ta’siri tahliliga bag‘ishlangan. Tadqiqotning dolzarbligi moliyaviy xizmatlarning jadal raqamlashtirilishi hamda korxonalar va iste’molchilarning naqd pulsiz hisob-kitoblarga bog‘liqligi ortib borayotgani bilan belgilanadi.*

Kalit so'zlar: *elektron to'lov tizimlari, raqamlashtirish, naqd pulsiz to'lovlar, mobil to'lovlar, UZCARD/HUMO.*

ВВЕДЕНИЕ

Электронная платежная система представляет собой технологию, которая позволяет проводить безналичные расчеты между физическими и юридическими лицами посредством интернета или других электронных каналов связи, исключая использование физических денег. Эти системы обеспечивают безопасность, скорость и удобство финансовых операций, автоматизируют процессы оплаты и позволяют совершать транзакции в любое время.

Согласно Закону Республики Узбекистан «О платежах и платежных системах» от 01.11.2019 г., № ЗРУ-578 «Средствами электронного платежа являются банковская карта или иной электронный носитель, содержащий информацию и позволяющий плательщику осуществлять платеж, а также производить иные операции, предусмотренные договором между плательщиком и эмитентом средств электронного платежа»[1].

В Узбекистане на данный момент развитие безналичных платежных систем находится на этапе активного роста, который поддерживается государственными реформами. Однако несмотря на высокие темпы цифровизации и значительные успехи национальных платежных систем, преобладание наличного оборота и кибербезопасность остаются основными проблемами на пути развития электронных платежных систем.

Литературный обзор:

В эпоху цифровизации изучение развития электронных платежных систем в Узбекистане является одним из актуальных тем исследования отечественных экономистов. По мнению Азларовой Д. , Туроповой У. (2025) ‹‹ Развитие платёжной системы Узбекистана является одним из приоритетных направлений государственной экономической политики. Учитывая высокий уровень проникновения мобильной связи, быстрое распространение интернета и растущую активность финтех-сектора, страна располагает

значительным потенциалом для создания современной, безопасной и инклюзивной платёжной инфраструктуры››[2].

По словам Платоновой В.(2023) ‹‹Сегодня количество бесконтактных платежей растёт во всём мире. И, что интересно, лидерами могут быть не только большие страны с сильными экономиками. Так, довольно высокие подобные показатели есть и в Центральной Азии. В Узбекистане также продолжает расти количество цифровых платежей. Это говорит о том, что электронные платежи используют в тех направлениях, где раньше, возможно, люди этого не делали. В ближайшее время этот тренд будет усиливаться››[3].

Рахимова Х.У. (2024) считает, что в условиях усиления цифровизации экономических и финансовых процессов валовые и розничные платежные системы Узбекистана все глубже трансформируются в сторону интеграции. Эта тенденция направлена на увеличение предложения платежных услуг, повышение автоматизации процессов и создание гибких и благоприятных условий для пользователей систем. Кроме того, интеграция способствует повышению рентабельности деятельности организаций, оказывающих платежные услуги[4].

Методология исследования: В данной работе использовались методы системного анализа, сравнительного анализа и статистической обработки данных.

Анализ и обсуждение результатов:

Безналичные расчеты — это осуществление платежей и переводов денежных средств без использования физических наличных денег (банкнот и монет) путем зачисления или списания средств со счетов в кредитных организациях (банках) или небанковских платежных организациях.

ИНСТРУМЕНТЫ БЕЗНАЛИЧНЫХ РАСЧЕТОВ:



Развитие электронных платежных систем в Узбекистане является одним из ключевых направлений цифровизации экономики, демонстрируя значительный рост, особенно после пандемии COVID-19.

В 2019 году была проведена масштабная подготовка к созданию в соответствии с международными стандартами Центра обработки данных при Центральном банке Республики Узбекистан в целях создания условий для круглосуточного проведения платежей хозяйствующими субъектами в режиме 24/7, началась работа над пилотным проектом по внедрению новой системы мгновенных платежей, которая обеспечит оплату в режиме 24/7[5]. Активно начали внедрять новые и удобные способы оплаты, таких как NFC и QR-платежи. Население стало активно пользоваться пластиковыми картами, что доказывается увеличением количества выпущенных пластиковых карточек в обращение.

Дата	**Количество банковских пластиковых карт, выпущенных в обращение**
01.01.2020 г.	**20 547 366**
01.01.2021 г.	**25 775 662**
01.01.2022 г.	**27 105 785**

01.01.2023 г.	**34 195 648**
01.01.2024 г.	**46 205 950**
01.01.2025 г.	**61 996 419**

Источник: официальный сайт Центрального банка.

По итогам 2024 года доля терминалов Humo в общем объеме транзакций через терминалы составила 40,5%, а доля терминалов Uzcard – 59,5%[6].

Мобильные приложения коммерческих банков дают возможность получения базовых банковских услуг, таких как вклады, обмен валюты, заказ банковских карт, оформление микрозайма, идентификация, что позволяет клиентам экономить время и затраты на физическое посещение. Благодаря таким удобствам количество пользователей дистанционными банковскими услугами на момент 01.07.2025г составляет 69,2 млн лиц из них 1,6млн являются юридическими лицами и индивидуальными предпринимателями, а остальные 67,6 млн- физические лица.



Источник: официальный сайт Центрального банка.

В результате цифровизации платежной системы предприниматели получили возможность принимать платежи не только посредством расчётных терминалов, но и через использование QR-кодов, NFC и других бесконтактных платёжных технологий.

В 2024 году количество выданных субъектам предпринимательства QR-кодов через информационную систему QR-online достигло почти 108 тыс., а объём транзакций, проведённых по этим кодам, увеличился в 1,3 раза по сравнению с 2023 годом и составил 441,8 млрд сумов[6].

Как видно по вышеуказанным данным развитие электронных платежных систем в стране идёт быстрыми темпами, но сталкивается с рядом системных и инфраструктурных проблем, которые замедляют полный переход к цифровой экономике. Основными проблемами на пути безналичных платежей является высокая доля наличных расчетов и теневой экономики. Несмотря на рост безналичных операций, значительная часть расчетов на рынках и в сфере услуг ведётся наличными средствами платежа, особенно в сельской местности. Это напрямую связано с низким качеством интернет-соединения в отдельных регионах и финансовой неграмотности . Следующим препятствием на пути цифровизации платежей является рост киберпреступности (списание денег с пластиковых карт пользователей), что подрывает доверие к цифровым сервисам.

Для решения этих проблем было разработано и внедрено в практику Положение «О мерах по обеспечению информационной безопасности и кибербезопасности платежных систем операторов платежных систем и поставщиков платежных услуг и профилактики правонарушений, совершаемых посредством цифровых технологий»[6].

В рамках мер по усилению защиты прав потребителей цифровых продуктов (услуг) и борьбы с правонарушениями, совершаемыми посредством цифровых технологий в Центральном банке в тестовом режиме была внедрена

централизованная антифрод-система, к которой подключены 34 банка и 9 платёжных организаций. Система предназначена для выявления и предотвращения подозрительных (фродовых) операций, совершаемых с использованием банковских карт. В результате оперативных мер, принятых Центральным банком по обращениям граждан о случаях мошенничества с банковскими картами, в 2024 году удалось заблокировать денежные средства на сумму 9,5 млрд сумов[6], что показывает эффективность принимаемых Центральным банком мер по улучшению кибербезопасности.

Кроме того, сотрудники Центрального банка приняли участие в просветительской кампании «Месяц повышения киберкультуры», а также в 36 телевизионных передачах, организованных в рамках этой инициативы. Целью мероприятий стало формирование у населения навыков «кибергигиены» и профилактика случаев кибермошенничества в отношении граждан[6].

ЗАКЛЮЧЕНИЕ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Развитие электронных платежных систем в Узбекистане характеризуется активным ростом, подкрепленным государственными реформами и бурным развитием финтех-сектора (Uzcard, Humo, Click, Payme). Успешное преодоление существующих на данный момент проблем требует комплексного подхода, ориентированного на повышение доверия и безопасности, а также на финансовое просвещение населения, что обеспечит дальнейший переход к устойчивой цифровой экономике.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Закон Республики Узбекистан «О платежах и платежных системах» от 01.11.2019 г., № ЗРУ-578.

2. Азларова, Д., & Туропова, У. (2025). Перспективы развития платёжной системы Республики Узбекистан в современных условиях . *//Междисциплинарный диалог науки и общества в эпоху экологических перемен, 1*(1), 123–126.

3. Вера Платонова, Visa: «В Узбекистане происходит новый этап развития безналичных платежей» https://cbu.uz/ru/press_center/expert-explanation/901435/?sphrase_id=564223

4. Рахимова Х.У.(2024) Современные тренды в цифровизации платёжной системы Узбекистана //Журнал Финансы и банковское дело, 1 (2024), 1-7.

5. История развития платежной системы и информатизации https://cbu.uz/ru/payment-systems/history/

6. Годовой отчет Центрального банка https://cbu.uz/ru/publications/annual-report/index.php?sphrase_id=564284

7. Статистический бюллетень Центрального банка – 2025 год июнь https://cbu.uz/ru/statistics/buleten/2664824/?sphrase_id=564288

5-SHO‘BA

TALABALARNING INTELLEKTUAL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURAT

Niyozov Muhammad Baxronovich

p.f.f.d (PhD) dotsent

Guliston davlat pedagogika instituti

e-mail: niyozov_info@bk.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada talabalarning intellektual kompetensiyalarning mohiyati, rivojlantirish usullari va amaliy tavsiyalar ko‘rib chiqiladi. Tanqidiy va ijodiy fikrlashini hamda muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish haqida fikrlar bayon etilgan, shuningdek raqamli texnologiyalar intellektual kompetensiyalarni rivojlantirishdagi roli yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *intellektual kompetensiya, Blum taksonomiya, rivojlantirish, raqamli texnologiya, o‘qituvchi*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются сущность, методы развития и практические рекомендации по формированию интеллектуальных компетенций учащихся. Представлены идеи о развитии критического и творческого мышления и навыков решения проблем, а также роль цифровых технологий в развитии интеллектуальных компетенций.*

Ключевые слова: *интеллектуальная компетенция, таксономия Блума, развитие, цифровые технологии, учитель*

Abstract: *This article examines the essence, development methods and practical recommendations of students' intellectual competencies. It presents ideas on the development of critical and creative thinking and problem-solving skills, as well as the role of digital technologies in the development of intellectual competencies.*

Keywords: *intellectual competence, Bloom's taxonomy, development, digital technology, teacher*

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimida talabalarning intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Globallashuv va texnologik

taraqqiyot tez sur’atlar bilan davom etayotgan bir davrda talabalarning fikrlash qobiliyati, muammolarni hal qilish ko‘nikmalari va ijodiy yondashuvi ularning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Intellektual kompetensiyalar faqat bilim olish bilan cheklanmaydi, balki talabaning mustaqil fikrlashi, tahlil qilishi, sintezlash va baholash kabi yuqori darajadagi kognitiv jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Kompetensiya tushunchasi ta’lim sohasida keng tarqalgan bo‘lib, u shaxsning muayyan faoliyatni samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning yig‘indisi sifatida tavsiflanadi. Intellektual kompetensiyalar esa aynan aqliy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi. Bu kompetensiyalar talabaning ma‘lumotlarni idrok etishi, tahlil qilishi, baholashi va amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini belgilaydi.

Xalqaro ta‘lim tadqiqotlarida intellektual kompetensiyalar bir nechta asosiy komponentlarga ajratiladi. Birinchisi, tanqidiy fikrlash qobiliyatidir - bu talabaning ma’lumotlarni shubha ostiga qo‘yishi, turli nuqtai nazarlarni tahlil qilishi va mustaqil xulosa chiqarishi imkonini beradi. Ikkinchisi, ijodiy fikrlashdir - bu yangi g‘oyalarni yaratish, an’anaviy yondashuvlardan chetga chiqish va noaniq vaziyatlarda ishlar topish qobiliyatidir. Uchinchisi, muammolarni hal qilish ko‘nikmasidir - bu murakkab vaziyatlarni tushunish, zarur strategiyalarni ishlab chiqish va samarali yechimlar topish qobiliyatidir.

Zamonaviy ta’lim konsepsiyalarida intellektual kompetensiyalar Blum taksonomiyasi asosida tizimlashtiriladi. Bu taksonomiyaga ko‘ra, aqliy jarayonlar o‘sib boruvchi murakkablik darajalarida joylashgan: eslash, tushunish, qo‘llash, tahlil, baholash va yaratish.



1-rasm. Blum taksonomiyasi

Blum taksonomiyasi (Bloom's Taxonomy) - bu ta'lim maqsadlarini tasniflashning mashhur tizimi bo'lib, 1956-yilda amerikalik pedagog va psixolog **Benjamin Bloom** boshchiligida olimlar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan. U o'quv jarayonida talabalar nimani va qanday darajada o'rganishi kerakligini aniq belgilashga yordam beradi.

Taksonomiya asosan *kognitiv soha* (bilish jarayoni) ga qaratilgan bo'lib, o'quv maqsadlarini pastdan yuqoriga qarab murakkablik darajasiga ko'ra piramida shaklida joylashtiradi. Bu piramida shuni ko'rsatadiki, ta'lim faqat faktlarni yodlash bilan cheklanmasligi kerak. Yuqori darajalar (eslash, tushunish, qo'llash, tahlil, baholash va yaratish) talabalarda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodkorlikni rivojlantiradi.

Ta'lim jarayonida maqsad - talabalarni past darajadagi kognitiv jarayonlardan yuqori darajadagi fikrlash faoliyatiga olib chiqishdir. Bu esa faqat bilim olish bilan cheklanmaydi, balki talabaning o'zi bilim yaratishi, uni turli kontekstlarda qo'llashi va yangi ma'lumotlar asosida xulosa chiqarishini talab qiladi.

Zamonaviy jamiyatda intellektual kompetensiyalarning ahamiyati ortib bormoqda. Texnologiyalarning tez rivojlanishi, mehnat bozoridagi o‘zgarishlar va global muammolarning murakkablashuvi talabalardan yangi ko‘nikmalarni talab qiladi. O‘tmishda asosan aniq bilimlarga ega bo‘lish muhim hisoblangan bo‘lsa, hozirgi kunda bu bilimlarni qo‘llash, yangi vaziyatlarga moslashtirish va doimiy o‘rganish qobiliyati ustunlik qilmoqda.

Intellektual kompetensiyalar rivojlangan talaba bir nechta muhim afzalliklarga ega bo‘ladi. U o‘z-o‘zidan o‘rganishga qodir bo‘ladi, ya’ni ta’lim muassasasini bitirgandan so‘ng ham mustaqil ravishda yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, u turli sohalardagi murakkab muammolarni hal qila oladi, chunki uning fikrlash qobiliyati bir yo‘nalishda emas, balki ko‘p qirrali rivojlangan. Shuningdek, ijodiy fikrlash qobiliyati unga yangi g‘oyalarni yaratish, innovatsion yechimlar topish va o‘z sohasida liderlik qilish imkonini beradi.

Jahon iqtisodiyoti forumi va boshqa xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, kelajakda eng talabgor kasblar aynan yuqori intellektual kompetensiyalarni talab qiladi. Sun’iy intellekt va avtomatlashtirish ko‘proq aniq va takroriy ishlamalarni o‘z zimmasiga olayotgan bir davrda, insonlardan ijodiy fikrlash, murakkab muammolarni hal qilish va emotsional intellekt kabi ko'nikmalar talab qilinmoqda. Shu sababli, ta’lim tizimi allaqachon bugundan boshlab bu kompetensiyalarni rivojlantirishga e’tibor qaratishi lozim.

Intellektual kompetensiyalarni rivojlantirishning bir nechta usullari mavjud bo‘lib, jumladan:

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. Tanqidiy fikrlash intellektual kompetensiyalarning asosiy komponentlaridan biri bo‘lib, talabaning ma’lumotlarni shubha ostiga qo‘yishi, mantiqiy fikrlashi va mustaqil xulosa chiqarishi imkonini beradi. Bu ko‘nikmani rivojlantirish uchun bir qator samarali usullar mavjud.

Socratic uslubi - bu eng samarali usullardan biri bo‘lib, unda o‘qituvchi savollar orqali talabalarni mustaqil fikrlashga undaydi. O‘qituvchi tayyor javoblar

bermasdan, balki to‘g‘ri savollar berish orqali talabaning o‘z xulosalariga kelishini rag‘batlantiradi. Masalan, o‘qituvchi “Nima uchun siz buni shunday deb o‘ylaysiz?” yoki “Bu xulosaga kelish uchun qanday dalillar kerak?” kabi savollar berishi mumkin. Bu uslub talabalarni chuqur o‘ylashga, dalillarni tahlil qilishga va o‘z nuqtai nazarlarini asoslashga undaydi.

Munozara va bahslar ham tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning samarali vositasidir. Talabalar turli mavzular bo‘yicha fikrlarini himoya qilish, qarshi dalillarni tinglash va o‘z pozitsiyalarini moslashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu jarayon ularga turli nuqtai nazarlarni tushunish, mantiqiy argumentatsiyani rivojlantirish va o‘z fikrlarini aniq ifodalashni o‘rgatadi. Munozaralar shunchaki g‘olibni aniqlash uchun emas, balki fikrlashni rivojlantirish vositasi sifatida tashkil etilishi lozim.

Venn diagrammasi, T-chart va boshqa vizual vositalar ham tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu vositalar talabalarga ma’lumotlarni tashkil etish, taqqoslash va tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, Venn diagrammasi yordamida talabalar ikki tushuncha, hodisa yoki g‘oyaning o‘xshashlik va farqlarini ko‘rishlari mumkin. Bu esa ularning tahliliy fikrlashini rivojlantiradi va murakkab tushunchalarni tushunishni osonlashtiradi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirish. Ijodiy fikrlash - bu yangi g‘oyalarni yaratish, an’anaviy yondashuvlardan chetga chiqish va noaniq vaziyatlarda ishlar topish qobiliyatidir. Bu kompetensiya ayniqsa innovatsion jamiyatda muhim ahamiyat kasb etadi va uni rivojlantirish maxsus yondashuv talab qiladi.

Beynstorming (miya hujumi) uslubi ijodiy fikrlashni rivojlantirishning eng keng tarqalgan usullaridan biridir. Bu usulda talabalar guruh bo‘lib muayyan muammoga yechim izlaydilar va barcha g‘oyalar, hatto g‘ala-g‘ovur bo‘lsa ham, yozib olinadi. Muhimi - bu jarayonda hech kim tanqid qilinmaydi, hamma fikrlar qabul qilinadi. Keyinroq g‘oyalar tahlil qilinadi va eng samaralari tanlab olinadi. Bu

uslub talabalarni erkin fikrlashga, xavfsizlikdan voz kechishga va guruhda ijodiy hamkorlik qilishga undaydi.

Lateral fikrlash uslubi ham ijodiy fikrlashni rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Bu usulda an'anaviy yo'ldan tashqari yo'llar bilan o'ylash rag'batlantiriladi. Masalan, muammoni teskari tomondan ko'rish, boshqa sohalardagi yechimlarni qo'llash yoki cheklovlarni foydali deb hisoblash kabi yondashuvlar o'rgatiladi. Talabalar bu uslublarni o'rgangandan so'ng, har qanday muammoga yangi ko'z bilan qarashga qodir bo'ladi.

Loyihalarga asoslangan ta'lim ijodiy fikrlashni rivojlantirishning yana bir samarali usulidir. Bu usulda talabalar real muammolar yechimiga qaratilgan loyihalar ustida ishlaydilar. Ular o'zlari g'oyalar yaratish, rejalashtirish, ijro etish va natijalarni baholash jarayonidan o'tadilar. Bu jarayon ularga ijodiy qobiliyatlarini amalda qo'llash, xatolardan o'rganish va doimiy takomillashtirish imkonini beradi.

Muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish. Muammolarni hal qilish - bu murakkab vaziyatlarni tushunish, zarur strategiyalarni ishlab chiqish va samarali yechimlar topish qobiliyatidir. Bu ko'nikma nafaqat ta'limda, balki hayotning barcha sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Muammoga asoslangan o'rganish (Problem-Based Learning) uslubi muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishning eng samarali usullaridan biridir. Bu usulda ta'lim real muammolar atrofida quriladi. Talabalarga murakkab, ochiq muammolar beriladi va ular guruh bo'lib uning yechimini izlaydilar. Bu jarayonda talabalar ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, gipotezalar ishlab chiqish, yechimlarni sinovdan o'tkazish va xulosa chiqarish kabi ko'nikmalarni egallaydilar. Algoritmik fikrlash ham muammolarni hal qilishning muhim komponentidir. Bu yondashuvda muammoni kichik, boshqariladigan qismlarga ajratish, ular o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlash va ketma-ket yechimlar ishlab chiqish o'rgatiladi. Bu ko'nikma ayniqsa matematika va informatika fanlarida muhim bo'lsada, u hayotning

barcha sohalarida qo‘llaniladi. Talabalar algoritmik fikrlashni o‘rgangandan so‘ng, murakkab muammolarni ham mayda qismlarga ajratib hal qila oladilar.

Masalan, interaktiv fizika simulyatsiyalari talabalarga real hayotda qilish qiyin bo‘lgan eksperimentlarni virtual tarzda o‘tkazish imkonini beradi. Ular turli parametrlarni o‘zgartirib, natijalarni kuzatib, g‘oyalarini sinab ko‘rishi mumkin. Bu jarayon ularning eksperimental fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, simulyatsiyalar talabalarga “o‘rganish uchun xavfsiz muhit” yaratadi - ular xato qilishdan qo‘rqmasdan turib turli yondashuvlarni sinab ko‘rishi mumkin.

Sun’iy intellektga asoslangan o‘quv tizimlari ham intellektual kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu tizimlar talabaning bilim darajasini baholab, individual tarzda mos vazifalar taklif qilishi mumkin. Ular talabaning fikrlash jarayonini kuzatib, yo‘qolgan bilim yoki ko‘nikmalarni aniqlab, ularni to‘ldirishga yordam beradi. Bu individual yondashuv har bir talabaning intellektual rivojlanishini optimallashtiradi.

Raqamli savodxonlik zamonaviy intellektual kompetensiyalarning muhim komponentiga aylangan. Raqamli dunyoda samarali faoliyat yuritish uchun talabalar ma’lumotlarni topish, tahlil qilish, baholash va ijodiy foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari kerak. Bu ko‘nikmalar an’anaviy intellektual kompetensiyalarni raqamli kontekstga moslashtirishni talab qiladi.

Axborotni baholash ko‘nikmasi raqamli muhitda ayniqsa muhim. Internetda aksariyat axborot notekshirilgan, bir tomonlama yoki noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin. Talabalar manbalarni tekshirish, bir nechta nuqtai nazarlarni solishtirish va axborotning ishonchliligini baholashni o‘rganishlari kerak. Bu ko‘nikma ularning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi va ularni manipulyatsiyadan himoya qiladi.

Raqamli ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilish ko‘nikmasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar raqamli platformalarda fikrlarini aniq va ijobiy ifodalash, turli nuqtai nazarlarni hurmat qilish va konstruktiv munozara yuritishni

o‘rganishlari kerak. Bu ko‘nikmalar ularning kommunikativ va ijtimoiy intellektual kompetensiyalarini rivojlantiradi.

XULOSA

Talabalarning intellektual kompetensiyalarini rivojlantirishning ahamiyati ko‘p qirrali va chuqur mazmunga ega. Bu ahamiyat shaxsiy rivojlanish, iqtisodiy taraqqiyot, jamiyat taraqqiyoti va global kontekstda namoyon bo‘ladi. Intellektual kompetensiyalar yuqori darajada rivojlangan shaxslar hayotning turli sohalarida muvaffaqiyatli bo‘ladi, ular doimiy o‘rganish va o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatiga ega bo‘ladi, murakkab muammolarni hal qila oladi va ijodiy yechimlar topa oladi. Bu esa nafaqat individual muvaffaqiyat, balki jamiyat va mamlakatning umumiy taraqqiyotiga hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va Pedagogik mahorat. - T.: 2003.- 174 b.
2. Ishmuhamedov R, Abduqodirov A, Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. - T.: “Iste’dod”, 2008. – 180 b.
3. Yo‘ldoshev Q. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
4. Yo‘ldoshev J.F., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: Qo‘llanma. -T.: “O‘qituvchi”, 2004. 104 6.

TA’LIM-TARBIYADA TRIZ TEXNOLOGIYASI ASOSIDA KREATIV VA MUHANDISLIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

Nabiyeva Nigora Nodirjon qizi,
FarDU mustaqil tadqiqotchisi
nabiyevan26@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-1414-5054

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta’lim va tarbiya jarayonida TRIZ texnologiyasi asosida o‘quvchilarning kreativ va muhandislik tafakkurini rivojlantirish konsepsiyasi yoritilgan. Tadqiqot davomida TRIZ metodologiyasining asosiy tamoyillari pedagogik jarayonga moslashtirildi hamda muammoli va loyihaviy ta’lim yondashuvlari bilan integratsiya qilindi. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, bu texnologiya o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish va innovatsion yechimlar ishlab chiqish ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Shuningdek, muhandislik tafakkurining asosiy komponentlari tizimli yondashuv, modellashtirish va optimallashtirish qobiliyatlarini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Maqolada TRIZ texnologiyasini ta’lim tizimiga samarali joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ham taqdim etilgan.*

Kalit so‘zlar: *TRIZ texnologiyasi, kreativ fikrlash, muhandislik tafakkuri, innovatsion ta’lim, muammoli o‘qitish, loyihaviy yondashuv, ijodiy tafakkur, pedagogik texnologiyalar, ta’lim samaradorligi, tizimli tafakkur.*

Abstract: *This article explores a concept for developing students’ creative and engineering thinking based on TRIZ technology in the educational process. During the study, the main principles of TRIZ methodology were adapted to the pedagogical process and integrated with problem-based and project-based learning approaches. The results of the study show that this technology significantly enhances students’ independent thinking, problem analysis, and ability to generate innovative solutions. In addition, its positive impact on the formation of key components of engineering thinking systemic approach, modeling, and optimization skills was identified. The*

article also provides practical recommendations for the effective implementation of TRIZ technology in the education system.

Keywords: *TRIZ technology, creative thinking, engineering thinking, innovative education, problem-based learning, project-based approach, creative thinking, pedagogical technologies, educational effectiveness, systems thinking.*

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri o‘quvchilarda ijodiy, innovatsion va muhandislik tafakkurini shakllantirishdan iborat. An’anaviy ta’lim usullari ko‘pincha reproduktiv bilimlarni uzatishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini yetarlicha rivojlantirishni ta’minlamaydi. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim jarayoniga Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi (TRIZ) texnologiyasini integratsiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada TRIZ asosida ijodiy va muhandislik tafakkurini rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilgan.

ASOSIY QISM

TRIZ texnologiyasining asosiy tarkibiy qismlari ziddiyatlarni aniqlash, ideal yakuniy natija (IYN), resurslardan foydalanish va standart yechimlar ta’lim jarayoniga moslashtirildi. Shuningdek, muhandislik tafakkurini rivojlantirish uchun loyihaviy va muammoli ta’lim usullari ham integratsiya qilindi. Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

1) TRIZ asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning muammoli vaziyatlarga bo‘lgan qiziqishini oshirdi;

2) o‘quvchilarning kreativ fikrlash darajasi sezilarli darajada rivojlandi;

3) o‘quvchilar murakkab muammolarni tahlil qilishni va ularning bir nechta yechim variantlarini ishlab chiqishni o‘rgandilar;

4) muhandislik tafakkurining unsurlari (tizimli fikrlash, model yaratish, optimallashtirish) shakllantirildi.

Tajriba guruhlaridagi o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘rsatkichlari nazorat guruhidagiga nisbatan yuqori bo‘ldi. Natijalar TRIZ texnologiyasi ta’lim sohasida samarali vosita ekanligini tasdiqlaydi. Bunday yondashuv o‘quvchilarda nafaqat bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. Xususan, TRIZ real hayotdagi texnik va ijtimoiy muammolarni hal etishga yo‘naltirilgani bois muhandislik tafakkurini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Shu bilan birga, TRIZni ta’limga joriy etishda o‘qituvchilarning malakasini oshirish, uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish va o‘quv dasturlarini moslashtirish talab etiladi.

XULOSA

TRIZ texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan konsepsiya o‘quvchilarda kreativ va muhandislik tafakkurini rivojlantirishning samarali vositasidir. Ushbu yondashuvni ta’lim tizimiga keng joriy etish innovatsion fikrlaydigan va muammolarni mustaqil hal qila oladigan kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi. Kelajakda bu yo‘nalishda yanada kengroq empirik tadqiqotlar o‘tkazish va TRIZ asosida raqamli ta’lim resurslarini yaratish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Altshuller, G. S. (1986). Найти идею: Введение в теорию решения изобретательских задач (ТРИЗ). – М.: Советское радио, 1986. – 240 с.

2. Abdullaev, D., & Islomov, F. (2019). TRIZ texnologiyasi va uning o‘quvchilarning kreativ tafakkuriga ta’siri. Innovatsion ta’lim va ilmiy tadqiqotlar, 4(12), 59–65.

3. Axmedova, M. Z. (2021). Ta’limda innovatsion texnologiyalar: nazariya va amaliyot. -Toshkent: TDPU nashriyoti.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ПОРТФОЛИО ПРИ ОЦЕНИВАНИИ ПРАКТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

Сулайманов Зулкайнар Раджабали угли

Джизакский филиал Национального университета Узбекистана

ассистент кафедры прикладной математики

zulqaynar92@gmail.com

***Annotatsiya**: Mazkur maqolada talabalarning amaliy faoliyatini baholashda raqamli portfoliolardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarning amaliy topshiriqlari, loyihalari, mustaqil ishlari va refleksiv faoliyatini an'anaviy baholash vositalari orqali to'liq yoritish qiyinlashib bormoqda. Shu bois raqamli portfolio talabaning individual rivojlanish trayektoriyasini, amaliy faoliyatdagi natijalarini va o'sish dinamikasini aks ettiruvchi samarali vosita sifatida qaraladi. Tadqiqotda raqamli portfolioning didaktik imkoniyatlari, uning tarkibiy qismlari, amaliy faoliyatni baholashdagi o'rni, baholash mezonlari va joriy etish bosqichlari yoritilgan. Natijada raqamli portfoliolardan foydalanish talabalarning mustaqil ishlashi, refleksiyasi, ijodiy yondashuvi va kasbiy kompetensiyalarini baholashda muhim pedagogik vosita ekanligi asoslangan.*

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va global raqobatning kuchayishi oliy ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Endilikda universitetlar faqatgina nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, talaba-yoshlarning innovatsion tafakkuri, kreativ fikrlashi va amaliy ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishi zarur bo‘lib qolmoqda. Chunki zamonaviy mehnat bozori tashabbuskor, yangicha fikrlaydigan va muammolarga innovatsion yechim topa oladigan mutaxassislarni talab etmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, an’anaviy auditoriya va kutubxona muhitlari har doim ham talabalarning erkin fikr almashishi, jamoaviy ishlashi hamda yangi loyihalar ustida samarali faoliyat olib borishi uchun yetarli imkoniyat yaratib bera olmaydi. Natijada oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy va moslashuvchan ta’lim muhitiga ehtiyoj ortib bormoqda. Aynan shu ehtiyoj asosida universitetlarda kovorking zonalarini tashkil etish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

Kovorking muhiti talabalarga nafaqat qulay ish maydoni, balki o‘zaro hamkorlik qilish, kreativ g‘oyalarni shakllantirish, startap loyihalar ustida ishlash va innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniyatini ham beradi. Shu sababli bugungi kunda kovorking markazlari yoshlarning intellektual va innovatsion salohiyatini rivojlantiruvchi muhim ta’lim maydoni sifatida e’tirof etilmoqda.

ASOSIY QISIM

Xo‘sh, kovorking o‘zi nima va universitet muhitida qanday vazifani bajaradi? “Umumiy ma’noda kovorking (inglizcha “coworking” – hamkorlikda ishlash) bu turli yo‘nalishdagi shaxslarning yagona ish maydonida birlashishi va o‘zaro tajriba

almashish jarayonidir”[32]. Universitet kontekstida esa kovorking shunchaki talabalar uchun dars qilish joyi emas, balki g‘oyalar “inkubatori” vazifasini o‘taydi Bu yerda talabalar nafaqat qulay ish o‘rni bilan ta’minlanadi, balki eng muhimi networking (aloqalar tarmog‘i) muhitida bo‘ladi. Ya’ni bir joyning o‘zida turli fakultet talabalari uchrashib, bir-birlarining loyihalarini innovatsion g‘oyalar bilan boyitishadi. Bu esa o‘z navbatida universitetdagi umumiy innovatsion ekotizimning shakllanishiga xizmat qiladi.

Kovorking muhiti talabalarning innovatsion salohiyati va tafakkurini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. An’anaviy auditoriyalar ko‘pincha nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lib, ular talabalarning o‘zaro kreativ hamkorligi uchun to‘liq imkoniyat bera olmaydi. “Kovorking markazlari esa “networking” tamoyili asosida faoliyat yuritib, turli yo‘nalishdagi, masalan texnik va gumanitar soha talabalari o‘rtasida hamkorlik muhitini shakllantiradi”[33].

Bunday muhitda talabalar o‘z g‘oyalarini erkin muhokama qilish, tajriba almashish va jamoaviy ishlash (teamwork) ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aynan norasmiy muloqot va brainstorming jarayonlarida yangicha va kutilmagan innovatsion yechimlar paydo bo‘ladi. Shu sababli kovorking muhiti nafaqat oddiy ish maydoni, balki talabalarning shaxsiy rivojlanishi, tadbirkorlik qobiliyati va innovatsion fikrlashini qo‘llab-quvvatlovchi ta’limiy ekotizim sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

“Bundan tashqari, kovorking muhiti talabalarda “soft skills”, ya’ni muloqotga kirishuvchanlik, liderlik, vaqtni boshqarish (time management) va jamoaviy mas’uliyat kabi zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantiradi”[34]. Binobarin, universitetdagi kovorking zonalari nafaqat texnik baza yoki qulay ish hududi, balki

[32] Merkel J. Coworking in the city // *Ephemera*. — 2015. — Vol. 15(1). — P. 121–139.
[33] Robles M. Executive perceptions of the top 10 soft skills needed in today’s workplace // Business Communication Quarterly. — 2012. — Vol. 75(4). — P. 453–465.
[34] Merkel J. Coworking in the city // Ephemera. — 2023. — Vol. 15(1). — P. 121–139.

o‘zaro g‘oyalar almashiladigan, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash imkonini beradigan innovatsion makon sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan shunday muhitda talabalar o‘z bilimlarini real loyihalar orqali sinab ko‘rish, startap tashabbuslarini rivojlantirish va nazariyani hayotiy amaliyotga transformatsiya qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va yoshlarning innovatsion faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasida so‘nggi yillarda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, yoshlarning ilmiy-ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ularni zamonaviy texnologiyalar va innovatsion faoliyatga jalb etish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. “Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-maydagi 313-sonli “Respublika hududlarida yoshlar texnoparklarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinib, respublikaning 13 ta hududida Yoshlar texnoparklari tashkil etildi”[35]. Mazkur texnoparklar yoshlarning innovatsion g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash, ularni ilm-fan va texnologiya sohasiga keng jalb etish hamda zamonaviy kasblar bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda ushbu texnoparklarda Web-dasturlash, robototexnika, 3D modellashtirish, grafik dizayn va sun’iy intellekt kabi zamonaviy yo‘nalishlarda o‘quv kurslari faoliyat yuritmoqda . Shu bilan birga, 2023-yildan boshlab “InnoX” biznes-inkubator dasturining yo‘lga qo‘yilishi yoshlarning startap tashabbuslarini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. “Hozirda yoshlar texnoparklari rezidentlari tomonidan ishlab chiqilgan loyihalar “Kelajak muhandislari” xalqaro festivali, “Green Spark” va boshqa innovatsion tanlovlarda munosib e’tirof etilmoqda”[36]. Bu kabi texnopark va kovorking muhitlari yoshlarning oddiy

[35] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublika hududlarida yoshlar texnoparklarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 313-son qarori. — Toshkent, 2020.
[36] The role of universities in the development of technological entrepreneurship and innovation Sibel Ahmedova. E3S Web of Conferences 420, 10002 (2023) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202342010002 EBWFF 2023

g‘oyalarini amaliy loyiha va biznes modelga aylantirishda muhim platforma vazifasini bajarmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, universitetlarda kovorking zonalarini rivojlantirish masalasi nafaqat mahalliy, balki xalqaro tajriba asosida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy universitetlar innovatsion ekotizimning markaziy bo‘g‘iniga aylangan. Xususan, “AQSHning Stanford University va Massachusetts Institute of Technology kabi yetakchi oliy ta’lim muassasalari tajribasi universitet kovorking zonalari nafaqat oddiy o‘quv maydoni, balki startaplar va innovatsion loyihalar shakllanadigan “innovatsion markaz” ekanligini ko‘rsatadi”[37].

Masalan, Stanford d.school markazida talabalar turli fakultetlardan birlashib, real hayot va bozor muammolariga innovatsion yechimlar ishlab chiqadilar. Bu yerda professor-o‘qituvchilar va talabalar birgalikda loyiha ustida ishlashi natijasida erkin akademik va kreativ muhit shakllanadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, Silikon vodiysidagi ko‘plab muvaffaqiyatli startaplar aynan universitetlarning mana shunday kovorking va innovatsion muhitida shakllangan. Bunday tajribalar nafaqat AQSHda, balki Yaponiya, Germaniya, Janubiy Koreya va boshqa rivojlangan davlatlar universitetlarida ham keng qo‘llanilib, innovatsion iqtisodiyot rivojining muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda.

Shu sababli O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida ham kovorking zonalari va innovatsion markazlarni rivojlantirish, talabalar o‘rtasida kreativ fikrlash, startap madaniyati va jamoaviy innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bugungi raqamli va innovatsion rivojlanish davrida universitetlarda kovorking muhitini shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining

[37] Plattner H., Meinel C., Leifer L. Design Thinking Research. — Berlin: Springer, 2021.

muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Kovorking zonalari oddiy ish maydoni yoki zamonaviy dizayn namunasi emas, balki talaba-yoshlarning innovatsion tafakkurini rivojlantirish, ularning intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish va amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim ta’limiy platformadir. Ayniqsa, bunday muhit talabalarda mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv, jamoada ishlash va muammolarga innovatsion yechim topish ko‘nikmalarini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Maqolada ko‘rib chiqilgan xorijiy tajribalar ham shuni ko‘rsatadiki, universitetlardagi kovorking markazlari innovatsion ekotizimning ajralmas qismi bo‘lib, ular startap loyihalar va yangi g‘oyalar shakllanishi uchun qulay muhit yaratadi. O‘zbekistonda ham yoshlar texnoparklari, biznes-inkubatorlar va innovatsion markazlar faoliyatining rivojlanib borayotgani yoshlarning ilmiy va tadbirkorlik faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini oshirmoqda. Shu sababli universitetlarda kovorking zonalarini yanada rivojlantirish va ularning faoliyatini takomillashtirish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Kelgusida universitet kovorking muhitini samarali tashkil etish uchun bir qator masalalarga alohida e’tibor qaratish lozim. Jumladan, kovorking markazlarida mentorlik tizimini yo‘lga qo‘yish orqali tajribali mutaxassislar, tadbirkorlar va IT sohasi vakillarini talaba-yoshlar bilan yaqindan ishlashga jalb qilish muhimdir. Bu esa talabalarning innovatsion g‘oyalarini amaliy loyihalarga aylantirish imkoniyatini kengaytiradi.

Shuningdek, kovorking zonalarining raqamli infratuzilmasini yanada takomillashtirish, ularni yuqori tezlikdagi internet, zamonaviy kompyuter texnologiyalari, robototexnika va media laboratoriyalari bilan jihozlash ham bugungi kun talablaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, startap-forumlar, innovatsion tanlovlar, biznes uchrashuvlari va networking tadbirlarini muntazam tashkil etish talabalarning o‘zaro hamkorligi va tajriba almashuvini kuchaytiradi.

Binobarin, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida kovorking modelini keng joriy etish va uni davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirish mamlakatning innovatsion taraqqiyotini jadallashtirishga xizmat qiladi. Eng muhimi, bunday muhit zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, xalqaro standartlar darajasida raqobatlasha oladigan kreativ va tashabbuskor yosh mutaxassislarni tayyorlash uchun mustahkam asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Merkel J. Coworking in the city // *Ephemera*. — 2015. — Vol. 15(1). — P. 121–139.

2. Robles M. Executive perceptions of the top 10 soft skills needed in today’s workplace // Business Communication Quarterly. — 2012. — Vol. 75(4). — P. 453–465.

3. Merkel J. Coworking in the city // Ephemera. — 2023. — Vol. 15(1). — P. 121–139.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublika hududlarida yoshlar texnoparklarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 313-son qarori. — Toshkent, 2020.

5. The role of universities in the development of technological entrepreneurship and innovation Sibel Ahmedova. E3S Web of Conferences 420, 10002 (2023) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202342010002 EBWFF 2023

6. Plattner H., Meinel C., Leifer L. Design Thinking Research. — Berlin: Springer, 2021.

HAYOTIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA FANLARARO INTEGRATSIYA. MEDIASAVODXONLIKNI ANIQ FANLARGA INTEGRATSIYALASH

Muminov Maxamadali Islamjanovich

Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi,

matematika fani metodisti

mmuminov7474@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablari matematika, informatika va axborot texnologiyalari darslarida o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, ya’ni turli vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarni mustaqil hal etish, to‘g‘ri qaror qabul qilish uchun axborot bilan ishlash, kommunikatsiya texnologiyalari va internet imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalalarida tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *matematika, ko‘nikma, axborot, texnologiya, internet.*

Аннотация: *В данной статье даны рекомендации по вопросам развития жизненных навыков учащихся на уроках математики и информатики общеобразовательных школ, самостоятельного решения задач возникающих в различных ситуациях, эффективного использования информационных, коммуникационных технологий и возможностей Интернета для принятия правильных решений.*

Ключевые слова: *математика, навыки, информация, технология, интернет.*

Annotation: *In this article, the development of life skills in students in mathematics and informatics classes of general secondary schools, that is, independent solving of problems that arise in different situations, working with information to make the right decision, communication technologies andrecommendations are given on the issues of effective use of Internet opportunities.*

Key words: *mathematics, skills, information, technology, internet.*

KIRISH

Ma’lumki, aholi o‘rtasida, jumladan, yosh avlod ongida dunyoda, yon-atrofimizda bo‘layotgan voqea-hodisalar, yangiliklar haqidagi fikrlarning shakllanishida ommaviy axborot vositalari katta rol o‘ynaydi. Shuning uchun ham bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimiga yana bir muhim vazifa – bolalarni turli manbalardan, birinchi navbatda, televizor, Internet va mobil telefon kabi axborot uzatuvchi vositalardan olinayotgan turli axborotlarni to‘g‘ri qabul qila olishga o‘rgatish vazifasi yuklatilmoqda. Farzandlarimiz har qanday axborotning sifati va ishonchliligini baholay olishlari, axborotlarni to‘g‘ri tanlay olishlari, foydalana bilishlari va har bir ma’lumotga tanqidiy yondashishni o‘rganishlari zarur. Shu bilan birga, Internet, televideniye, kino, radio, video, mobil telefon, turli ma’lumotlar aks etgan slayd va suratlar kabi aloqa va ma’lumot uzatuvchi vositalarning jadal rivojlanib borishi hayotimizni sifat jihatdan o‘zgartirib, ko‘plab yangi muammolarni, masalan, axborot madaniyatini shakllantirish hamda o‘sib kelayotgan avlodning axborot xavfsizligini ta’minlash muammolarini yuzaga keltirmoqda.

Axborot bilan ishlash, axborot qidirish, turli yolg‘on ma’lumotlarga aldanib qolmaslik, zarur axborotlarni ajrata bilish, qayta ishlash, tartibga keltirish, axborot mazmunini tushunish, do‘stlarga xolis manbalarni uzatish, mantiqiy fikrlay olishni o‘rganish kabilar asosida yoshlarimizning axborot madaniyati shakllanadi. Shu bilan birga tanqidiy fikrlash shakllana boradi. Bunda o‘quvchi doim “Nimaga?”, “Nima uchun?” kabi savollariga javob berish davomida millionlab axborotlar ichida lozim va ishonchlisini saralab olishni o‘rganadi. Axborotning kim uchun va nima maqsadda tayyorlanganligini tushuna bilish muhim ahamiyatga ega. Har bir o‘quvchi aloqa sohasida qanday texnik vositalar ishlatilishi to‘g‘risida umumiy tasavvurga ega bo‘lishi kerak.

Matematika, informatika va axborot texnologiyalari bo‘yicha davlat ta’lim standartlari kamdan-kam hollarda ommaviy axborot vositalari haqida gapirsa-da, tabiiyki, bu fan o‘qituvchilari o‘z sinflarida ommaviy axborot vositalaridan

foydalanadi va biz matematika va informatika haqidagi ko‘p ma’lumotni ommaviy axborot vositalaridan olamiz. Shuning uchun vizual va mediasavodxonlik tushunchasini aniq fanlarga ham kiritish mantiqan to‘g‘ri.

ASOSIY QISM

Matematika, informatika va axborot texnologiyalari kundalik ommaviy axborot vositalarining bir qismidir.

Masalan: smartfondagi ob-havo ma’lumoti bizga yomg‘ir yog‘ish ehtimoli 30% ekanini aytadi, gazeta fond bozori haqida habar beradi, televideniye bizga sport haqidagi statistikani beradi va hokazo. Har hafta, eng yaxshi 100 ta teleko‘rsatuv va shoularning reytinglari ulushlar asosida ko‘rsatilgan ro‘yxat berib boriladi.

O‘quvchilar reyting nimani anglatishini biladimi? Bu raqamlar qanday hosil qilinadi? Bu raqamlar qanday ishlatiladi? Raqamlar to‘g‘rimi? Mashina reklamasi ishlab chiqaruvchi “Eng yangi model o‘tgan yildagiga qaraganda 30 foizga ravon yurdi” kabi fikrlar beradi. Bular to‘g‘ri yoki chalg‘ituvchi bo‘lishi mumkin. Chunki ko‘p odamlar ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalaridan oladi (televideniye, radio, Internet). Shu sababli matematika, Informatika va axborot texnologiyalarida media savodxonligini shakllantirish muhim.

O‘quvchilarning tadbirkorlik-yetakchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishda aniq fanlarning o‘rni.

O‘quvchilar muvaffaqiyatli tadbirkor bo‘lishlari uchun ularning ongida tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish kun tartibida bo‘lish kerak. Quyida o‘quvchilarga tadbirkorlik ko‘nikmalarini o‘rgatish bo‘yicha bir necha maslahatlar beramiz.

Tadbirkorlik ko‘nikmalarini qanday qilib shakllantirish kerak?

1. Keysni o‘rganish usuli: O‘quvchilar o‘rtasida ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida biznes bilan bog‘liq turli holatlar, muammolarni muhokama qilish uchun o‘quvchilar bilan birgalikda amaliy tadqiqot usulini qo‘llash lozim.

2. Muvaffaqiyatlar hikoyasi: o‘quvchilarda tadbirkorlik ruhini tarbiyalash uchun turli olimlar, jamiyatdagi liderlar va tadbirkorlarning muvaffaqiyatlar tarixi bilan tanishtirish kerak. Bu o‘quvchilarni lider va tadbirkor bo‘lishga undaydi.

3. Fikrlarni ishlab chiqish tanlovi usuli: o‘quvchilardan bozorda mavjud bo‘lmagan yangi mahsulot yoki xizmatni ishga tushirish g‘oyasini o‘ylab topishini va uning hisob-kitobini amalga oshirishni so‘rab borish kerak.

4. Bankka sarmoya kiritish usuli: o‘quvchilarga foyda ko‘rish yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatuvchi, pulni ko‘paytirish bo‘yicha muammoli vaziyat tashkillashtiriladi. Tadbirkorlik va matematik kompetentsiyalarni birlashtirish yaxshi natijalarni beradi. Tadbirkorlik ko‘nikmalari matematikani o‘rgatishda juda muhim.

Tadbirkorlikka erishishga imkon beradigan asosiy fan – bu matematika.

Siz ulg‘ayganingizda kim bo‘lishni xohlayotganingiz haqida tasavvurga ega bo‘lishingiz mumkin. Balki, siz olim, kosmonavt, shifokor yoki dehqon bo‘lishni xohlaysiz. Yoki biznes egasi, dizayner, muhandis yoki uchuvchi bo‘lishni xohlaysiz. Bu ishlarning barchasini bajarish uchun matematikani o‘rganish kerakligini bilarmidingiz? Ko‘pgina ishlarda har kuni matematikadan foydalaniladi. Siz topgan pulingizni hisoblash va sarflash uchun matematikadan ham foydalanishingiz kerak bo‘ladi. Kundalik hayotda matematikadan qanday foydalanishni tushunish, qanday ish bilan shug‘ullanishingizdan qat’iy nazar, hayotda yaxshi ishlashingizga yordam beradi! Matematika nafaqat maktabda, balki bizning dunyoda ham bor. Matematika haqida o‘ylaganingizda, uy vazifasi kabi narsalar haqida o‘ylashingiz mumkin, lekin aslida, matematikani qiziqarli joylarda ham topish mumkin, masalan, ota-onangiz bilan biror narsa xarid qilayotganda.

O‘zbekistonda 130 xil millat va 5 xil elatlar istiqomat qiladi. Har bir shaxsga alohida individ sifatida qaralsa, har kimning o‘z tanlovi va hayoti, xohishlari, maqsadlari bor. Shulardan biri inson o‘zi xohlagan joyida yashashi va ko‘chish huquqi bo‘lib, bu har bir mamlakatning bosh qonunida mustahkamlangan shaxsiy

erkinligi hisoblanadi. Global fuqarolik dasturlari natijasida turli davlatlar, qit'alar bir-birlari bilan kadr almashishi, ta'lim, iqtisod, siyosat va boshqa sohalarda o'zaro integratsiyalash butun dunyoning teng rivojlanishiga olib keladi.

Sabablarni mushohada qilganda, mentalitetga xos xususiyatlarni e'tibordan qochirmaslik lozim. Shaxsiy hayotga, shaxsiy tanlovga doimiy ravishda atrofdagilarning aralashuvi normal qabul qilinadi va kritik nuqtaga yetib borguncha bosimga bardosh berish ko'plab katta yo'qotishlarga sabab bo'lib kelmoqda. Masalan, ko'pincha oilaviy zo'ravonlikka uchragan jabrlanuvchining hech qayerga murojaat qilmasligi, uchastka noziri ham boshqalarning oilaviy ishiga aralashmasligi haqidagi yozilmagan qoidalar, javobgarni jazolashga olib bormaydi, natijada muvozanat buziladi va jamiyatning ojiz qatlami – ayollar va bolalarning ruhiyati va sog'ligiga jiddiy putur yetadi.

XULOSA

Boshqarib bo'lmaydigan, kishi hayotiga xavf tug'diradigan darajaga yetkazadigan holatlar katta ijtimoiy muammoga aylanmasligi, uning ildizi ilk ko'rinishidanoq qirqilishi lozim. Buning uchun avvalo insonlar dunyoqarashini ilk maktab davridanoq yuqori darajada rivojlantirishga urg'u berilishi kerak.

O'zbekiston qonunchlik bilan yuqoridagi ijtimoiy muammolarga qarshi kurashib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-iyulda imzolangan "Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zo'rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida Adliya vazirligi oldiga "Maishiy zo'rlik ishlatishning oldini olish to'g'risida"gi Qonun loyihasini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi, ya'ni muammo davlat rahbari nazoratiga olindi.

O'zbekiston O'quv dasturlarini ishlab chiqishda o'quvchilarga inson huquqlari, gender tengligi, dunyo tinchligi va demokratiya kabi global muammolarni tushunishga yordam berishda global fuqarolik ta'limi muhim.

Global fuqarolik ta’limi ta’limni yaxshilashga yordam beradi, chunki u o‘quvchilarga global muammolarni hal qilishda mahalliy va global miqyosda faol rollarni bajarishga yordam beradi.

“Bizning yangi o‘quv dasturimizga kiritilishi kerak bo‘lgan narsa bu – inson huquqlari, demokratiya, etnik, irqiy munosabatlar, xavfsizlik, barqaror rivojlanish va gender tenglik masalalarini o‘z ichiga olgan fuqarolik ta’limi”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”.

2. Islom Karimov (2011). “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”.

3. M.D.Pardayeva va boshqalar (2020). “Maktabda o‘qitish va baholash metodologiyasi (metodist kitobi)”.

4. J.E.O‘sarov (2019). “Tayanch va fanga oid kompetensiyalar asosida ta’lim mazmunini takomillashtirish va o‘quvchilar kompetentligini rivojlantirish”.

5. Sh.I.Paxrutdinov (2017). “Globallashuv va axborot almashinuvi jadallashgan sharoitda mediata’limning ahamiyati”.

6. M.Pardayeva, X.Yusupov, N.Ruzikulova, A.Abdullajonov (2021). “Maktab o‘quvchilarida hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish”.

TALABA QIZLARNING ETNOPEDAGOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XALFACHILIK SAN'ATI INTEGRATSIYASI

Xabibullayeva Mavluda Adambayevna

Urganch davlat universiteti "Pedagogika va psixologiya"

kafedrasi tayanch doktaranti

mavluda.x@urdu.uz

Annotatsiya: *Maqolada raqamli ta'lim muhitida Xorazm xalfachilik san'ati vositasida talaba qizlarning etnopedagogik madaniyatini shakllantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda xalfachilik namunalarini raqamli vizualizatsiya qilish, multimedia platformalarini yaratish va dostonlar mazmunini interfaol keyslar orqali o'qitish bo'yicha metodik takliflar ilgari surilgan.*

Ushbu innovatsion yondashuvlar talaba qizlarning kognitiv va ijtimoiy motivatsiyasini oshirish bilan birga, ularning ma'naviy-axloqiy qiyofasini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tayanch so'zlar: *raqamli ta'lim, xalfachilik san'ati, etnopedagogik madaniyat, o'quv motivatsiyasi, innovatsion yondashuv, talaba qizlar, pedagogik taklif.*

Annotation: *The article examines the formation of the ethnopedagogical culture of female students through the Khorezm art of "khalfachilik" within a digital learning environment. It puts forward methodological proposals for integrating multimedia platforms, interactive cases, and digital visualization of folklore heritage into the educational process. These innovations are designed to enhance cognitive motivation and develop the spiritual and moral qualities of female students based on national values.*

Keywords: *digital education, khalfachilik art, ethnopedagogical culture, learning motivation, innovative approach, female students, pedagogical proposal.*

KIRISH

Bugungi shiddatli globallashuv va ta'limni raqamlashtirish davrida oliy ta'lim muassasalari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri — talaba yoshlarning milliy

o‘zligini asragan holda ularning intellektual va ma’naviy olamini boyitishdir. Ayniqsa, bo‘lajak ona va pedagog sifatida jamiyatning tayanchi bo‘lmish talaba qizlarning etnopedagogik madaniyatini shakllantirish alohida ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi. Raqamli muhitning texnokratik (texnologiyaning ustunligi natijasida insoniy va ma’naviy qadriyatlarning ikkinchi darajaga tushib qolishi) ta’sirini yumshatish va talabalarda milliy qadriyatlarga nisbatan emotsional bog‘liqlikni uyg‘otishda Xorazm xalfachilik san’ati o‘zining boy tarbiyaviy imkoniyatlari bilan muhim o‘rin tutadi.

ASOSIY QISM

Xalfachilik san’ati — o‘zbek xalq musiqa san’atining bir qismi bo‘lib, faqat Xorazm mahalliy uslubiga hos bo‘lgan janr hisoblanadi. Xalfachilik san’ati faqat musiqa yoki ijrochilik emas, balki asrlar davomida shakllangan yaxlit xalq pedagogikasi tizimidir.

Etnopedagogika fanining asoschisi, taniqli rus pedagog-olimi G.N.Volkov (1927–2010) o‘zining fundamental tadqiqotlarida Etnopedagogika sohasiga “xalqning o‘zini-o‘zi tarbiyalash tajribasidir”[38] deya ta’rif beradi.

Mazkur yondashuv asosida Xorazm xalfachilik san’atini tahlil qilar ekanmiz, xalfalar tomonidan ijro qilingan doston va qo‘shiqlar shunchaki badiiy meros emas, balki xalqning ma’naviy-axloqiy o‘zini-o‘zi qayta tiklash va yosh avlodni tarbiyalash mexanizmi ekanligi shu bilan birga namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, Xalfachilik san’ati faqat ayollar muhitida ijro etilishi bilan xotin-qizlar o‘rtasidagi o‘ziga xos ma’rifatparvarlik maktabi hisoblanib, kuchli etnopedagogik imkoniyatlarga egadir. Boisi, bunday “ichkari” davralarda milliy urf-odatlar, oilaviy qadriyatlar tizimi hamda sharqona qiz bolalar tarbiyasi dostonlar, qissalar, g‘azallar, qo‘shiqlar, termalar, laparlar hamda diniy mavzudagi suhbatlar vositasida tushunarli va hayotiy tarzda targ‘ib etiladi.

[38] Волков Г.Н. Этнопедагогика: Учебник. – М.: Академия, 1999. – С. 24.

Xalfachilik san’atining ijtimoiy-ma’rifiy ahamiyatini tahlil qilar ekanmiz, ushbu janr xalq orzu-armonlarini, xususan, xotin-qizlarning baxt va erkinlik yo‘lidagi intilishlarini jonli gavdalantirishi bilan ajralib turishini ko‘ramiz. Manbalarda ta’kidlanishicha, xalfa qo‘shiqlari “mehnatkash ommaning ozodlik va baxt uchun ko‘rashida madadkor bo‘lib, xalqning dardi, ayniqsa, ayollarning hayoti, nohaqlik va ularning manfaati kuylangan, g‘oyalarni jonli gavdalantirib, sodda, ravshan til bilan kuylarga solib badiiy shaklda tarannum qilgan”[39] muhim ma’naviy vositadir.

“Xorazmda savodxon, gapga chechan, ayni paytda xonandalik qobiliyatiga ega bo‘lgan zukko ayollarni “xalfa” deb yuritishadi”.[40] Ushbu ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, xalfalarning nafaqat qo‘shiqchi, balki o‘qimishli va keng dunyoqarashga ega ekanligi ularning jamiyatdagi pedagogik rolini belgilab beradi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida esa “Xalfa” atamasining leksik ma’nolari “o‘rinbosar”, “voris”, “muallim yordamchisi” bo‘lib,[41] uning mohiyatida ustozlik va ma’rifatparvarlik funksiyasi birlamchi ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa, o‘z navbatida, Xorazm xalfachilik san’atining negizida etnopedagogik determinizm (tarbiya bilan uzviy bog‘liqlik) mavjudligidan dalolat beradi.

Raqamli ta’lim muhitida xalfachilik san’atidan foydalanish talaba qizlarning o‘quv motivatsiyasini quyidagi muhim mexanizmlar orqali oshirishga xizmat qiladi:

Kognitiv motivatsiya: “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Hilola pari va G‘arib”, “Asil va Karam”, “Oshiq Alband” kabi dostonlardagi tarixiy-etnografik ma’lumotlarni raqamli resurslar orqali o‘rganish talabalarda milliy tarix va madaniy merosga nisbatan barqaror qiziqish uyg‘otadi.

[39] Baltaeva G.I. An’anaviy xalq qo’shiqchiligi. – Urganch, 2013. – B. 3.
[40] Рўзимбоев С. Хуршиди жахон келди. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б. 3.
[41] O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 5 jildli. 4-jild (P–T) / Tahrir hay’ati: T. Mirzayev va boshq. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – B. 389.

Estetik-psixologik motivatsiya: Audio-vizual formatdagi xalfalik ijrolari talaba qizlarning dars jarayonidagi emotsional charchoqlarini kamaytiradi va ularda estetik zavq olish tuyg‘usini rivojlantiradi.

Raqamli ta’lim muhitida o‘quv motivatsiyasini shakllantirish materiallarning hayotiyligi va didaktik jozibadorligiga bevosita bog‘liq bo‘lib, Xorazm xalfachilik san’atining etnopedagogik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, ta’lim amaliyotiga quyidagi innovatsion yondashuvlarni joriy etish tavsiya etiladi:

1. ***“Etno-kontent” va Raqamli xrestomatiya platformasi:*** Xorazm xalfalarining hayoti va ijodi, ular ijro qilgan doston va qo‘shiqlarning tarbiyaviy tahlili jamlangan multimedia ilovasini yaratish. Bunda vafodorlik, ibo-hayo va oilaviy etika bilan bir qatorda ma’naviy-axloqiy yo‘nalishlar bo‘yicha interaktiv keyslar hamda topshiriqlar tizimi ishlab chiqiladi.
2. ***Virtual xalfa maktabi (Moodle/Hemis):*** Masofaviy ta’lim platformalarida xalfachilik san’atining pedagogik xususiyatlariga bag‘ishlangan maxsus modullar yaratish. Bu yerda talabalar xalfa qo‘shiqlari va dostonlaridagi pedagogik g‘oyalarni bugungi kun ijtimoiy hayoti bilan qiyoslovchi tahlilchilar sifatida ishtirok etadilar.
3. ***Diagnostik yondashuv:*** Talaba qizlarning etnopedagogik madaniyati darajasini aniqlash uchun raqamli testlar va psixologik so‘rovnomalar tizimini joriy etish.

Natija. Xalfalar repertuaridagi qo‘shiqlar va dostonlar zamirida ayol kishining jamiyatdagi o‘rni hamda oiladagi muqaddas vazifasi uqtiriladi. Mazkur asarlar tarkibidagi pand-nasihatlar va yor-yorlar talaba qizlarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini boyitishda, dostonlar esa milliy qahramon ayol timsoli orqali ularda sadoqat va matonat kabi fazilatlarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu boy meros mazmunini raqamli vizualizatsiya texnologiyalari yordamida yetkazish, talabalarda oilaviy hayotga ijtimoiy-psixologik adaptatsiya hamda yangi ijtimoiy muhitga kirishishning etik normalarini shakllantirishda an’anaviy ma’ruzalardan ko‘ra yuqori samaradorlik ko‘rsatadi. Raqamli muhitdagi o‘quv

materiallarining hayotiyligi talabalarning ham o‘quv, ham hayotiy motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Pedagogik kuzatishlarimizga ko‘ra, bunday innovatsion metodlar qo‘llanilgan darslarda o‘zlashtirish ko‘rsatkichi an’anaviy darslarga nisbatan 15-20% ga yuqori bo‘lishi aniqlandi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Xorazm xalfachilik san’ati musiqa, she’riyat, raqs va xalq pedagogikasini o‘zida birlashtirgan sintetik xarakterga ega noyob madaniy merosdir. Raqamli ta’lim muhitida ushbu san’at namunalarini zamonaviy texnologiyalar vositasida uzatish talaba qizlarda milliy o‘zlikni anglash (kognitiv motivatsiya), estetik zavq olish (psixologik qoniqish) va kelajakdagi oilaviy hayotga ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik (ijtimoiy motivatsiya) kabi sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Raqamli ta’lim muhiti milliy merosimizni inkor etmaydi, aksincha, uni yangicha talqinda yoshlar dunyoqarashiga singdirish uchun keng texnik imkoniyatlar yaratadi. Xalfachilik san’ati vositasida talaba qizlarning etnopedagogik madaniyatini shakllantirish — bu ularning ma’naviy immunitetini mustahkamlash hamda globallashuv sharoitida milliy qadriyatlar barqarorligini ta’minlashning innovatsion yo‘lidir.

An’anaviy xalfachilik san’atini pedagogik innovatsiya sifatida ta’lim jarayoniga tatbiq etish talaba qizlarning etnopedagogik madaniyatini tizimli rivojlantirish bilan bir qatorda, oliy ta’limda ta’lim hamda tarbiya birligini izchillik bilan amalga oshirishda istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baltaeva, G. I. (2013). *An’anaviy xalq qo‘shiqchiligi*. Urganch.
2. Mirzayev, T., va boshq. (Tahr.). (2008). *O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 5 jildli. 4-jild (P–T)*. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti.
3. Рўзимбоев, С.Р. (1987). *Хуршиди жахон келди.* – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.

4. Волков, Г. Н. (1999). *Этнопедагогика: Учебник для студентов средних и высших педагогических учебных заведений.* – Москва: Издательский центр «Академия».

EKOLOGIK TARBIYADA GAMIFIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Shermatova Uljamol Shopulat qizi

uljamol2193@gmail.com

Tel +998996777690

Termiz davlat pedagogika instituti

‘‘Boshlang‘ich ta’lim ’’ kafedrasi o‘qituvchisi

Berdimurodova Lobar Mavlon qizi

Termiz dalat pedagogika instituti

Boshlang’ich ta’lim yo‘nalishi talabasi

Tel +998902476828

Annotatsiya: *Maqolada boshlang‘ich ta’lim bosqichida ekologik tarbiya jarayonida gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Gamifikatsiya, ya’ni o‘yin elementlarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish, o‘quvchilarda ekologik bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu metod o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish va faol ishtirokini rag‘batlantirish imkonini beradi. Ball tizimi, reyting, mukofotlash va interfaol topshiriqlar pedagogik strategiya sifatida tadqiq etiladi. Virtual va simulyatsion muhitdagi mashg‘ulotlar ekologik tafakkur va xulq-atvorni rivojlantirishga xizmat qiladi. Gamifikatsiya pedagogik jarayonni interfaol va qiziqarli qiladi. Metodik jihatdan u ekologik ongni mustahkamlashga yordam beradi. Shu bilan birga, o‘quvchilarda atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni shakllantiradi. Tadqiqot natijalari ushbu yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi. Natijada gamifikatsiya ekologik madaniyatni rivojlantirishda innovatsion va samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi.*

Kalit so’zlar: *Ekologik tarbiya, gamifikatsiya, pedagogik texnologiya, boshlang‘ich ta’lim, ekologik madaniyat, motivatsiya, interfaol ta’lim.* ***Abstract:*** *The article analyzes the pedagogical foundations of using gamification technologies in the process of ecological education at the primary school level. Gamification, that is, the integration of game elements into the*

educational process, is considered an effective tool for developing students' ecological knowledge and skills. This method enhances students' motivation, encourages active participation, and makes the learning process more interactive. Point systems, rankings, rewards, and interactive tasks are examined as pedagogical strategies. Lessons conducted in virtual and simulation environments contribute to the development of ecological thinking and environmentally responsible behavior. From a methodological perspective, gamification helps to strengthen ecological awareness and cultivate students' responsible attitudes toward the environment. Research results confirm the effectiveness of this approach in promoting ecological culture. Consequently, gamification emerges as an innovative and effective tool for developing ecological culture.

Key words: *Ecological education, gamification, pedagogical technologies, primary education, ecological culture, motivation, interactive learning.*

KIRISH

Hozirgi kunda global ekologik muammolar, atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi va iqlim o‘zgarishi inson faoliyatining ekologik ongga bo‘lgan talabini kuchaytirmoqda. Shu bois, yosh avlodni ekologik mas’uliyat ruhida tarbiyalash va atrof-muhitga ongli munosabatni shakllantirish maktab ta’limining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi ekologik madaniyatning asoslarini yaratish uchun muhim davrdir, chunki bolalikda shakllangan xulq-atvor va odatlar kelajakdagi ekologik ongni belgilaydi. Shu munosabat bilan pedagoglar o‘quv jarayonini qiziqarli, interfaol va samarali qilish orqali ekologik tarbiyani mustahkamlash yo‘llarini izlamoqdalar.

Gamifikatsiya texnologiyalari – o‘yin elementlarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish usuli – ekologik bilim, ko‘nikma va xulq-atvorni rivojlantirishda innovatsion yondashuv sifatida katta e’tibor qozonmoqda. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, faol ishtirokini rag‘batlantiradi va ta’lim jarayonini interfaol qiladi. Shu bilan birga, ball tizimi, reyting, mukofotlash mexanizmlari va interfaol topshiriqlar ekologik tarbiyaviy faoliyatni tizimli va samarali tashkil etishga yordam beradi.

Shu nuqtai nazardan, ekologik tarbiyada gamifikatsiya texnologiyalarini qo‘llash pedagogik jarayonni innovatsion tarzda takomillashtirish va o‘quvchilarda barqaror ekologik ongni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu maqola mazkur masalalarni chuqur tahlil qiladi va gamifikatsiya yondashuvining pedagogik samaradorligini asoslaydi. Hozirgi kunda global ekologik muammolar, jumladan iqlim o‘zgarishi, tabiatning ifloslanishi, suv va boshqa tabiiy resurslarning kamayishi, inson faoliyatining ekologik muvozanatga ta’siri yosh avlodni ekologik mas’uliyat ruhida tarbiyalash zaruratini kuchaytirmoqda. Shu bois, boshlang‘ich ta’lim bosqichi ekologik ong va xulq-atvorning shakllanishida muhim davr sifatida ajralib turadi. Bolalikda egallangan ekologik bilim va odatlar kelajakda atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni belgilaydi.

Boshlang‘ich sinflarda ekologik tarbiya faqat nazariy bilimlar berish bilan cheklanmasligi lozim; u o‘quvchilarning faol ishtirokini, interfaol o‘rganishni va kundalik hayotda ekologik ongni amalda qo‘llashni rag‘batlantirishi kerak. Shu nuqtai nazardan pedagoglar zamonaviy ta’lim texnologiyalarini, xususan gamifikatsiya texnologiyalarini qo‘llashga e’tibor qaratmoqdalar. Gamifikatsiya – bu o‘yin elementlarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish orqali bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish metodikasi bo‘lib, u o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, faolligini rag‘batlantirish va o‘rganishni qiziqarli qilish imkonini beradi.

Gamifikatsiya texnologiyalari ekologik tarbiyada bir nechta pedagogik afzalliklarni beradi. Ularga ball tizimi, reyting, mukofotlash, interfaol topshiriqlar va virtual mashg‘ulotlar kiradi. Ushbu elementlar o‘quvchilarda ekologik tafakkur va xulq-atvorni rivojlantirishga xizmat qiladi, ularni atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatli qilishga yordam beradi. Shuningdek, gamifikatsiya jarayoni ta’limni innovatsion va interfaol qiladi, pedagogik jarayonni qiziqarli va samarali qiladi.

Tajriba va ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi yuqori. Bu yondashuv o‘quvchilarda

ekologik ongni mustahkamlash, ekologik mas'uliyatni rivojlantirish va barqaror ekologik xulq-atvorni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, gamifikatsiya metodikasi pedagogga ta'lim jarayonini individuallashtirish va o'quvchilarning qiziqishi va imkoniyatlariga moslashtirish imkoniyatini beradi.

Pedagogik jarayonni takomillashtirish va o'quvchilarda barqaror ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim vosita sifatida qaraladi. Ushbu maqolada gamifikatsiya texnologiyalarining nazariy asoslari, metodik imkoniyatlari va pedagogik samaradorligi tahlil qilinadi, shuningdek, boshlang'ich ta'limda ekologik tarbiyani rivojlantirishda ularning amaliy qo'llanilishi ko'rsatib beriladi.

XULOSA

Maqolada boshlang'ich ta'lim bosqichida ekologik tarbiyada gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish pedagogik asoslari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, gamifikatsiya o'quvchilarda ekologik bilim, ko'nikma va mas'uliyatni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ball tizimi, reyting, mukofotlash va interfaol topshiriqlar pedagogik jarayonni interfaol va qiziqarli qiladi. Shu bilan birga, gamifikatsiya metodikasi ekologik ongni mustahkamlash va barqaror ekologik madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada, gamifikatsiya texnologiyalari boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyaviy faoliyatni samarali va innovatsion tarzda tashkil etishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Shermatova, U. (2024). Ecological Education In Primary Classes Formation Of Pedagogical Conditions Of Development. World Bulletin Of Social Sciences, 33, 49-53.

2.Shermatova, U. (2024). Ecological Education Teaching In Primary Class Methodology. Pedagogical Cluster-Journal Of Pedagogical Developments, 2(4), 97-105.

3. Uljamol Shermatova. (2023). Development Of Ecological Education In Primary Class. Open Access Repository, 9(10), 152–157.

4. Shermatova, U. (2020). The Light Of The Nights Without A Day. European Journal Of Research And Reflection In Educational Sciences Vol, 8(4).

5.Shermatova Uljamol. Improving Ecological Education Of Future
Teachers On The Basis Of Conceptual Principles International Journal Of Trend In Scientific Research And Development (Ijtsrd)
Volume 6 Issue 3, March-A

6.Norbo‘tayev X.B. Boshlang‘Ich Ta’limda Ekologik Xafvsizlik Madaniyatini Takomillashtirish. //Муаллим Ҳем Узлуксиз Билимлендириў. Илмий-Методикалық Журнал №2 Issn 2181-7138 Некис-2022. -Б. 93-97.

7. Shermatova, U. S. (2024). Boshlang ‘Ich Sinf O ‘Quvchilarida Ekologik Madaniyatni Rivojlantirish Xususiyatlari. *Inter Education & Global Study*, (10), 373-379.

8. Shermatova, U. S. (2024). Boshlang’ich Sinflarda Ekologik Ta’limni Rivojlantirish Metodikasi. *Inter Education & Global Study*, (4 (1)), 50-56.

9. Norbo‘tayev X.B. Boshlang‘ich sinflarda fanlararo ekologik tarbiya. //Zamonaviy ta’lim. - 2018. -11-son. - B. 53-58.

10. Norbo‘tayev X.B. Boshlang‘ich ta’limda ekologik xafvsizlik madaniyatini takomillashtirish. //Муаллим ҳем узлуксиз билимлендириў. Илмий-методикалық журнал №2 ISSN 2181-7138 Некис-2022. -Б. 93-97.

OILA VA MAKTAB O‘RTASIDAGI HAMKORLIK O‘SMIRLARNING RUHIY SALOMATLIGIGA QANDAY TA’SIR QILADI?

Yarashova Shaxinabonu Bobir qizi

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti

Pedagogika - Psixologiya va Inklyuziv ta’lim fakulteti

Amaliy psixologiya yo’nalishi 4- bosqich talabasi.

Annotatsiya: *Mazkur tadqiqotda oila va ta’lim muassasasining birgalikdagi faoliyati o‘spirin yoshdagi bolalarning psixologik holatiga qanday darajada ta’sir ko‘rsatishi o‘rganildi. Asosiy e’tibor o‘smirlarning ichki qoniqish hissi, tashvidlanish darajasi va atrofdagilar bilan munosabatlariga qaratildi. Ma’lumotlar so‘rovnoma va suhbat usuli yordamida yig‘ilib, statistik usullar bilan qayta ishlandi. Xulosa sifatida, ikki muhit – uy va maktab – o‘rtasida uzviy bog‘liqlik bo‘lsa, o‘smirning ruhiy farovonligi sezilarli darajada oshishi aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *ota-ona va maktab aloqasi, o‘smir psixikasi, hissiy barqarorlik, moslashuvchanlik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash.*

Аннотация: *В данном исследовании изучалось, как совместная деятельность семьи и школы влияет на психологическое состояние подростков. Основное внимание было уделено уровню внутреннего удовлетворения, тревожности и социальным отношениям подростков. Данные собирались с помощью анкетирования и интервью, обрабатывались статистическими методами. В результате установлено, что при тесной связи между семейной и школьной средой психологическое благополучие подростка значительно повышается.*

Ключевые слова: *взаимодействие родителей и школы, психика подростка, эмоциональная стабильность, адаптивность, социальная поддержка.*

Abstract*: This study examined how collaborative activities between families and schools influence the psychological state of adolescents. The main focus was on the level of inner satisfaction, anxiety, and social relationships of adolescents. Data were collected through questionnaires and interviews and processed using statistical methods. The results show that when*

there is a close connection between the family and school environment, the psychological well-being of adolescents significantly improves.

Keywords: *parent-school interaction, adolescent psyche, emotional stability, adaptability, social support.*

KIRISH

Inson hayotining o‘smirlik bosqichi ko‘plab o‘zgarishlarga boy davr hisoblanadi.[42] Bu vaqtda yosh insonning organizmida gormonal o‘zgarishlar boshlanadi, fikrlash tarzi murakkablashadi va jamoa ichidagi o‘rni qayta ko‘rib chiqiladi. Shunday bir paytda uning atrofidagi eng yaqin ikki tuzilma – oila va maktab – juda muhim vazifani bajaradi. Agar bu ikki tuzilma o‘zaro kelishuv va hamkorlikda harakat qilsa, o‘smirda xavfsizlik va ishonch hissi kuchayadi. Ba’zi oilalarda ota-onalar farzandining maktabdagi hayoti bilan deyarli qiziqmaydi. Boshqa tomondan, ayrim maktablarda esa o‘qituvchilar ota-onalar bilan faqat salbiy holatlar yuzaga kelganida bog‘lanadi. Bunday yondashuvlarning o‘smir psixikasiga salbiy ta’siri bor. Chunki o‘spirin o‘zini “hech kimga kerak emas” yoki “ikkala tomon orasida qolgan” deb his qilishi mumkin[2]. Shu bois, ushbu maqolada asosiy e’tibor quyidagi savollarga qaratilgan:

- Oila va maktabning muntazam aloqasi o‘smirlarning ruhiy o‘zgarishlariga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
- Hamkorlik kuchli bo‘lgan va bo‘lmagan oilalarning farzandlari orasida psixologik faravonlik bo‘yicha qanday farqlar bor?
- O‘zbekiston shaharlaridagi maktablar bu borada qanday ahvolda?

Tadqiqotlarning asosiy farazi shundan iborat: ota – onalar va maktab xodimlari o‘rtasida ijobiy va muntazam hamkorlik o‘rnatilsa, o‘smirlarda tashvish, umidsizlik va yolg‘izlik hissi kamayadi va o‘z qobiliyatlariga ishonch ortadi.

[42] Riff, C. D. (1989). Psychological well-being scales. Journal of Personality and Social Psychology, 57(6), 1069-1081.

METODLAR

Tadqiqot o‘tkazilgan joy va vaqt: Tadqiqotda Toshkent shahri va unga tumanlardagi to‘rtta umumiy o‘rta ta’lim maktabida amalga oshirildi.

Qatnashchilar: 300 nafar o‘smiri (14 – 17 yosh, o‘rtacha yoshi 15) ularning 255 nafari ota – onasi va 45 nafar o‘qituvchilar va psixologi ishtirok etdi. Tadqiqot 2026 – yil yanvar – mart oylarida o‘tkazildi.

Qo‘llanilgan metodikalar:

1. Anketa so‘rovi – o‘smirlar uchun “Psixologik farovonlik shkalasi” (Riff, 1989 moslashtirilgan versiyasi).
2. Tashvishlanish darajasini aniqlash – Spilberger-Xanin usuli.
3. Oila-maktab hamkorligini baholash – muallif tomonidan ishlab chiqilgan 10 savolli so‘rovnoma (masalan: “Ota-onangiz maktabdagi ishlaringizni qanchalik kuzatib boradi?”, “O‘qituvchilar oilangiz bilan muloqot qiladimi?”).
4. Statistik tahlil – SPSS dasturida Pearson korrelyatsiyasi va t-test.

Jarayon: Avval o‘smirlar va ota – onalarga rozilik so‘rovi o‘tkazildi. So‘ng 3 bosqichda:

1. Anketalar tarqatildi;
2. Ota – onalar va o‘qituvchilar uchun alohida fokus – guruhlar tashkil qilindi;
3. Ma’lumotlar qayta ishlandi;

Cheklovlar: Tadqiqot faqat shahar maktablarini qamrab olgan; qishloq joylari va internat maktablari kiritilmagan. Namuna qulaylik usulida tanlangan.

Natijalar:

1. Psixologik faravonlik darajasi(0- 100 ball):
   - Yuqori daraja (75+ ball): o‘smirlarning 41%

- O‘rtacha (30–44 ball): 44%
- Past (<30 ball): 15%

2. Tashvishlanish darajasi:
   - Yuqori tashvishlanish (45+ ball): o‘smirlarning 41%
   - O‘rtacha (30–44 ball): 44%
   - Past (<30 ball): 15%
3. Oila-maktab hamkorligi ko‘rsatkichlari:

Hamkorlik darajasi: Farovonlik (o‘rtacha ball); Tashvishlanish (o‘rtacha ball)

Past (0–3 savolga “ha”) 48,2 52,4

O‘rtacha (4–7 savolga “ha”) 65,7 41,1

Yuqori (8–10 savolga “ha”) 82,4 31,3

Korrelyatsion tahlil: Oila-maktab hamkorligi va psixologik farovonlik o‘rtasida o‘rtacha darajadagi ijobiy korrelyatsiya aniqlandi ($r=0,62$; $p<0,01$). Tashvishlanish va hamkorlik o‘rtasida esa o‘rtacha salbiy korrelyatsiya ($r=-0,55$; $p<0,01$).

Qo‘shimcha natijalar:

Ota-onasi maktab tadbirlarida faol qatnashadigan o‘smirlarda o‘z-o‘zini baholash 35% yuqori. O‘qituvchilar bilan haftada kamida 1 marta muloqot qiladigan oilalarning farzandlarida xulq-atvor buzilishlari 2 barobar kam.

MUHOKAMA

Yuqoridagi natijalar bir nechta muhim tomonlarni ochib beradi. Birinchidan, oila va maktab o‘rtasidagi munosabatlarning o‘smir psixologiyasiga ta’siri juda katta. Kuchli hamkorlikdagi o‘smirlar o‘zlarini ikki baravar ko‘proq “baxtli” his qiladi. Bu shuni anglatadiki, maktab va uy bir-biridan ajralgan ikki dunyo emas – ular qancha ko‘p kesishsa, o‘smir o‘zini shunchalik ishonchli his qiladi. Ikkinchidan, achinarlisi shundaki, hozirgi maktab amaliyotida ota-onalar bilan muloqot ko‘pincha muammo yuzaga kelgan keyin boshlanadi. Buning oqibatida ota-onalar maktabdan

“qo‘ng‘iroq kelsa, xato qilganmiz” degan go‘yo salbiy kutish holatiga tushadi. O‘smir esa bundan ikki tomonlama bosimni his qiladi: uyda ham, maktabda ham “teng emasman” degan fikr paydo bo‘ladi.Natijalarni oldingi tadqiqotlar bilan solishtirganda, shu narsa ma’lum bo‘ldiki: dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi maktablar (masalan, Finlyandiya, Avstraliya) ota-onalarni maktab hayotiga boshidanoq jalb qiladi va ularni “sherik” sifatida ko‘radi. O‘zbekiston maktablarida esa ko‘pincha ota-onalar “nazoratchi” yoki “javob beruvchi” sifatida qaraladi. Bu farq, o‘z navbatida, o‘smirlarning farovonligiga bevosita ta’sir qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak: Oila va maktab o‘rtasidagi hamkorlik qanchalik mustahkam va tizimli yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, o‘smirning psixologik farovonligi shunchalik yuqori darajada shakllanadi, ichki xavotir va tashvish holatlari esa sezilarli darajada kamayadi. Chunki bola ikki muhim ijtimoiy muhit — oila va ta’lim muassasasi — tomonidan bir xil yo‘nalishda qo‘llab-quvvatlanganda, u o‘zini ishonchli, himoyalangan va tushunilgan his qiladi. Bu esa uning emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tavsiya: Maktab va ota – onalar muntazam (haftada 1 marta) ijobiy va konstruktiv muloqot qilishi kerak. Yig‘ilishlar ikki tomonlama bo‘lishi, ota – onalarning fikri tinglanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Riff, C. D. (1989). Psychological well-being scales. Journal of Personality and Social Psychology, 57(6), 1069-1081.

2. Bronfenbrenner, U. (2005). The ecology of human development. Harvard University Press.

3. Karimova, D. (2022). Oilada o‘smir tarbiyasining psixologik jihatlari. O‘zbekiston psixologiya jurnali, 3(2), 45-54.

4. Xolmatov, U. (2024). Maktab o‘quvchilarining moslashuvida ota-onalarning roli. Ta’lim va jamiyat, 1(4), 28-36.

5. Epstein, J. L. (2018). School, family and community partnerships. Westview Press.

ZAMONAVIY LIBOS DIZAYNERLARINI TAYYORLASHDA MAXSUS KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI

Axmedova Mukaddam Taxirovna o‘qituvchi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

mukaddamaripova86@gmail.com

Annotatsiya*: Ushbu maqolada dizayn ta'limida, xususan, libos dizaynerlarini tayyorlash jarayonida kasbiy kompetensiyalardan tor doiradagi maxsus kompetensiyalarga o‘tish zarurati tahlil qilingan. An'anaviy o‘qitish usullari va sohadagi zamonaviy raqamli o‘zgarishlar o‘rtasidagi ziddiyatlar ochib berilib, bo‘lajak mutaxassislarda texnologik, tarixiy va raqamli maxsus ko‘nikmalarni (xususan, 3D modellashtirish va aniq bichish texnologiyalari asosida) shakllantirish mexanizmlari taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *maxsus kompetensiya, libos dizayni, raqamli modellashtirish, kompetensiyaviy yondashuv, dizayn ta'limi, konstruktorlik ko‘nikmalari.*

Abstract: *This article analyzes the necessity of transitioning from general professional competencies to narrowly specialized competencies in design education, particularly in the training of fashion designers. The study highlights the discrepancies between traditional teaching methodologies and contemporary digital transformations within the industry. Furthermore, it proposes mechanisms for cultivating specific technological, historical, and digital skills in future specialists, with a particular emphasis on 3D modeling and precision pattern-making technologies.*

Keywords: *specialized competence, fashion design, digital modeling, competency-based approach, design education, pattern-making skills.*

KIRISH

Globallashuv va raqamli texnologiyalar asri barcha sohalarda bo‘lgani kabi, dizayn yo‘nalishida ham mutaxassislardan mutlaqo yangicha, o‘ziga xos yondashuvlarni talab etmoqda. Bugungi kunda mehnat bozorida shunchaki nazariy

bilimlarga ega dizaynerlarga emas, balki eng so‘nggi raqamli texnologiyalarni (masalan, virtual kiyim yaratish dasturlarini) mukammal o‘zlashtirgan, tor ixtisoslikdagi muammolarni yecha oladigan kadrlarga ehtiyoj yuqori. Shunga qaramay, ko‘plab oliy ta'lim muassasalarida dizaynerlarni tayyorlash dasturlari hamon amaliy faoliyatning qotib qolgan an'anaviy stereotiplariga asoslanmoqda. Bu esa bo‘lajak mutaxassisning real ish jarayoniga moslashuvini qiyinlashtiradi va ta'lim mazmunini qayta ko‘rib chiqishni, jumladan, e'tiborni maxsus kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratishni taqozo etadi

Ilmiy adabiyotlarda "kasbiy kompetentlik" tushunchasini shaxsning madaniy darajasi, ko‘nikmalar tizimi yoki faoliyat natijadorligi kabi turli mezonlar asosida baholovchi yondashuvlar mavjud. Biroq, zamonaviy dizayn ta'limida umumiy yondashuvlar yetarli emas. Shaxsning faqatgina psixologik yoki nazariy jihatdan faoliyatga tayyorligi uning murakkab texnologik jarayonlarni bajara olishini kafolatlamaydi. Shu sababli, tadqiqotimiz markazida dizaynerning maxsus kompetensiyasi turadi. Maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishning asosiy sharti talabalar bilim va ko‘nikmalarini aniqlash hisoblanadi, bunda talabalar tomonidan materialni o‘zlashtirish, ular tomonidan amaliy topshiriqlarni bajarishda olingan bilimlarni qo‘llanilishi to‘g‘risida doimiy va obyektiv ma’lumot olib turish zarur.

Shuning uchun nazorat rejasi tizimli, obyektiv, har tomonlama, individual, talabalar va o‘qituvchi vaqtini tejagan holda, pedagogik taktikali bo‘lishi kerak. Shunday qilib, maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni natijaviy bo‘lishi uchun, ushbu kompetentlikni ta’minlovchi, turli ta’lim shakllari uchun turlicha ta’lim vositalari, auditoriya ishlari (ma’ruza, laboratoriya, amaliy topshiriqlar) va auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarni o‘z ichiga olgan fanning elektron metodik majmuasi bo‘lishi lozim.

Maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni pedagogik texnologiyalar, faol metodlar, turli ta’lim vositalari va tahlil tizimi majmuasini qo‘llagan holda

ta’limning barcha shakllarida bir nechta fanlardan olingan bilimlarni integratsiyalash orqali amalga oshiriladi.

Maxsus kasbiy kompetensiya – bu mutaxassisning tor doiradagi, o‘ziga xos texnologik va ijodiy vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan chuqurlashtirilgan bilimlar, aniq amaliy malakalar hamda ularni innovatsion sharoitlarda (jumladan, raqamli muhitda) qo‘llay olish qobiliyatidir. Libos dizayni sohasida bu quyidagi uchta asosiy mezon asosida namoyon bo‘ladi:

1. Raqamli-texnologik kompetensiya: Zamonaviy libos dizayneri kiyimlarni faqat qog'ozda eskiz qilish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Maxsus kompetensiya virtual makonda, xususan CLO 3D kabi zamonaviy dasturlarda andozalar yaratish, mato xususiyatlarini virtual sinovdan o‘tkazish va murakkab choklar (mashina tikma choklari) texnologiyasini aniq qo‘llay olishni anglatadi.
2. Konstruktorlik va bichish madaniyati: Maxsus kompetensiya detallarni shunchaki yig'ish emas, balki ularning farqini ilmiy va amaliy jihatdan aniq farqlay olishni talab qiladi. Masalan, oddiy burmali mato bo‘lagi va maxsus aylanma shaklda bichiladigan “volan” o‘rtasidagi farqni konstruktiv jihatdan to‘g'ri baholash hamda shunga mos texnologik yechim tanlash dizaynerning maxsus kompetentlik darajasini belgilaydi.
3. Tarixiy-nazariy tahlil kompetensiyasi: Libos dizayni faqatgina bugungi kun trendlariga emas, balki o‘tmishning boy tajribasiga ham tayanadi. Maxsus kompetensiya talabadan turli tarixiy liboslar (dendi, spenser, amazonka kabi) va an'anaviy hunarmandchilik namunalarining tuzilishini tahlil qilib, milliy qadriyatlar va zamonaviy o‘zlikni ifodalovchi yangi kolleksiyalarga ilmiy-ijodiy transformatsiya qila olish qobiliyatini talab qiladi.

Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ijodiy ko‘rgazmalar, "Hunarmand" uyushmalari bilan hamkorlikdagi amaliy mashg'ulotlar hamda maxsus fanlar bo‘yicha ishlab chiqiladigan ilmiy o‘quv qo‘llanmalari aynan shu maxsus kompetensiyalarni shakllantirishning asosiy platformasi bo‘lib xizmat qilishi lozim.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, dizaynerlarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv shunchaki ta'limni yangilash vositasi emas, balki davr talabidir. Umumkasbiy bilimlardan maxsus kompetensiyalarga (raqamli texnologiyalar, aniq konstruktorlik yechimlari va ilmiy-tarixiy tahlilga) o‘tishgina mehnat bozorida raqobatbardosh, mustaqil ijodiy qarorlar qabul qila oladigan va sohaga real innovatsiyalar olib kira oladigan yuqori malakali libos dizaynerlarini shakllantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Galperin P.Ya. Obyektiv fan sifatida psixologiya / A.I. Podolskiy tahriri ostida. – M.; Voronej: 2003.

2. http://www.superinf.ru/view_article.php?id=386

3. Rudenko T.B., Katkov L.V. O'qituvchi shaxsining kasbiy kompetentligi masalasiga doir //: Fan, ta'lim, jamiyat. SaxDU (Saxalin davlat universiteti) internet jurnali [Elektron resurs] Kirish resursi URL: http://journal.sakhgu.ru/work.php?id=47 (03.05.2012).

4. Axmedova Mukaddam Taxirovna. Zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirishda talabalarni libos dizayni orqali kompetensiyalarini shakllantirish//Belarusian-Uzbek scientific and methodologikal journal. -2023. -№.5. -17-21 bet.

MAXSUS FANLARNING FANLARARO ALOQALARI ORQALI QO‘LLASH METODIKASI

Turaxujayev Anvarxuja Abbasxuja o‘g‘li

assistant

O‘zbekiston Respublikasi, Qo‘qon davlat universiteti

atoraxojayev@gmail.com

Annotatsiya*: Ushbu maqolada maxsus fanlarni o‘qitishda fanlararo aloqalardan foydalanish metodikasi ko‘rib chiqiladi. Fanlararo integratsiya - bu zamonaviy ta’lim tizimining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, u o‘quvchilarda yaxlit ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, bilimlarni amaliyotda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Maqolada fanlararo aloqalarning nazariy asoslari, ularning maxsus fanlar o‘qitish jarayonida qo‘llanilish shakllari va metodlari, hamda bu jarayonning pedagogik samaradorligi tahlil etiladi. O‘qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular darslarni rejalashtirishda va o‘tkazishda bevosita qo‘llanishi mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, fanlararo yondashuv o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, o‘quv materialini yanada chuqurroq o‘zlashtirishga imkon beradi va kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga sezilarli hissa qo‘shadi.*

Kalit so‘zlar: *fanlararo aloqa, integratsiya, maxsus fanlar, o‘qitish metodikasi, pedagogik texnologiya, kompetentlik, interdistsiplinar yondashuv, ta’lim sifati, bilim transferi, kasbiy ta’lim.*

Annotation: *This article considers the methodology for using interdisciplinary connections in teaching special subjects. Interdisciplinary integration is one of the main principles of the modern education system, which serves to form a holistic scientific worldview in students, develop the ability to apply knowledge in practice, and improve the quality of education. The article analyzes the theoretical foundations of interdisciplinary connections, the forms and methods of their application in the process of teaching special subjects, as well as the pedagogical effectiveness of this process. Practical recommendations for teachers are developed, which can be directly used in planning and conducting lessons. The results of the study show that the interdisciplinary approach increases students' motivation, allows for a deeper assimilation of*

educational material, and makes a significant contribution to the development of professional competence.

Keywords: *interdisciplinary communication, integration, special subjects, teaching methodology, pedagogical technology, competence, interdisciplinary approach, quality of education, knowledge transfer, professional education.*

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, zamonaviy pedagog kadrlar tayyorlash va o‘qitishning innovatsion usullarini joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida ta’limni isloh qilish bo‘yicha qabul qilingan qator qonunchilik hujjatlari va davlat dasturlari ta’lim muassasalarida o‘qitish sifatini tubdan yaxshilashni talab etmoqda.

Maxsus fanlarni o‘qitishda fanlararo aloqalardan foydalanish metodikasi pedagogika fanining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, texnik, tibbiy, iqtisodiy va boshqa ixtisoslik yo‘nalishlarida ta’lim berishda bir fan doirasidagi bilimlar ko‘pincha yetarli emas - o‘quvchi yoki talababir necha soha bilimlarini birlashtirib, amaliy muammolarni hal etishga qodir bo‘lishi kerak.

Fanlararo aloqa - bu turli o‘quv fanlari o‘rtasidagi mazmuniy, tizimli va metodologik bog'lanishlar majmuasi bo‘lib, o‘quv jarayonida yaxlit bilim tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv orqali o‘quvchilar bir fan kontekstida o‘rgangan bilim va ko‘nikmalarini boshqa fan vaziyatlariga muvaffaqiyatli ko‘chira oladilar. Bu esa nafaqat bilimlarning mustahkamlanishiga, balki tafakkur moslashuvchanligining rivojlanishiga ham imkon beradi.

ASOSIY QISM

Fanlararo aloqaning nazariy asoslari va tasnifi - Fanlararo aloqa (interdistsiplinar bog'lanish) - bu ikki yoki undan ortiq o‘quv fanlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir bo‘lib, u o‘quv jarayonida bilimlar, ko‘nikmalar va kompetensiyalarning tizimli ravishda birlashtirilishini ta’minlaydi. Bunday aloqa bir tomonlama (bir fan

boshqa fanning mazmunidan foydalanadi) yoki ikki tomonlama (oʻzaro boyituvchi) boʻlishi mumkin.

Fanlararo aloqalar quyidagicha tasniflanadi: Mazmunli aloqalar - turli fanlar mavzulari oʻrtasidagi umumiy tushunchalar, faktlar va qonuniyatlar asosidagi bog'lanishlar. Masalan, fizika va kimyo fanlarida atomning tuzilishi mavzusi bir-birini toʻldiradi. Operatsional aloqalar - bir fanda egallangan amaliy koʻnikmalar boshqa fanda qoʻllaniladigan usullar bilan mos kelishi. Masalan, matematikadagi grafik chizish koʻnikmasi iqtisodiyot fanida bozor egri chiziqlari tahlilida qoʻllaniladi. Metodologik aloqalar - turli fanlar oʻrganishda umumiy yondashuv va metodlarning qoʻllanilishi, masalan, tahlil, sintez, modellashtirish, eksperiment.[1,2,3]

Maxsus fanlarda fanlararo aloqalarni qoʻllash shakllari - Maxsus fanlar kontekstida fanlararo aloqalarni qoʻllashning quyidagi shakllari alohida ahamiyat kasb etadi: birinchidan, integratsion darslar - bu ikki yoki undan ortiq oʻquv fanlari oʻqituvchilari birgalikda oʻtkazadigan darslar boʻlib, unda bir mavzu turli fanlar nuqtayi nazaridan yoritiladi. Ikkinchidan, loyihaviy ta’lim (project-based learning) - oʻquvchilar bir necha fanning bilimlarini qoʻllagan holda real muammoni hal etadigan loyiha ustida ishlaydigan metod. Uchinchidan, muammoli ta’lim - oʻquvchilar turli fanlarning bilimlarini sintez qilib, real hayotiy muammo yechimini topishga yoʻnaltiriladi.

Masalan, qurilish mutaxassisligida materiallar qarshiligi fanini oʻqitishda fizika (mexanika asoslari), matematika (differensial tenglamalar) va iqtisodiyot (material tannarxi va iqtisodiy samaradorlik) fanlaridan fanlararo aloqa oʻrnatilsa, talabalar nafaqat nazariy bilimlarni, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatda zarur boʻlgan kompleks koʻnikmalarni ham egallaydilar. Tibbiyot ta’limida esa anatomiya, fiziologiya va klinik fanlar oʻrtasidagi bog'liqlikni koʻrsatish orqali talabalarning kasalliklarni tashxislash va davolash qobiliyati sezilarli darajada oshadi. [4]

Fanlararo aloqalarni amalga oshirishning metodlari va vositalari - O‘qituvchi fanlararo aloqalarni amalga oshirishda quyidagi metodlardan foydalanishi mumkin: Konseptual xarita (concept map) tuzish - turli fanlar tushunchalarini birlashtiradigan vizual sxemalar tuzish orqali o‘quvchilar bilimlar o‘rtasidagi aloqalarni anglaydilar. Qiyosiy tahlil metodi - turli fanlar qanday muammolarni qanday metodlar bilan hal etishini qiyoslab ko‘rsatish. Case-study (amaliy holat tahlili) - real hayotiy muammo turli fanlar metodlari orqali tahlil qilinadi. Loyiha metodi - turli fanlarning bilimlari yagona maqsad atrofida birlashtiriladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari fanlararo aloqalarni qo‘llashda keng imkoniyatlar yaratadi. Elektron o‘quv resurslari, simulyatsiya dasturlari, virtual laboratoriyalar va onlayn hamkorlik platformalari orqali turli fanlar integratsiyasi samarali tarzda amalga oshirilishi mumkin. Masalan, MATLAB dasturida matematik modellashtirish orqali muhandislik fanlari uchun juda ko‘p amaliy masalalar yechish mumkin bo‘lib, bu matematika va muhandislik fanlarining mukammal integratsiyasiga misol bo‘la oladi.

O‘qituvchining fanlararo aloqalarni rejalashtirishdagi roli - Fanlararo aloqalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish ko‘p jihatdan o‘qituvchining pedagogik mahoratiga, fanning chuqur bilimiga va boshqa fanlar haqida yetarli tushunchaga ega bo‘lishiga bog'liq. O‘qituvchi avvalo o‘z fani dasturini boshqa fanlar dasturlari bilan qiyoslab, umumiy mavzu va tushunchalarni aniqlab olishi lozim. Keyin esa ushbu aloqalarni dars rejasiga organik ravishda kiritishi kerak.

Fanlararo aloqalarni rejalashtirishda o‘qituvchi quyidagi bosqichlarga rioya qilishi tavsiya etiladi: Kasbiy standartlar va o‘quv dasturlarni o‘rganish - qaysi fanlar bilan aloqa o‘rnatish mumkinligini aniqlash. Hamkorlik o‘rnatish - boshqa fanlar o‘qituvchilari bilan muloqot qilish va umumiy darslar rejalashtirish. O‘quv materiallarini tayyorlash - fanlararo aloqalarni aks ettiradigan topshiriqlar, sxemalar va misollar ishlab chiqish. [5] O‘quvchilarni tayyorlash - avvalgi bilimlarini

yangilash va yangi bilimlar bilan bog'lashga yo‘naltirish. [6] Baholash - fanlararo kompetentliklarni baholash mezonlari ishlab chiqish.

Fanlararo aloqalarning samaradorligi va muammolari - Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, fanlararo yondashuv qo‘llanilganda o‘quvchilarning o‘quv materialini o‘zlashtirishи 20–35% ga oshadi, bilimlarni uzoq muddat esda saqlash yaxshilanadi va amaliy masalalarni hal etish qobiliyati rivojlanadi. Bunga sabab shuki, bir necha fanlar kontekstida qayta-qayta uchraydigan tushunchalar va munosabatlar miyada kuchli assotsiativ bog'lanishlar hosil qiladi.

Biroq fanlararo aloqalarni amalga oshirishda bir qator qiyinchiliklar ham mavjud. Birinchi muammo - o‘qituvchilarning boshqa fanlar bo‘yicha bilim va tajribasining yetarli emasligi. Ikkinchi muamlo - o‘quv dasturlari ko‘pincha ma’lum fan doirasida tuzilgan bo‘lib, fanlararo hamkorlik uchun yetarli vaqt ajratilmagan. Uchinchi muammo - baholash tizimining fanlararo kompetentliklarni to‘liq qamrab olmasligi. To‘rtinchi muammo - o‘quvchilarning bir fandagi zaif tayyorgarligi boshqa fanlar bilan aloqani murakkablashtirishi. Bu to‘siqlarni bartaraf etish uchun tizimli pedagogik jarayon va ma’muriyatning ko‘magi zarur.[8,9,10]

XULOSA

Ushbu tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: Birinchidan, fanlararo aloqalar maxsus fanlarni o‘qitishning samarali pedagogik vositasi bo‘lib, o‘quvchilarning yaxlit ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi va kasbiy kompetentligini rivojlantiradi. Ikkinchidan, fanlararo integratsiyaning turli shakllari (integratsion darslar, loyihaviy ta’lim, muammoli ta’lim, case-study) maqsad va sharoitga qarab moslashuvchan ravishda qo‘llanilishi lozim.

Uchinchidan, fanlararo aloqalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish o‘qituvchining pedagogik mahoratiga, boshqa fanlar bilan hamkorligiga va zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalana bilishiga bog'liq. To‘rtinchidan, fanlararo yondashuv o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini o‘rtacha 20–35% ga

oshirishi mumkin, shuningdek amaliy muammolarni hal etish qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Beshinchidan, fanlararo aloqalarni joriy etishda mavjud to‘siqlarni (o‘qituvchilar tayyorgarligi, o‘quv dasturlari moslashuvchanligining yetarli emasligi, baholash tizimining cheklovlari) bartaraf etish uchun tizimli yondashuv zarur. Oltinchidan, raqamli texnologiyalar va interaktiv vositalar fanlararo integratsiyani yangi sifat darajasiga olib chiqishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g'risida»gi Qonuni. - Toshkent, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g'risida»gi farmoni. - Toshkent, 2022.

3. Saidahmedov N. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent: O‘qituvchi, 2019. - 384 b.

4. Mavlonova R., Tursunov N. Pedagogika. - Toshkent: Sharq, 2018. - 328 b.

5. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi: Nasaf, 2000. - 192 b.

6. Зверев И.Д., Максимова В.Н. Межпредметные связи в современной школе. - Москва: Педагогика, 1981. - 160 с.

7. Drake S.M. Creating integrated curriculum: Proven ways to increase student learning. - Corwin Press, 1998. -184 p.

8. Fogarty R. The mindful school: How to integrate the curricula. - IRI/Skylight Publishing, 1991. - 168 p.

9. Jacobs H.H. (Ed.). Interdisciplinary curriculum: Design and implementation. — ASCD, 1989. — 129 p.

10. Gardner H. Frames of mind: The theory of multiple intelligences. — Basic Books, 1983. — 440 p.

BOSHLANGICH SINF O‘QUVCHILARINING YOSH VA INDIVIDUAL XUSUSIYATLARINI INOBATGA OLISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Mamatmuradova Mehribon

Samarqand Davlat Universiteti Urgut filiali

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalish 1-kurs 104-guruh talabasi

julibayevamunisa@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining individual va yosh jihatlarini inobatga olishning ta’lim jarayonida amaliy va nazariy tomonlari yoritilib o‘tilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh davrlarining psixologik tomonlari, individual farqlari va differensial yondashishnng ahamiyati tahlil qilinadi. Shu bilan birga, pedagogik tajribalar asosida olib borilgan individual yondashishning samaradorligi asoslab beriladi. Tadqiqot asoslari yordamida boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda individual yondashuv muhim omil ekanligini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, individual yondashuv, differensial ta’lim, psixologik rivojlanish, pedagogik diagnostika, motivatsiya.*

Аннотация: *В данной статье освещаются практические и теоретические аспекты учета индивидуальных и возрастных особенностей учащихся начальных классов в образовательном процессе. Анализируются психологические особенности возрастных этапов младших школьников, их индивидуальные различия и значение дифференцированного подхода. Также на основе педагогического опыта обосновывается эффективность индивидуального подхода. С помощью результатов исследования показано, что индивидуальный подход является важным фактором повышения качества начального образования.*

Ключевые слова: *возрастные особенности, индивидуальный подход, дифференцированное обучение, психологическое развитие, педагогическая диагностика, мотивация.*

Annotation: *This article highlights the practical and theoretical aspects of considering individual and age characteristics of primary school students in the educational process. It analyzes the psychological features of primary school age, individual differences, and the importance of a differentiated approach. Based on pedagogical experience, the effectiveness of an individual approach is substantiated. The research findings demonstrate that an individual approach is an important factor in improving the quality of primary education.*

Keywords: *age characteristics, individual approach, differentiated education, psychological development, pedagogical diagnostics, motivation.*

KIRISH

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim davr hisoblanadi. Aynan shu davrda o‘quvchilarning bilish jarayonlari, tafakkuri, nutqi va ijtimoiy faolligi rivojlanadi. Shu sababli ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish dolzarb pedagogik muammolardan biridir. Zamonaviy ta’lim tizimi har bir o‘quvchining qobiliyati, qiziqishi va imkoniyatlarini inobatga olishni talab etadi. Bir sinfda o‘qiyotgan bolalarning rivojlanish darajasi, bilimni qabul qilish tezligi va tafakkur uslubi turlicha bo‘ladi. Agar o‘qituvchi bu farqlarni hisobga olmasa, ta’lim samaradorligi pasayishi mumkin.

Tadqiqotning maqsadi — boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va individual xususiyatlarini inobatga olishning pedagogik asoslarini aniqlash hamda uning samaradorligini asoslashdan iborat.

ASOSIY QISM

Boshlang‘ich yosh davri (6–10 yosh) psixologik jihatdan o‘ziga xos bosqich hisoblanadi. Bu davr fanda kichik maktab yoshi davri deb ataladi. Bu davrda bolalarda:

a) idrok va tasavvur faol rivojlanadi;

b) ixtiyoriy diqqat shakllanadi;

c) mantiqiy tafakkur elementlari paydo bo‘ladi;

d) o‘qishga nisbatan motivatsiya shakllanadi.

e) hamda bu yoshda bolalar o‘yin faoliyatidan o‘qish faoliyatiga o‘tishadi[43].

Individual xususiyatlar esa har bir bolaning xarakter, xususiyat, temperament, qiziqish darajasi bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi. “ Individual yondashuv “ aslida nima? “ *Individual* “ so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib,“ yakka tartibda, yolg‘iz “ degan ma’nolarni bildiradi va bu maxsus shug’ullanish tushunchasini ifodalaydi. Aynan shu sababli individuallashtirilgan ta’lim shaxsga yo‘naltirilgan tadqiqot va o‘quv shakli bo‘lib, unda har bir ta’lim oluvchi shaxs o‘quv jarayonida faol ishtirok etadi. Mana shu yo‘nalish jihati bilan individual yondashuv muhim ahamiyatga ega. Aynan shu yo’nalish yakka tartibda ta’lim oluvchilarning ongini faollashtiradi, ta’lim beruvchilarning uslubiy yondashuvini kuchaytiradi va ta’lim oluvchilarning o‘quv-biluv malakasi yanada oshadi. Individual yondashuv texnologiyasining o‘ziga xosligi xususiyati shundaki, unda ta’lim oluvchi bilan istalgan vaqtda va muddatsiz shug‘ullanish mumkin. Bunda ta’lim oluvchilarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, u bilan nazariy, amaliy va metodologik mashg‘ulotlar tashkil qilish mumkin.

Differensial yondashuvlar ta'limda o’quvchilarning ehtiyoj va qobiliyatlarini hisobga olish orqali ularning bilim va ko‘nikmalarini samarali shakllantirish imkonini beradi. Differensial yondashuvning ilmiy asoslari o‘qituvchilarni har bir o‘quvchining individual qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni yuqori o‘quv natijalariga yetaklash uchun turli usullarni qo‘llashga undaydi. Shu bilan birga, ushbu yondashuvlarning ta'limga oid nazariy va amaliy jihatlari ta'lim sifati oshishiga xizmat qiladi. Pedagogik jarayonda differensial yondashuv qo‘llanilganda har bir o‘quvchining imkoniyatiga mos topshiriqlar beriladi. Bu esa bilimning

[43] G‘oziev E.G‘. Yosh va pedagogik psixologiya. – T.: O‘qituvchi, 2010.

chuqurroq o‘zlashtirilishiga xizmat qiladi. Bundan ko’rinadi-ki, individual yondashuv va differensial yondashuv bir-biri bilan uzviy bog’liq.Differensial yondashuv nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchilarga murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlarni taqdim etish samarali natija beradi. Individual yondashuv esa o‘qituvchining har bir bola bilan alohida ishlashini nazarda tutadi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

a) pedagogik kuzatuv;

b) diagnostik testlar;

c) taqqoslash va tahlil metodi;

d) tajriba-sinov ishlari.

Tajriba 3-sinf o‘quvchilari o‘rtasida olib borildi. Sinf ikki guruhga ajratildi: nazorat guruhi va tajriba guruhi. Tajriba guruhida individual va differensial yondashuv asosida darslar tashkil etildi. Nazorat guruhi esa ularni kuzatib, ish jarayoni bilan tanishdilar va oxirida o’z fikrlarini aytishdi. Bundan asosiy g’oya bolalarda bir-biri bilan ishlash imkoniyatini oshirish va ularning kuzatuvchaligini ta’minlash.

Boshlang‘ich yoshdagi bolalar tez charchash, diqqatning tez chalg‘ishi, emotsional sezgirlik kabi xususiyatlarga ega. Shuning uchun dars jarayonida o‘quvchilar bilan:

a) qisqa va aniq topshiriqlar berish;

b) o‘yin elementlaridan foydalanish;

c) ko‘rgazmali vositalarni qo‘llash;

d) o‘yin elementlaridan foydalanish

e) rag‘batlantirish metodlaridan foydalanish muhimdir.

Individual xususiyatlarni aniqlash uchun o‘quvchilarning bilim darajasi, qiziqishlari va psixologik holati muntazam kuzatib boriladi. Differensial topshiriqlar tizimi ishlab chiqiladi. Masalan, matematikadan kuchli o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarga murakkabroq masalalar, qiynalayotgan o‘quvchilarga esa sodda va

ko‘makchi topshiriqlar beriladi va qiynalayotgan o‘quvchilar ustida ishlanadi. Buning uchun qo‘shimcha matematika to‘garaklari tashkil etiladi: “Quvnoq matematika “ yoki “ tezkor matematika kabi. Natijada tajriba guruhida o‘zlashtirish darajasi sezilarli oshadi. O‘quvchilarning darsga qiziqishi kuchayadi va mustaqil fikrlash faollashadi.

Tajriba-sinov natijalari shuni ko‘rsatdiki:

a) individual yondashuv qo‘llanilgan guruhda o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 20–25% ga oshadi;

b) o‘quvchilarning motivatsiyasi kuchayadi;

c) dars jarayonida faollik ortadi.

Bu natijalar ta’lim jarayonida yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish pedagogik samaradorlikni oshirishini isbotlaydi[44].

XULOSA

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish ta’lim sifatini oshirishning muhim shartidir. Har bir bola o‘ziga xos shaxs bo‘lib, uning qobiliyati va imkoniyatlariga mos yondashuv qo‘llanilgandagina yuqori natijaga erishish mumkin. Pedagogik jarayonda differensial va individual yondashuvni tizimli ravishda qo‘llash boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshiradi. Uni to’g’ri qo’llay olish esa pedagogik mahoratga va kuzatuvchanlikka bog’liqdir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ochilov M., Xo‘jaev N. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 320 b.
2. G‘oziyev E. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. – 256 b.
3. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002. – 384 b.
4. Mavlonova R. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: Fan, 2012. – 240 b.
5. Saidahmedov N. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2003. – 172 b.

[44] Parpiyev O., Pozilov H. Formativ baholash orqali 3-sinf o‘quvchilarini tanqidiy fikrlashga o‘rgatish usullari. – Qo‘qon universiteti, 2024.

KIMYO TA’LIMIDA 9-SINF O‘QUVCHILARINI KREATIVINI RIVOJLANTIRISH

Murodova Sayyora Qanoatovna

Qibray tumani 31-maktabining kimyo biologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kimyo ta’limida 9-sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari metallar mavzusi misolida tahlil qilingan. O‘quvchilarning ijodiy yondashuvini shakllantirishda zamonaviy 641edagogic texnologiyalar, xususan muammoli ta’lim, loyihaviy faoliyat, interfaol metodlar va STEAM yondashuvining samaradorligi o‘rganilgan. Metallarning xossalari, olinishi va qo‘llanilishi bilan bog‘liq mavzularni o‘qitishda kreativ topshiriqlar, tajribalar va real hayotiy vaziyatlarga asoslangan masalalardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va innovatsion yondashuvlarini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *kimyo ta’limi, kreativlik, metallar, 9-sinf, interfaol metodlar, muammoli ta’lim, STEAM, kompetensiya.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы развития креативного мышления учащихся 9 класса в процессе обучения химии на примере темы «Металлы». В ходе исследования изучена эффективность современных педагогических технологий, в частности проблемного обучения, проектной деятельности, интерактивных методов и STEAM-подхода, в формировании творческого подхода учащихся. Обосновано, что использование креативных заданий, экспериментов и задач, основанных на реальных жизненных ситуациях при изучении свойств, способов получения и применения металлов, способствует развитию самостоятельного мышления, навыков решения проблем и инновационного подхода учащихся.*

Ключевые слова*: химическое образование, креативность, металлы, 9 класс, интерактивные методы, проблемное обучение, STEAM, компетенция.*

Abstract. *This article examines the development of creative thinking skills in 9th-grade students in chemistry education using the topic of metals as an example. The study explores the effectiveness of modern pedagogical technologies, including problem-based learning, project-based activities, interactive methods, and the STEAM approach, in fostering students' creative abilities. It is substantiated that the use of creative tasks, experiments, and real-life problem-based activities in teaching the properties, extraction, and applications of metals contributes to the development of independent thinking, problem-solving skills, and innovative approaches among students.*

Keywords: *chemistry education, creativity, metals, 9th grade, interactive methods, problem-based learning, STEAM, competence.*

KIRISH

Hozirgi zamon ta'lim tizimida o‘quvchilarning nafaqat bilim olish darajasi, balki ularning mustaqil fikrlashi, muammoni hal qilish qobiliyati va kreativ yondashuvi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, kimyo fanini o‘qitishda o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish orqali ularning fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshirish va bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash imkoniyati kengayadi.

Kimyo ta'limi metodikasida o‘quvchilarning kreativ (ijodiy) fikrlashini rivojlantirishni zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biri sifatida ko‘rsatadi. Kreativlik – o‘quv faoliyatining muhim komponenti hisoblanadi. Kimyo fanini o‘rganish faqat tayyor bilimlarni egallash emas, balki o‘quvchining mustaqil fikrlashi, yangi g‘oyalar yaratishi va muammolarga noodatiy yechim topish qobiliyatini shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi. Kreativlik o‘quvchining bilimni chuqur o‘zlashtirishiga xizmat qiladi [1].

Metodologiyasi. Kimyo ta'limida kreativlikni rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhimdir. Xususan, muammoli ta'lim metodi o‘quvchilarda izlanish faoliyatini rag‘batlantiradi, ularni savol qo‘yishga va mustaqil xulosa chiqarishga undaydi. Masalan, o‘quvchilarga "Nima uchun ayrim metallar tez zanglaydi, boshqalari esa zanglamaydi?" kabi savollar berish orqali ularning tahliliy va ijodiy fikrlashi rivojlanadi.

Muammoli ta’lim orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirish mumkin. Muammoli vaziyatlar yaratish orqali o‘quvchilarda izlanish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalari shakllanadi. Kimyoviy jarayonlar, reaksiyalar va tajribalarni tushuntirishda savol-javob va muammoli topshiriqlar kreativlikni kuchaytiradi. Interfaol metodlar (klaster, aqliy hujum, rol o‘ynash, loyiha ishlari) orqali o‘quvchilarni faol o‘quv jarayoniga jalb etishni tavsiya qilish mumkin. Bu metodlar o‘quvchilarning erkin fikrlashi va yangi g‘oyalar ishlab chiqishiga yordam beradi [2].

9-sinf kimyo kursi o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Bu bosqichda o‘quvchilar moddalarning tuzilishi, xossalari va ularning o‘zaro ta’siri haqida chuqurroq bilimlarga ega bo‘ladilar. Aynan shu jarayonda kreativ fikrlashni rivojlantirish o‘quvchilarning bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishiga, yangi g‘oyalar yaratishiga va muammoli vaziyatlarga noodatiy yechim topishiga yordam beradi.

Kimyo darslarida mavzularni tushuntirishda kimyoviy tajriba va amaliy mashg‘ulotlarning ahamiyati katta. Laboratoriya ishlari va tajribalarni kreativ fikrlashni rivojlantirishning asosiy vositasi deb hisoblash mumkin. O‘quvchilar tajriba davomida kuzatadi, taxmin qiladi, natijani tahlil qiladi va shu orqali ilmiy-ijodiy yondashuvni o‘zlashtiradi.

Kimyo ta’limida kreativlikni rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhimdir. Xususan, muammoli ta’lim metodi o‘quvchilarda izlanish faoliyatini rag‘batlantiradi, ularni savol qo‘yishga va mustaqil xulosa chiqarishga undaydi. Masalan, o‘quvchilarga “Nima uchun ayrim metallar tez zanglaydi, boshqalari esa zanglamaydi?” kabi savollar berish orqali ularning tahliliy va ijodiy fikrlashi rivojlanadi [3].

Shuningdek, fanlararo integratsiya asosida kreativlikni rivojlantirish uchun kimyo fanini boshqa fanlar (biologiya, fizika, ekologiya) bilan bog‘lash muhimligi

qayd etish mumkin. Real hayotiy vaziyatlar asosida berilgan topshiriqlar o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va ijodiy yondashuvni rag‘batlantiradi.

Loyihaviy faoliyat ham kreativlikni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. O‘quvchilar metallarni kundalik hayotdagi qo‘llanilishi, ularning ekologik ta’siri yoki qayta ishlanishi bo‘yicha kichik loyihalar tayyorlash orqali mustaqil izlanish olib boradilar. Bu esa ularda nafaqat bilim, balki tadqiqotchilik ko‘nikmalarini ham shakllantiradi [4].

Shuningdek, STEAM yondashuvi (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) kimyo fanini boshqa fanlar bilan integratsiya qilish imkonini beradi. Masalan, metallardan turli konstruksiyalar yaratish yoki ularning fizik xossalarini tajribalar orqali o‘rganish o‘quvchilarning kreativ va muhandislik fikrlashini rivojlantiradi [5].

STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog‘lash, ularning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Masalan, “Metallar” mavzusini STEAM asosida o‘qitish orqali o‘quvchilar nafaqat kimyoviy xossalarni o‘rganadilar, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llashni ham o‘zlashtiradilar (1-jadval).

1-jadval

№	*Fan*	*Mohiyati*
1	Science (– Kimyo):	O‘quvchilar metallarning fizik va kimyoviy xossalarini o‘rganadilar: elektr va issiqlik o‘tkazuvchanligi, reaktivligi, korroziyaga moyilligi. Masalan, temirning zanglash jarayoni va uni oldini olish usullari tahlil qilinadi.
2	Technology (Texnologiya):	Metallarning sanoatda qo‘llanilishi, zamonaviy texnologiyalarda (qurilish, transport, elektronika) ishlatilishi o‘rganiladi. O‘quvchilar metallarga ishlov berish texnologiyalari haqida tushunchaga ega bo‘ladilar.

3	Engineering (Muhandislik):	O‘quvchilarga kichik loyiha topshirig‘i beriladi. Masalan: “Korroziyaga chidamli konstruksiya modelini yaratish”. Ular turli metall materiallarni solishtirib, eng maqbul variantni tanlaydilar va model ishlab chiqadilar.
4	Art (San’at):	Metallardan yasalgan buyumlar dizayni, estetik ko‘rinishi muhokama qilinadi. O‘quvchilar oddiy metall buyumlar (sim, folga) yordamida ijodiy ishlanmalar yaratishlari mumkin.
5	Mathematics (Matematika):	Metallarning zichligi, massasi, hajmi kabi ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Masalan, berilgan metall buyumning zichligini aniqlash yoki material sarfini hisoblash topshiriqlari bajariladi.

Amaliy faoliyat (integratsiya): o‘quvchilarga quyidagi keys yoki loyiha berilishi mumkin: “Qanday qilib zanglamaydigan va mustahkam metall konstruktsiya yaratish mumkin?” Bu vazifa orqali ular ilmiy bilimlarini muhandislik va matematik hisob-kitoblar bilan bog‘laydilar.

Ushbu metodni qo‘llash natijasida, o‘quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlash rivojlanadi, amaliy ko‘nikmalar shakllanadi, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati ortadi hamda fanlararo bog‘liqlik tushuniladi.

“Metallar” mavzusini STEAM yondashuvi asosida o‘qitish o‘quvchilarni faol ishtirokchi sifatida jalb qiladi, ularning bilimini chuqurlashtiradi va intellektual hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Interfaol metodlar — “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Venn diagrammasi” kabi usullar dars jarayonini jonlantirib, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi. Ushbu metodlar orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifoda etadi, boshqalarning qarashlarini tahlil qiladi va yangi g‘oyalar ishlab chiqadi [6].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kimyo ta’limida kreativlikni rivojlantirish o‘quvchilarning ilmiy tafakkuri, muammoni hal qilish qobiliyati va innovatsion fikrlashini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy ta’limning asosiy

maqsadlaridan biri hisoblanadi. Kimyo ta’limida 9-sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ta’lim samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil bilim olishiga zamin yaratadi va ularni zamonaviy jamiyat talablariga mos shaxs sifatida shakllantiradi. Shu bois, dars jarayonida innovatsion metodlar va kreativ yondashuvlardan keng foydalanish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G‘.S. Tursunov. Kimyo o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2019.
2. N. Rahimov. Kimyo ta’limi nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2021.
3. M. Xoliqov, Sh. Qodirov. Umumiy kimyo asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
4. R. Sternberg. Handbook of Creativity. – Cambridge University Press, 1999.
5. Yakman, G. STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education. – 2008.
6. S. Manahan. Environmental Chemistry. – CRC Press, 2017.
7. P. Atkins, L. Jones. Chemical Principles. – W.H. Freeman, 2016.

BOSHLANG‘ICH SINF O'QUVCHILARIGA “TARBIYA” FANINI O‘QITISHNING NAZARIY ASOSLARI

Niyozova Safiya Bukayevna

TerDPI Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi

katta o‘qituvchisi

E-mail: safiya@gmail.com

Tel: +998901152403

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilariga tarbiya fanini o’qitishning nazariy asoslari haqida aytib o’tilgan.*

Kalit so‘zlar: *boshlang’ich sinf, tarbiya, nazariy asos, allomlar, tarbiya shakllari.*

Annotation: *This article discusses the theoretical foundations of teaching education to future primary school teachers.*

Keywords: *primary school, education, theoretical foundation, scholars, forms of education.*

Аннотация: *В статье рассматриваются теоретические основы педагогической подготовки будущих учителей начальной школы.*

Ключевые слова: *начальная школа, образование, теоретические основы, учёные, формы обучения.*

KIRISH

Boshlang'ich sinflarda “Tarbiya” fanini o'qitish pedagogik muammo sifatida “Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasi”ni amalga oshirishda “Tarbiya” fanini ahamiyati , Sharq mutafakkirlari asarlarida ma'naviy axloqiy tarbiya asoslari “Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasi”ga ko'ra “Tarbiya” fani bo'yicha umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari o'quvchilarda ma'naviy tarbiyani shakllantirish masalasi qo'yilgan. Shuning uchun “Tarbiya” darsligining maqsadidan kelib chiquvchi, 7-10 yoshli o'quvchilarda ularning yoshiga, ijtimoiy

munosabatlari radiusiga mos aktual ijtimoiy rollar, ma'naviy-axloqiy fazilatlar - kompetentsiyalarni shakllantirish hamda ularda salbiy sifatlar shakllanishining oldini olishni pedagogik ta'minlashga tayyorlanishi lozim. Zero, axloqiy sifatlar kichik yoshdan boshlab bolalarning ko'nikmalariga aylantira borilsagina, fazilatlarga aylanadi. Bu jarayonning metodik ta'minotida pedagogning bola shaxsiga munosabati hal qiluvchi rolni bajaradi.

Tarbiya fanidan o'tilayotgan ma'ruzalar matnlari tahlili quyidagilarni ko'rsatdi. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holatga keltirishi uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor shaxsga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi.Pedagogik nuqtai nazardan, har bir inson o'zining ijtimoiy madaniy rivojlanishi jarayonida o'z ajdodlarining milliy qadriyatlarini ijodiy o'zlashtiruvchi, zamonaviylashtiruvchi, boyituvchi va o'zgartiruvchidir. Insoniy burchlarining har bir shaxs tomonidan mukammal bajarilishi ijtimoiy taraqqiyotning boy, rang barang madaniy odimlarini hosil qiladi, saqlab turadi. Milliy tarbiyaning ijtimoiy psixologik omili inson tavsifining milliyligidir. Shaxs umumiinsoniy qadriyatlarni to'g'ri, ijodiy qabul qila olishi uchun avvalo uning o'zi shakllangan muayyan shakli milliylikning barkamol sub'ektiga aylana olmog'i kerak.

Ma’lumki, tarbiya tushunchasi tor va keng ma’noda qo‘llaniladi. Tor ma’nodagi “tarbiya” subyekt tomonidan shaxsda muayyan qarashlar, tasavvurlar, me’yorlar, tushunchalar va boshqa shu kabilarni qaror toptirish maqsadida yo‘naltirilgan ta’sir ko‘rsatish jarayonidir. Bunda tarbiviy ta’sir jarayonining reja asosida olib borilishi va aniq maqsadga qaratilganiga urg‘u beriladi.

Keng ma’nodagi “tarbiya” tushunchasida esa insonning ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishiga ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy aloqalarning butun boshli tizimi nazarda tutiladi. Fikrimizcha, shaxslarni jamiyat a’zosi sifatida shakllantirishga qaratilgan tarbiyani ijtimoiylashtirish deyilsa, mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasida umumta’lim maktablarining o‘rta va yuqori sinf o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalashda inobatga olinishi lozim bo‘lgan jihatlar quyidagilardan iborat:

- o‘smirlik yoshiga xos ichki pozitsiyaning paydo bo‘lishi;
- iroda sifatlarining paydo bo‘lishi;
- ijtimoiy faollik, bilishga intilish va o‘zini namoyon qilish motivlarining rivojlanishi;
- milliy qadriyatlar, an’analarga hurmatning namoyon bo‘lishi;
- o‘zini-o‘zi tarbiyalash va shaxsiy sifatlarning rivojlanishi;
- o‘z muammolarini o‘zi mustaqil hal qilishga intilish;
- xavfsiz hayot madaniyati bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarning namoyon bo‘lishi;
- axloqiy, siyosiy dunyoqarash va diniy e’tiqodning shakllanishi;
- pozitiv ijtimoiy mo‘ljallarning oydinlashuvi va ularga erishish yo‘lidagi intilishlar;
- ma’naviy-axloqiy prinsiplarning qat’iylashuvi;
- ichki his-tuyg‘ularga e’tiborning oshishi va emotsional munosabatlarning tanlov asosida namoyon bo‘lishi;
- mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy kompetensiya va fazilatlarning odatlarga aylanishi va h.k.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o‘z ma’ruzalaridan birida quyidagi fikrni bildirgan edilar:

“Hammamiz aziz farzandlarimiz hayoti va taqdirini o‘qituvchi va murabbiylarga ishonib topshiramiz. Mana shunday beqiyos boylik posbonlari, kelajak bunyodkori bo‘lgan bu mo‘tabar zotlarga munosib hurmat-ehtirom ko‘rsatishimiz kerak”.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tarbiyalanganlikning asosiy belgilarini quyidagicha belgilaydi:

- Jahl chiqqanda o‘zini bosa olish;
- Har bir ishni qilganda “yetti o‘lchab bir kesish”;
- Sir saqlay olish, mulohaza qilib, ayri gaplarni ichga yutish;
- Doimo ishonch bilan yashash va oldinga intilish; andisha chegarasidan chiqmagan holda dadil bo‘lish;
- Bir ishni boshlagandan keyin uni oxiriga yetkazmaslikdan tiyilish;
- Topgan-tutganini tejamkorlik bilan sarflash va hokazolar.

Az-Zamaxshariy fikricha, tarbiyalanganlikning o‘nta nishonasi farqlanadi:

1. Xalq to‘g‘ri deb topgan narsani noto‘g‘ri deb bilmaslik;
2. O‘z nafsiga erk bermaslik;
3. Birovdan ayb qidirmaslik;
4. Yomonlikni yaxshilik bilan yo‘yishlik;
5. Agar gunohkor uzr so‘rasa, uzrini qabul qilish;
6. Muhojirlar hojatini chiqarish;
7. El g‘amini yeyish;
8. O‘z aybini tan olish;
9. El bilan ochiq yuzli bo‘lish;
10. Odamlar bilan shirin muomalada bo‘lish.

Yoshlarda axloqiy xislatlar bilan birga, umuminsoniy fazilatlar, ma’naviy sifatlarni tarbiyalashda pedagogik diagnostika va korreksiya faoliyatiga murojaat etish zarur. Buning uchun eng avvalo inson fazilatlarining o‘zaro munosabatlarini va o‘rnini aniq belgilab olish lozim.

Ma’naviyat esa aql, axloq, huquq, iqtisod va siyosiy bilimlar zaminida shakllanadi. Mazkur bilimlar o‘z navbatida insonning ijobiy sifatlari kamol topib, boyib borishiga olib keladi.

“Tarbiya — uzoq muddatli, ko‘p xususiyatli, tarbiyalovchi va tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi qo‘shaloq jarayon bo‘lib, tarbiyalanuvchida aniq maqsad asosida muayyan sifatlar, ko‘nikmalar shakllantiriladi va rivojlantiriladi”

Tarbiyachi o‘z oldiga qo‘ygan aniq maqsad asosida tarbiyalanuvchida ijobiy sifatlarni shakllantirishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ниёзова Сафия. Норова Моҳиситора. Аҳамият ва нақши технологияҳои инноватсионӣ дар рушди. INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE. Volume 01, Issue 02, 2024

2. Ниёзова Сафия. Мансурова Замира. Оила манбаи асосии таълиму тарби. . INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE. Volume 01, Issue 02, 2024

3. Niyozova Safiya. IMPROVING THE PROCESS OF PROVIDING INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IN "EDUCATION" LESSONS IN PRIMARY GRADES. World Bulletin of Social Sciences (WBSS). Available Online at: https://www.scholarexpress.net. Vol. 27, October 2023. ISSN: 2749-361X

4. Niyozova Safiya. Innovatsion yondashuv asosida ta’lim-tarbiya jarayonida samaradorlikka erishishning o‘ziga xos xususiyatlari. O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/5/1]. ISSN 2181-7324

5. Niyozova Safiya. IMPROVING THE PROCESS OF ENSURING INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IN THE STUDY OF ENVIRONMENTAL CONCEPTS IN EDUCATIONAL CLASSES IN PRIMARY SCHOOL. European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE). Available Online at: https://www.scholarzest.com. Vol. 2 No. 12, December 2021, ISSN: 2660-5643

PEDAGOGIKA YO‘NALISHI TALABALARINING BADIIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUV

Saparov Farxod O‘razboyevich

Jizzax shaxridagi “Nurli maskan”

ixtisoslashtirilgan maktab-internati o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada pedagogika yo‘nalishi talabalarining badiiy tafakkurini rivojlantirishda integrativ yondashuvning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, badiiy tafakkurni shakllantirish jarayonida fanlararo aloqadorlik, kreativ metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni yoritiladi. Integrativ yondashuvning talabalarda estetik did, ijodiy fikrlash va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy tafakkur, integrativ yondashuv, pedagogika, kreativlik, fanlararo aloqadorlik, estetik tarbiya, innovatsion texnologiyalar.*

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретические и практические основы интегративного подхода в развитии художественного мышления студентов педагогических направлений. Также освещается роль междисциплинарных связей, креативных методов и современных педагогических технологий в процессе формирования художественного мышления. Обосновывается значение интегративного подхода в развитии эстетического вкуса, творческого мышления и профессиональных компетенций студентов.*

Ключевые слова: *художественное мышление, интегративный подход, педагогика, креативность, междисциплинарные связи, эстетическое воспитание, инновационные технологии.*

Abstract. *This article analyzes the theoretical and practical foundations of the integrative approach in developing artistic thinking among students of pedagogical specialties. It also highlights the role of interdisciplinary connections, creative methods, and modern pedagogical technologies in the process of forming artistic thinking. The significance of the integrative*

approach in developing students' aesthetic taste, creative thinking, and professional competencies is substantiated.

Keywords: *artistic thinking, integrative approach, pedagogy, creativity, interdisciplinary connections, aesthetic education, innovative technologies.*

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash sifatini oshirish, ularning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, pedagogika yo‘nalishi talabalarining nafaqat nazariy bilimlarini shakllantirish, balki ularning ijodiy, estetik va badiiy tafakkurini rivojlantirish ham dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Badiiy tafakkur insonning voqelikni obrazli idrok etishi, estetik baholashi hamda ijodiy yondashuv asosida fikrlash qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi. Bo‘lajak pedagoglarda ushbu sifatning shakllanishi ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muhim o‘rin tutadi, chunki o‘qituvchi ta'lim jarayonini faqat bilim berish emas, balki ijodiy va estetik muhit yaratish orqali ham samarali tashkil etadi. Mazkur jarayonda integrativ yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Integrativ yondashuv ta'lim mazmunini fanlararo bog‘liqlik asosida tashkil etish, turli o‘quv fanlari o‘rtasida mantiqiy aloqadorlikni ta'minlash va talabalarda yaxlit dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv orqali talabalar adabiyot, san'at, pedagogika va psixologiya kabi fanlar kesimida badiiy tafakkurni chuqurroq anglash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu bois, pedagogika yo‘nalishi talabalarining badiiy tafakkurini rivojlantirishda integrativ yondashuvdan samarali foydalanish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida qaraladi va ushbu maqolada uning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritiladi.

ASOSIY QISM

Integrativ yondashuvning pedagogik mohiyati

Integrativ yondashuv zamonaviy ta'lim tizimida o‘quv jarayonini fanlararo bog‘liqlik asosida tashkil etishga yo‘naltirilgan didaktik konsepsiya hisoblanadi.

Ushbu yondashuv ta’lim mazmunini alohida fanlar doirasida emas, balki ularning o‘zaro uyg‘unligi va bir-birini to‘ldirishi asosida o‘rganishni nazarda tutadi. Natijada talabalarda tizimli fikrlash, mantiqiy bog‘liqlikni anglash va ijodiy yondashuv shakllanadi. Pedagogika yo‘nalishi talabalarini tayyorlash jarayonida integrativ yondashuvning qo‘llanilishi ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan birga, badiiy tafakkurini ham boyitadi. Chunki turli fanlar — adabiyot, san’at, psixologiya va pedagogika o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash talabalarning estetik idrokini kengaytiradi.

Badiiy tafakkurning mazmuni va uning pedagogik ahamiyati. Badiiy tafakkur insonning voqelikni obrazlar, tasvirlar va estetik kategoriyalar orqali idrok etish qobiliyatidir. U ijodiy tasavvur, emotsional sezgirlik va estetik baholash bilan chambarchas bog‘liqdir. Pedagogika talabalarida badiiy tafakkurning rivojlanishi ularning pedagogik faoliyatini yanada samarali va ijodiy tashkil etishga xizmat qiladi. Badiiy tafakkurga ega bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchi:

-ta’lim jarayonini ijodiy tashkil etadi;

-o‘quvchilarda estetik didni shakllantiradi;

-dars jarayonida obrazli fikrlashdan foydalanadi;

-pedagogik vaziyatlarga kreativ yondashadi.

Integrativ yondashuv orqali badiiy tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlari. Integrativ yondashuv zamonaviy ta’lim jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta’minlash orqali talabalarning ijodiy va badiiy tafakkurini rivojlantirishda keng imkoniyatlar yaratadi. Ushbu yondashuv turli o‘quv fanlari mazmunini o‘zaro bog‘lash, ularni yaxlit tizim sifatida idrok etish hamda bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga asoslanadi. Natijada talabalar voqelikni chuqur, obrazli va ijodiy tarzda anglash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Integrativ yondashuvning muhim imkoniyatlaridan biri fanlararo bog‘liqlikni ta’minlashdir. Masalan, adabiyot, san’atshunoslik, pedagogika va psixologiya fanlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish orqali talabalarda estetik idrok, emotsional sezgirlik va obrazli fikrlash rivojlanadi. Bunday

yondashuv talabalarga badiiy asarlarni nafaqat mazmunan, balki estetik va psixologik jihatdan ham tahlil qilish imkonini beradi.

Yana bir muhim jihat talabalarning ijodiy faoliyatini faollashtirishdir. Integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda talabalar mustaqil ijodiy topshiriqlar bajaradilar, badiiy matnlar yaratadilar, san’at asarlarini tahlil qiladilar hamda turli pedagogik vaziyatlarga kreativ yechimlar taklif etadilar. Bu esa ularning tasavvur doirasini kengaytiradi va badiiy tafakkurini boyitadi. Shuningdek, integrativ yondashuv ta’lim jarayonida obrazli fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Badiiy matnlar, tasviriy san’at asarlari va multimedia vositalaridan foydalanish talabalarda voqelikni ramziy va estetik obrazlar orqali idrok etish ko‘nikmasini shakllantiradi. Bu esa pedagogik faoliyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish integrativ yondashuvning samaradorligini yanada oshiradi. Multimedia resurslari, interaktiv platformalar va raqamli ta’lim vositalari talabalar badiiy tafakkurini vizual va emotsional jihatdan rivojlantirishga yordam beradi.

Integrativ yondashuv badiiy tafakkurni rivojlantirishda bir qator muhim imkoniyatlarni yaratadi. Jumladan:

Fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash adabiyot, san’at va pedagogika fanlarini uyg‘unlashtirish orqali talabalarda yaxlit estetik qarash shakllanadi.

Obrazli fikrlashni rivojlantirish badiiy matnlar, san’at asarlari va pedagogik vaziyatlar tahlili orqali talabalarning tasavvur doirasi kengayadi.

Ijodiy faoliyatni faollashtirish mustaqil ijodiy topshiriqlar, loyihalar va muhokamalar badiiy tafakkurni kuchaytiradi.

Estetik madaniyatni shakllantirish san’at va madaniyat elementlarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish orqali estetik did rivojlanadi.

Amaliy metod va vositalar. Badiiy tafakkurni rivojlantirishda integrativ yondashuv doirasida quyidagi metod va vositalardan foydalanish samarali hisoblanadi:

-interfaol metodlar (munozara, “aqliy hujum”, klaster);

-loyiha asosida o‘qitish texnologiyasi;

-badiiy matn va san’at asarlarini tahlil qilish;

-integrativ dars ishlanmalarini yaratish;

-multimedia va raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish.

Pedagogika yo‘nalishi talabalarining badiiy tafakkurini rivojlantirishda integrativ yondashuv komponentlari

№	Integrativ yondashuv komponentlari	Mazmuni	Kutiladigan natija
1	Fanlararo integratsiya	Adabiyot, san’at, pedagogika va psixologiya fanlarini o‘zaro bog‘lash	Yaxlit dunyoqarash va estetik idrok shakllanishi
2	Obrazli fikrlashni rivojlantirish	Badiiy matnlar va san’at asarlarini tahlil qilish	Tasavvur va ijodiy fikrlashning rivojlanishi
3	Kreativ topshiriqlar	Mustaqil ijodiy ishlar, esse va loyihalar bajarish	Ijodiy faoliyat va badiiy tafakkurning kuchayishi
4	Interfaol metodlar	Munozara, “aqliy hujum”, klaster texnikasi	Faol fikrlash va tahlil qilish qobiliyatining rivojlanishi
5	Multimedia vositalari	Video, audio, raqamli resurslardan foydalanish	Estetik sezgirlik va vizual tafakkurning rivojlanishi
6	Refleksiya va tahlil	O‘z fikrini ifodalash va baholash	O‘z-o‘zini anglash va tanqidiy fikrlash shakllanishi

Ushbu metodlar talabalarning nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki ularning ijodiy fikrlashini, estetik sezgirligini va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiradi.

XULOSA

Pedagogika yo‘nalishi talabalarining badiiy tafakkurini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimida muhim ilmiy-pedagogik muammolardan biri sifatida

e’tirof etiladi. Chunki bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy faoliyati nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarda estetik did, ijodiy yondashuv va obrazli fikrlashni shakllantirish bilan ham bevosita bog‘liqdir. Shu jihatdan, talabalar badiiy tafakkurini rivojlantirish ularning kelajakdagi pedagogik mahoratini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. O‘tkazilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, integrativ yondashuv ta’lim jarayonini fanlararo aloqadorlik asosida tashkil etish orqali talabalarda yaxlit dunyoqarash, ijodiy fikrlash va estetik idrokni shakllantirishga xizmat qiladi. Adabiyot, san’at, pedagogika va psixologiya fanlarining o‘zaro uyg‘unligi talabalar ongida voqelikni chuqur va obrazli idrok etish imkoniyatini kengaytiradi. Bu esa badiiy tafakkurning rivojlanishida muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida talabalarning faolligi ortadi, ularning mustaqil fikrlashi va ijodiy salohiyati rivojlanadi. Interfaol metodlar, loyiha asosida o‘qitish, kreativ topshiriqlar, multimedia vositalari va san’at asarlarini tahlil qilish kabi pedagogik texnologiyalar badiiy tafakkurni shakllantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu metodlar talabalarda nafaqat bilim, balki estetik munosabat, emotsional sezgirlik va ijodiy yondashuvni ham rivojlantiradi. Yana shuni ta’kidlash lozimki, integrativ yondashuv talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Bo‘lajak pedagoglar ta’lim jarayonini ijodiy tashkil etish, o‘quvchilarda estetik tarbiyani rivojlantirish va darslarni qiziqarli shaklda olib borish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Bu esa zamonaviy ta’lim talablariga javob beradigan, kreativ fikrlovchi pedagog kadrlarni tayyorlash imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, pedagogika yo‘nalishi talabalarining badiiy tafakkurini rivojlantirishda integrativ yondashuvdan samarali foydalanish ularning ijodiy salohiyatini oshiradi, estetik madaniyatini boyitadi hamda kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlaydi. Shu bois, ta’lim jarayonida integrativ yondashuvni keng joriy etish bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash sifatini oshirishda dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Mahmudov T., *Estetika va ma'naviy qadriyatlar*, Toshkent, 1993.

2.Abdullaev A., *Go'zallikka tashnalik*, Toshkent, 1994.

3.Ijodiy tafakkurni rivojlantirish. https://b-trainika.com/blog/razvitie-tvorcheskogo-myshleniya/

ЭФФЕКТИВНОЕ ПРЕПОДАВАНИЕ СПЕЦИАЛЬНЫХ ДИСЦИПЛИН В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ: ОПЫТ РАЗВИТЫХ СТРАН

Шарифов Мухриддин Камоладдин ўғли

Базовый докторант Института развития профессионального образования

(+998912772138) muxriddinsharifov98@gmail.com

Аннотация. *В данной статье анализируется опыт преподавания специальных дисциплин в профессиональных образовательных организациях ведущих стран мира - Германии, Швейцарии, Финляндии, Японии, Южной Кореи. В статье рассматриваются основные характеристики различных национальных моделей, методов обучения, систем подготовки учителей и баланса между практикой и теорией. В статье анализируются положительные аспекты зарубежного опыта и даются рекомендации по их внедрению в национальную систему профессионального образования. Результаты исследования служат повышению качества эффективного преподавания специальных дисциплин в организациях профессионального образования и подготовке квалифицированных специалистов, отвечающих требованиям рынка.*

Ключевые слова: *Международный стандарт, дуальное образование, STEM, Meister, национальная система образования, профессиональная подготовка, сертификация EBA, цифровые технологии.*

Annotation. *This article analyzes the experience of teaching specialized disciplines in professional educational organizations in the world's leading countries - Germany, Switzerland, Finland, Japan, and South Korea. The article examines the key characteristics of various national models, teaching methods, teacher training systems, and the balance between practice and theory. The article analyzes the positive aspects of foreign experience and provides recommendations for its implementation in the national vocational education system. The research results serve to improve the quality of effective teaching of specialized disciplines in professional education organizations and to train qualified specialists who meet market requirements.*

Key words: *International standard, dual education, STEM, Meister, national education system, vocational training, EBA certification, digital technologies.*

В условиях внедрения современных образовательных технологий в систему профессионального образования широкий поток информации создает необходимость постоянного обновления и совершенствования содержания образования. Актуальными задачами являются последовательная реализация государственной политики в сфере образования, развитие учебно-воспитательного процесса на основе единых государственных образовательных требований в подготовке кадров, обеспечение учебной литературой и непрерывное методическое обслуживание педагогов.

Внедрение международного опыта в процесс преподавания специальных дисциплин является одним из важных направлений адаптации системы образования к передовым мировым стандартам и ее развития.

Использование инновационных инструментов играет важную роль в процессе внедрения международного опыта. В ведущих образовательных учреждениях мира в учебном процессе широко используются интерактивные методы обучения. Например, такие методы, как кейс-метод, симуляция, многоуровневые модели обучения, обучение, основанное на сотрудничестве, показали свою эффективность в международном образовательном опыте. Внедрение международных образовательных стандартов может повысить эффективность учебного процесса. При этом важное значение имеют программы, механизмы оценки и контроля, адаптированные к международному уровню образования, соблюдение высоких стандартов на каждом этапе образовательного процесса. В настоящее время широко используемые в мире модели дистанционного и смешанного обучения, т.е. blended learning, позволяют студентам непрерывно и быстро усваивать знания. Такие подходы позволяют обогатить образовательный процесс инновационными технологиями. Например, через такие платформы, как

Coursera и EdX, можно дистанционно получать доступ к курсам международного уровня и повышать квалификацию.

Научные основы преподавания специальных дисциплин основаны на глубоком анализе системных, теоретических и практических аспектов образовательного процесса. Научные исследования, прежде всего, направлены на гармонизацию теоретических знаний в образовании с практическими занятиями и их закрепление. В этом процессе для эффективной организации образовательного процесса используются различные педагогические технологии. Обучение специальным дисциплинам, в основном, предусматривает развитие профессиональных знаний и умений учащихся в соответствии с требованиями специальности. В преподавании таких предметов большое значение имеет закрепление теоретических знаний не только в процессе урока, но и посредством практических занятий, обеспеченных научными основами. Путем тесной связи теоретической и практической частей учащиеся приобретают всесторонние знания, отвечающие требованиям специальности.

Важной задачей является подготовка учащихся к требованиям международного рынка труда путем внедрения международного опыта в национальную систему образования. Инновационные образовательные средства и своеобразные модели обучения, используемые в разных странах мира, позволяют ознакомить будущих специалистов с международным опытом и внедрить их в практику. Это, в свою очередь, способствует конкурентоспособности молодых специалистов на международном рынке труда. Кадры, подготовленные по каждому направлению профессионального образования на основе международных стандартов, успешно работают не только в национальных производственных процессах, но и на зарубежных предприятиях.

Путем внедрения международных стандартов в образовательный процесс возможно дальнейшее совершенствование механизмов оценки профессиональной подготовки студентов. Это служит обеспечению прозрачности, справедливости и объективности процесса оценки и гарантирует соответствие квалификации студентов требованиям международного рынка труда. Например, система ECTS (European Credit Transfer and Accumulation System), используемая в европейских странах, является одним из эффективных подходов к оценке знаний учащихся в соответствии с международными стандартами. Эта система будет внедрена в национальные системы образования, что позволит международно признать и оценить профессиональные компетенции студентов.

В мире передовой международный опыт преподавания специальных дисциплин часто служит для повышения эффективности учебного процесса и обеспечения того, чтобы специалисты имели самый высокий уровень квалификации и знаний. Такие эксперименты проводятся в разных странах в разных областях и через различные науки. Ниже мы рассмотрим передовой опыт некоторых международных стран:

Южнокорейский подход к профессиональному образованию стратегически адаптирован к требованиям Четвертой промышленной революции и инвестируется в профессиональное образование. Акцент делается на развитии навыков, отвечающих технологическим требованиям современных отраслей, и учащиеся становятся готовыми к будущим вызовам. Благодаря корейской национальной системе квалификаций миллионы кандидатов получили дипломы, что позволило многим развивать навыки и получать доступ к карьерным возможностям. В профессиональных образовательных учреждениях основное место занимает проектное обучение (Project-based learning). Студенты проходят аттестацию не путем теоретического экзамена по специальным дисциплинам, а путем создания

конкретного технического устройства или программного продукта. Проведение практики в преподавании дисциплин по передовым технологиям и инновациям в Южной Корее посредством независимых контактов между учебными заведениями и малыми и крупными компаниями производственной сферы [1].

Цель образовательного процесса в Японии ясна и известна. Для повышения квалификации специалистов в конкретной области предлагаются курсы и тренинги по конкретным направлениям. Это особенно популярно в области IT, биотехнологий и инженерии [2].

В Финляндии учащиеся, окончившие среднюю школу, выбирают общеобразовательное или профессиональное направление, около половины из них предпочитают профессиональный путь. В программах профессионального образования учащиеся изучают предметы в своей специализированной области, и примерно 80 процентов учебного времени охватывает выбранную учащимся специализацию, в то время как оставшиеся 20 процентов посвящены общеобразовательным предметам. Профессиональное образование в Финляндии отличается тем, что оно опирается на компетентностный подход: студенты оцениваются путем выполнения реальных рабочих заданий, где каждый модуль оценивается преподавателем и представителем рабочего места совместно, при этом национального итогового экзамена не существует. Чтобы стать преподавателем профессиональных дисциплин, обычно необходимо соответствовать трем требованиям: уровень высшего образования в соответствующей области, практический опыт работы и педагогическая подготовка. Преподаватели профессионального образования должны иметь опыт работы в своей области не менее 3 лет. На практике многие преподаватели профессионального образования - это опытные специалисты, которые работали в промышленности в среднем до 40 лет, а затем перешли к

преподаванию. Отличительной особенностью преподавания специальных дисциплин в Финляндии является многодисциплинарный подход. Например, в области автомобильного ремонта учащиеся одновременно изучают техническую физику, цифровую диагностику и навыки общения с клиентами [3].

Германия является одной из ведущих стран мира в области профессионального образования. Опыт Германии признан самой популярной и эффективной системой ВЭС в мире. Система дуального обучения сочетает практику в компании и теоретическое обучение в профессиональной школе. В Германии учащиеся могут выбрать одно из более чем 250 профессиональных направлений. В Германии ремесла и технические профессии предоставляют возможности для достижения высокого социального статуса. В учреждениях профессионального образования преподаватели, как правило, должны иметь соответствующий уровень высшего образования, практический опыт и педагогический диплом. Преподаватели мастерских должны иметь сертификат "Мейстер" (мастер) и информацию о завершении педагогической подготовки. Внутрифирменные тренеры (Ausbilder) должны иметь соответствующую профессиональную квалификацию и подтвержденный сертификат тренера. В профессиональных школах время, отведенное на общие предметы (математика, немецкий язык) и специальные предметы, составляет в среднем 15 - 25%, остальное время проводится в компании [4].

Примечательно, что дуальную систему Германии невозможно точно копировать в другие страны. Потому что эта система глубоко укоренилась в экономической структуре, правовой основе и социально-культурной среде страны. Тем не менее, его основные принципы - гармония теории и практики, активное вовлечение работодателей в образовательный процесс - имеют универсальное значение.

Швейцарская система профессионального образования признана многими международными экспертами самой сильной системой в Европе. Это основная программа на уровне старшей средней школы, охватывающая 65-70% швейцарской молодежи. В Швейцарии преподаватели профессиональных школ проходят специальную педагогику в Швейцарском федеральном университете профессионального образования. Учителя общеобразовательных предметов добавляют модуль профессионального образования к квалификации академической школы. По месту работы тренеры должны иметь сертификат EFZ или EBA и соответствующий опыт работы не менее 2 лет. Для преподавателей школы профессионального образования обязательно регулярное повышение квалификации. Учебные программы полностью разрабатываются ассоциациями работодателей. Это гарантирует 100% соответствие дисциплин рынку труда [5].

В Узбекистане последовательно и интенсивно осуществляется процесс модернизации системы профессионального образования. В частности, в рамках широкомасштабных реформ, проводимых с 2017 года, принят ряд важных нормативно-правовых актов, направленных на укрепление материально-технической базы учреждений профессионального образования, совершенствование учебных планов и программ на основе современных требований, повышение квалификации педагогических кадров. Анализ зарубежного опыта показывает, что для обеспечения эффективности этих реформ необходимо уделить особое внимание некоторым приоритетным направлениям.

1. Переход к системе обучения и оценки, основанной на компетенциях. Исходя из опыта Финляндии и Швеции, необходимо перевести оценку по специальным дисциплинам на систему, включающую не только теоретические знания, но и демонстрацию практических навыков.

2. Формирование механизмов системного сотрудничества с промышленностью. Необходимо официально вовлекать ассоциации работодателей в процесс разработки и обновления учебных программ, создавать механизмы оказания ими технологической помощи учебным заведениям.

3. Широкое внедрение цифровых технологий и методов симуляции в учебный процесс. Опыт Южной Кореи и развитых европейских стран показывает, что виртуальные симуляторы, 3D-моделирование и цифровые инструменты значительно повышают эффективность преподавания специальных дисциплин.

4. Поэтапное внедрение модели двустороннего образования. Вместо того, чтобы копировать полную копию немецкой дуальной системы, целесообразно адаптировать ее основные принципы - сотрудничество предприятия и учебного заведения - к условиям Узбекистана. В первую очередь рекомендуется разработать пилотные проекты в области медицины, машиностроения и IT.

5. Пересмотр системы подготовки учителей. Для работы в качестве преподавателя профессионального образования необходимо сочетание отраслевого опыта и педагогической квалификации. Требование не менее двух лет отраслевого опыта работы, установленное стандартами АСЕАН, может служить стандартом и для Узбекистана.

Внедрение международного опыта в процесс преподавания специальных дисциплин является важным фактором повышения качества образования, приведения его в соответствие с международными стандартами и поднятия уровня профессиональной подготовки студентов на более высокий уровень. Благодаря внедрению международного опыта учебный процесс обогащается современными технологиями, широко применяются интерактивные и инновационные методы. Это позволяет органично связать теоретические

знания и практические навыки, а также расширяет возможности подготовки молодых специалистов как конкурентоспособных кадров, отвечающих требованиям глобального рынка труда.

Анализ зарубежного опыта показывает, что единой универсальной модели построения эффективной системы преподавания специальных дисциплин в организациях профессионального образования не существует. Каждая страна разработала подход, соответствующий ее экономическим, социальным и культурным условиям. В то же время существуют общие принципы, объединяющие все успешные модели - гармония теории и практики, промышленное сотрудничество, высокая квалификация преподавателей и модульная гибкая программная структура.

Совершенствование системы профессионального образования - это долгосрочный и последовательный процесс. Сотрудничество между государством, образовательными учреждениями, работодателями и академическим сообществом имеет решающее значение для успеха этого процесса.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. https://www.worldoftvet.com/blog/tvet-learning-from-international-models

2. https://www.studyinjapan.go.jp планирование обучения about-schools vocational-schools

3. Hanna Ilola, Juha Lahtinen and Kirsi Saarinen Vocational Education and Training in Finland 2023

4. Системы профессионального образования и подготовки в девяти странах © OECD 2025

5. Пьер Дилленбур, Альберто Каттанео, Жан-Люк Гертнер, Ричард Ли Дэвис. Образовательные технологии для профессионального обучения в качестве цифровой глины. SFUVET 2022.

PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA MAS'ULIYAT FENOMENINI O'RGANISHNING MOHIYATI

Buxoro xalqaro universiteti

Psixologiya(faoliyat turlari bo'yicha) mutaxasissligi

2-kurs magistranti

Ne'matilloyeva Mohidil Aloviddinovna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada psixologiya fanining fundamental va amaliy yo'nalishlarida mas'uliyat fenomenini o'rganishning nazariy-uslubiy asoslari va uning shaxs shakllanishidagi mohiyati yoritilgan. Tadqiqotda mas'uliyat tushunchasining turli psixologik maktablar (biogeviorizm, kognitiv psixologiya, gumanistik yondashuv) doirasidagi talqinlari qiyosiy tahlil qilinadi. Maqolada mas'uliyat shaxsning irodaviy sifati, motivatsion komponenti va ijtimoiy moslashuvining muhim omili sifatida tadqiq etilgan. Shuningdek, shaxsning o'z xulq-atvori va hayotiy tanlovlari uchun javobgarlikni anglash darajasi — lokus nazorati bilan bog'liqligi ilmiy asoslab berilgan. Maqolaning yakunida mas'uliyat fenomenini o'rganishning zamonaviy psixologik diagnostika va korreksiya ishlaridagi ahamiyati haqida xulosalar keltirilgan.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются теоретико-методологические основы изучения феномена ответственности в фундаментальных и прикладных направлениях психологической науки, а также его сущность в формировании личности. В исследовании проводится сравнительный анализ интерпретаций понятия ответственности в рамках различных психологических школ (бихевиоризм, когнитивная психология, гуманистический подход). Ответственность исследуется как волевое качество личности, мотивационный компонент и важный фактор социальной адаптации. Научно обоснована связь между уровнем осознания ответственности за свое поведение и жизненный выбор с локусом контроля личности. В завершении статьи представлены выводы о значимости изучения феномена ответственности в современной психологической диагностике и коррекционной работе.*

Abstract: *This article examines the theoretical and methodological foundations of studying the phenomenon of responsibility in the fundamental and applied fields of psychological science,*

as well as its essence in the formation of personality. The study provides a comparative analysis of the interpretations of the concept of responsibility within various psychological schools (behaviorism, cognitive psychology, humanistic approach). Responsibility is explored as a volitional quality of a person, a motivational component, and an important factor in social adaptation. The connection between the level of awareness of responsibility for one's behavior and life choices with the ***locus of control*** *of the individual is scientifically substantiated. At the end of the article, conclusions are drawn on the significance of studying the phenomenon of responsibility in modern psychological diagnostics and correctional work.*

Kalit so‘zlar: *mas’uliyat fenomeni, shaxs psixologiyasi, lokus nazorati, ijtimoiy javobgarlik, irodaviy sifatlar, subyektiv reallik, determinizm, ekzistensial psixologiya.*

Ключевые слова: *феномен ответственности, психология личности, локус контроля, социальная ответственность, волевые качества, субъективная реальность, детерминизм, экзистенциальная психология.*

Keywords: *phenomenon of responsibility, personality psychology, locus of control, social responsibility, volitional qualities, subjective reality, determinism, existential psychology.*

KIRISH

Zamonaviy psixologiya fanining eng murakkab va fundamental muammolaridan biri — bu shaxsning ijtimoiy muhitda o‘zini anglash va o‘z faoliyati natijalari uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olish xususiyatidir. Globallashuv va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning shiddatli o‘zgarishi sharoitida shaxsning mas’uliyati nafaqat axloqiy kategoriya, balki professional yetuklik va ruhiy barqarorlikning asosiy mezoni sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, bo‘lajak mutaxassislar shakllanayotgan oliy ta’lim bosqichida mas’uliyat fenomenini o‘rganish, jamiyat uchun raqobatbardosh va ishonchli kadrlarni tayyorlashning strategik muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Muammoning mohiyati. Psixologik nuqtayi nazardan mas’uliyat — bu shaxsning o‘z xatti-harakatlarini ijtimoiy normalar va ichki qadriyatlar asosida ixtiyoriy tartibga solish qobiliyatidir. U shaxs strukturasida kognitiv (anglash), emotsional (hissiy munosabat) va irodaviy (amaliy bajarish) komponentlarning sintezidan iborat. Biroq, ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talaba-yoshlarda mas’uliyat ko‘pincha tashqi nazorat (eksternallik) shaklida

namoyon bo‘lib, bu ularning mustaqil qaror qabul qilish va kasbiy qiyinchiliklarga bardosh berish qobiliyatini cheklaydi. Shu sababli, mas’uliyatni shaxsning subyektiv xususiyati sifatida tadqiq etish bugungi kun psixologiyasi oldidagi dolzarb ilmiy muammodir.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi psixologik tadqiqotlarda mas’uliyat fenomenini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish hamda talabalarda kasbiy mas’uliyatni shakllantiruvchi psixologik shart-sharoitlarni aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: Mas’uliyat tushunchasiga oid klassik va zamonaviy psixologik yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish;

ADABIYOTLARDA YORITILISHI. Shaxsning mas’uliyat darajasini belgilovchi ichki (lokus-nazorat, motivatsiya) va tashqi (ijtimoiy talablar, ta’lim muhiti) omillarni ochib berish; Mas’uliyat tushunchasi insonning atrof – muhit talablariga faol javob berish harakati bilan xarakterlanib, hozirga qadar ushbu masala qator fanlar psixologiya, sotsiologiya, pedagogika hamda falsafa kabi fanlar tizimida dolzarb muammosi sifatida o‘rganib kelinmoqda. Biroq, barcha fanlarda mas’uliyat fenomenini tushuntiruvchi yagona konsepsiyalar yoki yondashuvlar mavjud emas. Psixologik mazmunga ko‘ra, mas’uliyat fenomeni – javobgarlik, hisob berish kabi ma’nolarni anglatib, unda shaxs imkoniyatini belgilovchi ko‘plab psixologik xususiyatlar o‘z aksini topgan. Shu bilan birga, mazkur xususiyat mazmunida majburiy yechim va javoblarni talab etuvchi, insonning maxsus qobiliyatlari va istaklari tizimi ham mavjud. S.V.Bessmertnaya “mas’uliyat” fenomenini tahlil etar ekan, boshqalardan farqli o‘laroq, uni shaxsning xarakterologik ko‘rsatkichlari sifatida, individual-psixologik xususiyatlarning mahsuli sifatida, kognitiv jarayonlarning mahsuli sifatida, shuningdek, shaxsga xos faollik, tashkilotchilik vazifalarni bajarishga tayyorlik kabi mazmunda ko‘rib chiqishni alohida ta’kidlaydi. Demak, mas’uliyatlilik bir necha psixologik tarkibli psixologik unsur hisoblanadi. Tadqiqotchilardan V.P.Pryadein ham “mas’uliyat”

tushunchasi mazmunini ilmiy asoslash ishlariga alohida e’tibor qaratib, uni namoyon bo‘lishining o‘ziga xosliklarini tadqiq etishga harakat qiladi. Muallifning talqinicha, mas’uliyatlilik xususiyati ongli harakat sanalib, shaxsiy, jamoaviy, kasbiy faoliyat jarayonida rivojlana boradi. Mas’uliyatlilikning refleksivlik jihati ham mavjud bo‘lib, bunday qarashlar K.Muzdibayevning izlanishlarida o‘z aksini topgan. Muallifning talqinicha, mas’uliyatlilik bu – refleksiv sharoitlarda namoyon bo‘ladigan yoki bajarilgan harakatlar uchun javobgarlik sifati hisoblanib, unda shaxs o‘z kelajagiga bo‘lgan munosabatini namoyon etadi. Psixologik adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, “mas’uliyat” tushunchasining to‘liq, aniq konsepsiyalari mavjud emas. Uning to‘liq talqini Yangi psixologik g‘oyalarga muhtoj sanaladi.

Mas’uliyat tushunchasini ilmiy jihatdan asoslash, uni shaxsga xos qadriyatlar yo‘nalishi hamda irodaviy sifatlar orqali tushuntirish holati gumanistik psixologiya va ekzistensial psixologiya ta’limotlarida ham o‘z aksini topgan. Ushbu ikki ta’limotga muvofiq “mas’uliyatlilik” insonda qadriyatlarning to‘g‘ri yo‘nalganligi hamda erkinlik, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari, topshiriqlarni o‘z zimmasiga olish qobiliyati kabilar orqali namoyon bo‘ladi. Bundan farqli o‘laroq, psixodinamik ta’limot vakillariga ko‘ra, insonda mas’uliyat hissining namoyon bo‘lishi va rivojlanishi ijtimoiy qo‘rquv va jamiyatdagi bosim orqali paydo bo‘ladi. Jamiyatdagi ijtimoiy bosim bu – inson tomonidan jamiyatda qabul qilingan qonun va qoidalarga to‘liq rioya qilish jarayonidir. Psixoanaliz ta’limotining asoschisi Z.Freydning aytishicha, mas’uliyat fenomeni ibtidoiy xarakterga ega bo‘lib, u qadimgi odamlar va jamoalarning jazolardan saqlanishga qaratilgan harakatlari majuidir. Biroq, inson olomon ichida mas’uliyatlilikni yo‘qotadi. Ya’ni turli ijtimoiy to‘siqlar insondagi ushbu sifatlar rivojlanishini to‘sib qo‘yadi. Demak, mas’uliyat fenomeni guruh qoidalariga amal qilish, boshqalar bilan o‘z maqsadlarini birlashtirish kabi ma’nolar bilan ham tavsiflanadi. Neofreydizm ta’limotida ham mas’uliyat tushunchasining o‘ziga xos talqini mavjud. Ushbu ta’limotning yetakchilaridan biri G.S.Sallivanning talqinicha, mas’uliyatlilik shakllanishini

ijtimoiy qo‘rquv sifatida emas, balki ataylab tanlangan yoki rad etilishi mumkin bo‘lgan o‘ziga xos harakat sifatida ko‘rib chiqish lozim. G.S.Sallivandan farqli o‘laroq, K.Xornining so‘zlariga ko‘ra, mas’uliyat bu subyektning shaxsiy o‘sishi uchun shart sanalgan psixologik zaruratdir. Faqat nevrozlar insonni mas’uliyatlilikdan va rivojlanishdan to‘xtatadi. Muallifning xulosalariga ko‘ra, inson biror bir faoliyatda mas’uliyatli bo‘lishi uchun avvalo, nevrotik vaziyatlar va nevrozlardan holi bo‘lishi lozim.

K.Xorni g‘oyalarini davom ettirgan neofreydizmning Yana bir taniqli vakili E.From birinchilardan bo‘lib, mas’uliyatlilikni erkinlik xususiyati bilan bog‘lab tushuntirdi. E.Fromning ta’kidicha, mas’uliyatlilik insonda bolalikdan boshlanadi, keyinchalik u ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib boradi. Bunda inson faoliyati uchun xos bo‘lgan mustaqillik, tanlov erkinligi, javobgarlik kabi sifatlar asosiy omildir. E.From erkinlikning ikki turini ajratadi: kutilayotgan va haqiqiy erkinlik. Mana shu ikki tarkib orqali inson o‘z-o‘zini anglaydi, rejalar tuzadi, natijalarni oldindan ko‘ra oladi hamda tanlash erkinligiga ega bo‘ladi. Umuman olganda, mas’uliyat muammosini bunday tushunish ko‘proq gumanistik hamda ekzistensial yo‘nalishdagi psixoterapivtik g‘oyalarda o‘z aksini topgan.

J.Piajening so‘zlariga ko‘ra, bolalarda shakllanayotgan mas’uliyatlilik sifatlarining ikki muhim jihati ya’ni, obyektiv va subyektiv jihatlari mavjud. Bolalar o‘yin paytida yoki boshqa vaziyatda o‘z qahramonlari faoliyatini baholashga harakat qilishadi. Shuningdek, ular vaziyatlarni baholashda xolisona harakat qilishadi. Ya’ni, axloqiy me’yorlarga ko‘nikma orttirib boradilar. Keyinchalik, J.V.Piajening g‘oyalarini uning shogirdi L.Kolberg davom ettirdi. L.Kolberg mas’uliyat sifatini tadqiq qilar ekan, avvalo uning dinamik rivojlanish xarakteriga ko‘proq e’tibor qaratdi. Muallif muammoni hal qilishda keng qamrovli tadqiqot olib borib, obyekt sifatida o‘quvchilar, kollej o‘quvchilari va universitet talabalar guruhini tanlab oldi. Va oxir-oqibat mas’uliyatlilik sifatining shakllanishi shaxsning axloqiy ulg‘ayishi

bilan bog‘liqligini aniqladi. Va shaxsda mas’uliyatlilik rivojlanishini ta’minlovchi axloqiy rivojlanishning besh bosqichini ajratib o‘tadi:

Obyektiv bosqich – bu o‘z harakatlari natijasi asosida, mas’uliyatlilikni anglash bosqichi;

Subyektiv bosqich – bu nafaqat natijani, harakatlarning motivlarini baholash bosqichi. Ya’ni, ushbu bosqichda mas’uliyatlilik ijtimoiy majburiyat sifatida qabul qilinadi;

Axloqiy kamolot bosqichi – bu bosqichda mas’uliyatlilik sifati to‘liq jamiyatda qabul qilingan axloq qoidalari bilan tartiblanadi. Axloqiy yetuklik bosqichida shaxsning huquq va erkinliklari birinchi o‘ringa chiqadi, shuningdek, bu jarayonda inson va uning hayot mazmuni alohida ahamiyatga ega sanaladi.

Prognostik (bashorat qilish) bosqich – oldindan biror vazifalar, topshiriqlarni bilish bochqichi. Buning uchun shaxsda mavjud bo‘lgan tajribalar, kompetensiyalar va yuqori kasbiy malakalar muhim sanaladi.

Rag‘batlantiruvchi bosqich – intellektual va axloqiy rivojlanish mas’uliyatlilikni rag‘batlantiruvchi psixologik omillar hisoblanadi. Mazkur tasnif etilgan mulohazalardan ko‘rinadiki, mas’uliyat fenomeni dinamik xususiyatga ega bo‘lgan va axloqiy rivojlanish bilan takomillashib boradigan psixologik jarayondir. L.Kolbergdan farqli o‘laroq, tadqiqotchi K.Xelkamaning aytishicha, mas’uliyatlilik tan olingan besh bosqichda emas, uning oxirgi ikki bosqichida namoyon bo‘ladi. Ya’ni ushbu ikki bosqichda mas’uliyatlilikni ta’minlovchi kognitiv va intellektual kamolot yakunlanadi.

Muallifning nazaricha, “mas’uliyatlilik” insonning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi hamda ularni ongli harakatlarga almashinuvini ta’minlovchi ko‘prikdir.

Xorij psixologiyasida mas’uliyat fenomenini psixologik jihatdan asoslashga xizmat qiluvchi ko‘plab tadqiqotlar mavjud. Shulardan, A.Banduraning ijtimoiy ta’lim nazariyasi o‘ziga xos tadqiqot sanaladi. Muallifning aytishicha, shaxsda mas’uliyatlilikning namoyon bo‘lishi tashqi vaziyatlar natijasi hamda sabablarga

bog‘liq sanaladi. Ya’ni, mas’uliyatni anglash muvaffaqiyatsizlikni tushunishdan boshlanadi. Muvaffaqiyatsizlik o‘z harakatlarini tartibga solish, o‘z-o‘zini boshqarish, ichki nazoratning ortishi, keyingi vaziyatlarga tayyor turish kabilarga javob beruvchi psixologik jarayondir. Shu orqali shaxsning tashqi muhit talablariga bo‘lgan munosabatlari baholanadi.

XULOSA

Xulosa o’rnida shuni ayta olamizki, psixologik tadqiqotlarda mas’uliyat fenomenini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ushbu tushuncha shaxs strukturasining nafaqat axloqiy, balki fundamental-psixologik asosi hisoblanadi. Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan nazariy tahlil va amaliy kuzatishlar quyidagi ilmiy umumlashmalarga kelish imkonini berdi: Mas’uliyat shunchaki ijtimoiy majburiyat emas, balki shaxsning kognitiv (anglash), affektiv (hissiy daxldorlik) va konativ (irodaviy-bajaruvchanlik) sohalarining sintezidir. Uning mohiyati shaxsning o‘z faoliyati natijalarini oldindan prognoz qila olishi va ushbu natijalar uchun javobgarlikni subyektiv ravishda o‘z zimmasiga olishida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy yondashuvlar doirasida mas’uliyat fenomenining mohiyati shaxsning subyektivlik (agency) xususiyati bilan belgilanadi. Talaba o‘zini ta’lim jarayonining passiv obyekti emas, balki kelajakdagi professional faoliyatining faol ijrochisi deb hisoblagandagina, unda tashqi nazoratdan (eksternallik) ichki nazoratga (internallik) o‘tish sodir bo‘ladi. Bo‘lajak mutaxassislarda mas’uliyat fenomenini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, ushbu sifat professional o‘zlikni anglash (identifikatsiya) jarayoni bilan parallel ravishda rivojlanadi. Talaba o‘zini tanlagan kasbi bilan qanchalik kuchli identifikatsiya qilsa, unda kasbiy etika va mas’uliyat koeffitsiyenti shunchalik yuqori bo‘ladi. Mas’uliyatni shakllantirishning asosiy psixologik mexanizmlari sifatida refleksiya va lokus-nazorat aniqlandi. Refleksiya talabaga o‘z tajribasini qayta ishlash va xatolardan xulosa chiqarish imkonini bersa, internal lokus-nazorat muvaffaqiyatlar uchun shaxsiy hissa darajasini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.

2. Abulxanova-Slavskaya K.A. Psixologiya i soznaniye lichnosti (Problemi metodologii, teorii i issledovaniya realnoy lichnosti). – M.: MPSI, 1999. – 224 s.

3. Baratov Sh.R. Ta’lim tizimida psixologik xizmat. – Toshkent: "Niso poligraf", 2014.

4. Bodrov V.A. Psixologiya professionalnoy prigodnosti. – M.: PER SE, 2001. – 511 s.

5. Dementiy L.I. Otvetstvennost kak resurs lichnosti: Monografiya. – Omsk: Izd-vo OmGU, 2005. – 188 s.

THE ROLE OF TEACHER BEHAVIOUR IN CREATING BASIC MOTIVATIONAL CONDITIONS IN FOREIGN LANGUAGE CLASSROOMS

Islomova Madinaxon

Kokand State University, Uzbekistan

m.islomova877@kokandsu.uz

Abstract. *This article examines the role of teacher behaviour in creating basic motivational conditions in foreign language classrooms. Using theoretical and qualitative analysis, it discusses teacher enthusiasm, commitment to learners' progress, positive expectations, respectful relationships, and individual attention as key sources of motivation. The findings show that motivation depends not only on separate techniques, but also on the teacher's pedagogical personality, classroom climate, and trust-based interaction with students.*

Keywords: *motivation, teacher behaviour, classroom climate, foreign language teaching, learner engagement, teacher expectations, supportive learning environment*

INTRODUCTION

Motivation is one of the most important psychological factors in foreign language learning because successful language development requires continuous practice, readiness to make mistakes, and long-term personal effort. Learners may enter the classroom with different levels of interest and confidence, but the teacher and the classroom environment can either strengthen or weaken these qualities. For this reason, motivational strategies are widely discussed in language pedagogy. However, such strategies cannot work effectively in a motivational vacuum. Before teachers use specific techniques to raise learners' interest, they need to establish basic conditions that make motivation possible.

In foreign language classrooms, these basic conditions are especially important because learners often experience fear of speaking, uncertainty about their

ability, and anxiety about negative evaluation. A supportive teacher can reduce these barriers and help students participate more actively. The present article focuses on the role of teacher behaviour in creating such motivational conditions. It argues that teacher enthusiasm, commitment to learners' progress, positive expectations, respectful communication, and individual attention are not secondary aspects of teaching, but central factors that shape students' willingness to learn.

METHODS

This article is based on theoretical and qualitative analysis of pedagogical ideas related to motivation in foreign language education. The analysis draws on established scholarship on motivational strategies, teacher-student relationships, classroom climate, and learner engagement. The material was examined through thematic categorization, with special attention to five recurring areas: teacher enthusiasm, commitment to students' academic development, positive expectations, personal relationship, and listening culture.

The study does not report experimental data; rather, it synthesizes relevant theoretical perspectives and classroom-based pedagogical observations in order to explain how teacher behaviour contributes to the formation of basic motivational conditions. This design is appropriate because the article aims to clarify a pedagogical process and organize it into a coherent academic discussion rather than measure a single variable statistically.

RESULTS

The analysis shows that three conditions are necessary before motivational strategies can become effective: appropriate teacher behaviour, a pleasant and supportive classroom atmosphere, and a cohesive learner group with positive norms. These conditions are closely connected. A classroom cannot become genuinely supportive if students do not trust the teacher, and group cohesion is difficult to build

when the teacher's behaviour is distant, inconsistent, or indifferent. Thus, teacher behaviour functions as the starting point for the wider motivational climate.

The first major result concerns teacher enthusiasm. When a teacher demonstrates sincere interest in the subject, students are more likely to see learning as meaningful. Enthusiasm does not mean artificial excitement or exaggerated performance. It means that the teacher's attitude shows genuine commitment to the language, the lesson, and the learners. Such behaviour can make the subject more attractive and can encourage students to invest more attention and effort in classroom tasks.

The second important finding is the value of commitment to students' progress. Learners notice whether a teacher is truly concerned about their development. Practical actions such as explaining difficult points patiently, checking assignments responsibly, giving constructive feedback, and helping students when they struggle communicate that their learning matters. This creates a sense of academic security and increases students' willingness to continue working even when language learning becomes difficult.

A further result relates to teacher expectations. Positive expectations can influence students' self-perception and achievement. When teachers believe that learners are capable of progress, this belief is often reflected in the way they ask questions, provide feedback, and respond to mistakes. In contrast, low expectations may reduce learners' confidence and participation. Therefore, expectation is not only an internal belief; it becomes visible through classroom behaviour and can affect the learning process.

The analysis also indicates that a respectful personal relationship between teacher and learner is a key motivational condition. Students are more likely to engage when they feel accepted and valued as individuals. Remembering students' names, listening to their concerns, noticing their interests, and responding to them

with respect can have a strong motivational effect. These actions are simple, but they create a classroom culture in which learners feel seen rather than judged.

DISCUSSION

The findings suggest that motivation should not be understood only as the result of games, rewards, or interesting tasks. These techniques may be useful, but they are unlikely to produce lasting motivation if the deeper classroom conditions are weak. In this sense, teacher behaviour is not merely a background factor. It is a form of pedagogical influence that shapes how students interpret the learning environment and their own ability to succeed.

This issue is particularly relevant in foreign language education. Speaking a foreign language often exposes students to mistakes, hesitation, and possible embarrassment. If the teacher responds harshly or shows indifference, learners may protect themselves by remaining silent. Conversely, when the teacher creates an emotionally safe environment, students become more willing to take risks, ask questions, and use the target language. Thus, the teacher's behaviour can transform anxiety into manageable effort rather than avoidance.

The role of expectations is also significant. Rosenthal and Jacobson's discussion of teacher expectations shows that learners may be influenced by what teachers believe about their potential. In language classrooms, positive expectations should be realistic and supportive rather than pressuring. Teachers need to communicate that progress is possible while also recognizing students' individual pace and difficulties. This balance helps learners develop confidence and persistence.

Finally, the findings highlight the social nature of motivation. A teacher influences not only individual learners but also the culture of the whole group. When respect, cooperation, active listening, and encouragement become classroom norms, motivation becomes more stable. Therefore, motivational teaching begins with the

teacher's personal and professional stance and then extends to classroom interaction, group behaviour, and learner identity.

CONCLUSION

In conclusion, teacher behaviour plays a decisive role in creating basic motivational conditions in foreign language classrooms. Motivation is not built only through isolated techniques; it develops through the teacher's enthusiasm, commitment to students' progress, positive expectations, respectful relationships, and individual attention. A teacher who creates trust and emotional safety helps learners participate more actively and maintain interest in language learning. Therefore, any attempt to improve motivation in foreign language education should begin with the teacher's own pedagogical behaviour and the quality of teacher-student interaction. Lasting motivation begins not simply with method, but with relationship.

REFERENCES

1. Brophy, J. E., & Kher, N. (1986). Teacher socialization as a mechanism for developing student motivation to learn. In R. S. Feldman (Ed.), The social psychology of education: Current research and theory (pp. 257-288). Cambridge University Press.

2. Burden, P. R. (1995). Classroom management and discipline: Methods to facilitate cooperation and instruction. Longman.

3. Chambers, G. N. (1999). Motivating language learners. Multilingual Matters.

4. Csikszentmihalyi, M. (1997). Intrinsic motivation and effective teaching: A flow analysis. In J. L. Bess (Ed.), Teaching well and liking it: Motivating faculty to teach effectively (pp. 72-89). Johns Hopkins University Press.

5. Dörnyei, Z., & Csizér, K. (1998). Ten commandments for motivating language learners: Results of an empirical study. Language Teaching Research, 2(3), 203-229.

6. Good, T. L., & Brophy, J. E. (1994). Looking in classrooms (6th ed.). HarperCollins.

7. Raffini, J. P. (1996). 150 ways to increase intrinsic motivation in the classroom. Allyn and Bacon.

8. Rogers, C. R., & Freiberg, H. J. (1994). Freedom to learn. Merrill.

9. Rosenthal, R., & Jacobson, L. (1968). Pygmalion in the classroom: Teacher expectation and pupils' intellectual development. Holt, Rinehart and Winston.

10. Wlodkowski, R. J. (1986). Enhancing adult motivation to learn. Jossey-Bass.

BO'LAJAK PEDAGOG KASBIY IDENTIKLIGI: DEONTOLOGIYA VA INTEGRATSIYA KESIMIDA

Ismailova Nilufar Isroildjanovna

dotsent

Namangan davlat pedagogika instituti

nilufarismailova@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarning kasbiy identikligini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari tadqiq etiladi. Tadqiqot markazida pedagogik deontologiya tamoyillari va ta'lim jarayonidagi integratsiyalashgan yondashuvning o'zaro aloqadorligi turadi. . Maqolada olimlarning deontologik qarashlariga tayanib, pedagogik burch va mas'uliyatning zamonaviy ta'limdagi ahamiyati yoritib berilgan va pedagogik identitetning shakllanishi bo'lajak pedagogning kasbiy mahorati hamda axloqiy qiyofasini belgilovchi asosiy omil ekanligi asoslangan. Tadqiqotda ushbu ikki tushunchaning o'zaro aloqadorligi va ularning pedagog shaxsi shakllanishiga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Kasbiy identiklik, pedagogik deontologiya, integratsiya, kasbiy burch, pedagogik mahorat, refleksiv yondashuv.*

Abstract: *This article explores the theoretical and practical foundations of forming the professional identity of future educators. The research focuses on the interconnection between the principles of pedagogical deontology and an integrated approach in the educational process. Drawing on the deontological views of scholars, the article highlights the significance of pedagogical duty and responsibility in modern education. It substantiates that the formation of pedagogical identity is a key factor defining the professional mastery and ethical character of a future teacher. The study provides a scientific and theoretical explanation of the relationship between these two concepts and their impact on the development of the educator's personality.*

Keywords: *professional identity, pedagogical deontology, integration, professional duty, pedagogical mastery, reflexive approach.*

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida pedagogik ta’lim oldida turgan eng muhim vazifalardan biri, nafaqat bilimli mutaxassis, balki mustahkam **kasbiy identiklikka** ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalashdir. **Kasbiy identiklik muammosi** - bu insonning o‘zini muayyan kasbiy hamjamiyatning a’zosi sifatida his qilishi, o‘z kasbiy rollari, qadriyatlari va imkoniyatlarini anglash jarayonidir. Oddiyroq aytganda, bu "Men professional sifatida kimman?" degan savolga javob topishdir.

Bugungi kunda bu mavzuning dolzarbligi bir necha fundamental sabablar bilan bog'liqligi ko’rishimiz mumkin:

1. Texnologik o'zgarishlar va "Yo'qolayotgan kasblar"- Raqamlashtirish va sun'iy intellektning rivojlanishi ko'plab an'anaviy kasblarni transformatsiya qilmoqda yoki butunlay yo'q qilib yubormoqda. Inson yillar davomida shakllantirgan kasbiy "Men"i texnologiya tufayli keraksiz bo'lib qolsa, u chuqur ruhiy inqirozga uchraydi. Kasbiy identiklik endi statik (bir umrlik) emas, balki dinamik (o'zgaruvchan) bo'lishi shart.

2. "Life-long learning" (Umrbod ta'lim) zarurati- Hozirgi zamonda inson hayoti davomida 3-4 marta kasbini o'zgartirishi normal holatga aylandi. Har gal yangi sohani o'rganishda inson o'zini "yangi tug’ilgan" sifatida his qiladi. Bu esa o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishiga olib keladi. Mutaxassis o'zining asosiy ko'nikmalarini (soft skills) saqlab qolgan holda, yangi rollarga moslashishda qiynalmoqda.

3. Kasbiy "Yonish" (Burnout) sindromi-Inson o'zini faqat "ishchi kuch" deb bilsa va kasbi uning shaxsiy qadriyatlariga mos kelmasa, tezda charchaydi.Ko'pchilik pul topish uchun o'zi yoqtirmagan sohada ishlaydi. Bu esa ichki ziddiyatni keltirib chiqaradi. Kasbiy identiklikning mavjud emasligi depressiya va mehnat unumdorligining pasayishiga asosiy sabablardan biridir.

4. Tanlov erkinligining ko'pligi -Frilans, masofaviy ish va gig-ekonomika (qisqa muddatli loyihalar) davrida inson bitta kompaniya yoki bitta lavozimga

bog'lanib qolmayapti. Aniq chegaralarning yo'qligi insonning "Men aslida kimmis: dizaynermi, sotuvchimi yoki blogermi?" degan chalkashligiga olib keladi. Kasbiy identiklik muammosining dolzarbligi shundaki, u shunchaki ish joyini topish emas, balki **shaxsiy baxt va ruhiy muvozanat** masalasidir. Inson o'z ishida o'zligini topmasa, ijtimoiy va iqtisodiy faolligi pasayib ketadi. Bugungi kunda axborot maydonidagi aksariyat mojarolar qonun buzilishidan ko‘ra ko‘proq etik normalarning yetishmasligi, kibr, his-tuyg‘ularni jilovlay olmaslik yoki oddiy muloqot madaniyatining yo‘qligi bilan bog‘liq bo’lmoqda.

ASOSIY QISM

Kasbiy identiklik - bu bo’lajak o’qituvchining o‘zini pedagogik hamjamiyatning bir qismi sifatida his etishi, kasbiy qadriyatlar va normalarni o‘zlashtirishi hamda kelajakdagi faoliyatiga nisbatan ichki tayyorligidir. Zamonaviy pedagogik ta’lim tizimi ijtimoiy-madaniy kontekstning o‘zgarishi va pedagog kadrlar tayyorlash sifatiga qo‘yilayotgan talablarning ortishi natijasida yuzaga kelgan transformatsiya sharoitida turibdi. Bo‘lajak mutaxassisning barqaror kasbiy identikligini qaror toptirishga ko‘maklashish - o‘z kasbiy roli, qadriyatlari, motivlari va mas’uliyatini anglashni o‘z ichiga olgan yaxlit "Men — pedagogman" obrazini shakllantirish oliy ta’lim muassasasidagi tayyorgarlikning markaziy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Pedagog - jamiyatning intellektual va axloqiy qiyofasini shakllantiruvchi asosiy bo‘g‘in. Shunday ekan, bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda asosiy urg‘u faqat uning fanini bilishiga (diplomiga) emas, balki shaxsiyatiga qaratilishi shart. Ta’lim-tarbiya sohasida chinakam professional pedagog faqatgina o‘zining axloqiy jihatdan doimiy o‘sishga intilishi, kasbiga sadoqat bilan yondashishi, o‘z mehnatidan ma’naviy qoniqish olishi kerak. Ana shunday kundalik pedagogik faoliyatida mustahkam axloqiy tayanchga ega bo‘lgandagina shakllanadi. Aynan shu axloqiy barqarorlik pedagogning o‘quvchi, ota-ona va jamiyat bilan munosabatlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

L. V. Bura kasbiy identiklikni "shaxs o‘z-o‘zini anglashining fenomeni bo‘lib, u insonning kasbiy hamjamiyatda samarali faoliyat yuritishi uchun qanday bo‘lishi, nimalarni qila olishi va o‘zini qanday tutishi kerakligi haqidagi tasavvurlarini aks ettiradi" deb ta’riflaydi [1] va bunda uning shaxsiy identiklik bilan bog‘liqligini alohida ta’kidlaydi. Bunday sharoitda, talabalarda oliy ta’lim bosqichidayoq barqaror kasbiy identiklikni maqsadli ravishda shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

L.B. Shneyderning doktorlik dissertatsiyasi kasbiy identiklik, uning tuzilishi, dinamikasi, genezisi va oliy ta’lim muassasasida amaliyotchi psixologlarni tayyorlash jarayonida uning shakllanish shart-sharoitlarini tadqiq qilishga bag‘ishlangan. Ishda kasbiy identiklikni empirik o‘rganish asosida yangi nazariy tushunchalar berilgan bo’lib ushbu mavzuki juda keng yoritishga xarakat qilgan.

Ieremiya Bentam **o**‘qituvchi o‘z burchini (deontologiya) qanchalik chuqur anglasa, uning kasbiy o‘zligi (identitet) shunchalik mustahkam bo‘ladi- degan fikri xozirgi axborot asridagi ayni haqiqat bo’lmoqda.

Pedagogik identiklik va professional "Men" konsepsiyasi: G‘arb pedagogikasida o‘qituvchi shaxsini anglash masalalari C. Day, D. Beijaard va N. Verloop [3,4,5]kabi olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Ularning tadqiqotlarida pedagogning kasbiy identiteti statik tushuncha emas, balki doimiy o‘zgaruvchan, ijtimoiy muhit va shaxsiy tajriba ta’sirida shakllanuvchi jarayon ekanligi isbotlangan. Rossiyalik olimlardan E.F. Zeer kasbiy identitetni mutaxassisning psixologik rivojlanish bosqichlari bilan bog‘lagan holda tahlil qilgan.[7]

Deontologik yondashuvning shakllanishi kasbiy burch va axloqiy majburiyatlarning nazariy asoslari ilk bor J. Bentam tomonidan "lozimlik haqidagi fan" sifatida asoslangan. Uning utilitaristik qarashlari asosida shakllangan "eng ko'p odam uchun eng katta baxt" tamoyili bugungi kunda o‘qituvchining jamiyat oldidagi mas’uliyatini belgilovchi asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.[1] Shuningdek, I.

Kantning "kategorik imperativi" o‘qituvchi etikasining universal qoidalarini ishlab chiqishda poydevor bo‘lgan.[2]

Pedagogik identiklik – o‘qituvchining o‘zini pedagogik kasbning sub’ekti sifatida anglashi, o‘zining kasbiy roli, qadriyatlari, e’tiqodlari, kompetensiyalari va shaxsiy xususiyatlarini birlashtirgan murakkab psixologik tuzilmadir[45]. U ham quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topadi:

№	Komponent	Asosiy mazmuni
1	Kognitiv (o‘z-o‘zini anglash)	O‘z kasbiy rolini tushunish, qobiliyatlarini baholash va pedagogik hamjamiyatdagi o‘rnini anglash.
2	Affektiv-qadriyat	Kasbga bo‘lgan ijobiy munosabat, kasbiy qadriyatlarni qabul qilish va shaxsiy maqsadlar uyg'unligi.
3	Motivatsion-irodaviy	Kasbiy rivojlanishga intilish, qiyinchiliklarni yengib o‘tishda irodaviy harakatlar qilish.
4	Faoliyat va Ijtimoiy-kasbiy	Bilimlarni amaliyotda qo‘llash (mahorat) va pedagogik jamoaga tegishlilik hissi (kollegiallik).

Pedagogik identitet komponentlari

Mazkur chizma pedagogik identitetning inson ruxiyati va jamoaviy munosabatlar bilan qanchalik chuqur bog'langanligini ifodalaydi. Deontologik qoidalar va identitetning o‘zaro qo‘shiluvi faoliyatda kuchli ichki motivatsiya va axloqiy asosni yuzaga keltiradi.

Identitet" tushunchasi lotincha "identitas" so‘zidan olingan bo‘lib, "o‘zlik", "o‘xshashlik", "bir xillik" ma’nolarini anglatadi. Psixologiya va sotsiologiyada bu

[45] Zagvyazinskiy, V.I. Pedagogicheskaya identichnost v kontekste sovremennyx obrazovatelnyx realiy // Vestnik Moskovskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya 20. Pedagogicheskoe obrazovanie. – 2019. – №3. – S. 8-12.

tushuncha shaxsning o‘zini anglashi, o‘zining kimligini va dunyodagi o‘rnini tushunishi bilan bog‘liq holda o‘rganiladi . Bu ta'rif identitetning umumiy psixologik asosini beradi. Professional identitet esa shaxsning o‘zini muayyan kasbiy hamjamiyatning bir qismi sifatida anglashini, o‘zining kasbiy roli, qadriyatlari, e’tiqodlari va kompetensiyalarini o‘zlashtirishini ifodalaydi.

Pedagogik identitet esa, professional identitetning torroq va pedagogik faoliyatga xos bo‘lgan ko‘rinishi bo‘lib, o‘qituvchining o‘zini pedagogik faoliyat sub’ekti sifatida anglashi, o‘zining kasbiy roli, qadriyatlari, e’tiqodlari, kompetensiyalari va shaxsiy xususiyatlarini birlashtirgan murakkab psixologik tuzilma sifatida talqin etiladi . Pedagogik identitet, o‘qituvchining kasbga bo‘lgan ichki munosabatini va o‘zini shu kasbning vakili sifatida his qilishini aks ettiradi. Mazkur tushuncha o‘qituvchining shaxsiy "Men"i va kasbiy "Men"i o‘rtasidagi uyg‘unlikni aks ettiradi. Amerikalik psixolog Erik Eriksonning "Identitet krizisi" nazariyasi va J.Marcia ning identitet holatlari konsepsiyalari professional identitetning shakllanishida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi . Bu nazariyalar, identitetning dinamik jarayon ekanligini va turli bosqichlardan o‘tishini tushuntiradi. O‘zbekistonlik tadqiqotchilardan N.Gaybullaev va Sh.Alimovlarning fikriga ko‘ra, pedagogik identitet o‘qituvchining o‘z kasbiga bo‘lgan munosabati, uning maqsadi, qadriyatlari va professional kompetentligining uyg‘unligi sifatida qaraladi . Bu yondashuv, pedagogik identitetni nafaqat psixologik, balki pedagogik kategoriyalar bilan ham bog'laydi. Xorijiy mualliflar, jumladan, A.Hargreaves va L.V.Maksakovalar, pedagogik identitetni o‘qituvchining kasbiy rivojlanishi, pedagogik faoliyatining samaradorligi va stresslarga chidamliligi bilan bevosita bog‘liq ekanligini ta’kidlaydilar.

Makarenkoning takidlashicha "Pedagog shakllanishi faqat kitoblarni o‘qish orqali emas, balki amaliyot orqali, bola bilan haqiqiy munosabatda bo‘lish orqali amalga oshiladi. Nazariya ahamiyatli, ammo amaliyot — bu shunchaki zarur. Shaxsiy tajriba, boshqa pedagoglarning usullari, o‘z xatolarida dars olish —

bularning barchasi identitetni shakllantirishda rol o‘ynaydi[46]. Makarenko pedagogik identitetni shakllantirish jarayonini "amaliyotga asoslangan o‘quv" deb ko‘radi. Bu degani, o‘z-o‘zini "pedagog" deb atash yetarli emas, balki haqiqiy talabalar bilan ishlashda o‘zini shnday sifatida sothlashtirish kerak. Identitet shakllanadi, chunki bo‘lajak o‘qituvchi o‘z xatolaridan o‘rganadi, mentorlaridan o‘rganadi va har bir darsni o‘z-o‘ziga kritik ko‘z bilan qaraydi. Kasbiy deontologiya va pedagogik identitet tushunchalarining o‘zaro bog'liqligi va uyg'unligi oliy pedagogik ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Kasbiy deontologiyaga rioya qilish pedagogik identitetning axloqiy asosini mustahkamlashga xizmat qilsa, kuchli va ijobiy pedagogik identitet esa o‘qituvchini deontologik tamoyillarga so‘zsiz amal qilishga undaydi. Zimnyaya ta'kidlashicha "Deontologiya va identitet — bu ikki yonalishdan bitta maqsadga erishadigan yollardir. Deontologiya — bu 'men nima qilishim lozim degan savollarga javob bersa, identitet — 'men kim' degan savollarga javob beradi. Ammo bu ikkalasi bitta: agar o‘qituvchi o‘zini chin dildan pedagog deb bilsa, u avtomatik ravishda deontologik me'yorlarni qabul qiladi. Va aksincha, deontologik me'yorlarni qabul qilgan o‘qituvchi o‘zini pedagog sifatida ko‘ya boshlaydi."[47] Zimnyayaning bu ta'lifi xaqiqatga to‘laqonli mos bo‘lib, ikki tushuncha — deontologiya va identitet — ular aslida bir-birining to‘ldiruvchisi. Agar o‘qituvchi deontologik me'yorlarni nafaqat "qoidalar" deb, balki o‘zining qadr-qimmatiy tizimining qismi sifatida qabul qilsa, u bu me'yorlarni tabiiy ravishda bajaradigan bo‘ladi. Va buning aksinchasi ham to‘g'ri: agar o‘qituvchi o‘zini "yaxshi pedagog" sifatida ko‘rmoqchi bo‘lsa, u avtomatik ravishda deontologik tamoyillarga amal qiladi, chunki u biladi ki, bu tamoyillar yaxshi pedagog bo‘lishning zarur shartlaridir. "Pedagogik deontologiya o‘qituvchining kasbiy mahoratini belgilabgina qolmay, balki uning jamiyatdagi mavqei va obro‘sini ham ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.

[46] Makarenko, A.S. Pedagogik poema / A.S. Makarenko; tarc. U.Qodirov. — Toshkent: O'qituvchi, 1978. — 320 b.
[47] Zimnyaya, I.A. Pedagogik psixologiya / I.A. Zimnyaya. — Moskva: Logos, 2010. — 384 b.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda kasbiy deontologiya va pedagogik identitet tushunchalari bir-birini to‘ldiruvchi strategik komponentlardir. Agar kasbiy deontologiya o‘qituvchi uchun tashqi professional majburiyatlar va "nima qilish kerak?" degan qoidalarni belgilab bersa, pedagogik identitet "men o‘qituvchi sifatida kimman?" degan ichki e’tiqodni shakllantiradi. Faqatgina ushbu ikki tushuncha birlashgan nuqtadagina pedagogik "men" konsepsiyasi yuzaga keladi.

Bugungi axborotlashgan jamiyatda yuzaga kelayotgan axloqiy inqirozlarning asosiy sababi — o‘qituvchilarda deontologik bilimlarning yetishmasligidir. O‘qituvchi o‘z burchini (Bentam ta’riflaganidek, "lozimlik"ni) faqat qonuniy majburiyat deb emas, balki o‘z identitetining (shaxsiyatining) ajralmas qismi deb qabul qilishi shart. Ijtimoiy mas’uliyat: Bo‘lajak pedagoglarda "davlat xizmatchisi" imidjini shakllantirishda deontologiya ularga "axloqiy kompas" vazifasini o‘taydi. Bu ularni ijtimoiy tarmoqlardagi va jamoatchilik orasidagi turli ziddiyatli vaziyatlardan professional darajada chiqib ketishlariga zamin yaratadi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, zamonaviy o‘qituvchi tayyorlash modelida asosiy e’tiborni "bilimdon pedagog"dan "etik-pedagog" modeliga o‘tkazish lozim. Chunki bilimidagi bo‘shliqni vaqt bilan to‘ldirish mumkin, biroq axloqiy va deontologik immuniteti shakllanmagan mutaxassis butun ta’lim tizimining obro‘sizlanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Kasbiy deontologiya o‘qituvchiga qiyin vaziyatlarda "Men kimman?" va "Nima qilishim shart?" degan savollarga to‘g‘ri javob topishga yordam beradi. Bu esa jamiyatda davlat xizmatchilariga bo‘lgan ishonchni qayta tiklashning yagona yo‘lidir. Demak, deontologiya — tashqi qoidalar (burch), identitet — ichki anglash (menlik), natija — professional immunitet.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bentham, J**.** (1834). *Deontology; or, The Science of Morality*. London: Longman, Rees, Orme, Brown, Green, and Longman. (Deontologiya terminining asosi sifatida).

2. Kant, I. (1785). *Groundwork of the Metaphysics of Morals*. (Burch etikasi va kategorik imperativ masalalarida).

3. Beauchamp, T. L., & Childress, J. F. (2019). *Principles of Biomedical Ethics*. (Deontologik tamoyillarning zamonaviy talqini uchun).

4. Day, C. (2017). *Teachers' Worlds and Work: Understanding Complexity, Building Quality*. Routledge. (Pedagogik identitet bo‘yicha dunyodagi eng yetakchi manbalardan biri).

5. Мишаткина, Т. В. (2012). *Педагогическая деонтология*. Минск: ИВЦ Минфина. (Pedagogik deontologiya bo‘yicha mukammal darslik).

6. Zunnunov, A. (2013). *Pedagogika tarixi*. Toshkent: Sharq. (Milliy tarbiya va o‘qituvchi burchi masalalari).

7. Musurmonova, O. (2020). *Pedagogik mahorat va texnologiyalar*. Toshkent. (O‘qituvchi shaxsi va etikasi tahlili).

8. Xodjayev, B. X. (2017). *Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent: Sano-standart. (Identitet va kasbiy tayyorgarlik bo‘yicha).

ИННОВАЦИОННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ АБСЦИССИАЛЬНЫХ И ОРДИНАЛЬНЫХ МЕЖПРЕДМЕТНЫХ СВЯЗЕЙ

Мухтарова Лобар Абдиманнабовна

PhD, доцент кафедры Начальное образование,

Термезского государственного педагогического института

muxtarovalobar789@gmail.com

Аннотация: *В данной статье проанализированы теоретико-методические основы применения понятий межпредметной абсциссиальной и ординальной взаимосвязи в учебном процессе. Обосновано, что межпредметная интеграция в образовательном процессе является важным фактором не только расширения знаний учащихся, но и их применения в жизненных ситуациях, развития творческого и критического мышления. Абсциссиальная взаимосвязь позволяет использовать знания, полученные из разных предметов, параллельно и гармонично, тогда как ординальная взаимосвязь формирует системное мышление учащихся за счёт поэтапного и последовательного развития знаний. В статье освещены инновационная интерпретация этих двух подходов, их интеграция с современными педагогическими технологиями, а также применение в международной образовательной практике. На этой основе разработаны научно-методические рекомендации по усилению межпредметных связей в начальном образовании.*

Annotation: *This article analyzes the theoretical and methodological foundations of applying the concepts of interdisciplinary absissial and ordinal interconnections in the educational process. It is substantiated that interdisciplinary integration in education is an important factor not only in expanding students' knowledge but also in applying it to real-life situations, as well as developing creative and critical thinking. Absissial interconnection allows for the parallel and harmonious use of knowledge acquired from different subjects, whereas ordinal interconnection fosters students systemic thinking through the step-by-step and sequential development of knowledge. The article highlights the innovative interpretation of these two approaches, their integration with modern pedagogical technologies, and their application in*

international educational practice. On this basis, scientific and methodological recommendations for strengthening interdisciplinary connections in primary education have been developed.

Ключевые слова: *межпредметная взаимосвязь, абсциссиальная взаимосвязь, ординальная взаимосвязь, интеграция, начальное образование, инновационный подход, образовательный процесс, педагогические технологии.*

Keywords: *interdisciplinary interconnection, absissial interconnection, ordinal interconnection, integration, primary education, innovative approach, educational process, pedagogical technologies.*

ВВЕДЕНИЕ

В условиях современной глобализации одной из приоритетных задач системы образования выступает формирование у обучающихся способности к самостоятельному мышлению, творческому подходу, а также навыков эффективного применения полученных знаний в разнообразных жизненных ситуациях. Достижение указанных целей во многом обусловлено необходимостью интеграции образовательного процесса, в частности, усилением междисциплинарных связей. Изолированное преподавание отдельных учебных дисциплин неизбежно сужает мировоззренческий горизонт обучающихся, тогда как интегративный подход, напротив, способствует формированию целостной системы знаний.

Понятие междисциплинарной взаимосвязи находит широкое применение в образовательной практике, реализуясь в различных формах и проявлениях. К числу наиболее значимых из них относятся абсциссиальная и ординальная взаимосвязи. Абсциссиальная взаимосвязь обеспечивает возможность синхронной интеграции и одновременного применения знаний, усвоенных в рамках различных дисциплин, тогда как ординальная взаимосвязь ориентирована на последовательное развитие знаний, их систематизацию и поэтапное усложнение.

В данной статье осуществляется научно-теоретический и практико-ориентированный анализ инновационной интерпретации указанных подходов,

их интеграции с современными педагогическими технологиями, а также особенностей их применения в международной образовательной практике.

Методы и степень изученности проблемы. Междисциплинарная интеграция в образовательном процессе обеспечивает углубление усваиваемых обучающимися знаний и их органичную связь с реальной жизненной практикой. В педагогической литературе междисциплинарная взаимосвязь интерпретируется как «дидактический принцип, направленный на формирование знаний, умений и навыков обучающихся в целостной системе».

Междисциплинарная взаимосвязь опирается на следующие теоретические основания:

Принцип целостности знаний — для формирования полноценного мировоззрения обучающийся должен воспринимать знания не фрагментарно, а в системном и взаимосвязанном виде.

Закономерность интеграции и дифференциации — междисциплинарные связи предполагают, с одной стороны, объединение общих аспектов различных наук, а с другой — выявление и осмысление их специфических особенностей.

Принцип системности и последовательности — организация знаний должна соответствовать возрастным особенностям обучающихся, уровню их мышления и этапам когнитивного развития.

Сущность абсциссиальной взаимосвязи заключается в том, что обучающийся осуществляет параллельное применение знаний, усвоенных из различных учебных дисциплин. Так, например, при построении графиков на уроках математики обучающийся интегрирует знания из геометрии, информатики и естественных наук.

Степень изученности проблемы. Проблема междисциплинарной интеграции получила широкое освещение как в отечественной, так и в

зарубежной педагогической науке. В частности, идеи интеграции знаний в образовательном процессе теоретически обоснованы в рамках когнитивной теории развития Жан Пиаже, культурно-исторической концепции Лев Выготский, а также теории спирального построения учебного содержания Джером Брунер.

Среди узбекских учёных значительный вклад в исследование вопросов междисциплинарной интеграции в начальном образовании, формирования системного мировоззрения обучающихся внесли Б. Абдуллаева, Х. Норбутаев, Н. Салохиддинова, А. Абдуқодиров, Н. Туракулов, М. Нуритдинова и другие исследователи.

В зарубежных научных источниках современные формы междисциплинарной взаимосвязи находят отражение в концепции STEAM-образование, подходе CLIL (Content and Language Integrated Learning), а также в международных оценочных программах PISA и PIRLS. Вместе с тем анализ научной литературы свидетельствует о том, что вопросы углублённого изучения абсциссиальной и ординальной форм междисциплинарной интеграции в рамках их инновационной интерпретации остаются недостаточно разработанными. В этой связи данное исследование характеризуется научной новизной и актуальностью.

Результаты исследования. Проведённый теоретический анализ показал, что интеграция абсциссиальных и ординальных междисциплинарных связей в образовательном процессе оказывает непосредственное влияние на качество усвоения знаний обучающимися и их способность к применению в практической деятельности. В частности, были получены следующие результаты:

Эффективность абсциссиальной взаимосвязи проявилась в следующем: одновременная интеграция знаний из различных учебных дисциплин способствует формированию у обучающихся комплексного мышления;

установлено, что интеграция математики, естествознания и родного языка в учебном процессе развивает самостоятельное мышление, наблюдательность и творческие способности учащихся; результаты опытно-экспериментальной работы показали, что в занятиях, организованных на основе абсциссиальной взаимосвязи, показатели скорости и точности выполнения заданий у обучающихся оказались на 18–20 % выше по сравнению с традиционными формами обучения.

Полученные в ходе исследования данные были всесторонне проанализированы с теоретических и практических позиций. Результаты свидетельствуют о том, что применение абсциссиальной и ординальной междисциплинарной взаимосвязи в образовательном процессе оказывает влияние не только на расширение и углубление знаний, но и непосредственно способствует развитию личностных качеств обучающихся.

В целом можно заключить, что интеграция абсциссиальной и ординальной междисциплинарной взаимосвязи с инновационными педагогическими технологиями выводит образовательный процесс на качественно новый уровень. Данный подход является эффективным средством формирования прочных знаний, их практического применения и развития творческого мышления обучающихся в системе начального образования.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

На основе результатов проведённого исследования были сформулированы следующие выводы:

Доказано, что абсциссиальная и ординальная междисциплинарная взаимосвязь является эффективным средством расширения знаний обучающихся, формирования у них способности применять знания в практической деятельности, а также развития творческого и критического мышления.

Абсциссиальная взаимосвязь способствует формированию комплексного мышления обучающихся за счёт параллельной интеграции знаний из различных учебных дисциплин, развивает креативность и познавательную активность. В свою очередь, ординальная взаимосвязь обеспечивает поэтапное развитие знаний, формируя у обучающихся последовательное и системное мышление, усиливая логическую связность и непрерывность познавательного процесса.

Установлено, что интеграция абсциссиальной и ординальной взаимосвязей с современными педагогическими технологиями, такими как STEAM-образование, проектный метод, информационно-коммуникационные технологии и CLIL (Content and Language Integrated Learning), выступает важным фактором повышения эффективности образовательного процесса.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ

1. Мухтарова Л. Тенденции изучения проблем экологической безопасности в мировой науке // JournalNX. – 2023. – Т. 9, № 10. – С. 103–111.

2. Абдиманнабовна М. Л. Возможности интегративного подхода к формированию культуры экологической безопасности // European Scholar Journal. – 2021. – Т. 2, № 11. – С. 43–44.

3. Мухтарова Л. А. Использование инновационных образовательных технологий в формировании культуры экологической безопасности // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2021. – Т. 1, № 10. – С. 792–797.

4. Мухтарова Л. А. Пути формирования экологической культуры у детей младшего возраста // Азиатский журнал многомерных исследований. – 2021. – Т. 10, № 4. – С. 648–652.

РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У ДЕТЕЙ ПОДГОТОВИТЕЛЬНОЙ ГРУППЫ

Маруфова Мунира Эгамкуловна

преподаватель кафедры теории начального и дошкольного образования Самаркандского государственного педагогического института (PhD)

marufova.munira @mail.ru

Аннотация: *В статье освещены вопросы коммуникативной направленности дидактических занятий в дошкольных образовательных учреждениях, которыеимеют важное значение в развитии интеллектуальных способностей детей; формированию нравственности, духовному развитию; предполагает развитие речи, овладение её культуры.*

Ключевые слова: *личность ребёнка, коммуникативная направленность дидактические занятия, дошкольные образовательные учреждения, интеллектуальные способности, формирование нравственность, развитие речи.*

Annotation: *The article deals with the communicative orientation of didactic classes in preschool educational institutions, which are important in the development of children's intellectual abilities; the formation of morality, spiritual development; involves the development of speech, the mastery of its culture.*

Key words: *personality of a child, communicative orientation, didactic classes, preschool educational institutions, intellectual abilities, morality formation, speech development.*

В нашей стране в основе всей учебно-воспитательной деятельности любого дошкольного учреждения лежат принципы учёта прав, индивидуальности и потенциала развития воспитанников; создание благоприятной среды для развития и социализации ребенка. В связи с этим актуальным вопросом времени является сохранение и укрепление здоровья

ребенка, и удовлетворение его потребностей, формирование нравственных и моральных качеств детей, развитие умений понимать ценность национальных и культурных традиций республики Узбекистан.

В Постановлениях и Указах Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева уделяется особое внимание дальнейшему совершенствованию системы дошкольного образования страны, внедрению в воспитательно – образовательный процесс инновационных образовательных технологий интеллектуального и духовного развития детей и подготовки их к жизни [2,3]. Поэтому, так важно на сегодняшний день решить следующие задачи в дошкольных образовательных учреждениях страны:

-создание благоприятных условий для всестороннего и гармоничного развития детей с учетом их индивидуальных потребностей на основе «Государственных требований развития детей раннего и дошкольного возраста Республики Узбекистан»;

-организация процесса просвещения и элементарного образования родителей современных детей и общества в целом по вопросам развития детей дошкольного возраста;

-осуществление планомерной учебно-воспитательной деятельности в любом дошкольно-образовательном учреждении с целью эффективной подготовленности их к обучению в школе [2].Следовательно, коммуникативная направленность дидактических учебных занятий в дошкольных образовательных учреждениях формирует у детей коммуникативно-речевые умения, учит общаться, развивает коммуникабельность; позволяет научиться познавать мир посредством языка; развивает важные личностные качества: трудолюбие, аккуратность, целеустремлённость, а также умение грамотно оформлять мысли в устной и письменной формах.

Коммуникативная направленность дидактических занятий в дошкольных образовательных учреждениях имеет важное значение, так как способствует нравственному воспитанию детей, духовному развитию; предполагает развитие речи, овладение её культуры.

Коммуникативная направленность дидактических занятий в дошкольных образовательных учреждениях формирует и совершенствует умения и навыки, без которых невозможна интеллектуальная деятельность в целом и обучение в частности. Коммуникативная направленность дидактических занятий в дошкольных образовательных учреждениях предполагает передачу воспитанникам ДОУ своих мыслей и чувств с помощью языка, помогает выбирать наиболее точные лексические средства и безошибочно строить предложения, связывать их в текст; соблюдать логические связи; обосновывать собственные суждения.

В структуре Государственной учебной программы дошкольного образовательного учреждения «Илк қадам» («Первый шаг») указаны следующие компетенции детей дошкольного возраста:

Коммуникативная компетенция – умение использовать средства адекватного общения в различных ситуациях.

Социальная компетенция – умение правильно вести себя со взрослыми и сверстниками в жизненных ситуациях, с соблюдением согласованных правил и норм поведения.

Игровая компетенция – творческое применение дошкольником реального жизненного опыта, знаний и навыков в процессе игры и ее организации.

Познавательная компетенция – сознательное восприятие окружающего мира и применение полученных знаний, умений, навыков и ценностных установок для решения игровых, учебных и практических задач [2].

Коммуникативные компетенции детей дошкольного периода - это владение сложными коммуникативными навыками и умениями, формирование адекватных умений в новых социальных структурах, знание культурных норм и ограничений в общении, знание обычаев, традиций, этикета в сфере общения, соблюдение приличий, воспитанность, ориентация в коммуникативных средствах, присущих национальному, сословному менталитету.

Государственная учебная Программа «Первый шаг» учитывает основные компетеностностные подходы к развитию детей дошкольного возраста.

В Государственной Учебной Программе «Илк қадам» предоставлен дошкольным образовательным учреждениям тематический вид планирования, что даётследующие преимущества: в течение недели изучаются темқ, которқе интегрируются через все виды детской деятельности; ребенок дошкольного возраста в игровой форме получает прочные знания умения и навыки; им приобретается определенный опыт и возможности его применения в различных жизненных ситуация

За последние годы в нашей стране подготовлены и приняты к реализации ряд нормативно-правовых документов, которые представляют собой систему положений и утверждений, предъявляемых к развитию детей раннего и дошкольного возраста, знаниям, умениям и компетенциям детей на определенных возрастных этапах развития на основании Закона Республики Узбекистан «Об образовании» (1997), и Постановлений Президента Республики Узбекистан [1,2,3,4].

Разработанная и утверждённая Государственная учебная Программа «Илк қадам»является нормативно-правовым и основным образовательным документом, разработанным в соответствии с «Государственными

требованиями к развитию детей раннего и дошкольноговозраста Республики Узбекистана».

Для успешного развития коммуникативных компетенций детей дошкольного периода нужно реализовать следующие направления коммуникативного подхода в обучении и воспитании детей дошкольного периода:

1) разработка содержания обучения — вариативных программ и различных учебных пособий для детей дошкольного периода;

2) разработка принципов, форм, приемов и методов обучения, системы упражнений, рекомендации по применению заданий;

3) исследование сравнительной эффективности методов, обоснование выбораметодики, экспериментальная проверка рекомендаций и т. д.;

4) изучение уровней знаний, умений и навыков детей дошкольного периода на разных ступеняхобучения, т.е. в 3-4 года; 5-6 лет, причин успехов или неудач в обучении, типичных ошибок и способов их устранения и предупреждения.

Коммуникативная направленность дидактических занятий с детьми дошкольного периодаинтерпретируется следующим образом: во - первых, в отборе языкового материала воспитывающего характера - слов, их сочетаний, текстов. Во-вторых, формировании мировоззрения детей; В-третьих, развивая культуру речи дошкольников, воспитывая любовь к языку, к его красоте и богатству, показывая его роль среди языков мира, воспитывает у них патриотизм. В-четвертых, самовыражение детей, формирует их самосознание, личностные качества, а также развивает логическое мышление.

На наш взгляд,организация предметно – развивающей среды в дошкольном учреждении является важным условием учета возрастных особенностей, потребностей и возможностей детей дошкольного возраста, которые имеют свои отличительные признаки.

«Структура и содержание предметно-развивающей среды закладывает основы первоначального мировоззрения, способствовать успешной социализации ребенка дошкольного возраста»[6,72-с.]. Поэтому содержание предметно-развивающей среды дошкольного образовательного учреждения должно соответствовать культурно-историческим ценностям: национальным и региональным традициям Узбекистана, особенностям, обусловленным природными и климатическими условиями каждого отдельного региона; спецификой производственной жизни местности. Целью учебно-воспитательной деятельности дошкольного учреждения является создание условий для формирования у ребенка дошкольного возраста общих компетенций и компетенций областей развития.

Обучение и развитие дошкольников через игровую деятельность, поддержка творческих способностей ребенка, сотрудничество ДОУ с семьей, махаллей, школой и общественностью имеет важное значение в развитии личности ребёнка.

“Коммуникативний подход в образовании детей – дошкольников предполагает подготовку растущей и изменяющейся личности ребенка к жизни, формированию у него различных способов деятельности, необходимых для решения жизненно важных задач, связанных с освоением нравственных ценностей”[5,56-с.]. Следовательно, сформированные начальные компетенции являются базой для формирования личности ребенка на основе учета Государственных требований, ключевые компетенции определены во всех пяти областях развития.

Общие ключевые компетенции детей 6-7 лет перекликаются с компетенциями детей младшего школьного возраста, что говорит о взаимосвязи дошкольного образования с начальным школьным образованием.

Государственные требования и Государственная учебная Программа «Илк қадам»являются обязательным документом для применения в

образовательных учреждениях Республики Узбекистан: в дошкольных образовательных учреждениях государственного и негосударственного сектора; в детских домах «Мелесердие», имеющих дошкольные группы обучения и воспитания детей. Также обязательны к применению в средних профессиональных учреждениях - педагогических колледжах с отделениями дошкольного образования, которые в течении двух учебных лет готовят помощников воспитателей для ДОУ.

При коммуникативной направленности дидактических занятий с детьми дошкольного возраста и подготовке их к школе планирование процесса обучения строится на дидактических принципах. К методам работы с детьми дошкольного возраста можно отнести следующие:

1) *игры коммуникативной направленности;*
2) *игры со словами; работа с загадками;*
3) *игры и игровые упражнения, используемые при объяснении и закреплении учебного материала.*

Таким образом, применение загадок на дидактических занятиях в дошкольных образовательных учреждениях способствуетставить цель индивидуального подхода к развитию ребенка, уважение к его личности, учет его интересов, потребностей и уровня развития, заботу об эмоциональном комфорте, стремление к созданию условий для свободного творческого самовыражения. Поэтому, наряду с планированием дидактических занятий важным является инаблюдение за развитием ребенка - важным этапом в работе педагога. Следующим дидактическим заданием, способствующим развитию коммуникативных компетенций детей 6-7-лет является игра. Приведем здесь пример:

Игра « Продолжи цепочку » украшений на елку: гирлянда, шары, звезда, мишура, хлопушки, фонарики, флажки, игрушки, сосульки, снежинки, снеговик, Дед мороз, Снегурочка.

Таким образом,коммуникативная направленность дидактических занятий в дошкольных образовательных учреждениях обеспечивает выразительность речи, красивое, каллиграфическое письмо, образное слововыражение детей. На дидактических занятиях в дошкольных образовательных учреждениях дети учатся развивать мыслительные операции: синтез, анализ, классификацию, абстрагирование и др.

Содержание и последовательность работы с детьми должны планироваться с учетом вида деятельности (активнаядеятельность- пассивная деятельность; индивидуальная деятельность; в малой группе в большой группе; деятельность, проводимая под руководством воспитателя; деятельность, проводимая под руководством ребенка) и местом его проведения (деятельность в помещении / деятельность на улице). При планировании критериев оптимального выбора методов коммуникативной направленности обучения, важно знать то место, которое занимает сама процедура их выбора в структурировании учебного процесса в дошкольных образовательных учреждениях.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Закон Республики Узбекистан «Об образовании» - Ташкент, 2020
2. Постоновлерие Президента Республики Узбекистан ог мерах по дальнейшему стимулированию и развитию системы дошкольного образования.
3. Государственная учебнаяпрограмма дошкольного образовательного учреждения «Илк қадам» («Первый шаг») - Ташкент, 2022
4. Асмолова Е.В. Игры в дошкольных учреждениях.-Минск:Полоц, 2018.-164 с.
5. Рожкова О.В. Использование интерактивных технологий в образовательном процессе дошкольного образовательного учреждения.-Екатеринбург: Детство, 2018.-128 с.

6. Гозиев Э. Психология. -Ташкент: Укитувчи, 2009.-182 с.

6-SHO‘BA

AVTOMOBIL YO‘LLARI UCHUN YO‘L YOQASINING MUSTAHKAMLANGAN QISMI KENGLIGINI TADQIQ QILISH

Avloyarov Ulug‘bek Avloyar o‘g‘li

magistr(TSTU)

Tel: +998919502710

E-mail: Avloyarovulugbek1@gmail.com)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada avtomobil yo‘llarida yo‘l yoqasining mustahkamlangan qismi kengligini aniqlash va baholash masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot A373 “Toshkent – O‘sh” avtomobil yo‘lining 5-9 kilometr qismi oralig‘ida joyida o‘tkazilgan o‘lchash ishlari asosida amalga oshirildi. O‘tkazilgan o‘lchashlar natijalari yo‘l yoqasining mustahkamlangan qismi kengligi kilometrlar bo‘yicha bir xil emasligini, ya’ni ayrim joylarda farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Olingan natijalar yo‘l yoqasining mustahkamlangan qismi kengligini baholash hamda kelgusida uni optimallashtirish bo‘yicha muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.*

Abstract*: This article examines the issues of determining and evaluating the width of the reinforced shoulder on highways. The study was conducted based on on-site measurements conducted on the 5-9 kilometers section of the A373 "Tashkent - Osh" highway. The results of the measurements showed that the width of the reinforced part of the roadside is not uniform across the picket lines, meaning there are differences in some places. The results obtained serve as an important basis for assessing the width of the reinforced section of the roadside and optimizing it in the future*

Kalit so‘zlar: *Avtomobil yo‘li, , mustahkamlangan qism, yo‘l yoqasi kengligi, , harakat tasmasining kenglig, yo‘l poyi, yo‘l yoqasidagi chetki tasma kengligi*

Keywords*: Highway, , reinforced section, shoulder width, , traffic lane width, roadbed, shoulder edge width*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq, avtomobil yo‘llari transport harakatini xavfsiz va uzluksiz ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim muhandislik

inshootlari hisoblanadi. Yo‘lning asosiy konstruktiv elementlariga harakat tasmasi, yo‘l yoqasi va yo‘l poyi kiradi. Ushbu elementlar orasida yo‘l yoqasining mustahkamlangan qismi alohida ahamiyat kasb etib, u transport vositalarining xavfsiz harakatlanishi, favqulodda to‘xtashi hamda yo‘l qoplamasining chekka qismini himoya qilish vazifasini bajaradi.

Hozirgi kunda Respublikamiz avtomobil yo‘llarida transport oqimining ortib borishi yo‘l konstruksiyasiga tushayotgan yuklamani sezilarli darajada oshirmoqda. Natijada yo‘l yoqasining mustahkamlangan qismi kengligining yetarli darajada bo‘lmasligi qoplama chetlarida deformatsiyalar, cho‘kishlar va yemirilish jarayonlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa yo‘lning umumiy holati va harakat xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Amaldagi me’yoriy hujjatlarga ko‘ra, yo‘l elementlarining geometrik ko‘rsatkichlari, jumladan yo‘l yoqasi va uning mustahkamlangan qismi kengligi yo‘l toifasi, harakat jadalligi hamda tabiiy sharoitlarga bog‘liq holda belgilanadi. Biroq amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, mavjud yo‘llarda ushbu ko‘rsatkichlar barcha uchastkalarda bir xil emas va ayrim hollarda yetarli darajada ta’minlanmagan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.10.2023 yildagi PQ-330 son qarorida yo‘l xo‘jaligi sohasini rivojlantirish, yo‘l infratuzilmasini takomillashtirish hamda harakat xavfsizligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Bu esa yo‘l elementlarini, xususan yo‘l yoqasining mustahkamlangan qismini chuqur o‘rganish zarurligini yanada kuchaytiradi.

Shu sababli avtomobil yo‘llari uchun yo‘l yoqasining mustahkamlangan qismi kengligini tadqiq qilish, uning real qiymatlarini aniqlash va maqbul parametrlarini asoslash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Amaliyotda yo‘l yoqasining mustahkamlangan qismi yetarli bo‘lmagan hollarda yo‘l qoplamasi chetida yemirilishlar, cho‘kishlar va deformatsiyalar yuzaga keladi. Bu holat yo‘lning ekspluatatsion holatini yomonlashtiradi, ta’mirlash xarajatlarini oshiradi va harakat xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli avtomobil yo‘llarida yo‘l yoqasining mustahkamlangan qismi kengligini ilmiy asosda o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Mazkur maqola avtomobil yo‘llarida yo‘l yoqasining mustahkamlangan qismi kengligini real ekspluatatsiya sharoitida o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, joyida o‘tkazilgan eksperimental o‘lchashlar asosida yo‘l yoqasining mavjud holati baholanadi.

Tadqiqot ishining maqsad va vazifalari

Tadqiqotning asosiy maqsadi avtomobil yo‘llarida yo‘l yoqasining mustahkamlangan qismi kengligini o‘rganish va uning yo‘l qoplamasi barqarorligi hamda avtomobillar harakatiga ta’sirini baholashdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- yo‘l yoqasining mustahkamlangan qismi loyihalash usullarini tahlil qilish;
- yo‘l yoqasining mustahkamlangan qismi bo‘yicha amaldagi me’yoriy hujjatlar va ilmiy adabiyotlarni o‘rganish;
- yo‘l yoqasining mustahkamlangan qismi kengligini joyida eksperimental o‘lchash;
- olingan natijalarni tahlil qilish va umumiy xulosalar chiqarish.

Tadqiqot obyekti va metodikasi

Tadqiqot obyekti sifatida A-373 “Toshkent – O‘sh” avtomobil yo‘lining 5-9 km oralig‘i tanlandi. Ushbu yo‘l uchastkasi transport vositalari harakati intensivligi yuqori bo‘lgan yo‘llardan biri hisoblanadi.Tadqiqot jarayonida tanlangan yo‘l uchastkasida joyida ko‘zdan kechirish ishlari amalga oshirildi. Harakat tasmasi kengligi, yo‘l yoqasining umumiy kengligi hamda yo‘l yoqasining mustahkamlangan qismi kengligi o‘lchandi. O‘lchash natijalari asosida yo‘l yoqasining mustahkamlangan qismi kengligi kilometrlar bo‘yicha aniqlanib, keyingi tahlillar uchun dastlabki ma’lumotlar bazasi shakllantirildi.

1-jadval

A-373 “Toshkent – O‘sh “ Avtomobil yo‘lining 5- 9 km oralig‘ida o‘lchash ishlarini jadvali

Yo‘l elementlarining o‘lchanlari	5-km	6-km	7-km	8-km	9-km
Harakat tasmasi kengligi,m	3,75	3,75	3,75	3,75	3,75
Yo‘l yoqasi kengligi, m	3,75	3.75	3,75	3,75	3,75
Yo‘l yoqasigagi chetki tasma kengligi, m	0,75	0.5	0,5	0,5	0,65
Yo‘l yoqasining mustahkamlangan qismi kengligi, m	2,75	2,10	2,40	2,30	2,70

A-373 “Toshkent – O‘sh” avtomobil yo‘lining 5-9 km oralig‘i qismida o‘tkazilgan eksperimental o‘lchashlar natijalari asosida yo‘l yoqasining mustahkamlangan qismi

kengligi kilometrlar bo‘yicha tahlil qilindi. O‘lchash natijalari jadval ko‘rinishida tasvirlanib, yo‘l yoqasining real ekspluatatsion holatini baholash imkonini berdi. Jadvalda ko‘rinib turibdiki, mustahkamlangan qism kengligi 2,10 m dan 2,75 m gacha oraliqda o‘zgaradi. Eng kichik qiymat 6-km qismida,-eng katta qiymatlar esa 5-km va 9-kmda qayd etildi. Bu holat yo‘l uchastkalari bo‘yicha ekspluatatsion sharoitlarning bir xil emasligini ko‘rsatadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqotda A-373 “Toshkent – O‘sh” avtomobil yo‘lining 5-9 km qismi oralig‘ida yo‘l yoqasining mustahkamlangan qismi kengligi real ekspluatatsiya sharoitida o‘rganildi. Joyida o‘tkazilgan eksperimental o‘lchashlar va yo‘l yoqasining mustahkamlangan qismi kengligi kilometrlar bo‘yicha bir xil emasligini ko‘rsatdi. O‘lchash natijalariga ko‘ra, yo‘l yoqasining mustahkamlangan qismi kengligi 2,10 m dan 2,75 m gacha oraliqda o‘zgaradi, o‘rtacha qiymat esa 2,45 m ni tashkil etadi. Eng kichik qiymatlar qayd etilgan uchastkalarda yo‘l qoplamasi chetida yemirilish va deformatsiyalar yuzaga kelish ehtimoli yuqori ekanligi aniqlandi. Aksincha, mustahkamlangan qism kengligi yetarli bo‘lgan joylarda yo‘l qoplamasining chekka qismi nisbatan barqaror holatda saqlanib qolgan. Chetki tasma va mustahkamlangan qism kengliklarini taqqoslash natijalari yo‘l yoqasi elementlari o‘rtasida geometrik bog‘lanish mavjudligini ko‘rsatdi. Bu holat yo‘l yoqasini loyihalash va rekonstruksiya qilish jarayonlarida barcha elementlarni kompleks tarzda hisobga olish zarurligini tasdiqlaydi. Umuman olganda, o‘lchash natijalari yo‘l yoqasining mustahkamlangan qismi kengligi avtomobil yo‘lining ekspluatatsion holati va harakat xavfsizligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini isbotlaydi. Olingan natijalar keyingi bosqichlarda yo‘l yoqasining mustahkamlangan qismi kengligini optimallashtirish, mustahkamlash usullarini takomillashtirish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi qonuni O‘zbekiston Respublikasi 2. Prezidentining 10.10.2023 yildagi PQ-330 son “Yo‘l xo‘jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

3. Бабков В.Ф. Дорожные условия и безопасность движения / Бабков В.Ф. – М.: Транспорт, 1993. – 271 стр.

4. Б.Б. Каримов, А.М. Алиев “Автомобильные дороги в условиях гор и жаркого климата. Том 1: Учебное пособие” – М.: ООО “Интрансдорнаука”, 2014. – 334 с.

5. F. Babkov, O.V. Andreyev “Avtomobil yo‘llarini qidiruv va loyihalash” I-qism. Toshkent – 2014 yil. 526 b.

6. С.И. Булдаков, А.А. Чиков “Особенности организации полосы отвода на автомобильных дорогах” с.115–119, Лесной вестник 2/2005

7. SHNQ 2.05.02-23 “Avtomobil yo‘llari. loyihalash talablari”

ASSESSMENT OF THE EFFICIENCY OF USING MODERN BETON ADDITIONS IN THE PRODUCTION OF REINFORCED CONCRETE PRODUCTS

Djalilov Abdulaxat

Doctor of Chemical Sciences, Professor. Academician of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

Director of the Tashkent Research Institute of Chemical Technology,

Karimov Masud

Doctor of Technical Sciences, Professor.

Tashkent Research Institute of Chemical Technology,

Ismailov Feruz

Senior Researcher, Doctor of Technical Sciences

Tashkent Research Institute of Chemical Technology,

ismoilovferuz54@gmail.com

Abstract. *Superplasticizers based on polycarboxylate ethers are now widely used in concrete production technology. Their use makes it possible to obtain a highly workable concrete mix with a low water-to-cement ratio, while also accelerating the early hardening process. This paper examines the improvement of properties in concrete and concrete mixes for manufacturing precast reinforced concrete products through the use of modern polycarboxylate additives. The results of a study on the influence of polycarboxylate additives on the physicomechanical properties of concrete, conducted by preparing and testing a series of samples with various compositions, are presented. The data obtained indicate that the use of polycarboxylate additives enhances the physicomechanical properties of concrete, reduces labor costs, and increases the economic efficiency of production compared to naphthalene-formaldehyde concrete additives.*

Keywords: concrete: *polycarboxylate superplasticizers, naphthalene-formaldehyde additives, concrete mix.*

INTRODUCTION

Increasing competition in the construction market is forcing a search for cost-effective and efficient methods for producing high-quality concrete mixes and reinforced concrete products. Many technological challenges in the preparation of concrete mixes and the production of reinforced concrete products are now being solved by introducing chemical additives. The use of plasticizers in the preparation of concrete mixes is one of the most effective methods. Currently, there are three main classes of plasticizing additives used in the construction materials industry, namely:

- lignosulfonate-based compounds;
- sulfurized melamine formaldehyde or naphthalene formaldehyde polymers;
- polycarboxylate-based superplasticizers [1-3].

This technology for producing concrete products has its own characteristics:

- a narrow space for filling a concrete mixture;
- if the product is densely reinforced, the concrete mixture must be more plastic;
- The concrete mix must be compacted uniformly throughout the entire height of the formwork. The resulting products must not contain any voids or foam;
- rapid wear and tear of equipment, leading to a decrease in the frequency and amplitude of cassette vibrations [4].

The additive used in the production of the concrete mixture does not ensure the required quality of the products being manufactured. The solution to this technological problem can be the use of polycarboxylate additives, the use of which allows for improving the quality of finished products without increasing the cost of production by reducing the water-cement ratio.

The main advantages of polycarboxylate-based additives include the following:

- long shelf life (without additional precipitation);
- accelerated assembly of early-strength concrete;

- minimum air penetration into the concrete mix;
- ability to provide a plasticizing effect at low temperatures;
- additive content not exceeding a percentage of cement mass [5].

Thus, the aim of the research work was to evaluate the effectiveness of using polycarboxylate additives for concrete products.

RESULT AND ANALYSIS

To determine the strength of the concrete for each composition, cubic specimens measuring 100×100×100 mm were prepared in three series of three specimens each, in accordance with GOST 10180. After preparation, the specimens were tested according to the requirements of the standard. The compressive strength was determined for the first series of specimens. The tests were conducted in accordance with the requirements of GOST 10180. The second series was tested on the seventh day after preparation, and the third on the twenty-eighth day. The data obtained from the tests are presented in Table 3.

№	**Indicators**	**O'lchov, birliklari**	**NFS**	**PK-45**	**PK-46**
1	Additional expense	%	1.15	0,7	1
2	Consumption of cement	kg/m^3	286	286	293
3	Cement/water	-	0,65	0,55	0,52
4	fluidity of the concrete mix.	sm	11,5	12,5	12,0
5	Density	kg/m^3	2333	2310	2368

6	1 day of strength	Mpa	15,7	19,5	22,3
7	7 days of strength	Mpa	19,9	22,2	28,5
8	28 days of strength	Mpa	30,5	33,0	35,2
9	Surface porosity as a percentage of surface area		15 %	10 %	10 %

Based on the test results, it can be concluded that the use of modern polycarboxylate additives provides the technological process for manufacturing internal wall panels with the following advantages:

- increasing concrete strength,

- increasing the fluidity of the concrete mixture by reducing the water/cement ratio,

- absence of defects on the product surface due to poor compaction of the concrete mixture;

- reduction of cement consumption.

The use of polycarboxylate additives allows not only to improve the quality indicators of concrete mixtures but also to reduce the production cost of finished products due to the possibility of reducing Portland cement consumption while maintaining concrete strength requirements.

CONCLUSION

During the implementation of the research work, it was established that using superplasticizing additives based on polycarboxylate in the preparation of concrete mixtures for the production of concrete products is one of the effective ways to

improve the quality of manufactured products, as well as economically beneficial when correctly selecting concrete composition. The concrete mixture prepared using polycarboxylate additives has high efficiency and low air absorption, which reduces the number of defects on the front surfaces of finished products. Accelerating concrete strength allows for a reduction in cement or water consumption, which allows for a reduction in the cost of manufactured products without compromising their quality. One of the important indicators of the effectiveness of using polycarboxylate additives is the reduction of labor costs for shaping concrete products by obtaining a concrete mixture that is easily and quickly laid down.

REFERENCES

1. Гусев Б.В., Ин Иен-лян С., Кузецова Т.В. Цементы и бетоны тенденции развития. М.: Научный мир, 2012.136 с.

2. Liu J., Ran Q., Miao C., Qiao M. Effects of grafting densities of comb-like copolymer on the dispersion properties of concentrated cement suspensions. Materials Transactions, 2012, vol. 53, pp. 553-558.

3.Исследование эффективности применения поликарбоксилатных суперпластификаторов для производства бетона / С.Ю. Петрунин, Н.П. Короткова, В.Н. Тарасов, А.П. Гарновесов, Б.В. Гусев, Д.Г. Куприянов, Т.В. Падалкина, Б.А. Кухтин // Промышленное и гражданское строительство. 2016 Вып. 11. С. 84-88.

4. StudFiles: available at: https://studfile.net/preview/5856105/ (accessed 16 March 2023).

5.Демидов Р.В., Балабанов М.С. Суперпластификаторы на основе поликарбоксилата для тяжелых бетонов // Традиции и инновации в строительстве и архитектуре. Строительные технологии: сб. ст. СГАСУ. - Самара, 2016. С. 90-93.

BEKOBOD SEMENT (SEM II/A-P 32.5N) ASOSIDA TAYYORLANGAN QORISHMALARDA SIKA VISCOCRETE®-4336 PLASTIFIKATORINING MIQDORI VA SUV-SEMENT NISBATINI OQUVCHANLIGIGA TA'SIRI

doktorant. Jo'rayev.Sunnat.Anvar og'li., t.f.d., prof,

Sottiqulov Elyor. Sotimboyevich.,

Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti 111116,

Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Sho'ro-bozor p/b.

Tel.: +99895-144-67-83,

E-mail: ooo_tniixt@mail.ru, TKTITI@exat.uz

Abstract: *This study examines the effect of Sika ViscoCrete®-4336 on the rheological properties of cement-based mixtures; flowability was evaluated at different dosages and water-cement ratios; results showed improved dispersion and increased flowability with higher dosage; excessive amounts reduced stability; lowering water content was beneficial up to a critical limit; below this threshold, flowability decreased significantly; findings provide a scientific basis for optimizing mixture composition and improving concrete performance.*

Keywords: *cement mixture; flowability; rheological properties; Sika ViscoCrete®-4336; superplasticizer; water-cement ratio; dispersion; concrete technology.*

KIRISH

Zamonaviy qurilish materiallari texnologiyasi sohasida sement asosli kompozitsiyalarning reologik va texnologik xossalarini boshqarish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi; ayniqsa beton qorishmalarining oquvchanligi, barqarorligi va ishlov berilish qulayligi ularning amaliy samaradorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida qaraladi; shu nuqtai nazardan kimyoviy qo'shimchalar, xususan lignosulfonatlar hamda polikarboksilat asosli plastifikatorlarning qo'llanilishi alohida ahamiyat kasb etadi; ushbu

qo‘shimchalar sement zarrachalarining dispersiyasini yaxshilash orqali suv sarfini kamaytirish va aralashmaning optimal reologik holatini ta’minlash imkonini beradi; natijada betonning mustahkamligi, zichligi va uzoq muddatli ekspluatatsion xossalari sezilarli darajada oshadi; mazkur tadqiqot aynan shu jarayonlarning ilmiy asoslarini aniqlash va samarali tarkibiy yechimlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Zamonaviy qurilish materiallari sanoatida beton qorishmalarining xossalarini yaxshilash maqsadida turli kimyoviy qo‘shimchalar qo‘llanmoqda. Ular orasida lignosulfonatlar suvni kamaytiruvchi, plastifikator, sekinlashtiruvchi va barqarorlashtiruvchi sifatida samarali ekani bilan ajralib turadi [1]. Kolomytsyn A.K. (2017) o‘z tadqiqotida lignosulfonatlarning texnologik, ekologik va iqtisodiy afzalliklarini ko‘rsatib, ularning ayniqsa plastiklikni oshirish va qotishni sekinlashtirishdagi foydasini asoslab bergan.

Lignosulfonatlar ekologik xavfsiz va iqtisodiy jihatdan afzalligiga ega bo‘lib, sement sarfini 10% gacha kamaytiradi [2]. Ularning sarfi superplastifikatorlarga nisbatan 3-5 barobar kam (0,15-0,20%) bo‘lib, tannarxni pasaytiradi. Kolomytsyn bunday qo‘shimchalar betonning uzoq muddat saqlanishi va tashish imkonini yaxshilashi orqali mahsulot raqobatbardoshligini oshiradi, deb baholaydi.

Ayrim adabiyotlarda [3] kompozit materiallarga turli mineral qo'shimchalar (mikrokremnezem va metakaolin) qo'shilishi material reologik va mustahkamlik xususiyatlarida yuz beradigan o'zgarishlar tizimli ravshan o'rnatilgan. Tajriba shuni ko'rsatadiki, yuqori disperslikka ega bo'lgan mikrokremnezemning qo'shimcha beton aralashmalarining suvga bo'lgan talabini oladi, bu esa plastifikatorsiz holda zichlik va mustahkamlikning kamayishiga olib keladi. Shu bilan birga, polikarboksilat bilan yuqori samarali plastifikator (Melflux1641 Flar) yordam bu muammolarni bartaraf etish va suvtalabligini 40% gacha tiklash

mumkinligi aniqlangan. yana, metakaolin qo'shimchasi yuqori siqilish mustahkamligi (90 MPa gacha) ta'minlaganligi bilan ajralib turadi.

Maqolada [4], beton quyish jarayonini texnologik bosqichlarga ajratgan holda, har bir bosqich uchun muammolar va ularning ilmiy asoslangan echimlarini bayon etgan. Jumladan, betonning harakatchanligini oshirish uchun superplastifikatorlardan foydalanish, suv-sement nisbatini optimallashtirish va betonning bir maromda qotishini ta’minlash zarurligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, issiqlik va shamoldan himoya qilish, 7 kun davomida betonni nam muhitda saqlash hamda quyishni kechqurun yoki erta tongda amalga oshirish taklif etilgan.

ASOSIY QISM

Tadqiqotning asosiy maqsadi Sika ViscoCrete®-4336 plastifikatorining turli markadagi sementlar bilan o‘zaro ta’sirini o‘rganish va, xususan, uning aralashma oquvchanligiga ko‘rsatadigan ta’sirini baholashdan iborat bo‘ldi. Reologik xossalar, ayniqsa oquvchanlik ko‘rsatkichi, beton aralashmalarning texnologik sifati hamda amaliy ishlov berilishini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Plastifikatorlar qo‘llanilganda, ularning optimal dozasi hamda suv-sement nisbati aniqlanmasa, qorishmaning zarur ishqobillik darajasiga erishish qiyinlashadi. Shu bois, ushbu ishda plastifikator miqdori va suv-sement nisbatining aralashma oquvchanligiga ko‘rsatadigan ta’siri tizimli eksperimental yondashuv asosida chuqur tahlil qilindi.

Tajriba ishlarida sement aralashmasining oquvchanlik darajasini aniqlash maqsadida konus shaklidagi maxsus laboratoriya asbobidan foydalanildi. Asbobning geometrik parametrlari quyidagicha: umumiy balandligi -60 mm, yuqori diametri -20 mm va pastki (asosiy) diametri -40 mm. Ushbu kichik konusli asbob yordamida olingan natijalar aralashmaning oqim xatti-harakatlarini yuqori aniqlikda baholash imkonini berdi. Mazkur metodika sement asosli materiallarda modifikatsiyalovchi kimyoviy qo‘shimchalar, xususan superplastifikatorlar

ta’sirida yuzaga keluvchi reologik o‘zgarishlarni o‘rganishda ishonchli va takrorlanuvchan natijalarni ta’minlaydigan samarali laboratoriya vositasi sifatida qo‘llaniladi.

Eksperimental tadqiqotlarda har bir sinov uchun boshlang‘ich tarkib sifatida 100 g sementga muvofiq miqdorda Sika ViscoCrete®-4336 markali plastifikator va suv qo‘shildi. Jumladan, “Bekobodsement” mahsuloti hamda SEM I 42.5 N markali sementlar uchun dastlabki aralashmalarda 35 g suv va 10 g plastifikator ishlatildi. Keyingi bosqichlarda plastifikator miqdori har safar 10 g ga oshirib borildi va har bir holatda aralashmaning oquvchanlik darajasi baholandi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, plastifikator ma’lum bir optimal konsentratsiyaga yetganda, aralashma oquvchanligi maksimal qiymatga erishdi. Biroq, plastifikatorning ortiqcha miqdori qo‘shilganda aralashmaning reologik barqarorligi buzilib, oquvchanlik ko‘rsatkichi pasaya boshladi.

Tajribaning keyingi bosqichlarida plastifikator miqdori aniqlangan optimal darajada ushlab turildi va suv miqdori har safar 1 g ga kamaytirilib, aralashma oquvchanligi qayta baholandi. Natijalar suv-sement nisbati kritik chegaradan pastlaganida aralashmaning oquvchanlik darajasi sezilarli ravishda yomonlashishini ko‘rsatdi. Ushbu yondashuv plastifikator va suv miqdorining aralashma reologiyasiga ko‘rsatadigan murakkab o‘zaro ta’sirini aniqlashda ilmiy asoslangan eksperimental metodika sifatida xizmat qildi. Tadqiqot doirasida “Bekobodsement” AJda ishlab chiqarilgan SEM II/A-P 32.5N markali sement asosida tayyorlangan qorishmalarning oquvchanlik xususiyatlari Sika ViscoCrete®-4336 tipidagi polikarboksilat asosli plastifikator qo‘shimchasi bilan modifikatsiyalash orqali tizimli ravishda o‘rganildi.

Eksperimentlarda sement miqdori doimiy 100 g miqdorda belgilandi, plastifikator qo‘shimchasi esa 0,10% dan 0,70% gacha bo‘lgan konsentratsiya oralig‘ida bosqichma-bosqich qo‘shildi. Shu bilan birga, suv-sement nisbati 35% dan 22% gacha kamaytirilib, har bir tarkib bo‘yicha aralashmaning oquvchanlik

ko‘rsatkichlari baholandi. Ushbu parametrlarning o‘zgarishi plastifikatorning optimal dozasi va suv miqdorining reologik xossalarga ko‘rsatadigan ta’sirini aniqlash imkonini berdi.

Olib borilgan eksperimental tadqiqotlar natijasida Sika ViscoCrete®-4336 plastifikatorining turli konsentratsiyalarda qo‘llanilishi va suv-sement nisbatining bosqichma-bosqich kamaytirilishi sharoitida tayyorlangan sement qorishmalarining oquvchanlik xususiyatlariga ta’siri baholandi. Har bir tarkib bo‘yicha olingan miqdoriy natijalar sinov holatlarining o‘zaro taqqoslanishini ta’minlash maqsadida tizimli ravishda jadvallarda keltirildi. Olingan natijalar plastifikatorning optimal miqdorini aniqlash, suv-sement nisbatining aralashmaning reologik barqarorligiga ta’sirini baholash hamda sement asosli kompozitsiyalar uchun eng samarali tarkibni shakllantirish nuqtayi nazaridan ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

1-jadval

“Bekobodsement” (SEM II/A-P 32.5N) asosida tayyorlangan qorishmalarda Sika ViscoCrete®-4336 plastifikatorining miqdori va suv-sement nisbati o‘zgarishining qorishma oquvchanligiga ta’siri

№	Sement	Suv	Qushimcha miqdori g	O‘rtacha oquvchanlil sm
1	100	35	0.10	8
2	100	35	0.20	12.5
3	100	35	0.30	15
4	100	35	0.40	17
5	100	35	0.50	17
6	100	35	0.60	17.25
7	100	35	0.70	16
8	100	34	0.70	16
9	100	33	0.70	17.25
10	100	32	0.70	17.25
11	100	31	0.70	17
12	100	30	0.70	15

13	100	29	0.70	16
14	100	28	0.70	16.75
15	100	27	0.70	16.25
16	100	26	0.70	16.25
17	100	25	0.70	17
18	100	24	0.70	14
19	100	22	0.70	10.5
20	100	22	0.70	7

3-jadvalda keltirilgan eksperimental natijalar “Bekobodsement” (SEM II/A-P 32.5N) asosida tayyorlangan qorishmalarda Sika ViscoCrete®-4336 plastifikatorining miqdori va suv-sement nisbatining o‘zgarishi aralashma oquvchanligiga qanday darajada ta’sir ko‘rsatishini kompleks tahlil qilish imkonini beradi. Dastlabki bosqichlarda plastifikator miqdori 0,10% dan 0,60% gacha oshirilganda, oquvchanlik ko‘rsatkichi 8 sm dan 17,25 sm gacha ortib borgan. Bu o‘zgarish plastifikatorning dispersiyalovchi ta’siri natijasida sement zarrachalari orasidagi yopishqoqlikning pasayishi va aralashma reologiyasining yaxshilanishi bilan izohlanadi. Plastifikator molekulalari sement zarrachalari yuzasida adsorbsiyalanib, ularning aglomeratsiyasini kamaytiradi va suvning erkin holatda harakatlanishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, 0,70% miqdordagi plastifikator qo‘shilgan holatda oquvchanlik 16 sm ga pasaygan bo‘lib, bu holat ortiqcha plastifikator ta’sirida sistemaning barqarorlik chegarasiga yetganini va gidratatsiya muvozanatini buzganini ko‘rsatadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari Sika ViscoCrete®-4336 plastifikatorining sement qorishmalarining reologik xossalarini sezilarli darajada yaxshilashini ko‘rsatdi; plastifikatorning optimal miqdorida qorishmaning oquvchanligi maksimal qiymatga erishishi aniqlandi; ortiqcha dozada esa tizim barqarorligi pasayib, oquvchanlik kamayishi kuzatildi; suv-sement nisbatining kamayishi ma’lum chegaragacha ijobiy ta’sir ko‘rsatdi, biroq kritik qiymatdan pastda salbiy natijalar

qayd etildi; olingan natijalar optimal tarkibni tanlash va beton texnologiyasini takomillashtirish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kolomitsin A.K. Beton tayyorlash uchun lignosulfonatlardan foydalanishning marketing istiqbollari // Postulat. - 2017. – № 8 avgust.

2. Попов, А.И. Региональный технический университет как адаптивная система подготовки конкурентоспособных кадров / А.И. Попов, А.В. Romanenko, А.А. Букин // Формирование organizatsionno-экономических условий эффективного функционирования АПК: сборник научных статей Междунар. научн. конференции. Минск, 2015. С.58-63.

3. Низина, Татьяна Анатольевна, and Алексей Владимирович Балбалин. "Влияние минеральных добавок на реологические и прочностные характеристики цементных композитов." Вестник Томского государственного архитектурно-строительного университета 2 (2012): 148-153.

4. Жаббар Ф. А. Техническая спецификация. Укладка бетонной смеси в жарком климате //Вестник науки и творчества. – 2016. – №. 10 (10). – С. 155-158.

GEODESIC FOUNDATIONS OF PROFILING WORK IN HYDRAULIC STRUCTURES AND THEIR IMPORTANCE IN ENGINEERING DESIGN

H.N.Suyunova

PhD student of Samarkand University of architecture and construction

hilol081293@gmail.com

Annotation: *This article systematically analyzes the geodesic foundations of profiling work in the design of hydraulic structures. Methods for forming longitudinal and transverse profiles are considered through the use of geometric niveliration, trigonometric measurements and GNSS technologies. The results of the study show the direct effect of geodesic accuracy on the reliability of hydraulic calculations. In particular, an error of ±0.01–0.02 m in altitude accuracy has also been found to cause significant hydraulic deviations over large distances.*

Keywords: *Geodesy, riveting, hydrotechnical structure, profile, slope, GNSS, hydraulics.*

INTRODUCTION

Profiling work in hydraulic structures is an important component of engineering and geodesic supply, ensuring the accuracy and reliability of the design, construction and operation processes. This process is based, first of all, on a detailed study of the terrain, geological and hydrological conditions of the territory. By profiling, important indicators such as elevation changes of the Earth's surface, slopes, direction and speed of the flow of water are determined. This forms the initial data needed in the design of Hydro — technical structures-dams, canals, reservoirs and hydroelectric power plants.Hydraulic structures (canals, dams, reservoirs) are the main elements of the water resource management system. An important stage in the design of these structures is the determination of the terrain and altitude characteristics of the area. In this respect, profiling work is one of the most important practical areas of engineering Geodesy.

MAIN PART

A profile is a graphic representation of the Earth's surface in a vertical cross section in a given direction, through which the parameters of slope, height difference and water flow are determined. If the longitudinal profile is formed along the direction of the flow, the transverse profile serves to determine the cross-sectional surface.[1]

Geodetic foundations include, first of all, high-precision measurement work. This uses niveling, trigonometric measurements, coordinate determination using global navigational satellite systems (GNSS), as well as modern electronic tacheometers. With these methods, the plan and altitude coordinates of the place are determined and profile lines are made. When forming a profile, the focus is on identifying the height signs of the points along the cross-sectional lines. This results in longitudinal (longitudinal) and transverse (transverse) profiles.

The importance of profiling work in engineering design is extremely high. First, they play an important role in the development of the feasibility study of the project. A properly structured profile will help you choose the optimal option for the project, which will allow you to reduce construction costs and effectively use resources.[2] secondly, accurate data obtained through geodesic bases serve to ensure the stability and safety of structures. For example, a misidentifiable slope.

Methodology. The study used classical and modern methods of geodesic measurements. Profiling was carried out at the following stages:

1.Geodesic preparation. Base points were established on the territory, which were connected to the state elevation system. The roads of Nivelir were built in the form of a closed or open landfill.[3]

2. Geometric riveting. Heights are determined using the following basic formula:

$$H_i = H_0 + \sum a - \sum b$$

here:

H_i— the height of the point being determined is

H_0 — starting point height

a — sum of back indicators

b — the sum of the front indicators.

The accuracy of niveling is estimated as follows:

$$f_h = \pm C\sqrt{L}$$

here:

f_h— path error

C — accuracy coefficient (usually 2-10 mm)

L — the road length is (km).

3. Determination of slope. For a longitudinal profile:

$$i=\frac{\Delta H}{L}$$

ΔH — height difference

L — distance.

4. Transverse profile surface. The cross-sectional surface is defined by the trapezoidal formula:

$$F = \frac{(b_1 + b_2)}{2} * h$$

5. Modern technologies. Coordinates are determined through GNSS (Global Navigation Satellite Systems), and results are processed in GIS applications.

Results. The results of the study showed the following:

1. Effect of geodesic accuracy

An error of ±0.01 m can change the slope at a distance of 1 km by 10-15%.

2. Longitudinal profile results

- optimal slope is determined (usually I = 0.0005–0.005 for channels);
- the stability of the water flow is ensured.

3. Transverse profile results

- the cross-sectional surface and hydraulic radius are determined;

- water consumption is calculated through the following formula:

$$Q = w * v$$

bu yerda:

Q — water consumption (m³/s),

ω— cross-sectional surface (m²),

v — flow rate (m/s).

Draw 1.

Drawing view of the water level

Height (H)

```
|
|       Surface
|      /\
|     /  \____ Water level
|    /
|
└──────────────────────→ Distance (L)
```



Figure 1.Geodesic measurements in profile formation in hydraulic structures

DISCUSSION

Profiling work on hydraulic structures is considered one of the most responsible stages of geodesic supply. As practice shows, even small geodesic errors made during the design process can later lead to major problems, including misdirection of the water flow, uneven subsidence of the structure or a decrease in

hydraulic efficiency. For this reason, the level of accuracy is considered as the most important criterion in the work of profiling.

Today, in addition to traditional geodesic methods, modern technologies are widely used. Aerophototopographic measurements using GNSS systems, laser scanning, drone have significantly accelerated the profiling process and improved accuracy.[4] however, highly qualified professionals and a thorough methodological framework remain necessary for the fully effective application of these technologies.

The results show that the quality of geodesic measurements is one of the main factors in hydrotechnical design. While classical niveling gives high accuracy, it takes time. GNSS, on the other hand, is fast, but under certain conditions its accuracy may decrease.

Also, the following factors are important when building a profile:

• scale selection (vertical scale is often magnified 10 times);

• measurement density (taking every 20-50 m Point);

* relief complexity.

The use of GIS Technologies makes it possible to automate and visualize the results.

CONCLUSION

The Geodetic basis of profiling work in hydraulic structures is an integral part of engineering design, which ensures the correct technical, economic and safety construction of structures. Precision-executed profile work serves to make reasonable use of water resources, ensure the accuracy of hydraulic calculations, and reduce errors in the construction process.

In general, the quality execution of profile work is one of the main factors in ensuring the long-term stability and reliability of hydraulic structures. Digital technologies, artificial intelligence in this area in the future.

LITERATURE USED

1. Asqarov, A. (2020). *Fundamentals of Geodesy*. Tashkent.
2. Abduvaliev, B. (2021). *Engineering Geodesy*. Tashkent.
3. Karimov, Sh. (2019). *Hydraulic structures*. Tashkent.
4. Wolf, P. R., & Ghilani, C. D. (2018). *Elementary Surveying*. Pearson.
5. Chow, W. T. (1959). *Open Channel Hydraulics*. McGraw-Hill.

LAZER DIODLAR ASOSIDA QO‘ZG‘ATILGAN EDFA ASOSIDAGI TOLALI KUCHAYTIRGICHLARDA SHOVQIN KO‘RSATKICHINI MINIMALLASHTIRISH

Dadamatova Kamola Talibbayevna

assistent,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

dadmatovakamola1@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada lazer diodlar asosida qo‘zg‘atilgan EDFA asosidagi tolali kuchaytirgichlarda shovqin ko‘rsatkichini minimallashtirish masalasi ko‘rib chiqilgan. EDFA optik aloqa tizimlarida signalni bevosita optik domenida kuchaytiruvchi muhim qurilma hisoblanadi. Kuchaytirish jarayonida yuzaga keladigan kuchaytirilgan spontan emissiya (ASE) shovqinni oshirib, signal sifatini pasaytiradi. Tadqiqotda 980 nm va 1480 nm lazer diodlari asosidagi nasoslash rejimlari, nasos quvvati barqarorligi va tolalar uzunligining ta’siri tahlil qilingan. Optimallashtirilgan parametrlar orqali shovqin kamaytirilib, signal-shovqin nisbati yaxshilanishi aniqlangan. Natijalar yuqori tezlikli optik aloqa tizimlarida samaradorlikni oshirish uchun muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *EDFA, lazer diod, shovqin, ASE, optik kuchaytirgich, signal-shovqin nisbati.*

Abstract: *This paper addresses the problem of minimizing the noise figure in erbium-doped fiber amplifiers (EDFAs) pumped by laser diodes. EDFA is a key device in optical communication systems that directly amplifies optical signals in the optical domain. However, during the amplification process, amplified spontaneous emission (ASE) is generated, which increases noise and degrades signal quality. The study analyzes the effects of 980 nm and 1480 nm laser diode pumping schemes, pump power stability, and fiber length on amplifier performance. By optimizing these parameters, noise is reduced and the signal-to-noise ratio (SNR) is improved. The obtained results are important for enhancing the efficiency of high-speed optical communication systems.*

Keywords: *EDFA, laser diode, noise, ASE, optical amplifier, signal-to-noise ratio.*

KIRISH

Zamonaviy optik aloqa tizimlari axborot uzatish tezligi va sig‘imini oshirishga bo‘lgan talablar ortib borayotganligi sababli jadal rivojlanmoqda. Optik tolali tarmoqlar yuqori o‘tkazuvchanlik, past yo‘qotish va elektromagnit shovqinlarga chidamliligi tufayli asosiy aloqa infratuzilmasi sifatida keng qo‘llaniladi. Biroq uzoq masofalarga signallarni uzatishda optik yo‘qotishlar yuzaga keladi va bu ularni kuchaytirishni talab qiladi. Shu maqsadda erbiy bilan legirlangan tolali kuchaytirgichlar (EDFA) muhim rol o‘ynaydi.

EDFA optik signalni elektrga aylantirmasdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri optik domenida kuchaytiradi, bu esa tizim tezligini saqlaydi va murakkab qayta ishlashni kamaytiradi. Uning ishlashi erbiy ionlarining energiya sathlari o‘rtasidagi o‘tishlarga asoslangan bo‘lib, nasoslash jarayonida populyatsiya inversiyasi hosil qilinadi. Amalda 980 nm va 1480 nm lazer diodlar keng qo‘llaniladi: 980 nm past shovqinli ishlashni, 1480 nm esa yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

Biroq EDFA tizimlarida asosiy muammo shovqin, xususan kuchaytirilgan spontan emissiya (ASE) hisoblanadi. ASE signal bilan birga kuchayib, signal-shovqin nisbatini (SNR) pasaytiradi. Shovqin darajasiga nasos to‘lqin uzunligi, quvvat barqarorligi va erbiy tolasi uzunligi sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu ishda lazer diodlar asosida qo‘zg‘atilgan EDFA tizimlarida shovqinni kamaytirish va optimal ish rejimlarini aniqlash masalasi o‘rganildi. Olingan natijalar yuqori tezlikli va uzoq masofali optik aloqa tizimlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi[1].

EDFA modeli erbiy ionlarining uch energetik sathli tizim sifatida qaralib, optik nasoslash jarayonida populyatsiya inversiyasi hosil bo‘lishi asosiy fizik jarayon sifatida qabul qilindi. Nasoslash jarayoni 980 nm va 1480 nm to‘lqin uzunlikdagi lazer diodlar yordamida amalga oshiriladigan holatlar alohida ko‘rib chiqildi. Ushbu ikki nasos rejimi EDFA ning kuchaytirish samaradorligi va shovqin darajasiga turlicha ta’sir ko‘rsatishi sababli, ular solishtirma tahlil asosida baholandi 1-jadval.

1-jadval

EDFA uchun solishtirma tahlil jadvali (980 nm va 1480 nm)

Mezonlar	**980 nm nasoslash**	**1480 nm nasoslash**
Populyatsiya inversiyasi	Yuqori darajada hosil bo‘ladi	O‘rtacha darajada
Shovqin ko‘rsatkichi (NF)	Past (afzal)	Nisbatan yuqori
Kuchaytirish samaradorligi	O‘rtacha	Yuqori
Energiya samaradorligi	Pastroq	Yuqori
ASE darajasi	Kamroq	Ko‘proq
Amaliy qo‘llanilishi	Past shovqin talab qilingan tizimlar	Uzoq masofali uzatish tizimlari

Simulyatsion modelda erbiy-doplangan tola bo‘ylab signal va nasos nurlanishining tarqalishi differensial tenglamalar tizimi orqali ifodalandi. Tizimda yutilish, spontan emissiya va stimullangan emissiya jarayonlari hisobga olindi. Optik signalning kuchayishi va ASE hosil bo‘lishi raqamli iteratsion usullar yordamida hisoblandi. Modelda tolali kuchaytirgich uzunligi, nasos quvvati, kirish signali quvvati hamda legirlash konsentratsiyasi asosiy o‘zgaruvchilar sifatida belgilandi 2-rasmda keltirilgan.

Shovqin ko‘rsatkichini aniqlashda chiqish signali quvvati va ASE quvvati o‘rtasidagi nisbat asos qilib olindi. Shovqin ko‘rsatkichi quyidagi fizik jarayonlar bilan bog‘liq ravishda tahlil qilindi: spontan emissiya kuchayishi, nasoslash samaradorligi va tola ichidagi optik yo‘qotishlar. Har bir parametrning o‘zgarishi natijasida EDFA ning umumiy ishlash samaradorligi qayd etildi. Optimallashtirish jarayoni ko‘p bosqichli iteratsion yondashuv asosida amalga oshirildi. Dastlab boshlang‘ich parametrlar to‘plami tanlanib, keyin har bir parametr ketma-ket o‘zgartirildi va chiqishdagi SNR hamda shovqin ko‘rsatkichi baholandi. Optimal holat sifatida minimal shovqin ko‘rsatkichi va maksimal kuchaytirish koeffitsienti birgalikda ta’minlangan konfiguratsiya tanlab olindi [2].



2-rasm. Erbiy-doplangan tolali kuchaytirgich (EDFA)ning simulyatsion modeli: nasoslash, signal tarqalishi va shovqin hosil bo‘lish jarayonlari

Tadqiqot natijalari lazer diodlar bilan qo‘zg‘atilgan erbiy tolali kuchaytirgich (EDFA)ning shovqin ko‘rsatkichiga nasoslash parametrlari katta ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. 980 nm va 1480 nm rejimlari solishtirilganda, 980 nm nasoslash past shovqin olishda samaraliroq ekani aniqlandi. Bu erbiy ionlarining yuqori energiya sathiga samarali qo‘zg‘atilishi va tezroq populyatsiya inversiyasi hosil bo‘lishi bilan izohlanadi.

Simulyatsiya natijalariga ko‘ra, nasos quvvati ortishi bilan kuchaytirish ma’lum chegaragacha oshadi, ammo undan keyin ASE darajasi ortib, signal-shovqin nisbatini pasaytiradi. Shu sababli optimal nasos quvvati mavjud. Tola uzunligi ham muhim omil bo‘lib, juda uzun tolada ASE ko‘payadi, juda qisqasida esa kuchaytirish yetarli bo‘lmaydi.

Bundan tashqari, nasos quvvatining barqarorligi ham muhim ahamiyatga ega, chunki kichik tebranishlar ham shovqinni oshiradi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, past shovqinli ishlash bir nechta parametrlarni birgalikda optimallashtirishga bog‘liq. Umuman, optimallashtirilgan EDFA yuqori signal-shovqin nisbatini ta’minlab, optik aloqa tizimlari samaradorligini oshiradi [3].

Ushbu tadqiqotda lazer diodlar asosida qo‘zg‘atilgan erbiy-doplangan tolali kuchaytirgichlar (EDFA)da shovqin ko‘rsatkichini minimallashtirish masalasi o‘rganildi. EDFA optik aloqa tizimlarida muhim o‘rin tutadi, biroq uning ishlash samaradorligi asosan kuchaytirilgan spontan emissiya (ASE) shovqini bilan cheklanadi.

Tahlillar natijasida 980 nm va 1480 nm nasoslash rejimlari solishtirildi va 980 nm rejim past shovqin ko‘rsatkichiga erishishda samaraliroq ekanligi aniqlandi. 1480 nm rejim esa yuqori energiya samaradorligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, nasos quvvati va tolali kuchaytirgich uzunligi EDFA ning signal-shovqin nisbatiga bevosita ta’sir qilishi ko‘rsatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. D’Ingillo, R., Castronovo, A., Straullu, S., & Curri, V. (2025). Polynomial modeling of noise figure in erbium-doped fiber amplifiers. Fibers, 13(3), 34. https://doi.org/10.3390/fib13030034
2. Agrawal, G. P. (2021). Fiber-optic communication systems (5th ed.). Wiley.
3. Desurvire, E. (2021). Erbium-doped fiber amplifiers: Principles and applications. Wiley.

QISHLOQ XO‘JALIGI SOHASIDA DAVLAT BUYURTMASI ASOSIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ILMIY-TADQIQOT LOYIHALARINING NATIJADORLIGI TAHLILI

Dilafruz Mamasadiqova,

Islom Karimov nomidagi Toshkent

davlat texnika universiteti

tayanch doktoranti

E-mail: mamasadikova@my.com

Annotatsiya: *Ushbu tezis qishloq xo‘jaligi sohasida davlat buyurtmasi asosida amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalarining natijadorligini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda loyihalarning ilmiy-amaliy ahamiyati, innovatsion ishlanmalarning ishlab chiqarishga tatbiq etilish holati, iqtisodiy samaradorligi hamda tarmoq rivojiga qo‘shayotgan hissasi tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida davlat buyurtmasi asosidagi ilmiy faoliyat samaradorligini baholash mezonlari ochib berilib, mavjud muammolar aniqlangan va ularni bartaraf etish yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *qishloq xo‘jaligi sohasi, davlat buyurtmasi asosidagi loyihalar, ilmiy-tadqiqot ishlari, loyiha natijadorligi, ilmiy-amaliy samaradorlik, innovatsion texnologiyalar, ishlab chiqarishga tatbiq etish, agrar rivojlanish, iqtisodiy baholash, samaradorlik mezonlari.*

Аннотация: *Данная тезисная работа посвящена изучению результативности научно-исследовательских проектов, реализуемых в сфере сельского хозяйства на основе государственного заказа. В ней проанализированы научно-практическая значимость проектов, состояние внедрения инновационных разработок в производство, их экономическая эффективность, а также вклад в развитие отрасли. В результате исследования раскрыты критерии оценки эффективности научной деятельности, осуществляемой на основе государственного заказа, выявлены существующие проблемы и выдвинуты научно обоснованные предложения по их устранению.*

Ключевые слова: *сфера сельского хозяйства, проекты на основе государственного заказа, научно-исследовательские работы, результативность проекта, научно-практическая эффективность, инновационные технологии, внедрение в производство, аграрное развитие, экономическая оценка, критерии эффективности.*

Abstract: *This thesis is devoted to studying the effectiveness of research projects implemented in the agricultural sector on the basis of the state order. It analyzes the scientific and practical significance of these projects, the current state of introducing innovative developments into production, their economic efficiency, and their contribution to the development of the sector. As a result of the research, the criteria for evaluating the efficiency of scientific activity carried out under the state order have been identified, existing problems have been revealed, and scientifically grounded proposals for their elimination have been put forward.*

Key words: *agricultural sector, state-order-based projects, research activities, project effectiveness, scientific and practical efficiency, innovative technologies, implementation in production, agricultural development, economic evaluation, efficiency criteria.*

KIRISH

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta’minlash, eksport salohiyatini oshirish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish kabi ustuvor vazifalarni hal etishda ilm-fan yutuqlarining o‘rni beqiyosdir. Shu bois qishloq xo‘jaligi sohasida davlat buyurtmasi asosida amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Davlat buyurtmasi asosidagi ilmiy-tadqiqot ishlari agrar tarmoqning dolzarb muammolarini hal etishga, yangi nav va texnologiyalar yaratishga, hosildorlikni oshirishga, mahsulot sifatini yaxshilashga hamda ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Biroq mazkur loyihalarning natijadorligini muntazam tahlil qilish, ularning amaliyotga joriy etilish darajasini aniqlash va ajratilgan mablag‘larning samaradorligini baholash muhim ilmiy-amaliy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

ASOSIY QISM

Agrar sohada innovatsion mahsulotlarni tijoratlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari o‘rganilgan, sohani innovatsion rivojlantirishga doir xorijiy tajribalar tadqiq etilgan va ularni respublikamiz iqtisodiyotida qo‘llash yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.

“2022-yilda respublika bo‘yicha ilmiy faoliyati davlat dasturlari doirasida moliyalashtirilgan jami loyihalarning 14,6 foizi yoki 136 tasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi, O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi hamda Ipak va jun sanoatini rivojlantirish agentligi hisobiga to‘g‘ri kelgan. Boshqacha qilib aytganda, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi, O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi hamda Ipak va jun sanoatini rivojlantirish agentligi bo‘yicha davlat dasturi doirasida moliyalashtirilayotgan loyihalar qiymati 60036 mln so‘mni yoki jami loyihalar qiymatining 13,8 foizini tashkil etadi. Shu jumladan, faqat Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimida qiymati 46851 mln. so‘m bo‘lgan (jamiga nisbatan 10,1 foiz) 100 ta loyiha (10,8 foiz) amalga oshirilgan”[1].

Biroq ushbu loyihalarning barchasi ham ijobiy yakunlanmagan yoki natijalarini tijoratlashtirish imkoni bo‘lmagan. Buning asosiy me’yoriy-huquqiy va tashkiliy-iqtisodiy sabablari sifatida tadqiqotchi quyidagilarni ko‘rsatadi:

“- qishloq xo‘jaligida innovatsion ishlanmalarni yaratish bilan bog‘liq barcha toifadagi tadqiqotlarni moliyalashtirish darajasining pastligi. Buni birinchi bosqichda rivojlanayotgan ilg‘or davlatlar darajasiga, ikkinchi bosqichda rivojlangan davlatlar darajasiga olib chiqish maqsadga muvofiq;

- ilmiy-tadqiqot muassasalari moddiy-texnika bazasining talab darajasida emasligi, mavjudlarining jismonan va ma’naviy jihatdan eskirganligi;

- ilmiy-tadqiqotlar uchun zarur ma’lumotlarning yetishmasligi, aniqlilik darajasining pastligi, ma’lumot almashinuvi doirasining cheklanganligi yoki to‘liq raqamlashtirish tizimi vositasida uyg‘unlashtirilmaganligi bois, bunday ma’lumotlarning asosli xulosa va takliflar shakllantirishga imkon bermayotganligi;

- ilmiy-tadqiqot tashkilotlari ilmiy-xodim va mutaxassislarining loyiha texnik topshiriqlari, olingan natija va innovatsion yangiliklarni jahon standartlari talablari asosida shug‘ullantirish va rasmiylashtirish borasidagi bilim, ko‘nikma va amaliyotining kamligi hamda yo‘qligi;

- qishloq xo‘jaligi sohasida innovatsion ishlanmalar amaliy va fundamental tadqiqotlarga asoslanganligi, xususan sohada bunday amaliy va fundamental tadqiqotlar milliy iqtisodiyotimizning boshqa sohalaridan farqli o‘ziga xos xususiyat va talablardan iborat ekanligi o‘tgan 10 yil davomida yetarli darajada inobatga olinmaganligi, bugungi kunda bu yo‘nalishdagi chora-tadbirlar boshlang‘ich bosqichda ekanligi;

- qishloq xo‘jaligida innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish tarmoq ishlab chiqarish xususiyatidan kelib chiqqan holda, loyihalar tanlovi hamda innovatsion dasturlarda yetarli darajada inobatga olinmayotganligi, innovatsiyalarni tijoratlashtirish mexanizmi ishlab chiqaruvchilar moddiy manfaatdorligi bilan past darajada uyg‘unlashganligi”[2].

Darhaqiqat, qishloq xo‘jaligi o‘ziga xos soha bo‘lib, bu yo‘nalishda ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab va uzoq muddat talab etishi bilan ajralib turadi. Yangi nav va seleksion ashyolar yaratish uchun bir necha yil va salmoqli mablag‘, muayyan shart-sharoit, zamonaviy laboratoriya asbob-uskunalari talab etiladi. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlari asosan Qishloq xo‘jaligi vazirligiga qarashli ilmiy tashkilotlar va vazirlik huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tizimidagi ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan amalga oshiriladi. Milliy markaz tizimidagi 15 ta ilmiy-tadqiqot instituti va ularga qarashli ilmiy-tajriba stansiyalariga biriktirilgan yer maydonlari mavjud bo‘lsa-da, laboratoriya uskunalari va yuqori salohiyatli ilmiy kadrlar yetishmovchiligi kuzatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki hamda Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokida “O‘zbekiston Respublikasi

qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4803-son qarori asosida Jahon banki mablag‘lari hisobidan jami 54,5 million dollar mablag‘lar ajratilib, mablag‘lar Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tizimidagi 13 ta ilmiy-tadqiqot institutlari uchun 23,7 million, Qishloq xo‘jaligi fundamental tadqiqotlar markazi (Center Of Excellence, ya’ni biotadqiqotlar va texnologiyalar bo‘yicha zamonaviy laboratoriyalar majmuasi) uchun 24,75 million hamda Akademik M.Mirzayev nomidagi Bog‘dorchilik, uzumchilik ITI hududida Horticulture markazini tashkil etish uchun 6,0 million dollar mablag‘lar ajratilishi ko‘zda tutilgan.[3] Ushbu mablag‘lar:

- institutlardagi tadqiqot uchun mo‘ljallangan binolar rekonstruksiya qilish va moddiy-texnik bazani mustahkamlash;
- laboratoriyalarni zamonaviy uskuna, jihozlar va reagentlar bilan ta’minlash;
- institutlardagi o‘simliklar kolleksiyasi va genofondlarni boyitish;
- institut va uning ilmiy-tajriba stansiyalarini zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta’minlash;
- Tadqiqot o‘tkazish uchun zamonaviy issqxona va fitotronlar barpo etish; institut markaziy tajriba stansiyasida 0,15 gektar qishki bog‘ barpo etish;
- barcha zaruriy priborlar bilan jihozlangan mobil laboratoriyalar tashkil etish;
- ilmiy ekspeditsivalar samaradjrligini oshirish maqsadida mobil ekspeditsiya avtomobillarini xarid qilish;
- ilmiy xodimlarni tajriba almashish va malaka oshirish uchun xorijiy davlatlarning yetakchi ilmiy markazlariga yuborish;
- xorijiy malakali mutaxassislarini jalb qilgan holda trening va seminarlar o‘tkazish va boshqa maqsadlarga yo‘naltiriladi.

Yuqoridagi vazifalarning amalga oshirilishi ilmiy tadqiqotlar sifati va samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Chunki bugungi kun talablariga javob beradigan tadqiqotlar uchun avvalo zarur shart-sharoit va yetuk ilmiy salohiyatli kadrlar talab etiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo‘jaligi sohasida davlat buyurtmasi asosida amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalari agrar tarmoqni modernizatsiya qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, hosildorlikni oshirish hamda innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur loyihalar nafaqat ilmiy yangilik yaratish, balki ularni amaliyotga tatbiq etish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishishning ham muhim omili hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, agrar sohada davlat buyurtmasi asosida moliyalashtirilayotgan ilmiy loyihalar salmoqli o‘rin tutayotgan bo‘lsa-da, ularning barchasi ham kutilgan natijadorlikka erishmayapti. Bunga moliyalashtirish darajasining yetarli emasligi, ilmiy-tadqiqot muassasalarining moddiy-texnika bazasi talab darajasida shakllanmagani, ilmiy ma’lumotlar bazasining yetarlicha raqamlashtirilmagani, shuningdek, ilmiy natijalarni jahon standartlari asosida rasmiylashtirish va tijoratlashtirish mexanizmlarining sustligi kabi omillar sabab bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi sohasining o‘ziga xos xususiyatlari, xususan, ilmiy izlanishlarning uzoq muddat talab etishi, yangi nav va texnologiyalar yaratish uchun katta mablag‘, zamonaviy laboratoriyalar va yuqori malakali kadrlar zarurligi ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar samaradorligini oshirishni tizimli yondashuv asosida tashkil etishni taqozo etadi. Bu borada xalqaro moliyaviy institutlar ishtirokida ajratilayotgan mablag‘lar, ilmiy markazlar va laboratoriyalarni modernizatsiya qilish, ilmiy xodimlar malakasini oshirish hamda innovatsion infratuzilmani kuchaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar muhim ijobiy qadam bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Nazarova U.A. Qishloq xo‘jaligida innovatsiyalarni tijoratlashtirish mexanizmini takomillashtirish yo‘llari. - 08.00.04-“Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan diss. avtoreferati. – Toshkent, 2025. – B.29.
2. O‘sha manba. – B 36-37.
3. O’zbekiston respublikasi Qishloq xo’jaligi vazirligi ma’lumotlari.
4. Ergashev R.X., Xamrayeva S.N. Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti. – O‘quv qo‘llanma. – T.: Yangi avlod, 2012. – 335 b.
5. Xolmirzayev I. Qishloq xo‘jaligini innovatsion asosda rivojlantirishni takomillashtirish masalalari. – Toshkent: O‘zBIITI, 2014. – 82 b.

BO‘LAJAK MUTAXASSISLARDA LOYIHALASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN LOYIHAVIY TA’LIMNI QO‘LLASHNING ZARURIYATI

Davronova Muxayyo Usubjonovna

katta o‘qituvchi

Namangan Davlat texnika universiteti

tel: +99893-947-19-37,

e-mail: *muhayyodavronova71@gmail.com*

Annotatsiya: *Bo‘lajak mutaxassislarda loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish uchun “Integratsiyalashgan loyihaviy ta’lim” (“STEAM”, Sun’iy intellekt-AI, Raqamli egizak(npomomun), OJT) nomli metodni texnika oliy ta’lim tizimida qo‘llash samarali didaktik vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.*

Kalit so‘zlar: *loyiha, texnologik innovatsiya, konstruktorlik, kompetensiya, texnologik, mexanik,loyihalash ko‘nikmasi*

Annotation: *the application of a method called “Integrated Project Education” (“STEAM”, artificial intelligence-AI, digital twin(prototype), OJT) in the system of Technical Higher Education for the development of design competencies in future specialists manifests itself as an effective didactic* tool.

Keywords: *project, technological innovation, design, competence, technological, mechanical, design skills*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05-oktabr 2020 yildagi 6079-sonli Farmonida “Raqamli o‘zbekiston – 2030” strategiyasini [1] tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish - raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish va bunda quyidagi jihatlarni inobatga olish: axborot savodxonligi (qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni topish

qobiliyati), kompyuter savodxonligi (raqamli qurilmalar bilan ishlash qobiliyati), media savodxonligi (ommaviy axborot vositalarini tanqidiy o‘rganish imkoniyati), kommunikativ savodxonlik (zamonaviy raqamli aloqa vositalaridan foydalanish qobiliyati), texnologik innovatsiyalarga (yangi texnologiyalarga) ijobiy munosabatni shakllantirish belgilangan. Shuningdek, ta’lim sohasida raqamli savodxonlik ko‘nikmalarni oshirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshirish nazarda tutilgan ta’lim pog‘onasining boshlang‘ich bosqichida talabalarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish; tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda zarur bo‘ladigan keng ko‘lamli raqamli transformasiya sharoitida yoshlarga bilim va ko‘nikmalar berishdan iborat.

ASOSIY QISM

Hozirda sanoat tarmoqlarining raqamlashuvi, ishlab chiqarish jarayonlarining intellektuallashuvi hamda muhandis-kadrlarga qo‘yilayotgan kompetentsiyaviy talablarning keskin ortishi ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Shu nuqtai nazardan, dissertatsiyada ko‘tarilgan muammo - talabalarda loyihalash kompetentsiyalarini zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish dolzarb va strategik ahamiyat kasb etadi. Ta’lim jarayonida talabalarda loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishda asosiy e’tibor umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining didaktik imkoniyatlarini qo‘llanilmoqda. Dunyo bo‘yicha xalqaro baholash dasturlarini ta’lim tizimiga keng joriy etish, ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishda yangi innovatsion yondashuv sifatida qaralmoqda.

Ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi subyektlarning muayyan umumiy maqsad atrofida birlashuvi orqali ularning raqobatbardoshligini oshirish ta’limda talabalarni loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish mazmunini belgilaydi va uni ilmiy-

pedagogik muammo sifatida tadqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Talabalarda loyihalash kompetensiyalari hamda tashkil etuvchi komponentlari fanlararo integratsiya doirasida rivojlanadi. Shuhingdek, loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishda **“Integratsiyalashgan loyihaviy ta’lim”** (**“**STEAM**”**, Sun’iy intellekt-AI, Raqamli egizak(прототип), OJT) nomli metodi texnika oliy ta’lim tizimida talabalarda loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali didaktik vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu metod talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini mustahkamlash, balki ularni ishlab chiqarish sharoitida qo‘llay olish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Natijada, bo‘lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligi yangi sifat bosqichlariga ko‘tariladi(1-rasm).

Loyihalash jarayonida talabalar turli xil kompetensiyalarni rivojlantiradilar, bu esa ularning konstruktiv, texnologik va mexanik yondashuvlar orqali yuqori samarali konstruktsiyalarni yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi.



1-rasm. “Integratsiyalashgan loyiha ta’limi bosqichlari”

Har bir yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlari va natijalari mavjud bo‘lib, ular quyidagi parametrlarda asoslanadi.1.**“Konstruktorlikni” maqbul varianti:** konstruktiv yondashuvda asosiy maqsad – detalning shaklini soddalashtirish,

ortiqcha material sarfini kamaytirish va mustahkamlikni saqlashdir. Bu jarayon, konstruktiv tizimni yengillashtirish orqali materiallar va resurslarning samarali ishlatilishini ta’minlaydi. Natijada konstruksiyaning samaradorligi va mustahkamligi o‘zaro uyg‘unlashadi, bu esa ishlab chiqarish jarayonining texnik-texnologik jihatlarini optimal darajada ta'minlaydi. **2.“Texnologik” maqbul varianti:** texnologik yondashuv ishlab chiqarish jarayonining soddalashtirilishi va optimallashtirilishiga qaratilgan. Bu variantda ishlab chiqarish jarayoni kam operatsiyali bo‘lishi, shuningdek, standart asboblar va jihozlardan foydalanilishi lozim. Bunday yondashuv ishlab chiqarishning arzonligi va samaradorligini oshiradi, chunki operatsiyalar sonining kamayishi va texnik ta’minotning oddiylashtirilishi bilan ishlab chiqarish jarayoni sezilarli darajada tezlashadi.**3.“Mexanik” maqbul varianti:** mexanik yondashuvda asosan detallarning mexanik mustahkamligi va ishonchliligi ta’minlanadi. Ushbu yondashuvda materiallarga kuchlanishni teng taqsimlashni va charchashni kamaytirishni nazarda tutadi. Mexanik jihatlarni optimallashtirish orqali detalning xizmat muddati uzayadi va uning ishlash ishonchliligi oshadi. **4.“Xizmat Qilish Muddati” maqbul varianti:** xizmat qilish muddati samaradorligini oshirish uchun, konstruktsiyalar texnik-iqtisodiy jihatdan yuqori sifatli va ishlash sharoitiga moslashtirilgan bo‘lishi lozim. Xizmat muddatini uzaytirish uchun korroziyaga bardoshli materiallar va yuqori haroratga moslashuvchan materiallar ishlatiladi. Bu yondashuv ishlab chiqarilgan konstruktsiyalarning uzoq muddat xizmat qilishini ta’minlab, texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi.

XULOSA

Natijada talabalar loyihalash jarayonida yuqoridagi har bir maqbul variantni o‘ziga xos jihatlari va afzalliklarini hisoblab, konstruktsiyaning samaradorligi, ishonchliligi, arzonligi va uzoq muddatli xizmat qilishini ta’minlash muhim ahamiyatga egaligini inobatga oladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 2024yil 20-iyun kuni “Muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari” yuzasidan videoselektor yig‘ilishi.

2. M.U.Usubjonovna. Bo‘lajak mutaxassislani loyihalash kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasi МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИР Илимий-методикалық jurnali Нөкис 2024 2/1-сан, 178-185bet, ISSN 2181-7138

3. Usubjanovna, D. M., & Sharifjanovna, Q. M. (2023). The effectiveness of using morphological study method in teaching specialized subjects. *international journal of research in commerce, it, engineering and social sciences ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *17*(01), 22-27.

4. Usubjanovna, D. M. (2022). ASPECTS OF METHODS AND FORMS OF TEACHING TECHNICAL SUBJECTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *10*(2), 743-747.

5. Usubjanova, D. M. Methods of Development of Design Competents in Future Specialists. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, *3*(3), 331-335.

6. Davronova M.U. “Texnik ijodkorlik va dizayn” O ‘quv qo‘llanma. (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 07.05.2024 yildagi №149 sonli buyrug’i, № 344188 Guvohnoma) 225 bet.

SUYUQLIKKA TO‘YINGAN G‘OVAK-ELASTIK MUHITLARDA BO‘YLAMA VA KO‘NDALANG TO‘LQINLARNI BIOT NAZARIYASI ASOSIDA SONLI MODELLASHTIRISH

Xolmurodov A. E.[1], Shanbiyev Sh. Sh.[2]

[1,2]Qarshi davlat universiteti, Qarshi;

[1]Fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor. [2]Tayanch doktarant

[1] abishx@mail.ru [2]shahzodshanbiyev@gmail.com

Annotation: *In this study, numerical solutions were obtained using the second-order finite difference method to model the propagation of longitudinal (fast and slow) and shear waves in fluid-saturated poroelastic media based on Biot's classical theory. In addition, computational errors were determined for all three types of waves. Furthermore, the effects of parameters such as porosity, permeability, viscosity, and frequency on wave velocities were investigated through parametric studies.*

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqotda Biot klassik nazariyasi asosida suyuqlikka to‘yingan g‘ovak-elastik muhitlarda (tez va sekin) bo‘ylama hamda ko‘ndalang to‘lqinlar tarqalishini modellashtirish uchun ikkinchi tartibli chekli ayirmalar usuli yordamida sonli yechimlar olish amalga oshirilgan. Shuningdek uch turdagi to‘lqin uchun hisoblash xatoliklari aniqlandi. Shu bilan birga ishda g‘ovaklik, o‘tkazuvchanlik, qovushqoqlik va chastotaning to‘lqin tezliklariga ta’siri kabi parametrlar, parametrik tadqiqotlar o‘tkazish yo‘li bilan aniqlangan.*

Keywords: *Biot's theory, poroelastic medium, longitudinal wave, shear wave, finite difference method, numerical modeling, parametric study.*

Kalit so‘zlar: *Biot nazariyasi, g‘ovak-elastik muhit, bo‘ylama to‘lqin, ko‘ndalang to‘lqin, chekli ayirmalar usuli, sonli modellashtirish, parametrik tadqiqot.*

KIRISH

Suyuqlikka to‘yingan g‘ovak-elastik muhitlarda to‘lqin tarqalishi geomexanika, neft-gaz muhandisligi, zilzilaga chidamlilik muhandisligi va okean

muhandisligi kabi bir qator muhandislik va fizika sohalarida intensiv tadqiqotlar mavzusi bo‘lib kelmoqda. Mazkur hodisani to‘g‘ri modellashtirish quyidagicha amaliy masalalarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi: uglevodorod konlarini qidirishda seysmik ma’lumotlarni talqin qilish, poydevorlarning dinamik holatini bashorat qilish va g‘ovak muhitlarning gidravlik xususiyatlarini masofadan turib aniqlash [1,2,3].

Biot tomonidan yaratilgan klassik nazariya suyuqlikka to‘yingan izotrop g‘ovak muhitda uchta mustaqil to‘lqin turining mavjudligini nazariy asosladi [1, 2]. Bu to’lqinlar tez bo‘ylama to‘lqin (P1), sekin bo‘ylama to‘lqin (P2) va ko‘ndalang to‘lqin (S) lardir. P1 to‘lqinida qattiq skelet(g’ovak jism) va suyuqlik bir xil fazada birgalikda harakat qiladi. P2 to‘lqi past chastotalarda diffuziya tipidagi tarqalishga bo’lib, yuqori so‘nish koeffitsienti bilan tavsiflanadi. Ko‘ndalang to‘lqin S esa asosan qattiq skelet bo’ylab tarqaladi va suyuqlik ta’siri minimal darajada qayd etiladi.

Yuqorida keltirilgan turdagi to’lqinlar bilan bog’liq masalalarda qo’llanilgan chekli ayirmalar usulida Biot tenglamalarining to‘liq bog‘lanish va dissipatsiya a’zolari saqlab qolinmagan hamda uchta turdagi to‘lqin uchun tizimli parametrik tadqiqot o‘tkazilmagan [3, 4]. Maqolada bu kabi masalalarni o’rganish amalga oshiriladi.

ASOSIY QISM

Biot asosida bir o‘lchamli g‘ovak-elastik muhit uchun harakat tenglamalari quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi[1]:

$$\mathrm{P}\frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + \mathrm{Q}\frac{\partial^2 U}{\partial x^2} = \rho_{11}\frac{\partial^2 u}{\partial t^2} + \rho_{12}\frac{\partial^2 U}{\partial t^2} + \mathrm{b}\frac{\partial(u-U)}{\partial \mathrm{t}} \qquad (1)$$

$$Q\frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + R\frac{\partial^2 U}{\partial x^2} = \rho_{12}\frac{\partial^2 u}{\partial t^2} + \rho_{22}\frac{\partial^2 U}{\partial t^2} - b\frac{\partial(u-U)}{\partial t} \qquad (2)$$

bu yerda u, U [m] — mos ravishda qattiq skelet va suyuqlik siljish vektorlari; P, Q, R [Pa] — Biot elastik koeffitsientlari; ρ_{11}, ρ_{12}, ρ_{22} [kg/m³] — massa koeffitsientlari; $b = \mu f \cdot n^2/k$ [Pa·s/m²] — viskoz qarshilik koeffitsienti.

(1)–(2) tenglamalarini Chekli ayirmalar usuli ga o‘tkazishda fazoviy va vaqt hosilalari ikkinchi tartibli markaziy ayirmalar bilan almashtiriladi:

$$\frac{\partial^2 u}{\partial x^2} \approx \frac{u_{i+1}^n - 2u_i^n + u_{i-1}^n}{\Delta x^2} \quad (3)$$

$$\frac{\partial^2 u}{\partial t^2} \approx \frac{u_i^{n+1} - 2u_i^n + u_i^{n-1}}{\Delta t^2} \quad (4)$$

$$\frac{\partial (u-U)}{\partial t} \approx \frac{u_i^{n+1} - u_i^{n-1}}{2\Delta t} \quad (5)$$

(3)–(5) approksimatsiyalari (1)–(2) ga tatbiq etilganda n+1 darajali noma’lumlar uchun formulasi olinadi:

$$u_i^{n+1} = \frac{(\rho_{22}+\kappa)P_u - (\rho_{12}-\kappa)P_U}{D} \quad (6)$$

$$U_i^{n+1} = \frac{(\rho_{11}+\kappa)P_U - (\rho_{12}-\kappa)P_u}{D} \quad (7)$$

bu yerda $\kappa = b \cdot \Delta t/2$ [kg/m³] — viskoz parametr; $D = (\rho_{11}+\kappa)(\rho_{22}+\kappa) - (\rho_{12}-\kappa)^2$ — sistema determinanti; P_u, $P\chi$ — fazoviy ayirmalardan hosil bo‘lgan o‘ng taraf vektorlari.

Von Neyman turg’unlik tahlili asosida KFL sharti aniqlanadi: $KFL = V_1 \cdot \Delta t/\Delta x \leq 1$, ushbu tadqiqotda KFL = 0.174 qiymati olingan. Clayton-Engquist yutuvchi chegaraviy shart (ABC) soxta aks etishlarni samarali bartaraf etadi. Boshlang‘ich shart sifatida $x_0 = 0.1L$ nuqtasida Gauss impulsi ($A_0 = 10^{-6}$ m) qabul qilingan. Etalon material sifatida suv bilan to‘yingan Berea qumtoshi tanlandi: G=6 GPa, Ks=36 GPa, n = 0.20, $k = 10^{-13}$ m², $\mu f = 10^{-3}$Pa·s.

Chekli ayirmalar usuli yordamida olingan natijalar Biot analitik yechimlari bilan taqqoslanadi. 1-jadvalda keltirilgan natijalar ko‘rsatadiki, barcha uch to‘lqin rejimi uchun maksimal nisbiy xato 5% dan past darajada qayd etiladi.

1-jadval. Chekli ayirmalar usuli va analitik yechimlar taqqoslanishi

To‘lqin turi	Analitik [m/s]	Chekli ayirmalar usuli [m/s]	Xato [%]	Tavsif
P1 — tez bo‘ylama	3,481	3,409	2.07	Bir yo‘nalishli harakat
P2 — sekin bo‘ylama	512	498	2.73	Qarama-qarshi yo‘nalish
S — ko‘ndalang	2,107	2,074	1.57	Qattiq skelet orqali

(i) G‘ovaklik ta‘siri: n ning 0.05 dan 0.40 gacha oshishi P1 tezligini 17.7% kamaytiradi. Empirik munosabat aniqlandi: $V_1 \approx 3912 - 1923n$ ($R^2 = 0.987$). Bu munosabat g‘ovaklikni P1 tezligi o ‘lchovlari asosida teskari masala sifatida aniqlash imkonini beradi. P2 tezligi esa 218 dan 784 m/s gacha ortadi.

(ii) O‘tkazuvchanlik ta ‘siri: P1 tezligi o ‘tkazuvchanlikka amalda sezgir emas (<0.12%), P2 tezligi esa 201 dan 934 m/s gacha ortadi ($V_2 \propto k^{0.23}$). Mazkur differentsial sezgirlik P2 to ‘lqini o ‘lchovlari orqali g ‘ovak muhit o ‘tkazuvchanligini masofadan aniqlash imkonini beradi.

(iii) Qovushqoqlik ta’siri: P2 so‘nish koeffitsienti μf ga to‘g‘ridan-to‘g‘ri proporsional ortadi ($\alpha P2 \propto \mu f$), P1 ga ta’siri esa minimal (<0.09%). Suv va neft uchun αP2 qiymatlarining 5.9 marta farq qilishi suyuqlik turini masofadan farqlash imkonini beradi.

(iv) Chastota ta’siri: Past chastotalarda ($f < fc$) P2 diffuziya rejimida tarqaladi, yuqori chastotalarda ($f > fc$) haqiqiy tarqaladigan to‘lqinga aylanadi. Setka konvergentsiya tahlili $O(\Delta x^2)$ fazoviy aniqlikni tasdiqladi.

1-rasm. G'ovaklikning to'lqin tezliklari va so'nish koeffitsientiga ta'siri



1-rasm. G‘ovaklikning ta’siri: (a) P1, P2, S to‘lqin tezligi va chiziqli approksimatsiya; (b) P1 so‘nish koeffitsienti.

XULOSA

Ushbu tadqiqotda quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

1. Ishlab chiqilgan Chekli ayirmalar usuli sxemasi barcha uch to‘lqin turini to’liq ifodalaydi. Shu sababli Barcha to‘lqinlar hisobi uchun hisoblash xatolilari 5% dan past. U P1 uchun 2.07%, P2 uchun 2.73%, S uchun 1.57% ni tashkil etadi.

2. G‘ovaklikni oshirishishi P1 to’lqin tezligini kamaytiradi: $V_1 \approx 3912 - 1923n$ ($R^2 = 0.987$). Mazkur empirik munosabat teskari masalani yechish imkonini beradi.

3. P1 to’lqin tezligi amalda o‘tkazuvchanlikka sezgir emas (<0.12%), P2 tezligi esa kuchli sezgir ($V_2 \propto k^{0.23}$). Bu differentsial sezgirlik o‘tkazuvchanlikni masofadan aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

4. P2 so‘nishi μf ga proporsional ($\alpha P2 \propto \mu f$). Suv va neft αP2 qiymatlarining 5.9 marta farqi suyuqlik turini seysmik usul bilan farqlash imkonini beradi.

5. Olingan natijalar neft-gaz konlarini seysmik tavsiflanishi, aquifer o‘tkazuvchanligini masofadan aniqlash va zilzilaga chidamlilik muhandisligida bevosita tatbiq etilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Biot, M. A. (1956). Theory of propagation of elastic waves in a fluid-saturated porous solid. I. Low frequency range. *Journal of the Acoustical Society of America, 28*(2), 168–178.

2. Biot, M. A. (1956). Theory of propagation of elastic waves in a fluid-saturated porous solid. II. Higher frequency range. *Journal of the Acoustical Society of America, 28*(2), 179–191.

3. Hassanzadeh, S. (1991). Acoustic modeling in fluid-saturated porous media. *Geophysics, 56*(4), 424–435.

4. Zhu, X., & McMechan, G. A. (1991). Numerical simulation of seismic responses of poroelastic reservoirs using Biot theory. *Geophysics*, *56*(3), 328–339.

5. Garg, S. K., Nayfeh, A. H., & Good, A. J. (1974). Compressional waves in fluid-saturated elastic porous media. *Journal of Applied Physics, 45*(5), 1968–1974.

6. Clayton, R., & Engquist, B. (1977). Absorbing boundary conditions for acoustic and elastic wave equations. *Bulletin of the Seismological Society of America, 67*(6), 1529–1540.

7. Corapcioglu, M. Y., & Tuncay, K. (1996). Propagation of waves in porous media. *Advances in Porous Media, 3*, 361–440.

8. Xolmurodov, A., Matanov, M., & Quzratov, M. (2024). Propagation of harmonic plane waves in an elastic half-space: Field equations. *AIP Conference Proceedings, 3244*(1), 020019.

9. Xolmurodov, A. E., & Matanov, M. C. (2024). Reflection of SV waves in the elastic half-space: Field equations for angles of incidence less than the critical one. *Modern Problems and Prospects of Applied Mathematics, 1*(01).

10. Matanov, M. (2025). Development of synthetic accelerograms and baseline correction methods for deterministic modeling of seismic wave propagation. *Digital Transformation and Artificial Intelligence, 3*(2), 100–108.

11. Matanov, M. M. (2025). Stability and accuracy of the hybrid method for dynamic half-space models under sinusoidal impulsive surface loads. *Международный научный журнал, 2*(1), 15–20.

12. Muhammad, M. (2025). Integral equations and harmonic fundamental solutions for wave equations in poroelastic media. *Issue 1 of 2025 (149/2)*, *1*(167).

13. Kholmurodov, A. (2025). A comprehensive theoretical framework for surface wave propagation in layered liquid–porous systems with incompressible saturated constituents. *International Journal of Applied Mathematics, 38*(12s), 2388–2402.

ПРИМЕНЕНИЕ ГЕОИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИИ ПРИ РЕКОНСТРУКЦИИ СИСТЕМ ВОДОСНАБЖЕНИЯ

Алиев Махмуд Куватович[1] - доцент, к.т.н.,

Еркебаев Жанибек Турабекович[1] - соискатель PhD

[1]Навоийский государственный горно-технологический университет, город Навои, Узбекистан

[2]Самаркандский государственный университет архитектуры и строительства, Узбекистан

Аннотация. *В статье рассматривается обеспечение питьевой водой г. Каттакургана, причины увеличения объема потребления воды на душу населения и путы их решения. Изучается использования геоинформационных технологии при топографических возможностях местности для эффективного распределения питьевой воды и неучтенные расходы при водоснабжении население.*

Abstract. *The article examines the provision of drinking water to the city of Kattakurgan, the reasons for the increase in per capita water consumption, and ways to address them. It studies the use of geoinformation technologies considering the topographical features of the area for efficient distribution of drinking water, as well as unaccounted losses in supplying water to the population.*

Ключевые слова: *водоснабжение; водопотребление; усовершенствования оборудования; неучтенные расходы.*

Keywords: water supply: *water consumption; equipment improvement; unaccounted losses.*

ВВЕДЕНИЕ

Объем потребления воды на душу населения в городе достиг весьма высокого уровня. Существует множество причин этому, но среди самых важных из них является структура тарифов на услуги в сфере водоснабжения. Большинство сооружений водоснабжения города республике были построены

до 1980 г. и уже давно не инвестировалось достаточное количество средств для их содержания и замены. Изношенные сооружения и оборудования становятся причиной их частого выхода из строя, а также приводят к появлению неучтенной воды в системе водоснабжения города. Для того чтобы создать эффективную распределительную систему, необходимо изучить выгодность полного использования топографических возможностей местности. Предлагаемый путы по улучшению водораспределительной системы включает в себя замену изношенных трубопроводов, улучшение пропускной способности труб для обеспечения надлежащего давления воды, совершенствование бустерных насосных станции, а также внедрение системы контроля давления и потока.

Методика исследований основано на: аналитическом методе (анализ изучение появлению неучтенной воды в системе водоснабжения города); гидравлическом методе (изучение изучить выгодность полного использования топографических возможностей местности);

Методология. В процессе научно-исследовательских, экспериментальных, полевых методов мониторинга и технологий географическая информационная система (ГИС) и воды подземных вод Каттакурганского района, и исследования процессов их изменения с использованием методов математического моделирования.

Результаты. К централизованной системе канализации подключены не более 61% от общей численности населения города. Остальные используют выгребные ямы, уличные туалеты и септики.

Несмотря на значительные доступные запасы воды высокого качества в городе, качество услуг водоснабжения и водоотведения остается на довольно низком уровне.

К основным недостаткам системы водоснабжения относятся следующие: подача воды для потребителей по графику с общей

продолжительностью не более 8 часов в сутки, а на отдельных участках не более 2 часов; высокий уровень неучтенных расходов воды (до 50-60%); аварийное состояние скважин, насосных станций, электрического оборудования, водопроводных сетей; высокий уровень риска микробиологического загрязнения потребляемой воды, связанный с недостаточной эффективностью систем обеззараживания и контроля остаточного хлора, а также с нестабильным давлением воды (из-за графика подачи), которое при наличии протечек в корродированных трубах вызывает подсос грунтовых загрязнённых вод при остановках насосов; низкая надежность энергоснабжения, ведущая к поломкам электрического оборудования, нарушению нормальной работы сооружений и осложняющая внедрение систем автоматизации и дистанционного контроля; отсутствие системы регулярного мониторинга качества питьевой воды; отсутствие или нехватка специальной техники и оборудования, необходимых обслуживания и ремонта сооружений; высокий уровень аварийности ввиду износа трубопроводов, механического и электрического оборудования и недостаточного объема работ по реконструкции и обновлению сооружений.

Вышеперечисленные проблемы существенным образом сдерживают развитие города и требуют значительных инвестиций в системы водоснабжения и водоотведения.

В рамках технико-экономического обоснования была предложена приоритетная инвестиционная программа, которая включает в себя проекты, направленные на модернизацию технологически сложных объектов инфраструктуры водоснабжения, а именно: разработка гидравлической моделей и ГИС системы водоснабжения;

Источники водоснабжения. Основным источником водоснабжения г. Каттакурган являются подземные воды Дамходжинского месторождения подземных вод. Месторождение было разведано в 60-е годы прошлого

столетия. Данное месторождение приурочено к аллювиально-пролювиальным многослойным отложениям долины реки Зеравшан и распространено по всей долине реки Зеравшан. Водоносные отложения месторождения простираются полосой шириной 6 км и протяженностью порядка 40 км вдоль долины реки на глубине от 10 до 100 м, Месторождение отличается высокой водоотдачей, удельный дебит скважин составляет порядка 50 литров в секунду. Утвержденные запасы месторождения оцениваются в 450 тыс. м3 в сутки. Месторождение используется так же для водоснабжения городов. Бухара и Навои, линейный ряд скважин водозабора данных городов расположен вдоль реки южнее водозабора города Каттакурган.

Источником питания подземных вод Дамходжинского месторождения на участке водозабора является подземный сток с прилегающих с юга склонов Зеравшанского хребта и инфильтрационный приток из русла реки Зеравшан и многочисленных оросительных каналов и полей орошения.

Водоснабжение г. Каттакурган обеспечивается двумя главными подземными водозаборами. Оба водозабора эксплуатируют Дамходжинское месторождение и расположены на северо-востоке от города, на левом берегу реки Карадарья. Кроме данных групповых водозаборов эксплуатирует отдельные одиночные скважины, расположенные на территории города.

Предварительные гидравлические технико-экономические расчеты обоснование показывают, что возможна организация прямой подачи воды от скважин водозабора Муртак в резервуары Курпа без использования насосной станции. Разница высот между уровнем существующей насосной станции Муртак и резервуарами Курпа составляет всего 10 м (повышение от 475 до 485 м). Высотные отметки территории водозабора Муртак составляют 475-485 метров. Динамический уровень воды в скважинах изменяется от 10 до 20 м. Общая геодезическая высота подъема составляет не более 30 м. В настоящее

время основной причиной для использования насосной станции второго подъема являются принятые проектом параметры водовода.

Для дальнейшего водоснабжения города Каттакурган возможно использование водозабора Муртак в качестве основного источника, увеличив его производительность при условии подтверждения достаточности общих запасов и допустимого суточного забора воды.

Разработка геоинформационных технологии и гидравлическое моделирование. В настоящее время по г. Каттакургана не имеет единой карты сетей водопровода и канализации, полностью отображающей расположение всех линейных и площадных объектов. Имеется только общая упрощенная схема сетей, которая не имеет геодезической привязки к местности и отражает не более 40% сетей водопровода, преимущественно магистральных и уличных.

Не имеется ни электронной, ни гидравлической модели сети водопровода и канализации, общая протяженность водопровода составляет порядка 350 км. Услугами водоснабжения обеспечивается порядка 73% населения, в том числе проживает в домах с водопроводным вводом порядка 63% из 88 тыс. проживающего населения.

Разработана цифровые гидравлические модели, одну для водоснабжения Каттакургана, на основе существующей карты города, включенной в технико-экономическое обоснование проекта. Гидравлическая модель будет использоваться для: анализа режимов работы систем и работы систем водоснабжения и сбора стоков; моделирование в расширенном масштабе времени и варианты моделирования для будущего развития и прогнозирования производительности систем водоснабжения и канализации; рекомендации по разработке системы управления давлением и созданию районных зон измерения.

Проведено все необходимые исследования в соответствии с требованиями законодательства Узбекистана. Проектирование разработано в

соответствии с нормативной документацией республики Узбекистан: KMK 2.04.02-2019 – Водоснабжение. Внешние сети и сооружения. KMK 3.06.08-2019 – Магистральные трубопроводы. KMK 2.03.05-2019 – Инженерные сооружения.

Разработанный локально адаптированных систем автоматизации, дистанционного управления, диспетчеризации и SCADA, таблица 1.

Разработка геоинформационных технологии и гидравлическое моделирование	
Номер	**Наименование**
1	Реконструкция водозабора Муртак Строительство новых и реконструкция существующих скважин водозабора (14 скважин). Строительство водовода от водозабора Муртак до резервуаров Курпа. - Разработка технического задания, спецификаций и концептуального проекта для разработки детального проекта и реконструкции водозаборного сооружения.
	Реконструкция водозабора Курпа Строительство 4 скважин. Расширение электролизного цеха производства гипохлорита. Реконструкция существующих резервуаров - Разработка технического задания, спецификаций и концептуального проекта для разработки детального проекта и реконструкции водозаборного сооружения.
2	Строительство водопроводных очистных сооружений г. Каттакурган производительностью 20 тыс м3/сут. Поставка и монтаж оборудования, общестроительные работы, строительство внутренних и наружных инженерных коммуникаций, строительство технологических трубопроводов, полная автоматизация технологических процессов, благоустройство территории водопроводных очистных сооружений, а также строительство внешних сетей электроснабжения (кабельные линии, трансформаторная подстанция) и строительство подъездной автодороги от г. Каттакургана до площадки водопроводных очистных сооружений - Разработка технического задания,

	спецификаций и концептуального проекта для разработки детального проекта и строительства водопроводных очистных сооружений
3	Реконструкция уличных водопроводных сетей и водоводов Реконструкции наиболее аварийных участков магистральных водоводов и уличных сетей г.Каттакурган диметром 100-500 мм. Общая протяженность сетей – 19 км.
4	Строительство новых уличных сетей водопровода Строительство 45 км распределительных сетей водопровода Ду50-450 мм**.**
5	Строительство водопроводных сетей и коллекторов. Строительство уличных и магистральных, водопроводов, а также сетей для подключения 65 многоэтажных домов. Общая протяженность новых сетей составит 48,9 км.
6	Реконструкция системы водоснабжения пос. Ингичка Строительство промежуточной насосной станции на водоводе Сепки-Ингичка. Строительство ВЛ ЭП 0,4 кВ от пос. Ингичка до проектируемой НС – 4,5 км. Реконструкция УРВ «Сепки». Реконструкция УРВ Ингичка.
7	Монтаж регулирующей арматуры на магистральных и уличных сетях Закупка новых задвижек, регуляторов давления, пожарных гидрантов и установку их на распределительных сетях водопровода. Всего предполагается закупка и монтаж порядка 30 регуляторов давления диаметром 100 -300 мм и 120 задвижек диаметром от 150 до 500 мм. Точное количество и места расположения регуляторов давления будут определены после создания ГИС и выполнения гидравлического моделирования**.**
8	Программа организации инструментального учета. Установка водомеров на основных водоводах, обеспечивающих подачу воды в систему водоснабжения г. Каттакургана и на водоводах, подающих воду в отдельные районы (зоны) города, а также установка

	водомеров на вводах во все многоквартирные и индивидуальные дома. Общее количество водомерных узлов, предполагаемых к монтажу в рамках проекта, составляет порядка 12 180 шт.

ВЫВОДЫ

Для достижения стабильного снабжения безопасной водой, в статье были предложены следующие цели: текущий коэффициент неучтенной воды составляет 48%. Для снижения данного показателя до 29% к 2026г. необходимо реализовать программу по снижению неучтенной воды, программу по усовершенствованию устаревших сооружений, а также программу по улучшению распределения воды. Программа по снижению неучтенной воды в основном состоит из замен трубопроводов и установки водомеров, а также из укрепления менеджмента для борьбы с неучтенной водой. Реализация программы по усовершенствованию устаревших сооружений будет основываться на анализе потребности в воде. Ожидается, что потребность в воде снизится, как только начнется реализация этих программ. Программу по улучшению распределения воды будет заключать в себя улучшение трубопроводов, внедрение функций снижения давления, а также улучшение работы насосных станций, которые будут использоваться в самотечном распределении воды [7,8].

ЛИТЕРАТУРА

1. Закон Республики Узбекистан «О воде и водопользовании», от 25.12.2009 г., № 240. Статья 4.

2. СанПиН РУз №0056-96 «Очик сув хавзаларини ифлосланишдаги мухофаза килишнинг санитар коидалари ва меъёрлари».

3. СНиП 2.04.02-2019 «Водоснабжение. Наружные сети и сооружения».

4. СанПиН РУз № 950:2011 Государственный стандарт Республики Узбекистан «Вода питьевая». - Ташкент, 2011.- с 19.

5. СанПиН РУз № 951:2011 Государственный стандарт Республики Узбекистан «Источники централизованного хозяйственно-питьевого водоснабжения»”.-Ташкент, 2011.- с 14.

6. Требования к содержанию резервуаров питьевой воды. Режим доступа: http://ww.lektsii.com/2-122053.html

7. Михайлова К.А. и Образовского А.С. Водозаборные сооружения для водоснабжения из поверхностных источников / Под ред.– М.: Стройиздат, 1976. – 368 с.

YOQILG‘I QUYISH STANSIYALARINING TEXNOLOGIK TIZIMI VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI ASOSIDA ULARNING XAVFSIZLIGINI BAHOLASH BO‘YICHA MAHALLIY VA XORIJIY ILMIY YONDASHUVLAR TAHLILI

Sh.G. Musaev[48]**,**

musa.shakhriddi@gamil.com

Tashkent State Transport University, Tashkent, Uzbekistan

N.D.Shavkatov

nodirjonshavkatov16@gmail.com

Master’s Student, Institute of Civil Protection, Ministry of Emergency Situations

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yoqilg‘i quyish stansiyalarining texnologik tizimi, funksional xususiyatlari hamda ularning xavfsizligini baholashga oid mahalliy va xorijiy ilmiy yondashuvlar tahlil qilingan. Tadqiqotda AYOQShlarning konstruktiv bajarilishi, rezervuarlarning joylashuvi, yoqilg‘i tarqatish kolonkalari soni, sutkalik xizmat ko‘rsatish quvvati, yoqilg‘ini qabul qilish, saqlash va tarqatish jarayonlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, stansiya tarkibidagi texnologik quvurlar, operator binosi, elektr ta’minoti, ventilyatsiya, yong‘in signalizatsiyasi, videokuzatuv va ekologik himoya tizimlarining xavfsizlikka ta’siri baholangan. Maqolada mavjud ilmiy ishlar ekologik, yong‘in, portlash, sanoat va texnologik xavfsizlik yo‘nalishlari bo‘yicha solishtirilgan. Tahlil natijalari yoqilg‘i quyish stansiyalari xavfsizligini alohida omillar asosida emas, balki texnologik va funksional elementlarni o‘zaro bog‘liq holda kompleks baholash zarurligini ko‘rsatadi.*

Аннотация: *В данной статье проанализированы технологическая система, функциональные особенности автозаправочных станций, а также отечественные и зарубежные научные подходы к оценке их безопасности. В исследовании рассмотрены конструктивное исполнение АЗС, расположение резервуаров, количество*

[48] https://orcid.org/0009-0004-5339-2180

топливораздаточных колонок, суточная пропускная способность, а также процессы приема, хранения и выдачи топлива. Кроме того, оценено влияние технологических трубопроводов, операторного здания, систем электроснабжения, вентиляции, пожарной сигнализации, видеонаблюдения и экологической защиты на общий уровень безопасности станции. В статье сопоставлены существующие научные работы по направлениям экологической, пожарной, взрывной, промышленной и технологической безопасности. Результаты анализа показывают, что безопасность автозаправочных станций необходимо оценивать не только по отдельным факторам, но и комплексно, с учетом взаимосвязи технологических и функциональных элементов.

Abstract: *This article analyzes the technological system and functional features of fuel filling stations, as well as local and foreign scientific approaches to assessing their safety. The study examines the structural design of filling stations, the location of fuel storage tanks, the number of fuel dispensers, daily service capacity, and the processes of fuel receiving, storage, and distribution. In addition, the influence of technological pipelines, the operator building, power supply, ventilation, fire alarm, video surveillance, and environmental protection systems on the overall safety level of the station is evaluated. The article compares existing scientific studies in the fields of environmental, fire, explosion, industrial, and technological safety. The results show that the safety of fuel filling stations should be assessed not only through individual risk factors, but also comprehensively, taking into account the interrelation of technological and functional elements.*

Kalit so‘zlar: *Yoqilg‘i quyish stansiyasi, texnologik tizim, funksional xususiyatlar, xavfsizlikni baholash, yong‘in xavfsizligi, ekologik xavfsizlik, sanoat xavfsizligi, xavf omillari.*

Ключевые слово: *Автозаправочная станция, технологическая система, функциональные особенности, оценка безопасности, пожарная безопасность, экологическая безопасность, промышленная безопасность, факторы риска.*

Keywords: *Fuel filling station, technological system, functional features, safety assessment, fire safety, environmental safety, industrial safety, risk factors.*

KIRISH

Yoqilg‘i quyish stansiyalari va majmualari mamlakatda neft mahsulotlari bilan ta’minlash tizimining muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Ular nafaqat avtotransport vositalarini yoqilg‘i bilan ta’minlash uchun mo‘ljallangan, balki qo‘shimcha ravishda quyidagi funksiyalarni ham bajaradi: moylash materiallari, maxsus

suyuqliklar, ehtiyot qismlar va avtomobillar uchun turli ehtiyor qismlarini almashtirish; avtotransport egalari tomonidan topshiriladigan ishlatilgan moylarni qabul qilish; avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish va yuvish ishlarini amalga oshirish[2]. Zamonaviy avtoyoqilg‘i quyish stansiyalari yoqilg‘ini qabul qilish, saqlash va avtotransport vositalariga quyish texnologik jarayonlarini ta’minlovchi avtomatlashtirilgan tizimlar majmuasi bilan jihozlangan murakkab muhandislik inshootlari hisoblanadi. Yoqilg‘i quyish stansiyalari yong‘in va ekologik xavf darajasi yuqori bo‘lgan obyektlar toifasiga kiradi. Shu sababli yoqilg‘i quyish stansiyalarini ekspluatatsiya qilish sifati nafaqat transport majmuasining samaradorligiga, balki xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar mehnat xavfsizligiga hamda atrof-muhit muhofazasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Avtomobil yoqilg‘i quyish stansiyalari (YQS) turli belgilariga ko‘ra klassifikatsiya qilinadi[2].

Konstruktiv bajarilishiga ko‘ra:

— statsionar;

— konteyner tipidagi (KYQS);

— ko‘chma (mobil) YQS (MYQS).

Funksional maqsadiga ko‘ra:

— umumiy foydalanishdagi;

— idoraviy (korxona va tashkilotlarga tegishli).

Rezervuarlarning joylashish usuliga ko‘ra:

— yer osti joylashuvli;

— yer usti joylashuvli;

— transport vositasida joylashtirilgan.

Tipaviy loyihalarning me’yoriy parametrlariga ko‘ra:

— yoqilg‘i tarqatish kolonkalarining soni bo‘yicha;

— eng yuqori yuklama (pik soat) davridagi quyishlar soni bo‘yicha;

— sutka davomida xizmat ko‘rsatiladigan avtomobillar soni bo‘yicha;

— rezervuarlarning umumiy sig‘imi bo‘yicha.

Statsionar YQSlar sutkasiga 1500 tagacha avtomobilga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega. Ularning o‘tkazuvchanlik qobiliyati odatda 200, 250, 500, 750 va 1000 ta quyish/sutka ko‘rsatkichlari asosida hisoblanadi. Pik soatlardagi xizmat ko‘rsatish quvvati esa mos ravishda 57, 100, 135 va 170 ta avtomobil/soatni tashkil etadi (1-jadval).

1-jadval

AYOQSH namunaviy loyihalarining me’yoriy parametrlari

AYOQSH turlari	AYOQSH quvvati, mashina/soat	Rezervuarlar soni 25 m³, dona.	Yonilg‘i quyish vaqti Tr, min.	TRK soni, dona	O‘rtacha bir martalik quyish, l.	AYOQSH maydoni, ga
Birinchi	240	12	2.5	12	50	0.4
Ikkinchi	160	8	2.5	8	50	0.35
Uchinchi	80	4	1.75	4	50	0.2
To‘rtinchi	120	6	2.5	6	50	0.3

AYOQShlar 250 ta yoqilg‘i quyish quvvatiga ega bo‘lgan holda yirik shaharlarning zich aholi yashaydigan hududlarida hamda qishloq joylarda quriladi; sutkasiga 1000–1500 ta yoqilg‘i quyish quvvatiga ega stansiyalar esa avtomobil magistrallarida intensiv harakat mavjud bo‘lgan punktlarda joylashtiriladi.

Hududda joylashuv turiga ko‘ra yoqilg‘i quyish stansiyalari quyidagilarga bo‘linadi:

— yo‘lbo‘yi;

— shahar;

— qishloq;

— daryo (suv) stansiyalari.

Yo‘lbo‘yi AYOQShlar avtomobil yo‘llari yaqinida joylashtiriladi. Ular avtomobillarni yoqilg‘i, siqilgan havo va suv bilan ta’minlashi lozim. Yo‘lbo‘yi stansiyalarning quvvati yo‘ldagi transport oqimining intensivligiga bog‘liq bo‘lib, sutkasiga 1000–1500 ta yoqilg‘i quyishgacha yetishi mumkin.

Shahar AYOQShlari shahar hududlarida, markaziy (turar-joy) qismdan tashqarida joylashtiriladi va barcha turdagi avtomobillar hamda mototransport vositalariga xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan. Shahar stansiyalarining quvvati sutkasiga 250–1000 ta yoqilg‘i quyishni tashkil etadi, “trotuar tipidagi” stansiyalar esa shahar markaziy hududlarida yengil avtomobillar uchun sutkasiga 150–250 ta yoqilg‘i quyishga mo‘ljallanadi.

Qishloq AYOQShlari qishloq xo‘jaligi korxonalari va tuman markazlaridagi tashkilotlarning avtotransport vositalarini barcha turdagi yoqilg‘i-moylash materiallari bilan ta’minlaydi.

Daryo (suv) AYOQShlari kichik o‘lchamli suv transport vositalarini — katerlar, motorli qayiq va boshqa vositalarni yoqilg‘i bilan ta’minlaydi.

Statsionar AYOQShlar yoqilg‘ini qabul qilish, saqlash va quyish uchun mo‘ljallangan seriyali ishlab chiqariladigan texnologik tizimlarga ega tipik loyihalar asosida quriladi hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligining Davlat yong‘in xavfsizligi xizmati bilan kelishiladi. Nostandart (seriyadan tashqari) texnologik tizimlardan foydalanishga ham ruxsat etiladi, bunda ularning hujjatlari yong‘in xavfsizligi xizmatining hududiy bo‘linmalari bilan kelishilgan bo‘lishi shart.

Statsionar Avtomobil yoqilg‘i quyish stansiyalari

Statsionar AYOQShlar kapital inshootlar bo‘lib, ular tarkibiga binolar, yoqilg‘i quyish kolonkalari, rezervuarlar, texnologik quvurlar, tozalash inshootlari hamda texnologik jarayonni ta’minlovchi turli tizimlar kiradi. AYOQSh inshootlarining varianti 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. AYOQSh inshootlari tarkibi:

a) 1 – soyabon (naves) guruhi; 2 – ishlab chiqarish binosi bloki; 3 – servis (xizmat ko‘rsatish) binosi bloki;

b) 1 – soyabon (naves) guruhi; 2 – to‘liq zavod tayyorligidagi bino moduli.

Soyabon (naves) guruhi axborot kolonkalari yoritgichlari, kolonnada va soyabon qismida joylashgan qoplama (oblisovka) kompleksi, “Buyurtmachi”ning korporativ ranglarida bajarilgan yorug‘lik frizi, “Buyurtmachi”ning hajmli yorug‘lik belgisi, umumiy yoritish chiroqlari hamda bino va soyabon guruhi orasidagi o‘tish gumbazini o‘z ichiga oladi.

Yoqilg‘i quyish yo‘llari jilvirlangan yoki sayqallangan zanglamaydigan po‘latdan tayyorlanadi va ular yoqilg‘i tarqatish kolonkalari (TRK) uchun asos, kolonna tayanchlari, stendlar hamda servis postlari sifatida qo‘llaniladi. Ularning asosiy vazifasi — avtotransport vositalari ta’siridan (zarbasidan) himoya qilishdir.

AYOQSh binosi zavodda tayyorlangan yagona moduldan yoki ishlab chiqarish va servis bloklaridan iborat bo‘ladi. Ishlab chiqarish bloki markaziy kirish, operator ish zonasi, elektr shit xonasi (elektr taqsimlash xonasi), omborxona, xizmat chiqish eshigi, chilangar xonasi, administrator xonasi, xizmat sanitariya xonasi, tashrif buyuruvchilar uchun sanitariya xonasi hamda qo‘riqlash xonasini o‘z ichiga oladi. Servis bloki xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan[2].

AYOQSh binosi havo konditsiyalash tizimlari, videokuzatuv tizimi, isitish, yoritish va ventilyatsiya tizimlari, elektr energiyasi va suv sarfini hisobga olish tizimlari, kanalizatsiya, qo‘riqlash-yong‘in signalizatsiyasi, ovozli aloqa tizimi, yoqilg‘i tarqatish kolonkalari (TRK) himoya bloklari va boshqa tizimlar bilan jihozlanadi.

Statsionar AYOQShning texnologik ishlash jarayoni neft mahsulotlarini qabul qilish, saqlash va berish bo‘yicha operatsiyalar majmuasini o‘z ichiga oladi. AYOQSh ish samaradorligini oshirish maqsadida texnologik jarayon yoqilg‘i miqdorini aniqlash, rezervuarlar germetikligini nazorat qilish, yoqilg‘i yo‘qotilishini kamaytirish hamda uning sifatini saqlashga qaratilgan avtomatlashtirilgan tizimlar bilan ta’minlanishi mumkin.

AYOQShda saqlanadigan yoqilg‘i miqdori bir avtomobilni o‘rtacha yoqilg‘i bilan to‘ldirish hajmi (50 litr)dan kelib chiqib aniqlanadi, yoqilg‘i tarqatish kolonkalari (TRK) soni esa soatiga 15 ta avtomobilga xizmat ko‘rsatish hisobidan belgilanadi[2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda yoqilg‘i quyish stansiyalarining texnologik tizimi va funksional xususiyatlarini o‘rganishda tizimli tahlil, adabiyotlar tahlili, taqqoslash, umumlashtirish va riskka yo‘naltirilgan baholash metodlaridan foydalanildi. Tizimli tahlil orqali AYOQShning rezervuarlar, yoqilg‘i tarqatish kolonkalari, texnologik quvurlar, operator binosi, elektr ta’minoti, ventilyatsiya va yong‘in signalizatsiyasi kabi tarkibiy qismlari o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqildi. Adabiyotlar tahlili asosida mahalliy va xorijiy ilmiy yondashuvlar solishtirildi. Taqqoslash va umumlashtirish metodlari yordamida mavjud tadqiqotlarning afzalliklari hamda cheklangan jihatlari aniqlandi. Riskka yo‘naltirilgan yondashuv orqali xavf omillari baholandi.

NATIJALAR

Yoqilg‘i quyish stansiyalarining xavfsizligini baholash masalalari turli ilmiy yo‘nalishlarda keng o‘rganilgan bo‘lib, ular asosan ekologik, yong‘in va sanoat xavfsizligi nuqtai nazaridan tadqiq etilgan. Jumladan, Garmonov K.V. tomonidan olib borilgan tadqiqotda shahar AYOQShlarining atrof-muhitga ta’sirini baholash metodikasini ishlab chiqish asosiy maqsad qilib olingan bo‘lib, unda AYOQShlardan ajralib chiqadigan zararli moddalar tarqalishiga shamol oqimlari va shahar qurilishi omillarining ta’siri hisobga olingan. Mazkur ish natijasida ekologik xavfsizlikni baholashning metodik asoslari ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, unda xavfsizlikning boshqa yo‘nalishlari kompleks tarzda qamrab olinmagan[7]. Popova Ya.A. o‘z tadqiqotida neft va neft mahsulotlarini avtomobil yo‘llari orqali tashish jarayonida yong‘in xavfsizligini oshirish uchun risklarni baholash usullarini ishlab chiqishga e’tibor qaratgan. Ushbu ishda xavfli yuklarning fizik-kimyoviy xossalari asosida yong‘in va portlash xavfini baholash yondashuvlari taklif etilgan bo‘lib, transport jarayonlaridagi xavflarni kamaytirish imkonini beruvchi metodlar ishlab chiqilgan. Biroq mazkur tadqiqot asosan tashish jarayoniga yo‘naltirilgan bo‘lib, AYOQShning o‘zida yuzaga keluvchi xavf omillarini to‘liq qamrab olmaydi[8].

Gaz yoqilg‘isida ishlovchi obyektlarda xavfsizlikni ta’minlash masalalari Prostov E.E. tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, uning ishida gaz-havo muhitini nazorat qilish orqali yong‘in xavfsizligini oshirish maqsad qilib qo‘yilgan. Tadqiqotda gaz analizatorlari yordamida portlashdan oldingi konsentratsiyalarni aniqlash va nazorat qilish metodikasi ishlab chiqilgan hamda gaz yoqilg‘isi bilan ishlovchi obyektlar uchun amaliy tavsiyalar berilgan. Shu bilan birga, ushbu ish faqat gaz yoqilg‘isiga ixtisoslashgan bo‘lib, suyuq yoqilg‘i bilan ishlovchi AYOQShlarga to‘liq tatbiq etilmaydi[15]. Avariya jarayonlarida yuzaga keluvchi zararlovchi omillarni baholash masalalari Shangaraev R.R. tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, unda olov sharining hosil bo‘lishi va uning issiqlik ta’siri asosiy tadqiqot obyekti sifatida ko‘rib chiqilgan. Mazkur ishda zararlovchi omillarning parametrlarini aniqlash metodikasi ishlab chiqilgan bo‘lib, bu favqulodda vaziyatlarda oqibatlarni prognoz qilish

imkonini beradi. Biroq tadqiqot umumiy sanoat obyektlariga yo‘naltirilgan bo‘lib, AYOQShga bevosita moslashtirilmagan[4]. Ko‘p mahsulotli yoqilg‘i quyish stansiyalarining xavfsizligini baholash masalalari Axmerov V.V. tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, unda portlash xavfi va yoqilg‘i-havo aralashmasining hosil bo‘lish ehtimolini aniqlashga qaratilgan yondashuvlar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijasida AYOQShning xavfsiz ekspluatatsiyasini baholashga xizmat qiluvchi metodik asoslar taklif etilgan, biroq unda xavfsizlikni integrallashgan holda baholash tizimi yetarli darajada shakllantirilmagan[14]. Vanchuxin P.N. tomonidan olib borilgan tadqiqotda AYOQSh ekspluatatsiyasi va yoqilg‘i tashish jarayonlaridagi potensial xavflar tahlil qilingan bo‘lib, xavfli vaziyatlarning yuzaga kelish sharoitlari va ularning ta’sir doirasi aniqlangan. Ushbu ishda favqulodda vaziyatlar xavfini baholashga oid yondashuvlar ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, zamonaviy analitik usullar yetarli darajada qo‘llanilmagan[12]. Xavf zonalarini aniqlash va ularni fazoviy baholash masalalari Idrisov V.R. tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, unda GIS texnologiyalari va veyvlet-tahlil asosida xavf zonalarini aniqlash metodikasi taklif etilgan. Natijada xavfli hududlarni fazoviy tahlil qilish imkoniyati yaratilgan, biroq ushbu metodikalar amaliyotda qo‘llash uchun murakkab hisoblanadi[6]. AYOQShlarning ekologik xavfsizligini oshirish masalalari Sokolova E.V. tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, unda atmosfera ifloslanishiga ta’sir etuvchi omillar kompleks baholangan. Tadqiqot natijasida zararli moddalar chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan, biroq texnologik va sanoat xavfsizligi masalalari yetarli darajada yoritilmagan[13]. Neft-gaz obyektlarida xavfsizlikni ta’minlash uchun risklarni baholash nazariyasi va metodlari Kozlitin A.M. tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unda integrallashgan riskni baholash metodologiyasi va matematik modellar taklif etilgan. Mazkur yondashuvlar xavfli obyektlar uchun kompleks baholash imkonini bersa-da, ular AYOQShga bevosita moslashtirilmagan[9]. Yong‘in nazoratini tashkil etishda riskga yo‘naltirilgan yondashuv Shaxmanov F.F. tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib,

unda nazorat faoliyatini xavf darajasiga qarab tashkil etish modeli taklif etilgan. Ushbu yondashuv nazorat samaradorligini oshirishga xizmat qilsa-da, u asosan gaz stansiyalariga tatbiq etilgan[10]. Transport vositalarini yoqilg‘i bilan ta’minlash texnologiyasini takomillashtirish masalalari Varnakova E.A. tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, unda yoqilg‘i bug‘lanishidan kelib chiqadigan yo‘qotishlarni kamaytirish usullari ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijasida ekologik xavfsizlikni oshirishga xizmat qiluvchi texnologik yechimlar taklif etilgan, biroq xavfsizlikni kompleks baholash masalalari yetarli darajada qamrab olinmagan[11]. Umuman olganda, ko‘rib chiqilgan ilmiy ishlarda yoqilg‘i quyish stansiyalarining xavfsizligini baholash masalalari alohida yo‘nalishlar — ekologik, yong‘in, sanoat yoki texnologik jihatlar bo‘yicha o‘rganilgan bo‘lib, ularni yagona integrallashgan tizim sifatida baholash yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu sababli, yoqilg‘i quyish stansiyalarining xavfsizligini kompleks baholash usullarini takomillashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

MUHOKAMA

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, yoqilg‘i quyish stansiyalari murakkab texnologik tizim bo‘lib, ularning xavfsizligi rezervuarlar, yoqilg‘i tarqatish kolonkalari, texnologik quvurlar, operator binosi, elektr ta’minoti, ventilyatsiya va yong‘in signalizatsiyasi kabi elementlarning o‘zaro bog‘liq ishlashiga bog‘liq. Ko‘rib chiqilgan mahalliy va xorijiy ilmiy ishlarda AYOQSh xavfsizligi asosan ekologik, yong‘in, portlash yoki sanoat xavfsizligi yo‘nalishida alohida o‘rganilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarda texnologik, funksional va xavfsizlik omillarini yagona tizimda kompleks baholash yetarli darajada yoritilmagan. Shu sababli AYOQSh xavfsizligini integrallashgan yondashuv asosida baholash muhim hisoblanadi.

XULOSA

Yoqilg‘i quyish stansiyalari yoqilg‘ini qabul qilish, saqlash va transport vositalariga tarqatish jarayonlarini birlashtiruvchi murakkab muhandislik-texnologik obyekt hisoblanadi. Tadqiqot davomida AYOQShlarning konstruktiv

tuzilishi, funksional vazifalari, rezervuarlar joylashuvi, yoqilg‘i tarqatish kolonkalari soni, xizmat ko‘rsatish quvvati hamda xavfsizlikka ta’sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, stansiya xavfsizligi faqat yong‘in yoki portlash xavfi bilan cheklanmaydi, balki ekologik, texnologik, sanoat va tashkiliy xavfsizlik omillarini ham qamrab oladi. Mahalliy va xorijiy ilmiy ishlarda ushbu masalalar ko‘proq alohida yo‘nalishlarda o‘rganilgan bo‘lib, kompleks baholash yondashuvi yetarli darajada shakllanmagan. Shu sababli yoqilg‘i quyish stansiyalari xavfsizligini baholashda texnologik tizim, funksional elementlar va xavf omillarini yagona tizimda ko‘rib chiqish ilmiy-amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sharipov Q.A., Abduroxmonov Sh.X., To‘laganov V.Q. Yonilg‘i moylash materiallari va texnik suyuqliklar [Matn]: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TIQXMMI MTU, 2022. – 130 b.

2. Козырева С. В. Топливозаправочные комплексы [Текст]: курс лекций по одноимённой дисциплине / С. В. Козырева. – Гомель: ГГТУ им. П. О. Сухого, 2013. – 101 с.

3. Типовой проект 503-6-9.86. Автозаправочная станция общего пользования пропускной способностью 135 автомобилей в час. Альбом I [Текст]: пояснительная записка и чертежи / Гипронефтетранс. – М., 1966. – 58 с.

4. Шангараев Р.Р. Определение параметров поражающих факторов при авариях, сопровождающихся огневыми шарами [Текст]: автореф. дис. … канд. техн. наук. – Москва, 2024. – 24 с.

5. Magdiev Sh.P. Avtotransport tarmog‘i korxonalarini loyihalash [Matn]: ma’ruzalar matni / Sh.P. Magdiev. – Toshkent: Toshkent avtomobil yo‘llarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiyasi instituti, 2019. – 136 b.

6. Идрисов В.Р. Оценка зон потенциальной опасности опасных производственных объектов предприятий нефтепереработки с

использованием ГИС-технологий и вейвлет-анализа [Текст]: автореф. дис. … канд. техн. наук. – Уфа, 2006. – 26 с.

7. Гармонинов К.В. Методика оценки экологической безопасности городских автозаправочных станций [Текст]: автореф. дис. … канд. техн. наук. – Воронеж, 2019. – 24 с.

8. Попова Я.А. Методы оценки рисков для повышения пожарной безопасности при транспортировании нефти и нефтепродуктов по автомобильным дорогам [Текст]: автореф. дис. … канд. техн. наук. – Санкт-Петербург, 2025. – 24 с.

9. Козлитин А.М. Развитие теории и методов оценки рисков для обеспечения промышленной безопасности объектов нефтегазового комплекса [Текст]: автореф. дис. … д-ра техн. наук. – Уфа, 2006. – 44 с.

10. Шахманов Ф.Ф. Риск-ориентированный метод осуществления пожарного надзора автомобильных газозаправочных станций [Текст]: автореф. дис. … канд. техн. наук. – Санкт-Петербург, 2018. – 23 с.

11. Варнакова Е.А. Совершенствование технологии заправки автотранспортных средств [Текст]: автореф. дис. … канд. техн. наук. – Москва, 2016. – 18 с.

12. Ванчухин П.Н. Оценка потенциальной опасности при эксплуатации АЗС и транспортировке топлива в городских условиях [Текст]: автореф. дис. … канд. техн. наук. – Уфа, 2007. – 24 с.

13. Соколова Е.В. Повышение экологической безопасности городских автозаправочных станций [Текст]: автореф. дис. … канд. техн. наук. – Волгоград, 2013. – 20 с.

14. Ахмеров В.В. Оценка и обоснование безопасной эксплуатации автозаправочной станции с мультипродуктовыми топливораздаточными колонками [Текст]: автореф. дис. … канд. техн. наук. – Уфа, 2015. – 24 с.

15. Простов Е.Е. Обеспечение пожарной безопасности объектов обслуживания автомобилей на газомоторном топливе посредством контроля состава

газовоздушной среды [Текст]: автореф. дис. … канд. техн. наук. – Санкт-Петербург, 2024. – 23 с.

CHODAK RUDALI MAYDONIDA GIDROTERMAL O‘ZGARISHLAR VA ULARNING OLTIN BILAN BOG‘LIQLIGI

Norboyev Sardorbek Sharofidin o'g'li

***ORCID**: 0009-0006-6332-1241*

***Email:** kosherbaevbeksultan004@gmail.com*

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

magistranti

Ilimiy rahbar:Geologiya-mineralogiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Tangirov Abdimutal Isamitdinovich

Hamkor mualliflar:Kosherbaev Beksultan Sabirbay uli

Annotatsiya.*Mazkur maqolada Chodak rudali maydonida rivojlangan gidrotermal o‘zgarishlarning asosiy turlari, ularning mineralogik-geokimyoviy xususiyatlari hamda oltin rudalanishi bilan genetik bog‘liqligi tahlil qilingan. Tadqiqot davomida maydonda past sulfidli epitermal tizimga xos kvarts–kalsit–adulyariya tomirlari, kvarts-seritsitli alteratsiya, silisifikatsiya, karbonatlashuv va keyingi bosqichdagi skarnsimon metasomatik qayta ishlanish jarayonlari ajratib ko‘rsatildi. Flyuid-inkluzion ma’lumotlar asosida oltinli rudalanishning kam sho‘rli, past bosimli va qaynashga moyil gidrotermal eritmalar ta’sirida shakllangani, keyingi bosqichda esa yuqori haroratli flyuidlar ta’sirida dastlabki rudali tizim qisman qayta o‘zgargani asoslab berildi. Shuningdek, gidrotermal o‘zgarishlarning fazoviy zonalligi, ularning strukturaviy omillar bilan aloqasi hamda oltin qidiruv mezoni sifatidagi ahamiyati yoritildi. Tadqiqot natijalari Chodak rudali maydonining metallogenik xususiyatlarini aniqlashtirish, istiqbolli oltinli zonalarni ajratish va qidiruv-baholash ishlarining geologik mezonlarini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar:*Chodak rudali maydoni, gidrotermal o‘zgarishlar, oltin rudalanishi, epitermal tizim, past sulfidli konlar, alteratsiya, silisifikatsiya, seritsitlashuv, adulyariya, flyuid inkluziyalari, metasomatizm, skarnlashuv, kvarts-kalsit tomirlari, rudalanish genezisi, qidiruv mezonlari.*

Аннотация: *В данной статье проанализированы основные типы гидротермальных изменений, развитых в рудном поле Чодак, их минералого-геохимические особенности, а также генетическая связь с золоторудной минерализацией. В ходе исследования выделены характерные для низкосульфидной эпитермальной системы кварц-кальцит-адуляровые жилы, кварц-серицитовая альтерация, силификация, карбонатизация, а также процессы позднего скарноподобного метасоматического переработания. На основе данных по флюидным включениям обосновано, что золотоносная минерализация формировалась под воздействием низкосолёных, низконапорных и склонных к кипению гидротермальных растворов, тогда как на последующем этапе под влиянием высокотемпературных флюидов происходило частичное преобразование первоначальной рудной системы. Кроме того, в статье раскрыты пространственная зональность гидротермальных изменений, их связь со структурными факторами и значение в качестве поисковых критериев золотооруденения. Полученные результаты имеют важное научно-практическое значение для уточнения металлогенических особенностей рудного поля Чодак, выделения перспективных золотоносных зон и совершенствования геологических критериев поисково-оценочных работ.*

Ключевые слова:*рудное поле Чодак, гидротермальные изменения, золоторудная минерализация, эпитермальная система, низкосульфидное месторождение, альтерация, силификация, серицитизация, адулярия, флюидные включения, метасоматизм, скарнизация, кварц-кальцитовые жилы, генезис оруденения, поисковые критерии.*

Abstract: *This article analyzes the main types of hydrothermal alterations developed within the Chadak ore field, their mineralogical and geochemical features, and their genetic relationship with gold mineralization. The study identifies quartz-calcite-adularia veins, quartz-sericite alteration, silicification, carbonatization, and поздний skarn-like metasomatic overprinting as the principal features typical of a low-sulfidation epithermal system. Based on fluid inclusion data, it is substantiated that the gold-bearing mineralization formed under the influence of low-salinity, low-pressure, and boiling-prone hydrothermal fluids, whereas at a later stage the initial ore system was partially reworked by higher-temperature fluids. The paper also discusses the spatial zonation of hydrothermal alterations, their relationship with structural factors, and their significance as exploration criteria for gold mineralization. The results are of considerable scientific and practical importance for clarifying the metallogenic characteristics of the Chadak*

ore field, identifying перспективные gold-bearing zones, and improving geological criteria for exploration and evaluation works.

Keywords:*Chadak ore field, hydrothermal alteration, gold mineralization, epithermal system, low-sulfidation deposit, alteration, silicification, sericitization, adularia, fluid inclusions, metasomatism, skarnization, quartz-calcite veins, ore genesis, exploration criteria.*

KIRISH

Gidrotermal o‘zgarishlar oltin rudalanishining fazoviy joylashuvi, moddiy tarkibi va genezisini aniqlashda eng muhim geologik ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, past sulfidli epitermal tizimlarda silisifikatsiya, seritsitlashuv, argillizatsiya va propilitlashuv kabi metasomatik jarayonlar nafaqat ruda hosil bo‘lish muhitini aks ettiradi, balki istiqbolli oltin zonalarini ajratishda amaliy mezon vazifasini ham bajaradi. Shu sababli gidrotermal o‘zgarishlarning mineralogik-geokimyoviy belgilarini rudalanish bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish zamonaviy metallogeniya va qidiruv geologiyasining dolzarb yo‘nalishlaridan biri sanaladi[1].

Chodak rudali maydoni Sharqiy O‘zbekistonning Namangan viloyati, Pop tumani hududida, Qurama tizmasining Chodak havzasi bilan bog‘liq qismida joylashgan bo‘lib, Pirmirob va Guzaksoy oltin-kumush konlari hamda bir qator boshqa rudalanish namoyonlarini o‘z ichiga oladi. Geologik jihatdan u kech paleozoy vulqon-plutonik kamari tarkibiga mansub bo‘lib, maydonda rudalanishning joylashuvida yoriqli-tektonik omillar hal qiluvchi rol o‘ynagan. Tadqiqotlarda Chodak oltin-kumush tizimi 150 dan ortiq tomirlarni qamrab oluvchi, maydoni 6×7 km dan ortiq bo‘lgan murakkab tomirli maydon ekanligi, oltin sanoat ahamiyatiga ega qismlar esa asosan yuqori gorizontlarda to‘planganligi qayd etilgan. Chodak maydonini o‘rganish tarixi XX asr o‘rtalariga borib taqaladi: Pirmirob konining ochilishi 1953-yilga to‘g‘ri keladi, 1953–1962-yillarda jadal qidiruv va razvedka ishlari olib borilgan, 1970-yilda esa Chodak kon-metallurgiya majmuasining ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirilgan.

1-jadval. Chodak rudali maydonida ruda hosil qiluvchi flyuidlarning asosiy termobarogeokimyoviy ko‘rsatkichlari

Mineralizatsiya bosqichi	Asosiy assotsiatsiya	T, °C	P, bar	Sho‘rlanish	Flyuid tavsifi	Genetik ahamiyati
Erta epitermal oltinli bosqich	Kvarts + kalsit + pirit + elektrum	272–364 (o‘rt. 339)	75–115	<5 wt.% NaCl eq.	Ca>Na>K>Mg tarkibli xlorid-bikarbonatli, CO_2-li, magmatik-meteorik aralash flyuid	Oltinning dastlabki cho‘kishi kam sho‘rli, qaynashga moyil epitermal eritmalar bilan bog‘liq
Kechki epitermal oltin-kumush bosqichi	Kvarts + kalsit + adulyariya + elektrum + akantit	151–339 (o‘rt. 263)	Past bosimli epitermal muhit	Past sho‘rli	Magmatik-meteorik aralash, ayrim hollarda CO_2-li inkluziyalar kuzatiladi	Oltin-kumushning asosiy sanoat kontsentratsiyasi shu bosqichda shakllangan
1-bosqich geotermometrik ko‘rsatkich	Elektrum–akantit–sfalerit–pirit	263–349 (o‘rt. 306)			Birlamchi sulfidli assotsiatsiya	Erta rudalanishning nisbatan yuqori temperaturada shakllanganini ko‘rsatadi
2-bosqich geotermometrik ko‘rsatkich	Kechki epitermal assotsiatsiya	192–292 (o‘rt. 221)			Sovigan gidrotermal muhit	Keyingi bosqichda temperatura pasayganini bildiradi
Skarn-prograd bosqich	Vollastonit + granat	500–600	Yuqori haroratli chuqurroq muhit	Miqdoriy baholanmagan	Past CO_2 li, oksidlangan ishqoriy, magmatik-meteorik flyuid	Avvalgi oltinli tomirlarning metasomatik qayta ishlanishi va skarnlashuvi bilan bog‘liq
Skarn-retrograd bosqich	Kvarts + aktinolit + andradit + epidot + Fe-oksidlar + sulfidlar	201–470	250–450	29–38 wt.% NaCl	Yuqori temperaturali, qisman magmatik, keyin meteor suv bilan aralashgan	Skarnlashuv va oldingi Au–Ag rudalarining qisman redepozitsiyasi kuchaygan
Kvarts-gematit-ankerit bosqichi	Kvarts-gematit-ankerit (Cu–Bi)	150–272			Ca>Mg>Na>K eritmalar, CO_2 7,2–9,0 mol.%, meteor suv ustun	Asosiy oltinli emas, kechki Cu–Bi mineralizatsiyasi bilan bog‘liq
Kvarts-barit-fluoritli Pb–Zn bosqichi	Kechki mayda tomir va tomirchalar	90–210			Past temperaturali kechki flyuid	Post-ruda bosqichi, Pb–Zn yo‘nalishli kechki mineralizatsiyani ifodalaydi

Keyingi bosqichlarda maydonning geologik tuzilishi, tomirlar morfologiyasi, mineral tarkibi va ruda hosil qiluvchi suyuqliklarning xususiyatlari bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar bajarilgan[2]. Ayniqsa, Chodak koni oddiy epitermal tizimlardan farqli ravishda asosiy oltinli kvarts-kalsit-adulyar tomirlardan keyin yuqori haroratli

qayta gidrotermal bosqich yuzaga kelgani, buning natijasida kalsiy-silikatli, skarnsimon assotsiatsiyalar rivojlangani bilan ajralib turadi[3].

Mazkur maydonda oltin rudalanishining gidrotermal o‘zgarishlar bilan bog‘liqligini o‘rganishning ilmiy va amaliy dolzarbligi bir necha omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, dastlabki oltin-kumushli kvarts-kalsit-adulyar tomirlar atrofida kvarts-seritsitli o‘zgarish halolari kuzatiladi; ikkinchidan, ayrim uchastkalarda keyingi bosqichdagi skarnsimon kalsiy-silikatli metasomatizm avvalgi oltinli tomirlarni qisman yoki to‘liq qayta ishlagan; uchinchidan, ruda hosil qiluvchi eritmalarning magmatik va meteorik komponentlar aralashuvi bilan tavsiflanishi oltin cho‘kishi mexanizmini murakkablashtirgan. Shu jihatlar Chodak rudali maydonida gidrotermal o‘zgarish turlarini, ularning fazoviy zonalligi va intensivligini, shuningdek, aynan qaysi metasomatik assotsiatsiyalar oltin bilan ko‘proq bog‘liqligini aniqlashni nazariy va qidiruv-amaliy nuqtai nazardan nihoyatda muhim qiladi. Shundan kelib chiqib, mazkur maqolada Chodak rudali maydonida rivojlangan gidrotermal o‘zgarishlarning asosiy turlari, ularning geologik muhit va strukturaviy omillar bilan bog‘liqligi hamda oltin rudalanishi bilan genetik-fazoviy aloqadorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari maydonning metallogenik xususiyatlarini chuqurroq anglash, istiqbolli rudali zonalarni ajratish va oltin qidiruv ishlarining geologik mezonlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Chodak rudali maydonining gidrotermal tipi va strukturaviy nazorati

Chodak rudali maydoni geologik tuzilishi va mineral assotsiatsiyalariga ko‘ra past sulfidli epitermal oltin-kumush tizimiga mansub bo‘lib, biroq uning o‘ziga xosligi keyingi bosqichda yuz bergan yuqori haroratli qayta gidrotermal faollashuv bilan belgilanadi. White va Hedenquist past sulfidli epitermal konlarni adulyar-seritsit tipidagi tizimlar sifatida talqin qilib, bunday sharoitda rudalanish odatda neytralga yaqin, qaytar muhitli suyuqliklar bilan bog‘liq bo‘lishini ko‘rsatgan. Ularning yondashuviga ko‘ra, bunday tizimlarda ruda eng kuchli kislotali o‘zgarishlar bilan emas, aksincha eng kam kislotali alteratsiya — adulyar, kalsit va

illit-seritsitli zonalar bilan bog‘liq bo‘ladi. Chodak maydonida kuzatilgan kvarts-kalsit-adulyar tomirlar, kvarts-seritsitli halolar va tomirli rudalanishning yoriqlar bo‘ylab joylashuvi aynan shu genetik modelga mos keladi. Maydonda rudalanishning joylashuvida strukturaviy omil hal qiluvchi ahamiyatga ega. Geologik kuzatishlarga ko‘ra, Chodak rudali maydonida rudalanish turli yo‘nalishdagi yoriqlar tizimi bilan nazorat qilingan bo‘lib, ayniqsa shimoli-g‘arbiy va submeridional uzilishlar gidrotermal eritmalar uchun asosiy o‘tkazuvchi kanal vazifasini bajargan. Atrof jinslarning kuchli gidrotermal qayta ishlanishi, kvarts va kvarts-karbonat tomirlarning aynan shu uzilish zonalarida rivojlanishi, shuningdek tijorat ahamiyatiga ega oltin minerallashuvining shu strukturalarga bog‘lanishi Chodakda rudalanish “strukturaviy kanal + gidrotermal impuls + metasomatik o‘zgarish” mexanizmi asosida shakllanganini ko‘rsatadi[4].

Kozlov, Smirnova, Syromjatnikov va Levin talqiniga ko‘ra, Chodak tomir tizimlari kamida to‘rtta yirik mineralizatsiya impulsida shakllangan bo‘lib, ulardan birinchi va eng muhim bosqich oltin-kumushli kvarts-kalsit-adulyar tomirlar bilan ifodalanadi. Mazkur bosqich ikki ichki stadiyadan iborat: erta stadiyada kvarts + kalsit + pirit + elektrum, kechki stadiyada esa kvarts + kalsit + adulyariya + elektrum + akantit assotsiatsiyasi ustun bo‘lgan. Ayniqsa Pirmirob tomir tizimining yuqori qismida kolloform va ritmik-tasmali tuzilishga ega “bonanza” rudalarining qayd etilishi oltinning ochiq bo‘shliqlarda, takroriy impulslar asosida va gidrotermal muhitning keskin fizik-kimyoviy o‘zgarishlari natijasida cho‘kkanini ko‘rsatadi. Demak, Chodakdagi dastlabki rudalanish oddiy tomir to‘lishi jarayoni emas, balki ko‘p fazali, pulslanuvchi epitermal tizim mahsulidir.

Mazkur bosqichning termobarogeokimyoviy ko‘rsatkichlari ham oltin cho‘kish mexanizmini tushuntiradi. Erta stadiya kvartsidagi birlamchi flyuid inkluziyalari 272–364 °C oralig‘idagi gomogenizatsiya haroratini, o‘rtacha 339 °C ni ko‘rsatgan; kechki stadiyada esa bu ko‘rsatkich 151–339 °C, o‘rtacha 263 °C gacha pasaygan. Ayrim namunalarda bir xil haroratda gomogenlashuvchi

suyuqlikka boy va bug‘ga boy inkluziyalar aniqlangani qaynash hodisasi sodir bo‘lganini bildiradi; bosim esa 75–115 bar diapazonida baholangan. Flyuidlar kam sho‘rlangan xlorid-bikarbonatli Ca > Na > K > Mg tarkibli eritmalar bo‘lib, ularda CO_2, kam miqdorda CH_4 va N_2 mavjudligi qayd etilgan. Bu ma’lumotlar Chodakdagi dastlabki oltinli bosqich chuqurligi nisbatan kichik bo‘lgan, qaynashga moyil, kam sho‘rli epitermal tizimda sodir bo‘lganini ko‘rsatadi[5].

Gidrotermal o‘zgarishlar zonalligi va oltinning cho‘kish mexanizmi

Past sulfidli epitermal tizimlarda gidrotermal o‘zgarishlar tomirdan tashqariga qarab ma’lum mineralogik zonallik hosil qiladi. Giggenbach, Hedenquist va ularga tayanuvchi keyingi tadqiqotchilar talqiniga ko‘ra, tomirga yaqin joyda kaliy metasomatizmi va silika ajralishi kuchayadi, natijada adulyariya, kvarts va karbonatlar to‘planadi; chetroqda esa seritsit, illit, illit-smektit va nihoyat kaolinitli zonalar rivojlanadi. X-ray difraksiya asosidagi zamonaviy tadqiqotlar ham tomirdan uzoqlashgan sari adulyariyadan seritsit–illit–kaolinitga o‘tuvchi izchil qator gidrotermal eritmaning sovishi, pH ning pasayishi va jins-suyuqlik o‘zaro ta’sirining kuchayishi bilan izohlanishini ko‘rsatadi. Chodakda aynan kvarts-seritsitli halo bilan o‘ralgan oltinli kvarts-kalsit-adulyar tomirlarning qayd etilishi bu maydonni klassik low-sulfidation alteratsion modelga yaqinlashtiradi.Oltinning bevosita cho‘kish mexanizmini tushuntirishda Dong va Morrisonning yondashuvi alohida ahamiyatga ega. Ularning talqiniga ko‘ra, adulyariya–kvarts–karbonat assotsiatsiyasi odatda gidrotermal flyuidning qaynashi bilan bog‘liq bo‘ladi; uzoq davom etgan qaynash natijasida temperatura pasayadi, CO2 va ayniqsa H2S ajralib chiqadi, buning oqibatida oltin bisulfid kompleksi barqarorligi buzilib, metall holatdagi oltin cho‘kadi. Bu jarayon quyidagi tipik reaksiya bilan ifodalanadi: $8Au(HS)2^- + 4H2O + 6H^+ \rightarrow 8Au0 + 15H2S + SO42^-$. Chodakdagi adulyarli kechki bosqich, bonanza tipidagi yuqori tarkibli rudalar va qaynash belgilarining mavjudligi oltinning aynan shu mexanizm orqali, ya’ni qaynash–degazatsiya–bisulfid kompleksining parchalanishi yo‘li bilan konsentratsiyalanganini ko‘rsatadi[6].

Chodak maydonining o‘ziga xos jihati: qayta gidrotermal faollashuv va skarnsimon qayta ishlanish

Chodakni ko‘plab boshqa epitermal konlardan ajratib turadigan asosiy xususiyat uning keyingi bosqichda yuqori haroratli flyuidlar bilan qayta ishlanganidir. Kozlov va hamkorlar bu jarayonni “rejuvenated epithermal system”, ya’ni qayta faollashgan epitermal tizim sifatida izohlaydi. Ularning ma’lumotlariga ko‘ra, dastlabki oltinli kvarts-kalsit-adulyar tomirlarning katta qismi keyinchalik skarnsimon kalsiy-silikatli mineralizatsiya bilan almashtirilgan. Bu bosqich ayniqsa intruziv kupolning janubi-g‘arbiy kontakti bo‘ylab NE yo‘nalishli beltda rivojlangan bo‘lib, unda erta prograd stadiyada vollastonit + granat, kechki retrograd stadiyada esa kvarts + aktinolit + andradit + epidot + Fe-oksidlar + sulfidlar assotsiatsiyasi shakllangan. Kalsit bantlari va linzalarning vollastonit bilan almashinishi gidrotermal metasomatizmning juda faol bo‘lganidan dalolat beradi. Mazkur qayta ishlanish jarayoni oddiy sovish bilan emas, balki yuqori haroratli magmatik flyuidlarning oldin shakllangan epitermal tomir tizimiga kirib kelishi bilan bog‘liq. Prograd bosqich uchun 500–600 °C haroratdagi, kam CO2 li, oksidlangan ishqoriy eritmalar taklif qilingan; retrograd bosqichdagi inkluziyalar esa 372–470 °C, 370–411 °C, 283–323 °C kabi yuqori qiymatlarni, ayrim hollarda 29–38 wt.% NaCl gacha sho‘rlanish va 250–450 bar bosimni ko‘rsatadi.



1-rasm. Chodak rudali maydonida gidrotermal alteratsiya zonalligi va oltin-kumush mineralizatsiyasining genetik joylashuv modeli

Shunday qilib, Chodakda dastlab past bosimda hosil bo‘lgan oltinli epitermal tomirlar keyinroq chuqurroq va issiqroq, qisman magmatik tabiatli flyuidlar tomonidan qayta ishlangan. Mualliflarning yakuniy xulosasiga ko‘ra, maydondagi mineralogik va flyuid-inkluzion dalillar ko‘milgan mezoepitermal tomir tizimiga yuqori haroratli magmatik flyuidlar bostirib kirganini, keyinchalik esa ular meteor suvlar bilan aralashib soviganini ko‘rsatadi. Shunday qilib, Chodak rudali maydonida gidrotermal o‘zgarishlar bilan oltin rudalanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik ikki bosqichli mexanizm asosida tushuntiriladi. Birinchi bosqichda neytralga yaqin, kam sho‘rli, meteorit va qisman magmatik komponentli flyuidlar yoriqlar bo‘ylab yuqoriga ko‘tarilib, qaynash natijasida kvarts-kalsit-adulyar tomirlar va ularga tutash kvarts-seritsitli o‘zgarish halolarini hosil qilgan; aynan shu bosqich oltinning asosiy sanoat ahamiyatiga ega to‘planishini ta’minlagan. Ikkinchi bosqichda esa intruziv manba bilan bog‘liq yuqori haroratli flyuidlar avvalgi tomirlarni qisman qayta kristallantirib, skarnsimon kalsiy-silikatli assotsiatsiyalarni yuzaga keltirgan va ayrim hollarda oltinning dastlabki joylashuvini buzgan. Shu bois Chodakda oltinning eng ishonchli qidiruv mezoni sifatida skarn emas, balki adulyariya–kvarts–karbonat assotsiatsiyasi, kolloform-banded teksturalar, qaynash belgilariga ega kvarts va tomir atrofi kvarts-seritsitli alteratsiyasi qaralishi maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv White–Hedenquistning low-sulfidation modeli hamda Kozlov va hamkorlarining Chodak bo‘yicha maxsus flyuid-evolyutsion talqini bilan mos keladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari Chodak rudali maydonida gidrotermal o‘zgarishlar va oltin rudalanishi o‘rtasida uzviy genetik hamda fazoviy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Maydonning asosiy oltin-kumushli mineralizatsiyasi strukturaviy jihatdan yoriq va uzilish zonalari bilan nazorat qilingan past sulfidli epitermal tizim

sharoitida shakllangan bo‘lib, uning eng muhim mineralogik belgilarini kvarts–kalsit–adulyariya tomirlari, kvarts-seritsitli alteratsiya halolari, kolloform va ritmik-tasmali teksturalar tashkil etadi. Flyuid-inkluzion ma’lumotlar oltinli dastlabki bosqichning kam sho‘rli, past bosimli va qaynashga moyil gidrotermal eritmalar ta’sirida, asosan 151–364 °C oralig‘ida yuz berganini ko‘rsatadi. Ayniqsa adulyariya bilan bog‘liq kechki epitermal bosqich oltinning asosiy sanoat ahamiyatiga ega kontsentratsiyasi hosil bo‘lgan davr sifatida ajralib turadi. Shu bilan birga, Chodak rudali maydoni oddiy epitermal obyekt emasligi, balki keyingi bosqichda yuqori temperaturali gidrotermal-metasomatik jarayonlar bilan qayta ishlangan “qayta faollashgan epitermal tizim” ekani aniqlandi. Skarn-prograd va retrograd bosqichlarda 500–600 °C gacha yetuvchi yuqori haroratli flyuidlar avvalgi oltinli kvarts-kalsit-adulyariya tomirlarini qisman qayta kristallantirib, kalsiy-silikatli assotsiatsiyalarni shakllantirgan va rudaning dastlabki joylashuvini murakkablashtirgan. Shu sababli Chodakda oltin qidiruvining eng ishonchli mezonlari sifatida kechki skarn zonalaridan ko‘ra adulyariya–kvarts–karbonat assotsiatsiyasi, kvarts-seritsitli alteratsiya, silisifikatsiya va qaynash teksturalarini baholash maqsadga muvofiqdir. Mazkur yondashuv Chodak maydonining metallogenik xususiyatlarini chuqurroq anglash, istiqbolli rudali zonalarni ajratish va oltin qidiruv ishlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kozlov V.V., Smirnova S.K., Syromjatnikov N.G., Levin V.L. Chadak Gold-Silver Deposit, Uzbekistan: An Example of Fluid Evolution in a Rejuvenated Epithermal System. PACROFI VI, Madison, Wisconsin, 1996. DOI: 10.13140/2.1.5078.7208.

2. White N.C., Hedenquist J.W. Epithermal Gold Deposits: Styles, Characteristics and Exploration. SEG Newsletter, 1995, No. 23, pp. 9–13. DOI: 10.5382/SEGnews.1995-23.fea.

3. Hedenquist J.W., Arribas A. Jr., Gonzalez-Urien E. Exploration for Epithermal Gold Deposits. Reviews in Economic Geology, 2000, vol. 13, pp. 245–277.

4. Sillitoe R.H., Hedenquist J.W. Linkages between Volcanotectonic Settings, Ore-Fluid Compositions, and Epithermal Precious Metal Deposits. Society of Economic Geologists Special Publication, 2003, No. 10, pp. 315–343. DOI: 10.5382/SP.10.16.

5. Simmons S.F., White N.C., John D.A. Geological Characteristics of Epithermal Precious and Base Metal Deposits. Economic Geology 100th Anniversary Volume, 2005, pp. 485–522.

6. Dong G., Morrison G.W. Adularia in Epithermal Veins, Queensland: Morphology, Structural State and Origin. Mineralium Deposita, 1995, vol. 30, pp. 11–19. DOI: 10.1007/BF00208872.

7. Morales Leal J., Menzies A., Wilke H.-G., Zuluaga J. Characterization and Distribution of Adularia and Other Alteration Minerals by X-ray Diffraction Analysis at the El Peñón Au-Ag Epithermal Deposit, Northern Chile. Andean Geology, 2022, vol. 49, no. 2, pp. 185–207. DOI: 10.5027/andgeoV49n2-3400.

8. Kiray D., Cengiz O. Petrography and Geochemistry of Hydrothermal Alteration in the Low-Sulfidation Epithermal Kestanelik Au Deposit, Biga Peninsula, NW Turkey. Minerals, 2024, vol. 14, no. 4, 379. DOI: 10.3390/min14040379.

9. Yakubchuk A.S., Shatov V.V., Kirwin D., Edwards A., Tomurtogoo O., Badarch G., Buryak V.A. Gold and Base Metal Metallogeny of the Central Asian Orogenic Supercollage. Economic Geology 100th Anniversary Volume, 2005, pp. 1035–1068.

QASHQADARYO VILOYATI TUMANLARI KESIMIDA TURIZM IMKONIYATLARINI BAHOLASH

Xamidova Mo`tabarxon Abdumalik qizi

Qarshi davlat universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasi tayanch doktoranti.

ORCID: 0009-0008-8305-1546

muhayyo.xamidova@bk.com . +998941751535

***Annotatsiya**: Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyati tumanlari kesimida turizm hamda xizmat ko`rsatish imkoniyatlari kompleks va tizimli ravishda ko`rib chiqilgan. Ushbu maqolada viloyatning turizm imkoniyatlarini baholash, hududiy turizmni rivojlantirish orqali mahalliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, bandlikni oshirish va ichki hamda tashqi turizm oqimini ko'paytirish zarurati o`rganildi. Viloyat hududi boy tarixiy-madaniy meros, noyob tabiiy landshaftlar va etnografik resurslarga ega bo'lsa-da, ularning tumanlar kesimidagi taqsimoti va amaliy foydalanish darajasi bir xil emas. Shuningdek, maqolada viloyatdagi turistik tashkilotlar faoliyati, hududiy turizmni samarali boshqarish, investitsiyalarni jalb qilish, ekoturizm va agro-turizm yo'nalishlarini rivojlantirish, hamda turizm klasterlarini shakllantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so`z:**turizm, xizmat ko`rsatish, hududiy turizm, ichki turizm, turistik tashkilotlar.*

***Abstract**: In this article, tourism and service delivery opportunities in the districts of Kashkadarya region are comprehensively and systematically reviewed. In this article, the need to assess the tourism potential of the region, diversify the local economy through the development of regional tourism, increase employment and increase the flow of domestic and foreign tourism was studied. Although the territory of the region has a rich historical and cultural heritage, unique natural landscapes and ethnographic resources, their distribution and level of practical use in the cross-section of districts are not the same. Also, the article developed scientific and practical recommendations on the activities of tourist organizations in the region, effective management of regional tourism, attraction of investments, development of ecotourism and agro-tourism routes, and formation of tourism clusters.*

***Key word**: tourism, service provision, regional tourism, domestic tourism, tourist organizations*

***Аннотация:** В данной статье комплексно и системно рассмотрены возможности туризма и сервиса на территории районов Кашкадарьинской области. В данной статье исследована необходимость оценки туристических возможностей региона, диверсификации местной экономики за счет развития регионального туризма, увеличения занятости и увеличения внутренних, а также внешних туристических потоков. Хотя территория района обладает богатым историко-культурным наследием, уникальными природными ландшафтами и этнографическими ресурсами, их распределение по районам и степень практического использования неодинаковы. Также в статье разработаны научно-практические рекомендации по деятельности туристических организаций региона, эффективному управлению региональным туризмом, привлечению инвестиций, развитию направлений экотуризма и агротуризма, формированию туристических кластеров.*

***Ключевые слова:** туризм, услуги, территориальный туризм, внутренний туризм, туристические организации.*

KIRISH

Turizm bugungi kunda jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Xususan, World Tourism Organization (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, turizm ko‘plab davlatlarda yalpi ichki mahsulotning muhim qismini shakllantirib, aholi bandligini ta’minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa turizm hududiy iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va mahalliy aholi daromadlarini oshirish vositasi sifatida xizmat qilmoqda. O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda turizmni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini oshirish, yangi turistik yo‘nalishlarni shakllantirish va hududiy brendlarni rivojlantirish borasida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu jarayonda hududlar kesimida mavjud turistik resurslarni aniqlash, ularni baholash va samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Janubiy mintaqada joylashgan Qashqadaryo viloyati o‘zining boy tarixiy-madaniy merosi, tabiiy

landshaftlari, tog‘-ekologik hududlari va ziyorat maskanlari bilan ajralib turadi. Viloyat hududida qadimiy shaharlar, arxeologik obidalar, muqaddas qadamjolar hamda noyob tabiiy resurslar mavjud. Jumladan, Shahrisabz shahri o‘zining tarixiy me’moriy yodgorliklari bilan xalqaro miqyosda tan olingan bo‘lib, 2000-yilda UNESCOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Biroq viloyatda turizm salohiyati tumanlar kesimida bir xil darajada rivojlanmagan. Ayrim tumanlarda infratuzilma va xizmat ko‘rsatish sifati yetarli emasligi, transport-logistika muammolari, marketing strategiyalarining sustligi kuzatiladi. Shu bois, har bir tuman kesimida turistik resurslarni kompleks tahlil qilish, ularning ustun va zaif jihatlarini aniqlash hamda istiqbolli yo‘nalishlarni belgilash ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi.

ASOSIY QISM

Qashqadaryo viloyati tumanlarida turizm sohasini turli yo`nalishlarini o`rganish, sohada faoliyat yurituvchi xodimlarni o`qitish va malakasini oshirish yo`nalishlari, Qashqadaryo viloyatida tashqi va ichki turizmni rivojlantirish, xorijiy turistlarni jalb qilishda inson resurslarini boshqarish, Qashqadaryo viloyati turizmini rivojlantirishni boshqarishda raqamli transformatsiyalarning o`rni va ahamiyati kabi masalalar ko`rib chiqish va tahlil qilish ushbu maqolaning muhim natijasidir . So`ngi yillarda, Qashqadaryo viloyatini jahon sayyohlik markazlaridan biriga aylantirish, viloyatdagi qadimiy shahar va qishloqlar nomini butun dunyoga tanitish, aholi bandligini ta’minlash, yangi ish o’rinlarni yaratish ustuvor vazifaga aylandi va aylanmoqda. Qashqadaryo geografik joylashuviga ko`ra Turkiya, Gretsiya, Italiya, Ispaniya va AQSH mamlakatlarining o‘rta qismlari bilan bir xil kenglikda joylashgan bo‘lib viloyatning shimoli-sharqi hamda janubi sharqiy qismlari tog‘lar bilan o‘ralgan. Pomir-Oloy tog‘lari etagidagi kontinental (ayrim joylarda esa hatto subtropik) iqlim tufayli bu mintaqa o‘zining toza tabiiy landshaftlari, go‘zal nabotot va hayvonot olami bilan sayohatchilarni maftun qila oladi. Mintaqa hududida Kitob, Hisor va Qizil-Soy kabi bir necha mashhur

qo‘riqxonalar mavjud. Toza ob-havo va chiroyli tabiat bilan birga hudud qadimiy shaharlar va arxitektura xarobalari bilan xam boydir. Viloyatda respublikamizdagi jami tarixiy obidalarning 17% dan ortiq qismi joylashgan bo’lib, bulardan 1 ming 468 ta madaniy meros obyekti ro‘yxatga olingan, ularning 1 ming 189 tasi arxeologiya, 208 tasi arxitektura, 43 ta monumental yodgorliklar, 34 tasi diqqatga sazovor joylar hisoblanadi. So`ngi yillarda „O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora tadbirlari“ to‘g‘risidagi 2021-yil 9-fevral sanasidagi PF-6165-son 9-bandiga muvofiq Qashqadaryo viloyatida turizmni rivojlantirish va infratuzilmani yaxshilash maqsadida ko‘plab amaliy ishlar olib borildi. Jumaladan, “Abul-Muin an-Nasafiy”, “Xo‘ja Imkonagiy”, “Darvesh Muhammad Vaxshivoriy”, “Sulton Mirhaydar ota” ziyoratgohlari va unga yondosh hududlarga yo’l ko’rsatkich va axborot belgilarini o’rnatildi, kitoblar va hunarmandchilik savdosi yo’lga qo’yildi, halol turizm talablariga javob beradigan ovqatlanish shoxobchalari va oilaviy mehmon uylari tashkil qilindi. Viloyatda tarixiy obidalar har bir tumanda mavjud bo’lib, ulardan ko’prog’i asosan qadimiy Shaxrisabz, Qarshi shaharlarida va Kitob tumanida joylashgan. Voha o‘zining uzoq o‘tmishiga ega ekanligi tarixiy obidalar soni va ilmiy yangiligi turfa xillikni tashkil etadi. Viloyatda ko‘plab dam olish maskanlari va shifobaxsh buloqlar mavjud bo‘lib ular asosan tog‘ oldi va tog‘li hududlarda ko’proq joylashgan. Arxitektura yodgorliklari ko‘proq Qarshi shahri, Qarshi tumani hamda Shahrisabz shahri va tumanida uchraydi, bu esa ushbu hududlarda o‘rta asrlar va keyingi davr me’morchilik an’analari rivojlanganini ko‘rsatadi. Monumental san’at yodgorliklari nisbatan Qarshi tumanida (28 ta) yuqori ko‘rsatkichni tashkil etadi. Shu bilan birga, Nishon, Muborak va Mirishkor tumanlarida tarixiy obyektlar soni kamroq bo‘lib, bu hududlarda turizmni rivojlantirish ko‘proq tabiiy-rekreatsion resurslarga tayanishini ko‘rsatadi. Viloyatning shifobaxsh buloqlari, dam olish maskanlari va sanatoriyalari rekreatsion turizmni rivojlantirish uchun muhim omil hisoblanadi. Umuman olganda, Qashqadaryo viloyati boy tarixiy-madaniy merosi

va rekreatsion resurslari bilan respublika miqyosida yuqori turistik salohiyatga ega hududdir. Tarixiy obidalar sonining ko‘pligi, ayniqsa Shahrisabz, Qarshi va Kitob hududlarida jamlangani viloyatda madaniy-tarixiy turizmni rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratadi. Kelgusida hududlar kesimida infratuzilmani takomillashtirish, obidalarni restavratsiya qilish hamda marketing strategiyalarini kuchaytirish orqali viloyatning ichki va xalqaro turizm bozordagi raqobatbardoshligini yanada oshirish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, viloyatda turizmni rivojlantirish uchun resurs bazasi yetarli, biroq ularni samarali boshqarish, infratuzilmani takomillashtirish va hududlar kesimida ixtisoslashgan turizm yo‘nalishlarini shakllantirish zarur. Masalan, tarixiy-madaniy turizm Shahrisabz va Qarshi hududlarida, arxeologik turizm Kitob va Yakkabog‘ tumanlarida, rekreatsion va sog‘lomlashtirish turizmi esa tabiiy resurslarga boy hududlarda rivojlantirilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, tarixiy obidalarni restavratsiya qilish, ularning ilmiy pasportini yaratish, raqamlashtirish va xalqaro marketing strategiyalarini kuchaytirish orqali viloyatning turistik brendini shakllantirish mumkin. Hududlar o‘rtasidagi tafovutni kamaytirish maqsadida kam obyektli tumanlarda yangi turistik marshrutlar ishlab chiqish va investitsiyalarni jalb etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Umuman olganda, Qashqadaryo viloyati boy tarixiy-madaniy merosi, arxeologik salohiyati va rekreatsion resurslari bilan barqaror va kompleks turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Ilmiy asoslangan rejalashtirish, samarali boshqaruv va hududiy ixtisoslashuv orqali viloyatni respublikaning yetakchi turistik markazlaridan biriga aylantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qashqadaryo viloyatining tog`li-rekratsion hududlarida zamonaviy xizmat ko`rsatish va turizm obyektlarini barpo

etish chora-tadbirlari to`g`risida” 2023-yil 30-noyabrdagi PQ-376-son qarori. https://lex.uz/docs/

2. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to`g`risida” gi 198-son qarori. https://lex.uz/docs/

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora tadbirlari“ to‘g‘risidagi 2021-yil 9-fevral sanasidagi PF-6165-son 9-bandi. https://lex.uz/docs/

4. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.12.2024 yildagi PQ-424-sonli “G`elon turistik-rekratsion zonasini va xalqaro umummavsumiy kurortni tashkil etish chora tadbirlari” qarori. https://lex.uz/docs/

5. O‘zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish bo‘yicha yillik hisobotlar. – Toshkent, 2022–2024.

6. Qashqadaryo viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari. – Toshkent, 2023.

7. World Heritage List: Shahrisabz Historic Centre. – Paris, 2016 (yangilangan ma’lumotlar).

RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA “YASHIL” TRANSFORMATSIYANI MOLIYALASHTIRISHNING ILG’OR TAJRIBASI

Ma`mun universiteti mustaqil izanuvchisi

Sharipov Qudratbek Quraltayevich

sharipovqudrat@gmail.com

***Annotatsiya**: Mazkur maqolada rivojlangan mamlakatlarda xo’jalik yurituvchi subyektlarda "yashil" transformatsiyani moliyalashtirishning ilg’or tajribasi tahlil etilgan. Germaniya, Yaponiya, Xitoy, AQSh va Yevropa Ittifoqining “yashil” moliyalashtirish sohasidagi yondashuvlari, moliyaviy instrumentlari va ko’rsatkichlari o’rganilgan. Ushbu tajribalar asosida O’zbekiston uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so’zlar:** "yashil" transformatsiya, moliyalashtirish, “yashil” obligatsiyalar, ESG-investitsiyalar, iqlim moliyasi, barqaror rivojlanish.*

***Abstract:** In this article, the advanced materials on financing "green" transformation in business entities are analyzed. The production, instruments and indicators of "green" financial assistance in Germany, China, the United States and the European Union are studied. Based on the three experiences, practical recommendations for Uzbekistan are developed.*

***Keywords:** "green" transformation, financialization, "green" bonds, ESG-investments, climate finance, organization.*

KIRISH

Bugungi kunda "yashil" transformatsiyani moliyalashtirish masalasi global iqtisodiyotning ustuvor yo’nalishiga aylandi. Xalqaro energetika agentligi (IEA) ma’lumotlariga ko’ra, 2024-yilda global energetika sohasiga investitsiyalar birinchi marta 3 trillion AQSh dollaridan oshdi, shundan 2 trillion dollari yashil energetika texnologiyalariga yo’naltirildi. Biroq BMT ekspertlarining bahosiga ko’ra, 2050-yilga borib karbonsiz iqtisodiyotga erishish uchun yillik 6 trillion AQSh dollaridan ziyod investitsiya zarur. Ushbu ulkan moliyaviy ehtiyojni qoplash uchun turli

mamlakatlarda samarali “yashil” moliyalashtirish mexanizmlari ishlab chiqilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar, jumladan Germaniya, Yaponiya, Xitoy, AQSh va Yevropa mamlakatlari tajribasini o’rganish va ularning ilg’or amaliyotlarini milliy sharoitga moslash O’zbekiston uchun dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Germaniya "yashil" transformatsiyani moliyalashtirishda Yevropaning eng ilg’or davlatlaridan biri sifatida tan olingan. Ushbu natijaga erishishda davlat taraqqiyot banki — KfW (Kreditanstalt für Wiederaufbau) — ning roli beqiyos. KfW 2014-yildan buyon 136 ta tranzaksiyada 82,8 mlrd. yevro miqdorida "yashil" obligatsiyalar chiqargan. 2025-yil uchun 10 mlrd. yevrolik "yashil" obligatsiyalar dasturi e’lon qilingan bo’lib, bu bank umumiy kapital bozori mablag’larining taxminan 15 foizini tashkil etadi. 2025-yilning birinchi yarmiigayoq KfW “yashil” obligatsiyalar bo’yicha 10 mlrd. yevrolik maqsadga deyarli erishdi. Germaniya hukumatining 2024-yilgi iqlim moliyasi 10,7 mlrd. yevroga yetdi: shundan 6,1 mlrd. yevro federal byudjet mablag’lari, qolgan 4,6 mlrd. yevro esa KfW va DEG tomonidan kapital bozoridan jalb etilgan mablag’lar hisoblanadi. [49]Bundan tashqari, 1,1 mlrd. yevro xususiy investitsiyalar ham safarbar etildi. 2023-yilda Germaniya federal hukumati 17,25 mlrd. yevro hajmida yashil federal qimmatli qog’ozlar chiqargan bo’lsa, 2024-yilda bu ko’rsatkich 17,5 mlrd. yevroga yetdi. 2025-yilda ham ushbu ko’rsatkich taxminan 14,5 mlrd. yevro darajasida saqlanib qoldi.[50]

Germaniya tajribasining asosiy xususiyati shundaki, “yashil” moliyalashtirish uchta darajada — federal hukumat, davlat taraqqiyot banki va xususiy sektor — o’rtasida uyg’un taqsimlangan. KfW modeli rivojlanayotgan mamlakatlar uchun namuna sifatida xizmat qilmoqda.

Yaponiya "yashil" transformatsiyani moliyalashtirishga o’ziga xos yondashuv — "Green Transformation" (GX) strategiyasi — asosida harakat qilmoqda. 2024-yil

[49] https://www.bloomberg.com/news/articles/2025-12-25/green-debt-sales-hit-record-levels-despite-climate-backlash
[50] https://thedocs.worldbank.org/en/doc/cd82b4033281dab2cb1a1c71eeb691e4-0340012025/original/Labeled-Bond-Quarterly-Newsletter-Issue-No-10.pdf

fevralida Yaponiya hukumati dunyodagi birinchi suveren tranzitsion obligatsiyani chiqardi. 2025-yil aprel holatiga ko'ra, ushbu obligatsiyalarning umumiy bozor qiymati 37,6 mlrd. AQSh dollariga yetdi — bu umumiy barqaror obligatsiyalar bozorining 0,7 foizini tashkil etib, Yaponiya ushbu sohada 71,5 foizlik ulush bilan yetakchi emitent hisoblanadi. [51]

Yaponiyaning GX strategiyasi 10 yil (2023–2033) davomida 20 trillion yaponiya iyenasi (taxminan 150 mlrd. AQSh dollari) miqdorida "yashil" investitsiyalarni jalb etishni ko'zda tutadi. Ushbu strategiyaning noyob xususiyati — tranzitsion moliyalashtirish konsepsiyasi bo'lib, u faqat "to'liq yashil" loyihalar emas, balki an'anaviy tarmoqlarning asta-sekin ekologik transformatsiyasini ham moliyaviy qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Shuningdek, Yaponiya Osiyo mintaqasida "yashil" transformatsiyani kengaytirish maqsadida "Osiyo nol-emissiyali hamjamiyati" (AZEC) strategik sheriklik tizimini yaratgan bo'lib, u rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlarida GX tamoyillarini joriy etishga ko'maklashmoqda.

Xitoy "yashil" transformatsiyani moliyalashtirish hajmi jihatidan jahonda beqiyos o'rinni egallaydi. Bloomberg hisob-kitoblariga ko'ra, Xitoy 2024-yilda energetika tranzitsiyasiga 818 mlrd. AQSh dollari miqdorida investitsiya yo'naltirdi — bu boshqa istalgan iqtisodiyotga nisbatan ikki barobar ko'p. 2024-yilda Xitoy global qayta tiklanadigan energiya quvvatining 40 foizidan ko'prog'ini tashkil etdi. [52] 2024-yilda Xitoyda tranzitsion obligatsiyalar chiqarish 64,86 mlrd. yuanga yetdi — bu o'tgan yilga nisbatan 53,6 foizlik o'sish. Barqarorlikka bog'liq obligatsiyalar eng yirik segment bo'lib, 34,97 mlrd. yuan miqdorida chiqarildi. Xitoyning CO_2 emissiyasi 2024-yil martidan boshlab pasayish yoki barqarorlanish tendensiyasini ko'rsatmoqda; bunga elektr transport vositalarining keng joriy etilishi, sement va

[51] https://about.bnef.com/insights/finance/sustainable-debt-plays-key-role-in-scaling-climate-finance-for-emerging-markets/
[52] https://www.bloomberg.com/news/articles/2025-10-22/global-green-bond-issuance-almost-doubles-on-europe-asia-surge

po’lat ishlab chiqarishidagi kamayish hamda quyosh va shamol energetikasi quvvatlarining keskin o’sishi sabab bo’ldi. Xitoy tajribasining o’ziga xosligi shundaki, davlat "yashil" transformatsiyani nafaqat ekologik, balki iqtisodiy raqobatdoshlikni oshirishning strategik vositasi sifatida ko’radi.

AQSh "yashil" moliyalashtirishda xususiy sektor va bozor mexanizmlariga tayanuvchi model qo’llaydi. Hozirda Yevropa Ittifoqi, AQSh va Xitoy global “yashil” investitsiyalar bozorida yetakchi o’rinlarni egallaydi, biroq ularning yondashuvlari, ustuvorliklari va natijalari o’ziga xos siyosiy tuzilmalari, iqtisodiy ustuvorliklari va ijtimoiy omillarga ko’ra sezilarli farqlanadi. 2024-yilning I choragida "yashil" obligatsiyalar chiqarish bo’yicha top-5 emitentlar qatorida Germaniya (12%), AQSh (10%), Fransiya (9%), Yaponiya (7%) va Xitoy (7%) bo’ldi. AQShning 2022-yilda qabul qilgan "Inflyatsiyani kamaytirish to’g’risida"gi qonuni (IRA) "yashil" investitsiyalarga 369 mlrd. AQSh dollarlik soliq imtiyozlari va subsidiyalarni belgilab, xususiy kapitalning ekologik yo’nalishlarga oqishini kuchli tezlashtirdi.

1-jadval.

Energetika tranzitsiyasiga jami investitsiyalar hajmi (mlrd. AQSh dollari, 2024)



Yaponiya	**37**	~$37 mlrd.

Yevropa Ittifoqi “yashil” transformatsiyani moliyalashtirishda tartibga soluvchi-huquqiy mexanizmlarni ustuvor o’ringa qo’yadi. 2020-yilda joriy etilgan "Yashil" taksonomiya (EU Taxonomy Regulation) “yashil” deb tan olinuvchi moliyaviy faoliyat uchun aniq mezonlar belgilab, “yashil” moloylashtirish (greenwashing) xavfini kamaytirdi. “Yashil” kelishuv" (European Green Deal) doirasida 2025–2034-yillarda 1 trillion yevrodan ziyod investitsiya jalb etish rejalashtirilgan. Yevropa Kengashining 2024-yil 18-apreldagi xulosalarida Yevropa sekuritizatsiya bozorini qayta ishga tushirish, shu jumladan tartibga solish va prudensial o’zgartirishlar orqali Yevropa banklarining kreditlash qobiliyatini kuchaytirish va kapital bozorlarini chuqurlashtirish tavsiya etildi.

Yuqorida ko’rib chiqilgan mamlakatlar tajribasini qiyosiy tahlil qilish asosida quyidagi asosiy modellar ajratiladi:

Germaniya modeli	**Davlat taraqqiyot banki orqali uzluksiz “yashil” kapital oqimini ta’minlash. O’zbekiston uchun tatbiq etish imkoniyati: O’zbekiston Milliy banki yoki Tadbirkorlik jamg’armasini KfW tipidagi “yashil” taraqqiyot institutiga aylantirish.**
Yaponiya modeli	Tranzitsion moliyalashtirish orqali an’anaviy tarmoqlarning bosqichma-bosqich yashillashuvini qo’llab-quvvatlash. O’zbekiston uchun tatbiq etish imkoniyati: neft-gaz va metallurgiya kabi an’anaviy tarmoqlar uchun alohida tranzitsion moliyalashtirish dasturlarini ishlab chiqish.
Xitoy modeli	“Yashil”transformatsiyani milliy sanoat siyosatining tarkibiy qismiga aylantirish. O’zbekiston uchun tatbiq etish imkoniyati: qayta

	tiklanadigan energiya, elektr transport va energiya samarali qurilish sohalarida milliy “yashil” sanoat klasterlarini shakllantirish.
AQSh modeli	Soliq imtiyozlari orqali xususiy investitsiyalarni ekologik yo’nalishga yo’naltirish. O’zbekiston uchun tatbiq etish imkoniyati: “yashil” loyihalarga investitsiya qilgan korxonalarga foyda solig’i bo’yicha imtiyozlar joriy etish
Yevropa Ittifoqi modeli	"Yashil" taksonomiya va majburiy ESG-hisobot tizimini yaratish. O’zbekiston uchun tatbiq etish imkoniyati: milliy “yashil” taksonomiya standartlarini ishlab chiqib, xo’jalik yurituvchi subyektlar uchun ixtiyoriy ESG-hisobot tizimini joriy etish.

XULOSA

Rivojlangan mamlakatlar tajribasini tahlil qilish shuni ko’rsatadiki, “yashil” transformatsiyani moliyalashtirishda yagona universal model mavjud emas — har bir mamlakat o’zining iqtisodiy, institutsional va siyosiy xususiyatlaridan kelib chiqib, o’ziga xos mexanizmlar ishlab chiqadi. Biroq barcha muvaffaqiyatli modellarga xos umumiy xususiyat — davlat, xususiy sektor va xalqaro institutlar o’rtasidagi hamkorlikka asoslangan kompleks yondashuvdir. O’zbekiston uchun eng samarali strategiya — Germaniya, Yaponiya va Xitoy tajribalarini sintezlab, milliy “yashil” moliyalashtirish tizimini shakllantirishdan iborat. Shu bilan birga, O’zbekistonda "yashil" transformatsiyani moliyalashtirish uchun zarur qonunchilik-institutsional zamin asosan shakllangan. Biroq xorijiy mamlakatlar tajribasi bilan qiyoslaganda bir qator muammolar hali yechimini kutmoqda: milliy "yashil" taksonomiya standartlarining yo’qligi, “yashil” obligatsiyalar bozorining rivojlanmaganligi, xo’jalik yurituvchi subyektlar uchun ESG-hisobot tizimining joriy etilmaganligi va “yashil” moliyalashtirish sohasida ixtisoslashgan taraqqiyot institutining mavjud emasligi shular jumlasidandir. O’zbekiston uchun eng samarali strategiya Germaniyaning KfW modeli, Yaponiyaning tranzitsion moliyalashtirish mexanizmi va Xitoyning davlat-xususiy sheriklik tajribasini sintezlab, milliy “yashil” moliyalashtirish tizimini shakllantirishdan iboratdir. Bu esa xo’jalik yurituvchi subyektlarda “yashil” transformatsiyani moliyalashtirishning kompleks mexanizmlarini ishlab chiqishni dissertatsiya tadqiqotining dolzarb vazifasi sifatida belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.BloombergNEF. (2025). *Energy transition investment trends 2025*. Bloomberg Finance L.P.

2.European Commission. (2020). *EU taxonomy for sustainable activities*. Publications Office of the European Union.

3.European Commission. (2025, October 4). *German climate finance 2024: New data shows increase but 2025 pledge likely out of reach*. https://www.germanclimatefinance.de

4.German Federal Ministry of Finance. (2025, December 19). *Green bond impact report 2023 and 2024*. Bundesministerium der Finanzen. https://www.bundesfinanzministerium.de

5.Global Green Growth Institute (GGGI). (2025). *Green growth index 2025: Summary report*. https://greengrowthindex.gggi.org

6.Global Sustainable Investment Alliance (GSIA). (2023). *Global sustainable investment review 2022*. GSIA.

7.Green Climate Fund. (2023). *Annual report 2023*. GCF Secretariat.

8.Green Finance & Development Center. (2025). *China green finance status and trends 2024–2025*. GFDC. https://greenfdc.org

9.International Energy Agency (IEA). (2024). *World energy investment 2024*. IEA Publications.

10.International Finance Corporation (IFC). (2017). *Green finance: A bottom-up approach to track existing flows*. IFC.

11.International Monetary Fund (IMF). (2024). *Climate finance monitor Q1 2024*. IMF Publications.

KfW Group. (2025). *Green bonds made by KfW: Annual report 2024*. KfW Bankengruppe.

12.LSEG. (2025). *Indexing impact bonds: Insights into a growing and maturing market*. London Stock Exchange Group.

13.McKinsey & Company. (2020). *The ESG premium: New perspectives on value and performance*. McKinsey & Company.

SYNTHESIS AND PHYSICOCHEMICAL ANALYSIS OF HIGHLY ABSORBENT OLEOGELS

Djalilov Abdulaxat,

Academician of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Chemical Sciences, Professor, Director of the Tashkent Research Institute of Chemical Technology.

Khusanova Mamlakat

Senior Researcher, Doctor of Technical Sciences, Tashkent Research Institute of Chemical Technology

ismoilovferuz54@gmail.com

Abstract. *Oleogels were successfully prepared via radical polymerization and crosslinking of butadiene-styrene rubber, natural rubber, and isoprene rubber in a toluene medium. The synthesis was performed in a 250 mL round-bottom flask with a reflux condenser at 80-90 °C, employing ammonium persulfate as the initiator and glutaraldehyde as the crosslinker. After polymerization, the oleogels were dried and subsequently treated with maleic anhydride to enhance crosslink density and reduce solubility. FTIR analysis confirmed the presence of characteristic functional groups, including CH_3, CH_2, C=N, and C-O-C, indicating the formation of a stable gel network. Thermal characterization using TGA/DTA demonstrated a multistep decomposition pattern, with mass losses observed up to 600 °C, reflecting high thermal stability. Mechanical testing revealed elastic behavior, with strain tolerances reaching 150%, and stress-strain curves indicated enhanced flexibility and resilience.*

Keywords*: Rubber, toluene, organic compounds, FTIR spectroscopy, DTG analysis.*

INTRADUCTION

Currently, significant research efforts worldwide focus on developing novel, environmentally friendly, and economically feasible methods for synthesizing oleogels from hydrophobic compounds, as well as investigating their potential

Literature is such an art that it reflects the experiences and emotions in a person's heart not through melodies or paintings created by artists, but through words and poetic lines. The representatives of this field — poets and writers — find their way into the human soul through their beautiful works of art. One of such multifaceted creators, considered a bridge between the Uzbek and Russian peoples, is Alexander Faynberg. As in the works of many Uzbek poets, among Faynberg's writings there are also pieces that depict the painful yet simple life of the Uzbek people during the years of World War II. This very atmosphere finds its expression in the poem "Tashkent. 1943."

MAIN BODY

The cobbler David's workshop,
Kites tremble on wires above the roof.
Heat crawls toward the beerhouse.
A disabled man's cart on the stone road.
Six months now, Aunt Lidiya is distraught —
A mother who lost her sons waits for a letter.
At the gate, like a poster,
She hovers over old belongings.
Summer's ship sails through the body.
The Father of Nations smiles from a portrait.
Beneath that portrait, there is no bread in the shop.
The kind Uzbek strokes your head.
Ranevskaya finds kerosene from nowhere,
For Akhmatova, the house stands wide open.

In the opening stanzas of the poem, ordinary yet vivid scenes of Tashkent are depicted. The cobbler's workshop, trembling kites above the roofs, the heat creeping toward the beerhouse, the disabled man's cart — all these details bring before our eyes the quiet yet тяжелые realities of city life during the war years. Through these images, the poet presents Tashkent not merely as a geographical place, but as a living organism.

In the following stanza, the human tragedy of war is revealed even more deeply. The lines “Six months now, Aunt Lidiya is distraught — / A mother who lost her sons waits for a letter” express destinies shattered by war. The image of a mother who has lost her sons symbolizes the shared tragedy of millions of mothers. Here, the poet portrays war not as statistics or a historical event, but as a wound inflicted upon the human heart.

Another significant aspect of the poem is the mention of cultural and historical figures. The inclusion of the names Faina Ranevskaya and Anna Akhmatova is not accidental. Evacuated to Tashkent during the war years, these artists represent the city’s transformation into a cultural refuge. The line “For Akhmatova, the house stands wide open” symbolically expresses Tashkent’s hospitality and tolerance.

In the final part of the poem, the kindness of the Uzbek people is emphasized: “The kind Uzbek strokes your head.” This line serves as the ideological conclusion of the entire poem, showing that during the war Tashkent was not only a shelter, but also a spiritual haven. For the poet, Tashkent is a place where humanity was preserved — a symbol of compassion and hope.

CONCLUSION

In conclusion, the poem “Tashkent. 1943” portrays wartime Tashkent not as a historical document, but through the prism of the human soul. The image of the city, human destiny, and interethnic compassion harmoniously unite in the work, inviting the reader to deep reflection. This poem artistically depicts Tashkent as a symbol of humanity during the war years. Although the poet himself belonged to the Russian nation, he was born and raised in this homeland; therefore, he loved and cherished it, praising Uzbekistan in his poetry. In his heart, like other Uzbek writers and poets, there surged devotion to his people, compassion, and a deep sense of empathy. This demonstrates how caring and tolerant our people are.

REFERENCES:

1. www.ziyouz.com. Alexander Faynberg. “Ode to a Draft.” Tashkent: “Adabiyot,” 2021.

2. https://bu.ziyouz.com. Alexander Faynberg (1939–2009).

3. https://uz.wikipedia.org. Alexander Faynberg.

TILSHUNOSLIKDA GENDER STEREOTIPLARINING O‘RGANILISHI

Alimbayeva Guljamol Sadaddinovna

Nukus DPI magistranti

E-mail: alimbaevaguljamal@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada tilshunoslikda gender tadqiqotlarining maydonga kelishi, jins, gender tushunchalarining mohiyati va unga bo‘lgan munosab, xususan, bu hodisa zamonaviy lingvistikaning sotsiolingvistika bo‘limining ajralmas bir bo‘lgan gender tilshunoslikning asosiy tadqiqot obyekti ekanligi bayon qilinadi. Shuningdek, olib borilgan ishlarda jinsning biologik xususiyatdan ijtimoiy-psixologik xususiyatga aylanishi, umuman, gender tushunchasi va termining tilshunoslikda paydo bo‘lish jarayoni haqida mulohazalar bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *gender, gender xususiyatlar, ijtimoiy-psixologik tahlil, erkak va ayollar nutqi.*

Аннотация: *В статье рассматривается возникновение гендерных исследований в лингвистике, сущность понятий пола, гендера и отношение к ним, в частности, это явление является основным объектом исследования гендерной лингвистики, которая является неотъемлемой частью социолингвистического раздела современной лингвистики. Также в проведенных работах высказаны мнения о процессе преобразования пола из биологической характеристики в социально-психологическую, в целом о понятии гендера и терминологии в лингвистике.*

Ключевые слова*: гендер, гендерные особенности, социально-психологический анализ, мужская и женская речь.*

Annotation: *The article examines the emergence of gender studies in linguistics, the essence of the concepts of gender and gender, and the relationship to them; specifically, this phenomenon is the primary object of study for gender linguistics, which is an integral part of the sociolinguistic branch of modern linguistics. Additionally, the conducted works express opinions on the process of gender transformation from a biological characteristic into a socio-psychological one, and in general, on the concept of gender and terminology in linguistics.*

Key words: *gender, gender characteristics, socio-psychological analysis, male and female speech.*

KIRISH

Gender tushunchasiga ta’rif berishda munozarali masalalardan biri uni ijtimoiy yoki psixologik tushuncha deb hisoblash masalasi ekanligi bilan birga, ushbu konsepsiyaning ko‘p qirrali xususiyati ham ijtimoiy, ham psixologik jihatni o‘zida birlashtirganidadir. Shu sababli ham, genderolingvistika masalalari bilan qiziqish G‘arb-u Sharq olimlarining diqqatini tortganligi qator tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. Mazkur masala o‘tgan asrning 70-yillarida feministik harakat va feministik nazariyaning rivojli tufayli keng tarqala boshlagan. Aslida, gender tushunchasi ijtimoiy psixologiyaning bir yo‘nalishidir. Ammo erkaklik va ayollik inson vujudining biologik jinsi bo‘lsa, gender ijtimoiy jins sifatida erkak va ayolning hayotdagi roli, mavqeyi, tili va haq-huquqlari yig‘indisidir. Darhaqiqat, gender bu - jamiyat tomonidan modellashtirilgan va himoya qilinib qo‘llab-quvvatlanadigan erkak va ayolning xatti-harakatlari, turmush va tafakkur tarzi hamda ularning ijtimoiylashuv jarayonidagi shaxs o‘laroq egallagan roli va munosabatlari tizimidir.

ASOSIY QISM

G‘arbda olib borilgan gender tadqiqotlari rivojida shartli uch bosqichni ajratib ko‘rsatish mumkin. Ilk bosqich (o‘tgan asrning 70-yillari) G‘arb davlatlarida feministik harakat kurtaklari liberal orientatsiyasining jadal rivojlanishi bilan bog‘liq dastlabki ilmiy ishlar paydo bo‘lishida kuzatilgan. Mazkur liberal feminizm tarafdorlari mavjud qonunchilik, huquqiy hujjatlari hamda siyosiy qarashlar va yechimlardagi gender neytrallik jihatlarini hisobga olib, jinslar o‘xshashligi to‘g‘risidagidagi fikrlarni o‘rganish hamda o‘zida aks qilish g‘oyalarini ilgari suradilar. Bu davrda ijtimoiy-psixologiya ilmlarida struktural- funksionalizm nazariyasi ustunlik qilib, unga ko‘ra, jinslar o‘rasidagi munosabatlar gender rollari tushunchasi bilan aniqlandi. Oila timsolida nazar tashlansa, oilaviy vazifalar ajratilishi kerak: ya’ni ayol ichki muvozanatni o‘rnatish vazifani bajaradi, erkaklarga esa, oila va boshqa ijtimoiy tuzilmalar

o‘rtasida instrumental, ya’ni munosabatlarni tartibga solish vazifalari yuklanadi. Gender tadqiqotlarining ikkinchi bosqich rivoji 1980-yillarning 1-yarmiga to‘g‘ri keladi. Bu davrda radikal feminizm kengroq tarqala boshladi. Agar liberal feminizm „o‘xshashlik“ dilemmasi (ikki xil qiyin vaziyat)da rivojlanib, gender muammolarini mushtarak-o‘xshashlik, bir xillik orqali hal qilgan bo‘lsa, radikal feminizm nazariyasi va amaliyoti esa, erkak va ayol o‘rasidagi farqlarga asoslanib harakat qilgan. Radikal feminizm mafkurasidagi asosiy urg‘u ayollarga nisbatan nohaqlik, kamsitish va zulmga qaratilgan. Xotin-qizlarga jamiyatda dastlab ojiza-zaif toifa sifatida qarash, ularning erkaklarga nisbatan past mavqega ega bo‘lishlari kabi tanqidiy klassik psixoanaliz qonuniyatlari va biologik xususiyatlari bilan izohlanardi. Gender tadqiqotlari rivojidagi 3-bosqichning boshlanishi o‘tgan asr 80-yillarining ikkinchi yarmiiga to‘g‘ri kelib, bu davrning o‘ziga xosligi feministik harakat yo‘nalishlarining ko‘pligi bilan tavsiflanadi. Masalan, rangli feminizm, postmodern, gumanistik, ekzistensial madaniy feminizm va boshqalarni ko‘rsatish mumkin

Jahon tilshunoslari “gender” tushunchasi ijtimoiy-gumanitar sohalarning boshqa fanlarida ham bo‘lganidek tilshunoslikda ham tadqiqot obyektga aylanganini ta’kidlaydilar. Mazakur jarayondagi dastlabki ishlardan biri roman-german tillari asosida yaratilgan. Bu J.Lakoffning “Ayollar tili va o‘rni” asari bo‘lib, ishda “ayol tili” termini birinchi marta qo‘llangan. Ish tilning androsentrik tuzilishi va tilda takrorlangan dunyo hamjamiyatidagi ayol timsolining pastligini tasdiqladi. Gender ijtimoiy konsepsiyasining maydonga kelishi antropolog olimlar Gyle Rabin, Joan Scott, Monik Wittig va boshqalarga tegishli. Mazkur yondashuv gender xulq-atvori shakllanishi hamda ongda u haqidagi g‘oyalarning qurilishi ko‘plab omillarga: tarbiya, mehnat taqsimoti, ijtimoiy va hokimiyat institutlari bilan bog‘liq degan postulatga asoslanadi.

Bu bosqichda gender tadqiqotlari shakllanishi va ularning rus zaminidagi rivoji haqida ikki xil nuqtayi nazar mavjud. Xususan, Pushkareva Rossiyada gendershunoslik shakllanishi dastlabki bosqichida qiyinchiliklarni boshidan kechirganligini ta’kidlaydi va jamoatchilik bilimi maxsus paradigmasiga

aylanganligi hamda tilshunoslikdan boshqa deyarli barcha sohalarda ko‘rib chiqilishiga ishonch bildiradi. Shuningdek, S.A.Ushakin “gender” tushunchasining gumanitar fanlarda inkor etilishiga ishora qiladi, uning fikricha, “begonaligi” g‘arbshunoslik terminologiyasidan ekstrapolyatsiya (noma’lum holatni taxmin qilish) qilinganligi bilan bog‘liq.

Gender tushunchasiga ta’rif berishda munozarali masalalardan biri uni ijtimoiy yoki psixologik tushuncha deb hisoblash masalasi ekanligi bilan birga, ushbu konsepsiyaning ko‘p qirrali xususiyati ham ijtimoiy, ham psixologik jihatni o‘zida birlashtirganidadir. Kirilinaning so‘zlariga ko‘ra, eng umumiy ma’noda tilshunoslikda jinsni o‘rganish muammolarning ikki guruhiga taalluqlidir: 1. Til va unda jinsning aks etishi. Ushbu yondashuvning maqsadi turli jinsdagi odamlarning mavjudligi tilda qanday namoyon bo‘lishini (birinchi navbatda nominativ tizim, leksika, sintaksis, gender kategoriyasi va boshqalar tekshiriladi), erkaklarga qanday baholar berilishini tasvirlash; ayollar qaysi semantik sohalarda eng sezilarli aniq ifodalanganini tushuntirishdan iborat. 2. Erkaklar va ayollarning nutqi, kommunikativ xulq-atvori, bu yerda tipik strategiya va taktikalar, leksika birliklarining jinsga xos tanlovi, muloqotda muvaffaqiyatga erishish yo‘llari, lug‘at,
sintaktik tuzilmalarni tanlashda afzalliklar va boshqalar, farqlanadi – ya’ni erkak va ayol nutqining o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanadi [Kirilina: 2002, 44].

V.Labov o‘z tadqiqotida ijtimoiy mavqe, millat, jins, yosh va atrof-muhit omillarining ta’sirini o‘rgangan. Mazkur ish juda muhim bo‘lib, chunki unda respondentlar jinsi, yoshi, ijtimoiy mavqeyi bo‘yicha sinchkovlik bilan tanlangan o‘rta sinf vakillari, oddiy shahar aholisi olingan. Har bir respondentning nutqi turli vaziyatlarda, rasmiydan norasmiygacha, bir vaqtning o‘zida bir necha omillar - lingvistik, sotsiologik va situatsion nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Bu tadqiqot ishi jinsning nutqqa ta’sir etuvchi omillardan biri degan xulosaning ilmiy e’tirofini namoyon qilgan. [Labov:1971. 187]

Taniqli tilshunos Gulxumor Yusupova gender tushunchasi O‘zbekistonda yangi tushuncha hisoblanishini ta’kidlab, yurtimizda ham bu borada salmoqli

ishlar olib borilganligini ta’kidlaydi. Xususan, G.A. Matkarimovaning 2002-yilda yozilgan “Xalqaro va milliy huquqda ayollarning gender va reproduktiv huquqlari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi gender tadqiqotlarining ilk namunasi ekanligini, keyininchalik M.M. Tilavovaning “O‘quvchilarda gender tenglik va farqlar asosida umummehnat ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari (boshlang‘ich sinf mehnat darslari misolida)” nomzodlik dissertatsiyasi, o‘zbek tilshunosligida ilk bor genderning o‘rganilishi 2011-yil A.A. Morozovaning “Лингвокогнитивное содержание гендерных стереоипов женственности и мужественности (на материале испанского языка)” mavzusidagi ishi va G.I. Ergashevaning “Ingliz va o‘zbek tillari frazeologizm va paremiyalarida gender aspektining qiyosiy-tipologik tadqiqi” mavzusidagi nomzodlik ishi kabilarni sanab o‘tadi. Albatta, bu kabi ishlar gender tilshunosligining yangi qirralarini ochib berishga qaratilganligi bilan qimmatlidir.

XULOSA

Bugungi kunda gender xususiyatlarini maqom, ijtimoiy guruh, ta’lim darajasi, vaziyat konteksti va boshqalar bilan birgalikda, shuningdek, jamiyatdagi o‘zgaruvchan vaziyatni hisobga olgan holda ko‘rib chiqish kerak, degan ko‘zqarash ilgari surilmoqda. Turli jins guruhi vakillari nutqidagi farqlar erkak psixixologiyasi ayol psixikasidan farq qilishi, ya’ni har xil jinsdagilarning dunyoni turlicha idrok qilishi va shunga mos ravishda ifodalashi bilan izohlanadi. Erkaklar ham, ayollar ham o‘z tajribalariga tayanib, u yoki bu vaziyatni baholaydilar. Binobarin, erkaklar va ayollar nutqini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ular orasida gapirish va yozishda farq bor albatta. Jinsning tilga ta’sirini o‘rganish uchun gender xususiyatlarini maqom, ijtimoiy guruh, ta’lim darajasi, vaziyat konteksti va boshqalar bilan birgalikda, shuningdek, jamiyatdagi o‘zgaruvchan vaziyatni hisobga olgan holda ko‘rib chiqish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Кирилина А.В. Гендерные исследования в отечественной лингвистике: проблемы, связанные с бурным развитием // Гендер: язык, культура, коммуникация. – М., 2002. С.42.

2. Labov V. Tilning o‘zgarishi // Carrol E. Reed (Ed.). Til o‘rganish. Ingliz o‘qituvchilarining milliy kengashi. Nyu-York. 1971. P. 187-221.

3.Гулямова Ш. Гендер тушунчаси ва унинг лингвистикада тутган ўрни// Бухоро давлат университети илмий ахбороти. -2019. - № 2 (74). - В. 107–114.

4. Зиновьева Е. С. Языковые механизмы конструирования маскулинности и феминности в дискурсе глянцевых журналов (на материале английского и русского языков). - Ярославль, 2018. - 235 с.

5.Yusupova G. Tilshunoslikda gender tadqiqining nazariy asoslari //O‘zbekistonda xorijiy tillar. 2023. № 2 (49). B. 18-37

MUSTAQILLIK YILLARIDA JANUBIY XORAZM HUDUDINING ARXEOLOGIK JIHATDAN O‘RGANILISHI

Atadjanova Dilnoza Ganiyevna

Abu Rayhon Beruniy nomidagai

Urganch davlat universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Maqolada mustaqillik yillarida janubiy Xorazm hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning tarixi haqida ma’lumot berilgan. Xorazm hududining janubiy qismida joylashgan arxeologik yodgorliklar bo‘yicha tadqiqotlarning natijalari to‘g‘risida masalalar bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Janubiy Xorazm, Xumbuztepa, Toshqal’a, Elxaras, Katqal’a, fortifikatsiya.*

Аннотация: *В статье представлена информация об истории археологических исследований, проведенных на территории южного Хорезма в годы независимости. Изложены вопросы о результатах исследований археологических памятников, расположенных в южной части Хорезмской области.*

Ключевые слова: *Южный Хорезм, Хумбузтепа, Ташкала, Эльхарас, Каткала, фортификация.*

Abstract: *This article presents information on the history of archaeological research conducted in the territory of southern Khorezm during the years of independence. Issues regarding the results of research on archaeological sites located in the southern part of the Khorezm region are presented.*

Keywords: *South Khorezm, Khumbuztepa, Tashkala, Elkharas, Katkala, fortification.*

KIRISH

Mustaqillik yillarida Janubiy Xorazm hududida olib borilgan tadqiqotlarda mavjud ma’lumotlar o‘z tasdig‘ini topgan holda, ular yangicha yondoshuv asosida chuqur tahlil qilingan va tabiiy fanlarning yangi yutuqlaridan unumli foydalanish orqali tarixining noma’lum tomonlari yoritilgan.

XX asrning oxiri - XXI asrning boshlarida Xumbuztepa yodgorligida Rossiyaning Sharq xalqlari san'ati Davlat muzeyi ilmiy xodimi, arxeolog S.B.Bolelov tomonidan qayta arxeologik tadqiqot ishlari olib borilgan [1][2]. Bu davrda olim Xumbuztepadagi arxeologik tadqiqotni davom qildirib, uning davriy sanasini qadimiylashtirgan. Yodgorlikka mil.avv.VII asrning oxiri – mil.avv.VI asrning birinchi yarmi asos solingan degan xulosani bergan. S.R.Bolelov bu yerdan yerto'la, chayla, ikki yarusli xumdon va uning yonida joylashgan ustaxonani ochgan. S.R.Bolelov Xumbuztepa yodgorligining uchta rivojlanish davrini ko'rsatgan. Birinchi davrini XT–I deb ajratgan va uning rivojlanishini ikkita bosqichga: XT–Ia va XT–Ib bosqichlariga ajratgan. Xumbuztepaning ikkinchi davrida XT-II da, birinchi bosqichda qurilgan yerto'la va xumdonlar ehtiyotkorlik bilan ko'milgan va ularning ustidan yangi bino barpo etilgan. Xumdon esa, qayta ta'mirlangan [3]. Xumbuztepadan topilgan moddiy arxeologik buyumlariga o'xshaydigan buyumlar, yodgorlikdan undan uch kilometr pastda joylashgan Toshsaqadan, uning janubidagi tarqoq manzilgoh Qoratoshdan va Xazorasp shahridan ham topilgan.

Xumbuztepada arxeologik tadqiqot ishlari XXI asrning boshlarida Ma'mun akademiyasining Janubiy Xorazm ekspeditsiyasi a'zolari tomonidan davom qildirilgan. Bu davrda S.R.Baratov Xumbuztepaning eng pastki madaniy qatlamidan ibodatxonaning izlarini, daxma va kulolchilik ustaxonasining izlarini aniqlagan [4].

Xorazm viloyatining Xazorasp tumani hududidan, ya'ni Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi Ucho'choq tepaligining janubiy g'arbiy tomonidan Toshqal'ada (Doshqal'a) yodgorligi 1939-yilda topilgan. Dastlab tadqiqotchilar uning tarhini aniqlashgan. U yerdan topilgan moddiy buyumlar, asosan, sopol idishlarning bo'laklari tadqiq etilgan [5]. 1966-yilda Toshqal'ada Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi a'zolari tomonidan ikkinchi marta arxeologik tadqiqot ishlari olib borilgan. Bunda ham tadqiqot ishi keng miqyosda olib borilmagan. 1974-yilda statsionar, ya'ni keng miqyosda tadqiqot ishlari olib borilgan. Bu davrda ham Toshqal'aning mil. avv. IV asrdan milodiy VII asrgacha faoliyat

olib borganligi asoslangan [6]. Yodgorlikda XXI asrning boshlarida ham arxeologik tadqiqot ishlarini olib borilgan bo‘lib, bu davrda S.R.Baratov va U.Raxmonovlar tomonidan o‘tkazilgan [7]. Toshqal’aning tarhi to‘g‘rito‘rtburchak shaklida bo‘lib, 4,5 metr balandlikda qurilgan. Tepalikning uzunligi 90x70 metr bo‘lganligi uchun, qal’aning tarhi o‘ziga xos tarzda bo‘lgan. Mustahkam mudofaa devoriga ega, shahar darvozasi o‘ziga xos fortifikatsiya asosida qurilgan. Tadqiqotlar jarayonida qal’aning ichki qismidan aholining xo‘jalik faoliyatiga oid moddiy manbalar topilmaganligi sababli, S.R.Baratov uni ibodatxona bo‘lgan bo‘lishi mumkin degan g‘oyani ilgari surgan.

1998-1999 yillarda Xorazm Ma’mun Akademiyasi Arxeologiya, tarix va falsafa bo‘limining arxeologiya guruhi xodimlari antik davrga oid Qalajiqda tadqiqot ishlarini olib borishdi. Harbiy qal’a sifatida bunyod etilgan Qalajiq mustahkam istehkomga ega bo‘lgan, bu esa uzoq muddatli mudofaaga mo‘ljallanganligini ko‘rsatadi [8].

2001 yilda L.M.Levina 1973-1975 yillarda Elxarasda olib borilgan tadqiqot ishlarining o‘rganilish darajasini yoritgan [9]. Yodgorlik mil.avv. V asrning oxiri -IV asr boshlarida qurilgan. Bu yerdan loydan yasalgan haykallar topilgan.

Chap qirg‘oq Katqal’adagi dastlabki arxeologik tadqiqot ishlari faqat kuzatuv-qidiruv ishlari bo‘lib, bu davrda yodgorlikning xronologiyasi va rivojlanish bosqichlari aniqlangan. Bu davrda shaharga mil.avv. IV – III asrlarda asos solingan bo‘lib, milodiy VII – VIII asrlarga, IX – XI asrlarga va XVII-XIX asrlarga oid madaniy qatlamlari aniqlangan va topografik xaritasi ishlangan [10].

Mustaqillik yillarida dastlabki tadqiqot ishlari 1994 yilda Q.Sobirov va R.Abdirimovlar tomonidan olib borilgan. Bu davrda qal’a g‘arbiy devorining burjining hajmi, dastlabki qurilish bosqichida devorning qalinligi 5,5 metr bo‘lganligi va fortifikatsiyasi aniqlanib, mudofaa devorning qurilish uslubi boshqa qal’alar mudofaa elementlari bilan qiyosiy tahlil qilingan. Shu bilan birga qal’a mil.avv. IV asrda bunyod etilganligi yana bir asoslangan [11].

2002–2011-yillarda va 2021–2023-yillarda ham yodgorliklar arxeologik tadqiqot ishlari olib borilgan. Bu davrda qal’aning markaziy va g‘arbiy qismi

keng tadqiq qilinib, antik davrning ikkinchi bosqichiga oid platforma, turar joy qoldiqlari va arxaik davrga oid monumental inshoot qoldiqlari topilgan. Baxrom 38 bet. Ilk antik davrga oid mudofaa devori tadqiq qilingan. Shaharning tuzilishi, xronologiyasiga oid yangi manbalar aniqlangan. Shaharga mil.avv. VI asrda asos solinganligi aniqlab berildi.

Xorazm arxeologik etnografik ekspeditsiyasi a'zolari tomonidan Amudaryoning o'rta oqimi o'rganilganda bu hudud ikkita tarixiy -madaniy hududga ajratilgan. Bunga Zemm va Amul hududlari bo'lib, Zemm tarixiy madaniy hududga Kerka va Mirzaobod hududidagi yodgorliklar kirgan. Amul hududiga Chorjo'y va Qorabekaul hududlaridagi yodgorliklar kirgan.

Burxanov tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida bu hudud 4 ta yirik tarixiy madaniy vohaga ajratilgan [12]. Janubiy hududda Kerka va Mirzabek vohalari va markaziy hududda joylashgan Qorabekaul va Chorjo'y vohalariga ajratilgan bo'lib, ular bir-biridan cho'l bilan ajratilgan.

XULOSA

Mustaqillik yillarida Janubiy Xorazm hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, mazkur mintaqa qadimgi davrlardan boshlab yuksak darajada rivojlangan tarixiy-madaniy hududlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ilmiy yondashuvlar va tabiiy fanlar yutuqlarining tatbiq etilishi orqali ilgari mavjud bo'lgan qarashlar aniqlashtirildi va yangi ilmiy xulosalar bilan boyitildi.

Xumbuztepa, Toshqal'a, Qalajiq, Elxaras va Katqal'a kabi yodgorliklarda olib borilgan tadqiqotlar hududda miloddan avvalgi davrlardan boshlab uzluksiz madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonlari kechganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, mazkur yodgorliklarda aniqlangan me'moriy inshootlar, hunarmandchilik markazlari va ibodatxona qoldiqlari jamiyatning murakkab tuzilishga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Shuningdek, Janubiy Xorazm hududining tarixiy-madaniy jihatdan alohida vohalarga bo'linishi va ular o'rtasidagi hududiy farqlarni aniqlash, mintaqaning ichki rivojlanish xususiyatlarini chuqurroq tushunishga imkon

berdi. Tadqiqotlar natijasida ayrim yodgorliklarning davriy sanasi qadimiylashtirilib, ularning tarixiy ahamiyati yanada aniqlashtirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Болелов С.Б. К вопросу о южных и юго-западных связях Хорезма во второй половине I тыс. до н.э. по археологическим данным (древнехорезмийский археологический комплекс) // Центральная Азия. Источники. История. Культура. – М., 2005. – С. 215–234.
2. Болелов С.Б. Хорезмийское государство // История государственности Узбекистана. Т. I. – Ташкент: Узбекистан, 2009. – С. 193–210.
3. Болелов С.Б. К вопросу о формировании ранний земледельческой культуры в низовьях Амударьи. //Scripta antiqua. Вопросы древней истории, филологии, искусства и материальной культуры. Альманах. Том.5. –М.: Собрание, 2016. –С. 29,32.
4. Баратов С.Р., Матрасулов Ш. Археологические роботы в Южном Хорезме // Археологические исследования в Узбекистане, 2002 год. – Ташкент. 2003. Вып. 4. – С. 38–43.
5. Вактурская Н.Н., Воробьева М.Г. Хроника работ Хорезмской экспедиции АН СССР….1952. С. 618-619.
6. Итина М.А. Археологические памятники на древних торговых путях вдоль берегов Амударьи..// Древности Верхнего Хорезма.//ТХАЭЭ. Т.XVI.- М.: 1991. – С. 25-26.
7. Баратов С.П, Рахмонов У. Храмовый комплекс античного и раннесредневекового времени на юге Хорезма-Таш-кала 2..// Традиции востока и запада в античной культуре Средней Азии (Сборник статей в честь Поля Бернара).- Т.: 2010. С. 102-106.
8. Собиров Қ. Қалажиқ: [Хоразм вилояти Боғот тумани ҳудудида жойлашган милоддан аввалги IV асрда қурилган Қалажиқ қалъаси ҳақида] // Фан ва турмуш.-2000. №5. 13-14 б.
9. Левина Л.М. Древнехорезмкий памятник – Елхарас. -М.: Институт этнографии и антропологии РАН. 2001. -85 с.

10. Чунихин Д. Отчёт по археологическим исследованиям городища Кят-кала в Шаватском районе Хорезмской области в 1987 г. -Ташкент. 1988. -С.46.

11. Собиров Қ. Хорезмийская фортификация на фоне городища Каткала //ККОАНУзНукус, 2006. № 1.

12. Бурханов А. А. Города и поселения Дарганского оазиса левобережья Амударьи в системе древних и средневеко вых торгово-караванных путей (по материалам археологических исследований в Лебапском велаяте Туркмени стана) // Вестн. Новосиб. гос. ун-та. Серия: История, филология. 2015. Т. 14, вып. 7: Археология и этнография. С. 172–183. (174)

BOLALAR ADIBLARINI O‘RGANISHNING AHAMIYATI

Samarqand davlat universitetuti Urgut filiali
Pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrasi o‘qituvchisi
Axmedova Mahliyo Ruziboy qizi

Annotatsiya: *O‘zbek bolalar adabiyoti, asrlar davomida yosh avlod tarbiyasida muhim rol o‘ynab kelgan, xalqimizning ma’naviy hayotida chuqur ildiz otgan sohalardan biridir. Har bir xalqning kelajagi — uning yoshlariga, ularning ongi va dunyoqarashiga bog‘liq. Shu jihatdan, bolalarga mo‘ljallangan badiiy asarlar, ular orqali tarbiyaviy g‘oyalarni singdirish, ma’naviy qadriyatlarni yetkazish dastlabki qadamlardan biri hisoblanadi. Bu asarlar orqali bolalar dastlab dunyoni, jamiyatni, insoniy fazilatlarni anglay boshlaydi, o‘z qobiliyat va iste’dodlarini aniqlashga kirishadilar.*

Kalit so‘zlar: *bolalar adabiyoti, adiblar, tarbiya, oila, Vatan, ma’naviyat, estetik tarbiya, kitob, bolalar, yoshlar, ma’rifat, kitobxonlik.*

Annotation: *Uzbek children’s literature has played an important role in educating the younger generation for centuries and has become one of the deeply rooted fields in the spiritual life of our people. The future of any nation depends on its youth, their consciousness, and worldview. In this regard, literary works intended for children serve as one of the first steps in instilling educational ideas and conveying spiritual values. Through such works, children begin to understand the world, society, and human virtues, and start to discover their own abilities and talents.*

Keywords: *children’s literature, writers, education, family, homeland, spirituality, aesthetic education, book, children, youth, enlightenment, reading culture*

KIRISH

Bolalar adabiyotining ahamiyati juda keng qamrovli. Uning asosiy maqsadi nafaqat bolalarning kitobxonlik malakalarini oshirish, balki, eng avvalo, ularning ichki dunyosini boyitish, orzu-umidlarini kengaytirish, ijtimoiy hayotga moslashishlariga yordam berish, to‘g‘ri va sog‘lom shaxs bo‘lib shakllanishlariga xizmat qilishdan iborat. Adabiyot vasitasida bola o‘zini, mavjud muammolarni tanib oladi, ular uchun to‘g‘ri yo‘l va yechim topadi,

jamiyatda o‘z o‘rnini anglaydi. O‘zbek bolalar adabiyoti vakillari — adiblar, shoirlar va yozuvchilar — har bir asar orqali bolalarning qalbida ezgulik urug‘ini qadash, Vatanga, ota-onaga mehr, do‘stlik, vatanparvarlik, halollik, samimiyat kabi yuksak insoniy fazilatlarni singdirishga harakat qiladilar. Ular bolalar dunyosini chuqur o‘rgangan, ularning ruhiyati, orzu va havaslarini, hayotga, atrofdagilarga bo‘lgan munosabatini, ichki kurashlarini, holatlarini tushungan holda ijod qiladilar. Bunday asarlar o‘qishli bo‘ladi, bolani ortidan ergashtira oladi, unga tarbiya, ma’naviyat, e’tiqod, ilm va ma’rifat beradi [1,45-b].

O‘zbek adabiyotining bolalarga yo‘naltirilgan yo‘nalishida Muhammad To‘xtaboyev, Hadiya Sodikova, G‘afur G‘ulom, Xudoyberdi To‘xtaboyev, Xurshid Davron, Fayzulla Xo‘jayev, Tohir Malik, Tog‘ay Murod va yana ko‘plab yozuvchilar o‘zining yorqin asarlari bilan ajralib turadi. Ularning har biri bolalar hayotiga mos obrazlar, holatlarni aks ettirib, yosh kitobxon dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi. Ular yozgan ertaklar, hikoyalar, doston va povestlar bolalarni olam-olam hayrat, quvonch va o‘y-fikrga chorlasa, ba’zan yig‘latadi, ba’zan kuldiradi, ammo har doim o‘ylantiradi, to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi. Bolalar adabiyotini o‘rganish, uni chuqur tahlil qilish, bu sohada yetarli bilim va malaka orttirish har bir o‘qituvchi, har bir ota-ona uchun ham muhim sanaladi. Yosh avlod vakillariga kitob tanlash, ularning kitobxonlik faoliyatini nazorat qilish, asar mazmuni ustida birga fikrlashish, bolada o‘qishga qiziqish uyg‘otish, bularning barchasi ta’lim va tarbiya tizimining ajralmas bo‘lagidir. Zamonaviy dunyoda axborot oqimi kuchli, rang-barang bo‘layotgan bir paytda, bolalarning vijdonini, dunyoqarashini, boshqalar bilan munosabatini yuksaltirishda badiiy asarlarning o‘rni beqiyosdir. Kitoblarni o‘qish orqali bola adabiy nutq, so‘z boyligi, fikr oqizilishi, mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi, yangi ma’lumot va bilimlarni egallaydi. Shuningdek, bolalar adiblarini o‘rganish, ularning asarlari bilan tanishish, bolalarning didini, estetik ko‘zqarashini shakllantirish uchun ham xizmat qiladi. Yaxshi yozilgan badiiy asarlar bola qalbida san’at, adabiyot va madaniyatga chuqur muhabbat uyg‘otadi. Bu muhabbat esa kelajakda ularning dunyoni go‘zal ko‘ra olishi, har

qanday sohada o‘z yo‘lini topilishi uchun zamin yarata oladi. O‘zbek bolalar adabiyotida real hayot, ijtimoiy muammolar, ma’naviy qadriyatlar, Bardavom urf-odatlar va milliy an’analar yuksak badiiy did, rang-barang ifoda vositalari vositasida aks ettirilgan. Tariximizda e’tiborli adiblar tomonidan bolalar uchun yozilgan asarlar, ertak, doston, she’r va hikoyalar yoshlarni yurtga muhabbat, tabiatni asrash, buyuk ajdodlarga sadoqat, odob-axloq, halollik, istibdodga qarshi kurashish, bilim olish, orzu-umidga yetishish kabi g‘oyalarga yetaklaydi.

Bolalar adabiyotini o‘rganish, bolalarni kuchli shaxs qilib tarbiyalashning eng samarali yo‘llaridan biri hisoblanadi. Asarlarni o‘rganish orqali bola o‘z his-tuyg‘ularini to‘g‘ri ifoda etishga, boshqalarga xayrixoh bo‘lishga, jamiyat qoidalariga rioya qilish, halollik, samimiylikni qadrlashga o‘rganadi. Bolaning tasavvuridagi hayot, uning ertangi orzulariga bog‘liq. Adabiyot bolalar orzularini yuksaltiradi. Yangi manzillar sari undaydi, hayotni, o‘zini, boshqalarni qadrlashga o‘rgatadi. Bola o‘zi uchun, boshlari uchun muhim bo‘lgan qadriyat va fazilatlarni kitobdan, adabiy asardan oladi. O‘zbek adabiyotida bolalar uchun qayg‘urgan, ularning hayoti, niyati, orzu-umidlari, qiziqishlari va muammolarini yoritgan yozuvchilar har bir asari orqali bolaning ichki dunyosiga kirib boradi, uni o‘z orzu va umidlari sari yetaklaydi. Asarlar nafaqat bolani tarbiyalaydi, balki ularga hayotning, jamiyatning, olamning mazmun-mohiyatini ochib beradi, unda iste’dod, iqtidor urug‘ini qadaydi. Bolalar adiblarini o‘rganish orqali yoshlar ulkan hayot saboqlarini oladilar. Asarlarda tasvirlangan oila qadri, ota-onaga ehtirom, insonlarga xayrixohlik, milliy g‘urur va vatanparvarlik hislari, muruvvat va oqibatlilik, bag‘rikenglik yoshlarning ruhiyatiga boy ma’no bag‘ishlaydi. Har bir satr orqali bola o‘z hayotini, orzu-umidini, maqsadini aniq belgilashga harakat qiladi. G‘ayrat, tashabbus, mehnatsevarlik, halollik, to‘g‘rilik singari fazilatlar bolalar adabiyotida asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida ko‘zga tashlanadi. Ushbu adabiy meros bolalarda mustaqil fikrlash, yaxshi va yomonni farqlash, sof yurak va beg‘ubor orzu-umidlar uchun kurashish, hayotda qat’iylik va matonat ko‘rsatish, kuchli iroda va olijanoblik fazilatlarini rivojlantirishda benihoya muhim rol

o‘ynaydi. O‘ziga xos milliy qadriyatlarimizni, xalq og‘zaki ijodiyoti asosidagi ibratli hikoyalar, ertaklar, doston va rivoyatlar bolalarning dunyo haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi, ruhiy-axloqiy tarbiyaga asos soladi [2, 72-b].

Zamonaviy sharoitda, bolalarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun, bolalar adabyotini va ularning adiblarini har tomonlama chuqur o‘rganish, samarali metodlardan foydalanish, yangi pedagogik yondashuvlarni tatbiq qilish juda muhim. Kitobxonlikni rivojlantirishda maktab, oila va ijtimoiy muhit bir-biri bilan hamkorlikda harakat qilishi lozim. Bolalarga o‘qilishi lozim bo‘lgan kitoblarni tanlash, ular bilan muloqot qilish, muhokama qilish, asardan olingan xulosalarni hayotga tatbiq qilish bo‘yicha tartibli va rejalashtirilgan ishlar olib borish kerak. O‘zbek bolalar adabiyoti – bolalar ruhiyatiga eng yaqin, hayotiy muammolarga, orzu-umid, mehr-oqibat, insoniylikka yo‘naltirilgan asarlar majmuasidir. Unda xalqimizning milliy tarixi, madaniyati, qadriyatlari, hayotiy tajribasi aks etadi. Har bir asar, dastlabki satrlardanoq, bolalarning qalbida ularni yaxshilik, to‘g‘rilik, halollikka undaydi. Millionlab bolalar mana shu adabiy asarlar orqali yetuk inson bo‘lib kamol topmoqda.

Bolalar adabiyotini o‘rganish, respublikamizdagi har bir maktabda, kutubxonada, oila va jamiyatda doimiy e’tibor markazida bo‘lishi lozim. Zero, bolalar adabiyoti kelajagimiz egalari uchun axloqiy, ma’naviy, intellektual rivojning muhim zaminidir. Shu sabab, bolalar adabiyotini rivojlantirish, unga munosib e’tibor qaratish, adiblarning ijodini keng o‘rganish va yosh avlodga yetkazish, bu borada yangi asarlar yaratish va e’lon qilish, zamonaviy imkoniyatlardan foydalanish — bularning barchasi ta’lim, tarbiya va ma’naviy hayotimizning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qoladi. Bolalar uchun mo‘ljallangan asarlarni o‘rganish, ilg‘or adiblar ijodini chuqur tahlil qilish, yoshlarimizga mazmunli, milliy ruhda tarbiyaviy asarlarni yetkazish har bir pedagog, adabiyotshunos, ota-ona, kitobsevar yurtdoshimizning orzu-umidi, maqsadi, muqaddas burchi bo‘lib qolaveradi. Kitob — har bir bolaning eng yaqin do‘sti bo‘lmog‘i kerak. U bolaning qalbida orzu, umid, ishonch, farzandlik tuyg‘ulari uyg‘otadi, unda to‘g‘rilik, halollik, hamkorlik, yurtdoshlar bilan

totuvlik, jonkuyarlik, matonat, saxovat, mehr va shijoat singari insoniy fazilatlarni tarbiyalab boradi. Barchamizning oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri bolalar adabiyoti namoyondalari — adiblar, shoirlar, yozuvchilarning asarlarini doimiy o‘rganib borish, ularni bolalar ongiga singdirish, oila, maktab, jamiyatda kitobxonlik muhitini rivojlantirish, bolalarning bo‘sh vaqtini kitob o‘qish, adabiyot bilan tanishishga yo‘naltirish, bu orqali eng muhim maqsad — erkin fikrlovchi, ma’naviy boy, maqsadli, vatanparvar, halol va fidoyi yoshlarni tarbiyalashdir. O‘zbek bolalar adabiyoti doirasidagi ijodiy izlanishlar, yangi avlod vakillari uchun yozilayotgan asarlar, o‘z shakli va mazmuni bilan bolalarga yaqinligi, sodda va ravon tili, o‘ziga xos obrazlar, hayotiy voqealar bilan yoshlarda kitobga, ilm va ma’rifatga bo‘lgan ehtiyoj va ishtiyoqni kuchaytiradi. Natijada, mustaqil fikrlay oladigan, millat va Vatan taqdiriga befarq bo‘lmagan, baquvvat, kuchli, bilimli, ma’naviy boy shaxslar yetishib chiqadi [3, 95-b].

XULOSA

Bolalar adabiyoti va uning namoyondalarini o‘rganish, inson hayotida eng muhim, ajralmas, aziz qadriyatdir. U yosh avlodning tafakkuri, ma’naviy dunyosi shakllanishida, o‘ziga ishonchi va shaxs fazilatlarini rivojlantirishda, jamiyatda o‘z o‘rnini topishda asqotadigan bebaho manba vazifasini bajaradi. O‘zbek bolalar adabiyotini o‘rganish davlat va jamiyat darajasida hamisha e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Har bir yosh kitobxon, bolajon yuragiga kirib boradigan yaxshi asar — kelajak poydevoridir. Bu sohadagi adiblarning o‘lmas asarlari, yoshlarning hayotga, jamiyatga va insonlarga bo‘lgan munosabatini yaxshilashda, ularni ulug‘ orzular sari yetaklashda, har qadamda to‘g‘ri yo‘lni tanlashda ishonchli yo‘lboshchi bo‘lib xizmat qilaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva M. Bolalar adabiyotining zamonaviy tendensiyalari. // Pedagogika va psixologiya jurnali, 2022, №4, 45–52-betlar.

2. Rasulov A. Bolalar adabiyoti nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. 72-75-betlar

3. Xolmurodova N. Ma’naviyat va tarbiya jarayonida badiiy adabiyotning o‘rni. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019, 73–96-betlar.

4. Yo‘ldosheva D. Bolalar adabiyoti va yosh o‘quvchi psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020, 102–129-betlar.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATI VA O‘ZARO MULOQOT ODOBINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

O‘zbekiston respublikasi

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Daminova Dilbar Melimurodovna

Annotatsiya *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyati va muloqot odobini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlari tadqiq etiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning o‘zaro muloqot jarayonida yuzaga keladigan muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etishda oila va maktab hamkorligining ahamiyati yoritilgan. Maqolada o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash hamda nutqiy etiket qoidalarini o‘zlashtirishga doir samarali pedagogik tavsiyalar bayon etilgan bo‘lib, ular bolaning barkamol shaxs bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *nutq madaniyati, muloqot odobi, boshlang‘ich sinf, ijtimoiy-pedagogik asoslar, nutqiy etiket, muloqot madaniyati, shaxs rivojlanishi.*

Abstract *This article examines the socio-pedagogical mechanisms for developing speech culture and communication etiquette among primary school students. It analyzes the challenges arising during the interpersonal communication of young schoolchildren and highlights the significance of cooperation between family and school in overcoming these issues. The article provides effective pedagogical recommendations for ensuring students' social adaptation and mastering the rules of speech etiquette, all of which contribute to the development of a well-rounded and harmonious individual.*

Keywords: *speech culture, communication etiquette, primary school, socio-pedagogical foundations, speech etiquette, culture of communication, personality development.*

KIRISH

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida muloqot madaniyati nafaqat shaxsiy fazilat, balki ijtimoiy zaruriyatga aylanmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich

sinf davrida bolada muloqotga kirishish, o‘z fikrini boshqalarga tushuntirish va jamiyatda o‘z o‘rnini topish jarayoni faol kechadi. Nutq madaniyati - bu shunchaki to‘g‘ri so‘zlash emas, balki tinglovchiga nisbatan hurmat, so‘z tanlash mahorati va nutqiy vaziyatga moslashish qobiliyatidir.

ASOSIY QISM

Nutq madaniyati va muloqot odobining pedagogik ahamiyati boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirish, eng avvalo, ularning tildan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishni anglatadi. Pedagogik nuqtai nazardan, bu jarayon ikki yo‘nalishda amalga oshadi:

1.Lingvistik jihat- so‘zlarni talaffuz qilish qoidalari, so‘z boyligi va grammatik izchillik.

2.Etik jihat- muloqot jarayonida o‘zaro hurmat, muomala odobi va nutqiy etiket salomlashish, minnatdorchilik, xayrlashish,mehmon kutish qoidalari, jamoat joyda o`zini titish qoidalariga rioya qilish.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda taqlid qilish xususiyati kuchli bo‘lgani sababli, o‘qituvchining nutqi asosiy pedagogik vosita vazifasini o‘taydi. O‘qituvchi nutqi aniq, tushunarli va emotsional boy bo‘lishi o‘quvchida “namunaviy nutq” modelini shakllantiradi.

Muloqot odobini shakllantirishning ijtimoiy omillari o‘quvchi nutqi faqat maktabda emas, balki ma’lum bir ijtimoiy muhitda shakllanadi. Bunga quyidagilar kiradi:

- ✓ **Oila muhiti-** bola ilk muloqot ko‘nikmalarini oilada oladi. Agar oilada o‘zaro hurmat va adabiy til me’yorlarida so‘zlashish ustuvor bo‘lsa, maktabdagi pedagogik jarayon yanada samarali kechadi.
- ✓ **Tengdoshlar guruhi-** sinfdoshlar bilan muloqot jarayonida bola “ijtimoiy roller”ni o‘rganadi. Bu bosqichda nizolarni nutq orqali hal qilish, boshqalarni tinglash va o‘z fikrini madaniyatli tarzda bayon etish o‘rgatiladi.

✓ **Axborot maydoni-** televideniye, ijtimoiy tarmoqlar va multfilmlar o‘quvchi nutqiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Pedagogik vazifa - ushbu ta’sirlar orasidan ijobiylarini saralab olishga ko‘maklashishdir.

Nutq madaniyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari ma’lumki, nutq va tafakkur o‘zaro bog‘liq. O‘quvchilarda muloqot odobini tizimli shakllantirish uchun quyidagi pedagogik bosqichlarni amalga oshirish lozim:

✓ **Nutqiy vaziyatlarni yaratish-** darslarda o‘quvchilarni erkin muloqotga undaydigan "muammoli vaziyatlar" yaratish. Masalan: “Agar do‘stingiz sizdan xafa bo‘lsa, uni qanday so‘zlar bilan yupatgan bo‘lardingiz?”

✓ **Lug‘at ustida ishlash-** o‘quvchilar lug‘atidagi “qo‘pol” yoki “ko‘cha” so‘zlarini adabiy, ijobiy so‘zlar bilan almashtirish ko‘nikmasini hosil qilish.

✓ **Interfaol metodlar:** “Bumerang”, “Aqliy hujum” va “Rolli o‘yinlar” orqali bolani jamoada so‘zlashga, o‘zgalar fikrini bo‘lmasdan eshitishga o‘rgatish.

Muloqot odobini baholash mezonlari o‘quvchining muloqot madaniyati shakllanganligini quyidagi belgilar orqali aniqlash mumkin:

✓ Nutqiy etiket qoidalarini vaziyatga qarab to‘g‘ri qo‘llashi;

✓ Suhbatdoshining yoshi va ijtimoiy mavqeyini hisobga olishi;

✓ Nutqning aniqligi, mantiqiyligi va boyligi;

✓ Noverbal muloqot vositalaridan (imo-ishora, nigoh, tabassum) o‘rinli foydalanishi.

XULOSA

Asosiy qismda ta’kidlanganidek, nutq madaniyati faqat til o‘rgatish fani emas, balki ijtimoiy tarbiya mahsulidir. O‘qituvchi va ota-onaning maqsadli hamkorligi o‘quvchining jamiyatda o‘z so‘ziga ega, madaniyatli shaxs bo‘lib shakllanishini ta’minlaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirish murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayon bo‘lib, u o‘qituvchidan yuksak mahorat va sabr-toqatni talab qiladi. Bolaning muloqoti qanchalik odobli

va madaniyatli bo‘lsa, uning jamiyatdagi ijtimoiy integratsiyasi shunchalik muvaffaqiyatli kechadi. Mazkur jarayon nafaqat darslarda, balki maktabdan tashqari faoliyatda ham izchil davom ettirilishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ғуломов А., Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни. Ўқитувчилар учун методик кўлланма. – Т.: Ўқитувчи. 1996. 9-б.

2.Лернер Я. Дидактические основы методов обучения Текст. / И. Я. Лернер – М. : Педагогика, 1981. – 186 с.

3.Ҳусанбоева Қ. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари: пед. фан. док-ри дисс. автореф. –Т.: ТДПУ, 2006. – 262 б.

4.Shabbazova Dilfuza Ruziqulovna.ONA TILI O`QITISH METODIKASI. Toshkent”METODIST NASHRIYOTI”2023

5. T.Almamatov, Q.M.Yadgarov, Sh.Almamatov., O‘zbek tilini o‘qitishda innovatsion , pedagogik texnologiyalardan foydalanish (Metodik qo‘llanma).-2013.

6. Roziqova O. va boshqalar. Ona tili didaktikasi. T.: Yangiasr avlodi, 2005.

7. Daminova Dilbar Melimurodovna METHODOLOGY FOR DEVELOPING MATHEMATICAL LITERACY SKILLS IN PRIMARY CLASS STUDENTS. NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal . -October -2023, 2023-yil.88-92-bet

8.Daminova Dilbar Melimurodovna, & Muxtorova Lobar Abdimannabovna. ISSUES OF MATHEMATICAL LITERACY DEVELOPMENT IN WORLD SCIENCE. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 Vol. 11, Issue 03, March. (2023). -3-4-mart 2023, 2023-yil.307-311-betlar

9.Daminova Dilbar Melimurodovna, & Muxtorova Lobar Abdimannabovna .PEDAGOGPEDACOGICAL OPPORTUNITIES OF FORMING MATHEMATICAL LITERACY SKILLS OF PRIMARY SCHOOL PUPILS.

WEB OF SCINTIST: WEB OF SCINTER:INTERNATIONAL SCINTIFIC RESEARCH JOURNAL. -3.Mar..2023, 2023-yil.971-976-bet

10. Daminova Dilbar Melimurodovna. TOOLS FOR DEVELOPING MATHEMATICAL LITERACY SKILLS IN PRIMARY CLASS STUDENTS. World Bulletin of Social Sciences (WBSS) Available Online at: https://www.scholarexpress.net. -10 th . 2024.49-52-bet

11.Daminova Dilbar Melimurodovna ONA TILINI FANLARARO O`QITISHDA NUTQIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. INTER EDUGATION.CLOBAL STUDY. -2024.N4(1), B:122-128-bet

12**.** Daminova Dilbar Melimurodovna.Boshlang`ich ta`limda matematik savodxonlikni rivojlantirishning metodik tizimi. INTER EDUGATION.CLOBAL STUDY. -2024.N3(2) 41-49-betlar.

13. Daminova Dilbar Melimurodovna.Ona tilini fanlararo o`qitishda nutqiy faoliyatni rivoglantirish metodikasi.Til va adabiyotlar.uz 84-86-betlar

DIPLOMATIC CEREMONIES IN THE KOKAND KHANATE: HISTORICAL, POLITICAL, AND CULTURAL DIMENSIONS

Abdurakhmonov Zuhriddin Kholdorali ogli

Lecturer, Namangan "Impuls" Medical Institute

Independent Researcher

Abstract: *This article provides a comprehensive analysis of diplomatic ceremonies in the Kokand Khanate, examining their structural organization, symbolic functions, and political implications. Drawing upon historical sources, the study explores both formal and informal dimensions of court protocol and diplomatic etiquette. Particular attention is given to the role of ceremonial practices in articulating political authority, regulating interstate communication, and reinforcing hierarchical relationships between polities. The findings suggest that diplomatic ceremonies functioned not merely as ritualized performances but as strategic instruments of foreign policy, contributing to the consolidation of the khanate's international standing and legitimacy.*

Keywords: *Kokand Khanate, diplomacy, diplomatic ceremonies, court protocol, political symbolism, interstate relations.*

MAIN TEXT

The Kokand Khanate, as one of the political entities in Central Asia during the eighteenth and nineteenth centuries, developed a sophisticated system of diplomatic practices that reflected both regional traditions and broader patterns of pre-modern statecraft. Among these practices, diplomatic ceremonies occupied a central position, serving as a codified mechanism through which political authority, legitimacy, and interstate relations were publicly enacted and negotiated.

Diplomatic interaction within the khanate was not limited to pragmatic exchanges of information; rather, it was embedded within a highly ritualized framework that governed the reception of envoys, the exchange of gifts, and the articulation of official discourse. These ceremonies constituted a performative

space in which power relations were symbolically expressed and reaffirmed. As noted by S. M. Murodkhonov, the protocol of diplomatic receptions in the Kokand court functioned as a key indicator of the political disposition toward foreign states [1, p. 94]. A crucial component of these ceremonial practices was the formal audience between the khan and foreign envoys. This process unfolded through a sequence of meticulously regulated stages, including the ceremonial reception, the presentation of gifts (*peshkash*), diplomatic dialogue, and the documentation of proceedings in accordance with established protocol. Such procedural rigor ensured not only the maintenance of diplomatic decorum but also the projection of political order and institutional coherence.

The spatial and procedural organization of receptions further underscores the اهمیت of protocol in the Kokand court. Ambassadors were received in the *salomkhona*, a designated ceremonial hall that functioned as a locus of diplomatic interaction. According to F. Nazarov, the ambassador's entrance into the hall was carefully orchestrated: he was escorted by ministers on both sides, while another official facilitated access by opening the door [2, p. 27]. This choreography of movement and positioning was not incidental; rather, it constituted a symbolic grammar through which respect, hierarchy, and political recognition were communicated.

The exchange of gifts represented another essential dimension of diplomatic ceremonies. The practice of *peshkash* was imbued with both material and symbolic significance, as the nature, quality, and value of the gifts conveyed messages regarding the status and intentions of the sending polity. In this context, gift exchange operated as a form of non-verbal diplomatic communication, encoding political meanings within material objects. The reciprocal presentation of gifts by the khan further reinforced the principles of mutual recognition and diplomatic reciprocity.

The Kokand Khanate's diplomatic engagement with major contemporary powers, including Qing China and the Ottoman Empire, illustrates the broader geopolitical relevance of these ceremonial practices. The visit of the Chinese

envoy Daketa in 1829, for instance, provides valuable insight into the performative dimension of Kokand diplomacy. Contemporary accounts indicate that the envoy was deeply impressed by the scale of hospitality, the aesthetic sophistication of the court, and the ceremonial grandeur of the reception. As Sh. Kuldoshev observes, Daketa's reports emphasized the splendor of Kokand, its sociopolitical cohesion, and the perceived stability of its structures [3, p. 122].

Similarly, the dispatch of Kokand envoys to foreign courts was accompanied by elaborate ceremonial preparations. The case of Muhammad Zohid Khoja's mission to the Ottoman Empire exemplifies this practice. The envoy carried a carefully curated collection of gifts, including a copy of the Qur'an, luxury textiles, and horses, each of which symbolized the khanate's respect and diplomatic intent [4, p. 134]. Such practices highlight the integrative role of material culture in the conduct of diplomacy.

Beyond formal ceremonies, informal practices—such as banquets, artistic performances, and social gatherings—also played a significant role in sustaining diplomatic relations. These events provided opportunities for cultural exchange and the cultivation of interpersonal trust, thereby complementing the formal mechanisms of diplomacy. As D. Sultanova argues, diplomatic ceremonies in Central Asian khanates also served as a medium for showcasing internal cultural capacity and refinement [5, p. 101].

CONCLUSION

The diplomatic ceremonies of the Kokand Khanate constituted a highly structured and symbolically rich system governed by strict protocols and normative conventions. Far from being merely decorative or ceremonial, these practices functioned as integral components of the khanate's political strategy, facilitating the management of foreign relations and the articulation of state authority. By institutionalizing diplomatic interaction within a ritualized framework, the Kokand Khanate was able to reinforce its political legitimacy, project its cultural sophistication, and secure its position within the regional system of interstate relations.

REFERENCES

1. Murodkhonov, S. M. *Formation and Development of Diplomacy in the Kokand Khanate.* Tashkent: Fan, 2007, p. 94.

2. Nazarov, F. *History of Fergana.* Manuscript. Academy of Sciences of Uzbekistan, Inv. No. 2624, p. 27.

3. Kuldoshev, Sh. *From the History of Relations Between the Kokand Khanate and China.* Tashkent: Sharq, 2019, p. 122.

4. Xasanxojayev, A. *Kokand Envoys and Their Activities.* Fergana: FSU Publishing, 2015, p. 134.

5. Sultanova, D. *Diplomatic Ceremonies in Central Asian Khanates.* Qarshi: Nasaf, 2020, p. 101.

ENHANCING UZBEK STUDENTS' SPEAKING SKILLS THROUGH ROLE-PLAY AND DISCUSSION BASED ACTIVITIES

Undergraduate student of NamSIFL

Turg'unova Madina Abdurahmon qizi

Email: madinaturgunova14@gmail.com

Scientific supervisor: **Yuldasheva Ma'mura Boqijonovna**

Abstract: *The ability to communicate effectively in English is essential in modern education, yet many students lack confidence when speaking in class. This study investigates the causes of these difficulties and explores the effectiveness of classroom activities, such as group work, role-play, and discussion, in improving speaking skills among 7th-grade Uzbek learners. The research was conducted at School Number 92 with 15 A2–B1 level learners over three weeks, during which data were collected through observation checklists, speaking interviews, and assessment rubrics to monitor progress. In Week 1, students' speaking problems were identified through lesson observation, revealing low participation, hesitation, pronunciation difficulties, and a small group of non-participating learners. In Week 2, interactive techniques such as role-play, pair work, and group discussion were implemented, and participation was systematically recorded using observation notes and rubrics. By Week 3, students' speaking performance was reassessed through short interviews, supported by audio recordings and rating scales to ensure more objective evaluation. Overall, a comparison of Week 1 and Week 3 results shows clear improvement, with increased participation, reduced hesitation, and greater confidence in speaking tasks. These findings indicate that communicative activities such as role-play and discussion enhance fluency, engagement, and confidence in English speaking among Uzbek students.*

Key words: *Uzbek EFL learners; classroom observation; interactive activities: role-play and communicative discussion tasks; speaking proficiency development; A2-B1 level students.*

INTRODUCTION

In recent years, the importance of English language proficiency has significantly increased due to globalization and the growing need for

international communication. The president of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev also spoke at several events on the need to encourage young people to learn foreign languages and actively participate in them «It is time to create a new system of teaching foreign languages in our country, which will become a solid foundation for the future. Since we set ourselves the goal of building a competitive state, from now on the graduates of schools, lyceums, colleges and universities must be fluent in at least two foreign languages. This strict requirement should become the main criterion for the work of the director of each educational institution»[53] Shavkat Mirziyoyev said.

Among the four language skills: listening, speaking, reading and writing, speaking is often considered one of the most challenging skills for English as a Foreign Language (EFL) learners. Many Uzbek students struggle to express their ideas fluently and confidently in classroom settings, which may be caused by limited vocabulary, lack of practice, anxiety, or more teacher-centered classroom environments that do not provide enough opportunities for interaction. In Kenya, it has been observed that students often lack both communicative and linguistic competence and tend to switch between Sheng, Kiswahili, and English during classroom conversations and group discussions (Abenga,2005). Similarly, Mwamba (2005). found that many secondary school students were shy and preferred to remain silent in class because they struggled to express themselves effectively in spoken English. This finding is also supported by Richards (2005), who noted that learners with limited linguistic competence usually speak slowly, take longer to construct utterances, and participate less actively in conversations. Moreover, their spoken English often sounds unnatural and is characterized by weak grammar and poor pronunciation.

In some schools, many teachers use traditional methods and activities which are focusing on grammar, just copying and writing the rules. As a consequence, their students can not use the language in real life communication,

[53] https://www.president.uz/en/lists/view/4327

because of many of them understand the English language well, yet they have a problem in conversations. The process of communication involves both the speaker and the listener, each playing an essential role in effective interaction (Tuan and Mai, 2015). Language scholars suggest that learner-centered classroom activities—such as group discussions, speeches, storytelling, drama, debates, poem recitation, songs, and tongue-twisters—can help address the issue of low oral proficiency (Okech at al 2005). These activities promote active student participation, increase motivation, and provide opportunities for learners to use English authentically in meaningful contexts.

Furthermore, research indicates that students are generally more willing to interact with their peers and tend to produce more complex responses compared to interactions with teachers (Achmad and Yusuf, 2014: 151). Students often feel more comfortable working collaboratively, making mistakes, and receiving feedback from peers, as peer correction is perceived as less intimidating than teacher feedback. Therefore, this study aims to examine the types of classroom activities used by teachers and how they contribute to enhancing students' active participation in secondary school English lessons.

Students' speaking ability is developed by focusing on several key aspects, including pronunciation, grammar structure, vocabulary use, content, and fluency. Small-group discussion is a teaching technique where the teacher divides the class into small groups, usually consisting of four to five students. In this method, students sit facing each other and communicate freely. This environment encourages open interaction and allows learners to use the language without hesitation.

When implementing group discussions, several important factors must be considered, particularly the roles of students, the classroom environment, and the teacher. Teachers need to effectively organize the class to ensure smooth interaction. Typically, each group includes a leader and other members. For a successful discussion, every student should clearly understand and fulfill their assigned role within the group (Crisianita, S. & Mandasari, B,2022).

Communication in the second language has always been a source of frustration for language learners, yet communicative competence holds an important place in language learning. Role Play Activities (RPA) enhance learners' motivation by making the learning process more enjoyable and engaging, while also offering rich language exposure. There are several strong arguments supporting the use of RPA in second language classrooms. It increases learners' motivation because it is both fun and entertaining. In addition, it naturally integrates different language skills and supports students who may not have experienced such interactive learning before.

RPA also has a significant impact on classroom atmosphere and interaction, helping learners recognize and correct common English mistakes. It creates opportunities for students to communicate with each other even when their vocabulary is limited, encouraging them to express themselves more confidently. Learners benefit from experiencing realistic language situations, and RPA helps improve speaking skills by introducing useful phrases and everyday expressions. Moreover, it supports the development of multiple intelligences through active participation.

Working collaboratively in groups and interacting with peers is an important part of RPA. However, some teachers still prefer traditional teaching methods and avoid using RPA due to concerns about classroom control, organization, and maintaining authority. If they try implementing it and observe its effectiveness, they are more likely to adopt RPA in their teaching practice (Mustafa Altun,2015).

Research questions:

1.What difficulties do Uzbek students face in developing their speaking skills?

2.What is the impact of interactive classroom activities on students' fluency?

Methodology:

The present study was conducted at Secondary School in Uzbekistan, with a 7th-grade class of 15 students (7 boys and 8 girls) at A2-B1 proficiency level. The intervention lasted 3 weeks.

Data were collected through multiple instruments: a pre-test and a post-test to assess students' speaking proficiency before and after the intervention; classroom observations to monitor their participation and speaking performance; and a speaking assessment rubric used to evaluate students' responses during interviews.

In the first week, an initial observation and a pre-test were conducted to identify students' speaking abilities. Students were asked simple questions that required them to express their opinions. Based on their responses, they were categorized into three groups: students who answered confidently, those who hesitated and paused while speaking, and those who did not respond at all. During this week, three lessons were observed, focusing on students' participation, common difficulties: lack of vocabulary, fear of making mistakes, lack of confidence, limited speaking practice, pronunciation difficulties, and areas for improvement.

In the second week, interactive activities such as role-plays and discussion-based tasks were implemented to improve students' speaking skills. Students actively participated and completed the tasks with interest. During the discussion-based activities, students were encouraged to share their opinions on familiar topics and respond to their peers' ideas, which helped to develop their fluency and confidence. For the role-play activity, students were divided into pairs and assigned topics such as "The Lost Backpack" and "At the Hospital." Most students showed enthusiasm and made an effort to perform their roles effectively.

In the third week, a short interview was conducted in which students were asked about their future goals. Their responses were audio-recorded and evaluated using a speaking assessment rubric. The results indicated a noticeable improvement in comparison to Week 1.

1.Role-Play Activity

Role-play is an effective technique to develop students' speaking skill as it provides ample opportunities to the students to take roles of different persons. Several studies have been carried out to find the different aspects of role play techniques in EFL classrooms. This activity is designed to promote meaningful language use by encouraging learners to interact, negotiate meaning, and express their ideas in context. Role-play supports the development of key speaking sub-skills, including fluency, pronunciation, and pragmatic competence, while also fostering learners' confidence and reducing speaking anxiety. Furthermore, it creates opportunities for collaborative learning through pair or group work, allowing students to practice communication strategies in a supportive and engaging environment.

2.Discussion based activity

Discussion-based activities involve structured or semi-structured communicative tasks in which learners engage in guided conversations on selected topics, express their opinions, justify their ideas, and respond to others in an interactive classroom setting. These activities are designed to promote meaningful language use by encouraging students to communicate spontaneously rather than relying on memorized sentences.

For example, students may be asked to discuss topics such as "Healthy lifestyle habits" or "My favorite school subject". In these discussions, learners work in pairs or small groups, share their viewpoints, agree or disagree with others, and provide reasons for their answers.

Such activities support the development of fluency, coherence, and interactional competence, as students are required to speak continuously and respond appropriately to their peers. Moreover, they enhance critical thinking skills by encouraging learners to analyze different ideas and evaluate alternative perspectives. In addition, discussion-based activities help reduce speaking anxiety and build confidence, as students practice language in a supportive and

collaborative environment where mistakes are considered a natural part of learning.

Result:

The results of the study are presented through two main figures, which illustrate the key findings of the research. Figure 1 gives the information about the students' speaking performance in the first week, based on the initial observation checklist results. The findings revealed several common challenges among learners, including shyness when speaking in front of the class, limited vocabulary knowledge, low frequency of English usage, and frequent pronunciation errors.

At the end of Week 1, the results showed that 33% of students were able to respond to the given questions effectively. Although their answers were generally grammatically correct and clear, some minor pronunciation mistakes were still observed. Meanwhile, 47% of students demonstrated hesitant speech with frequent pauses, uncertainty, and a few grammatical errors during their responses. The remaining 20% of students did not attempt to speak at all and were unable to understand or respond to the questions given. Overall, Figure 1 clearly indicates that the majority of students had low to moderate speaking ability at the beginning of the study. In week 2, role-play and discussion-based activities were applied as part of the teaching process. As the activities were highly engaging and motivating for learners, they actively participated in all tasks, completing them with considerable enthusiasm and effectively articulating their ideas while collaborating with their peers, and all results were systematically gathered through recordings throughout the week.

According to Figure 2, a considerable improvement in students' speaking performance was observed in comparison to Week 1. The proportion of students demonstrating good speaking ability increased significantly, reaching 50%, indicating a clear enhancement in fluency and communicative competence. Students became more confident and were able to express their ideas more smoothly with reduced anxiety during speaking tasks.

At the same time, 35% of students still exhibited a certain level of hesitation; however, this tendency was notably less frequent than in the initial stage. Moreover, both grammatical and pronunciation errors showed a visible decline, reflecting gradual improvement in linguistic accuracy.

Furthermore, the percentage of students who did not participate in speaking activities decreased to 15%, as even previously passive learners began to make attempts to engage in oral communication. In general, Figure 2 demonstrates a positive and steady progression in students' speaking skills throughout the intervention period.



DISCUSSION

This study focuses on the impact of interactive role-play and discussion-based activities on students' speaking performance. The findings indicate that the implementation of such activities had a significant positive effect on learners' oral communication skills. These results reinforce the view that learner-centered and communicative approaches foster a supportive and low-anxiety learning environment. In particular, activities such as role-play and group discussions provide learners with opportunities to use language in meaningful and authentic contexts, thereby facilitating the development of communicative competence and reducing speaking anxiety. Tompkins (2001) defines role play as one of the classroom teaching techniques that encourage students to participate actively in the learning process. Therefore, foreign language students practice the target language in contexts similar to real-life situations where stress and shyness are removed.

This finding is consistent with previous research emphasizing the importance of active learning and student engagement in second language acquisition. The use of multiple data collection instruments, including observation checklists, participation records, audio recordings, and speaking rating scales, enhanced the reliability and validity of the evaluation process. The observable progress over the three-week intervention suggests that sustained exposure to communicative tasks plays a crucial role in improving learners' speaking abilities. Despite overall improvement, a proportion of students continued to exhibit hesitation and limited participation. This may be attributed to individual learner differences, such as language anxiety, insufficient vocabulary knowledge, or limited prior speaking experience.

CONCLUSION

In conclusion, this research aimed to investigate the effectiveness of role-play and discussion-based activities in improving students' speaking skills. It was observed that role-play activities created a highly engaging learning environment where students could step into various real-life situations, such as ordering food, visiting a doctor, or making travel arrangements. This type of practice allowed learners to use English in a more natural and meaningful way, rather than simply memorizing rules or vocabulary. As a result, students gradually became more confident in expressing themselves, reduced their fear of making mistakes, and showed a greater willingness to participate in speaking tasks. In addition, role-play encouraged creativity and spontaneity, helping learners improve not only their fluency but also their ability to think quickly in English during communication. Discussion-based tasks provided students with valuable opportunities to express their thoughts, share personal opinions, and listen to different viewpoints in a structured and meaningful way. These activities encouraged learners to think critically about various topics, organize their ideas before speaking, and respond appropriately to their classmates' contributions. As a result, students improved their ability to build coherent arguments, use a wider range of vocabulary, and maintain conversations for a

longer period. Moreover, discussion-based interaction helped create a supportive classroom atmosphere where learners felt more comfortable participating, which further contributed to the development of their speaking confidence and overall communicative competence. The findings confirm that both role-play and discussion-based activities are effective in enhancing students' speaking performance. These methods not only improve fluency and accuracy but also increase motivation and participation in the classroom. Therefore, it is suggested that such interactive approaches should be consistently applied in English language teaching to achieve better learning outcomes.

REFERENCE

1.Abenga, S. B. Elizabeth, (2005). The Adoption and use of new Educational Technologies in the training of English primary teachers in T.T.C.s in Kenya, Unpublished PhD Thesis, Moi University Press.

2.Mwamba, Richard, (2005). An investigation into factors that hinder the instruction of oral communication skills in English Kenyan secondary schools: A case of Kisi district''. Eldoret Moi University; (Unpublished M. Phil thesis)

3. Tuan, N.H., & Mai, T.N. (2015). Factors Affecting Students' Speaking Performance at LE Thanh High School.

Asian Journal of Educational Research Vol. 3 No.2, 2015.

4. Oketch, O. Selline, (2005). Teaching Integrated English: A teachers Handbook, Catholic.

5. Achmad, D. & Yusuf, Y. Q. (2014). Observing Pair-work in An English SpeakingClass. International Journal

of Instruction. January 2014, Vol.7 No. 1.

6. Crisianita, S. & Mandasari, B. (2022). The Use of Small-Group Discussion to Imrpove Students' Speaking Skill. Journal of Research on

Language Education, 3(1), 61-66

7.Mustafa Altun, International. (2015) Journal of Social Sciences & Educational Studies

ISSN 2409-1294 (Print), June 2015, Vol.1, No.4

8. Tompkins (2001) Effectiveness of Role Play in Improving Speaking Skill. Journal of NELTA Gandaki (JoNG), I, 11-18.

BADIIY ASARLARDA O'SMIRLAR PSIXOLOGIYASI : BOLALAR ADABIYOTI MISOLIDA

Ergasheva Kamola Akrom qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

E-mail: Ergashevakamola44@gmail.com,

Tel: +998508870831

Annotatsiya: *Ushbu tezisda bolalar adabiyotida o'smir obrazini psixologik talqin qilish muammosi tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi badiiy matnda o'smirlik davriga xos identiklik izlanishi, emotsional beqarorlik va ijtimoiy moslashuv jarayonlarining ifoda vositalarini aniqlashdir. Metodologiya sifatida psixopoetik tahlil, narratologik yondashuv va komparativ o'qish usullari qo'llanadi. Ilmiy yangilik o'smir psixikasining matn ichki tuzilmasi bilan bog'lanish mexanizmlarini tipologik asosda yoritishdan iborat.*

Abstract :*This thesis examines psychological representation of adolescents in children's literature through close reading of literary texts. The study aims to identify narrative and stylistic devices that convey identity formation, emotional instability, and social adaptation typical of adolescence. Methodologically, it combines psychopoetic analysis, narratology, and comparative interpretation. The novelty lies in proposing a typological model of how adolescent psychology correlates with textual structure, voice, and character-focused focalization.*

Kalit so'zlar: *o'smir psixologiyasi; bolalar adabiyoti; psixopoetika; narratologiya; identiklik; emotsional dinamika; badiiy konflikt*

Keywords: *adolescent psychology; children's literature; psychopoetics; narratology; identity formation; emotional regulation; literary conflict*

KIRISH

Badiiy adabiyot, ayniqsa bolalar va o'smirlar uchun mo'ljallangan asarlar, o'quvchini voqea-hodisalarga ko'ndalang guvoh sifatida emas, balki ichki tajriba ishtirokchisi sifatida jalb etishi bilan ajralib turadi. O'smirlik davri esa shaxsiy "men"ni qayta qurish, qadriyatlar ierarxiyasini sinash, tanaga va ijtimoiy rolga doir sezgirlikning ortishi, tengdoshlar bahosiga qaramlikning kuchayishi

kabi jarayonlar bilan xarakterlanadi. Shuning uchun bolalar adabiyotida o‘smir psixologiyasini badiiy modellashtirish masalasi nafaqat tarbiyaviy-axloqiy maqsadlar doirasida, balki matnning ichki poetik tizimi, qahramon nutqi, muallif pozitsiyasi va o‘quvchi qabulining psixologik mexanizmlari nuqtayi nazaridan ham ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tezisning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, o‘smir psixikasiga xos beqarorlik va izlanish badiiy matnda alohida motivlar orqali emas, balki voqealar qurilishi, fokuslash (fokalizatsiya), ichki monolog, dialogik to‘qnashuv va tafsilotlar seleksiyasi orqali tizimli tarzda ifodalanadi.

O‘smir psixologiyasini badiiy asarda tahlil qilishda adabiyotshunoslik va psixologiya tutashgan maydon zarur metodologik tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Psixopoetik yondashuv matnning estetik qurilmasi bilan qahramon ruhiy holati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochishga imkon beradi: obrazning kechinmalari shunchaki “tasvir” emas, balki kompozitsion harakatlantiruvchi kuch, konfliktni kuchaytiruvchi omil, ramziy tafsilotlarni tanlovchi mezon sifatida ishlaydi.[54] Shu bilan birga, rivojlanish psixologiyasi o‘smirlik davridagi kognitiv va affektiv o‘zgarishlarning tipik ko‘rinishlarini belgilab beradi; bunday bilim badiiy qahramonning impulsivligi yoki ikkilanishi qaysi nuqtada realistik psixologik mantiqqa mos kelishini tekshirishga yordam beradi[55]. Bu yerda muhim metodik shart shuki, badiiy matn klinik kuzatuv emas; demak, tahlil qahramon “diagnozi”ga emas, balki psixologik holatning estetik shakllanishi va o‘quvchi ongida qanday ma’no uyg‘otishiga qaratiladi. Shuning uchun narratologik yondashuv, xususan, hikoya qiluvchi instansiya, vaqt va xotira rejimlari, ichki nutqning tashkil topishi, ko‘rish nuqtasining almashishi kabi omillar psixologik talqin uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.[56]

Bolalar adabiyotida o‘smir obrazi ko‘pincha “o‘tish davri”ning chegaraviy tajribasini ifodalovchi badiiy model sifatida quriladi. Chegaraviylik

[54] Бахтин М. М. Вопросы литературы и эстетики. — Москва: Художественная литература, 1975. — 504 с.
[55] Erikson E. H. Identity: Youth and Crisis. — New York: W. W. Norton, 1968. — 336 p.
[56] Genette G. Narrative Discourse: An Essay in Method. — Ithaca: Cornell University Press, 1980. — 285 p.

ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: birinchisi, bolalikdan kattalikka o‘tish bilan bog‘liq ijtimoiy kutishlar bosimi; ikkinchisi, shaxsning ichki me’yorlar tizimi hali barqarorlashmaganligi sababli qaror qabul qilishdagi ikkilanish. Badiiy matnda bu holat konfliktning oddiy “tashqi” ko‘rinishidan ko‘ra, qahramon idrokining parchalangan ritmi, bir epizoddan boshqasiga keskin o‘tishlar, tafsilotlarda ortiqcha sezgirlik, muhim bo‘lmagan narsalarga haddan tashqari e’tibor, ayrim joylarda esa muhim faktlarni inkor qilish orqali beriladi. O‘smir qahramon dunyoni ko‘pincha “adolat-adolatsizlik”, “qabul qilish-rad etish” kabi keskin oppozitsiyalar asosida baholaydi; bu esa badiiy nutqda qat’iy modal birliklar, keskin intonatsiya, o‘zini oqlash yoki o‘zini ayblashga moyil sintaktik konstruksiyalar bilan ifodalanadi. Bunday belgilarning poetik qiymati shundaki, ular qahramonni “tarbiyalash ob’ekti”ga aylantirib qo‘ymay, uning ichki tajribasini voqelik bilan teng maqomda ko‘rsatadi; natijada o‘quvchi o‘smir dunyoqarashining mantiqiy emas, lekin psixologik asoslanganligini his qiladi.

Tadqiqot nuqtayi nazaridan, o‘smir psixologiyasining badiiy ifodasida uchta markaziy komponent ajralib chiqadi. Birinchi komponent identiklik izlanishidir. Identiklik o‘smir adabiyotida ko‘pincha ism, laqab, rol, kiyinish, qiziqishlar, “men kimman” savoli bilan bog‘liq epizodlar orqali ochiladi, biroq uning chuqur mexanizmi narrativning o‘zida yotadi: qahramon o‘zini hikoya qilib berishga urinadi, o‘z tarixini qayta tuzadi, ayrim faktlarni kuchaytiradi yoki yashiradi, shunday qilib, “men”ning matndagi modeli hosil bo‘ladi. Bu jarayonlarda muallifning masofasi muhim: agar muallif izohi haddan tashqari ustun bo‘lsa, o‘smirning ichki ovozi susayadi va psixologik ishonchlilik kamayadi; aksincha, ichki fokalizatsiya kuchaygan sari o‘quvchi o‘smirning o‘zini anglashdagi nomukammallikni “kamchilik” emas, tabiiy bosqich sifatida qabul qiladi.[57] Ikkinchi komponent emotsional dinamika bo‘lib, u kayfiyatning tez almashishi, affektiv portlash, uyat, rashk, qo‘rquv, g‘urur kabi holatlarning bir-biriga tutashib ketishi bilan ko‘rinadi. Badiiy matnda emotsional dinamika ko‘pincha detallarning psixologik yuklanishi orqali beriladi: tovush, rang, hid,

[57] Genette G. Narrative Discourse: An Essay in Method. — Ithaca: Cornell University Press, 1980.

oddiy predmetlar qahramon kechinmasining “signal”iga aylanadi, epizodlar esa shu signallar bilan bir-biriga ulanadi. Uchinchi komponent ijtimoiy moslashuv va kommunikativ ziddiyatdir: oila, maktab, tengdoshlar guruhi o‘smir uchun baholash maydoniga aylanadi, bu esa dialoglarning keskinligi, sukutning kuchayishi, kinoya, himoya mexanizmlari, “o‘zim bilaman” pozitsiyasi orqali ochiladi. Mazkur uchlik bir-biridan ajralgan holda emas, balki bir-birini shartlantirgan holda ishlaydi: identiklik izlanishi emotsional beqarorlikni kuchaytiradi, emotsional beqarorlik ijtimoiy muloqotda xatolarga olib keladi, bu xatolar esa o‘z navbatida identiklikni qayta ko‘rib chiqishga majbur etadi.

Bolalar adabiyotidagi o‘smir obrazini tahlil qilishda badiiy konfliktning tabiati alohida e’tiborni talab qiladi. An’anaviy yondashuvlarda konflikt ko‘pincha “yaxshi-yomon” ssenariysi doirasida ko‘riladi, biroq o‘smir psixologiyasi aks etgan asarlarda konfliktning markazi ko‘proq ichki qarama-qarshiliklar bilan belgilanadi: qahramon bir vaqtning o‘zida mustaqillikka intiladi va himoyaga muhtoj bo‘ladi, e’tirof kutadi va e’tirofdan qo‘rqadi, o‘zini boshqalardan farqlashni xohlaydi va shu bilan birga guruhga tegishli bo‘lishni istaydi. Shuning uchun badiiy konfliktni psixologik talqin qilishda antagonistik personajlarning mavjudligi shart emas; ba’zan konflikt qahramonning o‘z nutqi, xotirasi, rejalari va real harakati o‘rtasidagi nomutanosiblikdan tug‘iladi. Bu o‘rinda kompozitsion vositalar, masalan, kechiktirilgan yechim, retrospektiv lavhalar, parallel epizodlar, ramziy takrorlar qahramon ruhiyatidagi qaytalanish va “tiqilib qolish” holatini estetik shaklda namoyon qiladi[58]. O‘zbek bolalar adabiyotshunosligida badiiy qahramonning ruhiy olamini ochish masalalari ko‘tarilgan bo‘lib, psixologizmning milliy poetik an’analar bilan uyg‘unligi ayniqsa muhim ekani ta’kidlanadi .[59] Shu jihatdan o‘smir obrazini o‘rganish milliy adabiy tafakkurda shaxs va jamiyat munosabatining nozik qatlamlarini ko‘rsatadi.

[58] Бахтин М. М. Вопросы литературы и эстетики. — Москва: Художественная литература, 1975.
[59] Yo‘ldoshev Q. Adabiy tahlil asoslari. Toshkent, O‘qituvchi, 2000. 240 b.

Metodologik jihatdan komparativ o‘qish o‘smir psixologiyasining universallik va madaniy xoslik chegaralarini belgilashga xizmat qiladi. Jahon adabiyotshunosligida bolalar adabiyotining o‘quvchi ongiga ta’siri, qahramon bilan identifikatsiya jarayoni, badiiy tajribaning tarbiyaviy emas, empatik imkoniyatlari keng tahlil qilingan.[60] Bu yondashuvlarni o‘zbek bolalar adabiyoti materialiga tatbiq etishda ehtiyotkorlik zarur: chunki ijtimoiy muloqot me’yorlari, oilaviy model, kattalar va bolalar o‘rtasidagi masofa turlicha. Shunga qaramay, o‘smirlikka xos psixologik mexanizmlar, xususan, tengdoshlar tomonidan qabul qilinish ehtiyoji, o‘z “men”ini sinash, ideallash va hafsalasi pir bo‘lish sikllari ko‘plab madaniyatlarda uchraydigan umumiy hodisalardir.[61] Badiiy asar ana shu umumiylikni milliy hayot tafsilotlari orqali konkretlashtiradi: makon (mahalla, maktab), nutq registrlari, muloqot etiketi, kinoya va muomala uslubi qahramon psixologiyasini “joylashtiradi”, ya’ni uni ijtimoiy haqiqat bilan bog‘laydi. Bu bog‘lanish tahlilida tilshunoslik omillari ham muhim: o‘smir nutqidagi so‘z tanlovi, dialogdagi pauza va takrorlar, baholovchi birliklarning ko‘pligi qahramonning ichki holatini bevosita yoritadi.[62] Demak, ixtisoslik doirasi nuqtayi nazaridan badiiy matndagi o‘smir psixologiyasi til birliklari va poetik struktura kesishgan joyda to‘liq ochiladi.

Tahlil natijalarini umumlashtirib, bolalar adabiyotida o‘smir psixologiyasini badiiy ifodalashning tipologik modelini taklif etish mumkin. Birinchi tip ichki fokalizatsiyaga tayangan psixologik model bo‘lib, bunda voqea qahramon idroki “filtri”dan o‘tadi va o‘quvchi o‘smirning dunyoni qurish usulini kuzatadi; bu model empatiyani kuchaytiradi, lekin muallif masofasini to‘g‘ri taqsimlashni talab qiladi. Ikkinchi tip dialogik-konfliktli model bo‘lib, bunda psixologiya asosan muloqotdagi to‘qnashuv, kinoya, sukut, inkor va kelishuvning qiyin kechishi orqali ko‘rinadi; bu model ijtimoiy moslashuv muammolarini aniqroq ochadi. Uchinchi tip ramziy-detal modeli bo‘lib, bunda

[60] Nikolajeva M. Children’s Literature Comes of Age: Toward a New Aesthetic. New York, Garland Publishing, 1996. 272 p.
[61] Erikson E. H. Identity: Youth and Crisis. — New York: W. W. Norton, 1968. — 336 p.
[62] Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Xudoyberganova D. O‘zbek tili stilistikasi. Toshkent, Fan, 2013. 352 b.

o‘smir kechinmasi predmet, makon, takroriy motivlar orqali kodlanadi; bunday kodlash psixologik holatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri “aytish”dan ko‘ra, badiiy ta’sirni kuchaytiradi. Ushbu tiplar amalda aralash holda uchrashi mumkin, biroq ularni ajratish tahlilning aniqligini oshiradi va badiiy asarda psixologizmning qaysi mexanizm ustunligini ko‘rsatadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bolalar adabiyotida o‘smir psixologiyasi badiiy matnning mavzuiy qatlami bilangina cheklanmaydi, balki narrativ qurilish, til vositalari, kompozitsion ritm va detal tanlovi orqali tizimli ravishda modellashtiriladi. Tadqiqot o‘smirlikka xos identiklik izlanishi, emotsional dinamika va ijtimoiy moslashuvning badiiy ifoda mexanizmlari o‘zaro bog‘langan holda ishlashini ko‘rsatdi hamda psixologizmni tipologik tahlil qilish imkonini beruvchi uch modelni asoslab berdi. Bu yondashuv bolalar adabiyotini faqat didaktik vosita sifatida emas, balki shaxsning ichki tajribasini madaniy-estetik shaklda ifodalovchi murakkab badiiy tizim sifatida o‘rganishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Yo‘ldoshev Q. Adabiy tahlil asoslari. Toshkent, O‘qituvchi, 2000. 240 b.

2. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Xudoyberganova D. O‘zbek tili stilistikasi. Toshkent, Fan, 2013. 352 b.

3. Bakhtin M. M. Voprosy literatury i estetiki. Moskva, Khudozhestvennaya literatura, 1975. 504 s.

4. Nikolajeva M. Children’s Literature Comes of Age: Toward a New Aesthetic. New York, Garland Publishing, 1996. 272 p.

5. Genette G. Narrative Discourse: An Essay in Method. Ithaca, Cornell University Press, 1980. 285 p.

6. Erikson E. H. Identity: Youth and Crisis. New York, W. W. Norton, 1968. 336 p.

ERON TASHQI SIYOSATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA UNDA SURIYA OMILI

Saidbek Xolmatov O‘lmasjon o‘g‘li

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Xalqaro munosabatlar va zamonaviy

siyosiy jarayonlaryo‘nalishi magistranti

Email: saidbekxolmatov77@gmail.com

Anotatsiya. *Ushbu maqolada Eron Islom Respublikasining tashqi siyosatiga xos asosiy xususiyatlar hamda unda Suriya omilining o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda Eron tashqi siyosatining ideologik asoslari, jumladan, Islom inqilobi g‘oyalari, realpolitik tamoyillari va “qarshilik o‘qi” konsepsiyasi yoritiladi. Shuningdek, Eronning Iroq, Suriya, Livan va Yaman kabi davlatlardagi siyosiy va harbiy ta’siri ham ko‘rib chiqiladi. Maqolada yadroviy dastur bilan bog‘liq muammolar, Yadro kelishuvi (JCPOA) doirasidagi jarayonlar hamda AQSh va Isroil bilan munosabatlardagi keskinliklar tahlil etiladi. Eron xavfsizlik siyosatining diplomatik, harbiy va gibrid vositalarga asoslangani ham ochib beriladi. Mazkur maqola Eronning mintaqaviy geosiyosiy jarayonlardagi rolini tushunishga xizmat qiladi.*

Annotation. *This article analyzes the main distinctive features of the foreign policy of the Islamic Republic of Iran, with particular emphasis on the role of the Syrian factor. The study explores the ideological foundations of Iran’s foreign policy, including the ideas of the Islamic Revolution, principles of realpolitik, and the concept of the “Axis of Resistance.” It also examines Iran’s political and military influence in countries such as Iraq, Syria, Lebanon, and Yemen. The article discusses issues related to Iran’s nuclear program, the processes within the framework of the Joint Comprehensive Plan of Action (JCPOA), and tensions in relations with the United States and Israel. It further highlights that Iran’s security policy is based on a combination of diplomatic, military, and hybrid tools. The article contributes to a better understanding of Iran’s role in regional geopolitical processes.*

Kalit so’zlar: *Eron islom inqilobi, realpolitik, tashqi siyosat, “qarshilik o‘qi” Yadro kelishuvi (JCPOA).*

Keywords: *Islamic Revolution of Iran, realpolitik, foreign policy, “Axis of Resistance,” Nuclear Deal (JCPOA)*

KIRISH

Hech bir Yaqin Sharq davlati Erondek keng geografik hudud, strategik joylashuv, katta va nisbatan savodli aholi, qadimiy tarix hamda ulkan tabiiy resurslar uyg‘unligiga ega emas. Ushbu omillar Tehronda kim hokimiyatda bo‘lishidan qat’i nazar, mamlakatning mintaqaviy ustunlikka intilishini doimiy ravishda shakllantirib keladi[1.B-19]. Muhammad Rizo Pahlaviy davrida Eron tashqi siyosati ko‘proq dunyoviy va millatchilik ruhida olib borilib, mamlakatning xalqaro tizimdagi mavqeini mustahkamlash hamda G‘arb bilan yaqin hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan edi. Bu davrda Eron AQShning mintaqadagi muhim ittifoqchilaridan biri sifatida ko‘rilgan va uning tashqi siyosati global tizimga integratsiyalashuvga yo‘naltirilgan edi.

Biroq Eron islom inqilobidan so‘ng mamlakat tashqi siyosatida tub burilish yuz berdi. Yangi siyosiy tuzum Islom Respublikasi tashqi siyosatni antiimperialistik va islomiy-inqilobiy mafkura asosida qayta shakllantirdi. Ruhulloh Xomeyniy tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarga ko‘ra, Eron nafaqat milliy manfaatlarini himoya qiluvchi davlat, balki butun musulmon dunyosida “zulmga qarshi kurashuvchi” markaz sifatida namoyon bo‘lishi kerak edi. Natijada, tashqi siyosat faqat realpolitik asosida emas, balki mafkuraviy maqsadlar bilan ham chambarchas bog‘lanib ketdi.[2. B-47]

Islom Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri AQSh va uning mintaqadagi ittifoqchilariga qarshi qat’iy qarshilik ko‘rsatishdan iboratdir. Eron 1979-yilgi garov inqirozidan boshlab ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar keskin tus olib, o‘zaro ishonchsizlik va qarama-qarshilik asosida rivojlandi. Ushbu ziddiyat vaqt o‘tishi bilan an’anaviy diplomatik raqobatdan ko‘ra murakkabroq asimmetrik qarama-qarshilik shakliga kirdi. Eron to‘g‘ridan-to‘g‘ri harbiy to‘qnashuvdan qochgan holda, proksi kuchlar va gibrid strategiyalar orqali AQSh manfaatlariga qarshi chiqishni afzal ko‘rdi.

Shu bilan birga, Eron tashqi siyosatining muhim mafkuraviy komponentlaridan biri Isroil davlatiga nisbatan keskin salbiy munosabatdir. Inqilobdan so‘ng Isroilning legitimligi rad etilib, sionizm G‘arb

imperializmining ajralmas qismi sifatida talqin qilindi.[3. B-71] Bu qarashlar asosida Eron mintaqada Isroilga qarshi turuvchi kuchlarni qo‘llab-quvvatlash siyosatini olib bordi. Xususan, Hizbulloh kabi tashkilotlarga ko‘rsatilayotgan yordam Eronning mintaqaviy strategiyasida muhim o‘rin egallaydi. Bu orqali Eron bevosita harbiy to‘qnashuvsiz ham Isroilga bosim o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Eron tashqi siyosatining yana bir muhim jihati bu mintaqaviy ta’sirni kengaytirishda proksi kuchlardan samarali foydalanishidir. Ayniqsa, 2003-yilda Saddam Husayn rejimining ag‘darilishi ortidan yuzaga kelgan siyosiy bo‘shliq Eron uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Eron Iroqdagi shia siyosiy kuchlari va qurolli guruhlar bilan yaqin aloqalar o‘rnatib, ushbu davlatni o‘zining strategik ta’sir doirasiga kiritishga muvaffaq bo‘ldi. Bu esa Eron uchun nafaqat xavfsizlik zonasini kengaytirish, balki AQShga qarshi mintaqaviy bosimni kuchaytirish imkonini ham berdi.

Eron tashqi siyosatida Suriya alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Suriyaning sobiq prezidenti Bashar al-Assadning 2024 yil oxirida hokimiyatdan chetlatilishi va Prezident Ahmad al-Sharaa boshchiligida yangi hukumatning shakllanishi Yaqin Sharq geosiyosatida tub burilish nuqtasini belgiladi. Bu voqea nafaqat Assadlar oilasining ellik yildan ortiq davom etgan hukmronligiga yakun yasadi, balki Eronning Suriyadagi roli va strategiyasini keskin qayta ko‘rib chiqishga majbur qildi.

Ko‘p yillar davomida Eron Assadning eng yaqin ittifoqchilaridan biri bo‘lib, milliardlab dollar mablag‘ sarfladi, harbiy maslahatchilar va ittifoqchi qurolli guruhlarni joylashtirdi hamda Suriyaning siyosiy va iqtisodiy tizimiga chuqur kirib bordi. Bashar al-Assad boshchiligidagi hukumat bilan ittifoq Eronning Yaqin Sharqdagi geosiyosiy strategiyasining markaziy elementlaridan biri hisoblanar edi. Suriya Eron uchun nafaqat muhim ittifoqchi, balki Livandagi Hizbulloh bilan aloqa o‘rnatish imkonini beruvchi geografik ko‘prik vazifasini ham bajaradi. Shu sababli, Suriya fuqarolar urushi boshlanishi Eron uchun jiddiy geosiyosiy sinovga aylandi.

Mazkur urush davomida Eron Assad rejimini qo‘llab-quvvatlash uchun katta miqdorda harbiy, moliyaviy va tashkiliy resurslarni safarbar etdi.[4. B-78-81] Eronning Inqilobiy gvardiyasi, shuningdek, unga yaqin bo‘lgan turli qurolli guruhlar Suriyada faol ishtirok etdi. Bu yordam nafaqat Assad hokimiyatini saqlab qolishda muhim rol o‘ynadi, balki Eronning mintaqadagi ta’sirini yanada mustahkamladi. Natijada “qarshilik o‘qi” deb ataluvchi geosiyosiy blok shakllandi. Ushbu blokka Suriya hukumati, Hizbulloh, Iroqdagi shia guruhlari va Yaman husiylari kiradi hamda ular o‘zaro muvofiqlashtirilgan tarzda faoliyat yuritadi. 2024-yilning dekabr oyida uzoq davom etgan Assad oilasing hukumronligi asosan sunniylardan iborat bo‘lgan „Hayat tahrir ash Shom’’ guruhi tomonidan ag’darildi. Muhammad al Jo’loniy esa Suriyadagi muvaqqat hukumat rahbariga aylandi. Ahmad ash Shara nomi bilan davlatni boshqarayotgan Jo‘loniy bugun shia Eroni bilan munosabatlarni juda ehtiyotkorlik bilan amalga oshirmoqda. Ayni vaqtda Eronning Suriyani amaldagi hokimyat bilan aloqalarni normallashtirishga urinishlari besamar qolmoqda. Eronning Suriyaning inqilobdan keyingi hukumati bilan istamay amalga oshirgan yaqinlashuvi sovuq strategik mantiqqa asoslangan edi: “Eron Suriyada hokimiyat kimning qo‘lida bo‘lishidan qat’i nazar, u bilan do‘stona munosabatlarni saqlashga majbur, chunki ular bu mamlakatni Isroil va AQShga qarshi kelajakdagi operatsiyalar uchun zarur deb bilishadi”. Boshqacha aytganda, hatto Suriya rahbariyati tubdan o‘zgargan bo‘lsa ham, Suriyaning geografiyasi va strategik ahamiyati Eron uchun o‘sha-o‘sha qolardi.[5. B-8]

Shuningdek, Eronning tashqi siyosatida yadroviy dastur ham muhim o‘rin tutadi. 2015-yilda imzolangan Yadro kelishuvi (JCPOA) Eron uchun xalqaro sanksiyalarni yumshatish imkonini yaratgan edi. Biroq 2018-yilda AQShning ushbu kelishuvdan chiqishi vaziyatni yana keskinlashtirdi. Natijada Eron yadroviy dasturini qayta faollashtirib, uni siyosiy bosim vositasi sifatida qo‘llay boshladi. Bu esa o‘z navbatida xalqaro maydonda Eron atrofidagi ziddiyatlarni yanada kuchaytirdi.

XULOSA

Eron Islom Respublikasining tashqi siyosati murakkab va ko‘p qatlamli xarakterga ega bo‘lib, unda mafkuraviy tamoyillar va pragmatik geosiyosiy manfaatlar o‘zaro chambarchas bog‘langan holda namoyon bo‘ladi. Mamlakat tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari Islom inqilobi g‘oyalari, antiimperialistik yondashuv, shuningdek, mintaqaviy kuchlar muvozanatida o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga qaratilgan realpolitik strategiyalar bilan belgilanadi. Shu jihatdan Eron tashqi siyosati nafaqat ideologik asosga, balki amaliy xavfsizlik va strategik manfaatlarga ham tayanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Eronning “qarshilik o‘qi” konsepsiyasi uning mintaqaviy siyosatining markaziy ustunlaridan biri bo‘lib, bu tizim orqali Tehron Iroq, Suriya, Livan va Yaman kabi davlatlarda o‘z ta’sirini proksi kuchlar vositasida mustahkamlab kelmoqda. Ayniqsa, Suriya omili Eron strategiyasida alohida o‘rin egallab, u nafaqat geografik bog‘lovchi hudud, balki Eronning Livandagi ittifoqchilari bilan uzluksiz aloqa tizimini ta’minlovchi muhim geosiyosiy ko‘prik sifatida xizmat qilgan. Shu bilan birga, Eron tashqi siyosati doimiy ravishda AQSh va Isroil bilan keskin raqobat sharoitida shakllanib kelmoqda. Bu raqobat an’anaviy diplomatik darajadan chiqib, asimmetrik qarama-qarshilik va gibrid strategiyalar ko‘rinishiga ega bo‘lgan. Yadroviy dastur va JCPOA atrofidagi jarayonlar esa Eronning xalqaro tizimdagi pozitsiyasini yanada murakkablashtirib, uni bir tomondan bosim ostida bo‘lgan, ikkinchi tomondan esa muzokara salohiyatiga ega davlat sifatida namoyon etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Phillips, C. 2016. *The Battle for Syria: International Rivalry in the New Middle East*. New Haven: Yale University Press,

2. *Farhod Karimov. 2023. YANGI YAQIN SHARQ”: KURDISTON OMILINING GEOSIYOSIY JIHATLARI.*

3. Avazbekov Faxriddin.2025. ERON MILLIY-MINTAQAVIY XAVFSIZLIK SIYOSATI.

4. Youngs, R. 2015. *Geopolitics and Democracy in the Middle East*. London: FRIDE,

5. Mutaa Aladhami1, Syed Tahir Abbas. 2025. IRAN'S FOREIGN POLICY IN SYRIA BEFORE AND AFTER LIBERATION FROM THE ASSAD REGIME

FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONANING O'RNI

Do'stmuxammadova Xolida Zafar qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat Universitetining Urgut filiali

Boshlang'ich ta'lim 1-bosqich talabasi

E-mail: xol1da1604@gmail.com

Tel: +998882231604

Ilmiy rahbar: Ahmedova Mahliyo

***Annotatsiya**: Ushbu maqolada farzand tarbiyasida ota-onaning tutgan o'rni va mas'uliyati ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etilgan. Oila - jamiyatning asosiy qismi sifatida bola shaxsini shakllantirishdagi birlamchi muhit ekanligi tahlil qilingan. Ota-ona ta'sirining psixologik, axloqiy va ijtimoiy jihatlari o'rganilgan. Zamonaviy oilalarda yuzaga kelayotgan tarbiyaviy muammolar va ularning yechim yo'llari ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalari asosida ota-onalarga amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** oila tarbiyasi, ota-ona mas'uliyati, bolaning shaxsiy rivojlanishi, axloqiy tarbiya, zamonaviy oila, pedagogik ta'sir, ijtimoiy muhit, psixologik omillar.*

***Аннотация**: В данной статье с научно-педагогической точки зрения исследована роль и ответственность родителей в воспитании ребёнка. Семья анализируется как первичная среда формирования личности ребёнка, являющаяся основной ячейкой общества. Изучены психологические, нравственные и социальные аспекты влияния родителей. Показаны воспитательные проблемы, возникающие в современных семьях, и пути их решения. На основании результатов исследования разработаны практические рекомендации для родителей.*

***Ключевые слова:** семейное воспитание, родительская ответственность, личностное развитие ребёнка, нравственное воспитание, современная семья, педагогическое воздействие, социальная среда, психологические факторы.*

***Annotation**: This article examines the role and responsibility of parents in child upbringing from a scientific and pedagogical perspective. The family is analyzed as the*

primary environment for shaping a child's personality, serving as the fundamental unit of society. The psychological, moral, and social aspects of parental influence are studied. Educational challenges arising in modern families and their solutions are discussed. Based on the research findings, practical recommendations for parents have been developed.

Keywords: *family upbringing, parental responsibility, child's personal development, moral education, modern family, pedagogical influence, social environment, psychological factors.*

KIRISH

Insoniyat tarixida har doim oila va unda bolaning tarbiyalanishi muhim o’rin egallagan. Bola dunyoga kelgan paytdan boshlab uning atrofidagi birinchi va eng muhim shaxslar ota-ona hisoblanadi. Ular farzandning jismoniy, ruhiy va ma'naviy rivojlanishiga to’g’ridan-to’g’ri ta'sir ko’rsatadi. O’zbekiston Respublikasida oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash va yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida belgilangan [4].

Zamonaviy jamiyatda globallashuv, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ijtimoiy o’zgarishlar oilaviy tarbiyaga yangicha talablar qo’ymoqda. Ko’plab ota-onalar ish bilan band bo’lganligi, moliyaviy qiyinchiliklari yoki pedagogik bilimlarning etishmasligi sababli farzandlarining tarbiyasi uchun yetarlicha vaqt ajrata olmaydilar. Bu esa bolalarda ijtimoiy-psixologik muammolarning kelib chiqishiga zamin hozirlaydi.

Pedagogika va psixologiya fanlarida ota-onaning farzand tarbiyasidagi o’rni keng tadqiq etilgan bo’lsada, bu masala hamon dolzarb bo’lib qolmoqda. [3]Aynan shu masalani chuqurroq o’rganish va ota-onalarga amaliy ko’rsatmalar berish ushbu tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi.

ASOSIY QISM

Amalga oshirilayotgan ishlar

O’zbekistonda oilaviy tarbiyani mustahkamlash borasida qator muhim ishlar amalga oshirilmoqda:

Qonunchilik bazasi takomillashtirilmoqda. "Oila to'g'risida" gi qonun, bolalar huquqlari va ta'lim sohasidagi qator me'yoriy hujjatlar ota-onaning tarbiyaviy mas'uliyatini belgilab bergan. Oilaviy kodeksdagi tegishli moddalar ota-onalarning farzand oldidagi huquq va majburiyatlarini doimo tartibga soladi.

Oilani qo'llab-quvvatlash tizimlari yaratilmoqda. Mahallalar, yoshlar markazlari va xotin-qizlar qo'mitalari orqali ota-onalarga pedagogik ko'mak ko'rsatish yo'lga qo'yilmoqda. Oilaviy maslahat markazlari, psixolog xizmatlari va ijtimoiy yordamlar kengaytirilmoqda.

Ota-onalar maktabi tashkil etilmoqda. Maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablarda ota-onalar uchun maxsus treninglar, seminarlar va ma'rifiy dasturlar amalga oshirilmoqda. Ota-onalarga farzand tarbiyasida zamonaviy usullar va psixologik bilimlar yetkazilmoqda.

Axborot-targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va maktablar orqali oilaviy tarbiya mavzusida keng targ'ibot ishlari amalga oshirilmoqda. Kitoblar, risolalar va video materiallar tayyorlanib, aholiga tarqatilmoqda.

Muammo

Amaldagi amaliyotda bir qator jiddiy muammolar mavjud:

Vaqt tanqisligi va e'tiborsizlik. Ko'plab ota-onalar ish va moddiy ta'minot bilan band bo'lib, farzandlari bilan yetarli vaqt o'tkaza olmaydilar. Ota-ona va bola o'rtasidagi muloqot kamayib, hissiy aloqa susayadi. Bu bolalarda yolg'izlik hissi, xavotir va xatti-harakatlar muammolarini keltirib chiqaradi.

Pedagogik bilimlarning yetishmasligi. Ko'pchilik ota-onalar o'z farzandlarini qanday tarbiyalash kerakligini bilmaydilar. Ular o'zlari o'sgan usullarni - ko'pincha qattiq jazolash yoki haddan tashqari erkinlik berishni davom ettiradilar. Bunday yondashuvlar bolaning psixologik rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi.

Raqamli texnologiyalarning salbiy ta'siri. Gadjetlar va internet tarmoqlari bolaning vaqtini ko'p olayotganligi, ota-onalarning nazoratisiz turli zararli kontentlarga duch kelayotganligi jiddiy muammo bo'lib turibdi. Ijtimoiy

tarmoqlardagi noto’g’ri ta'sir bola dunyoqarashi va qadriyatlarini buzishga olib kelishi mumkin.

Ota-ona o’rtasidagi ziddiyat. Ba'zi oilalarda ota va ona tarbiya masalasida bir xil fikrda bo’lmaydi. Bu ikkilamchi talablar bolada chalg’ish va shaxsiy noaniqliklarga olib kelishi mumkin. Oiladagi mojarolar va ajralishlar bolaning ruhiy holatiga juda kuchli salbiy ta'sir ko’rsatadi.

Shaxsiy namuna va qadriyatlar ziddiyati. Ota-onalar bolalarga nisbatan ta’qiq qo’yib, o’zlari boshqacha yashaydilar. Bola so’zdan ko’ra amaliy namunadan ko’proq ta'sirlanganligi uchun bunday holat uning kelajakda shaxs sifatida shakllanishiga katta zarar yetkazadi.

Yechim

Yuqorida sanab o’tilgan muammolarni hal etish uchun quyidagi kompleks yondashuv taklif etiladi:

1. Mehr-muhabbat va qat'iyatlilik muvozanati. Psixologlar tomonidan eng maqbul deb topilgan "demokratik" tarbiya uslubi mehr-muhabbat ko’rsatish bilan birga aniq chegaralar o’rnatishni talab etadi. Bola sevimli ekanini his etishi, shu bilan birga nima to’g’ri, nima noto’g’ri ekanini bilishi zarur [1]. Ota-ona farzandining har bir yutuqini maqtab, qo’llab-quvvatlab, kamchiliklarini esa mehribonlik bilan tuzatib borishi lozim.

2. Faol muloqot va tinglovchilik. Ota-ona va bola o’rtasidagi ochiq, samimiy muloqot tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Bolaning tashvishi, quvonchi va savollarini diqqat bilan tinglashi, ularga hurmat bilan munosabatda bo’lish bolada ishonch va xavfsizlik hissini tug’diradi [2]. Kundalik suhbatlar, birgalikda kechki ovqatlanish va oilaviy faoliyat ana shu muloqotning muhim shakllaridir:

– Har kuni farzand bilan kamida 20-30 daqiqa sifatli vaqt o’tkazish;

– Bolaning his-tuyg’ularini inkor etmay, ularga nom berish va tushunishga ko’maklashish;

– Oilaviy marosimlarga barcha oila a'zolarning qatnashishini ta'minlash;

– Diniy va milliy bayramlarni birgalikda nishonlash orqali qadriyatlarni singdirish

3. Shaxsiy namuna orqali tarbiya. Bola ota-onasini kuzatib, ularning xatti-harakatlariga taqlid qiladi. Shuning uchun ota-onaning o’zi halollik, mehnatsevarlik, odamgarchilik va ma'naviy qadriyatlarga amal qilishi eng kuchli tarbiya vositasi hisoblanadi. Ota-ona o’qishga, bilim olishga, ijodiy faoliyatga qiziqish ko’rsatsa, bolada ham bu sifatlar tabiiy ravishda shakllanadi.

4.Raqamli muhitda ongli tarbiya.

Bugungi kunda gadjetlar va internetdan foydalanishda aniq qoidalarni belgilash muhim hisoblanadi. Bolaning yoshiga mos va foydali kontentni tanlash, ekran oldida o‘tkaziladigan vaqtni me’yorlash zarur. Ota-onalar farzandlari bilan birga texnologiyalardan oqilona foydalanishni yo‘lga qo‘yishlari, ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatini nazorat qilib borishlari lozim. Shu bilan birga, internetdagi zararli axborotlardan himoya qilish, bolaning bo‘sh vaqtini foydali mashg‘ulotlar bilan to‘ldirish ham muhimdir. Ota-onalar o‘zlari ham to‘g‘ri namuna ko‘rsatib, farzandlarida mas’uliyatli va ongli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishlari kerak.

5. Maktab va mahalla bilan hamkorlik.

Farzand tarbiyasi faqat oilada emas, balki maktab, mahalla va jamiyat bilan uzviy hamkorlik asosida olib borilishi zarur. Ota-onalar farzandining maktabdagi hayotiga befarq bo‘lmasdan, uning o‘qishi, xulqi va qiziqishlari bilan muntazam qiziqib borishlari kerak. O‘qituvchilar bilan doimiy muloqotda bo‘lish, ota-onalar yig‘ilishlarida faol qatnashish muhimdir. Shuningdek, mahalla tomonidan tashkil etiladigan tadbirlar, ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlarda ishtirok etish orqali bola ijtimoiy muhitga moslashadi. Bunday hamkorlik farzandning har tomonlama rivojlanishi va ijtimoiylashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

XULOSA

Farzand tarbiyasida ota-onaning o’rni beqiyos va almashtrib bo’lmasdir. Oila - bolaning dunyoga nazar tashlashini, qadriyatlarni o’rganishini va o’zligini

anglashini ta'minlaydigan birinchi maktab. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, bola tarbiyasida muvaffaqiyatga erishish uchun quyidagi asosiy omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

– Ota-onaning bolaga bo’lgan so’zsiz muhabbati va e'tiborining doimiyligi bola xavfsizlik hissini shakllantiradi va uning ruhiy salomatligini ta'minlaydi.

– Tarbiyaviy yondashuv izchil, muvozanatli va bola yoshiga mos bo’lishi zarur.

– Ota-onaning o’z ustida ishlashi, pedagogik bilimlarni oshirishi va zamonaviy muammolarga moslashishi - barkamol avlodni tarbiyalashning kaliti.

– Oila, maktab va jamiyat o’rtasidagi uyg’un hamkorlik bolaning har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi [5].

Ushbu tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish davomida ota-onalarning farzandlar bilan munosabati sifati oshadi, oiladagi psixologik muhit yaxshilanadi va bolalarda ijobiy shaxsiy fazilatlar shakllana boshlaydi. Kelajakda ota-onalarni o’qitish dasturlari, raqamli tarbiya vositalari va ijtimoiy yordam mexanizmlarini takomillashtirish orqali bu yo’nalishda yanada yuqori natijalarga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baumrind D. Child Care Practices Anteceding Three Patterns of Preschool Behavior // Genetic Psychology Monographs. – 1967. – Vol. 75(1). – P. 43–88.

2. Maccoby E.E., Martin J.A. Socialization in the Context of the Family: Parent-Child Interaction // Handbook of Child Psychology. – New York: Wiley, 1983. – Vol. 4. – P. 1–101.

3. Vygotskiy L.S. Rivojlanish psixologiyasi: Tanlangan asarlar. – Toshkent: O’qituvchi, 2005. – 344 b.

4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.

5. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge: Harvard University Press, 1979. – 330 p.

UCHQUN NAZAROVNING “CHAYON YILI” ROMANIDA PSIXOLOGIK TASVIRNING O’RNI

Denov tadbirkorlik va pedagogika insituti Adabiyotshunoslik yo’nalishi 1-kurs magistranti

Hakimova Musallam

E-mail: musallamhakimova3@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola “Chayon yili” romanida psixologik tasvirning badiiy tizimdagi o‘rni va funksional yukini tahlil qiladi. Tadqiqotning maqsadi asarda qahramon ichki dunyosini ifodalovchi psixologik vositalar, ularning syujet-kompozitsiya bilan aloqasi hamda o‘quvchi idroki va estetik ta’sir mexanizmlarini aniqlashdir. Metodologiya sifatida yaqin o‘qish, narratologik tahlil, psixopoetika va obrazlar semantikasi yondashuvlari qo‘llanadi. Material bazasi roman matni va mavzuga oid nazariy manbalardan iborat. Ilmiy yangilik shundaki, romandagi ichki monolog, erkin bilvosita nutq, psixologik detal va vaqt-ong korrelyatsiyasi bir butun psixologik kompozitsiya sifatida izchil tizimlashtirilib, ularning konflikt dinamikasini boshqarishdagi roli ko‘rsatiladi. Natijalar psixologik tasvir qahramon axloqiy tanlovi, ijtimoiy bosim va shaxsiy mas’uliyat muammosini badiiy idrokda kuchaytirishini asoslaydi.*

Аннотация. *В статье анализируется роль психологического изображения в художественной системе романа «Чайон йили» и его функциональная нагрузка. Цель исследования заключается в выявлении средств психологизации повествования, способов репрезентации внутреннего мира героя, их связи с сюжетно-композиционной организацией и механизмов эстетического воздействия на читателя. Методологическую основу составляют близкое чтение, нарратологический анализ, психопоэтика и семантический анализ образов; материалом служит текст романа и релевантные теоретические источники. Научная новизна состоит в системном описании внутреннего монолога, свободно-косвенной речи, психологической детали и корреляции времени с сознанием как единого комплекса, управляющего динамикой конфликта. Показано, что психологическое изображение усиливает проблематику нравственного выбора, давления среды и личной ответственности, формируя напряжение между внешним действием и внутренним самоосмыслением.*

Abstract. *This article examines the role of psychological depiction in the artistic system of the novel "Chayon yili" and its functional significance. The study aims to identify the key techniques used to represent the protagonist's inner world, explain how these techniques interact with plot and composition, and clarify the mechanisms through which psychological narration shapes readers' aesthetic perception. The methodology combines close reading, narratological analysis, psychopoetics, and semantic interpretation of imagery; the research corpus includes the novel's text supported by relevant theoretical scholarship. The novelty of the study lies in systematizing inner monologue, free indirect discourse, psychological detail, and the time-consciousness correlation as an integrated psychological composition that governs conflict dynamics. The findings demonstrate that psychological depiction intensifies the themes of moral choice, social pressure, and personal responsibility by establishing a persistent tension between external events and internal self-reflection.*

Kalit so'zlar*. psixologik tasvir, psixopoetika, ichki monolog, erkin bilvosita nutq, psixologik detal, narratologiya, badiiy konflikt*

Ключевые слова. *психологическое изображение, психопоэтика, внутренний монолог, свободно-косвенная речь, психологическая деталь, нарратология, художественный конфликт.*

Keywords. *psychological depiction, psychopoetics, inner monologue, free indirect discourse, psychological detail, narratology, literary conflict.*

KIRISH

O'zbek nasrida psixologik tasvirning taraqqiyoti badiiy tafakkurning ichki dinamizmi, shaxs va muhit munosabatlarining murakkablashuvi hamda ijtimoiy tajriba qatlamlarining estetik shakllanishi bilan uzviy bog'liq. Zamonaviy roman poetikasida psixologik tasvir nafaqat qahramon ruhiy holatini "tasvirlash", balki voqelikni idrok etish usulini, tanlovlar motivatsiyasini, axloqiy mezonlar tizimini ham badiiy tarzda qurish vazifasini bajaradi. Shu ma'noda "Chayon yili" romanini psixologik tahlil qilish asarning faqat syujetiy voqealarini emas, balki ong oqimi, ichki tortinish, ishonch va shubha, ijtimoiy bosim va shaxsiy mas'uliyat o'rtasidagi taranglikni aniqlash uchun ham zarur. Adabiyotshunoslikda psixologizmni talqin qilishga doir yondashuvlar turlicha: bir tomonda psixologik tasvirni realizmning "ichki ishonchlilik" mezoni sifatida

ko‘ruvchi konsepsiyalar, ikkinchi tomonda esa narrativ strategiyalar, nutq shakllari va fokalizatsiya orqali ongning matndagi modellashtirilishini markazga qo‘yuvchi qarashlar ustuvor[63]. O‘zbek adabiyotshunosligida ham roman poetikasida qahramon ichki dunyosini berish vositalari, detal semantikasi hamda konfliktning psixologik motivatsiyasi masalalari izchil yoritilgan bo‘lsa-da, ayrim asarlar doirasida psixologik tasvirning kompozitsion “boshqaruv mexanizmi” sifatidagi roli yetarli darajada tizimlashtirilmagan.[64] Shuningdek, xalqaro nazariy tafakkurda psixopoetika va narratologiya kesishgan nuqtalarda ichki monolog, erkin bilvosita nutq, vaqt tajribasi va xotira strukturalarining badiiy funksiyalari keng tahlil qilinadi, bu esa “Chayon yili” matnini ham shu metodologik koordinatalarda ko‘rishga undaydi.[65]

Mazkur tadqiqotning maqsadi “Chayon yili” romanida psixologik tasvirning asosiy shakllari va ularning badiiy tizimdagi vazifalarini aniqlashdan iborat. Vazifalar quyidagicha: birinchidan, qahramon ongining matndagi ifoda usullarini (ichki monolog, erkin bilvosita nutq, psixologik portret va detal) ajratish va tavsiflash; ikkinchidan, psixologik tasvirning syujet ritmi va kompozitsion tugunlar bilan aloqasini ko‘rsatish; uchinchidan, psixologik tasvirning konflikt dinamikasini kuchaytirish, obrazlararo masofani belgilash hamda o‘quvchi empatiyasini yo‘naltirishdagi rolini asoslash. Ilmiy yangilik shundaki, romandagi psixologik vositalar alohida epizodiy usullar sifatida emas, balki yagona psixologik kompozitsiya, ya’ni voqea-hodisa va ichki idrok o‘rtasidagi muntazam almashuvni tashkil qiluvchi tizim sifatida tahlil etiladi. Amaliy ahamiyat maqola natijalaridan roman poetikasi, matn tahlili va adabiy talqin kurslarida, shuningdek, badiiy psixologizmni o‘rgatish metodikasida foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi.

ASOSIY QISM

[63] . Бахтин М. М. Вопросы литературы и эстетики. Москва, Художественная литература, 1975. 504 с.
[64] Qo‘shjonov M. O‘zbek romani poetikasi. Toshkent, Fan, 2010.280b.

[65] Genette G. Narrative Discourse: An Essay in Method. Ithaca, Cornell University Press, 1980. 285 p.

Tadqiqot materiali sifatida “Chayon yili” romanining matni asosiy korpusni tashkil etdi, qo‘shimcha manbalar sifatida psixologizm va narrativ tahlilga doir nazariy ishlanmalar jalb qilindi. Metodlar majmuasi bir-birini to‘ldiruvchi to‘rt yo‘nalishda qurildi. Birinchi yo‘nalish yaqin o‘qish usuli bo‘lib, unda psixologik mazmunni tashuvchi kalit parchalarning leksik-semantik qatlamlari, sintaktik ritmi, takrorlar va pauzalar orqali hosil bo‘ladigan emotsional bosim aniqlanadi. Ikkinchi yo‘nalish narratologik tahlil bo‘lib, fokalizatsiya almashinuvi, hikoya qiluvchi pozitsiyasi, vaqt rejimi (retrospektsiya, hozirgi vaqtning cho‘zilishi, kutilma) hamda nutq shakllari (to‘g‘ridan-to‘g‘ri nutq, bilvosita nutq, erkin bilvosita nutq)ning psixologik effektlari baholanadi.[66] Uchinchi yo‘nalish psixopoetik yondashuv bo‘lib, unda obrazlarning ichki motivatsiyasi, affektiv holatlar dinamikasi, xotira va travmatik tajriba izlari badiiy shaklga qanday ko‘chirilishi tahlil qilinadi [5]. To‘rtinchi yo‘nalish semantik tahlil bo‘lib, psixologik detal, predmet va makon tasvirlarining ichki ma’no qatlamlari hamda ramziy intensivligi ochib beriladi. Metodologik tanlovning ilmiy asosliligi shundaki, psixologik tasvir ko‘pincha bevosita “ruhiy holat” nomlanishi bilan emas, balki nutq, detal, ritm va kompozitsion o‘tishlar orqali bilvosita shakllanadi; shu sababli ko‘p usulli tahlil romandagi psixologik qatlamni integral ko‘rishga imkon beradi [4]. “Chayon yili” romani qahromonlarining ichki olami juda turfa xil, aslo bir-birini takrorlamaydi. Oynisa, Qayumjon, Ma’sud, Muqaddas, personaj sifatida qatnashgan Shamsi xola obrazlarining ruhiyati asarda juda sokin, samimiylikka yog’rilgan qalb egalari sifatida keltiriladi. To’g’ri, Muqaddas yoshlik qilib, nomaqulchillika yo’l qo’yadi, lekin u ayol kishi, bu – uning ojizligi edi. Lekin, u boshqalarga hech qachon yomonlik istamaydigan ijobiy obrazdir. Murodxo’ja, Hoshimjon obrazlari orqali o’z manfati yo’lida hech narsadan tab tortmaydigan insonlar qiyofasi tasvirlangan.

NATIJALAR

[66] Rimmon-Kenan S. Narrative Fiction: Contemporary Poetics. London, Routledge, 2002. 192 p.

Roman matni psixologik tasvirning bir nechta barqaror mexanizmlariga tayanishini ko‘rsatadi. Birinchi mexanizm ichki monologning kompozitsion tugunlarda faollashuvidir: qahramon qaror oldidan yoki ortga qaytmas oqibatni his qilgan pallalarda ichki nutqning sintaktik tuzilishi cho‘ziladi, shartli va taxminiy konstruksiyalar ko‘payadi, natijada tashqi voqea “to‘xtagandek”, ong esa “tezlashgandek” taassurot paydo qiladi. Ikkinchi mexanizm erkin bilvosita nutq orqali muallifiy bayon bilan qahramon idroki chegarasining xiralashuvidir; bunda baholovchi so‘zlar, kinoya yoki iztirob ohangi ko‘pincha muallifga emas, balki qahramonning o‘zini oqlash yoki o‘zini ayblashga moyil ichki pozitsiyasiga bog‘lanadi. Shu yo‘l bilan roman qahramon ruhiyatini “tashqaridan” tasvirlamay, balki idrokning o‘z ichida yashirin baholash mexanizmini namoyon qiladi.

Uchinchi mexanizm psixologik detalning muntazam ishlatilishidir. Detal ko‘pincha portret unsuridan ko‘ra predmet, harakat yoki makon elementida jamlanadi: takrorlanadigan mayda ishoralar, oddiy ko‘rinadigan, biroq har safar turlicha kontekstda qayta uchraydigan predmetlar qahramonning beqaror ruhiy holatini “o‘lchov birligi”ga aylantiradi. Detalning semantik yuklanishi shundan iboratki, u emotsional holatni nomlamasdan, uni sezdiradi; qahramonning xavotiri, ichki qarshiligi yoki o‘ziga ishonchsizligi aynan shu predmetiy qatlamda “sokin” tarzda yig‘ilib boradi. To‘rtinchi mexanizm vaqt va ong korrelyatsiyasidir: roman ayrim bo‘laklarda vaqtni siqadi, ayrim bo‘laklarda esa bir lahzani kengaytiradi, vaqtning bunday elastikligi qahramon xotirasining qaytishlari, pushaymon va taxminlar bilan to‘lib-toshgan ong holati bilan uyg‘unlashadi. Natijada syujetning tashqi ketma-ketligi bilan ruhiy tajribaning ichki ketma-ketligi bir-biridan farqlanib, psixologik taranglikni kuchaytiradi.

Beshinchi mexanizm dialogning psixologik “bo‘shliqlar” orqali qurilishidir. Roman dialoglarida aytilgan gapdan ko‘ra aytilmay qolgan ma’no ko‘proq ishlaydi: javobning kechikishi, mavzuning chetlab o‘tilishi, takroriy savollar yoki yarim gaplar qahramonlar o‘rtasidagi ishonchsizlik va himoyalanish strategiyasini ko‘rsatadi. Bu bo‘shliqlar qahramonlararo

munosabatni sotsiologik voqelik sifatida emas, balki psixologik masofa sifatida o‘lchashga xizmat qiladi. Oltinchi mexanizm konfliktning psixologik motivatsiyalanishidir: tashqi nizolar ichki ehtiyojlar, qadriyatlar to‘qnashuvi, o‘zini saqlash instinkti va axloqiy ideal o‘rtasidagi qarama-qarshilikdan oziqlanadi. Shu tarzda roman konfliktni faqat voqealar sathida emas, qahramonning o‘z-o‘zi bilan munosabatida ham barqaror ushlab turadi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar psixologik tasvirning romandagi funksiyasi “ruhiy holatni bezash” emas, balki badiiy strukturani tashkil etish ekanini ko‘rsatadi. Bu holat narratologiyada psixologik fokalizatsiya va nutq shakllari orqali ongni modellashtirish haqidagi qarashlar bilan mos keladi: qahramon idroki matnning semantik markaziga aylanganda, syujetning ma’nosi ham aynan idrokdagi siljishlar orqali ochiladi.[67] Romanda erkin bilvosita nutqning faolligi muallifiy hukmni minimal darajaga tushirib, o‘quvchini qahramonning o‘zini oqlash va o‘zini tanqid qilish mexanizmlari orasida “ichkaridan” kuzatuvchi holatiga olib kiradi; bu esa psixopoetik konsepsiyalarda ta’kidlanadigan affektiv tajriba va til o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni kuchaytiradi.[68] Psixologik detalning predmetiy qatlamda jamlanishi esa realizm va modern proza tajribalarini bog‘lovchi ko‘prik sifatida talqin qilinishi mumkin: detal bir vaqtning o‘zida ham referensial (hayotiy), ham semantik (ramziy) vazifa bajarib, qahramon ruhiyatining “sukutdagi” izlarini saqlaydi.

Roman doirasida vaqtning elastikligi va xotira qaytishlari o‘quvchi idrokida konfliktni nafaqat natija, balki jarayon sifatida ko‘rishga imkon beradi. Bu yerda psixologik tasvir axloqiy tanlov muammosini soddalashtirmaydi; aksincha, tanlovning ichki narxi, kechiktirilgan qaror, o‘zini aldash va o‘zini anglash bosqichlari bosqichma-bosqich badiiylashtiriladi. Bunday yondashuv o‘zbek romaniga xos ijtimoiy-axloqiy muammolarni shaxs ichki dunyosida “qayta yozish” orqali umumiylashadi, natijada individual tajriba kengroq ma’no

[67] Rimmon-Kenan S. Narrative Fiction: Contemporary Poetics. London, Routledge, 2002. 192 p.
[68] Vygotsky L. S. Psychology of Art. Cambridge, MIT Press, 1971. 288 p.

ufqlarini ochadi. Amaliy jihatdan, mazkur tahlil “Chayon yili”ni o‘qitish va sharhlash jarayonida o‘quvchining diqqati voqea bayonidan ko‘ra narrativ texnika va psixologik belgilar tizimiga ko‘chirilsa, asar mazmuni chuqurroq idrok etilishini ko‘rsatadi.

Tadqiqot cheklovlari shundan iboratki, tahlil asosan matn ichki ko‘rsatkichlariga tayandi va qabul (resepsiya) masalasini empirik usullar bilan tekshirmadi; shuningdek, romanning turli nashr variantlari mavjud bo‘lsa, ularning tekstologik farqlari alohida korpusiy tekshiruvga tortilmadi. Kelgusida “Chayon yili” psixologizmini muallifning boshqa asarlari bilan qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, o‘zbek romanida erkin bilvosita nutqning evolyutsiyasini korpus lingvistikasi elementlari bilan o‘rganish istiqbolli ko‘rinadi.[69]

XULOSA

Tadqiqot “Chayon yili” romanida psixologik tasvir badiiy tizimning markaziy tashkil etuvchi omillaridan biri ekanini ko‘rsatdi. Asarda ichki monolog va erkin bilvosita nutq qahramon idrokini narrativning semantik markaziga aylantirib, muallifiy bayon bilan qahramon ongini nozik tarzda yaqinlashtiradi. Psixologik detal va predmet-makon signallari ruhiy holatni bevosita nomlamasdan sezdirib, emotsional taranglikni izchil yig‘adi va konflikt dinamikasini boshqaradi. Vaqtning elastik qurilishi va xotira qaytishlari syujetni tashqi ketma-ketlikdan ko‘ra ichki tajriba ketma-ketligiga bog‘lab, axloqiy tanlov muammosini murakkab jarayon sifatida yoritadi. Natijada psixologik tasvir roman estetik ta’sirini kuchaytirib, qahramon mas’uliyati va muhit bosimi o‘rtasidagi ziddiyatni chuqur badiiy umumlashtirish darajasiga

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qo‘shjonov M. O‘zbek romani poetikasi. Toshkent, Fan, 2010. 280 b.

2. Normatov U. Ijod sehri. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2007. 320 b.

3. Бахтин М. М. Вопросы литературы и эстетики. Москва, Художественная литература, 1975. 504 с.

[69] Genette G. Narrative Discourse: An Essay in Method. Ithaca, Cornell University Press, 1980. 285 p.

4. Genette G. Narrative Discourse: An Essay in Method. Ithaca, Cornell University Press, 1980. 285 p.Genette G. Narrative Discourse: An Essay in Method. Ithaca, Cornell University Press, 1980. 285 p.

5. Vygotsky L. S. Psychology of Art. Cambridge, MIT Press, 1971. 288 p.

6. Rimmon-Kenan S. Narrative Fiction: Contemporary Poetics. London, Routledge, 2002. 192 p.

YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA YOSHLAR MA'NAVIY-AXLOQIY QIYOFASINI TAKOMILLASHIRISHDA TA'LIM VA TARBIYA UZVIYLIGI

Vaxobov Ulug'bek Bahodir o'g'li

JDPU, Doktarant

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda ta'lim va tarbiya jarayonlarining uzviyligini ta'minlashning dolzarb masalalari tadqiq etilgan. Ma'naviy tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish, raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish va pedagogik integratsiya usullari ilmiy asoslangan. Maqolada xorijiy va mahalliy olimlarning qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, yoshlar tarbiyasida tizimli yondashuvning ahamiyati ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Yangi O'zbekiston, ma'naviy-axloqiy tarbiya, ta'lim-tarbiya uzviyligi, innovatsion ta'lim, pedagogik texnologiyalar, globallashuv, intellektual salohiyat, tizimli yondashuv.*

Аннотация: *В данной статье исследуются актуальные вопросы обеспечения непрерывности процессов образования и воспитания в формировании духовно-нравственного облика молодежи в условиях Нового Узбекистана. Научно обоснованы инновационные подходы к процессу духовно-нравственного воспитания, эффективное использование цифровых технологий и методы педагогической интеграции. В статье проводится сравнительный анализ взглядов зарубежных и отечественных ученых, раскрывается значение системного подхода в воспитании молодежи.*

Ключевые слова: *Новый Узбекистан, духовно-нравственное воспитание, непрерывность образования и воспитания, инновационное образование, педагогические технологии, глобализация, интеллектуальный потенциал, системный подход.*

Abstract: *This article examines the pressing issues of ensuring the continuity of education and upbringing processes in shaping the spiritual and moral character of youth in the conditions of New Uzbekistan. Innovative approaches to the process of moral education, the effective use of digital technologies, and methods of pedagogical integration are*

scientifically substantiated. The article provides a comparative analysis of the views of foreign and local scholars, revealing the significance of a systematic approach to youth upbringing.

Keywords: *New Uzbekistan, spiritual and moral upbringing, continuity of education and upbringing, innovative education, pedagogical technologies, globalization, intellectual potential, systematic approach.*

KIRISH

Bugungi kunda O’zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko’lamli islohotlarning markazida inson kapitalini rivojlantirish va komil insonni voyaga yetkazish masalasi turibdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Agar biz ta’limni o’zgartirmasak, ta’lim insonni o’zgartirmasa, biz ko’zlagan strategik maqsadlarimizga erisha olmaymiz” [1]. Yangi O’zbekistonning strategik maqsadi Uchinchi Renessans poydevorini yaratish ekan, bu jarayonda yoshlarning nafaqat intellektual, balki yuksak ma’naviy-axloqiy qiyofaga ega bo’lishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da yillar davomida amal qilib kelgan “**davlat – jamiyat – inson**” tamoyili **“inson – jamiyat – davlat**” tamoyiliga o‘zgartirilmoqda. Yanada sodda qilib aytganda, O‘zbekistonda har bir fuqaroning qadrini yuksaltirish va farovonligini oshirish zarurligiga urg‘u berilmoqda. Buni hozirgi hayotimizning har bir jabhasida ko’rishimiz mumkin. Masalan, ta’lim gumanistik pedagogika va ijtimoiy rekonstruksionizm nazariyalariga hamohangdir. Ya’ni, ta’lim faqat bilim berish emas, balki shaxsning xatti-harakatini va dunyoqarashini o‘zgartiruvchi vositadir. Bundan tushunish mumkin-ki, strategik maqsadlarga (iqtisodiy o‘sish, texnologik taraqqiyot) faqat “eskicha fikrlaydigan” kadrlar bilan erishib bo‘lmaydi. Ta’lim insonni “ijtimoiy mas’uliyatli subyekt”ga aylantirishi lozim.

Uchinchi Renessans poydevori faqat raqamli texnologiyalar bilan emas, balki “Ma’naviy-axloqiy immunitet” bilan quriladi. Tarixiy tajriba (Birinchi va Ikkinchi Renessanslar) shuni ko‘rsatadiki, ilmiy yuksalish har doim kuchli falsafiy-axloqiy poydevorga tayangan.

Shuning uchun ham ma’naviy sohada ham tub burulishlar amalga oshmoqda. Bizning mavzuyimizga daxldor bo’lgan jabhalarda ham. Avvalo,

ma’naviy-axloqiy qiyofa nima degan savolga javob topaylik. Ma’naviy-axloqiy qiyofa — bu shaxsning ichki dunyosi, qadriyatlari, milliy va umuminsoniy an’analarga bo’lgan munosabati hamda ijtimoiy mas’uliyatining yaxlit ifodasidir. Globallashuv va axborot xurujlari kuchaygan davrda yoshlarni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish, ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirish ta’lim va tarbiyaning tizimli integratsiyasini talab etadi. Shunday ekan, bu soha har qachongidanda muhim va dolzarbdir.

Ta’lim va tarbiya uzviyligi masalasi qadimdan sharq mutafakkirlari va g’arb pedagoglarining diqqat markazida bo’lib kelgan. Abu Nasr Forobiy o’zining “Fozil odamlar shahri” asarida ta’lim va tarbiyani bir-biridan ajratib bo’lmasligini, ta’lim bilim berish bo’lsa, tarbiya shu bilim asosida axloqiy fazilatlarni shakllantirish ekanini uqtirgan. Forobiy ta’rifiga ko‘ra, ta’lim — xalqlar va shaharlarda nazariy fazilatlarni vujudga keltirishdir. Tarbiya esa xalqlarda amaliy fazilatlar va san’atlarni (hunarlarni) vujudga keltirish usulidir[2].

O’zbekistonlik olimlardan M. Quronov, Sh. Qurbonov, U. Mahkamovlar o’z tadqiqotlarida milliy tarbiyaning metodologik asoslarini ishlab chiqqanlar. Xususan, pedagogika fanlari doktori, professor M. Quronov ta’kidlashicha, “Tarbiya — bu shunchaki o’git emas, balki yoshlar qalbida milliy g’urur va mas’uliyatni uyg’otadigan tizimli innovatsion jarayon bo’lishi kerak” [3]. Haqiqatdan ham shunday bo’lishi kerakligini xorijlik bir qancha olimlarning fikrlarini ko’rib chiqish orqali isbotlashga harakat qilamiz.

Jumladan, zamonaviy tadqiqotchilardan A.N. Leontev va L.S. Vigotskiy shaxsning rivojlanishida ijtimoiy muhit va faoliyatning rolini yuqori baholaganlar[4]. G’arb olimlaridan J.Dyui ta’limni “hayotga tayyorgarlik emas, balki hayotning o’zi” deb hisoblab, tarbiyani ijtimoiy tajriba orqali shakllantirishni taklif qilgan. Bugungi innovatsion sharoitda ushbu klassik qarashlarni raqamli pedagogika bilan sintez qilish zarurati tug’ilmoqda.

Bugungi kunda ushbu olimlarning qarashlarini raqamli pedagogika bilan birlashtirish quyidagi jadvalda o‘z aksini topadi:

Olim / Nazariya	**Klassik tushuncha**	**Raqamli sintez (Innovatsiya)**
L. Vigotskiy	Ijtimoiy muloqot	Kollektiv onlayn ta'lim, Mentorlik platformalari
A. Leontyev	Ongli faoliyat	VR/AR simulyatsiyalari, dasturlash, raqamli ijod
J. Dyui	Tajriba orqali o'rganish	Muammoli ta'lim (PBL), real keyslar bilan ishlash

UNESCOning “Ta’lim: yashirin xazina” (Delors ma’ruzasi) hisobotida keltirilgan to‘rt ustun — bilishni o‘rganish, bajarishni o‘rganish, birga yashashni o‘rganish va bo‘lishni (o‘zligini anglashni) o‘rganish tamoyillari bugungi islohotlarning pedagogik asosi hisoblanadi.

Maqolani yozish jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy-mantiqiy yondashuv, pedagogik kuzatuv va innovatsion modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Yangi O’zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar maqolaning metodologik asosini tashkil etdi.

Yangi O’zbekistonda ta’lim-tarbiya uzviyligini innovatsion ta’minlash bir nechta muhim yo’nalishlarni o’z ichiga oladi:

1. Tarbiya jarayonini raqamlashtirish va "Smart-tarbiya" texnologiyasi:

Hozirgi yoshlar — “alfa” avlodi vakillaridir. Ular uchun an’anaviy ma’ruza shaklidagi o’gitlar samarasiz bo’lib qolmoqda. Innovatsion yondashuv tarbiya jarayoniga VR (virtual borliq) va AR (to’ldirilgan borliq) texnologiyalarini olib kirishni taqozo etadi. Masalan, tarix darslarida talabalarni virtual ravishda Amir Temur davriga yoki Imom Buxoriy yashagan muhitga “sayohat qildirish” ularda milliy iftixor tuyg’usini kitobdagi matndan ko’ra kuchliroq shakllantiradi.

2. Geymifikatsiya (O’yinlashtirish) usuli

Ma’naviy-axloqiy tushunchalarni yoshlar ongiga singdirishda ta’limiy o’yinlardan foydalanish yuqori natija beradi. Bunda axloqiy dilemmalar va

muammoli vaziyatlar yechimiga asoslangan interaktiv loyihalar yoshlarda mustaqil qaror qabul qilish va mas’uliyatni his etish ko’nikmasini rivojlantiradi.

3. “Ustoz-shogird” an’anasining innovatsion transformatsiyasi

Klassik “ustoz-shogird” tizimi bugungi kunda kouching va mentorlik shakllari bilan boyitilmoqda. Endilikda ustoz faqat bilim beruvchi emas, balki talabaning shaxsiy rivojlanishini yo’naltiruvchi strategik maslahatchiga aylanmoqda. Bu esa ta’lim muassasasidagi muhitni “avtoritar”likdan “hamkorlik”ka o’zgartiradi.

Ta’lim-tarbiya uzviyligini ta’minlashda quyidagi vositalar kompleksidan foydalanish maqsadga muvofiq:

- Integrativ o’quv dasturlari: Har bir fanning (xoh matematika, xoh fizika bo’lsin) ichiga ma’naviy va axloqiy komponentlarni singdirish. Masalan, aniq fanlarni o’qitishda buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosi orqali vatanparvarlikni targ’ib qilish.
- Ijtimoiy loyihalar: Talaba yoshlarning "Kelajak liderlari", "Volontyorlik harakati" kabi ijtimoiy faol loyihalarda ishtiroki ulardagi axloqiy qiyofani amaliyotda toblaydi.
- Media-savodxonlik: Yoshlarni axborot xurujlaridan himoya qilish uchun ularga "axborot filьtri"ni yaratish vositalarini o’rgatish.

Ilmiy munozara va tahlil

Ko’pchilik tadqiqotchilarning fikricha, ta’lim va tarbiyani alohida bo’g’in sifatida ko’rish pedagogik xatolikdir. Masalan, nemis pedagogi I.Gerbart ta’limsiz tarbiya, tarbiyasiz ta’lim bo’lmasligini qattiq turib ta’kidlagan. Biroq, bugungi kunning o’ziga xos jihati shundaki, tarbiya jarayoni endilikda faqat maktab yoki oila bilan chegaralanib qolmayapti. Global internet tarmog’i “parallel tarbiyachi” rolini o’tamoqda.

Shu bois, biz taklif etayotgan "Tizimli innovatsion ta’minlash" modeli quyidagi uchlikni nazarda tutadi:

Oila + Ta’lim muassasasi + Raqamli muhit. Agar ushbu zanjirning biror bo’g’inida uzilish bo’lsa, yoshlarning ma’naviy qiyofasida deformatsiya kuzatiladi.

Akademik S. G’ulomov ta’kidlaganidek, "Raqamli iqtisodiyot davrida bizga nafaqat kod yozishni biladigan dasturchi, balki milliy qadriyatlarni chuqur anglaydigan, vijdon amri bilan ishlaydigan mutaxassis kerak"[5]. Raqamli iqtisodiyot faqatgina texnologiyalar, algoritmlar va “katta ma'lumotlar” (Big Data) yig‘indisi emas. Akademik G‘ulomov bu yerda “texnokratik yondashuv” (faqat texnika va samaradorlikka e'tibor berish) bilan “gumanistik yondashuv” (insoniy qadriyatlarni ustun qo‘yish) o‘rtasidagi muvozanatga urg‘u bermoqda. Bu fikr ta’lim va tarbiya uzviyligining strategik ahamiyatini to’laqonli ifodalaydi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko’rsatadiki, ta’lim va tarbiya uzviyligini innovatsion ta’minlash natijasida:

1. Yoshlarning ijtimoiy faolligi va mas’uliyat hissi 30-40% ga ortadi.
2. Media-madaniyat shakllanishi natijasida yot g’oyalarga ergashish ko’rsatkichi pasayadi.
3. Ta’lim sifati va o’zlashtirish samaradorligi axloqiy muhit barqarorligi hisobiga yaxshilanadi.

Yangi O’zbekistonda yoshlar ma’naviy-axloqiy qiyofasini takomillashtirish – bu uzluksiz va dinamik jarayon. Ushbu jarayonni innovatsion ta’minlash uchun quyidagilarni amalga oshirish taklif etiladi:

- Birinchidan, oliy va o’rta maxsus ta’lim tizimida “Ma’naviyat va innovatsiya” markazlarini tashkil etish va ularni zamonaviy media-texnologiyalar bilan jihozlash.
- Ikkinchidan, pedagogik kadrlarni tayyorlashda ularning nafaqat mutaxassislik bilimi, balki psixologik-pedagogik va mentorlik ko’nikmalarini baholash tizimini joriy etish.

• Uchinchidan, milliy qadriyatlarimizni zamonaviy trendlar (infografikalar, qisqa metrajli motivatsion roliklar, podkastlar) shaklida yoshlar auditoriyasiga yetkazish tizimini yo’lga qo’yish.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ta’lim va tarbiyaning innovatsion uzviyligi Yangi O’zbekistonning strategik taraqqiyotini ta’minlovchi asosiy drayverdir. Shaxs ma’naviyati va intellektual salohiyatining uyg’unligi mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini belgilab beradi. Yuqoridagi fikrlar Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-falsafiy doktrinasini ifodalaydi. Undagi o‘zgarishlar shunchaki strukturaviy emas, balki qadriyatlarga asoslangan (value-based) transformatsiyadir. Bu jarayonda ta’lim – harakatlantiruvchi kuch, inson qadri esa – yakuniy maqsad sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. - Toshkent: "O'zbekiston", 2021.

2. Abu Nasr Forobiy. *Fozil odamlar shahri.* — Toshkent: "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. — 158-160-betlar.

3. Quronov M. Maktab ma’naviyati va milliy tarbiya. - Toshkent, 2020.

4. Выготский Л.С. Педагогическая психология. - М.: Педагогика-Пресс, 1999.

5. G’ulomov S.S. Raqamli iqtisodiyot: rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2020. – 14-bet.

O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA BIOGRAFIK METOD TARAQQIYOT TAMOYILLARI: NAIM KARIMOVNING OYBEK HAQIDAGI TADQIQOTLARI MISOLIDA

Navoiy davlat universiteti doktoranti

Jonpo’lotova Gulshoda Qobil qizi

gulshodajonpolotova@gmail.com

Annotatsiya*:Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotshunosligida biografik metodning taraqqiyot tamoyillari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. Xususan, tasniflash jarayonida Naim Karimovning Oybek hayoti va ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlari asosiy manba sifatida jalb etildi. Tadqiqotda muallif–matn–kontekst uchligi doirasida biografik yondashuvning funksional imkoniyatlari ochib berilib, Oybek ijodidagi biografik chizgilar konkret dalillar asosida ilmiy-amaliy jihatdan tahlil etildi. Shuningdek, Naim Karimov tomonidan biografik metod tamoyillariga tayangan holda adib ijodining qayta rekonstruksiya qilinishiasoslab berildi.*

Kalit so‘zlar: *biografik metod, taraqqiyot tamoyillari, tasnif, biografik chizgi, kontekst, rekonstruksiya, muallif–matn–kontekst munosabati, ilmiy tahlil*

Abstract*:This article examines the developmental principles of the biographical method in Uzbek literary studies from a theoretical and methodological perspective. In particular, the classification process is based on the analysis of Naim Karimov’s studies devoted to the life and works of Oybek. Within the framework of the author–text–context triad, the functional potential of the biographical approach is revealed, and the biographical elements in Oybek’s творчество are analyzed on the basis of concrete sources and evidence. Furthermore, the article substantiates how Naim Karimov reconstructs the writer’s creative legacy relying on the principles of the biographical method.*

Keywords*:biographical method, developmental principles, classification, biographical element, context, reconstruction, author–text–context relationship, literary*

KIRISH

Biografik metodni adabiyotshunoslik metodologiyasi doirasida “taraqqiyot tamoyillari” mezonida tadqiq etish, avvalo, metodning tarixiy

shakllanishini oddiy xronologik ketma-ketlikda qayd etish bilan kifoyalanmaydi. Aksincha, uning to’g’ri va maqbul usul sifatida tan olinishi, tayanch manbalari, matnni izohlashdagi kuchi va imkoniyati, nazorat mexanizmlarining (fikr yoki xulosaning to'g'riligini dalillar orqali tekshirish va tasdiqlash, manba tanqidi, mantiqiy moslik, etik cheklovlar) bosqichma-bosqich murakkablashib borishini nazariy qayta tiklab tushunishni talab qiladi. Biografik metod o‘z mohiyatiga ko‘ra adabiy jarayonni “shaxs–matn–kontekst” uchburchagi ichida o‘qish usuli bo‘lib, uning taraqqiyoti aynan shu uch nazariy yondashuv qay tarzda qayta taqsimlanishi bilan belgilanadi. Ayrim davrlarda shaxs determinanti kuchaysa, boshqa davrlarda matn mustaqilligi yoki tarixiy-madaniy tizimlarning ustuvorligi kuchayadi. Metodning “taraqqiyot tamoyillari” esa ana shu o'zgarib turuvchi jarayonlarni ilmiy me’yorlar asosida izohlash va boshqarish qoidalarini ishlab chiqish jarayonidan iboratdir. [1] Adabiyotshunos Naim Karimov o’z tadqiqotlarida bu tamoyillarga yetarlicha amal qilgan. Birgina, Oybek haqidagi tadqiqotlariga to’xtalsak, buyuk adibning o’zi yozgan “Bolalik xotiralarim”avtobiografik qissasi, rafiqasi Zarifa Saidnosirova tomonidan yaratilgan avtobiografik roman “Oybegim mening” kabi konkret manbalar mavjudligiga qaramasdan uning bolalik va undan keyingi umr yo'llarida hamfikr bo'lgan qadrdonlari Mirkarim Osim, Zulfiya, Mirtemir, Mamarasul Boboyev, Shuhrat, Turob To'la, Izzat Sulton, Saidvali Sharafiddinov, Homil Yoqubov, Vohid Zohidov, Inoyat Maxsumov, Xolida Sulaymonova kabi o’nlab ijodkorlar, adabiyotshunoslar va nashriyot vakillaridan Oybek to’g’risidagi ma’lumotlarni olib, o’z tadqiqotlarida foydalangan. Munaqqid tahlil jarayonini xotiralar, hujjatlar, davr ruhining ta’siri, ijodkorning shaxsiyati, moddiy va psixologik ahvoli kesishuvida talqin qilgan.

ASOSIYQISM

Oybekning 1935-yil iyulida Andijonga safar qilishi, qishloq xo’jaligini o’rganib, u yerda olgan taassurotlari asosida “Dehqon” lirik dostonini yaratishi ijodkor nomini yanada mashhur qiladi. Asarda boylarning qo’lida “qarol” yoki “chorakor” bo’lib ishlab, faqirlikda hayot kechirayotgan dehqonlarning sovetlar

zamonida kolxozga a'zo bo'lib kirib, ishi va turmushi ancha o'nglangani haqida so'z boradi. Bu o'rinlarda Oybek ijodida kontekst ta'siri ustuvorlik qilganligini ko'rishimiz mumkin.[2] Hassos adib "Qutlug' qon" asari haqida o'z tarjimayi holida quyidagicha o'rinlar bor: "Men tarjima bilan shug'ullanar ekanman o'z qahramonlarimda bo'lajak revolyutsion kurashchilarni, sovet jamiyatini quruvchilarni xalq ichidan chiqqan kishilarda ko'rdim".[3] Ushbu asarga siyosiy tazyiq asosida rus inqilobchisi Petrov obrazining kiritilishini Naim Karimov o'zining "Petrov jumbog'i" maqolasida shunday baholaydi: "Asarning yozuvchilar uyushmasida o'tkazilgan va bizgacha yetib kelgan ikkinchi muhokamasida Oybekka qo'yilgan eng katta va asosiy ayb- romanda o'zbek mehnatkashlari ijtimoiy ongining o'sishida "ulug' rus xalqining progressiv roli" ko'rsatilmagani edi".[4] Munaqqid siyosiy tuzum ta'sirida asarga olib kirilgan obrazni chiqarib tashlab, (yozuvchi hayotligidagi oxirgi nashr daxlsiz hisoblansada) asarni Oybek aslida yozgan variantni qayta tiklaydi. Bu jarayonni adabiyotshunos Suvon Meli "O'zbek adabiyotining patriarxi" maqolasida shunday izohlaydi: "Buyuk adibning ijodiy ong va ilg'amida Yo'lchi vatanparvar, milliy qahramon sifatida gavdalangan. Asarga Petrov kiritilishi bilan Yo'lchi obrazida og'ish sodir bo'ladi, endi u milliy, xalq qahramoni emas,go'yo rus inqilobchilari safiga o'tib, salkam bolshevik sifatida ko'rina boshlaydi".[5]

Davr haqiqatiga tik boqa olgan, asliyatni tiklash orqali yozuvchining asardan ko'zlagan asl maqsadini ro'yobga chiqargan adabiyotshunos Naim Karimov biografik metodning taraqqiyot tamoyillarini adabiyotshunoslik tarixida yangi bosqichga olib chiqdi. Busiz ham asar o'z qiymatiga ega edi. Ammo Naim Karimovdek yuksak vijdon sohiblari tarixiy haqiqatning orqa fonda qolib ketishiga ko'z yumib keta olmagan. Boshqa bir o'rinda esa ijodkorning shaxsi, (iqtisodiy qiyinchiliklar bilan o'tgan yillar va ularning natijasida orttirilgan og'ir xastalik bilan kurash), umidsizlik tuyg'ulari bilan qoplangan psixologik holati ustuvorlik qilgan. Munaqqid adib ijodini biografik metod asosida quyidagicha tahlil qiladi:

Ko’nglim yarali, ko’nglim yarali,
Bahorlar mendan uzoqqa qochdi.
Xastalik esa quchog’in ochdi,
Boyaqish ko’nglim qonli yosh sochdi,
Ko’nglim yarali, ko’nglim yarali.
Qorong’i kecha… Yolg’iz ingrayman,
Ko’ksimni bosmish hijronning g’ami.
Yotog’im – olov, jahannam kabi
Tegmaydi yellar go’zal ko’klardan,
Ko’nglim yarali, ko’nglim yarali

Oybekning ushbu she’ri 1929-yilning 13-14-may kunlarida qaynisinglisi Sharifaga yozilgan maktubi orqali, qolaversa, ushbu xotiralar batafsil yozilgan Zarifa Saidnosirovaning “Oybegim mening” avtobiografik qissasi orqali yetib kelgan bo’lib, Naim Karimov “Oybek va Zarifa” asarida Oybekning o’sha vaqtdagi holatini quyidagicha tasvirlaydi: “Vaholanki, Oybek... Vaholanki, Oybek nafas olish organlari yallig‘langanligi sababli, sovuq yotoqxonada tongga qadar mijja qoqmay chiqayotgan edi... Qon tupurib, og'ir xastalik bilan ana shunday yakka-ma yakka olishayotgan Oybek uchun birdan bir hayot va umid manbai Zarifa edi. Shuning uchun ham uning shu kezlarda yozgan maktublarida oshiq shoirning faryodi jaranglab turadi.”[6]

Avvalo, biografik metodning asosiy tamoyili — ijodkor shaxsiy hayoti va uning ijodiy mahsuli o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochish — mazkur parchada aniq ko‘rinadi. Muallif Oybekning og‘ir kasallik holatini (“nafas olish organlari yallig‘langanligi”, “qon tupurib”) tasvirlash orqali uning ruhiy va jismoniy iztiroblarini konkret biografik faktlar asosida rekonstruksiya qiladi. Bu yerda hayotiy tafsilotlar shunchaki fon emas, balki adibning ichki kechinmalarini tushuntiruvchi determinativ omil sifatida talqin etiladi.

Ikkinchidan, munaqqid biografik materialni psixologik interpretatsiya bilan uyg‘unlashtiradi. Zarifa obrazi (“birdan bir hayot va umid manbai”) faqat biografik shaxs sifatida emas, balki ijodiy ilhom va mavjudlik motivatsiyasining

markazi sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuv biografik metodning psixologik yo‘nalishiga xos bo‘lib, shaxsiy munosabatlarning ijodiy jarayonga ta’sirini ochib beradi. Shu orqali Zarifa Saidnosirova nafaqat tarixiy shaxs, balki poetik energiya manbai sifatida qayta talqin qilinadi.

Uchinchidan, matnda epistolyar manbalarga ishora (“shu kezlarda yozgan maktublarida oshiq shoirning faryodi”) biografik metodning manbashunoslik asoslarini ko‘rsatadi. Munaqqid shaxsiy maktublarni dalil sifatida jalb etib, ularni adabiy matnni talqin qilishda autentik material sifatida ishlatadi. Bu esa ilmiylik va ishonchlilik darajasini oshiradi hamda subyektiv tasvirni hujjatli asos bilan mustahkamlaydi.

To‘rtinchidan, tasviriy-ifodaviy vositalarning tanlanishi ham metodologik ahamiyatga ega. “Yakka-ma yakka olishayotgan”, “oshiq shoirning faryodi” kabi iboralar biografik faktni emotsional-estetik talqinga aylantiradi. Bu holatda munaqqid nafaqat faktni qayd etadi, balki uni badiiylashtiradi, natijada biografik metod interpretativ darajaga\ko‘tariladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Naim Karimov ushbu parchada biografik metoddan kompleks tarzda foydalanadi: (1) hayotiy faktlarni aniqlik bilan berish, (2) ularni psixologik talqin qilish, (3) epistolyar manbalarga tayanish va (4) badiiy ifoda orqali chuqurlashtirish. Natijada Oybekning shaxsiy fojeasi va ijodiy ruhiyati o‘rtasidagi ichki bog‘liqlik ilmiy asosda ochib beriladi.

Shu o’rinda e’tiborni Zarifa Saidnosirovaning “Oybegim mening” asaridan olingan yuqoridagi “Ko’nglim yarali” she’ri ostida berilgan sharhga qaratsak: “Oybekning ana shunday og‘ir xastalik paytida yozgan she’rlari keyinchalik tanqidchilarga dastak bo‘lib qoldi. Ular bu she’rlarga yopishib, Oybekni badbin kayfiyat bilan yo‘g‘rilgan she’rlar yozishda aybladilar. Ular fikriga ko‘ra, ona tuprog‘idan, yor-do‘stlaridan uzoqda, musofirlikda yashayotgan, buning ustiga, ham iqtisodiy jihatdan qiynalgan, ham turli og‘ir xastalikka yo‘liqqan shoir faqat Sovet hukumatini sharaflovchi she’rlar yozishi, o‘z dardi va alamlarini esa ichiga yutishi lozim edi.”[7]

Zarifa Saidnosirovaning “Oybegim mening” asaridan keltirilgan mazkur parcha biografik metod nuqtayi nazaridan tahlil etilganda, unda adabiy matn bilan ijodkor shaxsiyati o‘rtasidagi murakkab munosabatlar yaqqol namoyon bo‘ladi. Biografik metodning asosiy tamoyiliga ko‘ra, badiiy asar muallif hayoti, ruhiy kechinmalari va ijtimoiy sharoitidan ajratib qaralmasligi kerak. Shu ma’noda, parcha markazida turgan Oybek shaxsiyati va uning og‘ir kasallik davridagi ruhiy holati muhim tahlil obyekti hisoblanadi.

Avvalo, parcha Oybekning ijodiy faoliyati bilan uning hayotiy sharoiti o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib beradi. Shoirning “qon tupurib”, og‘ir xastalik bilan kurashayotgan paytda yozgan she’rlari tabiiy ravishda iztirob, tushkunlik va umidsizlik kayfiyatlari bilan sug‘orilgan. Biografik metod nuqtayi nazaridan bu holat mutlaqo qonuniy: ijodkorning ruhiy-psixologik kechinmalari uning badiiy matnida aks etadi. Demak, tanqidchilarning bu she’rlarni “badbin kayfiyat mahsuli” sifatida baholashi biryoqlama yondashuv ekanini ko‘rish mumkin.

Qolaversa, parcha sovet davri adabiy siyosatining ijodkor shaxsiga qo‘ygan mafkuraviy talablarini ham ochib beradi. Tanqidchilarning fikriga ko‘ra, shoir qanday sharoitda bo‘lishidan qat’i nazar, Sovet tuzumini ulug‘lovchi asarlar yaratishi lozim edi. Bu esa biografik metod nuqtayi nazaridan muhim ziddiyatni yuzaga chiqaradi: ijodkorning individual ichki dunyosi bilan tashqi mafkuraviy bosim o‘rtasidagi qarama-qarshilik. Oybek misolida bu ziddiyat ayniqsa keskin tus oladi, chunki uning og‘ir kasallik va musofirlik sharoitidagi ruhiy holati rasmiy ideologiya talablariga mos kelmaydi.

Mazkur holat yuzasidan yana shuni aytish mumkinki, mazkur parcha memuar xarakterga ega bo‘lib, muallif – Zarifa Saidnosirova – Oybek hayotining bevosita guvohi sifatida chiqish qiladi. Bu esa biografik metod uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Chunki unda shoirning ichki kechinmalari, yashash sharoiti va ijodiy jarayoni autentik tarzda aks ettirilgan. Shu bois, Saidnosirovaning guvohliklari Oybek ijodini talqin qilishda ishonchli biografik material sifatida baholanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ushbu parcha biografik metod asosida tahlil qilinganda, Oybek she’riyatidagi “badbinlik” aslida shoirning og‘ir hayotiy sharoiti, jismoniy iztiroblari va ruhiy kechinmalarining badiiy ifodasi ekani ayon bo‘ladi. Tanqidchilarning esa bu jihatni e’tibordan chetda qoldirib, ijodkorni faqat mafkuraviy mezonlar asosida baholaganlari ilmiy jihatdan asossiz yondashuv sifatida talqin qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

[1] Renders, H. (2014). The biographical method. In H. Renders & B. de Haan (Eds.), Theoretical discussions of biography: Approaches from history, microhistory, and life writing (2nd rev. & augm. ed., pp. 222–226). Brill. https://doi.org/10.1163/9789004274709_019

[2] Naim Karimov. Oybek. [Mashhur o’zbek adibining hayoti va ijodidan lavhalar]. –T. “Yosh gvardiya”, 1985.—63-65-b).

[3] Naim Karimov. Oybek. [Mashhur o’zbek adibining hayoti va ijodidan lavhalar]. –T. “Yosh gvardiya”, 1985.—63-65-b).

[4] (Karimov N. Oybek gulshanidan shabadalar. –T.:Ma’naviyat,2015. –39-bet)

[5] Suvon Meli. Patriarx. Til va adabiyot ta’limi jurnali. 27.10.2025.)

[6] Naim Karimov. Oybek va Zarifa. Toshkent. “O’zbekiston”. 1990.-- 41-b) [7] Zarifa Saidnosirova. Oybegim mening. Xotiralar. [Nashrga tayyorlovchi va mas’ul muharrir Naim Karimov]. –T. Sharq nashriyot - matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1994. –115-b)

ФОРМЫ, МЕТОДЫ И СРЕДСТВА ПРОЕКТИРОВАНИЯ ПРОЦЕССА ВОСПИТАНИЯ В ДУХЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ РОДНОМУ ЯЗЫКУ

Жовлиев Журабек Алишер угли

Преподаватель кафедры начального образования

Термезского государственного педагогического института

jorabekjovliyev87@gmail.com

***Аннотация**: В данной статье рассматриваются теоретико-методические основы проектирования процесса воспитания обучающихся в духе национальных и общечеловеческих ценностей при обучении родному языку. Обоснована значимость родного языка как важнейшего средства формирования духовно-нравственной культуры личности, национального самосознания, уважения к культурному наследию и общечеловеческим идеалам. Особое внимание уделено формам, методам и педагогическим средствам организации воспитательного процесса на уроках родного языка. Освещены возможности интеграции инновационных педагогических технологий, интерактивных методов, художественных текстов и цифровых образовательных ресурсов в процесс воспитания. В статье разработаны научно-методические рекомендации по совершенствованию системы духовно-нравственного воспитания учащихся начального образования на основе национальных и общечеловеческих ценностей.*

Migrant oilalar jamiyatning ijtimoiy tuzilmasida muhim o‘rin tutadigan barqaror tizim bo‘lib, ular an’anaviy oila institutining barcha asosiy funksiyalarini o‘zida mujassamlashtiradi. Ammo migratsiya jarayoni ushbu funksiyalarning bajarilish mexanizmini keskin o‘zgartiradi, ularni yangi

ijtimoiy-madaniy kontekstga moslashishga majbur etadi. Migratsiya sharoiti oilaning iqtisodiy, ijtimoiy, tarbiyaviy va himoya funksiyalarini transformatsiyalab, oila institutini “transmilliy oila tizimi”ga aylantiradi. Shuning uchun migrant oilalarning ijtimoiy funksiyalarini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta dolzarblik kasb etadi.

Reproduktiv funksiyalar - bu oila tarkibining davomiyligini ta’minlaydigan asosiy mexanizmlar bo‘lib, migratsiya jarayoni ushbu funksiyaning bajarilish sur’ati va sifatini sezilarli darajada o‘zgartiradi. Migrant oilalarda ko‘p hollarda: Oila a’zolarining vaqtincha ajralib yashashi. Transmilliy nikohlar sonining ortishi. Turmush qurish yoshining kechikishi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik barqarorligiga ta’siri kuzatiladi. Shu bois reproduktiv funksiyaning migratsiya sharoitida bajarilishi nafaqat biologik, balki psixologik va ijtimoiy omillar bilan ham belgilanadi.

Tarbiyaviy funksiya oilaning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib, migratsiya sharoiti bu funksiyani murakkablashtiradi. Migrant oilalarda odatda quyidagilar kuzatiladi: Ota-ona va bolaning moslashuv sur’atining farqi. Virtual tarbiya shaklining kuchayishi. Madaniyatlararo identifikatsiya muammolari. Bolalarning yangi jamiyatda tez integratsiya qilishi. Bola yangi ijtimoiy muhitga tezroq moslashgan bir paytda ota-onalarning moslashuvi asta-sekin kechadi. Avtoritetning susayishi, muloqot chastotasining qisqarishi va tarbiyaviy nazoratning zaiflashuvi tarbiya jarayonining umumiy sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu transformatsiya tarbiyaviy funksiyaning mazmuni va mexanizmlarida sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Quyidagi jadval migratsiya sharoitida tarbiyaviy funksiyaning qanday o‘zgarishini umumlashtirib beradi.

Tarbiyaviy funksiyaning o‘zgarishi

An’anaviy tarbiya	**Migratsiya sharoitidagi tarbiya**
Yuzma-yuz muloqot	Onlayn muloqot / virtual tarbiya
Ota-onaning barqaror nazorati	Nazoratning susayishi
Yagona madaniy model	Ikkilamchi madaniy model
Oila ichida barqaror rollar	Rollarning qayta taqsimlanishi
Ota-onaga yuqori ishonch	Avtoritetning pasayishi

Migrant oilalar iqtisodiy funksiyani eng faol bajaradi, chunki: Remittanslar (xorijdan yuborilgan pul) oilaning asosiy daromad manbai bo‘ladi. Ayollarning iqtisodiy faolligi ortadi. Mehnat migrantining roli oila iqtisodiy barqarorligining asosiy omiliga aylanadi. Iqtisodiy bosimlar tarbiyaviy va psixologik muammolarni kuchaytiradi. Bu jarayonlar oilaning ichki ierarxiyasi va mas’uliyat taqsimotida sezilarli o‘zgarishlarga olib keladi.

Migratsiya sharoitida oilaning himoya funksiyasi eng ko‘p zaiflashadigan yo‘nalish hisoblanadi. Oila a’zolarining vaqtinchalik ajralishi, psixologik izolyatsiya, til bilmaslik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tarmog‘ining cheklanganligi himoya funksiyasini zaiflashtiradi.

Eng ko‘p uchraydigan muammolar**:** Yolg‘izlanish, Stressning kuchayishi, Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tarmog‘ining yo‘qligi, Emotsional bo‘shliq, Qabul qiluvchi jamiyatda diskriminatsiya.

Kommunikativ funksiya - bu oila a’zolari o‘rtasidagi muloqot, axborot almashinuvi, emotsional aloqalarning barqarorligi. Migratsiya sharoitida: Yuzma-yuz aloqa kamayadi. Virtual muloqot kuchayadi. Til to‘siqlari tufayli ichki ixtiloflar paydo bo‘ladi. Ota-ona va bola o‘rtasida “madaniy tafovut” kuchayadi. Bu jarayon oilaviy birlikka ta’sir qiluvchi eng sezgir mexanizmlardan biridir. Migratsiya sharoitida muloqotning shakli, chastotasi va mazmunidagi o‘zgarishlar oila a’zolari o‘rtasidagi emotsional va psixologik aloqalarning barqarorligini belgilaydi. Quyidagi jadval migrant oilalarda kommunikativ funksiyaning qanday transformatsiyaga uchrashini umumlashtirib beradi.

Migrant oilalarda kommunikativ funksiyaning o‘zgarishi

Asosiy ko‘rsatkich	**An’anaviy oila**	**Migrant oila**
Muloqot shakli	Yuzma-yuz	Virtual
Hissiy yaqinlik	Kuchli	O‘zgaruvchan
Axborot almashinuvi	Doimiy	Cheklangan
Madaniy uyg‘unlik	Barqaror	Ikki madaniyatli

Migrant oilalarning moslashuv jarayonida eng murakkab va ko‘p qirrali sohalardan biri – bu psixologik moslashuvdir. Ijtimoiy va madaniy muhit

o‘zgarishi nafaqat tashqi sharoitlarga moslashishni, balki shaxsiy identifikatsiya, qadriyatlar tizimi, emotsional holat va oila ichki munosabatlarining qayta shakllanishini ham talab etadi. Oila ichidagi rollarning qayta taqsimlanishi, iqtisodiy va maishiy yuklamaning ortishi, madaniy qadriyatlar to‘qnashuvi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tarmog‘ining zaifligi psixologik noqulaylikni kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan, migrant oilalar bilan ishlashda faqat iqtisodiy yoki huquqiy yordam emas, balki psixologik maslahat, oilaviy terapiya, psixoprofilaktika va madaniy moslashuvni yengillashtiruvchi dasturlarni joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Natijada, psixologik moslashuvdagi muammolarni erta aniqlash, ularni tizimli ravishda o‘rganish va maqsadli psixologik yordam choralarini ishlab chiqish migrant oilalarning barqarorligi, bolalar rivojining sog‘lom kechishi hamda yangi jamiyatga konstruktiv integratsiyasini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Castles S. Global Migration Trends. // Migration Studies, 2022.
2. Massey D. Causes of International Migration. // Population Review, 2019.
3. Levitt P. Transnational Parenting. // Journal of Family Studies, 2020.
4. Gonzales L. Emotional Distance in Migrant Families. // International Psychology, 2021.
5. Orolova N. Migratsiya psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2020.
6. Internet manbalari.

IMOM G‘AZZOLIY ASARLARI KORPUSI VA UNING LINGVISTIK TADQIQI: SEMANTIK TEGLASH VA ONTOLOGIK MODELLASHTIRISH

Barnoyeva Zarina Sayfiddinovna

BuxDU stajor-tadqiqotchisi

barnoyevazarina072@gmail.com

https://orcid.org/ 0000-0001-5631-1156

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Imom G‘azzoliy asarlarining elektron korpusini yaratish, matnlarni semantik annotatsiyalash (teglash) va mutafakkir merosiga xos bo‘lgan tushunchalar ontologiyasini ishlab chiqish masalalari tadqiq etiladi. Tadqiqotda matndagi "yashirin" ma’no munosabatlarini aniqlashda semantik teglashning o‘rni, xalqaro tajriba va o‘zbek tili korpusi uchun taklif etilayotgan semantik guruhlar tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — G‘azzoliy asarlarida mavjud semantik tizimni aniqlash, uni ontologik model asosida tasniflash va kompyuter lingvistikasi vositalari yordamida semantik tarmoq ko‘rinishida modellashtirishdan iborat.*

Kalit so`zlar: *semantik, teglash, razmetkalash, modellashtirish, ontologik, yashirin ma’no*

Annotation: *This article examines the issues of creating an electronic corpus of Imam Ghazzali's works, semantic annotation (tagging) of texts, and developing an ontology of concepts inherent in the thinker's heritage. The study analyzes the role of semantic tagging in identifying "hidden" meaning relationships in the text, international experience, and proposed semantic groups for the Uzbek language corpus. The main goal of this study is to identify the semantic system present in the works of Ghazzali, classify it based on an ontological model, and model it in the form of a semantic network using computational linguistics tools.*

Keywords: *semantic, tagging, markup, modeling, ontological, hidden meaning*

1. KIRISH (INTRODUCTION)

Zamonaviy kompyuter lingvistikasida matnlarni nafaqat grammatik yoki leksik, balki semantik darajada qayta ishlash ustuvor yo‘nalishga aylandi. Matnni semantik razmetkalash (semantik teglash) – matndagi so‘z yoki so‘z birikmasining ma’lum bir semantik kategoriya yoki undan ham kichikroq

semantik guruhga, semantik maydon yoki ma’no klasteriga mansubligini ko‘rsatib beruvchi maxsus belgi-izohlar bilan belgilanashidir [1]. So‘nggi yillarda kompyuter lingvistikasi sohasida yuz berayotgan rivojlanishlar tilni faqat grammatik jihatdan emas, balki semantik darajada ham o‘rganishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, diniy-falsafiy matnlar murakkab ma’no tizimiga ega bo‘lib, ularni an’anaviy lingvistik usullar yordamida to‘liq ochib berish har doim ham mumkin emas. Imom G‘azzoliy asarlari mazmunan chuqur, konseptual jihatdan murakkab va o‘zaro bog‘langan tushunchalarga boy bo‘lib, unda diniy, axloqiy hamda ijtimoiy kategoriyalar bir butun tizimni tashkil etadi.

Semantik teglash jarayonida har bir ahamiyatli birlik o‘z ma’no doirasi bo‘yicha teglar bilan markalanadi. Bunday semantik teglash lingvistik korpuslarni chuqurroq tahlil etish, mavzuli qidiruvni amalga oshirish va matndan “yashirin” ma’no munosabatlarini aniqlash imkonini beradi [2]. Ilmiy adabiyotlarda til korpuslarini semantik annotatsiyalash masalasi xorijda anchadan buyon o‘rganilib, dastlabki yutuqlarga erishilgan. Masalan, ingliz tilida WordNet semantik tarmog‘iga asoslangan dastur yordamida ilk bor Brown korpusi avtomatik semantik teglangan [3]. Biroq, o‘zbek tili va xususan, Imom G‘azzoliy asarlarining tili uchun tayyor semantik teglash tizimlari hali ishlab chiqilmagan. Mazmunan boy bunday manbalarning elektron korpusini yaratish va semantik teglash orqali tahlil etish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

2. METODLAR VA KORPUS MATERIALLARI (METHODS)

Tadqiqot uchun Imom G‘azzoliyning o‘zbek tiliga tarjima qilingan bir qator asarlaridan elektron matnlar jamlanmasi tuzildi. Xususan, korpus quyidagi 10 ta asosiy manbani o‘z ichiga oldi: “Kimyoi saodat”, “O‘limdan keyingi hayot”, “Ey, farzand”, “Ilm kitobi”, “Riyozatun nafs”, “Tafakkur kitobi”, “Mukoshafatul qulub”, “Oxiratnoma”, “Qirq hadisi qudsiy”, “Qiyomat va oxirat alomatlari”.

Ushbu korpus hajmi ~1,2 million belgidan iborat bo‘lib, so‘z shakllari soni ~200 ming tokenni tashkil etdi. Korpusdagi matnlar to‘liq tahrir qilinib, UTF-8 kodida normalizatsiya qilindi. So‘ngra matnlar *Sketch Engine* korpus menejeri

dasturiga yuklanib, u yerda ajratkichlar yordamida gaplarga va so‘zlarga tokenlashtirildi.

3. NATIJALAR: SEMANTIK TOIFALAR ONTOLOGIYASI (RESULTS)

Imom G‘azzoliy asarlari mazmunini aks ettiruvchi asosiy semantik guruhlar maxsus ontologik model tarzida ishlab chiqildi. Avvalo, eng yirik 3 ta semantik soha tanlandi: diniy, axloqiy va ijtimoiy.

1. **Diniy maydon:** "Ilohiyot" (Alloh nomlari, Qur’onga oid atamalar), "ibodat amallari" (namoz, ro‘za, zakot, haj), "oxirat" (jannat, do‘zax, qiyomat) kabi guruhlar.
2. **Axloqiy maydon:** "Fazilatlar" (sabr, shukr, qanoat, halollik), "nuqsonlar" (kibr, riyo, hasad, ochko‘zlik), "botiniy holatlar" (ixlos, tavba, taqvo, nafs) kabi guruhlar.
3. **Ijtimoiy maydon:** "Shaxs" (inson, bandalik, nafis odat), "jamiyat" (xalq, millat, jamoa, davlat) kabi guruhlar.

Umumiy hisobda korpus uchun 13 ta yirik semantik guruh va ularning ostida taxminan 80 ga yaqin aniqroq semantik to‘dalar tasniflandi. Bu ontologiyani tuzishda bevosita korpus matnlarini o‘rganish (bottom-up) usulidan foydalanildi.

4. MUHOKAMA (DISCUSSION)

NLP (tabiiy tilni avtomatik qayta ishlash)da matnlarning semantik qatlamini formal tarzda ifodalash ma’no-qidiruv (concept-based search) imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, oddiy kalit so‘z bo‘yicha qidiruvda foydalanuvchi “sabr” so‘zini kiritganda faqat aynan shu so‘z uchragan joylar topiladi. Semantik teglangan korpusda esa “axloqiy fazilat” kategoriyasiga mansub barcha o‘xshash kontentni (masalan “chidam”, “bardosh”, “matonat”) ham qidiruv natijalariga qo‘shish mumkin bo‘ladi [6].

Shu tariqa, semantik annotatsiya qidiruvning kontseptual darajada amalga oshishiga zamin yaratadi va G‘azzoliy merosining lisoniy-falsafiy manzarasini aniqroq ko‘rsatadi.

XULOSA

Imom G‘azzoliy asarlari korpusini yaratish va uni semantik teglash mutafakkirning boy intellektual merosini zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot natijasida shakllangan semantik ontologiya o‘zbek tilidagi diniy-axloqiy matnlarni avtomatik tahlil qilishning fundamental bazasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (FOOTNOTES):

[1] Leseva, S., Stoyanova, I. Beyond lexical and semantic resources: linking WordNet with FrameNet and enhancing synsets with conceptual frames // Towards a Semantic Network Enriched with a Variety of Semantic Relations. – 2020. – P. 21–48.

[2] Xamroyeva, S., Hamroqulova, M. Matn birliklarini semantik teglashning ahamiyati // Computer Linguistics: Problems, Solutions, Prospects. – 2024. – Vol. 1, No. 1.

[3] Agostini A., Usmanov T., Khamdamov U., Abdurakhmonova N., Mamasaidov M. UzWordNet: a lexical-semantic database for the Uzbek language // Proceedings of the 11th Global WordNet Conference. – P. 8–19.

[4] Lam K. N., Tarouti F. A., Kalita, J. Automatically constructing WordNet synsets [Elektron resurs]. – arXiv preprint arXiv:2208.03870. – 2022.

[5] Rayson, P., Archer, D. E., Piao, S. L., McEnery, T. The UCREL semantic analysis system // Proceedings of the Workshop on Beyond Named Entity Recognition: Semantic Labelling for NLP Tasks (in association with LREC-04). – 2004. – P. 7–12.

[6] Nešic, S., Jazayeri, M., Crestani, F., Gaševic, D. Concept-based semantic annotation, indexing and retrieval of office-like document units. – 2010.

SHAXSIY HIMOYA VOSITALARINI QURITISHNING ZAMONAVIY YECHIMLARI

FVV Akademiyasi 5-o‘quv kursi kursanti

Z.H.To‘xliboyev

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yong‘in qutqaruvchilarning shaxsiy himoya vositalari, ayniqsa jangovar kiyimlarini quritishning zamonaviy yechimlari tahlil qilingan. Yong‘in o‘chirish jarayonida jangovar kiyimlar yuqori harorat, namlik, tutun, zaharli gazlar va kimyoviy moddalar ta’sirida ifloslanadi hamda namlanadi. Ularni noto‘g‘ri quritish himoya xususiyatlarining pasayishiga, xizmat muddatining qisqarishiga va yong‘in qutqaruvchilar xavfsizligining kamayishiga olib keladi. Maqolada ventilyatsion quritish shkaflari, ichki havo bosimi asosida ishlovchi tizimlar, infraqizil quritish usullari hamda dezinfeksiyali avtomatik quritish tizimlari o‘rganilgan. Shuningdek, mobil jangovar kiyim quritish shkafi loyihasi taklif etilgan bo‘lib, unda issiq suv aylanish tizimi, issiq havo oqimi, ventilyatsiya va avtomobilga ulanadigan tirkama mexanizmi qo‘llanilgan. Ushbu innovatsion loyiha yong‘in qismlarida tezkorlik, qulaylik va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *shaxsiy himoya vositalari, jangovar kiyim, quritish shkafi, issiq havo tizimi, issiq suv aylanishi, mobil quritish tizimi, ventilyatsiya, yong‘in xavfsizligi, qutqaruvchilar, himoya kiyimi.*

Abstract*: This article analyzes modern solutions for drying personal protective equipment of firefighters, especially firefighting combat clothing. During firefighting operations, protective clothing is exposed to high temperatures, moisture, smoke, toxic gases, and chemical substances, causing contamination and wetness. Improper drying reduces protective performance, shortens service life, and decreases firefighter safety. The article studies ventilation drying cabinets, internal air pressure systems, infrared drying methods, and automatic disinfection drying systems. In addition, a mobile drying cabinet project for firefighting combat clothing is proposed, including a hot water circulation system, hot air flow, ventilation system, and a trailer mechanism connected to a vehicle. This innovative project increases efficiency, convenience, and operational readiness in fire rescue departments.*

Keywords: *personal protective equipment, firefighting suit, drying cabinet, hot air system, hot water circulation, mobile drying system, ventilation, fire safety, rescuers, protective clothing*

KIRISH

Bugungi kunda yong‘in qutqaruvchilarning hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish masalasi favqulodda vaziyatlar tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Yong‘in o‘chirish jarayonida qutqaruvchilar yuqori harorat, ochiq alanga, zaharli gazlar, kuchli tutun, namlik va turli mexanik xavflarga duch keladilar. Shu sababli ularning shaxsiy himoya vositalari, ayniqsa jangovar kiyimlari, hayotni saqlab qoluvchi asosiy himoya vositasi hisoblanadi.Jangovar kiyimlar ko‘p qatlamli maxsus materiallardan tayyorlanib, issiqlik, suv, kimyoviy ta’sir va mexanik zarbalardan himoya qilishga mo‘ljallangan. Biroq har bir yong‘in o‘chirish amaliyotidan so‘ng ushbu kiyimlar namlanadi, tutun va kuyik bilan ifloslanadi hamda kimyoviy moddalar ta’sirida qoladi. Agar bu kiyimlar to‘g‘ri yuvilmasa va quritilmasa, ularning himoya xususiyatlari keskin pasayadi.

Amaliyotda ko‘plab yong‘in qismlarida jangovar kiyimlarni oddiy radiatorlarda, ochiq havoda yoki quyosh ostida quritish holatlari uchraydi. Bu esa himoya qatlamlarining buzilishiga, reflektor lentalarning yemirilishiga va kiyimning xizmat muddatining qisqarishiga olib keladi. Zamonaviy yondashuv esa maxsus professional quritish tizimlarini joriy etishni talab qiladi.

Hozirgi vaqtda ventilyatsion quritish shkaflari, ichki havo bosimi bilan quritish tizimlari, infraqizil quritish usullari va avtomatik dezinfeksiyali quritish tizimlari keng qo‘llanilmoqda. Ushbu texnologiyalar kiyimning barcha qatlamlarini bir xil va xavfsiz quritish imkonini beradi.

Mazkur maqolada shaxsiy himoya vositalarini quritishning zamonaviy yechimlari tahlil qilinadi hamda mobil jangovar kiyim quritish shkafi loyihasi ilmiy asosda taklif etiladi. Ushbu loyiha issiq suv aylanishi, issiq havo oqimi, ventilyatsiya tizimi va mobil transport imkoniyatlarini birlashtirgan innovatsion texnologiya sifatida ishlab chiqilgan.

1. Yong‘in qutqaruvchilarning shaxsiy himoya vositalari

Yong‘in qutqaruvchilarning shaxsiy himoya vositalari ularning xizmat faoliyatida hayoti va sog‘lig‘ini saqlashga xizmat qiluvchi eng muhim texnik

vositalardan biri hisoblanadi. Yong‘in o‘chirish, qutqaruv ishlari hamda favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish jarayonida qutqaruvchilar yuqori harorat, ochiq alanga, tutun, zaharli gazlar, portlash xavfi, elektr toki, mexanik shikastlanish va kimyoviy moddalarga duch keladilar. Shu sababli maxsus himoya vositalarisiz samarali va xavfsiz faoliyat olib borish deyarli imkonsizdir.

Shaxsiy himoya vositalari asosan ikki turga bo‘linadi: asosiy himoya vositalari va maxsus himoya vositalari. Asosiy himoya vositalari kundalik xizmat va yong‘in o‘chirish jarayonida doimiy qo‘llaniladi. Maxsus himoya vositalari esa yuqori xavfli va murakkab vaziyatlarda ishlatiladi.

Asosiy himoya vositalariga jangovar kiyim, himoya dubulg‘asi, maxsus qo‘lqoplar, issiqlikka chidamli etiklar, nafas olish apparati, xavfsizlik kamari, signal chirog‘i, himoya ko‘zoynagi va bosh himoya vositalari kiradi. Ushbu vositalar yong‘in qutqaruvchini to‘g‘ridan-to‘g‘ri issiqlik va alanga ta’siridan himoya qiladi.

Jangovar kiyim eng asosiy himoya vositasi hisoblanadi. U ko‘p qatlamli maxsus matodan tayyorlanib, yuqori harorat, namlik va mexanik zarbalarga bardosh beradi. Odatda uning tashqi qatlami olovga chidamli Nomex, Kevlar yoki Aramid materiallaridan tayyorlanadi. Ichki qatlam esa issiqlik izolyatsiyasi va namlikdan himoya vazifasini bajaradi.

Nafas olish apparati yong‘in vaqtida hosil bo‘ladigan zaharli gazlar va tutundan himoyalanish uchun ishlatiladi. Ayniqsa karbon monoksid, ammiak va boshqa zaharli gazlar mavjud bo‘lgan muhitda bu vosita hayotni saqlab qoluvchi asosiy jihoz hisoblanadi.Dubulg‘a bosh qismni mexanik zarbalardan, yuqori haroratdan va yiqilayotgan jismlardan himoya qiladi. Maxsus etiklar esa oyoqlarni issiqlik, namlik va elektr toki xavfidan saqlaydi.

Maxsus himoya vositalariga kimyoviy himoya kiyimlari, radiatsiyadan himoya vositalari, portlashga qarshi kiyimlar, balandlikda ishlash uchun xavfsizlik tizimlari, sho‘ng‘ish jihozlari va maxsus aloqa vositalari kiradi.

Bugungi kunda zamonaviy yong‘in xavfsizligi tizimlarida individual joylashuv aniqlash qurilmalari, aqlli sensorli signal tizimlari va avtomatik

monitoring vositalari ham keng qo‘llanilmoqda. Bu esa qutqaruvchilarning xavfsizlik darajasini yanada oshirmoqda.Shaxsiy himoya vositalarining sifati va texnik holati doimiy nazorat qilinishi lozim. Chunki eskirgan yoki noto‘g‘ri ishlatilgan himoya vositasi favqulodda vaziyatda katta xavf tug‘dirishi mumkin.

2. Jangovar kiyimlarning ahamiyati va muammolari

Jangovar kiyim yong‘in qutqaruvchilar faoliyatidagi eng muhim himoya vositasi bo‘lib, u bevosita inson hayotini saqlashga xizmat qiladi. Yong‘in vaqtida yuqori harorat, ochiq alanga, tutun, bug‘, zaharli gazlar va mexanik xavflar inson organizmiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli jangovar kiyim qutqaruvchining “ikkinchi terisi” deb ataladi.Jangovar kiyimning asosiy vazifasi inson tanasini yuqori haroratdan himoya qilish, issiqlik o‘tkazuvchanligini kamaytirish, namlik va kimyoviy moddalarning ichkariga kirishini oldini olish hamda mexanik shikastlanishlardan saqlashdan iborat.

Zamonaviy jangovar kiyim odatda to‘rt qatlamdan iborat bo‘ladi. Tashqi qatlam olov va alanga ta’siridan himoya qiladi. Ikkinchi qatlam namlik va suv o‘tkazmaslik vazifasini bajaradi. Uchinchi qatlam issiqlik izolyatsiyasi uchun xizmat qiladi. To‘rtinchi ichki qatlam esa qulaylik va gigiyenani та'minlaydi.Biroq amaliyotda jangovar kiyimlardan foydalanishda bir qator muammolar mavjud. Eng katta muammolardan biri – kiyimlarning noto‘g‘ri parvarish qilinishi hisoblanadi. Yong‘in o‘chirishdan keyin kiyimlarda tutun, kuyik, yonuvchi moddalar, kimyoviy qoldiqlar va zaharli changlar to‘planadi. Agar ular to‘g‘ri tozalanmasa, keyingi foydalanishda sog‘liq uchun jiddiy xavf tug‘diradi.

Ikkinchi muammo – noto‘g‘ri quritish jarayoni. Ko‘plab joylarda jangovar kiyimlar oddiy radiatorlarda, pech yaqinida yoki quyosh ostida quritiladi. Bu esa matoning issiqlikka chidamliligini kamaytiradi, reflektor lentalarning yemirilishiga olib keladi va himoya qatlamlarini buzadi.

Yana bir muammo – kiyimlarning og‘irligi va noqulayligi. Ba’zi eski turdagi kiyimlar juda og‘ir bo‘lib, uzoq vaqt ishlashda qutqaruvchining harakatini cheklaydi. Bu esa ish samaradorligini pasaytiradi va charchoqni

oshiradi.Muntazam texnik ko‘rikning yetarli emasligi ham muhim muammo hisoblanadi. Tikuvlarning bo‘shashi, membranalarning shikastlanishi, fermuarlarning buzilishi va ichki qatlamlarning yemirilishi ko‘pincha vaqtida aniqlanmaydi.

Shuningdek, ayrim hududiy yong‘in qismlarida zamonaviy quritish shkaflari va professional yuvish tizimlarining yetishmasligi kuzatiladi. Bu esa jangovar kiyimlarning xizmat muddatini qisqartiradi va yong‘in qutqaruvchilar xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.Shu sababli jangovar kiyimlarni nafaqat sifatli ishlab chiqarish, balki ularni to‘g‘ri saqlash, yuvish, quritish va texnik xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish ham juda muhim hisoblanadi. Zamonaviy quritish texnologiyalarini joriy etish aynan shu muammoning samarali yechimlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

3. Zamonaviy quritish tizimlari tahlili

Hozirgi vaqtda yong‘in qutqaruvchilarning jangovar kiyimlarini quritish uchun zamonaviy va samarali texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda. Ushbu tizimlarning asosiy maqsadi kiyimning himoya xususiyatlarini saqlab qolish, xizmat muddatini uzaytirish va qutqaruvchilarning xavfsizligini oshirishdan iborat.



1-rasm.

Issiq suv yordamida quritish tizimi

Oddiy quritish usullari, masalan radiator yonida, quyosh ostida yoki isitish pechlari yaqinida quritish, maxsus himoya qatlamlariga zarar yetkazadi. Yuqori harorat ta’sirida matoning issiqlikka chidamliligi pasayadi, reflektor lentalar yemiriladi va ichki membranalar buziladi. Shu sababli professional quritish tizimlaridan foydalanish zarur hisoblanadi.

Birinchi zamonaviy usul — ventilyatsion quritish shkaflari hisoblanadi. Bu tizimda jangovar kiyim maxsus metall shkaf ichiga osib qo‘yiladi va past haroratli issiq havo ventilyatorlar yordamida bir tekis aylantiriladi. Harorat odatda 35–45°C oralig‘ida ushlab turiladi. Bu esa matoga zarar yetkazmasdan xavfsiz quritishni ta’minlaydi.

Ikkinchi usul — ichki havo bosimi bilan quritish tizimidir. Bu eng samarali professional texnologiyalardan biri hisoblanadi. Kiyim maxsus stendga osiladi va uning ichki qismiga iliq havo yuboriladi. Natijada barcha qatlamlar bir xil quriydi, ichki namlik tez chiqariladi va deformatsiya yuz bermaydi.

Uchinchi usul — infraqizil quritish tizimidir. Infraqizil nurlar yordamida namlik chuqur qatlamlardan chiqariladi. Bu usul tez quritish imkonini beradi va energiya tejamkor hisoblanadi. Biroq harorat nazorati juda aniq bo‘lishi talab qilinadi.

To‘rtinchi usul — dezinfeksiyali avtomatik quritish tizimidir. Bu tizimlarda UV sterilizatsiya, ozon bilan ishlov berish, antibakterial filtrlash va hidlarni yo‘qotish funksiyalari mavjud. Bu nafaqat quritish, balki sanitariya va gigiyena talablarini ham ta’minlaydi.

Beshinchi usul — sensorli aqlli quritish tizimidir. Unda namlik sensori kiyimning holatini avtomatik aniqlaydi va kerakli quritish vaqtini o‘zi belgilaydi. Bu energiya sarfini kamaytiradi va ortiqcha quritishni oldini oladi.



2-rasm

Zamonaviy quritish tizimlari

Bugungi kunda eng samarali variant sifatida ventilyatsion, ichki havo bosimli va dezinfeksiyali kompleks quritish shkaflari tavsiya etiladi.

4. Mobil jangovar kiyim quritish shkafi loyihasi

Mazkur maqolada yong‘in qutqaruvchilar uchun yangi innovatsion mobil jangovar kiyim quritish shkafi loyihasi taklif etiladi. Ushbu loyiha amaliy qulaylik, tezkorlik va yuqori samaradorlikni ta’minlashga qaratilgan.

Loyihaning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, jangovar kiyimlarni faqat bino ichida emas, balki bevosita xizmat hududida, favqulodda vaziyat joyiga yaqin hududda ham quritish imkoniyati yaratiladi. Bu esa vaqtni tejaydi va qutqaruvchilarning tezkor tayyorgarligini oshiradi.



3-rasm

Mobil jangovar kiyim quritish shkafining umumiy ko‘rinishi

Mazkur rasmda yong‘in qutqaruvchilarning jangovar kiyimlarini tezkor va xavfsiz quritish uchun mo‘ljallangan mobil quritish shkafi tasvirlangan. Tizim avtomobilga ulanadigan tirkama asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, favqulodda vaziyat hududiga olib borish imkoniyatiga ega. Shkaf ichida 4 ta odam tanasi shaklidagi issiq suv aylanish quvurli kiyim ilgichlari joylashtirilgan. Ushbu ilgichlar orqali jangovar kiyim ichki tomondan quritiladi.

Rasmda shkaf ichida joylashgan issiq havo uzatish tizimi va ventilyatsiya mexanizmi ko‘rsatilgan. Maxsus issiq havo bloki jangovar kiyimning tashqi va ichki qatlamlariga bir tekis harorat yetkazib beradi. Ventilyatsiya tizimi esa ortiqcha namlikni tashqariga chiqaradi, havo almashinuvini ta’minlaydi va bakterial muhit hosil bo‘lishining oldini oladi.Va issiq suv manbaini ulash uchun tashqi ulash boshchalari hamda mobil g‘ildirakli konstruksiya tasvirlangan. Tizim 4 ta ikki mostli g‘ildirak bilan jihozlangan bo‘lib, xizmat hududida erkin harakatlanish imkonini beradi. Issiq suv manbai markaziy tizim yoki mobil isitish qurilmasidan ta’minlanishi mumkin.

Shkaf avtomobilga ulanadigan maxsus tirkama ko‘rinishida loyihalashtirilgan. Unda 4 ta ikki mostli g‘ildirak mavjud bo‘lib, transport vositasi yordamida istalgan hududga olib borish mumkin. Bu tizim mobil yong‘in qismlari uchun ayniqsa qulay hisoblanadi.Shkaf ichida 4 ta odam tanasi shaklidagi maxsus kiyim ilgichlar joylashtirilgan. Ushbu ilgichlar oddiy metall konstruksiya emas, balki issiq suv aylanadigan quvur tizimidan tashkil topgan. Issiq suv quvurlar orqali harakatlanib, kiyimni ichki tomondan quritadi. Bu usul ayniqsa qalin ko‘p qatlamli jangovar kiyimlar uchun juda samarali hisoblanadi.

Bundan tashqari shkaf ichida kichik konditsionerga o‘xshash issiq havo uzatish tizimi mavjud. Ushbu tizim tashqi va ichki qatlamlarga bir tekis issiq havo oqimini yetkazib beradi. Natijada kiyim tezroq va sifatliroq quriydi.Ventilyatsiya tizimi esa havo almashinuvini ta’minlaydi, ortiqcha namlikni tashqariga chiqaradi va hidlarni kamaytiradi. Bu tizim kiyim ichida bakteriya va mog‘or hosil bo‘lishining oldini oladi.Shkafning tashqi qismida issiq suv manbaini ulash uchun maxsus ulash boshchalari joylashtirilgan. Bu esa

markaziy issiq suv tizimi yoki mobil isitish moslamasi bilan ulanish imkonini beradi.Shkafning ochiq qismi g‘ildirak joylashgan tomonda joylashtirilgan bo‘lib, bu foydalanish qulayligini oshiradi. Avtomobilga ulanadigan tirkama qismi esa alohida transport funksiyasini bajaradi.

Mazkur loyiha zamonaviy, iqtisodiy va amaliy yechim sifatida yong‘in xavfsizligi tizimida katta ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

5. Innovatsion tizimning texnik afzalliklari va samaradorligi

Taklif etilgan mobil jangovar kiyim quritish shkafi mavjud oddiy quritish usullariga nisbatan bir qator muhim afzalliklarga ega. Ushbu loyiha nafaqat kiyimni tez quritish, balki uning himoya xususiyatlarini saqlab qolish, xizmat muddatini uzaytirish va yong‘in qutqaruvchilar xavfsizligini oshirishga xizmat qiladi.

Birinchi afzallik — vaqt tejalishidir. Oddiy sharoitda jangovar kiyimlarni tabiiy usulda quritish ko‘p vaqt talab qiladi. Ayniqsa qalin ko‘p qatlamli kiyimlar uzoq vaqt nam holatda qoladi. Taklif etilgan tizimda esa issiq suv aylanishi va issiq havo oqimi birgalikda ishlashi natijasida quritish jarayoni bir necha barobar tezlashadi.

Ikkinchi afzallik — bir tekis quritish imkoniyatidir. Ko‘pincha oddiy quritishda kiyimning tashqi qismi quruq bo‘lsa ham, ichki qatlamlar nam bo‘lib qoladi. Bu esa keyingi foydalanishda noqulaylik tug‘diradi. Odam shaklidagi issiq suv quvurli ilgichlar ichki qatlamlarni ham bir xil quritishga yordam beradi.

Uchinchi afzallik — gigiyena va sanitariya talablariga mosligidir. Ventilyatsiya tizimi namlikni chiqaradi, hidlarni kamaytiradi va bakteriyalar ko‘payishining oldini oladi. Bu ayniqsa doimiy xizmatda bo‘ladigan yong‘in qutqaruvchilari uchun juda muhimdir.

To‘rtinchi afzallik — mobil foydalanish imkoniyati. Tirkama shaklidagi konstruktsiya tufayli tizimni istalgan hududga olib borish mumkin. Bu esa favqulodda vaziyatlarda joyning o‘zida tezkor xizmat ko‘rsatish imkonini yaratadi.

Beshinchi afzallik — iqtisodiy samaradorlikdir. To‘g‘ri quritilgan jangovar kiyim uzoq muddat xizmat qiladi, yangi kiyim xarid qilish xarajatlari kamayadi va ta’mirlash ishlari qisqaradi.

Texnik hisob-kitoblarga ko‘ra, ushbu tizim yong‘in qismlarida ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish bilan birga, operativ tayyorgarlik darajasini ham sezilarli oshiradi.

6. Iqtisodiy va amaliy ahamiyati

Yong‘in qutqaruvchilarning jangovar kiyimlari maxsus va qimmat himoya vositalari hisoblanadi. Ularning noto‘g‘ri saqlanishi va noto‘g‘ri quritilishi tez eskirishga olib keladi. Bu esa davlat byudjeti va tashkilot xarajatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.Taklif etilgan mobil quritish shkafi ushbu muammoni iqtisodiy jihatdan samarali hal qilish imkonini beradi.

Birinchi navbatda, kiyimlarning xizmat muddati uzayadi. Bu esa yangi kiyim xarid qilish ehtiyojini kamaytiradi.

Ikkinchidan, yong‘in qutqaruvchilarning doimiy tayyor holatda bo‘lishi ta’minlanadi. Nam yoki noto‘g‘ri quritilgan kiyim bilan xizmatga chiqish xavfli hisoblanadi. Ushbu loyiha esa har doim sifatli va tez quritilgan himoya kiyimini ta’minlaydi.

Uchinchidan, mobil tizim hududiy yong‘in qismlarida, vaqtinchalik xizmat punktlarida va katta favqulodda vaziyatlarda juda katta amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi. Bu tizimni voqea joyiga yaqin hududda ishlatish mumkin.Shuningdek, ushbu loyiha mahalliy ishlab chiqarish asosida tayyorlanishi mumkinligi sababli import xarajatlarini kamaytirish imkoniyatini ham beradi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, jangovar kiyimning sifati bevosita inson hayoti bilan bog‘liq. Shu sababli bunday innovatsion tizimga sarflangan mablag‘ kelajakdagi katta yo‘qotishlarning oldini oladi.

XULOSA

Yong‘in qutqaruvchilarning shaxsiy himoya vositalari, ayniqsa jangovar kiyimlari, ularning hayoti va sog‘lig‘ini himoya qiluvchi eng muhim

vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu kiyimlar yuqori harorat, ochiq alanga, tutun, zaharli gazlar, namlik va mexanik xavflardan himoya qiladi.Biroq jangovar kiyimlardan samarali foydalanish faqat ularning sifati bilan emas, balki to‘g‘ri yuvish, saqlash va quritish tizimi bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Noto‘g‘ri quritish natijasida kiyimning himoya xususiyatlari pasayadi, xizmat muddati qisqaradi va qutqaruvchilar xavfsizligi kamayadi.

Maqolada zamonaviy quritish tizimlari, jumladan ventilyatsion shkaflar, ichki havo bosimi bilan quritish, infraqizil texnologiyalar va dezinfeksiyali avtomatik tizimlar tahlil qilindi.Shuningdek, yangi innovatsion loyiha sifatida mobil jangovar kiyim quritish shkafi taklif etildi. Ushbu tizim issiq suv aylanishi, issiq havo oqimi, ventilyatsiya tizimi va avtomobilga ulanadigan tirkama mexanizmini o‘z ichiga oladi.

Mazkur loyiha amaliy qulaylik, iqtisodiy samaradorlik, tezkorlik va yuqori xavfsizlikni ta’minlaydi. Ushbu innovatsion yechim yong‘in xavfsizligi tizimida zamonaviy va istiqbolli texnologiya sifatida katta ahamiyat kasb etadi.Kelajakda ushbu loyihani ishlab chiqarishga joriy etish va takomillashtirish orqali yong‘in qutqaruvchilarning xizmat samaradorligini yanada oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi me’yoriy hujjatlari
3. Drysdale D. *An Introduction to Fire Dynamics*
4. Karlsson B., Quintiere J. *Enclosure Fire Dynamics*
5. NFPA Handbook of Fire Protection Engineering
6. SFPE Handbook of Fire Protection Engineering
7. Quintiere J. *Fundamentals of Fire Phenomena*
8. Firefighter Protective Clothing and Equipment Standards
9. Zamonaviy yong‘in xavfsizligi bo‘yicha ilmiy maqolalar va texnik standartlar
10. Yong‘in qutqaruvchilarning maxsus himoya vositalari bo‘yicha amaliy qo‘llanmalar

ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA O'ZBEK ADABIY TILINING RIVOJLANISHIDA ICHKI VA TASHQI OMILLAR

Abdumuxsinova Muxlisa Murodulla qizi

Nuriddinova Lola Zuhriddin qizi

Sayfullayev Abror Abdulla o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Gumanitar fanlar fakulteti,

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

justmuxlisa07@gmail.com zuhriddinovnalola@gmail.com

sayfullayev10@icloud.com

Ilmiy rahbar: Diyorjon Turg'unpo'latov

Annotatsiya*: Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim texnologiyalarining pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unligi hamda o'zbek adabiy tilining rivojlanishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar kompleks tarzda tahlil qilinadi. Raqamli ta'lim vositalarining til o'rgatish jarayonidagi o'rni, interaktiv metodlar va milliy til siyosatining o'zaro munosabati ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida zamonaviy texnologiyalar milliy tilning boyishiga xizmat qilishi bilan birga, uning sofligi va normativligini saqlashda ham muhim omil ekanligiga oid xulosalar shakllangan.*

Abstract*: This article provides a comprehensive analysis of the integration of modern educational technologies with pedagogical approaches and the internal and external factors influencing the development of the Uzbek literary language. The role of digital educational tools in language teaching, interactive methods, and the relationship between national language policy are examined. The study concludes that modern technologies both enrich the national language and serve as an important factor in preserving its purity and normative standards.*

Kalit so'zlar: *zamonaviy ta'lim texnologiyalari, pedagogik yondashuvlar, o'zbek adabiy tili, til rivojlanishi, ichki va tashqi omillar, raqamli ta'lim, til siyosati.*

Keywords: *modern educational technologies, pedagogical approaches, Uzbek literary language, language development, internal and external factors, digital education, language policy.*

KIRISH

XXI asr — texnologik inqilob va axborot sivilizatsiyasi davri. Bu davr ta'lim tizimiga, jumladan, til ta'limiga ham yangi talablar va imkoniyatlar olib keldi. Bir tomondan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchi va talabalarni motivatsion jihatdan rag'batlantirish, bilimni chuqurlashtirish hamda til ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Ikkinchi tomondan esa, raqamli muhitdagi til muloqoti adabiy til me'yorlarining o'zgarishiga, yangi leksik va grammatik hodisalarning paydo bo'lishiga zamin yaratmoqda.

O'zbek adabiy tilining rivojlanishi tarixan ikkita asosiy manba — ichki (til tizimining o'z imkoniyatlari) va tashqi (boshqa tillar, madaniyat, siyosat, texnologiya ta'siri) omillar orqali kechib kelgan. Bugungi kunda ushbu ikki jarayon bir-biri bilan yanada chambarchas bog'liq holda namoyon bo'lmoqda: texnologik muhit yangi terminlar, uslublar va muloqot shakllarini tug'dirmoqda, bu esa tilning rivojlanishini jadallashtirib, ayni paytda uning normativligini saqlash masalasini dolzarb qilib qo'ymoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — zamonaviy ta'lim texnologiyalari va pedagogik yondashuvlar bilan o'zbek adabiy tilining ichki va tashqi omillar ta'sirida rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy jihatdan asoslash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir.

ASOSIY QISM

1. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mohiyati va pedagogik ahamiyati

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari deganda raqamli, interaktiv va kommunikativ vositalar asosida qurilgan ta'lim jarayoni tushuniladi. Bu tushuncha an'anaviy darslik va leksiyalardan tortib, sun'iy intellekt asosidagi adaptiv o'quv tizimlari, virtual sinf xonalari va gamifikatsiya elementlarigacha bo'lgan keng doirani qamrab oladi. Pedagogik jihatdan zamonaviy texnologiyalar o'quvchi markazli yondashuvni (student-centred approach) kuchaytirib, ta'limni individuallashtirish, differensiallashtirish va shaxsga yo'naltirishga keng imkon beradi.

Masalan, til ta'limida mobil ilovalar (Duolingo, Quizlet), sun'iy intellekt asosidagi chatbotlar va virtual ta'lim muhitlari (Moodle, Google Classroom) keng qo'llanilmoqda. Bu vositalar o'quvchilarga til materiallari bilan interaktiv tarzda ishlash, xatolarini tezda tuzatish va o'z sur'atida o'rganish imkonini beradi. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, "texnologik integratsiya an'anaviy metodikaning o'rnini emas, balki uning samaradorligini oshiradi" (Warschauer & Healey, 1998).

O'zbekistonda so'nggi yillarda ta'lim raqamlashtirish bo'yicha katta qadamlar qo'yildi: Milliy elektron ta'lim portali, raqamli darsliklar va Smart sinf xonalari joriy etildi. Biroq, pedagogik texnologiyalarning samarali qo'llanilishi uchun faqat texnik vositalar yetarli emas — o'qituvchi kompetensiyasi va metodologik yondashuv hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

2. Pedagogik yondashuvlar va til o'qitishdagi innovatsiyalar

Pedagogik yondashuv (pedagogical approach) — ta'lim jarayonini tashkil etishning umumiy falsafasi va tamoyillari yig'indisi. Zamonaviy til ta'limida quyidagi yondashuvlar alohida o'rin tutadi: kommunikativ yondashuv (Communicative Language Teaching), kontent asosidagi ta'lim (Content-Based Instruction), tanqidiy pedagogy va loyiha asosidagi ta'lim (Project-Based Learning). Ushbu yondashuvlar til bilimini nazariy emas, balki amaliy muloqot vositasi sifatida o'zlashtirishga qaratilgan.

O'zbek tili ta'limida ham kommunikativ yondashuv tobora keng joriy etilmoqda. Ayniqsa, yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini bir vaqtda rivojlantirish, autentik matnlar bilan ishlash va muloqotli vaziyatlar yaratish orqali til o'rganish samaradorligi sezilarli oshadi. Zamonaviy adabiyotda ta'kidlanganidek, "kommunikativ kompetensiyani shakllantirish — bu nafaqat grammatik qoidalarni bilish, balki ularni muayyan ijtimoiy kontekstda qo'llay olish demakdir" (Hymes, 1972). Ushbu tamoyil o'zbek adabiy tilining normativ qo'llanilishini o'rgatishda ham muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

3. O'zbek adabiy tilining rivojlanishidagi ichki omillar

Ichki omillar — bu til tizimining o'z strukturasidan kelib chiqadigan qonuniyatlar va jarayonlar. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: so'z yasalishi (derivatsiya), ma'no ko'chishi (semantik evolyutsiya), grammatik o'zgarishlar va uslubiy tabaqalanish. O'zbek adabiy tilida ichki omillar, birinchi navbatda, tilning o'z lug'at boyligidan foydalanib yangi terminlar yaratishda namoyon bo'ladi. Masalan, "dasturchi", "ma'lumotlar bazasi", "elektron pochta" kabi so'zlar o'zbek so'z yasash usullari asosida shakllangan autentik neologizmlardir.

Fonologik va morfologik tizimning ichki mantiqiyligiga asoslangan bu jarayon tilning o'z-o'zini takomillashtirish mexanizmi sifatida qaraladi. Shu bilan birga, adabiy til normalari ham o'z evolutsiyasini bosib o'tmoqda: nutqiy tajriba to'planib, ba'zi shakl va ma'nolar iste'moldan chiqib ketsa, boshqalari mustahkamlanib norma maqomini oladi.

4. O'zbek adabiy tilining rivojlanishidagi tashqi omillar

Tashqi omillar qatoriga boshqa tillarning ta'siri (kontakt lingvistikasi), globallashuv, siyosat, madaniyat va texnologiyalar kiritiladi. O'zbek tili tarixan arab, fors, rus va hozirgi kunda ingliz tillarining kuchli ta'sirini his qilib kelmoqda. Ayniqsa, XX asr boshidan so'ng rus tili orqali kirgan so'zlar va mustaqillikdan keyin ingliz tili ta'sirida kuchayygan internatsionalizm o'zbek adabiy tilining leksik tarkibini sezilarli boyitgan, shu bilan birga, "tashqi unsurlar" masalasini ham ko'ndalang qo'ygan.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va internet muhiti yangi tashqi omil sifatida maydonga chiqmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda o'zbek tilidagi muloqot — orfografik normalar, yangi lug'at birliklari ("post qilmoq", "like bosmoq", "share qilmoq") va gibrid til hodisalari — adabiy tilning normativlik muammosini dolzarb qilib qo'ydi. Shuningdek, davlat til siyosati ham tashqi omil sifatida katta rol o'ynaydi: lotin yozuviga o'tish, terminologiya komissiyalari faoliyati va rasmiy hujjatlar tili standartlari adabiy tilga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

5. Ta'lim texnologiyalari va til rivojlanishining o'zaro ta'siri

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari, bir tomondan, o'zbek adabiy tilining normativ qo'llanilishini keng auditoriyaga yetkazishda qudratli vositaga aylanmoqda. Masofaviy ta'lim platformalari, elektron darsliklar va multimediali o'quv materiallari orqali adabiy til normalari haqidagi ma'lumotlar mamlakatning eng chekka hududlaridagi o'quvchilarga ham yetib borishi mumkin bo'ldi. Bu jihat tilni birlashtirib, standartlashtirish funktsiyasini bajaradi.

Boshqa tomondan, interaktiv va ijodiy ta'lim muhiti tilning jonlanishiga, uning yangi vaziyatlarda yangi shaklda namoyon bo'lishiga zamin yaratadi. O'quvchilar bloglar yozadi, video darsliklar tayyorlaydi, podcast chiqaradi — bularning barchasi o'zbek tilidagi yangi janr va uslublarning shakllanishiga olib kelmoqda. Pedagogning vazifasi ana shu ijodiy jarayonni adabiy til me'yorlari doirasida yo'naltirish va o'quvchini til boyligidan ongli foydalanishga o'rgatishdir.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va pedagogik yondashuvlar o'zbek adabiy tilining rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. Raqamli ta'lim vositalaridan oqilona foydalanish adabiy til normalarini keng auditoriyaga yetkazish, tilga qiziqishni oshirish va til malakalarini rivojlantirishda samarali omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek adabiy tilining rivojlanishida ichki omillar — til tizimining o'z imkoniyatlari — va tashqi omillar — boshqa tillar, texnologiya va siyosat ta'siri — dialektik birlikda harakat qiladi. Bugungi texnologik muhitda bu ikkala omil yanada kuchayib, bir-birini to'ldirmoqda. Shuning uchun til ta'limini raqamlashtirish jarayonida adabiy tilning normativligi va sofligi masalasiga alohida e'tibor qaratish, pedagogik texnologiyalarni til me'yorlarini o'rgatish bilan organik ravishda birlashtirish zarurdir.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun maqsadli yo'nalish sifatida sun'iy intellekt vositalarining o'zbek adabiy tili o'qitishidagi imkoniyatlarini chuqur o'rganish va

til siyosatining raqamli ta'lim bilan integratsiyasini ta'minlash masalalarini tavsiya etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hymes, D. (1972). On communicative competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics: Selected readings (pp. 269–293). Penguin.

2. Warschauer, M., & Healey, D. (1998). Computers and language learning: An overview. Language Teaching, 31(2), 57–71. https://doi.org/10.1017/S0261444800012970

3. Karimov, N. (2019). O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent: O'qituvchi.

4. Yo'ldoshev, J. (2021). Zamonaviy o'zbek tili va uning rivojlanish tendensiyalari. O'zbek tili va adabiyoti, 3, 12–24.

5. Nurmonov, A. (2012). O'zbek tilshunosligi tarixi. Toshkent: Akademnashr.

6. UNESCO. (2020). Education in a post-COVID world: Nine ideas for public action. UNESCO. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000373717

7. O'zbekiston Respublikasi. (2020). Ta'lim to'g'risida qonun (yangi tahrirda). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi.

8. Shodmonov, E. (2022). Raqamli ta'lim va o'zbek tili me'yorlari. Pedagogika va psixologiya, 1, 45–53.

ZAMONAVIY O‘ZBEK TILIDA INTERNET LEKSIKASINING SHAKLLANISHI

Toshkent gumanitar fanlar universiteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Xurmamatova Mohinur Baxodir qizi

Ilmiy rahbar Fayzullayeva Maftuna Odil qizi

TGFU “Pedagogika va tillar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy axborot texnologiyalari sharoitida o‘zbek tilida internet leksikasining shakllanishi va uning lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Internet muhitida yuzaga kelayotgan yangi so‘zlar, iboralar, qisqartmalar hamda xorijiy tillardan o‘zlashgan birliklarning ma’no va qo‘llanish doirasi yoritiladi. Tadqiqotda internet leksikasining til taraqqiyotidagi o‘rni va uning ijtimoiy-madaniy ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili, internet leksikasi, neologizm, gibrid so‘zlar, ijtimoiy tarmoqlar, kommunikatsiya, sotsiolingvistika, til taraqqiyoti*

Annotation: *This article analyzes the formation of internet lexicon in the modern Uzbek language under the influence of information technologies and its linguistic features. It examines new words, expressions, abbreviations, and borrowings from foreign languages that emerge in the internet environment, as well as their meanings and usage. The study highlights the role of internet lexicon in language development and its socio-cultural significance.*

Keywords: *Uzbek language, internet lexicon, neologism, hybrid words, social networks, communication, sociolinguistics, language development.*

KIRISH

Zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlanishi natijasida internet inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar ta’sirida o‘zbek tiliga yangi leksik birliklar kirib kelmoqda. Bu jarayon tilning tabiiy rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, yangi so‘zlar, atamalar va gibrid shakllarning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlar internet leksikasining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Metodlar

Mazkur maqolada nazariy-tavsifiy va tahliliy yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot davomida internet leksikasiga oid lingvistik adabiyotlar, ilmiy manbalar hamda mavjud nazariy qarashlar o‘rganildi va umumlashtirildi.

Shuningdek, internet muhitida (ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va onlayn muloqot platformalari) kuzatiladigan til birliklari kuzatuv metodi asosida tahlil qilindi. Bu jarayonda yangi so‘zlar, qisqartmalar, gibrid shakllar va xorijiy o‘zlashmalar tasniflandi. Tadqiqotda qiyosiy va sotsiolingvistik yondashuvdan foydalanilib, internet leksikasining shakllanishi til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik nuqtayi nazaridan o‘rganildi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy o‘zbek tilida internet leksikasining shakllanishi murakkab va ko‘p qatlamli jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon tilning ichki imkoniyatlari hamda tashqi (xorijiy tillar ta’siri) omillar asosida rivojlanmoqda.

Birinchidan, internet leksikasida **xorijiy o‘zlashmalar** muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, ingliz tilidan kirib kelgan “test”, “monitoring”, “kollej”, “blog”, “chat”, “like” kabi so‘zlar keng qo‘llanilmoqda. Bu birliklar ko‘pincha o‘zbek tiliga to‘liq moslashgan yoki qisman fonetik o‘zgarishlar bilan ishlatilmoqda.

Ikkinchidan, internet muhitida **qisqartmalar va slang birliklar** tez-tez uchraydi. Ular muloqotni tezlashtirish va ixchamlashtirish vazifasini bajaradi. Masalan, “lol”, “brb”, “omg” kabi xalqaro internet slanglari yoshlar nutqida faol ishlatilmoqda.

Uchinchidan, tadqiqot natijalari **gibrid so‘zlar** (o‘zbek va xorijiy tillar aralashmasi) shakllanayotganini ko‘rsatdi. Bu turdagi birliklar internet muloqotida tabiiy hodisa sifatida yuzaga kelmoqda va tilning moslashuvchanligini ifodalaydi.

To‘rtinchidan, internet leksikasida **neologizmlar** – ya’ni yangi yaratilgan so‘zlar va iboralar soni ortib bormoqda. Bu birliklar ko‘pincha yangi

texnologiyalar, platformalar va raqamli xizmatlar bilan bog‘liq holda paydo bo‘ladi.

Beshinchidan, zamonaviy kommunikatsiyada **emoji va grafik belgilar** ham leksik ma’noning ifodalanish vositasi sifatida muhim rol o‘ynaydi. Ular yozma nutqda emotsional ifodani kuchaytiradi va muloqotni boyitadi.

Umuman olganda, olingan natijalar internet leksikasining o‘zbek tili tizimida faol shakllanayotgan yangi qatlam ekanini tasdiqlaydi. Bu jarayon tilning boyishi, uning global kommunikatsiya tizimiga moslashuvi hamda sotsiolingvistik rivojlanishining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Muhokama

Zamonaviy o‘zbek tilida internet leksikasining shakllanishi global axborotlashuv jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u til tizimining dinamik rivojlanishini aks ettiradi. Internet muhiti nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki yangi lingvistik birliklarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘layotgan ijtimoiy makon sifatida ham qaraladi. Bu jarayon tilning ochiq tizim ekanini va tashqi omillar ta’sirida doimiy o‘zgarib borishini ko‘rsatadi.

Emile Benveniste til va jamiyat munosabatlarini tahlil qilib, tilni ijtimoiy hodisa sifatida izohlaydi. Uning fikricha, “til insonning jamiyatdagi fikr ifodalash va muloqot qilish ehtiyojini amalga oshiruvchi asosiy vositadir” (Benveniste, “Problems in General Linguistics”, 1971). Ushbu nazariy yondashuv internet leksikasining ham aynan ijtimoiy ehtiyojlar natijasida shakllanayotganini asoslaydi.

O‘zbek tilshunosligida A. Hojiyev so‘z yasalishi jarayonini tahlil qilib, tilning ichki imkoniyatlari hamda tashqi o‘zlashmalar orqali boyib borishini ta’kidlaydi (“O‘zbek tili so‘z yasalishi”, 2007). Internet muhitida yuzaga kelayotgan yangi so‘zlar, qisqartmalar va gibrid birliklar aynan shu jarayonning zamonaviy ko‘rinishidir.

N. Mahmudov esa til taraqqiyotini izohlar ekan, yangi leksik birliklarning kirib kelishini tabiiy va uzluksiz jarayon sifatida baholaydi (“Hozirgi o‘zbek

adabiy tili", 2010). Bu fikr internet leksikasining til tizimiga moslashib borayotganini ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, internet leksikasining shakllanishida bir necha asosiy omillar mavjud:

Birinchidan, **globalizatsiya jarayoni** natijasida ingliz tili asosiy donor til sifatida xizmat qilmoqda. "like", "follow", "online", "chat", "post" kabi birliklar o‘zbek tilida faol ishlatilmoqda.

Ikkinchidan, **ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar** (Telegram, Instagram, TikTok) tilning tez o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Bu platformalarda qisqartmalar va slang birliklar keng tarqalgan.

Uchinchidan, **yoshlar nutqi** internet leksikasining asosiy tarqatuvchisi hisoblanadi. Ular yangi so‘zlarni tez qabul qilib, muloqotda faol ishlatadi.

To‘rtinchidan, internet leksikasida **gibrid so‘zlar** (o‘zbek + ingliz aralash shakllar) ko‘payib bormoqda. Bu holat tilning moslashuvchanligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, emoji va grafik belgilar ham zamonaviy internet kommunikatsiyasida muhim rol o‘ynaydi. Ular yozma nutqda emotsional ifodani kuchaytiradi va matnning mazmuniy ta'sirini oshiradi.

Umuman olganda, internet leksikasi til tizimida yangi sotsiolingvistik qatlam sifatida shakllanmoqda. U tilning boyishiga xizmat qilsa-da, bir vaqtning o‘zida me'yoriy til tizimi uchun yangi muammolarni ham yuzaga keltiradi. Shu sababli bu hodisa lingvistik, sotsiolingvistik va lingvokulturologik jihatdan chuqur ilmiy tadqiqotlarni talab etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o‘zbek tilida internet leksikasining shakllanishi til taraqqiyotining tabiiy bosqichi hisoblanadi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida yangi leksik qatlam yuzaga kelib, u tilning boyishiga va kommunikativ imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qilmoqda. Ushbu jarayon sotsiolingvistik jihatdan chuqur o‘rganishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Emile Benveniste. Problems in General Linguistics. — Miami: University of Miami Press, 1971.

2. Hojiyev A. O‘zbek tili so‘z yasalishi. — Toshkent: “O‘zbekiston”, 2007.

3. Karimov N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. — Toshkent: “O‘qituvchi”, 2010.

4. Karim B. Zamonaviy tilshunoslik va sotsiolingvistika. — Toshkent: 2016.

5. Mahmudov N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. — Toshkent: “O‘qituvchi”, 2010.

6. Crystal D. Language and the Internet. — Cambridge: Cambridge University Press, 2006.

O‘ZBEK VA VYETNAM TILLARIDA ZOONIM-KOMPONENTLI FRAZEOLOGIZMLARNI TARJIMA QILISHNING LINGVOKULTUROLOGIK MUAMMOLARI

Mo‘ydinova Gulnigorxon

magistratura 1-bosqich talabasi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

O‘zbekiston Respublikasi

e-mail: [gulnigorxon09@gmail.com]

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek va vyetnam tillaridagi zoonim-komponentli frazeologizmlarni bir tildan ikkinchi tilga o‘girishda yuzaga keladigan lingvokulturologik muammolar tahlilga tortilgan. Tadqiqotda ikki tilning frazeologik fondidagi hayvon nomlari ishtirok etgan barqaror birikmalar qiyosiy o‘rganilib, ularning milliy-madaniy konnotatsiyalaridagi farqlar aniqlangan. Muallif tarjima jarayonida kuzatiladigan to‘liq ekvivalentlik, qisman ekvivalentlik va ekvivalentsizlik holatlarini misollar yordamida ko‘rsatib, mazkur birliklarni tarjima qilishning to‘rt asosiy usulini tavsiya etadi.*

Kalit so‘zlar: *zoonim, frazeologizm, lingvokulturologiya, qiyosiy tilshunoslik, tarjima, ekvivalentlik, milliy-madaniy konnotatsiya, o‘zbek tili, vyetnam tili.*

Abstract. *The article analyses the linguocultural problems that arise in the translation of zoonym-component phraseological units between Uzbek and Vietnamese. The study comparatively examines stable expressions containing animal names in the phraseological funds of both languages and identifies differences in their national-cultural connotations. Through illustrative examples, the author demonstrates cases of full equivalence, partial equivalence, and non-equivalence observed in the translation process, and proposes four principal methods for rendering such units: identifying a phraseological equivalent, selecting a functional analogue, calquing, and providing descriptive translation.*

Key words: *zoonym, phraseological unit, linguoculturology, comparative linguistics, translation, equivalence, national-cultural connotation, Uzbek language, Vietnamese language.*

KIRISH

Tilning frazeologik fondi har bir xalqning ko‘p asrlar davomida shakllangan dunyoqarashi, milliy-madaniy qadriyatlari va etnopsixologik xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan boy ma’naviy meros sifatida e’tirof etiladi. Frazeologizmlar tarkibida hayvon nomlari — zoonimlar — ishtirok etgan barqaror birikmalar lingvokulturologik tadqiqotlarning eng ahamiyatli ob’yektlaridan biri hisoblanadi, chunki ushbu birliklarda inson va tabiat o‘rtasidagi azaliy aloqa, hayvonot olamiga nisbatan shakllangan stereotiplar va ramziy obrazlar yaqqol aks etadi.

O‘zbek va vyetnam tillari turli til oilalariga (mos ravishda turkiy hamda austroaziatik) mansubdir. Bu ikki til geografik jihatdan ham, madaniy ta’sir doiralari bo‘yicha ham bir-biridan ancha uzoqdadir. Shu bilan birga, ikkala xalq ham qadimdan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanib kelgani sababli, ularning lug‘aviy fondida hayvon nomlari bilan bog‘liq juda boy frazeologik qatlam shakllangan. Mazkur til hodisalarini qiyosiy aspektda o‘rganish nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy tarjimashunoslik, leksikografiya va madaniyatlararo muloqot uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, hozirgi kunda o‘zbek-vyetnam yo‘nalishidagi qiyosiy frazeologik tadqiqotlar yetarlicha o‘rganilmagan, ikki til o‘rtasida bevosita ikki tomonlama frazeologik lug‘atlar mavjud emas. Aynan shu sababli zoonim-komponentli frazeologizmlarni tarjima qilish jarayonida tarjimonlar jiddiy lingvokulturologik to‘siqlarga duch keladilar. Mazkur maqolaning maqsadi — ikki tildagi zoonimli frazeologik birliklarning tarjimasida uchraydigan asosiy muammolarni aniqlash va ularni hal etishning samarali usullarini taklif etishdir.

ASOSIY QISM

Frazeologizm — ma’no jihatdan butunligicha qabul qilinadigan, tarkibi turg‘unlik xususiyatiga ega bo‘lgan, nutqda tayyor holda ishlatiladigan til birligidir [1, 8-b.]. Zoonim esa hayvon, parranda, hashorot va boshqa jonzotlarni nomlovchi leksik birliklarni anglatuvchi atamadir. Zoonim-komponentli frazeologizm deganda, tarkibida hayvon nomi yoki uning hosilasi qatnashgan

barqaror so‘z birikmasi tushuniladi. Bunday birliklar har bir xalqning hayvonot olamiga nisbatan shakllangan ramziy tasavvurlarini, axloqiy baholarini va madaniy stereotiplarini namoyon etadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va vyetnam tillari frazeologik birliklarini tarjima qilish jarayonida uch turdagi semantik munosabatni ajratib ko‘rsatish mumkin: to‘liq ekvivalentlik, qisman ekvivalentlik va ekvivalentsizlik.

Birinchi guruh — to‘liq ekvivalentlikka ega birliklar. Bu turdagi frazeologizmlarda har ikki tilda bir xil zoonim ishlatilib, bir xil ma’no anglashiladi. Masalan, o‘zbekcha *“it bilan mushukday”* iborasi vyetnamcha “*như chó với mèo”* (so‘zma-so‘z: “itu mushukdek”) frazeologik birligiga to‘g‘ri keladi. Ikkala tilda ham bu ibora doimiy janjal va kelishmovchilikda yashovchi munosabatlarni tasvirlaydi. Bunday hollar tarjima uchun eng oson holat bo‘lib, til vositasi to‘g‘ridan to‘g‘ri almashtiriladi.

Ikkinchi guruh — qisman ekvivalentlikka ega birliklar. Bu hodisada ma’no umumiy bo‘ladi, biroq frazeologizm tarkibidagi zoonim yoki obraz farqlanadi. Masalan, o‘zbek tilida jismoniy quvvatni ifodalash uchun *“ho‘kizday kuchli”* iborasi qo‘llaniladi, vyetnam tilida esa ayni shu ma’no *“khỏe như voi”* (filday kuchli) shaklida ifodalanadi. Bu farq ikki xalq turmush tarzidagi tafovut bilan izohlanadi: o‘zbek lingvomadaniyatida ho‘kiz an’anaviy dehqonchilik xo‘jaligidagi asosiy ish hayvoni sifatida e’tirof etilgan bo‘lsa, vyetnam madaniyatida fil tarixan kuch va salobatning timsoli sanalgan. Yana bir misol: o‘zbek tilidagi *“qo‘y ogʻzidan cho‘p olmagan”* iborasi (juda yumshoq, beozor inson) vyetnam tilida ko‘proq *“hiền như Bụt”* (Buddhadek mehribon) tarzida ifodalanadi — ya’ni ma’no bir xil bo‘lsa-da, vositachi obraz farqlanadi.

Uchinchi guruh — ekvivalentsiz birliklar. Bu turdagi frazeologizmlar tor milliy-madaniy konnotatsiyaga ega bo‘lib, boshqa tilda to‘g‘ridan to‘g‘ri muqobiliga ega emas. Bunga vyetnam tilidagi *“rồng bay phượng múa”* (ajdaho uchadi, qaqnus raqsga tushadi) iborasini misol qilib keltirish mumkin. Mazkur frazeologizm muhtasham va go‘zal manzarani tasvirlash uchun ishlatiladi va u

to‘g‘ridan to‘g‘ri Sharqiy Osiyoning ajdaho-qaqnus mifologik kompleksiga borib taqaladi. O‘zbek tilida bu obrazga to‘liq mos keluvchi zoonimli muqobil mavjud emas. Aksincha, o‘zbek tilidagi *“bulbulday sayrash”* iborasi forsiy-turkiy lirik an’ananing yorqin namunasi bo‘lib, bulbulning oshiqlik va nafis ovoz timsoli sifatidagi obrazi vyetnam frazeologiyasida bevosita aks etmagan.

Mazkur uch tipdagi semantik munosabat tarjima strategiyasini tanlashda hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Tadqiqot davomida zoonim-komponentli frazeologizmlarni tarjima qilishning to‘rt asosiy usuli ajratib ko‘rsatildi: **frazeologik ekvivalentdan foydalanish** (ikki tilda obraz va ma’no jihatidan mos muqobil topilganda); **funksional analog tanlash** (maqsad tilda turlicha obrazli, ammo bir xil pragmatik vazifani bajaruvchi frazeologizm topish); **kalkalash** (so‘zma-so‘z tarjima — asliyatdagi madaniy obrazni saqlash zarur bo‘lganda qo‘llaniladi va odatda izohli sharh bilan to‘ldiriladi); **izohli (deskriptiv) tarjima** (frazeologizm ma’nosini erkin shaklda tushuntirib berish — ekvivalentsiz birliklar uchun maqbul). Strategiyani to‘g‘ri tanlash matn janri, kommunikativ vaziyat va o‘quvchi auditoriyasi bilan bevosita bog‘liqdir. V.N. Teliyaning ta’kidlashicha, frazeologizm — madaniyatning lingvistik koddagi ifodasi bo‘lib, uni boshqa tilga o‘tkazishda madaniy ma’lumot mukammal saqlanmasligi mumkin [4, s. 215].

XULOSA

Olib borilgan tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, o‘zbek va vyetnam tillaridagi zoonim-komponentli frazeologizmlar har ikki xalqning milliy dunyoqarashi, urf-odatlari va atrof-muhitga munosabatining til hodisalaridagi aksini namoyon etadi. Ikkinchidan, ushbu birliklar o‘rtasida to‘liq ekvivalentlik holati nisbatan kam uchraydi; ko‘p hollarda qisman ekvivalentlik yoki ekvivalentsizlik kuzatiladi, bu esa ikki tilning genetik va tipologik uzoqligi, shuningdek, madaniy o‘zgachaliklari bilan izohlanadi. Uchinchidan, tarjimon zoonim-komponentli frazeologizmlarni o‘girishda yagona universal usulga tayanmasligi, balki har bir aniq holatni semantik, pragmatik va madaniy jihatdan baholab, eng maqbul strategiyani tanlashi lozim. Tadqiqot natijalari qiyosiy

lingvokulturologiya, tarjimashunoslik nazariyasi hamda ikki tomonlama frazeologik lug‘atlarni tuzish ishlari uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rahmatullayev, Sh. (1992). O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati.

2. Mamatov, A. E. (2019). Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. Toshkent: Fan.

3. Kunin, A. V. (1996). Kurs frazeologii sovremennogo angliyskogo yazika. Moskva: Vysshaya shkola.

4. Teliya, V. N. (1996). Russkaya frazeologiya: semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokulturologicheskiy aspekty. Moskva: Shkola «Yazyki russkoy kultury».

5. Vinogradov, V. V. (1977). Ob osnovnykh tipakh frazeologicheskikh yedinits v russkom yazyke. V kn.: Izbrannye trudy. Leksikologiya i leksikografiya. Moskva: Nauka, s. 140–161.

6. Nguyễn, L. (2003). Từ điển thành ngữ và tục ngữ Việt Nam. Hà Nội: Nhà xuất bản Văn học.

7. Hoàng, V. H. (2008). Thành ngữ học tiếng Việt. Hà Nội: Nhà xuất bản Khoa học xã hội.

8. Maslova, V. A. (2001). Lingvokulturologiya: uchebnoe posobie dlya studentov vysshikh uchebnykh zavedeniy. Moskva: Akademiya.

O‘QUVCHILARNING O’ZBEK XALQ NAQQOSHCHILIGIDA MA’NAVIY-AXLOQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING BOSHLANG’ICH BILIMLARI

QarshiDU San’atshunoslik fakulteti 2-kurs talabasi

Raximova Nargiza Ahmadjon qizi

maxmanazarovyodgor2@gmail.com

Anottatsiya. *O‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy madaniyatini o‘zbek xalq naqqoshchiligi orqali shakllantirish uchun boshlang‘ich bilimlar tizimini aniqlash va metodik tavsiyalar ishlab chiqishdir. Tadqiqotda adabiyot tahlili, pedagogik kuzatuv va sinov darslari usullari qo‘llanildi. Natijada naqqoshchilik elementlari asosida o‘quv mashg‘ulotlari, dars rejalari va tashabbuskorlik mashg‘ulotlari namunasi taklif etildi; ular estetika, milliy qiymatlar va axloqiy tushunchalarni birlashtirib, bolalar ongida milliy madaniyatga hurmatni rivojlantiradi. Maqola boshlang‘ich ta’limda amaliy tatbiq uchun konkret tavsiyalar beradi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek xalq naqqoshchiligi, ma’naviy-axloqiy madaniyat, boshlang‘ich ta’lim, estetik tarbiya, milliy an’analar, dars rejalari, metodik tavsiyalar.*

Abstract. *The aim of the study is to identify the system of primary knowledge and develop methodological recommendations for the formation of students' spiritual and moral culture through Uzbek folk painting. The methods of literature analysis, pedagogical observation and test lessons were used in the study. As a result, a sample of educational activities, lesson plans and initiative activities based on elements of painting were proposed; they combine aesthetics, national values and moral concepts and develop respect for national culture in the minds of children. The article provides specific recommendations for practical application in primary education.*

Keywords: *Uzbek folk painting, spiritual and moral culture, primary education, aesthetic education, national traditions, lesson plans, methodological recommendations.*

Аннотация. *Цель исследования – выявление системы первичных знаний и разработка методических рекомендаций по формированию духовно-нравственной*

культуры учащихся посредством узбекской народной живописи. В исследовании использованы методы анализа литературы, педагогического наблюдения и экспериментальных уроков. В результате предложены образцы учебных мероприятий, планов уроков и инициативных мероприятий, основанных на элементах живописи, которые сочетают эстетику, национальные ценности и моральные концепции и развивают уважение к национальной культуре в сознании детей. В статье представлены конкретные рекомендации по практическому применению в начальном образовании.

Ключевые слова: *узбекская народная живопись, духовно-нравственная культура, начальное образование, эстетическое воспитание, национальные традиции, планы уроков, методические рекомендации.*

KIRISH

Rasm chizish bolani fikrlashga undaydi, qobiliyatlarini rivojlantiradi, vizual xotirani kuchaytiradi. Albatta, maktab yoshda bo’lgan bolaga rasm chizishni o’rgatish oson emas, lekin u qadar qiyin vazifani ham shunchalik qo’rqinchli va imkonsiz ko’rinmasligi uchun oddiy bosqichlarga bo’lish mumkin.

Maktab va maktab ta’lim muassasasida tasviriy faoliyat bo‘yicha ishlarni rejalashtirishda asosiy prinsip, bu tasviriy faoliyatni ta’lim tarbiyaviy ishning eng muhim bo‘limlaridan biri sifatida qarash hisoblanadi. Tasviriy faoliyat bo‘yicha ishni ma’lum bir vaqtga rejalashtirishda, shu davrda faoliyatning boshqa turlari bo‘yicha amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiyaviy ishlarni ham nazarda tutmoq lozim. Tasviriy faoliyat bo‘yicha mashg‘ulotlarni rejalashtirishda, albatta tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikni ham hisobga olmoq zarurdir. Tasviriy faoliyatning har bir turi o‘ziga xos vazifalarni hal etadi, ammo qanday bo‘lsa-da, ularni bir yo‘nalish, maqsad bo‘yicha birlashadilar.

Tasviriy faoliyat turlari - rasm chizish, loy bilan ishlash, applikatsiya o‘ziga xos tasviriy texnikaga egadir. Tasviriy faoliyat bo‘yicha ishni rejalashtirishda o’qituvchi, albatta har bir turdagi mashg'ulotlar soniga qat’iy rioya qilishi lozim. Tasviriy faoliyat bo‘yicha mashg‘ulotlami rejalashtirish, yuqoridagilardan tashqari, mashg‘ulot qanday materiallar bilan o‘tkazilsa,

maqsadga muvofiq bo‘lishini ham o’qituvchi nazarda tutmog‘i lozim. Masalan, loy bilan ishlashda - loy yoki plastilin, rasm chizishda - guash, rangli qalam, ko‘mir tayoqchasi va hokazo. Shuningdek, o’qituvchi mashg‘ulotning dastur mazmunini tanlashda, bolalarga qanday predmetlarni chizdirish haqida emas, balki shu predmetni chizdirish yoki loydan yasattirish orqali qanday bilim va ko‘nikma berish yoki o‘rgatish haqida ko‘proq o‘ylashi lozim. Ixtiyoriy mashg‘ulotlarni rejalashtirishda esa o’qituvchi bolalarning mustaqilligini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam be rave hi o‘rgatish usullari to‘g‘risida o‘ylab olishi kerakdir. O’qituvchi ishlarni rejalashtirishda u yoki bu guruh bo‘yicha dastur qo‘ygan vazifalarning barchasini e’tiborda tutgan holda ish rejasini tuzadi. Shuningdek, tasviriy faoliyatlari bo‘yicha bir oyga mo‘ljallangan istiqlol reja tuzish ham maqsadga muvofiqdir. Bunda o’qituvchi tasviriy faoliyat mashg'ulotlari o‘rtasidagi o‘zaro bogianishni ham nazarda tutadi. Shunday qilgan taqdirdagina, bolalar ma’lum bilim, malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lishlari mumkin bo‘ladi. Bundan tashqari, tasviriy faoliyat turlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish natijasida tevarak-atrofni badiiy jihatdan o‘zlashtirishlarning yangi-yangi yo'Ilari vujudga keladi va bolalar tevarak-atrofni obrazli qilib tasvirlashning turli xil usullari bilan tanishadilar. Demak, tasviriy faoliyat turlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqa ishlarni rejalashtirishda katta ahamiyatga ega ekan. Bu o‘zaro bog‘lanish qaysilar ekan?

1. Tasviriy faoliyatga ta’lim-tarbiya ishining muhim bo‘lagi, deb qarash hamda rasm chizish, loy bilan ishlash, applikatsiya mashg‘ulotlarini rejalashtirishda dasturning barcha bo‘limlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqa, bog‘lanishni doimo diqqat-e’tiborda tutish lozim. Ya’ni tevarak-atrof bilan tanishtirish, musiqa mashg‘ulotlari va hokazo. Bular tasviriy faoliyat uchun qiziqarli hodisalar va voqealami tanlashga yordam beradi.

2. Tasviriy faoliyatning barcha turlari tevarak-a'rof, hayotni obrazlarda tasvirlaydi, ammo har biri o‘ziga xos xususiyatga ega ekanligini hisobga olmoq zarur. Ya’ni rasm chizish - predmet va voqealarni rangda tekis yuzada tasvirlaydi, loy hajmlarda, applikatsiya - rangda, siluet ravishda. Shuningdek,

har biri o‘ziga xos tasvir texnikasiga ega: rasm chizish chiziqli grafik ravishda, rangtasvir usulida, loy plastik ravishda, applikatsiya - qog‘ozdan qirqish va alohida qismlardan tuzish.

3. Dasturda tasviriy faoliyat turlari oldiga qo‘yilgan vazifalardan biri ularning o‘zaro aloqada ekanligidir. Masalan, bolalar rang bilan rasm chizish bilan bir vaqtda, applikatsiya bilan ham tanishib boradilar.

4. Tasviriy faoliyati turlari o'rtasidagi bog‘lanish o’qituvchiga rasm chizish, loy, applikatsiya bo‘yicha vazifalarni aniqlashga yordam beradi. Masalan, kichik guruhga doiraviy shakllami o‘rgatishda, oldin tayyor doira shakllarini applikatsiyada bergan ma’qul, so‘ng esa rasm chizish mashg‘ulotlarida bergan ma’qul.

5. Tasviriy faoliyat turlari o‘rtasidagi bog‘lanish ma’lum bir mavzudagi mashg'ulotlar asosida ham bo‘lishi mumkin. Masalan, rus xalq ertagi «Bo‘g‘irsoq»ni bolalar ham chizishi, ham applikatsiya, ham loydan yasashi mumkin. Bu turdagi takrorlanish bolalarning mavzuga nisbatan qiziqishlarini pasaytirmaydi, chunki har bir faoliyat turi jarayonida bolalar ertak qahramonlarining xilma-xil tasvirining yangi usul va yo‘llari bilan tanishadilar.

6. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini to‘g‘ri rejalashtirishda, mashg'ulotlar o‘rtasida ularning dastur vazifalari, mavzular o‘rtasida bog'Ianish vujudga keladiki, buning natijasida bolalarning yangi malaka va ko‘nikmalarini va bilimlami egallashlarida ma’lum ketma-ketlik va bogianish vujudga keladi. Masalan, «Qushlar» mavzusi asosida olib borilgan mashg‘ulotlar jarayonida bolalar don cho‘qiyotgan qushni loydan yasashni, shoxda o‘tirgan qushni rasmini chizishni, afsonaviy qushni qanday qilib qog‘ozdan qirqib olishni bilib oladilar.

7. Shuningdek, tasviriy faoliyati bo‘yicha ishni rejalashtirishda faqatgina ularning turlari o‘rtasidagi ketma-ketlikni nazarda tutmay, balki har bir turdagi mashg‘ulotlar o‘rtasida ham bog'Ianish o‘matish va ularni diqqatda tutish lozim. Masalan, predmetli rasm chizish loy ishlaridan keyin mazmunli ishlarni rejalashtirish lozim. Tasviriy faoliyat bo‘yicha ishni rejalashtirishda o’qituvchi

bolalar bilan ishlashda foydalanadigan metod va usullariga ham ahamiyat bermog‘imiz lozim. Bular ko‘rsatmali va og‘zaki metod hisoblanadi. Ko‘rsatmali va og‘zaki metod o‘zaro birgalikda olib borilishi lozim.

Demak, o’qituvchi tasviriy faoliyat bo‘yicha ishlarni rejalashtirishga juda katta ahamiyat bermog‘i lozim ekan. O’qituvchi ishni rejalashtirishga qanday ahamiyat bergan bo‘lsa, ishni hisobga olishga ham shunday e’tibor bermog‘i lozim bo‘ladi. Chunki bu narsa - o’qituvchiga tasviriy faoliyatga o‘rgatish bo‘yicha dastur vazifalari talablari qanday bajarilganligini aniqlashga va mashg‘ulotlarning sifatli chiqishi uchun qanday tayyorgarlik ishlarini ko‘proq olib borish lozimligi hamda o‘rgatishlarning yangi xilma-xil metod va usullari ustida ko‘proq ishlash lozimligini aniqlab olishga va keyinchalik ulardan bolalar bilan ishlashda foydalanish uchun yangi-yangi imkoniyat yaratib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.

1. Xayrov R.Z. Tasviriy san’at darslarida o’quvchilarga individual yondashuvning ilmiy-metodik asoslari: pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori. ... diss. Avtoref. – T., 2020. – 47 b.

2. Jabborova O.M. Bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchilarini kasbiy tayyorlash nazariyasi. Academic Research in Educational Sciences. – Uzbekistan, 2021. – №3. – P.1053-1058.

3. I.B.Kamolov. Kreativ loyihalashni faollashtirishning pedagogik-psixologik aspektlari.Inter education & global study,671-679.2025.

4. Xolbekova.B.A. Tasviriy san’at asarlarini idrok etishning turli oqimlardagi ko’rinishlari. ilm-fan va texnalogiyalar jurnali. sciencetech.uz - B 218-221

5.Xolbekova.B.A. (2026). Naturaga qarab rasm chizish orqali real voqelik tushunchalarini shakllantirishning yo‘llari. “Interpretation and researches” xalqaro ilmiy jurnali 3(75) soni: http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar.

6. Abdullayev, U. (2020). Tabiat va san'at: Rasmlarda real voqelik. O'zbekiston san'ati jurnal.

RANG SEMALI LEKSEMALARDAN YASALGAN SO‘ZLARNING SEMANTIK TAHLILI

(“QORA” LEKSEMASI MISOLIDA)

Norjigitova Nafisa Abduxamitovna

Sharof Rashidov nomidagi SamDU

o‘zbek tilshunosligi kafedrasi magistranti

Annotatsiya*. Leksik ma'nolar avvalo bosh ma'no va hosila ma'no deb farq qilinadi. Boshqa bir leksik ma'noning yuzaga kelishi uchun asos bo‘lgan ma'no bosh ma'no deyiladi. Bosh ma'noning taraqqiyoti bilan yuzaga kelgan leksik ma'no hosila ma'no deyiladi. Bir leksemaning leksik ma'nolari tizimidagi birlamchi leksik ma'no to‘ng‘ich bosh ma'no deyiladi. O‘zidan keyingi ma'noning taraqqiy etib chiqishi uchun asos bo‘lgan hosila ma'no nisbiy bosh ma'no deyiladi. Leksemaning bosh ma’nosi ham, hosila ma’nosi ham yangi so‘z yasash uchun asos bo‘la oladi. Ushbu maqolada rang semali so‘zlarning bosh va hosila ma’nolaridan yasalgan yasama leksemalarning semantik tahlili beriladi.*

Kalit so‘zlar: *leksema, sema, bosh ma’no, hosila ma’no, so‘z yasalishi, sodda yasama so‘z, qo‘shma so‘z, affiksatsiya usuli, kompozitsiya usuli, semantik usulda so‘z yasash, yasama leksema*

Abstract. *Lexical meanings are primarily distinguished as main (primary) and derivative (secondary) meanings. The meaning that serves as the basis for the emergence of another lexical meaning is called the main meaning. A lexical meaning that develops from the main meaning is called a derivative meaning. The primary lexical meaning within the system of a lexeme's lexical meanings is called the absolute (original) main meaning. A derivative meaning that serves as the basis for the development of a subsequent meaning is called a relative main meaning. Both the main and derivative meanings of a lexeme can serve as a basis for word formation. This article provides a semantic analysis of derivative lexemes formed from the main and derivative meanings of color-semic words (color-related words).*

Keywords: *lexeme, seme, main meaning, derivative meaning, word formation, simple derivative word, compound word, affixation method, composition method, semantic method of word formation, derivative lexeme*

Аннотация. *Лексические значения прежде всего разделяются на основное и производное. Значение, служащее основой для возникновения другого лексического значения, называется основным значением. Лексическое значение, возникшее в процессе развития основного значения, называется производным значением. Первичное лексическое значение в системе значений одной лексемы называется главным основным значением. Производное значение, ставшее основой для развития последующего значения, называется относительным основным значением. Как основное, так и производное значение лексемы могут служить базой для словообразования. В данной статье представлен семантический анализ производных лексем, образованных от основных и производных значений слов с цветовой семой.*

Ключевые слова: *лексема, сема, основное значение, производное значение, словообразование, простое производное слово, сложное слово, метод аффиксации, метод композиции, семантический способ словообразования, производная лексема*

KIRISH

Hozirgi leksik ma'nolar bosh ma'no va hosila ma'no, to‘g‘ri ma'no va ko‘chma ma'no, nominativ ma'no va figural ma'no deb bir necha nuqtayi nazardan tasnif qilinadi. Bu tasniflar biri ikkinchisini istisno qilmaydi, balki ayni bir hodisaga har xil yondashishni aks ettiradi. Leksik ma'noning yuqoridagicha turlari ko‘pma'noli leksemalar asosida belgilanadi. {Sh.Rahmatullayev, 2006:63} Ko‘p ma’noli so‘zlar xalq tafakkur darajasini belgilashda muhim rol o‘ynaydi. Chunki inson bolasi ilk – tabiiy yaratilish va ikkilamchi – inson qo‘li bilan yaratilgan predmetlardagi shakl, joylashish o‘rni, belgi, holat, harakat va mohiyat o‘rtasidagi qiyosiy tahlil tufayli yangi ilmiy xulosalar chiqarsa-da, ba’zan natija yangi leksema bilan yakunlansa, ba’zan shakl, joylashish o‘rni, belgi, holat, harakat va mohiyat o‘rtasidagi o‘xshashlik tufayli bir necha sema bir leksema bilan nomlanib qolaveradi.

Bir leksemaning semalari esa semantik munosabatga ko‘ra turli so‘zlar bilan sinonimlik va antonimlik qatorini hosil qila oladi. Masalan, *qattiq* so‘zining semalariga diqqat qiladigan bo‘lsak, qattiq so‘zi, avvalo, shakl va hajm o‘zgarmasligini; 2) Tashqi ta’sirga qarshilik ko‘rsatish belgisini; 3) Badanga, qo‘lga botadigan; salga ezilmaydigan, bosilmaydigan; 4) Mahkam, mustahkam, pishiq; 5) Belgi darajasi yuqori (ortiq) bo‘lgan; kuchli, zo‘r, juda; 6) Qiyinchilik,

mashaqqat bilan bo‘ladigan, kuch, mehnat, mashaqqat talab etadigan; og‘ir, qiyin, mashaqqatli; Sarf-xarajat, umuman, chiqimga tobi yo‘q, unga chidamaydigan. {O‘TIL, IV, 2023: 92}. Bu o‘rinda qattiq so‘zi *qattiq modda* kabi birikmaning 1-ma’nosida *o‘zgarmas* so‘zi bilan sinonimlik hosil qilsa, *o‘zgaruvchan* so‘zi bilan antonimlik hosil qiladi; *qattiq yog‘och* birikmasida *toshday* so‘zi bilan sinonimlik hosil qilsa, *mo‘rt* so‘zi bilan antonimlik hosil qiladi; qattiq xamir birikmasida *toshday* so‘zi bilan sinonimlik hosil qilsa, *yumshoq* so‘zi bilan antonimlik hosil qiladi; qattiq bog‘lamoq birikmasida *mahkam* so‘zi bilan sinonimlik hosil qilsa, *bo‘sh* so‘zi bilan antonimlik hosil qiladi; qattiq tovush birikmasida *kuchli* so‘zi bilan sinonimlik hosil qilsa, *kuchsiz* so‘zi bilan antonimlik hosil qiladi; qattiq yumush birikmasida *qiyin* so‘zi bilan sinonimlik hosil qilsa, *oson* so‘zi bilan antonimlik hosil qiladi; *qattiq odam* birikmasida *xasis* so‘zi bilan sinonimlik hosil qilsa, *saxiy* so‘zi bilan antonimlik hosil qiladi. {O‘TIL, 2023:92}

Bir necha semaga ega so‘zlar har bir semasida sinonimlik va antonimlik hosil qilgani kabi so‘z yasalishida ham shunday ishtirok etishi mumkin. Hatto, rang semasini tashuvchi so‘zlarning barchasi ham bosh ma’nosi bilan sinonimlik va antonimlik qatorini hosil qila olmasa-da (bir qismida mavjud), ammo hosila ma’nosi orqali nutqiy sinonimlikni, nutqiy antonimlikni hosil qila oladi. Masalan, *qora* leksemasining o‘zbek tilida aynan sinonimi yo‘q, faqat fors-tojik tilidan o‘zlashgan ekvivalenti *siyo* so‘zi poetik matnlarda uchraydi. Ammo *qora* so‘zining hosila ma’nosi sinonimik va antonimik hosil qila oladi. Avvalo, 2023-yil qayta nashr etilgan olti jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ning to‘rtinchi jildida keltirilgan ***qora*** leksemasining semalariga diqqat qilsak, bu polisemantik leksemaning o‘n uch xil ma’nosi izohlangan. **QORA** 1 Rang-tusi mavjud ranglarning barchasidan to‘q; qozonkuya, ko‘mir tusidagi; 2 Shu tusga moyil to‘q rangli; qoramtir. 3 Is, qurum bosgan, qoraygan yoki oqlanmagan, pardozlanmagan. 4 Qorong‘i; nursiz, ziyosiz; zid. yorug‘. 5 Shaxmat, shashka kabi o‘yinlarda oqqa zid donalar va shu donalar bilan o‘ynovchi tomon. 6 ot Qora yoki qoraga moyil narsa (kiyim, mato va sh.k.). 7 ot Biror narsaning

uzoqdan yoki qorong‘idan ko‘zga tashlanuvchi aksi, ifodasi; sharpa. 8 ot Mo‘ljalga olingan yoki olinadigan narsa, nishon; mo‘ljal. 9 ko‘chma Umuman, salbiy belgini, salbiy belgiga egalikni bildiradi; yomon. 10 ot ko‘chma Noto‘g‘ri, yomon, yaramas narsa, ish. 11 Ba’zi so‘zlar bilan qo‘llanib, ular anglatgan narsaga xos belgi-holatning kuchli darajasini bildiradi. 12 ko‘chma esk. Ma’lum miqdordagi yaxlit summa. 13 Qora (erkaklar ismi). {O‘TIL, 2023:222-223}

Qora leksemasining ayni rang ma’nosi siyoh so‘zi bilan sinonim, oq so‘zi bilan antonimlik hosil qilganda, qora ko‘ylak, qora non – 1) siyo ko‘ylak; 2) noni siyo (sinonim) – 1) oq ko‘ylak; 2) oq non (antonim) jumlalarida qo‘llanadi. 3) qora devor birikmasida *bo‘yalmagan* so‘zi bilan sinonimlik hosil qilsa, *oqlangan* so‘zi bilan antonimlik hosil qiladi. 4) *qora tun* birikmasida *qorong‘u* so‘zi bilan sinonimlik hosil qilsa, *yorug‘* so‘zi bilan antonimlik hosil qiladi va hokazo.

Xuddi shu kabi qora leksemasining bosh va hosila semalari alohida-alohida sema tashuvchi yangi so‘zlarga asos bo‘lib xizmat qiladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *qora* so‘zi asos qilib olingan yasama so‘zlarni struktur-semantik xususiyatiga ko‘ra quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

Qora rang leksemasidan yasalgan qo‘shma otlar: qorachoy, qorachiroq, qorachirik (qoracherik), qorachakak, qorasho‘ra, qorashaqshaq, qorasuli, qorasuvoq, qoratarvuz, qoratol, qoratomoq, qorato‘r, qorasovuq, qorason, qorabotir, qoraqush I, qoraqush II, qoraqurt I, qoraqurt II, qoraqo‘tir, qoraquyruq, qoraqiz, qoraqobiq (qoraqovuq), qoraqosh I, qoraqosh II, qoraquloq I, qoraquloq II, qoraqarag‘ay, qoraqarg‘a, qoraqat, qoraqayin, qoraqiltiq, qoraqiyoq, qorapatak, qorapo‘choq, qoraqand I, qoraqand II, qoramug‘ (qoramiq), qoramashoq, qoramol, **qoramon**, qoramoy, qoramayiz, qoramaldoq, qorako‘za, qorako‘rpa, qorako‘l, qorakuya I, qorakuya II, qorakosov I, qorakosov II, qorakesak, qorakaltak I, qorakaltak II, qorajigar, qorajanjal, qoragul I, qoragul II, qoradori, qorabug‘doy, qorabura, qorabosh, qorabovur, qoraandiz, qoraarcha, qorabaliq, qorabarak, qorabayir. Jami 70 ta leksema.

Qora rang leksemasidan yasalgan qo‘shma sifatlar: qorashirg‘ay, qoraparang, qoramag‘iz. Jami 3 ta leksema.

Qora rang leksemasidan yasalgan ravishlar: Qorama-qora. Jami 1 ta leksema

Qora rang leksemasidan yasalgan sodda yasama so‘zlar: qorachiq, qoracha, qorash, qoraymoq, qorayish, qorayaloq, qoravoy, qoramtir, qoramolchilik, qoralovchi, qoralik, qoralamoq, qoralama, qorakash. Jami 14 ta leksema.

Qora rang leksemasidan yasalgan qo‘shma otlardan affiksatsiya usulida yasalgan otlar: Qorako‘lchi, qorako‘lchilik, qoramolchilik, qoradorifurushlik. Jami 5 ta leksema.

Ko‘rinib turibdiki, *qora* leksemasi serunum asos bo‘lib, yasalgan so‘zlar leksemaning bosh va hosila semalaridan yasalgan. Xususan, *qorachirik (qoracherik) (qora 9), qorasuvoq (qora 4), qoradori (qora 9), qorakaltak I (qora 7)* so‘zlari yasalayotganda *qora* leksemasining hosila semalari asos qilib olingan. Shuningdek, sodda yasama so‘zlar haqida so‘z ketganda ham shu fikrni aytish mumkin. *Qoraymoq* so‘zi asosdagi bosh ma’nodan hosil bo‘lgan bo‘lsa, *qoralama, qoralamoq, qoralovchi* kabi yasama leksemalarning asosida hosila sema ma’nosi tayanch omil vazifasini bajaradi. Masalan, **QORALOVCHI** 1 Qoralamoq fl. sfdsh. Ahmad Husayn... muharrir bilan uchrashuvning oqibatini... qoralovchi ifodalarda bayon qildi. Oybek, Nur qidirib. 2 huq. Sud oldida sudlanuvchining aybdor ekanligini quvvatlovchi; ayblovchi. Davlat qoralovchisi. Jamoat qoralovchisi. ▬ Qoralovchi gapirib, oqlovchi gapirib... Oliyaning o‘zi oxirgi so‘zdan voz kechib, sud hay’ati… qamoq muddatini e’lon qildi. M.M.Do‘st, Lolazor. {O‘TIL, IV, 2023: 223}

O‘zbek tilida rang semasini tashuvchi lisoniy birliklarning leksemalarning ko‘p ma’nolilik xususiyati leksik qatlamning sinonimik, antonimik, frazeologik qatlamlarinini qanchalik kengaytirsa, ichki manba asosida so‘z yasalishi va tuzilishini ham shunchalik boyishiga sabab bo‘ladi. Bu orqali o‘zbek tili leksik qatlamining hajmi ortishi ta’minlanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. https://www.scribd.com/document/818735682/Azim-Hojiyev-O-zbek-tili-morfologiyasi-morfemikasi-va-so-z-yasalishining-nazariy-masalalari.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 6 jildli. 4-jild. – T.: O‘zME, 2023. – 1036 b.

3. Rahmatullayev Sh., Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: "Universitet" nashriyoti, 2006. – 476 bet

4. Xakimova M., Semasiologiya. Darslik. – Toshkent: “Bookmany print”, 2025. – 142 bet.

5. Неъматов Ҳ., Расулов R. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Т., “Ўқитувчи”, 1995.

6. Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. Тошкент: Янги аср авлоди , 2001.

7. Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиш тизими. – T.: O‘qituvchi, 2007. – 168 b.

MAKTAB KUTUBXONALARIDA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Orazalieva Navbahor Zautboy qizi

O‘zDSMI Magistratura bo‘limi 1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: O‘ktam Nosirov

“Kutubxona-axborot faoliyati” kafedrasi, professor.v.b., falsafa fanlari nomzodi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada maktab kutubxonalarida o‘quvchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqotda huquqiy madaniyat tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy komponentlari hamda shaxs rivojidagi o‘rni ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan. Maqolada huquqiy madaniyatni shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, jumladan, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatli va innovatsion yondashuvlarni qo‘llashning ahamiyati asoslab berilgan. Shu bilan birga, kutubxona faoliyati orqali o‘quvchilarda huquqiy bilimlarni mustahkamlash, ularning huquqiy tafakkurini rivojlantirish va ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan amaliy mexanizmlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari maktab kutubxonalarida huquqiy tarbiyani samarali tashkil etish, o‘quvchilarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish hamda jamiyatda huquqiy ong va qonun ustuvorligini ta’minlashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar*: Huquqiy madaniyat, huquqiy ong, kognitiv komponent, aksiologik yondashuv, maktab kutubxonasi, axborot-ta’lim muhiti, huquqiy tarbiya, pedagogik texnologiyalar, ijtimoiylashuv, huquqiy faollik****.***

Аннотация: *В данной статье всесторонне анализируются научно-теоретические основы формирования правовой культуры учащихся в школьных библиотеках. В исследовании раскрывается сущность и содержание понятия правовой культуры, а также освещаются её структурные компоненты и роль в развитии личности с научной точки зрения. В статье обосновывается важность применения современных педагогических подходов, включая личностно-ориентированный, деятельностный и инновационный подходы в процессе формирования правовой культуры.*

Ключевые слова: *правовая культура, школьная библиотека, правовое сознание, правовое воспитание, педагогический процесс, информационные ресурсы, формирование личности, правовые знания, библиотечная деятельность, образовательная среда*

Abstract: *This article provides a comprehensive analysis of the scientific and theoretical foundations for developing students' legal culture in school libraries. The study examines the essence and content of the concept of legal culture, its structural components, and its role in personal development from a scientific perspective. The article substantiates the importance of applying modern pedagogical approaches in the formation of legal culture, including learner-centered, activity-based, and innovative approaches. In addition, it analyzes practical mechanisms aimed at strengthening students' legal knowledge, developing their legal thinking, and increasing their social activity through library activities. The results of the research contribute to the effective organization of legal education in school libraries, enhancement of students' legal culture, and the promotion of legal awareness and the rule of law in society.*

Keywords: *Legal culture, legal awareness, cognitive component, axiological approach, school library, information and educational environment, legal education, pedagogical technologies, socialization, legal activity.*

KIRISH

Bugungi kunda huquqiy ong va huquqiy madaniyat fuqarolik jamiyatining poydevorini tashkil etadi. Yosh avlodda huquqiy madaniyatni erta shakllantirish ularning huquqiy xulqi, qoidaga rioya qilish va ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, maktab kutubxonalari o‘quvchilar uchun huquqiy bilimlarni chuqur o‘zlashtirish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish markazi sifatida qaraladi.

Huquqiy madaniyat — shaxsning huquqiy bilimlar, qadriyatlar va xulq-atvorlar majmuasi bo‘lib, uch asosiy komponentdan iborat:

1. **Kognitiv komponent** — huquqiy tushunchalarni anglash va bilimlarni tizimli o‘zlashtirish;
2. **Aksiologik komponent** — huquqiy qadriyatlarni qadrlash va ijtimoiy me'yorlarga munosabat;
3. **Regulyativ komponent** — o‘rganilgan huquqiy bilimlarni amaliy xatti-harakatda qo‘llash.

Ushbu komponentlarning uyg‘unligi shaxsning huquqiy yetukligini belgilaydi va jamiyatda qonun ustuvorligini mustahkamlaydi.

Maktab kutubxonalari nafaqat axborot manbai, balki **pedagogik ta’lim muhitining muhim bo‘lagi** hisoblanadi. Ularning vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- O‘quvchilarni huquqiy madaniyatini o‘rganishga rag‘batlantirish;
- Huquqiy mavzularda mustaqil tadqiqotlar va loyiha ishlari tashkil qilish;
- Faol va mustaqil fikrlash, tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarini shakllantirish.

Kutubxona shuningdek, o‘quvchilarda huquqiy mas’uliyatni rivojlantirish va ijtimoiy faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayoni – bu nafaqat o‘quvchilarga huquqiy bilimlarni berish, balki ularning huquqiy tafakkurini rivojlantirish, huquqiy qadriyatlarni qadrlash va shaxsiy mas’uliyatni mustahkamlashni o‘z ichiga oladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, samarali huquqiy tarbiya faqat **nazariy bilim va amaliy mashg‘ulotlarni uyg‘unlashtirish** orqali shakllanishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, maktab kutubxonalarida huquqiy madaniyatni rivojlantirishda quyidagi yondashuvlar ilmiy asos sifatida qabul qilinadi:

1. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv o‘quvchining individual xususiyatlarini, qiziqishlarini va bilim darajasini hisobga oladi.

- **Nazariy asos:** Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchining individual qobiliyati va qiziqishiga moslashtirilgan ta’lim samaraliroq bo‘ladi (Vygotsky, 1978).
- **Amaliyot:** Maktab kutubxonasida o‘quvchilarga huquqiy mavzular bo‘yicha **shaxsiy izlanish loyihalari**, masalan, “Mening huquqlarim va majburiyatlarim” mavzusida tadbirlar o`tkazish.
- **Natija:** O‘quvchilar o‘z qiziqishlariga mos mavzularni o‘rganadi, huquqiy ongini mustahkamlaydi va huquqiy qadriyatlarni o‘zlashtiradi.

2. Faoliyatga asoslangan yondashuv

Faoliyatga asoslangan yondashuv huquqiy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar orqali mustahkamlashga qaratilgan.

- **Nazariy asos:** Dewey (1916) ta’lim nazariyasiga ko‘ra, o‘rganilgan bilim faqat amaliy faoliyat orqali o‘zlashtiriladi.
- **Amaliyot:**
  - **Debatlar** – “Bolalar va maktabdagi huquqlar” mavzusida o‘tkaziladi;
  - **Vaziyat tahlili** – huquqiy vaziyatlarni tahlil qilib, o‘quvchilar qaror qabul qiladi;
  - **Rolli o‘yinlar** – o‘quvchilar sud ishini yoki huquqiy masalalarni dramatizatsiya qiladi.
- **Natija:** O‘quvchilar huquqiy bilimlarni amalda qo‘llashni o‘rganadi, qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

3. Integrativ yondashuv

Integrativ yondashuv huquqiy mavzularni boshqa fanlar bilan uyg‘unlashtirishni o‘z ichiga oladi.

- **Nazariy asos:** Interdisiplinar yondashuv o‘quvchilarda kompleks tafakkur va bilimlarni birlashtirish imkonini beradi (Piaget, 1972).
- **Amaliyot:**
  - Tarix fani bilan bog‘liq: “O‘zbekiston Konstitutsiyasi tarixiy rivojlanishi” mavzusida tadqiqot;
  - Ona tili: huquqiy insho yozish;
  - Jamiyatshunoslik: ijtimoiy qoidalar va huquqiy institutlar tahlili.

O‘quvchilar huquqiy tushunchalarni turli fanlar bilan bog‘lab o‘rganadi, ularni amaliyotga tatbiq etadi va huquqiy madaniyatni kengroq kontekstda tushunadi.

4. Innovatsion yondashuv

Innovatsion yondashuv elektron resurslar, multimedia vositalari va raqamli platformalardan foydalanishga asoslanadi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari huquqiy bilimlarni tez va samarali o‘zlashtirishga yordam beradi.

Amaliyot:

- Elektron kutubxona resurslari: PDF kitoblar, ilmiy maqolalar, huquqiy qonunlar;
- Multimedia: video-lavhalar, interaktiv testlar, huquqiy viktorinalar;
- Raqamli platformalar: onlayn forumlar va virtual debatlar.

Natija: O‘quvchilar huquqiy bilimlarni raqamli formatda o‘zlashtiradi, mustaqil izlanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishga rag‘batlanadi.

Amaliy tavsiyalar

- Kutubxonada **huquqiy kitoblar fondini** yaratish;
- **Huquqiy bilimlar haftaligi** kabi tadbirlar tashkil etish;
- Huquqshunoslar va amaliyotchilar bilan **ma’rifiy uchrashuvlar** o‘tkazish;
- O‘quvchilarni **mustaqil izlanish va loyiha ishlari**ga jalb qilish;
- Raqamli resurslar va interaktiv platformalar orqali huquqiy bilimlarni kengaytirish.

Maktab kutubxonalari yosh avlodda huquqiy madaniyatni shakllantirishning muhim institutlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, huquqiy madaniyatni rivojlantirish nafaqat o‘quvchilarning huquqiy bilimlarini oshirish, balki ularning huquqiy tafakkurini chuqurlashtirish, ijtimoiy mas’uliyatini mustahkamlash va qonun ustuvorligini qadrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, maktab kutubxonalari zamonaviy pedagogik yondashuvlar, jumladan, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan va innovatsion metodlarni qo‘llash orqali huquqiy madaniyatni yanada samarali rivojlantirish imkoniyatiga ega. Kutubxona faoliyati o‘quvchilarda huquqiy bilimlarni

mustahkamlash, huquqiy xulq-atrovni shakllantirish va ijtimoiy faollikni oshirishga xizmat qiladigan amaliy mexanizmlarni taqdim etadi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, maktab kutubxonalarida huquqiy tarbiyaga yo‘naltirilgan strategik chora-tadbirlar amalga oshirilsa, bu nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyatda qonun ustuvorligi va huquqiy ongni mustahkamlashga ham bevosita hissa qo‘shadi. Shu bois, maktab kutubxonalari faoliyatini tizimli va metodik jihatdan rivojlantirish, huquqiy bilimlarni o‘quvchilar orasida targ‘ib qilish va ularni amaliy mashg‘ulotlar bilan boyitish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, maktab kutubxonalaridagi huquqiy madaniyatni shakllantirish — bu nafaqat ta’lim va tarbiya jarayonining ajralmas qismi, balki yosh avlodning fuqarolik ongini rivojlantirish, jamiyatda huquqiy madaniyatni kengaytirish va qonun ustuvorligini ta’minlashning samarali mexanizmidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov, Sh. *Huquqiy madaniyat va jamiyatda uning roli.* Toshkent: Fan, 2018.
2. Karimova, N. *Pedagogik jarayonda huquqiy tarbiya metodlari.* Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
3. Qodirov, O. *Maktab kutubxonalarining ta’limdagi ahamiyati.* Toshkent: Universitet nashriyoti, 2019.
4. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim kodeksi. Toshkent: Huquq, 2020.
5. Nazarov, T. *Huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari.* Samarkand: Fan va texnologiya, 2021.
6. Saidov, A. *Kutubxonashunoslik va pedagogik innovatsiyalar*. Toshkent: Ma’naviyat, 2019.

ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTIDA YOSHLAR OBRAZINING TALQINI

Romanova Ma’mura Qahramonovna

Toshkent gumanitar fanlar universiteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar Fayzullayeva Maftuna Odil qizi

TGFU “Pedagogika va tillar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotida yoshlar obrazining talqini, uning badiiy va ijtimoiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida yosh qahramonlarning ichki dunyosi, ijtimoiy muammolari, hayotiy qarashlari va ma’naviy izlanishlari yoritiladi. Shuningdek, yoshlar obrazining an’anaviy va zamonaviy talqinlari o‘rtasidagi farqlar ochib berilib, ularning adabiyotdagi o‘rni ilmiy asosda baholanadi.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy adabiyot, yoshlar obrazi, badiiy tahlil, ijtimoiy muammolar, obraz talqini, o‘zbek adabiyoti, realizm.*

Annotation: *This article analyzes the interpretation of youth images in modern Uzbek literature and examines their artistic and social characteristics. The study highlights the inner world, social issues, life perspectives, and spiritual quests of young characters. It also reveals the differences between traditional and modern interpretations of youth images and evaluates their role in literature on a scientific basis.*

Keywords: *modern literature, youth image, literary analysis, social issues, image interpretation, Uzbek literature, realism.*

KIRISH

Zamonaviy o‘zbek adabiyoti jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va ma’naviy o‘zgarishlarni aks ettiruvchi muhim vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yoshlar obrazi bugungi adabiyotda eng dolzarb va faol tasvirlanayotgan obrazlardan biri hisoblanadi. Chunki yoshlar jamiyatning kelajagini belgilovchi asosiy qatlam bo‘lib, ularning dunyoqarashi, muammolari, orzu-intilishlari va hayotiy pozitsiyasi adabiy asarlarda o‘z aksini topmoqda. Mustaqillikdan keyingi davrda o‘zbek adabiyotida yangicha

tafakkur, erkin fikrlash va individual yondashuv kuchayib, yoshlar obrazini yaratishda ham sezilarli o‘zgarishlar yuzaga keldi. Endilikda yosh qahramonlar faqat ijobiy namunaviy obraz sifatida emas, balki ichki ziddiyatlarga ega, hayotiy muammolar bilan yuzma-yuz kelayotgan real shaxs sifatida tasvirlanmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi — zamonaviy o‘zbek adabiyotida yoshlar obrazining talqinini o‘rganish, uning o‘ziga xos jihatlarini tahlil qilish hamda bu obraz orqali jamiyatdagi muammolar va tendensiyalar qanday ifodalanayotganini aniqlashdan iborat.

Metodologiya

“Adabiy tahlil matnning ichki mazmuni va badiiy qatlamlarini ochib berishga xizmat qiladi” (Quronov D., 2010, 52-bet).

Mazkur tadqiqotda bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Jumladan:

Tahliliy metod – zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi asarlarda yoshlar obrazini chuqur o‘rganish uchun;

Qiyosiy metod – an’anaviy va zamonaviy davrdagi yoshlar obrazlarini solishtirish uchun;

Tasniflash metodi – yoshlar obrazining asosiy turlarini ajratib ko‘rsatish uchun;

Matn tahlili (interpretatsiya) – adabiy asarlar mazmuni va badiiy xususiyatlarini ochib berish uchun tadqiqot obyekti sifatida zamonaviy o‘zbek yozuvchilari asarlaridagi yosh qahramonlar tanlab olindi. Tadqiqot jarayonida badiiy asarlardan misollar keltirish va ularni ilmiy asosda sharhlashga alohida e’tibor qaratildi.

Natijalar

Tadqiqot natijasida zamonaviy o‘zbek adabiyotida yoshlar obrazi turli badiiy ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi aniqlandi. Ushbu obrazlar aniq adabiy misollar asosida quyidagicha tasniflandi:

1. Izlanishdagi yoshlar obrazi

Zamonaviy asarlarda yosh qahramonlar ko‘pincha hayotda o‘z o‘rnini topishga intilayotgan shaxs sifatida tasvirlanadi. Masalan, Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romanida bosh qahramon o‘z hayotiy yo‘lini topish, ma’naviy muvozanatga erishish yo‘lida ichki izlanishlar olib boradi. Bu obraz orqali zamonaviy yoshlarning ruhiy kechinmalari va hayotiy qarorlar oldidagi ikkilanmalari ochib beriladi.

2. Ruhiy ziddiyatli obrazlar

Ichki qarama-qarshiliklar zamonaviy yoshlar obrazining muhim xususiyatlaridan biridir. Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” asarida qahramonning ichki iztiroblari, hayot mazmunini anglashga bo‘lgan intilishi chuqur psixologik tahlil orqali yoritiladi. Bu esa yoshlar obrazining murakkab va ko‘p qirrali ekanini ko‘rsatadi.

3. Ijtimoiy muammolar aks etgan obrazlar

Zamonaviy adabiyotda yoshlar orqali jamiyatdagi muammolar ham ochib beriladi. Abduqayum Yo‘ldoshev hikoyalarida yoshlarning ijtimoiy muhit, ishsizlik, hayotdagi qiyinchiliklar bilan kurashi real tasvirlanadi. Bu orqali adabiyot jamiyat muammolarining aks-sadosi sifatida namoyon bo‘ladi.

4. Faol va tashabbuskor yoshlar obrazi

Ba’zi asarlarda yoshlar ijtimoiy hayotda faol, yangilikka intiluvchi shaxs sifatida tasvirlanadi. Xurshid Do‘stmuhammad asarlarida yosh qahramonlar tashabbuskor, mustaqil fikrlovchi va jamiyat taraqqiyotiga befarq bo‘lmagan obrazlar sifatida gavdalanadi.

5. Qadriyatlar to‘qnashuvi

An’anaviy va zamonaviy qadriyatlar o‘rtasidagi ziddiyat ham yoshlar obrazida muhim o‘rin tutadi. O‘tkir Hoshimovning asarlarida yoshlarning ota-onalar qarashlari bilan zamonaviy dunyoqarash o‘rtasida qolishi, ichki tanlov qilish jarayoni badiiy ifoda etiladi.

Muhokama

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy o‘zbek adabiyotida yoshlar obrazi tobora murakkablashib, chuqurlashib bormoqda. Zamonaviy

adabiyotda yoshlar obrazi murakkablashgan va realistik tus olgan. Quronov D. fikriga ko‘ra: “Realistik adabiyot insonning ichki dunyosini to‘liq ochib berishga intiladi” (2010, 61-bet). Bu holat yoshlar obrazining psixologik chuqurlashganini ko‘rsatadi.

Avvalgi davr adabiyotida yoshlar ko‘proq namunaviy, ideal qahramon sifatida tasvirlangan bo‘lsa, hozirgi davrda ular real hayotdagi kabi turli muammolar va qarama-qarshiliklar bilan ifodalanmoqda. Bu holat adabiyotning realizmga yaqinlashganini va inson psixologiyasiga chuqurroq kirib borayotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, yoshlar obrazida individualizm, mustaqil fikrlash va shaxsiy erkinlik masalalari muhim o‘rin egallamoqda.

Shuningdek, adabiyot orqali yoshlar muammolarini yoritish jamiyat uchun muhim signal vazifasini bajaradi. Yozuvchilar yoshlar hayotidagi muammolarni ko‘rsatish orqali ularni hal etishga e’tibor qaratmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o‘zbek adabiyotida yoshlar obrazi muhim badiiy va ijtimoiy kategoriya sifatida shakllanmoqda. Ushbu obraz orqali jamiyatdagi dolzarb muammolar, ijtimoiy o‘zgarishlar va ma’naviy jarayonlar o‘z ifodasini topmoqda.

Yoshlar obrazi endilikda biryoqlama emas, balki ko‘p qirrali, murakkab va real hayotga yaqin tarzda tasvirlanmoqda. Bu esa zamonaviy adabiyotning yuksalib borayotganini va uning ijtimoiy ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Kelgusida ushbu yo‘nalishda yanada chuqurroq ilmiy tadqiqotlar olib borish, ayniqsa, alohida yozuvchilar ijodida yoshlar obrazini o‘rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. Toshkent, 2008.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent, 2010. 52-61-betlar.
3. Yo‘ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2015.
4. Hamdam U. Muvozanat. — Toshkent: “Sharq”, 2007.

5. Isajon Sulton. Boqiy darbadar. — Toshkent: “Sharq”, 2010.

6. Yo‘ldoshev A. Hikoyalar to‘plami. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2012.

7. Do‘stmuhammad X. Tanlangan asarlar. — Toshkent: “O‘zbekiston”, 2014.

8. Hoshimov O‘. Asarlar to‘plami (5 jild). — Toshkent: “Sharq”, 2009.

BO‘LAJAK AKTYORLAR TAYYORGARLIGIDA SAHNAVIY DIQQATNING ROLI VA PSIXOLOGIK ASOSLARI

Ayzada Qutlımuratova

Ózbekiston davlat sańat va madaniyat instituti Nukus filiali

“Aktyorli mahorati” kafedrasi talabasi

Ilimiy rahbari: Bibinaz Baxiyeva

Ózbekiston davlat sańat va madaniyat instituti Nukus filiali

“Aktyorli mahorati” kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada sahnaviy diqqat tushunchasining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Sahnaviy diqqatning aktyorlik mahoratini shakllantirishdagi o‘rni, uning psixologik asoslari hamda sahna faoliyatida namoyon bo‘lish xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, diqqatning turlari, uni boshqarish mexanizmlari va maxsus mashqlar orqali rivojlantirish usullari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari sahnaviy diqqat aktyorning obraz yaratish jarayonida muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.*

Аннотация: *В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты сценического внимания. Раскрывается роль сценического внимания в формировании актерского мастерства, его психологические основы и особенности проявления в сценической деятельности. Также рассматриваются виды внимания, механизмы его управления и методы развития с помощью специальных упражнений. Результаты исследования показывают, что сценическое внимание является важным фактором в процессе создания сценического образа.*

Abstract: *This article analyzes the theoretical and practical aspects of stage attention. It highlights the role of stage attention in the development of acting skills, its psychological foundations, and its manifestation in stage performance. The study also examines types of attention, mechanisms of its control, and methods of its development through specific exercises. The results show that stage attention is a crucial factor in the process of character creation.*

Kalit so‘zlar: *sahnaviy diqqat, aktyorlik mahorati, konsentratsiya, psixotexnika, ichki diqqat, tashqi diqqat, sahna harakati, obraz, teatr pedagogikasi*

Ключевые слова: *сценическое внимание, актерское мастерство, концентрация, психотехника, внутреннее внимание, внешнее внимание, сценическое движение, образ, театральная педагогика*

Keywords: *stage attention, acting skills, concentration, psychotechnics, internal attention, external attention, stage movement, character (role), theatre pedagogy*

KIRISH

Zamonaviy teatr san’atida aktyorning sahnadagi faoliyati ko‘p qirrali va murakkab jarayon hisoblanadi. U nafaqat matnni yodlab ijro etadi, balki shu matn orqali ma’lum bir obrazni yaratadi, sahna muhitiga moslashadi va tomoshabin bilan bevosita emotsional aloqa o‘rnatadi. Bunday ko‘p qatlamli faoliyat esa aktyordan yuqori darajadagi psixologik tayyorgarlikni talab etadi. Aynan shu jarayonda sahnaviy diqqat muhim o‘rin tutadi.

Sahnaviy diqqat — bu aktyorning sahna jarayonida o‘z ongini muayyan obyektlarga yo‘naltira olish, uni boshqarish va kerakli vaqt davomida barqaror ushlab turish qobiliyatidir. Bu faqat oddiy e’tibor emas, balki murakkab psixologik mexanizm bo‘lib, aktyorning ichki hissiyoti, tafakkuri va jismoniy harakatlari bilan uzviy bog‘liqdir. Bugungi kunda teatr pedagogikasida sahnaviy diqqatni rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki diqqatni boshqara olmagan aktyor sahnada o‘zini erkin tutolmaydi, obrazni to‘liq ochib bera olmaydi va ijrosi sun’iy ko‘rinishga ega bo‘ladi. Aksincha, diqqatni to‘g‘ri yo‘naltira olgan aktyor sahnada “yashaydi”, uning harakati tabiiy, ishonchli va ta’sirchan bo‘ladi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi sahnaviy diqqatning mohiyatini chuqur o‘rganish, uning aktyorlik mahoratini shakllantirishdagi o‘rnini aniqlash hamda uni rivojlantirishning samarali usullarini ilmiy asoslashdan iborat.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

- nazariy tahlil (psixologik va teatrshunoslik adabiyotlarini o‘rganish);
- kuzatuv (talabalarning sahna mashg‘ulotlari jarayonini tahlil qilish);

- taqqoslash (diqqat darajasi yuqori va past aktyorlar faoliyatini solishtirish);
- amaliy mashqlar samaradorligini baholash.

Shuningdek, aktyorlik mashg‘ulotlarida qo‘llaniladigan diqqatni rivojlantiruvchi texnikalar (konsentratsiya mashqlari, tasavvur bilan ishlash, improvizatsiya) sinovdan o‘tkazildi. Aktyorlik yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar bilan olib borilgan mashg‘ulotlar asosida sahnaviy diqqatni rivojlantirishga qaratilgan usullar samaradorligi o‘rganildi.

NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida olingan natijalar sahnaviy diqqatning aktyorlik faoliyatidagi hal qiluvchi ahamiyatini yaqqol namoyon etdi. Xususan, sahnaviy diqqat ustida muntazam ishlagan talabalar ijrosida sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi.

Birinchidan, diqqatni boshqara olgan aktyorlarning sahnadagi harakatlari ancha ishonchli va mantiqiy bo‘ldi. Ular har bir harakatni ongli ravishda amalga oshirib, obrazning ichki mazmunini ochib bera oldilar. Bu esa tomoshabin tomonidan ijobiy qabul qilinishiga olib keldi.

Ikkinchidan, diqqat darajasi oshgan sari aktyorlarning obrazga kirish tezligi ham ortdi. Ular sahnaga chiqqan zahoti rolga mos ruhiy holatni egallashga muvaffaq bo‘ldilar. Bu esa ijroning yaxlitligini ta’minladi.

Uchinchidan, diqqat mashqlari bilan shug‘ullangan guruhda sahnaviy xatolar sezilarli darajada kamaydi. Xususan, matnni unutish, sahnadagi noaniq harakatlar yoki ortiqcha hayajon kabi muammolar kamroq uchradi.

To‘rtinchidan, ichki va tashqi diqqat uyg‘unligini shakllantirish aktyorlarning sahnadagi erkinligini oshirdi. Ular bir vaqtning o‘zida ham ichki hissiyotlarni boshqara oldilar, ham sahna muhitiga moslashdilar.

Umuman olganda, natijalar sahnaviy diqqatni rivojlantirish aktyorlik mahoratini oshirishning muhim vositalaridan biri ekanligini tasdiqladi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar asosida aytish mumkinki, sahnaviy diqqat aktyorlik san’atining markaziy komponentlaridan biri hisoblanadi. U aktyorning

sahnadagi barcha faoliyatini bir butun tizimga birlashtiradi. Diqqat orqali aktyor o‘z harakatlarini nazorat qiladi, hissiyotlarini boshqaradi va sahna vaziyatiga mos ravishda javob qaytaradi. Psixologik nuqtai nazardan, diqqat ongning tanlab yo‘naltirilgan faoliyati bo‘lib, u sahna sharoitida yanada murakkablashadi. Chunki aktyor bir vaqtning o‘zida bir nechta obyektga e’tibor qaratishi kerak: sahnadagi sheriklar, rekvizitlar, matn, rejissor talablari va tomoshabin reaksiyasi. Bu esa diqqatning taqsimlanishi va barqarorligini yuqori darajada rivojlantirishni talab etadi.

Shuningdek, sahnaviy diqqat aktyorning ijodiy erkinligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Diqqatni yaxshi boshqara olgan aktyor sahnada o‘zini erkin his qiladi, improvizatsiya qilishdan qo‘rqmaydi va kutilmagan vaziyatlarga tez moslasha oladi. Bu esa uning professional darajasini oshiradi. Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat aniqlandi: sahnaviy diqqatni rivojlantirish faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmasligi kerak. U muntazam amaliy mashqlar orqali shakllanadi. Ayniqsa, konsentratsiya mashqlari, tasavvur bilan ishlash va jismoniy harakatga asoslangan mashg‘ulotlar bu borada samarali hisoblanadi. Shu sababli teatr ta’limi tizimida sahnaviy diqqatni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashg‘ulotlar alohida o‘rin egallashi lozim.

XULOSA

Yuqorida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sahnaviy diqqat aktyorlik mahoratini shakllantirishda eng muhim va ajralmas psixologik omillardan biri hisoblanadi. U aktyorning sahnadagi barcha faoliyatini yagona tizimga birlashtirib, uning ichki kechinmalari, tafakkuri va jismoniy harakatlari o‘rtasida uyg‘unlikni ta’minlaydi. Sahnaviy diqqat orqali aktyor o‘z e’tiborini aniq maqsadga yo‘naltira oladi, sahnadagi vaziyatni chuqur his qiladi va obrazni ishonchli tarzda namoyon etadi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, diqqatni boshqara olgan aktyor sahnada erkin va tabiiy harakat qiladi, uning ijrosi sun’iylikdan xoli bo‘ladi. Bunday aktyor tomoshabin bilan mustahkam emotsional aloqa o‘rnatadi, sahnadagi har bir harakati mantiqan asoslangan va ichki mazmun bilan

boyitilgan bo‘ladi. Aksincha, sahnaviy diqqat yetarli darajada rivojlanmagan aktyor ijrosida uzilishlar, noaniqliklar va ishonchsizlik holatlari kuzatiladi, bu esa obrazning to‘liq ochilmasligiga olib keladi. Shuningdek, sahnaviy diqqat aktyorning ijodiy erkinligi va improvizatsiya qobiliyatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Diqqatni ongli ravishda boshqara olgan aktyor kutilmagan sahna vaziyatlarida ham o‘zini yo‘qotmaydi, tezkor qaror qabul qiladi va ijodiy yechim topa oladi. Bu esa uning professional darajasini sezilarli darajada oshiradi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, sahnaviy diqqat tug‘ma xususiyat emas, balki muntazam mashqlar va izchil pedagogik yondashuv orqali rivojlantiriladigan ko‘nikmadir. Konsentratsiya mashqlari, tasavvur bilan ishlash, improvizatsiya va jismoniy harakatga asoslangan mashg‘ulotlar bu jarayonda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli teatr ta’limi tizimida sahnaviy diqqatni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish, maxsus metodikalar ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, sahnaviy diqqat aktyorning sahnadagi muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri bo‘lib, u obraz yaratish jarayonining sifatini, ijroning ta’sirchanligini va tomoshabin bilan o‘zaro aloqaning samaradorligini ta’minlaydi. Uni chuqur o‘rganish va tizimli ravishda rivojlantirish aktyorlik ta’limining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Stanislavskiy K.S., “Aktyorning o‘z ustida ishlashi”, 1985, 72-bet
2. Mixail Chexov “Aktyorlik texnikasi haqida”, 1993, 54-bet
3. Gippenreiter Yu.B., “Umumiy psixologiya”, 2008, 112-bet
4. Barba E., “Teatr antropologiyasi”, 2001, 89-bet
5. BAXIEVA, BIYBINAZ. "STAGE MOVEMENT AND COORDINATION: ANALYSIS OF THE TRAINING OF FUTURE ACTORS." GLOBAL SCIENTIFIC CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH. VOL. 1. NO. 3. 2026.

O‘ZBEKISTONDA DEMOGRAFIK BARQARORLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA’MINLASHDA IJTIMOIY OMILLARNING AHAMIYATI

Salayev Fazliddin Shamsiddin o‘g‘li

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

“O‘zbek va xorijiy tillar ” kafedrasi assistenti

E-mail: salayevfazliddin7@gmail.com

Tel: +998 97 386 95 55

ORCID: https://orcid.org/0009-0005-5281-6196

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekistonda demografik barqarorlik va millatlararo totuvlikni ta’minlashda ijtimoiy omillarning o‘rni tahlil etiladi. Xususan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, bandlik va urbanizatsiya jarayonlarining aholi tarkibi hamda jamiyatdagi hamjihatlikka ta’siri yoritilgan. Shuningdek, mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning demografik rivojlanish va millatlararo bag‘rikenglikni mustahkamlashdagi ahamiyati asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar. *Etnodemografik jarayonlar, aholi o‘sishi, migratsiya, urbanizatsiya, bandlik, ta’lim tizimi, sog‘liqni saqlash, bag‘rikenglik, fuqarolik jamiyati, milliy siyosat.*

Abstract. *This article analyzes the role of social factors in ensuring demographic stability and interethnic harmony in Uzbekistan. In particular, the impact of education, healthcare, employment, and urbanization processes on the composition of the population and social cohesion is highlighted. The importance of the country's social policy in strengthening demographic development and interethnic tolerance is also substantiated.*

Keywords. *Ethnodemographic processes, population growth, migration, urbanization, employment, education system, healthcare, tolerance, civil society, national politics.*

KIRISH

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, demografik jarayonlarning barqaror rivojlanishi hamda millatlararo totuvlikni mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda mamlakat aholisi sonining barqaror o‘sishi, uning yosh tarkibi va hududiy joylashuvi bilan bir qatorda, etnik tarkibining xilma-xilligi ham ijtimoiy rivojlanishning muhim omili sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda demografik barqarorlik va millatlararo totuvlikni ta’minlashda ijtimoiy omillar (ta’lim, bandlik, sog‘liqni saqlash, urbanizatsiya) hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ular orqali yosh tarkibiy muvozanati saqlanib, milliy-madaniy xilma-xillik qo‘llab-quvvatlanadi va fuqarolararo hamjihatlik mustahkamlanadi, bu esa davlatning barqaror rivojlanishiga va xalqaro nufuzining oshishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, mamlakatimizda hukm surayotgan millatlar va fuqarolar totuvligi, o‘zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini asrab-avaylash va mustahkamlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, yurtimizda vijdon va e’tiqod erkinligi ta’minlanib, turli millat vakillarining huquqlari keng kafolatlanayotgani hamda diniy bag‘rikenglik muhiti mustahkamlanib borayotgani alohida qayd etiladi. Bugungi kunda O‘zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari hamjihat yashab, 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, jamiyatda o‘zaro do‘stlik va hamjihatlikni yanada rivojlantirish, barcha fuqarolar uchun millati, dini va e’tiqodidan qat’i nazar teng huquqlarni ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanadi[1].

Shuningdek, O‘zbekistonda ko‘p millatli jamiyat shakllangan bo‘lib, bugungi kunda 130 dan ortiq millat va elat vakillari tinch va hamjihat hayot kechirmoqda. Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta’minlash esa ijtimoiy barqarorlikning muhim sharti hisoblanadi. Bu borada davlat tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosat, milliy madaniy markazlar faoliyati

hamda fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi alohida ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Ma’lumki, jamiyatdagi demografik voqealar umumiy va muayyan individual tasodifiy sabablar ta’siri ostida amal qiladi. Bu jarayondagi ayrim voqeliklar vujudga kelishi ba’zi sabablarga ko‘ra individual va noyobdir, lekin demografik jarayonda ular ketma-ketlik voqealardan iborat bo‘lib, ular muntazam ravishda o‘zgarib turadi.

O‘zbekistonda demografik holatni baholashda har bir mintaqaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur. Chunki, davlat va uning ma’muriy hududlarini rivojlantirishda demografik jarayonlar muhim o‘rin tutadi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda etnodemografik jarayonlarning rivojlanishi keskin ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar bilan xarakterlanadi. Mustaqillik davrida O‘zbekiston aholisi tarkibida tub xalqlar ulushi ortib, etnik tarkib bir jinsliroq (gomogen) holatga keldi.

Mamlakatimizda aholi soni sezilarli darajada o‘sdi. 1991-yilda 20,6 million bo‘lgan aholi soni, 2026-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 38,2 milliondan oshdi[2].

O‘zbekistonda demografik barqarorlik va millatlararo totuvlikni ta’minlash jamiyat rivojining poydevori hisoblanadi. Aholi soni 38 milliondan oshgan va 130 dan ortiq millat vakillari istiqomat qiladigan mamlakatda ijtimoiy omillar (ta’lim, sog‘liqni saqlash, oila instituti, uy-joy va ish o‘rinlari) barqarorlikning asosiy drayveri bo‘lib xizmat qilmoqda.

2025-yilda tug‘ilishlar soni 879,6 ming nafarni tashkil etib, aholining tabiiy o‘sishi 702,5 ming kishiga yetdi. Bu aholining yosh tarkibini mustahkamlaydi va demografik dividend (mehnatga layoqatli aholining ko‘pligi) imkoniyatini yaratadi[3].

Dalatimizda olib borilayotgan **o**ila va xotin-qizlar siyosati juda ahamiyatlidir. Oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, xotin-qizlarning bandligini

ta’minlash va ta’lim olishiga sharoit yaratish demografik jarayonlarni boshqarishning muhim ijtimoiy omili hisoblanadi.

2026-yil yanvar holatiga shahar (50,9%) va qishloq (49,1%) aholisi o‘rtasidagi farq kamayib, urbanizatsiya jarayoni faollashgan. Bu aholining sifatli ta’lim va tibbiyotga bo‘lgan talabini qondirishga xizmat qilmoqda[4].

O‘zbek xalqining bag‘rikengligi va mehmondo‘stligi millatlararo nizolarning oldini oluvchi asosiy ijtimoiy-psixologik omil hisoblanadi. 30-iyul — Xalqlar do‘stligi kuni deb belgilanishi hamjihatlikni kuchaytirmoqda.

Ko‘p millatli jamiyatda ta’lim muassasalarida turli tillarda o‘qitish va madaniy markazlar faoliyati orqali o‘zaro hurmat muhiti saqlanmoqda.

O‘tgan yillar mobaynida Respublika baynalmilal madaniyat markazi tomonidan ko‘plab ilmiy-amaliy konferensiyalar, davra suhbatlari va uchrashuvlar tashkil etildi. Respublikamizning barcha viloyatlari, qator shahar va tumanlari, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘tkazilgan “Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik - taraqqiyot omili“, “Milliy g‘oya - bizning g‘oya” shiori ostidagi doimiy harakatdagi ko‘chma seminarlar, “O‘zbekiston Konstitutsiyasi: huquq, burch va mas’uliyat“, “Milliy g‘oya va miliatlararo totuvlik masalalari“, “O‘zbekiston Konstitutsiyasi va demokratik taraqqiyot masalalari“, “Fuqarolararo va miliatlararo totuvlik - yurt obodligini ta’minlashning muhim omili” kabi mavzulardagi ilmiy-amaliy anjumanlar buning yorqin misolidir. Milliy-madaniy markazlar uchun ko‘plab yo‘riqnomalar, 20 ga yaqin ilmiy risola va to‘plamlar, shuningdek, mamlakatimizdagi miliatlararo totuvlik va bu borada istiqlol yillaridagi yutuqlarni aks ettiruvchi “O‘zbekiston - umumiy uyimiz” albom-kitobi, “O‘zbekiston - bag‘rikeng diyor“, “O‘zbekiston Konstitutsiyasi - buyuk kelajagimiz kafolati“, “Mustaqil O‘zbekistonda miliatlararo munosabatlar rivoji” nomli maqolalar to‘plamlari chop etildi[5].

Demografik barqarorlik har qanday mamalakat iqtisodiyotining mustahkam va uzliksiz rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Aholi tarkibi va uning o‘sish dinamikasining barqarorligi mehnat resurslarini to‘g‘ri rejalashtirish, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarini samarali tashkil etish, ijtimoiy himoya va pensiyatizimlarini barqaror yuritishga zamin yaratadi.

XULOSA.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda demografik barqarorlik va millatlararo totuvlik o‘zaro chambarchas bog‘liq jarayonlar bo‘lib, ularning samarali rivoji, avvalo, ijtimoiy omillarning izchil va muvozanatli rivojlanishiga bog‘liqdir. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, bandlik, urbanizatsiya hamda oila institutini qo‘llab-quvvatlash kabi yo‘nalishlar aholining sifat tarkibini yaxshilash, yoshlar salohiyatidan oqilona foydalanish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda aholining ko‘p millatli bo‘lishiga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning qulay omili sifatida qaralmoqda. Ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni saqlash, dinlararo va millatlararo munosabatlarni uyg‘unlashtirish hisobiga xalqaro maydonda O‘zbekistonning obro‘si oshib bormoqda.

Shuningdek, ko‘p millatli jamiyat sharoitida bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash, barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar yaratish hamda milliy-madaniy xilma-xillikni qo‘llab-quvvatlash davlat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Shu jihatdan, olib borilayotgan ijtimoiy siyosat nafaqat demografik o‘sish barqarorligini ta’minlaydi, balki jamiyatda o‘zaro ishonch va hamjihatlikni kuchaytirib, mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bu borada yaxlit, chuqur o‘ylangan siyosat va uni amalga oshirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar hayotga tatbiq etilib, millatlararo va dinlararo totuvlikni qo‘llab-quvvatlashga e’tibor qaratilmoqda. Bu islohot va o‘zgarishlarning negizida konstitutsion huquq va kafolatlar yotganini alohida qayd etish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz – T.: O‘zbekiston, 2016. – B. 8-9.

2. stat.uz

3. gazeta.uz

4. kun.uz

5. Murtazayeva R.H. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. – T.: Mumtoz so‘z, 2020. – B. 252.

ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA BADIIY TAHLIL

Toshkent gumanitar fanlar universiteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Bozorova Sevinch Baxtiyorovna

Ilmiy rahbar Fayzullayeva Maftuna Odil qizi

TGFU “Pedagogika va tillar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani badiiy-estetik jihatdan tahlil qilinadi. Asarning g‘oyaviy-badiiy ahamiyati ilmiy asosda baholanadi. Tadqiqotda asarning realizm tamoyillari, obrazlar tizimi, tarixiylik va badiiy to‘qima uyg‘unligi IMRAD modeli asosida o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *Abdulla Qodiriy, “O‘tkan kunlar”, tarixiy roman, realizm, badiiy tahlil, obrazlar tizimi, ijtimoiy muammo.*

Annotation: *This article analyzes the novel* “O‘tkan kunlar” *by Abdulla Qodiriy from an artistic and aesthetic perspective. The ideological and artistic significance of the work is evaluated on a scientific basis. The study examines the principles of realism, the system of characters, the harmony of historicity and artistic fiction based on the IMRAD model.*

Keywords: *Abdulla Qodiriy, “O‘tkan kunlar”, historical novel, realism, literary analysis, character system, social issues.*

KIRISH

Abdulla Qodiriy o‘zbek adabiyotida roman janrining asoschisi sifatida muhim o‘rin tutadi. Uning “O‘tkan kunlar” asari milliy adabiyotda ilk tarixiy roman bo‘lib, XX asr boshlaridagi Turkiston ijtimoiy hayotini badiiy va haqqoniy aks ettiradi. Romanda jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, eskicha urf-odatlar va ma’naviy muammolar realizm asosida yoritilgan. Ayniqsa, obrazlar tizimi va qahramonlarning psixologik tasviri asarning badiiy qiymatini oshiradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — romanning badiiy xususiyatlari, realizm tamoyillari va obrazlar tizimini IMRAD modeli asosida tahlil qilishdan iborat.

Metodologiya

Mazkur maqolada quyidagi usullardan foydalanildi:

- qiyosiy-tahliliy metod
- badiiy tahlil usuli
- tarixiylik tamoyili asosida o‘rganish

Asar matni hamda adabiyotshunoslik manbalari asosida ilmiy xulosalar chiqarildi.

Natijalar

Mazkur tadqiqot natijalari “O‘tkan kunlar” romanining badiiy tuzilishi, obrazlar tizimi va ijtimoiy mazmuni chuqur va ko‘p qatlamli ekanini ko‘rsatdi. Tahlillar asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Realizmning ustuvorligi va badiiy tasvir aniqligi

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Abdulla Qodiriy romanida realizm asosiy badiiy metod sifatida namoyon bo‘ladi. Asarda voqealar hayotiylik asosida, bo‘rttirishsiz tasvirlangan bo‘lib, bu o‘quvchida ishonchlilik hissini uyg‘otadi. Toshkent va Marg‘ilon muhitining batafsil tasviri, savdo-iqtisodiy munosabatlar va mahalla hayoti elementlari orqali davr manzarasi aniq yoritilgan.

2. Obrazlar tizimining qarama-qarshilik asosida qurilishi

Natijalar romandagi obrazlar tizimi kontrast (qarama-qarshilik) tamoyiliga asoslanganini ko‘rsatdi. Xususan:

Otabek — yangilik va islohot timsoli

Kumush — sadoqat va ma’naviy poklik ramzi

Zaynab — rashk va ichki iztirob ifodasi

O‘zbek oyim — konservativ qarashlar vakili

Bu obrazlar orqali jamiyatdagi eski va yangi qarashlar o‘rtasidagi ziddiyat yoritilgan. “Qahramonlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik ijtimoiy muhitni ochib berishga xizmat qiladi” (Qo‘shjonov M., 2017, 84-bet).

3. Psixologik tahlilning chuqurligi

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, roman qahramonlari oddiy tasvir darajasidan chiqib, chuqur psixologik tahlil asosida yaratilgan. Har bir obrazning

ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari va qaror qabul qilish jarayonlari batafsil yoritilgan. Bu esa asarning badiiy qiymatini oshiradi.

4. Tarixiylik va badiiy to‘qimaning uyg‘unligi

Romanda tarixiy voqelik aniq faktlar orqali emas, balki davr ruhiyati orqali ifodalangan. Xonlik davridagi ijtimoiy muammolar — adolatsizlik, boshqaruvdagi nuqsonlar, ichki nizolar badiiy to‘qima bilan uyg‘un holda berilgan. “Asar tarixiylik va badiiylik uyg‘unligining yorqin namunasi hisoblanadi” (Karimov N., 2018, 119-bet).

5. Ijtimoiy muammolarning badiiy ifodasi

Tahlillar natijasida roman orqali quyidagi ijtimoiy muammolar ochib berilgani aniqlandi:

- ko‘p xotinlilik va uning salbiy oqibatlari
- ayollar huquqsizligi
- eskicha urf-odatlarning zararli ta’siri
- jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik

Bu muammolar obrazlar va voqealar orqali tabiiy va ta’sirchan ifodalangan.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari “O‘tkan kunlar” romanining yuksak badiiylikka ega ekanini, unda realizm, psixologizm va tarixiylik uyg‘un holda namoyon bo‘lganini tasdiqlaydi. Asar nafaqat adabiy, balki muhim ijtimoiy ahamiyatga ega ilmiy manba sifatida ham baholanishi mumkin.

Muhokama

“O‘tkan kunlar” romani badiiy va ijtimoiy jihatdan ko‘p qatlamli asar bo‘lib, unda Abdulla Qodiriy o‘z davrining murakkab muammolarini obrazlar va voqealar tizimi orqali chuqur yoritadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, asarda realizm nafaqat tasvir vositasi, balki ijtimoiy tanqid quroli sifatida ham xizmat qiladi. Muallif jamiyatdagi adolatsizlik, eskicha qarashlar va ma’naviy tanazzulni ochib berishda badiiy vositalardan mahorat bilan foydalangan. Romanning markaziy qahramoni Otabek obrazi orqali yangi ijtimoiy ong,

yangicha fikrlash va islohotga intilish g‘oyalari ifodalanadi. Biroq uning ichki ziddiyatlari, ayniqsa, oilaviy muammolar qarshisida ojizligi, davr kishisining murakkab ruhiy holatini aks ettiradi. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, jamiyatdagi yangilanish jarayoni faqat tashqi o‘zgarishlar bilan emas, balki inson ongidagi tub burilishlar bilan bog‘liq.

Kumush obrazi esa sharq ayolining ideal timsoli sifatida talqin qilinadi. Uning sabr-toqati, sadoqati va ma’naviy pokligi orqali muallif oila va jamiyat barqarorligida ayolning o‘rni beqiyos ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Kumushning fojiali taqdiri orqali o‘sha davrdagi ijtimoiy muhitning ayollar hayotiga salbiy ta’siri ochib beriladi.

Zaynab obrazi psixologik jihatdan murakkab bo‘lib, unda rashk, hasad va ichki iztirob kuchli ifodalangan. Uning salbiy xatti-harakatlari faqat shaxsiy xususiyat emas, balki noto‘g‘ri tarbiya va ijtimoiy muhit mahsuli sifatida talqin qilinishi mumkin. Bu esa yozuvchining inson xarakterini ijtimoiy omillar bilan bog‘liq holda tasvirlashga intilganini ko‘rsatadi.

O‘zbek oyim obrazi orqali esa patriarxal jamiyatning qat’iy va o‘zgarmas qarashlari ifodalanadi. U oilada hukmron shaxs sifatida tasvirlanib, yoshlar hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu obraz orqali muallif eskicha dunyoqarashning jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qilayotganini ochib beradi.

Asarda tarixiylik va badiiy to‘qima uyg‘unligi ham muhim o‘rin tutadi. Muallif aniq tarixiy voqealarni emas, balki davr ruhiyatini, ijtimoiy muhitni va insoniy munosabatlarni tasvirlashga e’tibor qaratadi. Natijada asar o‘quvchida nafaqat estetik taassurot uyg‘otadi, balki uni chuqur mushohada qilishga undaydi.

Shuningdek, romanda eski va yangi qarashlar o‘rtasidagi ziddiyat markaziy g‘oyalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bu ziddiyat nafaqat individual obrazlar, balki butun jamiyat hayotida aks etadi. Muallif shu orqali ijtimoiy islohotlar zarurligini badiiy asosda ilgari suradi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar “O‘tkan kunlar” romanining nafaqat o‘z davri uchun, balki bugungi kun uchun ham dolzarb ahamiyatga ega

ekanini ko‘rsatadi. Asarda ko‘tarilgan muammolar — ijtimoiy adolatsizlik, ayollar taqdiri, ma’naviy tanazzul va yangilanish zarurati — hozirgi jamiyat uchun ham muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, “O‘tkan kunlar” romani o‘zbek adabiyotining yuksak namunasi hisoblanadi. Abdulla Qodiriy ushbu asar orqali milliy roman janrining rivojiga katta hissa qo‘shgan. Yozuvchining ushbu asari o‘zining badiiy mukammalligi, chuqur mazmuni va ijtimoiy ahamiyati bilan nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham ilmiy-adabiy tadqiqotlar uchun dolzarb manba bo‘lib xizmat qiladi. Roman o‘zbek adabiy merosining bebaho durdonasi sifatida yuksak baholanishga loyiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karim B. XX asr o‘zbek adabiyoti. — Toshkent: 2016.
2. Karimov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. — Toshkent: 2018.
3. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. — Toshkent: “Navro‘z”, 2019.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi. — Toshkent: 2012.
5. Qo‘shjonov M. Abdulla Qodiriy mahorati. — Toshkent: 2017.
6. Umurov H. Badiiy asar tahlili. — Toshkent: 2005.

SURXON VOHASINING URUSH YILLARIDAGI JASORATI

Qo‘ziboev A’zam Normurodovich

O‘zbekiston, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

E-mail: azamqoziboev832@gmail.tsom

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida Surxon vohasi aholisining jasorati, sabr-toqati va fidoyiligi yoritiladi. Unda voha ahlining frontga ko‘rsatgan yordami hamda front ortida ayollar, keksalar va yoshlarning og‘ir mehnat sharoitida mamlakat iqtisodiyotini qo‘llab-quvvatlashdagi hissasi tahlil qilinadi. Shuningdek, urush davridagi ijtimoiy hayot, ruhiy matonat va g‘alabaga bo‘lgan ishonch ochib berilib, Surxon vohasi xalqining umumiy g‘alabaga qo‘shgan hissasi yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Ikkinchi jahon urushi, Surxon vohasi, front, front orti, jasorat, fidoyilik, mehnat safarbarligi, g‘alaba, tarixiy xotira.*

Abstract: *This article examines the courage, patience, and devotion of the people of the Surkhan oasis during the years of the Second World War. It analyzes the assistance provided by the local population to the front, as well as the contribution of women, the elderly, and youth in supporting the country’s economy under difficult labor conditions on the home front. The study also highlights the social life of the war period, spiritual endurance, and faith in victory, revealing the contribution of the people of the Surkhan oasis to the common victory.*

Keywords: *Second World War, Surkhan oasis, front, home front, courage, devotion, labor mobilization, victory, historical memory.*

KIRISH

Fashistlar Germaniyasining SSSR ga bostirib kirishi barcha tinchliksevar xalqlar qatorida surxondaryoliklarning ham qalbida fashizmga bo‘lgan nafrat alangasini avj oldirdi. Urushning birinchi kunidanoq Surxon elining azamatlari qo‘liga qurol olib fashizm bilan bo‘ladigan qonli janglarga otlandilar. Harbiy komissariatlarga o‘zlarining frontga yuborishlarini so‘rab yozilgan arizalar soni kundan kunga orta bordi. Urushning dastlabki kunlaridanoq yuzlabyangiariqlik va oqtoshlik yigitlar jangga kirdilar. Yangiariq va Oqtoshliklardan 400 dan ortiq

kolxozchi frontga otlandi. Bular qatorida Oktyabr 40-yilligi jamoa xo‘jaligi (kolxoz) raisi Abdurazzoq Musaev Kursk ostonalaridagi jangda besh marta yarador bo‘lib, fashistlarga zarba berishda jasurlik ko‘rsatdi. A.Musaev Jangovor Qizil Bayroq hamda “Vatan urushi” ordenlari bilan mukofotlandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Smolensk va Belorussiya o‘rmonlarida, Ukraina va Moldova dalalarida Vohid Qilichev ham faol ishtirok etdi. Jumaqul Alimardonov, Juma Hasanov, Mo‘min To‘laganov va boshqa ko‘plab Yangiariqlik va Oqtoshlik jangchilar jangovor orden va medallar bilan taqdirlangan holda jamoa xo‘jalik (kolxoz) lariga qaytib kelishdi. Lekin 300 nafardan ortiq jangchilar fashist gazandalariga qarshi bo‘lgan janglarda qahramonlarcha halok bo‘lishdi. Urushning dastlabki oylarida viloyatdan ko‘ngilli bo‘lib frontga ketish istagini bildirgan vatanparvarlar soni ikki ming kishidan oshib ketdi. Yirtqich dushmanga qarshi cheksiz nafrat hissi bilan yongan ana shu ko‘ngilli vatanparvarlardan Termiz tumani “Qizil chegara” jamoa xo‘jaligida yashovchi Shomirbobo Mirzaev o‘z o‘g‘lini askarlikka kuzata turib “O‘g‘lim mard bo‘l, botirlik bilan kurash” degan bo‘lsa, Sherobod tumani “Sotsializm” jamoa xo‘jaligining G‘ambur qishlog‘ida yashayotgan Ochil Turdimurodovning onasi o‘g‘lini frontga kuzatar ekan: “O‘g‘lim, dushmanga omonlik berma, dushmanni bitta qoldirmay qirib, g‘alaba bilan qayt va uy joyimga egalik qil” deb oq fotiha berib frontga kuzatgan edi. 103 Nuroniy otaxonlar va mehribon onaxonlar nasihatini yuragining to‘riga jo qilgan va ularning bergan har bir o‘gitini muqaddas bilgan Surxonning azamat sher yigitlari dushman bilan mislsiz janglarda qaxramonlik namunalarini ko‘rsatdilar. Hayot-mamot janglarida Surxon vohasining 50365 nafar vatanparvar farzandlari qo‘llariga qurol olib dushmanga ayovsiz qirg‘in keltirdilar. Birgina 1941-yil 22-iyundan 1942-yil 30-oktabrgacha viloyatdan 20727 nafar kishi urushning oldingi saflariga jo‘natildi.

NATIJALAR

Frontda dushman bilan jon olib, jon berayotgan jangchilar hamda front ortida o‘zlarining mardonavor mehnati bilan dushman mag‘lubiyatiga zamin

hozirlayotgan mehnatkash xalq o‘rtasidagi bog‘lanish bir biriga madadkor bo‘lishlik jangchilarga ham front ortidagilarga ham moddiy va ma’naviy jihatdan madad bo‘ldi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev 2020-yil 24-yanvarida O‘zbekiston Oliy Majlisiga Murojaatnomasida shunday deydi: «2020-yilda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan G‘alabaning 75 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlanadi. Bizning mard, yengilmas va olijanob xalqimiz buyuk G’alabani ta’minlashga beqiyos hissa qo‘shgani bilan barchamiz haqli ravishda faxrlanamiz. Bu qonli urushda jami 1.5 milliondan ziyod O‘zbekiston farzandlari tinchlik va ozodlik uchun mardona jang qilgani, ularning har uch nafaridan biri o‘z yaqinlari bag‘riga qaytmagani, el-yur timizning front ortida ko‘rsatgan jasoratini xalqimiz hech qachon unutmaydi. Biz urush va front orti faxriylarini faqatgina bayramlarda emas, balki doimo e’zozlab, ardoqlashimiz, ularning sog‘ligi haqida har kuni, har soatda o‘ylashimiz lozim. Joriy yilda ularga har tomonlama e’tibor yanada kuchaytiriladi. Jumladan, mamlakatimizning eng yaxshi sanatoriylarida ularning salomatligini mustahkamlash uchun qulay sharoitlar yaratamiz. Urush yillarida xalqimiz ko‘rsatgan haqiqiy jasorat va matonatni kino, teatr san’ati, badiiy-publitsis tik asarlar, ilmiy tadqiqotlar orqali ko‘rsatish, aholi, ayniqsa, yoshlarimizga ta’sirchan tarzda yetkazish bo‘yicha katta ishlar olib borilmoqda. Xususan, Toshkent shahrining Olmazor tumanida muhtasham «G’alaba bog‘i» bunyod etilmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, Xotira va qadrlash kuni va G’alabaning 75 yilligini har tomonlama munosib va yuqori saviyada nishonlash uchun tayyorgarlik ishlarini puxta tashkil etishimiz kerak».

MUHOKAMA

Buning yaqqol isbotini Termiz tumani Paxtaobod qishloq xo‘jaligiga qarashli “Baynalmilal” jamoa xo‘jaligi a’zosi Rixsiboy Qosimov va jangchi o‘g‘li Jo‘ra o‘rtasida bir-biriga yozilgan maktublar orqali ham bilib olish mumkin. Jangchi o‘g‘li Jo‘ra Risqiev otasiga qarata yozgan maktubida “Otajon men shonli armiyamiz qatorida sog‘-salomat xizmat qilayapman. Boysunlik Umar Ramazonov dushmanga qarshi kurashlarda mardlik namunalarini

ko‘rsatib, dushmanning 2 ta pulemyotini, 40 dan oshiq askarini yakson qildi va polk komandirining 1943-yil 15-maydagi 016 11-raqamli buy rug‘i bilan «Jasurligi uchun» medali bilan taqdirlandi. Ramazonov Umar 1944-yil 18-aprelda bo‘lgan jangda qahra monlarcha halok bo‘ldi, uning jasadi Roven viloyatidagi Chervona qishlog‘ida dafn qilingan. Fashizmga qarshi kurashda jon fido qilgan yana bir qahramon jangchi denovlik Ollomurod Nazarovdir. U urushga Denov tumani Vaxshivor qishlog‘idan chaqirilgan, frontda 194-o‘qchi diviziya tarkibidagi 616-o‘qchi polkida o‘qchi sifatida olib borilgan jangda dushman qarorgohiga birinchi bo‘lib bostirib kirib, 12 gitlerchini yer tishlat di. 26-avgust kuni Bryansk shahri yo‘nalishida olib boril gan jangda va Mormal aholi punkti uchun bo‘lgan janglarda ketma-ket ikki marta yaralandi. 194-o‘qchi diviziya koman dirining 1944-yil 13-iyundagi 127 N rusumli buyrug‘iga binoan Ollomurod Nazarov III darajali «Shuhrat» ordeni bilan mukofotlandi. U 1945-yilning 15-fevral kuni dushman bilan olib borilgan janglardan birida qahramonlarcha halok bo‘ldi. Marhum jangchining jasadi Polshaning Usxanovsk uezdidagi Gortnik qishlog‘ida dafn qilingan.

Surxondaryolik mard jangchilar Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Kavkaz va Boltiqbo‘yi yerlarini dushmandan ozod qilishda, qamalda qolgan Leningradni himoya qilishda, Yevropa xalqlariga yordam qo‘lini cho‘zishda hamda fashizmni o‘z uyasida tor-mor keltirishda o‘zlarining muqaddas burchlarini ado etdilar. Ular orasida hamyurtimiz Usmon Luqmonovich Nasibullinning jasorati bugungi yoshlar uchun ibrat bo‘larlik darajadadir. 1942-yilda dushman bilan bo‘lgan tengsiz olishuvda og‘ir yarador bo‘lgan Usmon Nasibullin asirlikka tushib qoladi. Uni Fransiyadagi konslagerga jo‘natishadi. Qulay fursat topib konslagerdan qochadi va fransuz Qarshilik harakati otryadiga qo‘shiladi. Bu otryad bilan birga fashistlarga qarshi kurashni davom ettiradi. G‘alabani Fransiyada kutib oladi. Fransiya xalqiga ko‘rsatgan xizmatlari uchun general Sharl de Goll shaxsan o‘z qo‘li bilan unga Fransiyaning oliy mukofoti – «Mardlik va jasorat» ordenini topshiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, urushdan keyingi yillarda Usmon Nasibullin Termizda yashadi. Shahardagi ishchi yoshlarning 4-sonli kechki maktabida fizika fanidan dars berdi. Kamtarona hayot kechirdi. Yosh avlod tarbiyasi uchun bor kuch-g‘ayratini sarfladi. Xiyonatkor, bosqinchi, manfur dushmanni mamlakat hududidan haydab chiqarish va Yevropa tuproqlarini dush mandan ozod qilish hamda dushman uyasi bo‘lgan Reyxstagni zabt qilishdek sharafli kurashlarda minglab surxondaryolik jangchilar faol ishtirok etdilar. Dushmanni Berlingacha quvib borgan azamatlardan I.Murodov, A.Rah monov, A.Sharipov, S.Saidov, K.Ergashev, Q.Abdunazarov, B.Shoimov, T.Tursunaliev va shunga o‘xshash minglab g‘olib larning nomlarini keltirib o‘tish mumkin. Urush yillarida frontda ko‘rsatgan jasoratlari uchun o‘zbekistonliklardan 120000 jangchi hukumat orden va me dallari bilan taqdirlandi. Ulardan 280 kishi Qahramon unvoniga sazovor bo‘ldi, shundan 69 tasi o‘zbek edi. 32 kishi «Shuhrat» ordenining har uchala darajasi bilan muko fotlandi. Surxondaryoliklardan olti nafari Sovet It tifoqi Qahramoni, uch nafari esa «Shuhrat» ordenining to‘la nishondori bo‘ldi, 3769 kishi turli xil orden va me dallar bilan taqdirlandi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tursunov, S. N., & Rashidov, Q. (2011). Boysun. Akademnashr.

2. Soatov, O., Tursunov, S. N., Umarov, I., & Toshev, K. (2020). Frontdan kelgan xatlar. Tafakkur.

3. Boysun tuman hokimiyati joriy arxivi. (1991–2000). Joriy arxiv hujjatlari. Boysun.

4. Tursunov, S. N., et al. (n.d.). Denov (pp. 222–225). Fan.

5. Tursunov, S., & To‘xtaev, A. (n.d.). Jarqo‘rg‘on (pp. 118–124). Fan.

6. Tursunov, S., Tursunov, A., & Tog‘aeva, M. (2014). Sherobod tarixidan lavhalar. Yangi nashr.8. S.Tursunov, Q.Eshboev. Sho’rchi tarixidan lavhalar-T.: “Fan va texnologbya”. 2013,. bet.

O‘QUVCHILARNING IJODKORLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Achilov Soxibjon To‘lqin o‘g‘li

JDPU, Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnologik ta’lim) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti.

e-mail:ochilovsohibjon12@gmail.com

Annotasiya: *Mazkur maqolada o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Ijodkorlik zamonaviy ta’lim tizimining muhim kompetensiyalaridan biri sifatida qaralib, uning shakllanishiga ta’sir etuvchi pedagogik omillar yoritiladi. Tadqiqotda o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda innovatsion ta’lim texnologiyalari, interfaol metodlar hamda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning ahamiyati asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar*: ijodkorlik qobiliyati, kreativ fikrlash, raqamli ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, STEAM ta’limi, blended learning (aralash ta’lim), lifelong learning (uzluksiz ta’lim), soft skills, tanqidiy fikrlash*

Abstract: *This article analyzes the theoretical and practical foundations of developing students’ creative abilities. Creativity is considered one of the key competencies of the modern education system, and the pedagogical factors influencing its formation are discussed. The study substantiates the importance of innovative educational technologies, interactive methods, and a learner-centered approach in fostering students’ creative thinking.*

Keywords: *creative ability, creative thinking, digital education, learner-centered education, STEAM education, blended learning, lifelong learning, soft skills, critical thinking*

KIRISH

Hozirgi globallashuv jarayoni va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimining mazmuni hamda metodik yondashuvlarini tubdan yangilashni talab qilmoqda. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarga faqat nazariy bilimlarni berish yetarli emas, balki ularning ijodiy fikrlash qobiliyati, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari hamda innovatsion yondashuv asosida muammolarni hal eta olish kompetensiyalarini shakllantirish muhim ahamiyat

kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, ijodkorlikni rivojlantirish ta’lim tizimining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning kreativ fikrlash darajasini va amaliy faoliyatga oid ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Xususan, Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan “Hayot davomida ta’lim uchun asosiy kompetensiyalar” konsepsiyasida ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni samarali hal etish eng muhim tayanch kompetensiyalar sifatida belgilangan [3]. Bu esa ta’lim jarayonida interfaol metodlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zaruratini kuchaytiradi.

Shuningdek, UNESCO tomonidan e’lon qilingan ta’limga oid hisobotlarda raqamli ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish hamda uzluksiz ta’lim tamoyillari ta’lim sifatini oshirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida ko‘rsatib o‘tilgan [4]. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini rivojlantirish, ijodiy salohiyatini ochib berish hamda ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda STEAM ta’lim modeli, aralash ta’lim (blended learning) va innovatsion pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda muhim vosita sifatida qo‘llanilmoqda. Bunday yondashuvlar fanlararo integratsiyani kuchaytiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda real hayotiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Shu sababli, mazkur tadqiqotda o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni zamonaviy ta’lim tendensiyalari bilan bog‘liq holda chuqur tahlil qilinadi hamda ushbu jarayonning amaliy va ilmiy natijalari asoslab beriladi.

Adabiyotlarning tahlili va metodologiyasi

Hozirgi globallashuv jarayoni hamda raqamli texnologiyalarning tez sur’atlarda rivojlanishi ta’lim tizimining mazmuni va uni tashkil etish

metodlarini zamonaviy talablarga mos ravishda yangilashni taqozo etmoqda. Bugungi ta’lim jarayonida asosiy e’tibor o‘quvchilarning bilim olishigina emas, balki ularning ijodiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati hamda innovatsion yondashuv asosida muammolarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilmoqda. Shu bois, ijodiy salohiyatni rivojlantirish ta’lim tizimining muhim strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham ushbu yo‘nalishda izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezident farmonlarida ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish, kompetensiyaviy yondashuvni keng joriy etish hamda o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish asosiy vazifalar sifatida belgilab berilgan [1]. Shuningdek, so‘nggi yillardagi davlat strategiyalarida yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish va ularni innovatsion faoliyatga jalb etish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilgan [2].

Mazkur hujjatlar ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modeli hamda innovatsion pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini faollashtirish orqali ularning kreativ fikrlashini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda interfaol ta’lim usullari, muammoli o‘qitish, loyiha asosida ta’lim va STEAM yondashuvi samarali vositalar sifatida namoyon bo‘ladi.

Raqamli ta’lim bugungi kunda o‘quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirishda muhim rol o‘ynamoqda. Elektron resurslar, virtual platformalar va multimedia vositalari o‘quvchilarga bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish, o‘z fikrlarini erkin ifodalash hamda yangi g‘oyalar yaratish imkonini beradi. Shu bilan birga, aralash ta’lim (blended learning) modeli an’anaviy va zamonaviy ta’lim shakllarini uyg‘unlashtirib, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvi har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga imkon yaratadi. Bu esa o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va

innovatsion qarashlarning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, uzluksiz ta’lim konsepsiyasi asosida o‘quvchilarda doimiy ravishda bilim olishga bo‘lgan ehtiyoj kuchayadi, bu esa ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlaydi.

Ijodkorlikni rivojlantirish jarayonida yumshoq ko‘nikmalar, ya’ni muloqot qilish, jamoada ishlash, yetakchilik va moslashuvchanlik kabi kompetensiyalar ham muhim o‘rin tutadi. Ushbu ko‘nikmalar o‘quvchilarning nafaqat ta’lim jarayonida, balki kundalik hayot va kasbiy faoliyatda ham samarali harakat qilishiga yordam beradi. Shu jihatdan qaraganda, Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan kompetensiyalar tizimida kreativ fikrlash, tanqidiy yondashuv va muammolarni hal etish asosiy kompetensiyalar sifatida belgilangan [3].

Shuningdek, o‘qituvchining kreativ yondashuvi ham ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchining ijodkorligi uning pedagogik faoliyatini samarali tashkil etishga, yangi g‘oyalarni ishlab chiqishga, an’anaviy fikrlashdan chiqib ketishga hamda ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga xizmat qiladi [5].

UNESCO tomonidan ilgari surilgan ta’lim konsepsiyalarida ham innovatsion pedagogik texnologiyalar va raqamli ta’lim muhitlari o‘quvchilarning ijodiy rivojlanishida asosiy omillar sifatida ko‘rsatib o‘tilgan [4]. Bu esa ta’lim tizimida pedagogik innovatsiyalarni keng joriy etish zarurligini yanada dolzarb qiladi.

Mazkur tadqiqotda o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni kompleks yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqotda pedagogika va psixologiya fanlariga oid ijodkorlik, kreativ fikrlash va shaxs rivojlanishi haqidagi ilmiy qarashlar nazariy asos sifatida qabul qilindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlar qo‘llanildi:

- nazariy tahlil – ilmiy manbalar va hujjatlarni o‘rganish orqali mavjud yondashuvlarni tizimlashtirish;
- taqqoslash – turli ta’lim metodlarining samaradorligini solishtirish;

- kuzatish – o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi faoliyatini o‘rganish;
- pedagogik tajriba – innovatsion metodlarni amaliy sinovdan o‘tkazish;
- umumlashtirish – olingan natijalarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar, individual yondashuv va faollashtiruvchi metodlardan foydalanish tadqiqotning samaradorligini yanada oshirdi.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Natijada o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammolarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish va innovatsion g‘oyalar yaratish ko‘nikmalari shakllanadi. Bu esa ularni zamonaviy jamiyatda raqobatbardosh, ijodiy fikrlaydigan va amaliy faoliyatga tayyor yetuk mutaxassislar sifatida shakllantiradi.

Muhokama va natijalar

O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta’lim tamoyillari asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni sezilarli darajada yuqori natijalarga erishadi. Xususan, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modeli hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning kreativ fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida qo‘llanilgan interfaol metodlar hamda muammoli o‘qitish elementlari o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirgani, ularning mustaqil fikrlash va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam bergani aniqlandi. Ayniqsa, loyiha asosida o‘qitish (project-based learning) va STEAM yondashuvi o‘quvchilarda fanlararo bog‘liqlikni tushunish, real hayotiy vaziyatlarga innovatsion yondashuvni shakllantirishga xizmat qilishi bilan ajralib turadi.

Raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish esa o‘quvchilarga bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish, ijodiy fikrlarini erkin ifodalash va yangi g‘oyalar yaratish imkoniyatlarini kengaytirdi. Shuningdek, aralash ta’lim

(blended learning) modeli an’anaviy va onlayn ta’limni uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning individual o‘rganish ehtiyojlarini hisobga olish va ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi amaliy yo‘nalishlar tavsiya etiladi:

1. Kompetensiyaviy yondashuvni ta’lim jarayoniga izchil joriy etish hamda kreativ fikrlashga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini takomillashtirish.
2. Dars jarayonida interfaol metodlar, muammoli ta’lim va loyiha asosida o‘qitish texnologiyalaridan keng foydalanish.
3. Raqamli ta’lim vositalarini samarali qo‘llash orqali o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish faoliyatini qo‘llab-quvvatlash.
4. STEAM ta’limi asosida fanlararo integratsiyani kuchaytirish hamda amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish.
5. O‘qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga tayyorlash.
6. O‘quv muhitini erkin, ijodiy va rag‘batlantiruvchi tarzda tashkil etish orqali o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshirish.
7. Uzluksiz ta’lim (lifelong learning) tamoyili asosida o‘quvchilarda doimiy bilim olishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish.

Ushbu tavsiyalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmonida belgilangan ta’limni rivojlantirish strategik yo‘nalishlari bilan uyg‘un hisoblanadi [2].

Mazkur takliflarni amaliyotga tatbiq etish natijasida quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

- o‘quvchilarda ijodkorlik va kreativ fikrlash darajasi sezilarli oshadi;
- tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari rivojlanadi;
- o‘quv jarayoniga qiziqish ortib, ta’lim samaradorligi yaxshilanadi;
- kommunikativlik, jamoada ishlash va liderlik kabi soft skills rivojlanadi;
- raqamli texnologiyalar orqali mustaqil o‘rganish imkoniyatlari kengayadi;

- innovatsion fikrlaydigan va raqobatbardosh kadrlar shakllanadi.

Umuman olganda, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bunday pedagogik yondashuvlar ta’lim tizimi sifatini oshirish, uning samaradorligini ta’minlash hamda kelajak avlodni zamonaviy talablar asosida yetuk shaxs sifatida shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

O‘tkazilgan tahlillar va o‘rganilgan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish dolzarb va strategik ahamiyatga ega yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim jarayoni nafaqat bilim berishga, balki shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantirish, kreativ fikrlashini shakllantirish hamda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qilishi lozim.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshirishda samarali natija beradi. Interfaol metodlar, muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish hamda STEAM yondashuvi o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy fikrlash va real muammolarni hal etish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Shuningdek, raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil bilim olish jarayonini kengaytirib, ularning ijodiy salohiyatini namoyon etish uchun qulay sharoit yaratadi. Aralash ta’lim (blended learning) modeli esa an’anaviy va zamonaviy ta’lim shakllarini uyg‘unlashtirish orqali individual yondashuvni kuchaytiradi va ta’lim samaradorligini oshiradi.

Tadqiqot jarayonida shuningdek, o‘quv muhitining ahamiyati ham alohida e’tirof etildi. Erkin, qo‘llab-quvvatlovchi va rag‘batlantiruvchi muhit o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchining roli esa faqat bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, motivator va ijodiy jarayonni tashkil etuvchi shaxs sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish ko‘p omilli va tizimli jarayon bo‘lib, u ta’lim metodlari, raqamli texnologiyalar, pedagogik yondashuvlar hamda ijtimoiy muhit uyg‘unligiga bog‘liqdir. Ushbu yo‘nalishning samarali amalga oshirilishi ta’lim sifatini oshirishga, o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga hamda ularni zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan, innovatsion va raqobatbardosh shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni. Ta’lim tizimini rivojlantirish va modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida. – Toshkent, 2019.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. – Toshkent, 2022.

3. European Commission. Key Competences for Lifelong Learning. – Brussels: European Union, 2018. – 7–10 p.

4. UNESCO. Global Education Monitoring Report: Education for People and Planet. – Paris: UNESCO Publishing, 2021.

5. Achilov Soxibjon To‘lqin o‘g‘li. // TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA KREATIV PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH // TADQIQOTLAR // 79(3) // 120-124 (2026).

6. Abduqodirov A., Yuldashev M. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’limni tashkil etish. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.

7. Karimov I. Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va rivojlantirish masalalari. – Toshkent, 2017.

8. Mirzayev S. Raqamli ta’lim texnologiyalari va ularning pedagogik ahamiyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

9. Saidov N. Pedagogik innovatsiyalar va ta’lim sifati. – Toshkent: Universitet, 2022.

10. Abdullayeva D. Ta’limda kreativ yondashuv va o‘quvchilarning ijodiy faoliyati. – Toshkent, 2020.

TARIXIY ASARLARDA METAFORALARNING QO'LLANILISHI

Mirzayeva Kamola Ne'matillo qizi

Qarshi shahri 23-o'rta maktabning

ona tili va adabiyot o'qituvchisi

E-mail: Kamola-mirzayeva@mail.ru

Annotatsiya. *Metaforaga oid qarashlar qadim zamonlardan to bugungi kungacha turli soha vakillari qatori tilshunoslar tomonidan ham keng o'rganib kelinayotgan dolzarb masalalardan biridir. Ushbu yo'nalishda olib borilgan keng qamrovli tadqiqotlar bilan tanishish uning mazmun-mohiyati hamda amaliy ahamiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.*

Kalit so'zlar. *Metafora, o'xshashlik, til birliklari, ko'chim, so'zlardagi uslubiy bo'yoqdorlik*

Аннотация: *Взгляды на метафору являются одной из актуальных проблем, которые с древнейших времён до наших дней широко изучаются не только представителями различных наук, но и лингвистами. Ознакомление с обширными исследованиями, проведёнными в данном направлении, позволяет глубже понять её сущность и практическое значение.*

Ключевые слова: *метафора, сходство, языковые единицы, перенос значения, стилистическая окрашенность слов*

Abstract: *The study of metaphor is one of the актуal issues that has been extensively explored from ancient times to the present day by representatives of various fields, including linguists. Familiarity with comprehensive research conducted in this area allows for a deeper understanding of its essence and practical significance.*

Keywords: *metaphor, similarity, language units, semantic shift, stylistic coloring of words*

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Tilshunoslikka metaforologik qarashlar asosan ritorika san’ati orqali kirib kelgan bo‘lib, ular qadimgi davrlardan hozirgi kungacha dolzarb ilmiy mavzulardan biri sifatida o‘rganib kelinmoqda. Til evolyutsiyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda metafora masalasi dastlab Aristotel, Sitseron hamda Kvintilian kabi olimlar tomonidan izohlanganligi qayd etiladi. Ularning qarashlarida metaforaning psixolingvistik xususiyati, inson hissiyotlarining ifodalanishi, shuningdek, fiziologik omillar bilan bog‘liqligi, estetik va tasviriy nutq vositasi sifatidagi ahamiyati alohida ta’kidlanadi.

Metaforani ilmiy jihatdan ilk bor tahlil qilgan antik mutafakkirlardan biri bo‘lgan Aristotel o‘zining “Poetika” asarida bu hodisani nom ko‘chirishning alohida turi sifatida ko‘rsatib, unga “metafora” (ya’ni “ko‘chim”) atamasini bergan va uni nom ko‘chishning umumiy shakli sifatida talqin etgan. Uning ushbu fikrlari natijasida metafora ilmiy iste’molga kirib kelgan[10, 194].

Kvintilian esa metaforani metonimiyaga qarama-qarshi hodisa sifatida baholab, uning nutqdagi vazifasini nominativlik, baholash va bezakdorlik (dekorativlik) xususiyatlarini ta’minlash bilan izohlaydi. Sitseron esa metaforani til tizimidagi bo‘shliq va yetishmovchiliklarni to‘ldirish vositasi sifatida talqin qiladi.

Metaforaning fikriy jarayondagi ishtirokini birinchi bo’lib e’tirof etgan olim Germogen hisoblanadi. Falerskiy esa metafora va o’xshatishning o’quvchiga ikki xil ta’sirini qayd etgan.

METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI

Keyingi davrlarda metaforologik nazariyaning noto‘g‘ri talqin qilinishi natijasida ushbu masalaga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada pasayib, XVIII asrgacha bu borada deyarli muhim ilmiy qarashlar ilgari surilmadi. Metaforani jiddiy va tizimli o‘rganish esa faqat XX asrga kelib, qadimgi Hind va Xitoy faylasuflari hamda tilshunoslari merosini tadqiq etish asosida qayta jonlandi.

Ayniqsa, o‘tgan asrning oxiri va yangi asr boshlaridagi izlanishlarda metafora mohiyatiga turli nuqtai nazardan yondashish natijasida bir qator ilmiy

yo‘nalishlar shakllandi. Birinchilardan bo’lib metaforani “ qiyosni ifoda etuvchi emas, yuzga keltiruvchi”[1, 310] sifatida ta’riflagan M. Blek hisoblanadi.

O’zbek tilshunosligida ham metaforani tadqiq etgan tadqiqotchilar mavjud. Tadqiqotchilar o’z tadqiqot ishlarida metafora haqida turli xil fikrlarini yoritib o’tganlar. Sh. Maxmaraimova “O’zbek tilshunosligida yangi leksik-semantik sath – metaforologiyani o’z tadqiq obyektiga ega mustaqil soha sifatida e’tirof etishga doir xulosalarni ilmiy nazariy dalillagan”[1, 180]. B. Umirqulov esa metafora haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: Poetik metaforalar, ularning nutq ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilishi. Metaforaning nutqda qo’llanilishiga ko’ra turlari tuzilishiga ko’ra turlari va ularning o’zbek poeziyasida qo’llanilishiga doir tahlillar[3, 150]. Metaforalarning badiiy samaradorligi borasidagi qarashlarni ilgari surgan[3, 150].

TADQIQOT NATIJALARI

Yuqorida metaforaning o’rganilish tarixi, tilshunoslarning metafora haqidagi fikrlari haqida misollar keltirildi. Metafora og’zaki nutqda va badiiy asarlarda tez-tez qo’llaniladi. Badiiy asarlarni o’qish jarayonida asarda qo’llanilgan so’zlarning jozibasi metafora, frazema va shunga o’xshash birliklar orqali namoyon bo’lishini ko’rish mumkin. Bu nafaqat zamonaviy asarlarda tarixiy asarlarda ham yaqqol ko’zga tashlanadi. Bunga misol tariqasida Alisher Navoiyning “Mahbub ul - qulub” asarida qo’llanilgan metaforalarni keltirish mumkin. Asarda qo’llanilgan metaforalar asarning estetik jozibasini va ma’no mukammalligini ta’minlagan. Har qanday badiiy asar tili tasviriy vositalarning nutqiy qimmati, nutqning jozibadorligini ta’minlash, shuningdek, badiiy ta’sirchanligini oshirishdagi imkoniyatlari til sohiblarining dunyoni o’zgacha his etishi bilan belgilanadi. Agar “til–yozuvchi uslubining qalbi”[4, 250] ekanini hisobga oladigan bo’lsak Alisher Navoiy asarlarida metaforalar tizimi asosida qurilgan badiiy nutq obrazli tafakkurni yuzaga keltiruvchi, shoirning nozik didi va yuksak badiiy mahoratini namoyon etuvchi muhim lisoniy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu metaforik birliklar orqali matnning ifodaviyligi ortib,

undagi ma’no qatlamlari chuqurlashadi hamda o‘quvchi ongida yorqin tasavvurlar hosil qiladi.

Masalan: *«Kizb al-munajjimun» mazmuni bila aning so‘zi yolg‘ondur va o‘z rostlig‘ kishvaridin yiroq qolg‘ondur va basirat ko‘ziga g‘aflat pardasin solg‘ondur.*

Bu misrada qo’llanilgan *basirat (ko’ngil) ko’zi* va *ga’flat pardasi* so’zi metafora vazifasida qo’llanilmoqda. *Ko’z* so’zi odatda tirik mavjudotning ko’rish a’zosi[80] ma’nosida qo’llaniladi. Bu asardagi misrada basirat(ko’ngil) ko’zi metafora vazifasida his, sezgi, qalb orqali anglashni ifodalagan. *“Ko‘ngil ko‘zi”* birligi o‘zbek tilida antropotsentrik metafora sifatida shakllanib, unda idrok jarayoni ko‘rish orqali ifodalanadi. Mazkur birlik insonning ruhiy, intuitiv va emotsional bilish qobiliyatini anglatadi. Barcha metaforalar antropotsentrikdir, metaforalar inson tomonidan kashf etiladi hamda so‘zlovchi realiyasini ifoda etadi. Har bir inson – alohida realiya: har bir ijodkor uslubi, ya’ni idiolektining, uslubiy bayonining namoyishchisi sifatida metafora obrazli ifoda, tasviriy vositalarda o‘z aksini topadi. Bunda metaforik ifodaning hosil bo‘lishida insonga xos qaysi belgi asos bo‘lganligini aniqlash muhim. Buni biz bazaviy metafora turi – antropomorf metafora (insonga xos belgilarning, somatik kodlarning predmetlarga ko‘chirilishi)ni tasniflash orqali tushuntiramiz[7,1035]. *Parda* so’zi xonani quyosh nuri, shamol hokazolardan to’sish yoki bezak uchun deraza yoki eshik shu kabilarga tutiladigan gazlama mato[81] ma’nosida qo’llaniladi. Bu misrada *parda* so’zi *g’aflat pardasi* shaklida metafora vazifasida qo’llanilgan va tasavvufiy ma’noda haqiqatni ko’rishga to’sqinlik qiluvchi ruhiy to’siq ma’nosini ifodalagan. *“G‘aflat pardasi”* birligi o‘zbek tilida kognitiv-metaforik vosita bo‘lib, unda bilmaslik va ruhiy loqaydlik “parda” obrazi orqali ifodalanadi. Ushbu metafora insonning haqiqatni idrok etishiga to‘sqinlik qiluvchi ichki holatni anglatadi.

Kishilikdin sekrimoqlar bila qochib, yaxshilig‘din masxaralig‘lar bila malomat eshigin yuzlariga ochib.

Bu misrada qo’llanilgan *malomat eshigi* birikmasi metafora vazifasida kelgan. Eshik so’zi o’z ma’nosida uy, xona bino yoki hovlining kiraverishida o’rnatiladigan ochib yopib turiladigan qurilish buyumi[7,843]. *Eshik* so’zi metafora vazifasida qo’llanilganda tanqid va o‘zini anglash jarayoniga kirish ma’nolarida qo’llaniladi. “Ma’lomat eshigi” metaforasi o‘zbek badiiy nutqida ruhiy-axloqiy jarayonni makon modeli orqali ifodalovchi kognitiv birlik bo‘lib, unda o‘zini tanqid qilish va ichki poklanish bosqichiga kirish “eshik” obrazi orqali konseptuallashtiriladi.

Yel agarchi lola tojin uchurg‘ay, ammo qiyo kamarig‘a neta olg‘ay. O‘t agarchi tog‘ etagin kuydurgan, ammo quyosh axgarig‘a nechuk yeta olg‘ay?

Asarda qo’llanilgan metaforalardan yana biri *lola toji* va *tog’ etagi* birikmalaridir.

Etak so’zi o’z ma’nosida kiyimning pastki, osilib tushib turadigan keng qismi sifatida qo’llaniladi. “Tog’ etagi” metafora ma’nosida qo’llanilganda esa o‘zbek badiiy nutqida yuksaklikka eltuvchi jarayonning boshlang‘ich bosqichini ifodalovchi kognitiv birlik bo‘lib, unda murakkab maqsad “tog‘”, uning boshlanish nuqtasi esa “etag” obrazi orqali konseptuallashtiriladi. Bu metaforik ma’no hozirgi kunda ham qo’llaniladi. Masalan: Toshkent shahri G'arbiy Tyanshan tizma tog‘ining etaklaridagi tekislikda joylashgan. “Fan va turmush”[7, 1035].

“Lola toji” so’zidagi toj so’zi o’z ma’nosida “Shohlaming hukmronlik ramzi bo‘lgan, qimmatbaho toshlar qadalgan ziynatli bosh kiyimi” ma’nosida qo’llaniladi. Ko’chma ma’noda ya’ni metafora vazifasida qo’llanilganda o‘zbek badiiy nutqida go‘zallik va nafislikning eng yuksak darajasini ifodalovchi kognitiv birlik bo‘lib, unda estetik qadriyat “lola” obrazi orqali, uning cho‘qqisi esa “toj” vositasida konseptuallashtiriladi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, metafora tilning eng muhim va faol vositalaridan biri hisoblanadi. U nafaqat nutqni bezaydi, balki insonning fikrlash tarzini, dunyoni qabul qilishini ham aks ettiradi. Metaforalar orqali oddiy tushunchalar yanada jonli, ta’sirchan va obrazli shaklda ifodalanadi. Ayniqsa, badiiy matnlarda metafora muallifning ichki dunyosi, his-tuyg‘ulari va estetik qarashlarini ochib berishda muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek, metaforalar til birliklarining uslubiy imkoniyatlarini kengaytirib, so‘zlarga qo‘shimcha ma’no va bo‘yoq beradi. Ular orqali insonning ruhiy holati, axloqiy qarashlari hamda milliy-madaniy xususiyatlari ham ifodalanadi. Shu jihatdan qaraganda, metaforani o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyat va tafakkur bilan bog‘liq muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri ekanligi ayon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Махмараимова Ш.Т. Оламнинг лисоний тасвиритда теоформик метафоранинг когнитив аспекти: Филол. фан. бўйича фалсафа док-ри. дисс…Қарши, 2018.–В.16

2. Махмараимова Ш. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи: Филол. фан. док-ри дисс... – Самарқанд, 2020. – Б. 150-193.

3. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. – Toshkent, 1990. – B. 59-69.

4. Umurqulov B. Badiiy nasr jozibasi. – Toshkent, 2021. – B. 229-242.

5. Федин К. Писатель, искусство, время. – М., 1996. – С. 380.

6. Соссюр Ф.де. Курс общей лингвистике. – Труды по общему языкознанию. – М., Прогресс, 1977. – С. 157

7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. II jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – B. 1015

8. Насруллаева Г. Антропоцентрик метафоранинг лисоний, когнитив ва лингвомаданий аспекти: Филол. фан. бўйича фалс. до-ри дисс. – Қарши, 2019

9. Қобулжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини. Филол. Фан. номз…дис…– Тошкент,– 2000.Б.10

10.Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие.– М.: Academia,2001.–208с

JINOYAT PROTSESSINING TERGOVGA QADAR TEKSHIRUV, SURISHTIRUV VA DASTLABKI TERGOV BOSQICHLARIDA ADVOKATNING VAKOLATLARI VA UNING ISHTIROKINI TA'MINLASH MASALALARI

Kurbonov Eldor Yashin O'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti "Advokatlik faoliyati" yo'nalishi magistranti

qurbonoveldor41@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur tezis jinoyat protsessining sudga qadar bosqichlarida — tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov jarayonlarida advokatning vakolatlari hamda ishtirokini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan. Unda advokatning shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilishdagi o'rni, ayniqsa dastlabki bosqichlarda muhim huquqiy kafolat sifatida tahlil qilinadi. Tergovga qadar tekshiruvda protsessual maqom noaniqligi va himoya huquqining yetarli ta'minlanmasligi muammolari yoritiladi. Shuningdek, ushlash jarayonida himoya huquqining boshlanishi va advokatning ishtirok etish vaqti asoslab beriladi. Surishtiruv va dastlabki tergovda advokatning funksiyalari, dalillarni baholashdagi roli va protsessual tenglikni ta'minlashdagi ahamiyati ochib beriladi. Yakunda advokat faoliyatini samarali tashkil etish uchun qonunchilikni takomillashtirish zarurligi ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *jinoyat protsessi, advokat, himoya huquqi, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov, protsessual maqom, yuridik yordam, dalillar, ushlash instituti, inson huquqlari, protsessual kafolatlar, advokat vakolatlari, adolatli sudlov.*

Abstract: *This thesis examines the powers of a defense lawyer and the issues of ensuring their participation at the pre-trial stages of criminal proceedings, including pre-investigation inquiry, inquiry, and preliminary investigation. It analyzes the lawyer's role in protecting individual rights and freedoms, particularly emphasizing their importance as a legal safeguard at early stages. The study highlights problems such as the ambiguity of procedural status and insufficient guarantees of the right to defense during the pre-investigation stage. It also substantiates the beginning of the right to defense in the detention process and the timing of a lawyer's involvement. Furthermore, the functions of the lawyer, their role in evaluating*

evidence, and their importance in ensuring procedural equality are discussed. The thesis concludes with the need to improve legislation to enhance the effectiveness of legal defense.

Keywords: *criminal procedure, defense lawyer, right to defense, pre-investigation inquiry, inquiry, preliminary investigation, procedural status, legal assistance, evidence, detention, human rights, procedural safeguards, lawyer's powers, fair trial.*

KIRISH

Jinoyat protsessi doirasida shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning konstitutsiyaviy majburiyatlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur majburiyat ayniqsa sudga qadar bo‘lgan bosqichlarda – tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov jarayonlarida yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu bosqichlarda shaxsning protsessual maqomi shakllanadi, dastlabki dalillar to‘planadi hamda keyingi sud muhokamasining yo‘nalishi belgilanadi. Shu sababli jinoyat protsessida advokatning ishtiroki nafaqat huquqiy kafolat, balki shaxsning adolatli sudlovga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqini ta'minlovchi asosiy institutlardan biri hisoblanadi. Advokatning erta bosqichdan ishtirok etishi esa protsessual xatolarning oldini olish, shaxs huquqlarini himoya qilish va dalillarni xolis baholash imkonini beradi.

So‘nggi yillarda amaliy statistik ma'lumotlar advokat ishtirokiga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotganini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergov bosqichlarida himoyachilar ishtirok etgan ishlar sonining sezilarli darajada oshishi fuqarolarning huquqiy himoyaga bo‘lgan talabining kuchayganini anglatadi. Bu esa jinoyat protsessida inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan institutsional yondashuvning mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi.

ASOSIY QISM

Tergovga qadar tekshiruv bosqichining huquqiy tabiati

Tergovga qadar tekshiruv bosqichi jinoyat haqidagi ariza yoki xabar kelib tushgan paytdan boshlanadi. Ushbu bosqichning asosiy maqsadi – jinoyat alomatlari mavjudligini yoki mavjud emasligini aniqlashdir. Bu jarayonda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan turli tekshiruv harakatlari

amalga oshiriladi va dastlabki ma’lumotlar yig‘iladi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mazkur bosqichda ayrim shaxslar rasmiy gumon qilinuvchi maqomiga ega bo‘lmagan holda tekshiruv harakatlariga jalb etiladi. Bu esa ularning huquqiy maqomini noaniq holatga olib keladi. Natijada shaxsning himoya huquqi to‘liq ta’minlanmasligi ehtimoli yuzaga keladi. Aynan shu nuqtai nazardan, tergovga qadar tekshiruv bosqichida advokat ishtirokining huquqiy asoslarini aniq belgilash muhim ahamiyatga ega. Chunki shaxsga nisbatan gumon paydo bo‘lishi bilanoq uning huquqiy himoyasi ta’minlanishi zarur bo‘ladi.

Shaxsni ushlash va himoya huquqining boshlanishi

Shaxsni ushlash instituti jinoyat protsessida eng muhim protsessual harakatlardan biri hisoblanadi. Ushlash jarayoni faktik ushlash va protsessual rasmiylashtirish bosqichlariga bo‘linadi. Faktik ushlash shaxsning erkin harakatlanishi cheklangan paytdan boshlansa, protsessual bosqich ushbu holatning hujjatlashtirilishi bilan bog‘liq.Ilmiy adabiyotlarda ham ushbu jarayon murakkab va bir necha bosqichli ekanligi ta’kidlanadi. Shu sababli advokatning qaysi paytdan boshlab ishga kirishishi masalasi alohida dolzarblik kasb etadi. Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, himoyachi shaxs ushlangan paytdan boshlab ishtirok etishi mumkin, biroq amaliyotda bu norma har doim ham to‘liq ta’minlanmaydi.Xalqaro tajribada esa gumon qilinuvchi shaxsga uning huquqlari darhol tushuntirilishi, jumladan advokatdan foydalanish huquqi kafolatlanishi asosiy standart sifatida qaraladi. Bu esa shaxsning protsessual himoyasini dastlabki bosqichdayoq ta’minlashga xizmat qiladi.

Surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida advokatning roli

Surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlari jinoyat ishining eng muhim bosqichlari hisoblanadi. Chunki aynan shu bosqichlarda asosiy dalillar to‘planadi, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining protsessual maqomi belgilanadi hamda ishning keyingi yo‘nalishi aniqlanadi.Advokat ushbu bosqichda bir qator muhim funksiyalarni bajaradi. U birinchi navbatda gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga uning huquqlarini tushuntiradi, himoya

strategiyasini ishlab chiqadi hamda tergov harakatlarida ishtirok etadi. Bundan tashqari, u dalillarning qonuniyligi va ishonchliligini tahlil qiladi.Himoyachi ishtiroki tergov organlari tomonidan to‘plangan ma’lumotlarning xolis baholanishiga xizmat qiladi. Bu esa protsessda tenglik va tortishuv tamoyilining amalda ta’minlanishini kuchaytiradi.

Yuridik yordam tushunchasining ilmiy talqini

Ilmiy adabiyotlarda yuridik yordam tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud. Birinchi yondashuvga ko‘ra, yuridik yordam shaxs huquqlarini himoya qilishga qaratilgan faol harakatlar majmuasidir. Ikkinchi yondashuv esa uni advokatlik faoliyatining barcha yo‘nalishlarini qamrab oluvchi keng tushuncha sifatida izohlaydi. Uchinchi yondashuvga ko‘ra esa bu professional bilim va ko‘nikmalarga asoslangan amaliy faoliyatdir.Ushbu yondashuvlarni umumlashtirganda, yuridik yordam shaxsning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan kasbiy faoliyat ekanligi kelib chiqadi.

Advokat vakolatlarining amaliy ahamiyati

Advokat jinoyat protsessida faqat himoya qiluvchi emas, balki huquqiy kafolatlarni ta’minlovchi faol ishtirokchi sifatida namoyon bo‘ladi. U dalillarni yig‘ish, hujjatlarni tahlil qilish, tergov harakatlarida ishtirok etish va protsessual buzilishlarni aniqlash kabi vazifalarni bajaradi.Biroq amaliyotda advokatning ishga kirishishida ayrim tashkiliy va protsessual to‘siqlar mavjud. Masalan, hujjatlarni rasmiylashtirishdagi kechikishlar yoki organlar o‘rtasidagi protsessual nomuvofiqliklar himoya samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli ushbu jarayonlarni soddalashtirish zarur.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, jinoyat protsessining tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida advokat ishtiroki shaxs huquqlarini ta’minlashning eng muhim kafolatlaridan biridir. Ushbu bosqichlarda himoyachining erta ishtiroki adolatli sudlovni ta’minlash, protsessual xatolarni kamaytirish va dalillarni xolis baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, amaldagi qonunchilikda ayrim bo‘shliqlar va tashkiliy muammolar mavjud

bo‘lib, ular advokatning samarali faoliyatiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli advokat vakolatlarini aniq belgilash, uning ishga kirishish tartibini soddalashtirish va protsessual huquqlarini kengaytirish zarur. Mazkur islohotlar jinoyat protsessida inson huquqlarini yanada mustahkamlash, adolat tamoyilini ta’minlash hamda tortishuv asosidagi sudlov tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O’zbekiston Respublika “Advokatura to’g’risida”gi Qonuni. – Toshkent, 1996.

2. O’zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – Toshkent, 1994.

3. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексига шарҳлар. Умумий қисм (илмий-амалий шарҳ)/ Масъул муҳаррир: профессор Б.Х.Пўлатов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2014. – 592 б.

4. Jinoyat-protsessual huquqi. Darslik. Umumiy qims. Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashriyoti, 2017. -B. 15.

5. Ишниязов К. Организационно-правовые основы участия защитника в стадии дознания и предварительного следствия. Дис. ... канд. юрид. наук. –Ташкент, 2006. -С.59

6. Pulatov Y.S., Tulaganova G.Z. Tergov harakatlarida himoyachi ishtirokining huquqiy va tashkiliy taktik muammolari. O’quv qo’llanma. – Toshkent, 2018. -B.8.

7. Bazarova D.B. Jinoyat protsessida advokat ishtiroki” fanidan o’quv qo’llanma T.: “Ьеззоп ргезз” MCHJ nashriyoti. 2022. 128 b.

SHAHARSOZLIK TO‘G‘RISIDAGI QONUNCHILIKNI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Murtozayev Behruz Kamol o‘g‘li

Master’s student at Tashkent State University of Law

behruzmurtozayev5@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur tezis shaharsozlik to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik institutini takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shaharsozlik sohasidagi huquqbuzarliklarning asosiy sabablari, mavjud huquqiy muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari yoritilgan. Tadqiqot natijalari shaharsozlik qonunchiligini kuchaytirish va barqaror shaharsozlik rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *shaharsozlik, shaharsozlik qonunchiligi, javobgarlik instituti, noqonuniy qurilish, davlat nazorati, raqamlashtirish, korrupsiya, barqaror rivojlanish*

Аннотация*. В данной тезис научно анализируются вопросы совершенствования института ответственности за нарушение законодательства в сфере градостроительства. Рассматриваются основные причины правонарушений в области градостроительства, существующие правовые проблемы и пути их устранения. Результаты исследования направлены на укрепление градостроительной дисциплины и обеспечение устойчивого городского развития.*

Ключевые слова: *градостроительство, градостроительное законодательство, институт ответственности, незаконное строительство, государственный контроль, цифровизация, коррупция, устойчивое развитие*

Abstract. *This thesis provides a scientific analysis of the issues related to improving the liability mechanism for violations of urban planning legislation. It examines the main causes of offenses in the field of urban development, existing legal problems, and ways to address them. The results of the research aim to strengthen urban planning discipline and ensure sustainable urban development.*

Keywords: *urban planning, urban planning legislation, liability institution, illegal construction, state control, digitalization, corruption, sustainable development*

KIRISH

Shaharsozlik — bu hududlarni kompleks rejalashtirish, ulardan oqilona foydalanish hamda aholi uchun xavfsiz, ekologik jihatdan barqaror va qulay yashash muhitini yaratishga qaratilgan huquqiy va tashkiliy jarayonlar tizimidir. Shaharsozlik sohasida huquqiy tartibga solish tizimini takomillashtirish masalasi bugungi kunda alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, aholi sonining shahar hududlarida ortib borishi hamda qurilish hajmlarining keskin kengayishi shaharsozlik faoliyati ustidan samarali nazoratni ta’minlash zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Ayniqsa, hududlarni kompleks rivojlantirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va qurilish jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish sharoitida mazkur sohada qonunchilikning izchil va samarali amal qilishi muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, mavjud islohotlarga qaramay, amaliyotda ruxsatsiz qurilishlar, bosh rejalarga zid obyektlar qurilishi, loyiha hujjatlarisiz ish olib borish hamda sanitariya, ekologiya va yong‘in xavfsizligi talablariga rioya etilmaslik holatlari saqlanib qolmoqda. So‘nggi yig‘ilishlarda qayd etilganidek, qurilish obyektlarida aniqlanayotgan ko‘plab kamchilik va qoidabuzarliklar mazkur sohada nazorat tizimi yetarli darajada samarali emasligini ko‘rsatadi. Bu esa, o‘z navbatida, shaharsozlik to‘g‘risidagi qonunchilik talablarini buzganlik uchun javobgarlik choralarini qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, qurilish sohasida nazorat mexanizmlarining yetarlicha shaffof emasligi hamda ayrim hollarda korrupsion omillarning mavjudligi javobgarlik institutining amaldagi holatini chuqur ilmiy tahlil qilishni talab etadi. Javobgarlik choralarining yetarli darajada muqarrar emasligi yoki ularning samarali qo‘llanilmasligi huquqbuzarliklarning takrorlanishiga sabab bo‘lmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, shaharsozlik to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikni takomillashtirish masalasi dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu yo‘nalishda samarali huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish, javobgarlik choralarini kuchaytirish va ularning

amaliy ijrosini ta’minlash orqali qurilish sohasida qonun ustuvorligini mustahkamlash, sifat va xavfsizlikni oshirish hamda korrupsion holatlarning oldini olish mumkin.

Amaldagi huquqiy tizim tahlili. Amaldagi huquqiy tizim tahlili shuni ko‘rsatadiki, shaharsozlik sohasida javobgarlik institutini takomillashtirish masalasi kompleks yondashuvni talab etuvchi dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi. Mazkur sohada ma’muriy va jinoiy javobgarlik choralarining mavjudligi huquqiy tartibga solishning asosiy elementlari sifatida namoyon bo‘lsada, ularning huquqbuzarliklarning oldini olishdagi real samaradorligi yetarli darajada emasligi kuzatilmoqda. Bu holat, eng avvalo, javobgarlik institutining preventiv va jazolovchi funksiyalarining to‘liq ishlamayotganligi bilan izohlanadi.

Birinchidan, ma’muriy javobgarlik choralarining, xususan jarimalarning iqtisodiy samaradorligi pastligi muhim tizimli kamchiliklardan biridir. Huquqni qo‘llash amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, ayrim hollarda noqonuniy qurilish faoliyatidan olinadigan iqtisodiy manfaat qo‘llanilayotgan jarimalardan sezilarli darajada yuqori bo‘lib, bu esa huquqbuzarlikni sodir etishni iqtisodiy jihatdan “maqsadga muvofiq” holatga aylantirmoqda. Natijada javobgarlik choralarining muqarrarligi va ogohlantiruvchi ta’siri pasayib, ular kutilgan preventiv natijani bermayapti. Shu nuqtai nazardan, jarimalarni differensiallash, ularni huquqbuzarlikning og‘irligi, takroriyligi va yetkazilgan zarar miqdori bilan uzviy bog‘lash zarurati yuzaga kelmoqda.

Ikkinchidan, shaharsozlik sohasida davlat nazoratining institutsional va texnologik asoslari yetarli darajada rivojlanmagan. Xususan, nazorat jarayonlarining to‘liq raqamlashtirilmaganligi, yagona axborot tizimlarining yetishmasligi hamda real vaqt rejimida monitoring olib borish imkoniyatlarining cheklanganligi huquqbuzarliklarni erta bosqichda aniqlash va ularning oldini olishga to‘sqinlik qilmoqda. Natijada ko‘plab noqonuniy qurilishlar faqat yakuniy bosqichlarda aniqlanib, ularni bartaraf etish katta iqtisodiy va ijtimoiy

xarajatlarga olib kelmoqda. Bu esa raqamli nazorat, geoinformatsion tizimlar (GIS) va ochiq ma’lumotlar platformalarini keng joriy etish zaruratini asoslaydi.

Uchinchidan, vakolatlarning markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlari o‘rtasida aniq chegaralanmaganligi hamda funksional takrorlanish holatlarining mavjudligi huquqni qo‘llash amaliyotida nomuvofiqliklarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa ayrim hududlarda nazoratning sustlashuvi, boshqa hududlarda esa ortiqcha ma’muriy yuklama va byurokratik to‘siqlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois, institutsional islohotlar doirasida vakolatlarni aniq delimitatsiya qilish, mas’uliyatni individuallashtirish va hisobdorlik mexanizmlarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

To‘rtinchidan, sud-huquqiy himoya mexanizmlarining murakkabligi va uzoq davom etuvchi protsessual tartib-taomillar fuqarolar hamda tadbirkorlik subyektlarining buzilgan huquqlarini tezkor va samarali tiklash imkoniyatlarini cheklamoqda. Bu esa huquqiy ishonchning pasayishiga, ayrim hollarda esa nizolarni norasmiy yo‘llar bilan hal qilishga moyillikni oshishiga olib keladi. Shu munosabat bilan, sud tizimida protsessual soddalashtirish, raqamli sudlov elementlarini joriy etish va nizolarni muqobil hal etish mexanizmlarini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi.

Bundan tashqari, shaharsozlik sohasida korrupsion xavf omillarining mavjudligi ham javobgarlik institutining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Nazorat organlari faoliyatida shaffoflikning yetarli emasligi, ayrim hollarda manfaatlar to‘qnashuvi va hisobdorlik mexanizmlarining sustligi huquqbuzarliklarning yashirin shakllarini yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda korrupsiyaga qarshi institutsional mexanizmlarni takomillashtirish muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida yuqorida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, shaharsozlik to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik tizimi

hozirgi bosqichda yetarli darajada samarali ishlamayapti hamda uni kompleks ravishda takomillashtirish zarurati mavjud. Urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi va qurilish hajmlarining ortib borishi sharoitida mazkur sohada huquqbuzarliklarning oldini olish, qurilish sifati va xavfsizligini ta’minlash hamda qonun ustuvorligini mustahkamlash ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. O‘rganishlar natijasida aniqlanishicha, amaldagi javobgarlik choralarining, xususan ma’muriy jarimalarning ta’sirchan emasligi, nazorat tizimlarining raqamlashtirilmaganligi, institutsional mexanizmlarning nomukammalligi hamda sud-huquqiy himoya vositalarining murakkabligi ushbu sohada huquqbuzarliklarning saqlanib qolishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa javobgarlik institutining preventiv funksiyasi to‘liq ishlamayotganligini ko‘rsatadi. Shu munosabat bilan, shaharsozlik sohasida javobgarlik tizimini takomillashtirish quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshirilishi lozim: javobgarlik choralarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, nazorat va monitoring jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish, vakolatli organlar o‘rtasida funksiyalarni aniq taqsimlash, sud-huquqiy himoya mexanizmlarini soddalashtirish hamda korrupsiyaga qarshi samarali institutsional choralarni kuchaytirish. Umuman olganda, shaharsozlik qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlikni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish orqali mazkur sohada huquqbuzarliklarning oldini olish, shaffoflikni ta’minlash va barqaror shahar rivojlanishiga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2026-yil 14-apreldagi uy-joy qurilishi va urbanizatsiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud muammolar va kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishi. (https://yuz.uz/uz/news/news-zngCGC)

2. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori N. Yo‘ldoshevning 2026-yil 22-aprel kungi “Davlat dasturlari ijro etilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish

bo‘yicha” respublika shtabining yig‘ilishi. (https://www.prokuratura.uz/newsview?id=18864c)

3. O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi. (https://lex.uz/uz/docs/-5307951)

4. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. (https://lex.uz/docs/-97664)

5. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. (https://lex.uz/docs/-111453)

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK METODLARDAN FOYDALANISH

Eshonkulova Hilola Rajab qizi

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti

hilolaeshonkulova909@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda ta’lim jarayonining samaradorligi o‘qituvchining pedagogik mahorati, metodlarni to‘g‘ri tanlash hamda ularni amaliyotga joriy etish bilan bog‘liqligi asoslab beriladi. Xususan, “O‘yla–juft bo‘lib ishla–baham ko‘r”, “Mikrofon” va “Kognitiv xarita” metodlarining o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni yoritiladi. Mazkur metodlar o‘qish jarayonini faollashtiradi, o‘quvchilarning bilish faoliyatini oshiradi hamda o‘qish savodxonligini rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi va ta’lim jarayonining sifatini oshirishga yordam berib o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantiradi.*

Kalit so‘zlar: *o‘qish savodxonligi, zamonaviy pedagogik metodlar, o‘yla–juftlash–baham ko‘r, mikrofon metodi, kognitiv xarita, boshlang‘ich ta’lim.*

Abstract: *this article analyzes the use of modern pedagogical methods in developing reading literacy of primary school students. The study highlights that the effectiveness of the educational process depends on the teacher’s professional competence, appropriate selection of methods, and their implementation in practice. In particular, the role of Think–Pair–Share, Microphone, and cognitive mapping methods in developing students’ independent thinking, analytical skills, and ability to draw conclusions is discussed. These methods activate the learning process, enhance students’ cognitive engagement, and serve as effective tools for improving reading literacy. Consequently, they contribute to improving the quality of education and foster independent and critical thinking skills.*

Keywords: *reading literacy, modern pedagogical methods, think pair share, microphone method, cognitive mapping, primary education*

KIRISH

Jamiyat hayotining jadal rivojlanishi, ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar va axborot oqimining tezlashishi o‘qituvchidan doimiy ravishda pedagogik mahoratini oshirishni, dars jarayonida ilg‘or metod va texnologiyalardan samarali foydalanishni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida boshlang‘ich ta’limga quyidagicha ta’rif berilgan: “Boshlang‘ich ta’lim – ta’lim oluvchilarda umumiy o‘rta ta’limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan ta’lim turi” *(O‘RQ-637-son, 2020).* Bu esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirish, ularni matn bilan ishlashga, tahlil qilishga va xulosa chiqarishga o‘rgatish zaruratini yanada kuchaytiradi.

ASOSIY QISM

Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshishida esa o‘qituvchi mahoratiga ko‘p narsa bog‘liq. Shu sababli, uning pedagogik tizimda tutgan o‘rni haqida batafsil to‘xtalish zarurati tug‘iladi. Bugungi zamon o‘qituvchisi quyidagi uch muhim talabga javob berishi kerak *(Omonov, Xattabov, 2016)*:

1. O‘qituvchi davlat buyurtmasiga mos keladigan ta’lim-tarbiya maqsadini aniq va ravshan belgilashi kerakki, natijada, ma’lum vaqt ichida unga erishishni ta’minlaydigan didaktik jarayonni tuzish va joriy etish to‘g‘risida xulosa qilish mumkin bo‘lsin.

2. O‘qituvchi pedagogik tizimda belgilangan maqsadga to‘g‘ri keladigan o‘quv-tarbiyaviy jarayon mazmunini o‘quv dasturi bo‘yicha chuqur egallashi, muntazam ravishda o‘z pedagogik mahoratini ilmiy-texnikaviy taraqqiyot talablariga mos holda mustaqil ravishda kengaytirib borishi zarur.

3. O‘qituvchi pedagogik tizimning tarkibiy elementi sifatida didaktik jarayonni amalga oshirish bilan tanish bo‘lishi kerak. Bunda ikki muhim talab alohida e’tiborga loyiqdir:

- *Birinchidan,* jadallashtirish – didaktik masalalarni ma’lum vaqt doirasida birmuncha tez va yuqori saviyada hal eta oladigan didaktik jarayonni

qo‘llashni talab etadi. Ta’lim va tarbiyaga bu talabni aniqlab beruvchi omil – o‘quvchilarning ma’lum faoliyatni o‘zlashtirish tezligi hisoblanadi.

- *Ikkinchidan*, tabiatan monandlik – o‘quv-tarbiyaviy jarayonni shunday tashkil etish lozimki, bunda mumkin qadar o‘quvchilarning keng doirada tajriba egallashiga imkon tug‘diradigan va ularning aqliy malakasini rivojlantira oladigan mexanizm vujudga kelsin. Bu talabni aniqlab beruvchi omillar: o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan xohishi, o‘quv mehnatiga munosabati va sog‘lom psixo-fiziologik faoliyati kabilardir.

O‘qituvchi didaktik jarayonni amalga oshirishda o‘qitishning samarali shakllaridan foydalana olishi kerak. O‘qitishning tashkiliy shakllari to‘g‘ri tanlanishi pedagogik tizim elementlarining ma’lum qonuniyat asosida bir-birlari bilan bog‘liq ekanligini bildiradi. Bu bog‘lanishlardan foydalanish va eng maqbul bo‘lgan tashkiliy shakllarni topish – ta’limda rasmiyatchilikni yo‘qotishga yo‘l ochadi.

Dialogik o‘qish, savol-javob va munozara metodlari o‘quvchi larning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi. O‘quvchilar matn asosida savollar tuzish, o‘z fikrini izohlash va boshqalarning fikriga munosabat bildirishda faol ishtirok etdilar. Dars jarayonida o‘quvchilarning og‘zaki nutqi ravonlashgani, gaplarni mantiqiy izchillikda bayon etish darslarni yanada samaradorligini ta’minlaydi *(Farsaxonova, 2026)*. Eng jiddiy didaktik muammolardan biri ta’lim metodlarini tanlash bilan bog‘liq. Didaktikaga oid adabiyotlarda o‘qitish metodlarining quyidagi bog‘liqliklari qayd qilinadi *(Azizxo‘jayeva, 2006):*

✓ birinchidan, o‘quv mashg‘ulotlarining didaktik maqsadlari va vazifalariga bog‘liq;

✓ ikkinchidan, bayon qilinadigan materialning xarakteriga bog‘liq;

✓ uchinchidan, ta’lim oluvchilarning bilimi va rivojlanish darajasiga bog‘liq;

✓ to‘rtinchidan, o‘quv jarayonida o‘zganilayotgan fan asoslarining muayyan davrdagi metodlariga bog‘liq;

✓ beshinchidan, oliy o‘quv yurti yoki kafedraning sharoitlariga bog‘liq;

✓ oltinchidan, o‘quv jarayonining moddiy-texnik ta’minoti bilan bog‘liq;

✓ yettinchidan, o‘qituvchining pedagogik mahorati, uning tayyorgarligi va o‘quv jarayonini tashkil etish darajasi hamda o‘qituvchining hozirgi zamon metodlari bo‘yicha bilimlariga bog‘liq.

Shunday qilib, o‘quv jarayoni o‘qitishning shakl va metodlarida tashkil etiladigan ko‘p qirrali yaxlit tizim doirasida amalga oshiriladi. Bunda har bir shakl o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni bajaradi, lekin shakl va metodlar to‘plami yagona didaktik majmuani (kompleksni) hosil qiladi.

O‘qitish metodlari tasnifi – bu muayyan belgilar asosida tartibga solingan tizimdir. Didaktik tadqiqotlar o‘qitishni dialektik jarayon sifatida o‘rganadi. Bunga ko‘ra o‘qitish metodlari tizimi dinamikada, harakatda, ta’lim mazmunida yuz berayotgan barcha o‘zgarishlarni hisobga olgan holda qaraladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirishda badiiy matnlar asosida interaktiv metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida “Sholg‘om” va “Bo‘g‘irsoq’ ertagi misolida uchta samarali metodning qo‘llanilishi keltiriladi.

“O‘yla-juft bo‘lib ishla-baham ko‘r” metodining maqsadi: mustaqil fikrlashni rivojlantirish, fikrni og‘zaki ifodalash va matndan asosiy g‘oyani aniqlash hisoblanadi.

Metodning darsda qo‘llanilishi: o‘qituvchi savol beradi, o‘quvchilar avval mustaqil, so‘ng juftlikda va oxirida jamoa bilan muhokama qiladi.

Savol: *Nima sababdan sholg‘omni bir kishi emas, balki barcha birgalikda torta oldi?*

Bosqich	Amal	O‘quvchi faoliyati	Natija
O‘yla	Mustaqil fikrlash	Har bir o‘quvchi javob yozadi	Individual fikr
Juft bo‘lib ishla	Fikr almashish	Juftlikda muhokama qiladi	Tahlil
Baham ko‘r	Taqdimot	Sinfga aytadi	Umumiy xulosa

“Mikrofon” metodi. Ushbu metod o‘quvchilarning tezkor fikrlash va o‘z nuqtayi nazarini qisqa, aniq ifodalash ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Metodning darsda qo‘llanilishi:

✓ O‘qituvchi savol yoki muammoni beradi

✓ O‘quvchilar navbatma-navbat “mikrofondan” (qo‘lidagi predmet) foydalanib, o‘z fikrini 1-2 daqiqada aytadi

✓ Bir fikr takrorlanmaydi, har bir o‘quvchi yangi g‘oya kiritishi kerak

Ertak misoli (“Bo‘g‘irsoq”): s*avol: “Bo‘g‘irsoqning eng katta xatosi nima edi?”*. O‘quvchilar: “Tulkiga ishondi”, “O‘z kuchini oshirib yubordi”, “Kimdan qochish kerakligini bilmadi” kabi javoblar aytadi.

“Kognitiv xarita” metodi. Ushbu metod sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash, voqealar ketma-ketligini tushunish, matnni tizimli fikrlash orqali tahlil qilishga yordam beradi..

Metodning darsda qo‘llanilishi:

✓ Asosiy voqea markazga joylashtiriladi

✓ Qahramonlar va harakatlar ketma-ketligi o‘qlar bilan bog‘lanadi

✓ “Sabab → voqea → oqibat” sxemasi tuziladi

Masalan, O‘qituvchi tomonidan topshiriq beriladi: “Sholg‘om” ertagi asosida sabab-oqibat zanjirini tuzing va har bir bosqichni izohlang.

O‘quvchi: voqealarni ketma-ket yozadi, ular orasidagi bog‘lanishni tushuntiradi, xulosa chiqaradi

“Sholg‘om” ertagi bo‘yicha kognitiv xarita
